

AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

IZOHLI LUG'ATI

Toshkent-2004

AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI IZOHЛИ LUG'ATI

Copyright @ 2004 UNDP Digital Development Initiative Programme

Ushbu Lug'at Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va O'zbekiston Respublikasi Hukumati orasidagi qo'shma "Raqamli Rivojlanish Tashabbusi" Dasturi tomonidan Kompyuterlashtirishni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Muvofiglashtiruvchi kengash hamda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan hamkorlikda ishlab chiqarilgan.

Lug'at O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada ommaviylashishi uchun xizmat qilishga mo'ljallangan. Uning Internetdagи va kompakt disk ko'rinishidagi turlari ham ishlab chiqariladi va keng ommaga taqdim etiladi.

Mualliflar jamoasi

Aripov A. N.
Mirzaxidov X. M.
Shermatov Sh X.
Saidxodjayev S. R.
Hasanov P. F.
Amirov D. M.
Bakirov O. A.

Loyiha koordinatori

Saidxodjayev S. R.

Ekspertlar guruhi

Hasanov P. F.
Amirov D. M.
Bakirov O. A.

Tarjimonlar

Rahimjanov Z. Ya.
Atadjanov A. Yu.

Murojaat uchun:

E-mail: glossary@undp.ddi.uz

Web: www.glossary.uz

"Raqamli Rivojlanish Tashabbusi" Dasturi

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 700084,

Amir Temur ko'chasi 108, 1-qavat.

Tel: (+998 71) 134-10-37/51/52

Faks: (+998 71) 134-10-63

E-mail: info@undp.ddi.uz

Web: www.ddi.uz

Ushbu loyihami amalga oshirishda yaqindan yordam bergan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi mas'ul xodimlariga, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tizimidagi mutaxassislarga va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Axborot Texnologiyalari xizmati ko'ngillilariga chuqur minnatdorchilik bildiriladi.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI	5
LUG'AT TUZILISHI	6
O'ZBEK ALIFBOSI	8
ASOSIY QISM (atama, tushuncha va ta'riflar)	9
ILOVALAR	352
1. Inglizcha-O'zbekcha-Ruscha AKT lug'ati	353
2. Ruscha-O'zbekcha-Inglizcha AKT lug'ati	403
3. AKT rivojining asosiy tarixiy sanalari	455
4. Domenlar turlari	461
5. Standartlarni belgilovchi tashkilotlar va maxsus telekommunikatsiya guruhlari	465
6. Jahon va MDH AKT kompaniyalari	470
7. Milliy Internet xismatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar	477
8. JAHON va MDH AKT nashrlari	481
9. Milliy AKT nashrlari	486
10. Internetda izlash tizimlari	487
11. AKT sohasida O'zbekiston web manbalari	489
12. His – tuyg'u alomatlari	493
13. Pochta va chat shevasi	494

SO'ZBOSHI

Hurmatli kitobxon,

Mamlakatimizda axborotlashtirish sohasida mustaqillik yillari davrida amalga oshirilgan tadbirlar o'z samarasini bermoqda. O'zbekiston Jahon axborot hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi. Zamонавиу axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanuvchilar soni tobora oshib bormoqda.

Jamiyat va davlat boshqaruvida, xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim, ilm-fan sohalarida, ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida, bozor iqtisodiyotida, xalqaro aloqalarda va umuman, jamiyatimizning barcha jabhalarida kompyuter ilmi va amaliyoti keng quloch yoydi.

O'zbek tili Davlat tili maqomida jamiyatimiz hayotida keng qo'llanilmoqda. Kundan kunga rivojlanayotgan zamонавиу axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid kengayib borayotgan so'z boyligining o'zbek tilidagi izohiga katta ehtiyoj mavjuddir. Ushbu munosabat bilan o'zbek tilida lotin alifbosida AKT sohasidagi tushunchalarni ta'riflab beruvchi izohli lug'at tayyorlashga qaror qilindi.

Qo'lingizdagagi "AKT izohli lug'ati" axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga oid 3000 dan ortiq atama va tushunchalar uchun ta'rif va izohlarni hamda ushbu sohada ishlataladigan juda ko'p qo'shimcha ma'lumotlarni ilovalar shaklida o'zida mujassamlashtirgan. Undan axborotlashtirish sohasida ishlayotgan muhandisu-texnik, menejer va dasturlovchilardan tortib oddiy o'quvchi, talaba va keng jamoatchilik vakillari foydalanishlari mumkin.

Lug'atni tuzishda boy o'zbek tili imkoniyatlaridan iloji boricha foydalanishga harakat qilindi, biroq u mutlaq mukammallikká da'vo qilolmaydi. Bu faqatgina birinchi urinish xolos. Shu munosabat bilan lug'atni takomillashtirishga qaratilgan fikr va mulohazalar mammuniyat bilan qabul qilinadi va ularni keyingi nashrlarimizda albatta inobatga olamiz deb umid qilamiz.

Mualliflar jamoasi nomidan,



Abdulla Aripov

*Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya
texnologiyalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha
Muvofiqlashtiruvchi Kengash raisi*

LUG'ATNING TUZILISHI VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBI

Mazkur Lug'atda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida keng iste'molda bo'lgan atama, tushuncha va ingliz tilida berilgan qisqartma so'zlarning ko'pchiligi hamda ularga oid ta'rif va izohlar maqolalar tarzida aks etgan.

Lug'atning asosiy qismida maqolalar lotincha o'zbek alifbosи tartibida joylashtirilgan. Atamalar quyuq shriftdakeltirilgan. Harbir o'zbek tilida berilgan atama uchun u bilan ingliz va rus tillarida bir hil ahamiyatga ega bo'lgan atamalar og'ma (kursiv) shriftda keltirilgan.

Lug'atning ilovalar qismida inglizcha va ruscha atamalarga mos o'zbekcha atamalarni topishni osonlashtirish uchun Inglizcha–O'zbekcha–Ruscha va Ruscha–O'zbekcha–Inglizcha lug'atlar keltirilgan. Shu bilan birga Domenlar, Standartlarni belgilovchi tashkilotlar, Jahon AKT kompaniyalari, Milliy AKT kompaniyalari, Jahon AKT nashrlari, MDH AKT nashrlari, Milliy Veb sahifalar, Pochta va chat shevasi, His–tuyg'u alomatlari ham keltirilgan.

Lug'atga u bilan aynan mazmunga ega bo'lgan CD-ROM va Internet veb-sahifasi ishlab chiqilgan.

Keyingi betda Lug'atning asosiy qismi namunasi keltirilib, unda maqola elementlari ko'rsatilgan.

Asosiy atamalar shunday aks etgan.

Asosiy atamalar bilan bir hil ahamiyatga ega bo'lgan ruscha va inglizcha atamalar shunday aks etgan.

Atama ta'rifi yoki izohi shunday aks etgan.

Lug'atda biror atama ta'rifi bo'yicha uning o'rniga boshqa atama ishlatalishi mumkin bo'lgan holda shunday aks etgan.

Qisqartmalar shunday aks etgan. Bundan keyin qisqartmaning ma'nosi berilgan.

Ko'pgina atamalar birnecha izohga ega. Ko'proq foydalaniladigan izohlar birinchi o'rinda keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida keltirilgan moddalarga tegishli ta'riflarga havolalar shunday aks etgan.

abonent

ingl.: *subscriber*

rus.: *абонент*

Xizmat ko'rsatuvchi axborot obyekti (tizim, tarmoq, majmua) bilan o'zaro ishlash huquqiga ega qurilma, yuridik yoki jismoniy shaxs. Abonentning har qanday foydalanuvchidan farqi shundaki, u xizmat ko'rsatuvchi axborot obyekti foydalanuvchilari ro'yxatiga kiritilgan bo'ladi.

abonentlarni ro'yxatga kiritish

ingl.: *subscriber logging*

rus.: *регистрация абонентов*

qarang: ro'yxatga kiritish

ACE

qisq.: *Access Control Entry*

Erkin foydalanishni boshqarish yozuvi (ro'yxatdan erkin foydalanish nuqtasi). Windows NT va Windows 2000 xavfsizlik tizimida erkin foydalanishni boshqarish (ACL) ro'yxatining elementi.

axborot resursi

ingl.: *information resource*

rus.: *информационный ресурс*

1. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi. (*qonun*)
2. Alovida hujjatlar va hujjatlar massivlari, axborot tizimlaridagi (kutubxona, arxiv, jamg'arma va ma'lumotlar banklari, boshqa axborot tizimlari) hujjatlar va hujjatlar massivlari.
3. Axborot tizimlaridagi (kutubxona, arxiv, jamg'arma va ma'lumotlar banklari hamda depozitariy, muzey va boshqalar) hujjatlar va hujjatlar massivlari.

O‘ZBEK ALIFBOSI

Aa	a	Qq	qe
Bb	be	Rr	er
Dd	de	Ss	es
Ee	e	Tt	te
Ff	Ef	Uu	u
Gg	ge	Vv	ve
Hh	he	Xx	xe
Ii	i	Yy	ye
Jj	je	Zz	ze
Kk	ke	O‘o‘	o‘
Ll	el	G‘g‘	g‘e
Mm	em	Sh sh	she
Nn	en	Ch ch	che
Oo	o	Ng ng	nge
Pp	pe	,	tutuq belgisi

O‘zbek alifbosiga kirmagan lug‘atda ishlatilgan lotin harflari:

Cc

Ww



10 Mbps

10 Megabit soniyaga. Ethernet tarmog‘ida uzatish tezligi.

100 Mbps

100 Megabit soniyaga. Fast Ethernet va FDDI tarmoqlarida uzatish tezligi.

100Base-FX

Optik kabel asosli uzatish tezligi 100 Megabit soniyaga bo‘lgan Ethernet tarmoqlari uchun IEEE 802.3us spetsifikatsiyasi.

100Base-T

Burama juft («o‘rama juft») asosidagi ekranlanmagan kabel asosida uzatish tezligi 100 Megabit/soniya bo‘lgan Ethernet tarmoqlari uchun IEEE 802.3us spetsifikatsiyasi.

10Base-2

IEEE 802.3 Ethernet standartini ingichka koaksal kabeldan foydalanib amalga oshirish. Shuningdek Thinnet deb ham ataladi.

10Base-5

IEEE 802.3 Ethernet standartini yo‘g‘on koaksal kabeldan foydalanib amalga oshirish. Shuningdek Thicknet deb ham ataladi.

10Base-F

IEEE 802.3 Ethernet standartini optik kabeldan foydalanib amalga oshirish.

10Base-T

Burama juft («o‘rama juft») asosidagi ekranlanmagan kabel asosida uzatish tezligi 100 Megabit/soniya bo‘lgan Ethernet tarmoqlari uchun IEEE 802.3us spetsifikatsiyasi. Kabel, UTP 3, toifasi 5, ekranlanmagan o‘rama juft asosida bajarilgan, topologiyasi markazida xab (Hub) joylashgan – yulduz. Shinaga nisbatan ustunliklari:

- har bir bog‘lamaga faqat birgina egiluvchan kabel ulanadi;

- bir nudagi kabelni jarohatlanishi faqat birgina bog‘lamadagi ularishlarni ishdan chiqishiga olib keladi;

- tarmoqda paketlarni ruxsat etilmagan «eshitish» qiyinlashtiradi.

Hozirda yangi tarmoqlarning ko‘pchiligi shu asosda yaratilmoqda.

1GL

qisq.: First Generation Language
qarang: bиринчи авлод тили

2GL

qisq.: Second Generation Language
qarang: иккинчи авлод тили

3COM korporatsiyasi

ingl.: 3COM corporation
rus.: корпорация 3COM

Axborot tarmoqlari uchun jihozlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan dunyodagi eng katta kompaniyalardan biri. Kompaniya nomi uchta atamadan tashkil topgan – COMputer, COMmunication, and COMpatibility (kompyuter, kommunikatsiyalar, uyg‘unlik). Kompaniya AQSHda 1979 yili Robert Metcalfe, Ethernet ixtirochilaridan biri tomonidan yaratilgan. 3COM keng ko‘lamda mahsulotlar taklif etadi, jumladan xablar, uzib-ulagichlar, yo‘naltirgichlar, modemlar.

3D

qisq.: Three-Dimensional Graphics
qarang: уч олчамли графика

3GL

qisq.: Third Generation Language
qarang: учинчи авлод тили

403 - xatolik

ingl.: 403 ERROR
rus.: ошибка 403

Ba‘zan, saytda sahfani so‘raganiningizda, uning o‘rniga xatolik to‘g‘risida xabarni olasiz. 403 - xatolik, so‘ralayotgan sahfadan erkin foydalanish ta‘qilanganini bildiradi. Bu holat, sayting egasi ba‘zi mulohazalariga ko‘ra, foydalanuvchilardan axborotning bir qismini yashirishga qaror qilganda ham yuz beradi.

404 - xatolik

ingl.: 404 ERROR
rus.: ошибка 404



Ba'zan, saytda sahifani so'raganiningizda, uning o'rniqa xatolik to'g'risida xabarni olasiz. 404 - xatolik siz so'ragan URLga, saytning birorta ham sahifasi mos kelmaganini anglatadi. Buning ikkita sababini keltirish mumkin: murojaat noto'g'ri yoki avval mavjud bo'lgan sahifa endi yo'q.

4GL

qisq.: Fourth-Generation Language

qarang: to'rtinchchi avlod tili

5GL

qisq.: Fifth-Generation Language

qarang: beshinchchi avlod tili

Aa

A

ABI

qisq.: Application Binary Interface

Qo'llanmalarning binar interfeysi. Operatsion tizimning resurslaridan qo'llanmalarning erkin foydalanish usulini aniqlaydigan spetsifikatsiya. To'la o'girishdan o'tkazilgan qo'llanmalarni bir xil ABI lik tizimlar orasida ko'chuvchanligini ta'minlaydi.

abonent

ingl.: subscriber

rus.: абонент

Xizmat ko'rsatuvchi axborot obyekti (tizim, tarmoq, majmua) bilan o'zaro ishlash huquqiga ega qurilma, yuridik yoki jismoniy shaxs.

Abonentning har qanday foydalanuvchidan farqi shundaki, u xizmat ko'rsatuvchi axborot obyekti foydalanuvchilari ro'yxatiga kiritilgan bo'ladi.

abonentlarni ro'yxatga kiritish

ingl.: subscriber logging

rus.: регистрация абонентов

qarang: ro'yxatga kiritish

AC

qisq.: Alternating Current

O'zgaruvchan tok.

AC-3

(shuningdek Dolby Digital ham) AC-3 formati. Dolby Laboratories tomonidan ishlab chiqilgan raqamli oqim formati. Beshta asosiy va bir past chastotali tovush kanallari haqidagi axborotni o'z ichiga oladi.

ACE

qisq.: Access Control Entry

Erkin foydalanishni boshqarish yozuvi (ro'yxatdan erkin foydalanish nuqtasi). Windows NT va Windows 2000 xavfsizlik tizimida erkin foydalanishni boshqarish (ACL) ro'yxatining elementi.

ACID

qisq.: Atomicity, Consistency, Isolation, Durability

Atomarlik, ziddiyatsizlik, yakkalanganlik, mustahkamlilik. Bular tranzaksiya xos xususiyatlardir. Atomarlik (atomicity) xususiyati, tranzaksiya kirayotgan amallar bo'linmas ish birligidek namoyon bo'ladi, ya'ni, yo barcha amallar muvaffaqiyatli yakunlandi, yo bekor qilinadi. Bu tizim ziddiyatsizligini (consistency) kafolatlash imkonini beradi: tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan tizim, tranzaksiya boshlanishidan oldin ham, u yakunlanganidan keyin ham ziddiyatsizlik holatida bo'ladi. Yakkalanganlik (isolation) xususiyati ziddiyatsizlikni tranzaksiya davomiga ham tegishli qiladi, ya'ni, bajarish davomida bir tranzaksiya boshqa yakunlanmagani tranzaksiyalar qilgan o'zgarishlarini «ko'rmaydi». Mustahkamlik (durability) bajarib bo'lingan tranzaksiyalar o'zgarishlarini, pastki pog'onalardagi to'xtab qolishlardan qat'iy nazar, hoh bekosdan qayta yuklanish, hoh qurilmalarni buzilishi bo'lsin, saqlanishini bildiradi.

ACK

qisq.: ACKnowledgement

Tasdiqlash. Ma'lumotlarni muvaffaqiyatli qabul qilinganligini tasdiqlovchi signal.

ACL

qisq.: Access Control List

Erkin foydalanishni boshqarish ro'yxati. Windows NT va Windows 2000 xavfsizlik tizimida, ACL foydalanuvchilar va ularning guruhlarining obyektdan (faylga yoki boshqa resurslardan) erkin foydalanish huquqlarini aniqlaydi, hamda hodisalar auditini belgilaydi. U ACE ro'yxatidan iboratdir.

ACM

qisq.: Association for Computing Machinery

Hisoblash texnikasi bo'yicha uyushima. Hisoblash texnikasi sohasidagi xalqaro uyushima.

ACPI

qisq.: Advanced Configuration and Power management Interface

ACPI spetsifikatsiyasi, elektrozuqa tarkibiy tuzilmasi va uni boshqarish uchun yaxshilangan interfeys. Operatsion tizim bilan shaxsiy kompyuter apparat vositalari elektrozuqa tarkibiy tuzilmasi va uni boshqarish uchun

o'zaro aloqada ishlashini tavsiflovchi ochiq spetsifikatsiya. Qurilmalarni dasturiy ravishda, elektrozuqani kamroq sarflash rejimiga va uni teskari oldingisiga o'tkazish.

ActiveX

Veb-sahifalar yaratuvchilariga o'zaro faol muhitni yaratish imkonini beruvchi texnika vositalari va amallar to'plami, ko'p sonli asboblarni yaxlit qilib birlashtirish vositasi.

ad

1. Advertisement - Reklama.
2. Adapter - Moslashtirgich. Uyg'unlikni ta'minlovchi interfeys o'zgartirgichi.

Ada tili

ingl.: Ada language

rus.: язык Ada

Yuqori pog'ona dasturlash tili. U 1970 yillar oxiri 1980 yillar boshida AQSH Mufodaa vazirligi tashabbusi bilan turli maqsadlar uchun, biznes qo'llanmalardan tortib aeronavigatsiya tizimlarigacha ishlab chiqilgan. Pascal tili asosida yaratilgan bo'lib, jiddiy to'ldirishlarga va modulli tuzilmaga ega. U parallel amallarni bajarish va murakkab axborot tizimlari yaratishni ta'minlab, operatsion tizimlarga nisbatan yuqori darajali mustaqilligi bilan tavsiflandi. Til ma'lumotlarga haqiqiy vaqt maromida paralell ishlov berish vositalarini quvvatlaydi. Ada tili analitik dvigatel – bиринчи mexanik kompyuter uchun dasturlar ishlab chiqishda ishtiroy etgan, dunyodagi eng bиринчи dasturchi deb hisoblanadigan Avgust Ada Lavleys (1815-52) sharofati bilan shunday nom olgan.

adapter

ingl.: adapter

rus.: адаптер

Ma'lumotlarni berishning turli usullari bilan qurilmalarni bir-biriga moslashtirishga imkon beradigan elektron sxema. Masalan, analog qurilmani raqamli qurilmaga to'g'ridan-to'g'ri ulash mumkin emas, buning uchun avvalo analog signalni raqamli signalga aylantirish lozim yoki aksincha. Apparatli vositalarning bir-biriga mos bo'lмаган ikkita tarkibiy bo'lakni bog'lash uchun biriktirish qurilmasi zarur. Adapter bunday qurilmaning tarkibiy

bo'lagi bo'lib, odatda alohida plataga o'rnatiladi.

adashlar

ingl.: alias

rus.: алиас

Tarmoq nomi, manzil, URL sinonimi. Agarda ikkita tashqi ko'rinishdan farqli manzil bitta hujjatga ishorat qilayotgan bo'lsa, ushbu manzillar adashlardir.

ADC

qisq.: Analog to Digital Converter

Analog-raqamli o'zgartirgich, ARO'. Analog signalni raqamli kodga o'zgartirish uchun mo'ljallangan, ya'ni, analogli kirish signalni kuchlanishining har bir qiymatiga, chiqishdagi raqamli kodning muayyan qiymati mos keladi. ARO' asosan, har bir tovush kartasida mayjud bo'lib, u tashqi manbadan kelayotgan tovushni qattiq diskka yozish uchun ishlataladi.

ADMA

qisq.: Advanced DMA [controller]

Takomillashtirilgan DMA-nazoratchi.

ADO

qisq.: ActiveX Data Objects

ActiveX ma'lumotlarining obyektlari. Microsoft kompaniyasining COM-obyektlar orqali ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish texnologiyasi.

Adobe Systems korporatsiyasi

ingl.: Adobe Systems corporation

rus.: корпорация Adobe Systems

Dasturiy ta'minot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kompaniya. Adobe Systemsning eng mashhur mahsuloti bu Acrobat ko'rish muharriridir. Kompaniya stolusti nashr tizimlari va shrift to'plamlarini ishlab chiqaradi. Kompaniya tomonidan yaratilgan grafik tasvirlarga (Photoshop, Illustrator) va videofilmlarga (Premier) ishlov berish amaliy dasturlari keng tarqalgan.

ADPCM

qisq.: Adaptive Differential Pulse Code Modulation
Moslashuvchan differential impuls-kodli usul asosida modullash. Nutqni zichlashtirib raqamli kodlash uchun ITU standarti. O'tkazish qobiliyati 32 Kbit/s bo'lgan kanal orqali nutqni

uzatish imkonini beradi. Telefoniyada ishlataladi.

ADSL

qisq.: Asymmetric Digital Subscriber Line

Asimmetrik raqamli abonent liniyasi. Ma'lumotlarni telefon liniyalari bo'ylab yuqori tezlik bilan uzatish texnologiyasi. DSL oilasiga mansub texnologiyalardan biri. Ommaviy foydalanuvchilarga mo'ljallangan nisbatan arzon texnologiyadir. Nomidan shaklichcha, ma'lumotlarni uzatish asimmetrik, ya'ni, dastlabki trafikga nisbatan chiqish trafikiga ancha kattaroq chastota oralig'i ajratiladi. 8 Mbit/s. tezlikkacha signallarni qabul qilib, 1 Mbit/c. gacha tezlik bilan uzatadi. ADSL-modemlar orasidagi telefon simlarining uzunligi 7 kmdan ortmasligi kerak. Ish vaqtida ma'lumotlarni uzatish tezligi telefon liniyasining ahvoliga (shovqin darajasiga, to'siqlar soniga va h.k.) qarab o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari ADSL-ulanish shovqinlarga, ayniqsa shu telefon kabelidan o'tkazilgan boshqa raqamli aloqa liniyalaridagi shovqinlarga sezgirdir.

ADT

qisq.: Abstract Data Type

Ma'lumotlarning mavhum turi. Muayyan amalga oshirilmay, ularning usullarini va xossalarni sanab o'tish orqali belgilanadi, ma'lumotlar turi (mavhum sinfi).

AES

qisq.:

1. Advanced Encryption Standard – Shifflashning yaxshilangan standarti. DES ni almashtirish uchun, AQSH hukumati tomonidan tasdiqlangan shifflash standarti.

2. Audio Engeneering Society

3. Application Environment Specifications – Amaliy dasturlar muhiti spetsifikatsiyasi. OSF tomonidan ochiq tizimlarda foydalanuvchi interfeysi yaratish uchun spetsifikatsiyalar yig'masi.

AFTN

qisq.: Aeronautical Fixed Telecommunication Network

Aviatsiya aloqasining ko'chmas tarmog'i.

FTP

qisq.: Anonymous FTP

Nomi yashirin FTP-server. Nomini yashirib (Anonymous nomi bilan) ulanishga ijozat beradigan FTP-server. Shu bilan birga, parol o'rniغا, foydalanuvchining e-mail manzilini ko'rsatish joiz.

AGC

qisq.: Automatic Gain Control

Kuchaytirishni avtomatik rostlash.

agent

ingl.: agent

rus.: агент

Mijoz-server modelidagi axborotni tayyorlash va uni mijoz va server qismi orasida almashishni bajaruvchi tizim qismi.

AGP

qisq.: Accelerated Graphics Port

Tezlashtirilgan grafik port, AGP-port. Videokartani shaxsiy kompyuterga ulash uchun interfeys spetsifikatsiyasi.

ahamiyatli signal birligi

ingl.: significant signalling unit

rus.: значащая сигнальная единица

Bir bayt xizmat axboroti va signalli axborot maydonidan iborat signal birligi. Agar xatolik bilan qabul qilingan bo'lsa, unda signalizatsiya bo'g'inini boshqaruvi orqali takrorlanadi.

aholini axborotlashtirishga tayyorlash

ingl.: people preparation for informatization

rus.: подготовка населения к информатизации

Aholini axborotlashtirishga tayyorlash deganda, quyidagilar nazardautiladi:

- aholining axborotga bo'lgan ehtiyojlari va qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish. Bunda axborotga talabni va bozorni o'rganish hamda axborot xizmatlari reklamasi nazardautiladi;
- informatika bo'yicha mutaxassislar tayyorlash;
- axborot texnikasi, tizimlari va infratuzilmasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash;
- axborotlashtirish jarayonida talab qisqarotgan mutaxassislarni qayta tayyorlash;
- axborot tizimlari va texnikasi foydalanuvchilari orasidan haqiqiy va mumkin bo'lganlariga ta'lrim berish;
- mamlakatda axborotlashtirishni o'tkazishga qaratilgan ijtimoiy fikrni shakllantirish.

AI*qisq.:*

1. Artificial Intelligence – Sun’iy tafakkur.
2. Analog Input – Analogli kirish.

AIM*qisq.: AOL Instant Messenger*

AIM xizmati. AOL xizmatlaridan birining va bir zumda xabarlar almashish uchun tegishli mijoz-dasturning nomi, AIM Internet varaqlovchisi.

AIT*qisq.: Advanced Intelligent Tape*

«Tafakkur tasmasi». Sony firmasi tomonidan ishlab chiqilgan magnit tasmada yozuv qurilmasining turi.

AIX*qisq.: Advanced Interactive eXecutive*

IBM rivojlantirayotgan UNIX rusumi.

ajrataolish*ingl.: resolution**rus.: разрешение*

Atama, tasvirmi ravshanligini va tozaligini anglatadi. Odatda, monitorlar, printerlar, skannerlar va grafik tasvirlarni tavsiflash uchun ishlataladi. Monitorlar, printerlar, skannerlar va boshqa kiritish-chiqarish qurilmalari odatda, yuqori, o’rtta va past ajrata olish ko’rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

ajratilgan aloqa liniyasi*ingl.: dedicated line**rus.: выделенная линия связи*

Alohiba foydalanuvchi yoki muayyan foydalanish uchun saqlab qo'yilgan va tarmoqning boshqa abonentlari foydalana olmaydigan aloqa liniyasi.

akkaunt*ingl.: account**rus.: аккаунт*

So‘zma-so‘z tarjimasi - “qayd yozushi”. Kompyuterda saqlaniladigan foydalanuvchi tavsifi. Odatda u foydalanuvchining tarmoqdagi nomi, haqiqiy nom, parol, foydalanuvchi huquqlari va uy katalogining nomi (agarda u bor bo‘lsa)dan tarkib topgan.

AKT yordamida taraqqiyot*ingl.: e-development**rus.: развитие с использованием ИКТ*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ommaviy foydalanishga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

Alcatel korporatsiyasi*ingl.: Alcatel corporation**rus.: корпорация Alcatel*

Tarmoqlar uchun jihozlar ishlab chiqaruvchi kompaniya. Alcatel 1887 yili Belgiyada ikkita kompaniya Alcatel Altsthom va ITT birlashishi natijasida yaratilgan. Avvalo kompaniya telefon aparatlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan. Keyin ishlab chiqarilayotgan jihozlar doirasiga kengayib borgan. Hozirgi paytda ma’lumotlarni uzatish va ma’lumotlarga ishlov berish tizimlari, kommunikatsiya tarmoqlari, yo’ldosh tarmoqlari tizimlarini ham ishlab chiqaradi.

alfa-sinov*ingl.: alpha testing**rus.: альфа тестирование*

Kelajakdagi dasturiy mahsulotni umumiy baholash va unga u yoki bu kerakli xususiyatlarni qo’shish uchun mo’ljallangan dastur yoki dasturiy ta’minotning dastlabki sinov bosqichi.

ALGOL tili*ingl.: ALGOL language**rus.: язык ALGOL*

Matematik masalalarni yechish uchun mo’ljallangan dasturlash tili. Birinchi navbatda ALGOL «algoritmik til» sonli masalalarni yechishga mo’ljallangan. Tilning sintaksisi aniq belgilanganligi ALGOLni muayyan tur tuzilmaga ega bo‘lgan kompyuterlarga nisbatan mustaqil bo‘lishini ta’mindadi. Tilning alohiba tomoni bo‘lib uning blokli tuzilmasi hisoblanadi. ALGOL ko‘proq Yevropada tarqaldi va yangi tillarning, masalan Pascal tilining yaratilishida muhim bosqich bo‘ldi.

algoritm*ingl.: algorithm**rus.: алгоритм*

1. Vazifani bajarishga qaratilgan aniq belgilangan qoidalarning tartiblangan chekli to‘plami.
2. Dastlabki ma’lumotlarni oxirgi natijaga o’tkazuvchi hisoblash jarayoni orqali masala yechimini aniq ko’rsatuvchi amallar mazmuni va ketma-ketligi.

Algoritm tavsifnomalariga quyidagilar kirdi:

- berilgan dastlabki ma'lumotlar bilan natijaning bir turliligi;
- jarayonni inson yoki hisoblash mashinasi tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan ayrim amallarning chekli soniga bo'lish mumkinligi;
- ko'p sinfga oid masalalarga mos ko'p dastlabki ma'lumotlar uchun natija olish mumkinligi.

Hisoblash mashinasiga algoritm dastur shaklida beriladi. Bitta masalani yechishning bir necha algoritmi mavjud bo'lishi mumkin. Ular orasida eng samaralisini, bajarilishi uchun eng kam amallar, mashina vaqtini, xotira va h.k.ni talab qiluvchi algoritmi tanlash lozim. Samarali algoritmlar mavjud bo'lishi shartlari va ularni qurish (ishlab chiqish)ni o'rGANISH algoritmlar nazariyasi asosini tashkil etadi.

Algoritm atamasi o'rta asrlarda yashab ijod etgan buyuk o'zbek matematigi Al-Xorazmiy nomidan kelib chiqqan. U o'zi kashf etgan o'nli sanoq tizimida IX asrning 825 yilidayoq to'rt arifmetika amallarini bajarish qoidalarni bergen. Arifmetika amallarini bajarish jarayoni esa alxorazm deb atalgan. Bu atama 1747 yildan boshlab algorismus, 1950 yilga kelib algorifm deb ham ataldi. Kompyuterlar paydo bo'lishi bilan algoritm atamasi hozirgi ma'nosini bilan axborot texnologiyalari sohasida eng asosiy atamalardan biri bo'lib qoldi.

Al-Jamol algoritmi

ingl.: *El-Gamal's algorithm*

rus.: Эль-Гамала алгоритм

Diskret logarifmlash muammosiga asoslangan kriptotizim. Axborot (raqamlı imzo) autentifikatsiyasi uchun ham va shifrlash uchun ham foydalanish mumkin. 1985 yili Al Jamol tomonidan taklif qilingan.

aloqa foydalanuvchisi

ingl.: *communication service user*

rus.: пользователь связи

1. Aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi asosida yoki bunday shartnomasiz aloqa xizmatlarini buyurishni hohlovchi yoki buyuruvchi, yo ulardan foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

2. Aloqa xizmatlari iste'molchisi bo'l mish jismoniy yoki yuridik shaxs.

aloqa kanali

ingl.: *communication channel*

rus.: канал связи

qarang: ma'lumotlar uzatish kanali.

A

aloqa operatori

ingl.: *network operator*

rus.: оператор связи

Elektr va (yoki) pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

aloqa seansi

ingl.: *communication session*

rus.: сеанс связи

Qo'llanma, qurilma, kompyuter yoki tarmoq bog'lamalari orasida ma'lumotlarni uzatish uchun aloqa o'rnatish, undan foydalanish va tugatish jarayoni.

aloqa tarmog'i

ingl.: *communication network*

rus.: сеть связи

Ma'lum tarmoqning faoliyatini ta'minlovchi jami aloqa kanallari (simli, radio yoki optik), kanallarni hosil qiluvchi apparatura hamda aloqa markazlari va bog'lamalari.

aloqa vositalari

ingl.: *communication tools*

rus.: средства связи

1. Elektr aloqasi xabarlari yoki pochta jo'natmalarini shakkantirish, ishlov berish, uzatish yoki qabul qilib olish uchun foydalaniladigan texnika vositalari.

2. Elektr aloqasi xabarlari yoki pochta jo'natmalarini shakkantirish, ishlov berish, uzatish yoki qabul qilib olish uchun foydalaniladigan texnika vositalari, shuningdek aloqa xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan binolar, inshootlar yoki odam yashamaydigan xonalar, boshqa texnika vositalari.

aloqa xizmatlari

ingl.: *communication services*

rus.: услуги связи

Pochta jo'natmalari yoki elektr aloqasi xabarlarini qabul qilish, qayta ishslash, uzatish va yetkazish bo'yicha faoliyat mahsuli.

aloqa yo'li

ingl.: *route*

rus.: маршрут

Axborot tizimining bitta portidan boshqasiga ma'lumotlar uzatiladigan aloqa yo'li.

ALU

qisq.: Arithmetic and Logic Unit

Arifmetik-mantiqiy qurilma, AMQ. Protsessorning arifmetik va mantiqiy amallarni bajaradigan qismi.

AM

qisq.:

1. (shunday a.m. ham) Ante Meridiem – Tushgacha.
2. Amplitude Modulation - Amplituda modulyatsiyasi.

amaliy maslak

ingl.: operating platform

rus.: операционная платформа

Amaliy dasturlarni turli operatsion tizimlar bilan o'zaro aloqada ishlashini ta'minlovchi funksional blok. Operatsion maslak bir necha operatsion tizimlarni qamrab oladi va amaliy dasturlar bilan guruh yoki bir umumiy amaliy interfeysga egadir.

amaliy pog'ona shluzi

ingl.: application-level gateway

rus.: шлюз прикладного уровня

Tarmoqlararo ekranni (brandmaueri) amalga oshirish usullaridan biri. Mualliflashgan mijoz bilan tashqi xostni bevosita o'zaro ishlashiga yo'l qo'ymaydi. Barcha kirish va chiqish paketlarini filtrlash OSI etalon modelining amaliy pog'onasida amalga oshiriladi. Qo'llanmalar bilan bog'liq vositachi-dasturlar TCP/IP aniq xizmatlari generatsiyalayotgan axborotni shluz orqali qayta yo'naltiradi.

amaliy tizim

ingl.: operating system

rus.: операционная система

qarang: operatsion tizim

amaliy xavfsizlik

ingl.: operational security

rus.: операционная безопасность

Ma'lumotlarni kiritish, ishlov berish va chiqarish amallarini bajarishda turlashdan, yo'q qilishdan va oshkor qilishdan (tasodifiy, mualliflashmagan, yoki qasddan) muhofazalash.

AMD korporatsiyasi

ingl.: AMD corporation

rus.: корпорация AMD

Kompyuter tarkibiy qismilarini ishlab chiqaruvchi kompaniya. AMD kompaniyasi AQSHda (Sanniveyl sh.) 1969 yilda yaratilgan. AMD protsessorlar, flesh-xotira qurilmalari, dasturlashtiriluvchi mantiqiy matritsalar, mikronazoratchilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

AMPS

qisq.: Advanced Mobile Phone Service

Yaxshilangan uyali telefon xizmati uchun AMPS standarti. Analogli uyali telefon aloqasining dastlabki tizimlaridan biri. FDMA ni ishlatadi. Rossiyada AMPS-800, 800 MGs chastotali oraliq, AQSH da - N-AMPS ishlatiladi. Asta-sekin, sifatliroq aloqani, hamda gap poylashdan va «qiyofadoshlar»dan muhofazalanishni ta'minlaydigan raqamli standartlar siqib chiqarmoqdalar.

analog

ingl.: analog

rus.: аналоговый

Uzluksiz shaklda aks etuvchi to'xtovsiz o'zgaruvchi fizikaviy kattaliklar yoki ma'lumotlar hamda ushbu ma'lumotlardan foydalanuvchi jarayonlar va funksional qurilmalarga tegishli ta'rif.

analog kompyuter

ingl.: analog computer

rus.: аналоговый компьютер

Harakatlari ma'lum tizimning harakatlariga mos va o'xhash ma'lumotlarni olib, ularni ishlab berib taqdim etuvchi kompyuter.

analog modem

ingl.: analogue modem

rus.: аналоговый модем

Ma'lumotlarni uzatish uchun telefoniya foydalanadigan chastota ko'lamidan (4 KGsgacha) foydalanuvchi modem. Nisbatan arzon va ularsh osonligi tufayli eng keng tarqalgan modem. Analog modem yordamida ma'lumotlarni uzatishning eng katta tezligi 56 Kbit/s bilan cheklangan. Modem orqali ularnish paytida telefondan foydalanish mumkin emas (qo'ng'iroq qilish yoki qo'ng'iroqqa javob berish uchun ularishni uzish lozim). Analog modemni ularsh abonent yoki ATSda maxsus jiozchlarni o'rnatishni talab qilmaydi. Shunday qilib, aloqa sifati va qo'shimcha xizmatlardan

foydalaniш telefon stansiya siга bog'liq (raqamni aniqlash, chaqirishni kutish va h.k.).

analog signal

ingl.: *analog signal*

rus.: *аналоговый сигнал*

To'xtovsiz o'zgaruvchi elektr kuchlanish yoki elektr toki shaklidagi axborot tashuvchisi. Vaqt davomida o'zgaruvchan analog signal amplitudasi u tashuvchi axborotning miqdoriga mos bo'lib, odatda o'lchangan fizikaviy kattalikni bildiradi, masalan, harorat, tezlik va h.k. Analog signal tashuvchi axborotga kompyuterda ishlov berish uchun analog-raqamli o'zgartgich zarur.

andoza

ingl.: *standard*

rus.: *стандарт*

qarang: standart

Andrew korporatsiyasi

ingl.: *Andrew corporation*

rus.: *корпорация Andrew*

Kommunikatsiya tarmoqlarini yaratuvchi va ishlataluvchi kompaniya. Andrew kompaniyasi 1937 yili AQSHda yaratilgan, Yevropa, Rossiya, Meksika, Avstraliyada vakolatxonalarga ega. Andrew koaksiyal kabellar, optik kanallar, yo'ldosh tarmog'i kanallari, radiokanallar, hududiy va mahaliy tarmoqlarni yaratish uchun zarur bo'lgan apparaturani taklif etadi.

animatsiya

ingl.: *animation*

rus.: *анимация*

Bir necha tasvir yoki kadrlarni ko'rsatish orqali yaratiladigan harakat taqldi. Televideniyedagi multfilmlar animatsiyaning bir turidir. Kompyuterlardagi animatsiya ko'ptashuvchili taqdimotlarning eng asosiy tarkibiy qismlaridandir. Kompyuter monitorida ko'rish mumkin bo'lgan animatsiyalarni yaratish imkonini beruvchi ko'plab dasturiy q'llanmalar mavjud.

Animatsiya va video o'rtasidagi farqqa e'tibor bering. Video davom etuvchi harakatdan iborat bo'lib, diskret kadrlarga bo'lingan bo'lsa, animatsiya mustaqil rasmlar bilan boshlanib, ularni davom etuvchi harakat tasavvurini yaratish uchun birlashtiradi.

animatsiyalangan GIF

ingl.: *animitated GIF*

rus.: *анимированный GIF*

Tezda aks ettirilib, harakatlanuvchi tasvirni yaratuvchi GIF formatidagi tasvirlardan iborat fayl.

ANN

qisq.: *Artificial Neural Network*

Sun'iy neyron tarmog'i.

ANSI

qisq.: *American National Standards Institute*

Amerika milliy standartlashtirish instituti. Standartlashtirish masalalari bo'yicha AQSHdagi bosh tashkilot.

antenna

ingl.: *antenna*

rus.: *антенна*

Radiochastota signallarini uzatish va/yoki qabul qilib olish uchun mo'ljallangan qurilma. Antennalar alohida chastota uchun ishlab chiqilib, odatda dizayni, tuzilishi va joylashishi bo'yicha katta farq qiladi. Masalan, mobil telefonlarda antenna ichiga o'rnatilgan (apparat qobig'i ichida yashirilgan) yoki tashqi (qobiq chegaralaridan tashqari chiquvchi) bo'lishi mumkin.

AO

qisq.: *Analog Output*

Analogli chiqish.

AOL

qisq.: *America On-Line*

AOL xizmati. AQSHdagi Internet provayderi.

APC

qisq.:

1. Asynchronous Procedure Call – Tartibotlarni asinxron chaqirish. Chaqirayotgan dastur, chaqirilgan amalni bajarilishini yakunlanishini kutmay o'z ishini davom ettiraveradi. Misol tariqasida, xabarlar jo'natishni ko'rsatish mumkin.
2. American Power Conversion – APC firmasi. To'xtovsiz ozuqa manbalari (UPS) ning ishlab chiqaruvchisi.

API

qisq.: *Application Programming Interface*

Amaliy dasturlash interfeysi. O'zlarining dasturlarini tegishli operatsion tizimlar bilan uyg'unlashuvi uchun dasturiy ta'minot ishlab

chiquvchilar amal qilishlari kerak bo'lgan vazifalar yig'masining spetsifikatsiyasi.

APL

qisq.: A Programming Language

APL dasturlash tili. XX asrning 60-yillarda ishlab chiqilgan.

apparat ta'minoti

ingl.: hardware

rus.: аппаратное обеспечение

Hisoblash tizimi tarkibiga kiruvchi uning faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan jami apparat vositalari. Apparat ta'minotiga kompyuter, tashqi qurilmalar, aloqa tarmoqlari va h.k. kiradi. Ular texnik nuqtai nazardan tizimning samarali ishini, uning foydalanuvchiga ma'lum xizmat turlarini ko'rsatishni ta'minlaydi. Ushbu atama hisoblash tizimining dasturiy ta'minot bo'lmagan qismini bildiradi.

apparat vositalar

ingl.: hardware tools

rus.: аппаратные средства

1. Axborotga ishlov berish tizimining barcha fizikaviy tarkibiy bo'laklari yoki ularning qismi.
2. Hisoblash tizimining moddiy qismini tashkil qiluvchi elektr, elektron va mexanik tiziqlar, bo'laklar, moslama va qurilmalar. Apparat vositalar, masalan, kompyuterning o'zi va uni tashkil qiluvchi mikrosxemalar, shuningdek, display, disk yurituvchi va printerlar ham kiradi.

apparat vositalarni tavsiflash tili

ingl.: Hardware Description Languages (HDL)

rus.: язык описания аппаратных средств

Diskret signallarga ishlov berishga mo'ljallangan qurilmalarni modellash, ishlab chiqish va testlash jarayonlarining ixtisoslashgan tili. U ishlab chiquvchilarga, shajaraviy tuzilmalarni yaratishga, xilma xil funksiyalarni amalga oshirish hamda murakkab arifmetik amallar va mantiqiy solishtirishlarni bajarishga imkon beradi.

apparatli zakladka

ingl.: hardware bookmark

rus.: аппаратная закладка

Axborot tutib olishning maxsus elektron qurilmasi. U muhofaza qilinayotgan axborotni ruxsatsiz olish maqsadida axborotlashtirish

obyekti (ma'lumotlarni uzatish tarmog'i)ga maxfiy tarzda o'rnatiladi yoki ulanadi.

Apple Computer korporatsiyasi

ingl.: Apple Computer corporation

rus.: корпорация Apple Computer

Mikroprotsessor va shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqaruvchi kompaniya. Apple Computer AQSHda 1976 yili Steven Jobs va Steve Wozniak tomonidan yaratilgan va shaxsiy kompyuterlarni ishlab chiqarishning asoschisi va yetakchilaridan biri hisoblanadi. Apple Computer, shuningdek, ular uchun keng ko'lamdag'i amaliy tizim va dasturiy ta'minot ishlab chiqaradi. Apple kompyuterlari katta imkoniyatlari va ularga xizmat ko'rsatish osonligi bilan farqlanadi. Elektron idoralar va o'rgatuvchi tizimlarda ayniqla mashhur.

Applening asosiy yangi tomonlari quydagi lardan iborat:

- ilk bor 1983 yili Lisa kompyuterida taqdim etilgan foydalanuvchining grafik interfeysi.
- rang. 1977 yilda ishlab chiqarilgan Apple II kompyuteri birinchi rangli monitorli kompyuter bo'lgan.
- ichiga o'rnatilgan tarmoqni qo'llab-quvvatlash. 1985 yilda Apple kompaniyasi ichiga o'rnatilgan tarmoqni qo'llab-quvvatlash (LocalTalk)ga ega Macintosh kompyuterining yangi rusumini ishlab chiqargan.
- "Plug-and-play" texnologiyasi.
- QuickTime. 1991 yilda Apple kompaniyasi QuickTime, video, audio va boshqa ko'ptashuvchili qo'llanmalar uchun ko'pmaslakli standartni taqdim etgan.
- ichiga o'rnatilgan teleko'rsatuv. 1993 yilda Apple kompaniyasi Macintosh TV, ichiga o'rnatilgan teleko'rsatuv va stereo CD aks ettiruvchiga ega birinchi shaxsiy kompyuterni ishlab chiqargan.
- RISC. 1994 yilda Apple kompaniyasi RISC mikroprotsessoriga asoslangan Power Mac kompyuterini taqdim etgan.

applet

ingl.: applet

rus.: апплет

Amaliy dastur. Applet atamasi oxirgi paytlarda ayniqla Umumjahon o'rgimchak to'ri WWW texnologiyalarining rivojlanishi tufayli keng tarqalgan. Ushbu texnologiyalar interaktiv veb-sahifalarini yaratish maqsadida appletlarni veb-

hujjatlariga qo'shish imkonini beradi. Bunday appletlarni yaratishda odatda Java dasturlash tili qo'llaniladi, shuning uchun ham ular odatda Java appletlari deyiladi.

aqliy multk

ingl.: intelligent property

rus.: интеллектуальная собственность

1. Aqliy faoliyat natijalariga alohida huquqlar. 2. Ijodiy faoliyat va xususiy lash vositalari natijalariga bo'lgan jami alohida huquqlarni ifoda etuvchi jamlovchi tushuncha. Aqliy multk adabiy, badiiy va ilmiy asarlar, artistlarning ijrochilik faoliyati, ovoz yozish, radio va televizion dasturlari, ixtiro, sanoat mahsulotlari, savdo belgilari, firma nomlari va h.k.larga tegishli huquqlarni ham qamrab oladi. Aqliy multk tushunchasi birinchi bor 1967 yilda Xalqaro aqliy multk tashkilotini ta'sis etuvchi Konvensiya bilan kiritilgan.

aqliy xavfsizlik

ingl.: intelligent security

rus.: интеллектуальная безопасность

Jamiyatning aqliy sohasi, uning kognitiv tuzilmalari (ilmiy maktablar, tadqiqot markazlari, laboratoriylar, universitetlar va h.k.) hamda inson aqliy qobiliyatlarining zararli ta'sirlardan muhofaza qilinganlik holati.

aqlii interfeys

ingl.: intelligent interface

rus.: интеллектуальный интерфейс

Foydalanuvchining kompyuter bilan tabiiy tilda o'zaro aloqada bo'lishni ta'minlovchi interfeys. Aqlii interfeys, odatda, foydalanuvchining kasbiy tilini o'giruvchi muloqot protsessori va vazifa tafsifini bilimlar bazasida saqlanuvchi axborot asosida uni bajarish dasturiga qadam-baqadam o'giruvchi loyihalashtirgichni o'z ichiga oladi.

aqlii tarmoq

ingl.: smart network

rus.: разумная сеть

Ma'lumotlarni uzatishdan tashqari murakkab axborot xizmatlarining rang-barang turlarini taqdim qiluvchi kommunikatsiya tarmog'i.

qarang: tafakkurli tarmoq

aqlii o'rgatuvchi tizim

ingl.: intelligent learning system

rus.: интеллектуальная обучающая система

Avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizim. U o'rghanuvchiga o'rghanish jarayonida muloqot olib borish, savollarga javob berish va vazifalarni tabiiy tilda bajarish imkonini beruvchi aqliy interfeysga ega.

ARA

qisq.:

1. Advanced RISC Architecture – Yaxshilangan RISC-arxitektura.
2. Automatic Rate Adaptation – Uzatish tezligini avtomatik sozlash.

aralash portal

ingl.: blended portal

rus.: смешанный портал

O'zida elektron savdo vazifalari va an'anaviy ma'lumotnomalarini xizmatlarini mujassamlantirgan portal.

ARIB

qisq.: Association Radio Industry and Broadcasting ARIB uyushmasi. Yaponiyadagi radio eshitirish uyushmasi.

ARLL

qisq.: Advanced RLL

Takomillashtirilgan RLL. Qattiq magnit disklarga yozish usuli.

ARP

qisq.: Address Resolution Protocol

Manzilni aniqlash (ruxsat berish) bayonnomasi, ARP bayonnomasi. TCP/IP oilasiga mansub, IP-manzilni tarmoqdagi qurilmaning manziliga o'zgartirib beradigan bayonna (masalan, tarmoq kartasining MAC- manzili).

ARPA

qisq.: Advanced Research Projects Agency

(xuddi shunday DARPA ham) Istiqbolli tadqiqot loyihalari bo'yicha agentlik. Harbiy sohadagi ilmiy-tadqiqotlarni muvofiqlash-tiruvchi, AQSH mudofaa vazirligiga bo'ysunuvchi tuzilma. ARPA nomi bilan TCP/IP bayonnomalari oilasi ishlab chiqilgan va ARPAnet tarmog'i yaratilgan.

ARPAnet

qisq.: Advanced Research Projects Agency NETwork ARPAnet tarmog'i. Paketlarni uzib-ulaydigan ma'lumotlar uzatishga oid dastlabki global tarmoqdan biridir. ARPA tashabbusi Bilan 1968

yili hozirgi Internet tarmog'ining tajribaviy nusxasi namuna sifatida yaratilgan.

arxitektura

ingl.: architecture

rus.: архитектура

Murakkab obyektning tuzilishi, bajarilayotgan vazifalari va tarkibiy bo'laklarining o'zaro bog'liqligini belgilovchi konsepsiya. Tarmoq me'moriy tuzilmasi uning asosiy elementlari va ularning o'zaro ishlash tavsifi va topologiyasini belgilaydi. Axborot tizimi tarkibiy tuzilmasi uning umumiy mantiqiy tuzilishi, dasturiy-apparat ta'minotini, kodlash uslublarishi ta'riflaydi va foydalanuvchining tizim bilan interfeysi belgilaydi.

arxiv

ingl.: archive

rus.: архив

Arxivator yordamida ochish mumkin bo'lgan, tarkibida bir yoki ko'p (odatda kompressiyalangan) fayllar va axborot bo'lgan fayl. Arxivlar odatda dasturiy mahsulotlar yoki rezerv nusxalarini tarqatish uchun yaratiladi. tar, gzip formatidagi arxivlar UNIX; zip, rar, arj formatidagi arxivlar esa Windows amaliy tizimlarida ishlataladi.

arxiv fondi

ingl.: archive fund

rus.: архивный фонд

O'zaro tarixiy va mantiqiy bog'liq bo'lgan jami arxiv hujjatlar.

arxiv hujjati

ingl.: archive document

rus.: архивный документ

1. Axborot tashuvchisi turidan qat'iy nazar davlat va jamiyat uchun ahamiyatliligi sababli saqlanayotgan yoki saqlanishi lozim bo'lgan, hamda mulkdori uchun tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy qiymatga ega bo'lgan hujjat.
2. Jamiyat uchun ahamiyatliligi sababli saqlanayotgan yoki saqlanishi lozim bo'lgan, hamda mulkdori uchun qiymatga ega bo'lgan hujjat.

arxiv ishi

ingl.: archive business

rus.: архивное дело

Arxiv hujjatlarini saqlash, ro'yhatga olish va ulardan foydalanishni tashkil qilish faoliyati.

arxivator

ingl.: archiver

rus.: архиватор

Tashqi qurilmada ixcham va uzoq muddatli saqlash uchun fayllarni zichlash (arxivlash) va zichlangan fayllarni dastlabki shaklga qaytarish (arxivsizlash) uchun mo'ljallangan dastur yoki dasturlar majmui. Shaxsiy kompyuterlarda eng keng tarqlagan arxivatorlar – PKZIP, ARJ, RAR. Ularning barchasi fayllarni ixchamroq saqlash imkonini berishdan tashqari quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ish katalogining barcha, ba'zi yoki muayyan qolipga mos fayllarini arxiv fayliga qo'shish;
- fayllarni arxiv fayliga qo'shish;
- fayllarni arxiv fayldan o'chirish;
- arxiv fayli tarkibini ko'rish;
- arxiv faylidan alohida fayllarni olish yoki barcha fayllarni arxivsizlash;
- boshqa tizimda arxivsizlash dasturi mavjudligini talab qilmaydigan o'zi ochiladigan arxiv fayllarni yaratish.

ASAP

qisq.:

1. As Soon As Possible – Iloji boricha tezroq.
2. Automatic Switching And Processing – [ma'lumotlar paketlarini] Avtomatik uzib-ulash va ularga ishlov berish.

ASCI

qisq.: Accelerated Strategic Computing Initiative

Superkompyuterli strategiyivi tashabbusi, ASCI dasturi. AQSH energetika vazirligining yerosti yadro portlashlarini modellashga qodir superkompyuterni yaratishga qaratilgan uzoq muddatli dasturi.

ASCII

qisq.: American Standard Code for Information Interchange

Axborot almashuvi uchun amerika standart kodi, ASCII kodi.

ASIC

qisq.: Application-Specific Integrated Circuit

Ixtisoslashgan mikrosxema.

asinxron uzatish

ingl.: asynchronous transmission

rus.: асинхронная передача

Ma'lumotlarni bittama-bitta belgi bilan uzatish uchun qo'llaniladigan uzatish uslubi. Bunda

belgilarni uzatish orasidagi muddat teng bo'imasligi mumkin. Har bir belgidan oldin boshlanish bitlari keladi, belgi uzatishning tugashi esa to'xtash bitlari bilan belgilanadi. Ba'zan ushbu uzatish uslubini boshla-to'xta uslubi deyiladi (start-stop transmission).

ASN.1

qisq.: Abstract Syntax Notation One

ASN.1 tili, 1 rusum uchun mavhum sintaksis qoidasi. OSI da ishlataladigan mavhum sintaksiga asoslangan tuzilmalarni tavsiflash tili.

asosiy funksional profil (kasbiy yo'naliш)

ingl.: basic functional profile

rus.: базовый функциональный профиль

Bir necha o'zaro bog'liq pog'onalarini o'z ichiga olgan va o'zaro ta'sir sohasining faqat bir qism pog'onalarini bayonnomalari bilan belgilanadigan funksional kasbiy yo'naliш. Asosiy funksional kasbiy yo'naliш uning asosida yaratiladigan to'la yoki chala funksional kasbiy yo'naliшga poydevor bo'ladi, shu sababli mustaqil ahamiyatga ega emas.

asosiy ma'lumotlar massivi

ingl.: basic data array

rus.: базовый массив данных

Mashina o'qiy oladigan tashuvchilardagi axborot. U ma'lumotlar bankining asosi bo'lib ma'lumotlarni ta'riflashning yagona tili talablariga muvofiq tashkil etiladi.

asosiy raqamli kanal

ingl.: primary digital channel

rus.: канал основной цифровой

64 kbit/sek tezlikda signallar uzatishga mo'ljallangan namunaviy raqamli kanal.

asosiy xotira qurilmasi

ingl.: main storage device

rus.: основное запоминающее устройство

qarang: tezkor xotira qurilmasi

asosyo'l-yo'lli kanal

ingl.: baseband channel

rus.: основополосный канал

Signal modulyatsiya qilinmasdan uzatiladigan jismoniy kanal. Eng sodda vositalar: o'rama juftlik yoki yassi ekranlanmagan kabel asosida yaratiladi. Ko'rilyayotgan kanalning nomi yo'l-yo'l asosli signal, ya'ni modulyatsiyasiz, asosiy

yo'l-yo'lda (kenglikda) uzatilayotgan signal nomidan kelib chiqqan.

asosyo'l-yo'lli signal

ingl.: baseband signal

rus.: основополосный сигнал

Dastlabki shaklda, modulyatsiya bilan o'zgartirilmay, uzatilayotgan signal.

ASP

qisq.:

1. Active Server Pages – ASP texnologiyasi, faol server sahifalari.

Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan texnologiya. Mazmuni dinamik tarzda shakllanriladigan Web-bog'lamalarni yaratish uchun mo'ljallangan.

2. Application Service Provider – Qo'llanmalar ijarasi bo'yicha xizmatni ko'rsatuvchi.

ASP sahifasi

ingl.: ASP page

rus.: страница ASP

Dinamik o'zaro faol veb qo'llanmalarini yaratish uchun server tomonidagi ssenariylar texnologiyasi. ASP fayli ssenariylarga ega va ASP bilan uyg'un veb-serveri tomonidan bajariluvchi hujjatdir. Ssenariylarni bajarishdan keyin veb-serveri natijada hosil bo'lgan sahifalar va fayllarni veb-brauzeriga jo'natadi.

ASPI

qisq.: Advanced SCSI Programming Interface

SCSI uchun dasturlashning takomillashtirilgan interfeysi.

ASR

qisq.: Automatic Speech Recognition

Nutqni avtomatik tarzda tanish.

Assembler tili

ingl.: Assembly language

rus.: язык Ассемблера

Tushunchalari kompyuter me'moriy tuzilmasini aks ettiradigan quyi pog'ona dasturlash tili. Assembler tili tarkibiga jumlalar, buyruqlar va ma'lumotlar formatlari kiradi, ular muayyan kompyuter imkoniyatlariiga bir qiyamli tarzda mos keladilar. Boshqacha qilib aytganda, har bir operatorga kompyuterning biror buyrug'i mos keladi. Assembler tilidan mashina tiliga o'girishni avtomatlashtirish uchun yaratilgan dasturlar assemblerlar deb ataladi.

Assemblerlarning kirishiga Assembler tilida yozilgan dastlabki dastur kiritiladi. Assembler chiqishida, mashina buyruqlaridan tarkib topgan dastur beriladi. Disassembler deganda, mashina kodidan Assembler tilida yozilgan dasturga o'zgaruvchi dastur nazarda tutiladi.

AST

qisq.: Atlantic Standard Time

Standart Atlantika vaqt. AQSHning Atlantika qirg'oqlaridagi vaqt kamari.

AT

qisq.:

1. Advanced Technology – Yetakchi texnologiya.
2. ATtentions command - AT-buyruq. Modemni boshqarish buyrug'i.

AT&T korporatsiyasi

ingl.: AT&T corporation

rus.: корпорация AT&T

Axborot tarmoqlarini ishlab chiquvchi, ishlab chiqaruvchi va ularni ishlatuvchi kompaniya. «Amerika telefon va telegrafi» AT&T kompaniyasi AQSHda 1885 yilda yaratilgan, birinchi telefon apparatidan tortib zamonaviy aqliy tarmoqqacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan va eng katta telekommunikatsiya korporatsiyasiga aylangan. AT&T 300ga yaqin mamlakatni qamrovchi va 90 milliondan ortiq abonentga ega bo'lgan global aqliy tarmoq egasi va operatoridir.

AT/MIDI

Avvalo klaviaturalalar (PS/2 gacha), hozirgi paytda esa asosan musiqa klaviaturalari va sintezatorlari ulanadigan portlar.

ATA

qisq.: Advanced Technology Attachment, AT Attachment

ATA interfeysi. Shaxsiy kompyuterlarda diskli to'plovchiga ulanish va undan erkin foydalanish uchun ishlatiladigan interfeyslar va bayonnomalar yig'masi.

ATM

qisq.: Asynchronous Transfer Mode

ATM bayonnomasi, uzatishning asinxron rejimi. Yuqori tezlikda ma'lumotlarni uzatuvchi tarmoqlarni qurish texnologiyasi, ITU standarti. Ma'lumotlar qaydlangan uzunlikdagi (53 bayt)

paketlarga («uyalarga») o'zgartiriladi, bu esa ularni yuqori tezlik bilan uzib-ulash imkonini beradi.

ATM asosiy funksional profili (kasbiy yo'naliш)

ingl.: ATM basic functional profile

rus.: базовый функциональный профиль ATM

Asinxron usulda uzatishning asosiy funksional kasbiy yo'naliш.

ATM Forum konsorsiumi

ingl.: ATM Forum consortium

rus.: консорциум ATM Forum

Uzatishning asinxron usulini ishlatadigan tarmoqlar uchun xalqaro standartlar ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan tashkilot. ATM Forum konsorsiumi 1991 yilda katta korporatsiyalar guruhi tomonidan tuzilgan.

ATM uzib-ulagichi

ingl.: ATM switch

rus.: коммутатор ATM

Uzatishning asinxron usuli standartlariga mos ravishda, ma'lumotlar bloklarini tezkor qayta uzatishni ta'minlaydigan uzib-ulagich. ATM uzib-ulagichi ma'lumotlarni ming Mbit/s li tezlikkacha uzatadigan kanallar bilan ishlaydi. Bu mahalliy tarmoqlar, asosiy kompyuterlar va yuqori tezlikdagi ishchi stansiyalarni bir-biri bilan aloqasini ta'minlaydi. ATM uzib-ulagichlarining o'tkazish qobiliyati o'nlab Gbit/s ga yetishi mumkin. Bunga erishish uchun qayta uzatish faqat apparat vositalar bilan amalga oshiriladi. Uzib-ulagichlar «qaynoq almashtirish» imkoniyatlari ega, ya'ni, undagi modullarni uzib-ulagichni tarmoqdan o'chirmay almashtirish mumkin.

atribut

ingl.: attribute

rus.: атрибут

Xususiyat, sifat yoki miqdor belgisi. U makondagi obyektni ta'riflovchi (biroq uning qayerda joylashganligini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lмаган) va uning noyob soni ya'ni aniqlowchisi bilan bog'liqlikda tasavvur qilinadi. Atribut ko'rsatkichlari majmuasi odatda ma'lumotlar bazalarini relyatsion boshqarish tizimi vositalari yordamida jadvallar shaklida taqdim etiladi. Kengroq ma'noda atribut deganda obyektning xohlagan, makondagi yoki makonda bo'lмаган xususiyati tushuniladi;

bunday holda makondagi atributlar va makonda bo'lmagan atributlar ajratiladi. Makondagi obyektlarga atribut berish yoki obyektlarni atribut bilan bog'lash jarayoni atributlash deyiladi.

attestatsiya

ingl.: *attestation*

rus.: *аттестация*

Ma'lum talablarga muvofiqlikni baholash. Obyektlar, xonalar, texnik vositalar, dasturlar, algoritmlar tegishli xavfsizlik darajalariga ko'ra muhofaza nuqtai nazaridan axborot muhofazasi talablariga muvofiqligi bo'yicha shahodatlashdan o'tishi lozim.

ATX

qisq.: *AT extension*

AT formatini kengaytirmasi, shaxsiy kompyuterni bir necha yil oldin ishlab chiqilgan tanasining tuzilishini va mos ravishda tegishli ona platuning form-omili. Pentium II protsessorlarining paydo bo'lishi bilan ommaviy sifatda foydalana boshlandi, chunki, bu protsessorga ona platalar faqat ATX formatida (juda katta istisno bilan) chiqariladi.

audiovizual asar

ingl.: *audiovisual product*

rus.: *аудиовизуальное произведение*

O'zaro bog'liq kadrlarning (tovush jo'rлигидаги yoki tovush jo'rлигисиз) belgilangan tartibidan iborat bo'lgan, tegishli texnik vositalar yordamida ko'rish yoki eshitish (tovush jo'rлигидаги bo'sa) orqali qabul qilish uchun mo'ljallangan asar. Audiovizual asar ichiga, ularning dastlabki yoki keyingi saqlanishidan qat'iy nazar, kinematografik asarlar va kinematografiya vositalari orqali taqdim etiladigan barcha asarlar (tele- va videofilmlar, diafilmlar va slaydfilmlar va shular kabi) kiradi.

audit jurnali

ingl.: *audit journal*

rus.: *журнал аудита*

Kompyuter muhofazasida - muhofazani tekshirish paytida ishlatalish imkonini yaratishni ko'zlab yig'ilgan ma'lumotlar

auditoriya

ingl.: *audience*

rus.: *аудитория*

Tashrifchilarning umumiyligi ta'rifi. Ular uchun muayyan sayt, portal, majmua yoki Internetning boshqa resursi mo'ljallangan. Resursni namoyish etish uslubi auditoriya xususiyatiga bog'liq, auditoriya hajmi esa Internet loyihasi muvaffaqiyatining muhim o'lchovidir.

autentifikatsiya

ingl.: *authentication*

rus.: *автентификация*

1. Obyektning e'lon qilingan bir xillagini tekshirish jarayoni.
2. Subyekt taqdim etgan aynanlovchi (identifikator) unga tegishliligini tekshirish; haqiqiyligini tekshirish.
3. Foydalanuvchining tizimdan erkin foydalanish uchun kiritgan qayd etilgan axborotining to'g'riligini tekshirish tartibi. Autentifikatsiya resurslardan erkin foydalanish huquqlari va tizimda amallarni bajarish huquqlarini majburan cheklash uchun qo'llaniladi.

AUX

qisq.: *AUXilliary*

Ko'makchi.

AVI

qisq.: *Audio-Video Interleaving*

Audio va videoni galma gal ulash uchun AVI formati. Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan videotasvirni va u bilan sinxronlashgan tovushni saqlash uchun mo'ljallangan fayl formati

AVR

qisq.: *Automatic Voice Recognition*

Nutqni avtomatik tarzda tanish.

avto terish

ingl.: *call-back*

rus.: *автомодозвон*

Kerakli raqam, agarda u "band" bo'lsa yoki javob bermasa avtomatik ravishda terish imkonini beruvchi funksiya. Telefon qisqa vaqt ichida avtomatik ravishda abonent raqamini qayta teradi.

avtojavobberuvchi

ingl.: *telephone answering device*

rus.: *автомоответчик*

Telefon yoki modemning abonentlar uchun nutqiy axborotni aks ettirish va abonentlar

xabarlarini disk, kasseta yoki flash xotiraga yozish imkonini beruvchi funksiyasi.

avtomatik telefon stansiyasining xizmat zonasi

ingl.: *activity zone of automated telephone station*
 rus.: зона действия автоматической телефонной станции

Mazkur telefon stansiyasi yoki sub stansiyasi joylashgan hudud. Bu hududda telefon stansiyasi yoki substansiyasiga ulangan magistral, tarqatuvchi tarmoqning kabel (havodagi) liniyalari hamda radio erkin foydalanish vositalari mavjud. Shu uskunalar bilan zonani telefonlashtirish mumkin bo‘ladi.

avtomatik tizim

ingl.: *automated system*

rus.: *автоматическая система*

Inson ishtirokisiz mustaqil faoliyat qiluvchi dasturiy va apparatli vositalar tizimi.

avtomatik shifrni buzib ochish

ingl.: *automated deciphering*

rus.: *автоматическое дешифрование*

qarang: avtomatlashtirilgan shifrni buzib ochish

avtomatlashtirilgan texnologiyasi

axborot

ingl.: *automated information technology*

rus.: *автоматизированная информационная технология*

Ma‘lumotlarni uzatish, to‘plash, saqlash va qayta ishslash uchun hisoblash texnikasi va aloqa tizimlari usullari va vositalari qo‘llaniladigan axborot texnologiyasi.

avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va ularning texnologiyalarini ta’minalash vositalari

ingl.: *automated information systems and technologies support tools*

rus.: *средства обеспечения автоматизированных информационных систем и их технологий*

Axborot tizimlarini loyihalash va ulardan foydalanishni ta’minalash uchun foydalaniladigan yoki yaratiladigan dasturiy, texnikaviy, lingvistik, huquqiy, tashkiliy vositalar (kompyuter uchun dasturlar; hisoblash texnikasi va aloqa vositalari; lug‘atlar, tezauruslar va tasniflagichlar; ko‘rsatmalar va uslubiyatlar; qoidalar, nizomlar, lavozim

ko‘rsatmalar; chizmalar va ularning tasniflari, boshqa foydalanish va kuzatish hujjatlari).

avtomatlashtirilgan boshqaruva tizimi (ABT)

ingl.: *automatized management system*

rus.: *автоматизированная система управления (ACV)*

Matematik uslublar, texnik vositalar (kompyuterlar, aloqa vositalari, ma‘lumotlarni chiqarish qurilmalari va h.k.) va tashkiliy majmuular to‘plami. U belgilab olingan maqsadga muvofiq murakkab obyekt (jarayon)ni boshqarishni ta’minalaydi. ABT asos va funksional qismlarga bo‘linadi. Asosga axboriy, texnikaviy va matematik ta’motlar kiradi. Funksional qismga aniq boshqaruva vazifalarini (loyihalashtirish, moliyaviy-hisobot faoliyati va h.k.) avtomatlashtiruvchi o‘zarbo‘liq dasturlar to‘plami kiradi. Ikki turdag‘i ABT mavjud. Bular, obyektlar miqyosida avtomatlashtirilgan tizimlar (texnologik jarayonlar uchun-TJABT, korxona uchun -KABT, soha uchun -S ABT) va funksional avtomatlashtirilgan tizimlardir. Funksional ABTga loyihalashtirish, hisob-kitob, moddiy-tekhnika va boshqa ta’motlar uchun mo‘ljallangan ABT misol bo‘la oladi.

avtomatlashtirilgan ish joyi (AJ)

ingl.: *automated work place*

rus.: *автоматизированное рабочее место (APM)*

1. Texnik va dasturiy vositalarning shaxsiy majmuasi. U mutaxassis kasbiy mehnatini avtomatlashtirishga qaratilgan va unga kerakli hujjat va ma‘lumotlarni tayyorlash, tahrir qilish, izlash va (ekran yoki qog‘ozga) chiqarishni ta’minalaydi. AJ shaxsiy kompyuterdag‘i alohida avtomatlashtirilgan tizim shaklida amalga oshirilgan yoki avtomatlashtirilgan tizim atamasi bo‘lishi mumkin.

2. Foydalanuvchining muloqat (interaktiv) holatida ishlashi uchun mos mahalliy hisoblash tarmog‘i bog‘lamasi.

avtomatlashtirilgan tizim

ingl.: *automatized system*

rus.: *автоматизированная система*

Inson faoliyati jarayonini avtomatlashtirishga qaratilgan dasturiy va apparatli vositalar tizimi. Avtomatik tizimidan farqli o‘laroq. Avtomatlashtirilgan tizim har doim inson

ishtirokida faoliyat ko'rsatadi va inson uning asosiy bo'g'inidir.

avtomatlashtirilgan tizim matematik ta'minoti

ingl.: *mathematical support of automated system*

rus.: *математическое обеспечение автоматизированной системы*

Tizimni boshqarish va uning yordamida hisoblash texnikasida axborotga ishllov berish vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan jami algoritmlar va dasturlar.

avtomatlashtirilgan tizim resursining xavfsizligi

ingl.: *security of automated system's resources*

rus.: *безопасность ресурса автоматизированной системы*

Maxfiylik, butunlik va kirishimlilik kabi uch tavsifni ta'minlashdan iborat. Tizim tarkibiy qismining maxfiylichi shundaki, unga faqat tegishli vakolatlarga ega bo'lgan subyektlar (foydanuvchilar, dasturlar, jarayonlar) kira oladi.

Tarkibiy qismning butunligi uni, faqat tegishli huquqqa ega bo'lgan subyekt tomonidan uni o'zgartirish mumkinligi nazarda tutiladi. Kirishimlilik, tegishli vakolatlarga ega bo'lgan subyekt har qachon alohida muammolarsiz tizimning zarur bo'lgan tarkibiy qismidan (resursidan) erkin foydalanishi mumkinligini bildiradi.

avtomatlashtirilgan tizimda axborotga ishllov berish

ingl.: *information processing in automated system*

rus.: *обработка информации в АС*

Avtomatlashtirilgan tizim vositalaridan foydalanib axborot ustida bajariladigan amallar (yig'ish, jamg'arish, saqlash, o'zgartirish, in'ikos etish, chiqarish va shu kabilar) majmuasi.

avtomatlashtirilgan tizimning nintizimi

ingl.: *subsystem of automated system*

rus.: *подсистема автоматизированной системы*

Avtomatlashtirilgan tizimning aniq maqsad va vazifalarga javob beruvchi funksional yoki tuzilish xususiyati bo'yicha ajratilgan qismi.

avtomatlashtirilgan tizimning texnik ta'minoti

ingl.: *hardware of automated system*

rus.: *техническое обеспечение автоматизированной системы*

Avtomatlashtirilgan tizim ishini ta'minlashga mo'ljallangan texnik vositalar majmuasi.

A

avtomatlashtirilgan tizimning xavfsizligi

ingl.: *automated system security*

rus.: *безопасность автоматизированной системы*

Avtomatlashtirilgan tizimning me'yoriy faoliyati jarayoniga ruxsatsiz aralashishdan, hamda o'g'irlash, uni tarkibiy qismlarini noqonuniy takomillashtirish yoki barbob qilishdan muhofazalanganligi.

avtomatlashtirilgan shifrni buzib ochish

ingl.: *automatized deciphering*

rus.: *автоматизированное дешифрование*

Ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishslash jarayonining bosqichlaridan biri. U raqamli tasvirlar shaklida taqdim etiladigan ma'lumotlarni masofadan zondlashdir. Tasvirlarni kompyuterga kiritish, mavzu bo'yicha shifrni buzib ochish va ma'lumotlarni ekspert baholashlarni o'z ichiga oladi.

avalgi iz

ingl.: *cookies*

rus.: *куки*

Foydalanuvchi brauzerini, veb-serverga tashrif buyurganda veb-server qo'yib chiqadigan belgidan iborat ma'lumotlar (katta bo'limgan blok). Foydalanuvchi keyin tashrif buyurganda, server bu yerda uning avval bo'lganini biladi. Shuni hisobga olib, masalan, o'tgan gal ko'rsatgan bannerini bu gal unga ko'rsatmaydi. Takomillashgan tizimlarda, cookies-tehnologiya yordamida tashrifchining qiziqishlarini o'rganib va uni har tashrifida tegishli reklamani ko'rsatish mumkin. Avvalgi iz, misol uchun loginlarni, «shopping cart» ma'lumotni va boshqalarni eslab qolishga qodir.

AWK

qisq.: *Aho, Weinberger, Kernighan*

AWK tili. UNIX muhitida ishlataladi. Tilning nomi uning ijodkorlari familiyalarining birinchi harflaridan iborat.

AWT

qisq.:

1. Abstract Windowing Toolkit – Mayhumi darchalarini boshqarish uchun uskunalar, AWT paketi. Grafik interfeysi dasturlash uchun

xizmat qiladigan Java maslagining standart paketlaridan biri.

2. Average Work Time – O'rtacha ishlash vaqt.

axboriy dasturiy qurol

ingl.: *information software weapon*

rus.: *информационно-программное оружие*

Maxsus qurol. U apparatli, dasturiy-matematik ta'minot, axborot (ma'lumotlar), jumladan axborot kompyuter tizimlari (tarmoqlari)ni muhofaza qilish vositalariga vayron qiluvchi dasturiy ta'sir ko'rsatishga asoslangan

axboriy huquqiy me'yorlar

ingl.: *information legal norms*

rus.: *информационно-правовые нормы*

qarang: axboriy huquqiy normalar

axboriy huquqiy munosabatlar

ingl.: *information legal relation*

rus.: *информационное правоотношение*

Axborot-huquqiy me'yor bilan tartibga solingen axboriy ijtimoiy munosabat. Munosabat tomonlari axborot-huquqiy me'yor bilan belgilangan va kafolatlangan o'zaro huquq va majburiyatlar tashuvchilari sifatida qatnashadi.

axboriy huquqiy normalar

ingl.: *information legal norms*

rus.: *информационно-правовые нормы*

Axborot sohasida axborot huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish va axborotning aylanishida axborot jarayonlarning amalga oshirilishi tufayli paydo bo'luvchi ijtimoiy munosabatlarning alohida guruhlarini tartibga soladi.

axboriy huquqiy tizim

ingl.: *information legal system*

rus.: *информационно-правовая система*

Kompyuterga o'rnatiladigan va maxsus dasturiy majmua yordamida turli izlash vazifalarini (aktlarni hujjat nomi, qabul qilingan sanasi, me'yoriy akt turi va h.k. bo'yicha izlash) bajarishi mumkin bo'lgan huquqiy axborotning avtomatlashtirilgan ma'lumotlar banki. Zamонави axboriy huquqiy tizimlar odatda dasturiy qobiq va unga qo'shiladigan ma'lumotlar bazalaridan (masalan, huquq sohalari bo'yicha) iborat bo'ladi.

axboriy tabaqlanish

ingl.: *information divide*

rus.: *информационное неравенство*

1. Eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda bir xil imkoniyatlar yo'qligidan kelib chiqqan ijtimoiy tabaqlanishning yangi turi.

2. Axborot tuzilmalari, vositalari va ularning fuqarolar orasida tekis taqsimlanish jarayonlari taqdirini fuqarolik huquqlari va farovonlik masalalari bilan bog'lovchi tamoyillarni qo'llab-quvvatlovchilar uchun tavsiif atmasi.

3. Sivilizatsiya rivojlanishining yangi muammosi. Uning mazmuni shundaki, jamiyatni axborotlashtirish jarayonida paydo bo'layotgan yangi yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitidan foydalanish imkoniyatlarining jahon hamjamiatining alohida kishilari, tashkilotlari, mintaqalari va mamlakatlari uchun bir xil darajada bo'lmaslidigidir.

axboriy yondashuv

ingl.: *information approach*

rus.: *информационный подход*

Ilmiy bilişning tag-zaminli uslubi. Uning ma'nosi shundaki, tabiat va jamiyatdagi xohlagan obyekt, jarayon yoki hodisani o'rganayotganda birinchi navbatda ularning faoliyati va rivojlanishini belgilovchi eng namunali axborot xususiyatlari aniqlanib tahlil qilinadi.

axborot

ingl.: *information*

rus.: *информация*

1. Taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxs, predmet, dalil, voqeа, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar.

2. Dalil, voqeа, hodisa, predmet, jarayon kabi obyektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar) hamda tushunchalar yoki buyruqlar.

3. Ma'lum xos matnda aniq ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ichiga oluvchi dalil, voqeа, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi obyektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar).

4. Qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan va saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar. Kitob matni, ilmiy formulalar, bank hisob raqamidan erkin foydalanish va to'lovlar, dars jadvali, o'lchash majmularining Yer va fazo stansiysi o'rtasidagi masofa to'g'risidagi xabarlar va h.k. axborotlar bo'lishi mumkin. Hisoblash mashinasi ishi uchun zarur bo'lgan axborot



qayta ishlaniishi lozim bo'lgan ma'lumot va dasturdan iborat bo'lib, dastur ushbu ma'lumotlar bilan nima va qaysi tartibda bajarilishi lozimligini belgilaydi (yoki foydalanuvchiga belgilash imkonini beradi). Axborot nur, tovush va radio to'lqinlari, elektr toki yoki kuchlanishi, magnit maydoni, qog'ozdag'i belgililar shaklida yaratilishi va tashilishi mumkin. Umuman olganda, xohlagan moddiy tuzilma yoki energiya oqimi axborotni tashishi mumkin. Axborotdan foydalanish ko'lamlari jamiyat rivojlanishi darajasini belgilaydi.

5. Turli obyektlarning o'zaro ishlashida ro'y beruvchi aks etish jarayonining faol harakatlarni ta'minlash uchun yaroqli natijalari. Shuningdek, birov, bирор нарса то'г' risidagi ma'lumotlar.

6. Aks etgan xilma-xillik.

axborot agentligi

ingl.: *information agency*

rus.: *информационное агентство*

Matbuot, radio, kino, televide niye, telefotografiya sohasidagi ixtisoslashtirilgan tashkilot. U axborot materiallarni to'plash bilan muntazam shug'ullanadi va bir paytning o'zida tahririyat, nashriyot va tarqatuvchi statusiga egadir.

axborot asosida o'zaro ishlash

ingl.: *information interaction*

rus.: *информационное взаимодействие*

Ma'lumotlar (axborot) oluvchilardan kamida birining bilimi o'zgarishiga olib keluvchi ma'lumotlar (axborot) almashish jarayoni. Tirik va texnik tizimlarda axboriy aloqada o'zaro ishlashlarning murakkab pog'onalar shajarasi mavjud bo'lib, ular ko'pincha ikkita sxemaga asoslanadi:

uzatuvchi – kodlash qurilmasi – aloqa kanali – dekodlash qurilmasi – qabul qiluvchi (K.Shennonning an'anaviy sxemasi);

N.Vinerning boshqaruv sxemasi, unda to'g'ri axborot oqimi bilan birga teskarri, ya'ni boshqarilayotgan obyekt (tizim) haqidagi axborotni uzatuvchi oqim ham mavjud bo'ladi.

Amaliy masalalarni yechishda foydalanuvchilar orasida axboriy aloqada o'zaro ishlashlari uchun optimal sharoitlarni tashkil qilish aslida Internetning asosiya vazifasidir.

axborot balansi

ingl.: *information balance*

rus.: *баланс информационный*

Axborotning miqdor va sifat turlarining muayyan munosabati. U axborot makonining uyg'unlik holatini belgilaydi.

axborot biznesi

ingl.: *information business, infobusiness*

rus.: *информационный бизнес, инфобизнес*

Biznesda axborot texnologiyalari. Jamiatning ish faoliyatidagi yangi yo'naliш. U axborot bozorida savdo va oraliq vazifalarini amalga oshirish, shuningdek jamiyatni ommaviy axborotlashtirish vositalarini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ijara berish, sug'urta qilish, moliyaviy va ish kuchi bilan ta'minlashlarni tashkil qilish bilan bog'liq.

axborot bozori

ingl.: *information market*

rus.: *информационный рынок*

1. Jamiatda iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy munosabatlar tizimi. U axborot texnikasi vositalari, axborot texnologiyalari, axborot mahsulotlari savdosini hamda foydalanuvchilarga tijorat asosida axborot xizmatlari ko'rsatishni ta'minlaydi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot mahsulotlari va xizmatlari bozori.

axborot bozori makoni

ingl.: *marketspace*

rus.: *рыночное информационное пространство*

Axborot texnologiyalariga asoslangan va ular tomonidan boshqariladigan bozorlar.

axborot but saqlanganligi

ingl.: *information safety*

rus.: *охранность информации*

Axborotning, uning mazmunining o'zgarmasligi va uning butun mayjudlik vaqtida davomida tasodifiy yoki atayin qilingan ta'sirlar sharoitida bir xil ma'noda talqin qilinishini nazarda tutuvchi xususiyati.

axborot butunligi

ingl.: *information integrity*

rus.: *целостность информации*

1. Axborot va uni tashuvchining holati. Butunlay axborot va uning alohida tarkibiy qismlari bo'linmasligini ta'minlash hamda ularni ruxsatsiz qasddan yo'q qilish, buzib talqin qilish, sizib chiqib ketish, o'g'irlash,

qalbakilashtirish va almashtirib qo'yishni, oldindan bartaraf qilishni nazarda tutiladi.

2. Hisoblash texnikasining yoki avtomatlashtirilgan tizimning tasodifiy va (yoki) qasddan qilingan g'lati qilib qo'yish (barbob qilish) sharoitida, axborotning o'zgarmay qolishini ta'minlash qobiliyati. Axborot butunligini ta'minlash uchun uch uslubdan foydalaniladi:

- yopiq kanallarni yaratish;
- yo'naltirilishni kuzatib borish;
- ma'lumotlardan erkin foydalanishni boshqarish.

Butunlik kriptografiya yordamida ham ta'minlanishi mumkin. Bundan tashqari boshqa usullar ham mavjud. Masalan, chop etilgan ma'lumotlarga elektron imzo qo'shib qo'yish, ma'lumotlarni takrorlash, nazorat qiymatini qo'shib qo'yish.

axborot egasi

ingl.: information owner

rus.: владелец информации

1. Qonun va/yoki axborot egasi tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga ega bo'lgan va undan foydalanayotgan hamda foydalanish vakolatlarini amalga oshirayotgan subyekt.

2. Axborot uzatishni va tarqatishni, yaratilgan axborotni iste'molchiga eltib berishni ta'minlaydigan alohida huquqlarni qo'lg'a kiritgan shaxs yoki shaxslar.

3. Axborot ishlab chiqaruvchilarini va iste'molchilarini orasidagi visitachi.

axborot ehtiyojlari

ingl.: information needs

rus.: информационные потребности

Nomoddiy ehtiyojlar turi. Aniq vazifani bajarish yoki muayyan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan axborotga ehtiyoj.

axborot erkinligi to'g'risidagi 1966 yil Qonuni

ingl.: Freedom of Information Act 1966 (FOIA)

rus.: Закон о свободе информации 1966 года

Axborotlashgan jamiyat rivojlanishi tarixida muhim voqeа. Bu qonunga ko'ra, AQSH ning barcha federal muassasalari fuqarolarni milliy xavfsizlik huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliya va shaxsga oid hujatlardan tashqari

barcha axborotlardan erkin foydalanishni ta'minlashlari shart.

axborot eskirishi

ingl.: information ageing

rus.: старение информации

Axborotning vaqt o'tishi bilan o'zining amaliy qiyamatini yo'qotish xususiyati. U ushuu axborot aks ettiruvchi fan sohasi ahvolining o'zgarishiga bog'liq.

axborot foydalanuvchisi

ingl.: information user

rus.: пользователь информации

1. Axborotni yoki unga ishlov berish imkonini oluvchi subyekt.

2. Axborot tizimi yoki visitachiga kerakli axborot olish uchun murojaat qiluvchi yoki undan foydalanuvchi subyekt.

axborot huquqi

ingl.: information law

rus.: информационное право

1. Huquq subyektlarining axborot sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi jami huquqiy me'yorlar.

2. Axborot sohasida (ishlab chiqarish, axborotni o'zgartirish va iste'mol qilish sohasida) paydo bo'luvchi, davlat tomonidan muhofaza qilinuvchi ijtimoiy me'yorlar va munosabatlari tizimi. Bu yerda huquqiy rostlashning asosiy predmetlari – bu axborot jarayonlarini (axborotni yaratish, yig'ish, ishlov berish, toplash, saqlash, izlash, tarqatish va iste'mol qilish) amalga oshirishda paydo bo'luvchi axborot munosabatlari.

3. Jami yuridik fanning doktrinaviy bandlari, milliy huquqning mustaqil massivini tashkil qiluvchi huquqiy me'yorlar, xalqaro qonunchilik me'yorlar.

4. Axborotni (axborot resurslarini) yaratish, ulardan foydalanish, uzatish va uni muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, huquqiy me'yorlarning shakllanayotgan sohalararo majmui.

axborot huquqi fan sifatida

ingl.: information law (as science)

rus.: информационное право как наука

Axborot huquqini jami yuridik me'yorlar sifatida shakllanishi va rivojlanishining ilmiy muammolarini o'rganadigan fan. . Uning maqsadi axborot sohasida subyektlar (fuqarolar,

korxonalar, idoralar, jamoat birlashmalari, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari) hulq-atvorini belgilashdir.

axborot huquqi tamoyillari

ingl.: *information law principles*

rus.: *принципы информационного права*

Axborot sohasida namoyon bo'ladigan ijtimoiy hayotning obyektiv qonuniyatlarini yuridik jihaddan tasdiqlovchi asosiy dastlabki tamoyillar. Axborot huquqining quyidagi asosiy tamoyillarini ajratish mumkin:

- Axborot munosabatlarning axborot huquqining murakkab sohasini tashkil qiluvchi munosabatlar ekanligi tamoyili;
- Axborot mulkchiligi tamoyili;
- Axborotning yaratuvchisi va foydalanuvchisidan ajratilmasligi tamoyili (subyektni olingan bilimlardan ajratib bo'lmagligi);
- Axborot mulkchiligi munosabatlarini yaxlit rostlash tamoyili (axborotni o'ziniki ekanligini tan olish ma'nosida);
- Investitsiya mulkchiligi tamoyili;
- Axborot ashyosi tamoyili;
- Namunaviy axborot-huquqiy me'yorlar tamoyili.

axborot huquqi tizimi

ingl.: *information law system*

rus.: *система информационного права*

Axborot qonunchiligi, axborot huquqi ilmi va «axborot huquqi» o'quv fanida o'z ifodasini topgan. Tuzilma nuqtai nazaridan axborot huquqi tizimi ikki qismga bo'linadi – Umumiy va Maxsus. Umumiy qismda axborot huquqining tizim hosil qiluvchi boshlanishlar tavsifnomasi keltirilgan, me'yorlar to'plangan axborot sohasida faoliyatni rostlashning asosiy tushunchalari, umumiy tamoyillari, huquqiy shakllar va usullari jamlangan. Maxsus qism ma'nosi yaqin bo'lgan axboriy huquqiy me'yorlar birlashtirilgan axborot huquqining alohida institutlarini o'z ichiga oladi.

axborot huquqiy aloqalari matritsasi

ingl.: *matrix of information legal relations*

rus.: *матрица информационных правоотношений*

Qatorlari predmet sohalarida axborot jarayonlarni belgilovchi jadval: axborot, axborot resurslari, axborot mahsulotlari, axborot xizmatlarini izlash, olish va iste'mol

qilish; ularni ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash; axborot tizimlari, ularning tarmoqlari, ularni ta'minlash vositalarini yaratish va qo'llash; axborot xavfsizligi mexanizmlarini yaratish va qo'llash. Matritsa ustunlari huquq toifalarini ko'rsatadi: huquq, huquqning cheklanishi, majburiyat, mas'uliyat. Qator va ustunlar kesishgan joyda ushbu huquq toifalarida axborot jarayonlari paydo bo'ladigan axborot munosabatlari ro'yxatlari keltiriladi.

axborot infratuzilmasi

ingl.: *information infrastructure*

rus.: *информационная инфраструктура*

1. Axborot resurslari, jumladan axborot xizmatlari va omnaviy axborot vositalarini shakllantirish, tarqatish va ulardan foydalanish tizimi.

2. Mamlakatning axborot makoni hamda fuqarolar va tashkilotlarning axborot resurslaridan foydalanishni ta'minlovchi axboriy aloqada o'zaro ishslash vositalarining faoliyati va rivojlanishini ta'minlovchi jami tashkiliy tuzilmalar.

3. Axborot makoni tuzilmasining ushbu makonda axborot oqimlari yaratilishi va aylanishini ta'minlovchi qismi. Axborot infratuzilmasining asosiy belgilari: infratuzilma elementlarining sifatga oid va miqdoriy tarkibi; elementlarining makonda joylashishi va o'zaro aloqasi; elementlar va butun infratuzilmaning axborot samaradorligi va o'tkazish qobiliyati. Axborot infratuzilmasining asosiy elementlari: telekommunikatsiyalar; axborot tarmoqlari; axborot resurslari; axborot sohasida xizmat ko'rsatish tizimlari. Qo'shimcha (yordamchi) elementlari: axborot infratuzilmasining rivojlanishi va faoliyatini ta'minlash tizimlari.

axborot infratuzilmasi standartlari hay'ati

ingl.: *Information Infrastructure Standards Panel (IISP)*

rus.: *комиссия стандартов информационной инфраструктуры*

Vazifasi axborot tuzilmasiga doir standartlarni ishlab chiqish bo'lgan hay'at. IISP 1994 yilda AQSH da ishlab chiqarish korporatsiyalarining, assotsiatsiyalarining va kosorsiumlarning, davlat tashkilotlarining, muassasalarining standartlar ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan 80 ta

vakili bo‘lmish yuridik shahslar ishtirokida tuzilgan. IIISP da ko‘rib chiqiladigan standartlar uch sohani qamrab oladi:

- ma‘lumotlar xavfsizligi;
- axborot tarmoqlarida mualliflik huquqini muhofazalash;
- tarmoqlarni, shu jumladan, turli turkumdagi o‘zaro harakatlarini tashkil qilish.

axborot inqilobi

ingl.: information revolution

rus.: информационная революция

1. Axborotning asbobiy asosi, uni uzatish va saqlash usullari hamda xalqning faol qismi uchun erkin foydalanish mumkin bo‘lgan axborot hajmining keskin o‘zgarishi.

2. XX asrning oxirgi choragida yuz bergan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha sohalariga ko‘rsatgan inqilobiy ta’sirni ifodalovchi istiora. Ushbu hodisa axborot sohasidagi undan avvalgi inqilobiy ixtirolar (kitoblarni bosish, telefoniya, radio aloqasi, shaxsiy kompyuter) ta’sirlarini birlashtiradi, chunki axborotni uzatishda xohlagan masofalarni o‘tish va shu tufayli insoniyatning aqliy qobiliyatlari va ma‘naviy kuchlarining birlashishi uchun texnologik asos yaratadi.

axborot iqtisodiyoti

ingl.: information economy

rus.: информационная экономика

Global axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi tufayli paydo bo‘lgan iqtisodiyotning yangi sektori. O‘z ichiga axborotlashtirish vositalarini hamda axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish va axborot bozorini oladi.

axborot iste’molchisi

ingl.: information consumer

rus.: потребитель информации

O‘z ehtiyojlarni qondirish (bilimlarni oshirish, ta’lim olish, qarorlarni qabul qilish va h.k.) maqsadida axborotga muhtoj, uni izlovchi va oluvchi shaxs yoki shaxslar.

axborot izlash

ingl.: information search

rus.: поиск информации

Axborot massivida oldindan belgilangan izlash sharti (so‘rovi) talabini qondiruvchi yozuvlar

borligini aniqlash jarayoni va agar ular mavjud bo‘lsa bunday yozuvlar joylashishini aniqlash jarayoni.

axborot izlash tizimi

ingl.: information retrieval system

rus.: информационно-поисковая система

Ma‘lumotlar bazasi va jami axborot resurslarida axborot izlash uchun mo‘ljallangan tizim.

axborot ishonchiligi

ingl.: information validity

rus.: достоверность информации

Axborotning to‘g‘ri qabul qilinish xususiyati. U quyidagilar yordamida ta‘minlanadi: uzatilayotgan xabarlarda voqealar ro‘y berish vaqtining belgilanishi; turli manbalardan olingan ma‘lumotlarning puxta o‘rganilishi va taqqoslanishi; soxta informatsiyaning vaqtida fosh etilishi; buzilgan axborotning o‘chirilishi va h.k.

axborot jamiyatni

ingl.: information society, information oriented society

rus.: информационное общество

1. Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyoti bosqichi. U jamiyat hayotida axborot va bilimlar roli o‘sishi, axborot kommunikatsi, axborot mahsuloti va xizmatlarining yalpi ichki mahsulot (YAIM) dagi ulushi ortishi, insonlarning samarali axboriy aloqada o‘zaro ishlashimi ta‘minlovchi global axborot makonining yaratilishi, ularning jahon axborot resurslaridan foydalanishi hamda axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan ijtimoiy hamda shaxsiy ehtiyojlarini qondirishni ta‘minlash darajasi bilan tavsiflanadi.

2. Bilimlar asosiy ishlab chiqarish mahsuloti bo‘lgan jamiyat. Axborot jamiyatining farqli xususiyatlari: kerakli axborotdan jamiyatning barcha a’zolari uchun erkin foydalanishi osonligi, jamiyatning o‘z faoliyatini uchun zarur bo‘lgan butun axborotni ishlab chiqarish hamda jamiyatning barcha a’zolarni ushbu axborotdan erkin foydalanish vositalari bilan ta‘minlash qobiliyati.

3. Axborotni ishlab chiqarish va iste’mol qilish eng asosiy faoliyat turi bo‘lgan, axborot esa eng ahamiyatli resurs sifatida tan olingan jamiyat. Bu yangi jamiyatda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari va

texnikasi asosiy texnologiyalar va texnika hisoblanadi, axborot muhit esa ijtimoiy va ekologik muhitlar bilan birga insonning yangi yashash muhitiga aylanadi.

axborot jamiyatida yashashga tayyorlik

ingl.: e-readiness

rus.: готовность к жизни в информационном обществе

Quyidagi muhim ko'rsatkichlar bilan baholanadigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi: axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi, elektron iqtisod, masofaviy ta'lif, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) davlat boshqaruvida foydalanish va AKT sohasida davlat siyosati.

axborot jamiyatining rivojlanish ko'rsatkichlari

ingl.: information society development indicators

rus.: индикаторы развития информационного общества

Axborot jamiyatining axboriy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalar bo'yicha rivojlanishini belgilovchi ko'rsatkichlar ro'yxati. Har bir mamlakatda axborot jamiyatni rivojlanishi darajasini miqdoriy baholash uchun yillik «axborot jamiyati indeksi» (AJI) ishlab chiqilgan. Ushbu indeks quyidagi to'rtta guruhga bo'lingan 23 ko'rsatkichga asoslanadi:

- kompyuter infratuzilmasi (7 ko'rsatkich – muayyan mamlakatda odam boshiga shaxsiy kompyuterlar soni, bitta oilaga uy kompyuterlarining soni va h.k.);
- axborot infratuzilmasi (7 ko'rsatkich – bitta oilaga to'g'ri kelgan telefon liniyalarining soni, odam boshiga televizorlar, fakslar, uyali telefonlar soni, kabel televideniyesi abonentlarining soni va h.k.);
- Internet infratuzilmasi (4 ko'rsatkich – Internetdan maishiyligi, biznes va ta'lif maqsadlarida foydalanuvchilar soni, elektron savdo ko'lami);
- ijtimoiy infratuzilma (5 ko'rsatkich – o'rta maktab va oliy o'quv yurtlari o'quvchilari soni, matbuot o'quvchilari soni, matbuot erkinligi, fuqarolik huquqlarining ta'minlanishi).

axborot jarayonlari

ingl.: information processes

rus.: информационные процессы

1. Axborotni yaratish, yig'ish, ishlov berish, to'plash, saqlash, izlash, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlari.

2. Hujjalashtirilgan axborotni foydalanuvchi uchun yig'ish, ishlov berish, to'plash, saqlash, dolzarblashtirish va taqdim etish jarayonlari.

3. Axborotni yaratish, yig'ish, saqlash, ishlov berish, aks ettirish, uzatish, tarqatish va foydalanish jarayonlari.

axborot jinoyati

ingl.: information criminal

rus.: информационный криминал

G'arazli yoki bezorilik maqsadlarida amalga oshiriladigan, axborot tizim va tarmoqlarida axborotni o'g'irlash yoki buzishga qaratilgan atayin qilingan jinoyatkorona harakatlar.

axborot jinoyatchiligi

ingl.: information criminality

rus.: информационная преступность

Qonunda ko'zda tutilgan shaxs, tashkilotlar yoki davlat huquqlarini buzuvchi qonunga zid harakatlar. Bunda jamiyatning axborot sohasidagi qonunga zid o'laroq, shaxs, tashkilot va davlatga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi nazarda tutilgan.

axborot mahfiyligi

ingl.: confidentiality of information

rus.: конфиденциальность информации

1. Axborot va uning tashuvchisining holati. Bunda axborot bilan ruxsatsiz tanishishni yoki uni ruxsatsiz hujjalashtirishni (nusxa ko'chirishni) oldini olish ta'minlangan

2. Axborot uchun subyektiv ravishda aniqlanadigan (qo'shib yoziladigan tavsifnomasi (xossa). Bu axborotdan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan subyektlar davrasiga cheklolvar kiritish zaruratini ko'rsatadi. Tizim (muhit) mazkur axborotni undan erkin foydalanish huquqiga egalik vakolatlari bo'lmagan subyektlardan sir saqlash qobiliyati bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Mahfiylik ikki yo'l bilan ta'minlanadi. Birinchisi, axborot bilan ishlash huquqiga ega bo'lgan foydalanuvchilar davrasini cheklash. Ikkinchisi, axborotni shifrlash, ya'ni uni shunday shaklda ifodalanadiki, o'qilgan axborotning mazmunini faqat shifrlash kalitiga ega bo'lgan foydalanuvchilar tushuna oladilar.

axborot mahsuloti

*ingl.: information output, information goods
rus.: информационная продукция, информационный товар*

1. Axborot jarayonlarning moddiylashtirilgan natijasi. U davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan.

2. Bu:

- ayrboshlash yoki sotish uchun yaratilgan axborot mahsuloti;
- sotuv predmeti sifatidagi axborot xizmati;
- axborot faoliyatini ta'minlovchi mahsulot (sotish uchun ishlab chiqarilgan axborot vositalari va texnikasi).

axborot mahsulotlari

*ingl.: information products
rus.: информационные продукты*

1. Hujjatlashtirilgan axborot.

U foydalanuvchilar ehtiyojlariga muvofiq tayyorlanib, ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallanadi yoki foydalanimadi

2. Mahsulot shaklida taqdim etilgan barcha turdag'i axborot resurslari, dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar bazalari va banklari hamda boshqa axborot.

3. Ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulot yoki xizmat sifatida moddiy yoki elektron shaklda keyinchalik tarqatilishi uchun tayyorlangan jami ma'lumotlar.

4. Ma'lum shaxsnинг faoliyati natijasi bo'lmish axborot.

Axborot mahsuloti o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- axborot (ma'lumotlar, bilimlar);
- axborot tashuvchilar;
- axborot vositalari va texnikasi;
- axborot faoliyatini ta'minlovchi mahsulotlar.

axborot makoni

*ingl.: information space
rus.: информационное пространство*

1. Elektron tarmoqlardan foydalangan holda paydo bo'lувчи birlashgan elektron axborot makoni.

2. Axborot kommunikatsiyalari dunyoning zamonaviy ijtimoiy hayotida yetakchi rol o'ynaydigan sohalari. Ushbu ma'noda axborot makoni tushunchasi axborot muhiti tushunchasiga yaqinlashadi.

3. Axborot oqimlari uchun aylanish makoni.

axborot manbai

*ingl.: source of information
rus.: источник информации*

Axborot yuzaga kelishini identifikatsiyalovchi obyekt.

Foydalanuvchi erkin olishi mumkin bo'lgan va odatda ba'zi muammoli aniqlikka ega bo'lgan u yoki bu axborot resurslari sinfi subto'plamining yagona elementi.

axborot mazmuni

*ingl.: information content
rus.: содержание информации*
Ma'lum obyekt yoki hodisa to'g'risida jami elementlar, tomonlar, ular o'rtaqidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi aniq ma'lumotlar.

axborot miqdorining birligi

*ingl.: unit of information quantity
rus.: единица количества информации*
Ikkilik sanoq tizimida, axborotning eng kichik birligi bo'lib bit hisoblanadi. Bir bit bu bita «1» yoki bita «0» degani, signal impulsi borligi yo yo'qligi bilan aks etadi. Bitlarning butun deb qaraladigan tutash ketma-ketligi bayt deb ataladi. Ko'pincha, bayt sakkiz bitga teng deb qabul qilinadi.

axborot muhiti

*ingl.: information environment
rus.: информационная среда*
Kompyuterda saqlanuvchi, biroq axborot tizimi sifatida shakllantirilmagan, ma'lum predmet sohasiga tegishli va bitta yoki bir necha foydalanuvchi tomonidan ishlataladigan jami bilimlar, faktlar va ma'lumotlar.

axborot muhofazalashning qonunchilik vositalari

*ingl.: legal protection means
rus.: законодательные средства защиты информации*
Mamlakatning erkin foydalanish cheklangan axborotga ishlov berish va uzatishni, ishlatishni tartibga soluvchi qoidalar hamda ularni buzganlik uchun javobgarlik darajasini o'rnatadigan qonunchilik hujjalari.

axborot muhofazalashning tashkiliy vositalari

*ingl.: organizational protection means
rus.: организационные меры защиты информации*

Ma'lumotlarga ishlov berish tizimini faoliyatini, uning resurslarini ishlatalishni, xodimlarni faoliyatini, hamda unda aylanib yurgan axborot xavfsizligiga tahdidni yuqori darajada qiyinlashtirish yoki amalga oshirish imkoniyatini yo'qqachiqarishga sharoit tug'diradigan, foydalanuvchi bilan tizim orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi choralar.

axborot muhofazasi samaradorli nazorati vositalari

ingl.: *information protection efficiency control tools*
rus.: *средства контроля эффективности защиты информации*

Axborot muhofazasi samaradorligini nazorat qilish uchun mo'ljallangan yoki qo'llaniladigan texnikaviy, dasturiy vosita, modda va (yoki) biror narsa.

axborot muhofazasi sohasidagi davlat siyosati

ingl.: *state information protection policy*
rus.: *государственная политика в области защиты информации*

Axborot muhofazasi sohasidagi davlat siyosati quyidagi asosiy yo'naliqlarini o'z ichiga oladi:

- axborot muhofazasi sohasida faoliyatni davlat tomonidan boshqarish mexanizmlarini yaratish;
- axborot muhofazasi sohasidagi qonunchilikni rivojlantirish;
- davlat axborot resurslarini muhofazalash;
- axborot muhofazasi sohasida zamonaviy texnologiyalar va xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
- davlat va jamiyat faoliyat uchun o'ta muhim bo'lgan avtomatlashtirilan axborot tizimlari muhofazasini tashkil qilish;
- axborot muhofazasiga tegishli bo'lgan dastur va loyihalarni qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish.

axborot muhofazasi sohasidagi litsenziya

ingl.: *license in information protection sphere*
rus.: *лицензия в области защиты информации*
Axborot muhofazasi sohasida ishlash huquqini beruvchi ruxsatnomasi.U litsenziya bitimi (shartnomasi) asosida shakllantiriladi.

axborot muhofazasi sohasidagi litsenziyalash

ingl.: *licensing in information protection sphere*

rus.: *лицензирование в области защиты информации*

Litsenziya bitimi (shartnomasi) bilan tasdiqlangan, axborot muhofazasi sohasidagi ishlarni amalga oshirish huquqlarini berish yoki olish bilan bog'liq faoliyat.

axborot muhofazasi tamoyillari

ingl.: *concept of information protection*

rus.: *концепция защиты информации*

Axborot muhofazasi muammolariga axborotga avtomatlashtirilan ishlov berish tizimida umumiylar qarashlar va uni yechish yo'llarini belgilaydigan hujjat. Bunda yig'ilgan tajribani hisobga olgan holda uning zamonaviy rivojlanishi tendensiyalari bayon qilingan. U tashkilot xavfsizligi tamoyillarining tarkibiy qismidir.

axborot muhofazasini samaradorligi

ingl.: *efficiency of information protection*

rus.: *эффективность защиты информации*

Axborotni muhofazalash bo'yicha harakatlar oqibatida erishilgan natijalarni axborot muhofazasi maqsadiga mos kelishi darajasi.

axborot muhofazasini ta'minlash tamoyillari

ingl.: *information security ensuring principles*

rus.: *принципы обеспечения информационной безопасности*

- Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya qilish;
- Qonuniylik;
- Axborot xavfsizligining barcha subyektlari harakatlarining kelishilganligi;
- Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralarning bir yaxlitligi;
- Axborot xavfsizligi subyektlarining axborot sohasidagi qonunbuzarliklar uchun javobgarligi;
- Xalqaro axborot xavfsizligi tizimlari bilan birlashish;
- Qo'rqliqanayotgan axborotning muhofaza qilinganligi;
- Axborot xavfsizligini ta'minlash choralarining axborot sohasidagi noqonuniy harakatlar (harkatsizlik) tufayli yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar ko'lamiga muvofiqligi.

axborot muhofazasining dasturiy vositasи

ingl.: *information protection software tools*

rus.: *программное средство защиты информации*

Dasturiy ta'minot tarkibiga kiruvchi va axborot muhofazasi uchun mo'ljallangan maxsus dastur.

axborot muhofazasining huquqiy shakli

ingl.: *legal form of information protection*

rus.: *правовая форма защиты информации*

Informatika, axborot munosabatlari va axborot muhofazasi sohasidagi mamlakat konstitutsiyasi va qonunlari moddalar, fuqarolik va jinoyat kodekslari bandlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan axborot muhofazasi. Axborot muhofazasining huquqiy shakli axborot munosabatlari subyektlarining huquq va majburiyatlar, axborot muhofazasi organlari, texnik vositalari va usullarining huquqiy holatini tartibga soladi va axborot muhofazasi sohasida odob-ahloq me'yorlarni yaratishning asosidir.

axborot muhofazasining sug'urta shakli

ingl.: *insurance form of information protection*

rus.: *страховая форма защиты информации*

Sug'urta jamiyatlari tomonidan axborot munosabatlari subyektlariga axborotning sizishi (maxfiy whole), uning o'zgartirilishi yoki jismoniy yo'q qilinishi holatida moddiy zararni to'ldirish bo'yicha kafolatlar berishga asoslangan axborot muhofazasi. Axborot muhofazasining sug'urta shakli moddiy mulk sug'urtasi bilan bir xil bo'lib, iqtisodiyotning xususiy sohasida katta muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin.

axborot mulkdori

ingl.: *information owner*

rus.: *собственник информации*

1. Axborotga egalik qilish, undan foydalanish, tasarruf etish vakolatlarini qonuniy aktlarga muvofiq tarzda to'la amalga oshiruvchi subyekt.
2. Axborot resursiga egalik qilish, tasarruf etish va foydalanishning yuridik huquqiga ega bo'lgan axborot munosabatlari subyekti. Axborot resursiga egalik qilish, tasarruf etish va foydalanishning yuridik huquqiga ushbu axborot resursini meros qilib olgan shaxslar egadir. Kashfiyot, ixtiro, ilmiy-tehnikaviy ishlamalar, ratsionalizatorlikka oid takliflar va h.k. mualliflari o'zlarini manbai bo'lgan axborotga egalik qilish, tasarruf etish va foydalanishning yuridik huquqiga ega.

qarang: Axborot egasi.

axborot munosabatlari subyektlarining xavfsizligi

ingl.: *security of subjects of information relations*

rus.: *безопасность субъектов информационных отношений*

Axborot munosabatlari subyektlarining muhofazalanganligi. Bunda axborotga va/yoki uni qayta ishlash va uzatish vositalariga ta'sir qilish yo'li bilan yetkaziladigan moddiy, ma'naviy va o'zgacha zarardan muhofazalanganlik tushuniladi.

axborot obyekti

ingl.: *information object*

rus.: *информационный объект*

Xohlagan kompyuter yoki telekommunikatsiya tizimi, axborotga ishlov berish uchun bitta yoki jami apparatli va (yoki) texnika vositalari, axborotga ishlov berish va (yoki) uzatish tizimi yoki vositalari o'rnatilgan yoki maxfiy muzokaralar o'tkazilayotgan xona.

axborot obyektlarining muhofaza qilinganligini shahodatlash tizimi

ingl.: *information security certification system*

rus.: *система аттестации информационных объектов на защищенность*

Axborot obyektlarining muhofaza qilinganligini shahodatlash ulardan foydalanish sharoitlarining ishlov berilayotgan axborotning huquqiy maromiga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Davlat mulki bo'lmiss maxfiy axborotga ishlov beriladigan axborot obyektlarining muhofaza qilinganligini shaxodatlash ularni ishga tushirishdan oldin shartli ravishda o'tkaziladi. Muhofaza qilinganlikka shahodatlash tarkibi tekshirilayotgan axborot obyektlidan foydalanayotgan tegishli davlat organi, tashkilot, muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanayotgan hay'atlar tomonidan amalga oshiriladi va axborot muhofazasi bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishib olinadi. Davlat mulkchiligidagi bo'lgan axborotga ishlov bermaydigan axborot obyektlarini shahodatlash uchun axborot muhofazasi bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan bunday faoliyat uchun litsenziya berilgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar jalb qilinishi mumkin.

axborot olishning osonligi

ingl.: *information accessibility*

rus.: *доступность информации*

Axborotning (erkin) olinish xususiyati.

axborot oqimi

ingl.: *information flow*

rus.: *информационный поток*

Makon va zamonda uzaladigan axborot.

axborot qadrsizlanishi

ingl.: *discredit of information*

rus.: *компрометация информации*

Pinphoniy axborotni chiqib ketishi yoki oshkor bo'lishi, yo mualliflashtirilmagan subyektlar tomonidan olinishi.

axborot qonunchiligi

ingl.: *information legislation*

rus.: *информационное законодательство*

1. Axborot aylanishi va axborotni ishlab chiqarish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasiga oid jami qonunlar, me'yoriy aktlar va boshqa huquqiy rostlash shakllari.

2. Axborot muammolariga to'liq bag'ishlangan qonunchilikning ba'zi sohalarini ham, butunlay maxsus me'yoriy aktlarni ham, shuningdek, qonunchilikning boshqa sohalari uchun alohida axborot-huquqiy me'yornarni ham o'z ichiga oluvchi yaxlit soha.

axborot quroli

ingl.: *information weapons*

rus.: *информационное оружие*

1. Axborot infratuzilmasiga qarshi qaratilgan jami ixtisoslashtirilgan (fizikaviy, axborot, dasturiy, radioelektron) uslublar va vositalar. Ular infratuzilmaning butunlay yoki uning alohida elementlarining vazifalarini va xizmatlarining vaqtinchalik yoki tiklab bo'lmas darajada ishdan chiqarish uchun mo'ljallangan.

2. Axborot urushida dushmanga axborot ta'sirlarini o'tkazishni amalga oshirish imkonini beruvchi vosita va uslublar.

3. Zarar yetkazish kuchi mamlakatning axborot sohasi obyektlari va uning qurolli kuchlarini vayron qilish, bostirish, (muhofazasini) yengishga asoslangan maxsus qurol.

axborot resursi

ingl.: *information resource*

rus.: *информационный ресурс*

1. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi. (*qonun*)

2. Alohida hujjatlar va hujjatlar massivlari, axborot tizimlaridagi (kutubxona, arxiv, jamg'arma va ma'lumotlar banklari, boshqa axborot tizimlari) hujjatlar va hujjatlar massivlari.

3. Axborot tizimlaridagi (kutubxona, arxiv, jamg'arma va ma'lumotlar banklari hamda depozitariy, muzey va boshqalar) hujjatlar va hujjatlar massivlari.

4. Ma'lumotlar va bilimlar bazalari, axborot tizimlaridagi boshqa axborot massivlarini o'z ichiga oluvchi tashkillashtirilgan jami hujjatlashtirilgan axborot.

axborot resurslarining egasi

ingl.: *owner of information resources*

rus.: *владелец информационных ресурсов*

Qonun bilan yoki axborot resurslarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. (*qonun*)

axborot resurslarining mulkdori

ingl.: *owner of information resources*

rus.: *собственник информационных ресурсов*

Axborot resurslariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. (*qonun*)

axborot sanoati

ingl.: *information industry*

rus.: *информационная индустрия*

Eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (gazeta, jurnal va kitoblardan tortib kompyuter o'yinlari va tarmoqlarning axborot to'ldirilishi) asosida turli xil axborot mahsulot va xizmatlarini keng ko'lamda ishlab chiqarish. U muhim farq qiluvchi ikki qismidan iborat: axborot texnikasini (mashinalar va asbob-uskunalar) ishlab chiqarish va bevosita axborotni ishlab chiqarish.

axborot sifati

ingl.: *information quality*

rus.: *качество информации*

Obyektlar va ularni o'zaro bog'lanishlari haqidagi muayyan axborotni yaroqliliginif odalovchi xossalari majmui. U foydalanuvchi u yoki bu turdag'i faoliyatni amalga oshirishi, o'z oldida turgan maqsadlarga erishishi uchun zarur. Eng umumiy parametrlar qatoriga ma'lumot

ishonchiligi, mavridiyligi, yangiligi, qimmatiligi, foydaliligi, olish qulayliliqi kiradi.

axborot sohasi

ingl.: information sphere

rus.: информационная сфера

1. O‘z tarkibiga axborotni yaratish, to‘plash, unga ishlov berish, taqdim etish, undan foydalanish hamda ushbu jarayonlarni ta‘minlovchi infratuzilmani yaratishni oluvchi faoliyat sohasi.

2. Axborotni izlash, olish, uzatish, ishlab chiqarish va tarqatish bo‘yicha faoliyat sohasi, shuningdek, jami axborot resurslari va ularni ta‘minlovchi axborot infratuzilmasi.

3. Subyektlarning axborot yaratish, o‘girish va iste‘mol qilish bilan bog‘liq faoliyat sohasi.

4. Axborot to‘plash, shakllantirish, tarqatish va unga ishlov berishni amalga oshiruvchi jami axborot, axborot infratuzilmasi va subyektlar, shuningdek, ushbu jarayonda paydo bo‘lувчи ijtimoiy munosabatlarni rostlash tizimi.

5. Axborot sohasi o‘z ichiga zamonaviy jamiyatda insonlar atrofidagi inson tomonidan sun‘iy ravishda yaratilgan belgilar muhitini oladi.

axborot tahdidi

ingl.: information threat

rus.: информационная угроза

Jamiyat axborot sohasining faoliyatiga xavf tug‘dirayotgan jami omillar va omillar guruhlari.

axborot tahlili

ingl.: information analysis

rus.: информационный анализ

Hujjalarni o‘rganish va shakllanayotgan hamda foydalanayotgan axborot hajmini aynanlash, shuningdek, hujjalarni aylanishi sxemasini va axborot aloqalari modelini ishlab chiqish.

axborot tarmoqlari mulkdori

ingl.: information network owner

rus.: собственник информационных сетей

Qonunga muvofiq tarzda axborot tarmoqlariga to‘la egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishni amalga oshiruvchi davlat, ma‘muriy-hududiy birlik, jismoniy yoki yuridik shaxs.

axborot tarmog‘i

ingl.: information network

rus.: информационная сеть

Aloqa kanallari bo‘yicha ma‘lumotlarni uzatish va ularga ishlov berish uchun dasturlitexnikaviy vositalar majmui.

axborot tashuvchisi

ingl.: information carrier

rus.: носитель информации

Jismoniy shaxs yoki moddiy obyekt. Moddiy obyekt jumlasiga axborot ramzi, timsol, signal, texnik yechimlar va jarayonlar shaklida aks ettirilgan moddiy obyekt, shu jumladan fizik maydonlar kiradi.

axborot texnikasi sohasi

ingl.: information technology sphere

rus.: информационная техносфера

Jamiyatning asbobiy-texnologik muhiti. U jamiyatni axborotlashtirishning jami texnikaviy vositalari va ularning ijtimoiy foydalanilishi imkoniyatlarini ta‘minlovchi axborot texnologiyalaridir.

axborot texnologiyalari

ingl.: information technologies

rus.: технологии информационные

qarang: axborot texnologiyasi

axborot texnologiyalari sohasida tadqiqotlar va rivojlanish bo‘yicha Yevropa strategik dasturi

ingl.: European strategic program of IT research

rus.: европейская стратегическая программа исследований и развития в области информационной технологии

Informatikani tadqiqot qilish va rivojlantirish bo‘yicha Yevropa strategik rejasi. Axborot texnologiyalarini rivojlantirishni muhimligini hisobga olgan holda, Yevropa Ittifoqi tomonidan uning tuzilishi haqida qaror qilingan. ESPRIT rejasi quyidagi bosh maqsadlarni ko‘zlaydi:

- Yevropa sanoatini asos soluvchi axborot texnologiyalari bilan ta‘minlash;
- Yevropa ilmiy va sanoat kooperatsiyasini rag‘batlantirish;
- xalqaro standartlarni tatbiq qilishga ko‘maklashish.

axborot texnologiyasi

ingl.: information technology

rus.: информационная технология

1. Axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun

foydalilaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar. (*qonun*)
 2. Ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, saqlash, uzatish va ulardan foydalanish jarayonida hisoblash texnikasidan foydalanish yo'llari, usullari va uslublari.
 3. Hujjatlashtirilgan axborot, jumladan dasturli vositalarga ishlov berishning jami uslublari, yo'llari, usullari va vositalari hamda ulardan foydalanishning belgilangan tartibi.
 4. Inson faoliyatining turli sohalarida axborot mahsulotini ishlab chiqarishda axborot jarayonlarini amalga oshirishning jami usullari.
 5. Insonlar tomonidan axborotni yig'ish, saqlash, ishlov berish va tarqatish uchun foydalilaniladigan jami uslublar, qurilmalar va ishlab chiqarish jarayonlari. Keng ma'noda axborot texnologiyasi misoli sifatida idora cho'tidan foydalanish va kitoblarni bosishni ko'rsatish mumkin. Tor ma'noda «axborot texnologiyasi» atamasi axborotga ishlov berish uchun ushbu axborotdan foydalanuvchi jarayonlarning sermehnatligini kamaytirish va ularning ishonchlilagini va tezkorligini oshirish maqsadida zamonaviy elektron texnikasidan foydalanish bilan bog'liq.

axborot texnologiyasining xavfsizligi

ingl.: *information technology security*

rus.: *безопасность информационной технологии*

Axborotni qayta ishslash texnologik jarayonining muhofazalanganligi.

axborot tizimi

ingl.: *information system*

rus.: *информационная система*

1. Axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda ulardan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingen jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari. (*qonun*)
 2. Tashkiliy (jumladan, axborot jarayonlarini amalga oshiruvchi hisoblash texnikasi va aloqa vositalaridan foydalangan holda) tartibga solingen jami hujjatlar (hujjatlar massivlari) va axborot texnologiyalari.
 3. Bir butunni tashkil qiluvchi tartibga solingen jami axborot texnologiyalari, obyektlar va ular orasidagi munosabatlari. Obyektlar sifatida axborot tizimi tarkibiga aniq axborot jarayonini bajarish uchun kerakli xodimlar, axborot,

moddiy-texnikaviy va boshqa resurslar kirishi mumkin.

4. Tartibga solingen funksional nuqtai nazardan o'zaro bog'liq jami dasturiy-apparat vositalari va axborotni to'plash, unga ishlov berish, saqlash va uzatish texnologiyalari.
5. Axborotni yig'ish, saqlash va unga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan istalgan tizim. Shu nuqtai nazardan tizimlashtirilgan kartoteka ham, ma'lumotlar banki ham axborot tizimi hisoblanadi.
6. Foydalanuvchilar (inson va dasturlar) so'rovi bo'yicha axborotni saqlash, izlash va berish uchun mo'ljallangan hisoblash tizimi. Odatta axborot tizimi o'z ichiga katta va murakkab ma'lumotlar bazalari va bilimlar bazalarini olib, bir necha tashkilot foydalanuvchilarini axborot bilan ta'minlaydi.

axborot tizimlari egasi

ingl.: *owner of information systems*

rus.: *владелец информационных систем*

Qonun bilan yoki axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. (*qonun*)

axborot tizimlari mulkdori

ingl.: *information system owner*

rus.: *собственник информационных систем*

Axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. (*qonun*)

axborot tizimlari tillari bo'yicha konferensiya

ingl.: *Conference On Data SYstem Language (CODASYL)*

rus.: *конференция по языкам информационных систем*

AQSH mudofaa vazirligi tomonidan tashkil qilingan va ma'lumotlar bilan ishslash standartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan tashkilot. 1959 yilda yaratilgan CODASYL tarkibiga, dasturlash tillarini va ma'lumotlarga ishlov berish dasturiy ta'minotini ishlab chiquvchi jamoalarining vakillari bo'lmish informatika sanoatini mutaxassislari kirgan. CODASYL tashkiloti tomonidan COBOL tili yaratilgan.

axborot tizimlari va vositalarini muhofazalangan tarzda bajarish

ingl.: *protected version of information systems and tools*

rus.: *защищенное исполнение информационных систем и средств*

Axborot tizimlarini va vositalarini loyihalash va yasash. Bunda ishlov berilayotgan axborotga xavfsizlik bo'yicha qo'yilgan talablar hisobga olinadi.

axborot tizimlarini klonlash

ingl.: *cloning of information systems*

rus.: *клонирование информационных систем*

Replikant-dasturlar asosida yangi axborot tizimlarini qurish. Tizimlar axborot ifodalashning yagona standartlariga mos keladigan, kesishib o'tadigan ma'lumotlar bazasiga, umumiylar xataruvchi tizimga, o'xshash interfeyslarga ega bo'ladi.

axborot turlanishi

ingl.: *information modification*

rus.: *модификация информации*

Texnik vositalar tomonidan ishlov berilganda tashuvchilarda axborot mazmuni yoki hajmining ruxsatsiz o'zgartirilishi.

axborot urushi

ingl.: *information war*

rus.: *информационная война*

1. Dushman axboroti, axborotga asoslangan jarayonlar va axborot tizimlariga zarar yetkazish harakatlari. Ayni paytda o'z axboroti, axborotga asoslangan jarayonlari va axborot tizimlarini muhofaza qilish orqali axborot ustunligiga erishish ko'zlanadi.
2. Tizimlarning moddiy, harbiy, siyosiy yoki mafkuraviy sohada ma'lum yutuqqa erishishga qaratilgan bir-biriga ochiqdan-ochiq yoki yashirinchha qaratilgan axborot hujumlari.

axborot vositachisi

ingl.: *information intermediary*

rus.: *информационный посредник*

Boshqa shaxs nomidan elektron hujjatlarni jo'natuvchi, oluvchi yoki saqlovchi, yoki ushbu hujjatlarga nisbatan boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi shaxs.

axborot xavfsizligi

ingl.: *Information security*

rus.: *информационная безопасность*

1. Axborotning uning egasiga zarar keltiradigan tasodifan yoki qasddan qilingan tahidlarga (xavf-xatarlarga) chidamliligining umumlashgan xossasi.

2. Axborotning holati. Bu holat axborot tashuvchisining (axborotlashtirish obyekti, ma'lumotlarni uzatish tarmog'i va b.) uni qayta ishslash, saqlash va uzatishda axborotning mahfiylik, butunlik va kirishimlilik kabi xususiyatlarga ega bo'lib qolishini ta'minlash qobiliyati bilan tavsiflanadi.

3. Axborotning chiqib ketishi, soxtalashtirilishi, nusxa olinishi, o'zgartirilishi, oshkor bo'lishi, buzilishi, qamal qilinishiga olib keluvchi beruxsat tasodifan yoki qasddan qilingan amallardan muhofazalanganligi.

Mahfiylik, butunlik va kirishimlilik axborot xavfsizligining tavsifnomasi bo'lib hisoblanadi.

4. Axborot munosabatlari subyektiga zarar yetkazish mumkinligi bilan bog'liq bo'lgan xavf ehtimolining yo'qligi.

5. Jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlatning axborot sohasida muhofaza qilinganlik holati.

6. Axborot xavfsizligi uchta asosiy tarkibiy qismlardan iborat: maxfiylik, butunlik va erkin foydalanish osonligi. Maxfiylik nozik axborotni ruxsatsiz olishdan muhofaza qilishga tegishli. Butunlik axborot va dasturli ta'minotning aniqligi va to'liqligini muhofaza qilishni bildiradi. Erkin foydalanish osonligi – bu axborot va asosiy xizmatlarning foydalanuvchi uchun kerakli paytda erkin foydalanish osonligini ta'minlash.

7. Axborot va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaning muhofaza qilinganligi. Bunda tasodifan yoki atayin qilingan, tabiy yoki sun'iy tavsifga ega bo'lgan va axborot va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma egasi yoki foydalanuvchilariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ta'sirlardan muhofazalash nazarda tutilgan.

axborot xavfsizligi ko'rsatgichi

ingl.: *criteria of information security*

rus.: *критерий безопасности информации*

Turli xavf-xatlar faktorlari ta'siriga nisbatan axborot xavfsizligini tavsiflovchi ko'rsatkich.

axborot xavfsizligi obyekti

ingl.: *information security object*

rus.: *объект информационной безопасности*

Axborot sohasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligi subyektlarining huquq va erkinliklari; axborot resurslari; axborot infratuzilmasi.

axborot xavfsizligi siyosati

ingl.: *information security policy*

rus.: *политика информационной безопасности*

1. Muhofaza qilinayotgan axborotga ishlov berishning huquqiy jihatlarini tartibga soluvchi jami qabul qilingan tashkiliy choralar. Muhofaza qilinayotgan axborotning aylanishi, uni saqlash va tarqatish sohasidagi amaldagi qonunlar, boshqaruv va me'yoriy materiallar, bandlar, ko'rsatmalar, qoidalar va h.k.larni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.
2. Axborot muhofazasi sohasida boshqaruv va loyiha yechimlarini belgilovchi jami hujjatlar.
3. Nozik axborotning boshqarilishi, muhofaza qilinishi va tarqatilishi asoslangan jami qonunlar, qoidalar va amalij tajriba.
4. Kompyuter muhofazasini ta'minlash uchun tanlangan reja yoki harakatlardan yo'naliishi.
5. Muayyan tashkilotda boshqaruv siyosati. Boshqaruv obyektlari qatoriga maxfiy axborot yoki cheklangan foydalanuvchilar doirasi uchun mo'ljallangan axborotni qabul qilish, unga ishlov berish va uzatish kiradi.

axborot xavfsizligi subyekti

ingl.: *information security subject*

rus.: *субъект информационной безопасности*

Axborot xavfsizligi subyektlariga davlat organlari ko'rinishidagi davlat, yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar kiradi.

axborot xavfsizligini ta'minlash

ingl.: *information security assurance*

rus.: *обеспечение безопасности информации*

Foydalanuvchining axboroti muhofazasiga qo'yilgan me'yor va talablarni bajarish. Bunda qoidabuzarni telekommunikatsiya tarmog'i i obyektlariga va ularda aylanib yuradigan axborotga ma'lum ta'sirlaridan muhofazalash nazarda tutiladi.

axborot xavfsizligining maqsadi

ingl.: *purpose of information protection*

rus.: *цель защиты информации*

Axborot muhofazalashdan istalgan natija. Axborotni muhofazalashdan maqsad, axborot mulkdori, egasi va foydalanuvchisi axborotni mumkin bo'lgan sizib chiqishi va (yoki)

axborotga nisbatan ruxsatsiz va qasddan qilingan harakatlar oqibatida zarar ko'rishing oldini olishdir.

axborot xizmati ko'rsatish

ingl.: *information service*

rus.: *информационное обслуживание*

Qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish, insonning madaniy, ilmiy, ishlab chiqarish, maishiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun axborot taqdim etish.

axborot xizmatlari

ingl.: *information services*

rus.: *информационные услуги*

1. Foydalanuvchiga axborot mahsulotini yetkazish bo'yicha ma'lum shaklda amalga oshiriladigan axborot faoliyati.
2. Subyektlar (mulkdorlar va egalar)ning foydalanuvchilarni axborot mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha harakatlari.
3. Foydalanuvchilar ixtiyoriga ularga kerakli axborot mahsulotlarini hujjalgi yoki elektron shaklda taqdim etish, shuningdek, foydalanuvchilarga tegishli axborot yoki axborot mahsulotlarini axborot tarmoqlari bo'ylab tarqatish.

axborot o'chirilishi

ingl.: *information destruction*

rus.: *разрушение информации*

Kompyuterning xotirasida saqlanayotgan axborotni o'chirish.

axborot shahri

ingl.: *information city*

rus.: *информационный город*

Iqtisodiyotning sanoatlashib bo'lgan infratuzilmasiga ega shahar. Unda asosiy faoliyat turlariga boshqarish, moliyaviy faoliyat, ilmiy tadqiqotlar, oliy ta'lim, madaniyat, axborot xizmatlari, OAV, ish xizmatlari (reklama, maslahat, axborot va boshqa xizmatlari) kirib, ushbu faoliyat turlarida barcha ishlovchilarning yarmidan ko'pi band bo'ladi.

axborot chalajonligi

ingl.: *information collapse*

rus.: *информационный коллапс*

Tarmoqdagi axborot makonining barqarorligi va normal faoliyatiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan taxmin qilingan holati. Aloqa kanallari o'tkazish qobiliyatining keskin pasayishi bilan

tavsiflanadi. Mavjud texnologiyalar ko‘payib borayotgan trafik hajmlarini uzata olmaydigan holatda paydo bo‘ladi.

axborotdan erkin foydalanish

ingl.: *information access*

rus.: *доступ к информации*

1. Axborot bilan tanishish, uni qayta ishslash, jumladan, ko‘chirish, o‘zgartirish yoki o‘chirish.
2. Subyektning axborot bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, texnik vositalar yordamida tanishish ham nazarda tutiladi.
3. Axborot bilan tanishish yoki uni qayta ishslash imkoniga ega bo‘lish.

axborotdan erkin foydalanish qoidalari

ingl.: *information access rules*

rus.: *правила доступа к информации*

1. Subyektning axborotni olish va axborot tashuvchilaridan erkin foydalanish tartibi va shartlarini tartibga soluvchi jami qoidalari.
2. Subyektning axborot resursidan shtatdagi texnik vositalar yordamida erkin foydalanishni amalga oshirish uchun o‘rnatilgan qoidalari.

axborotdan foydalanish subyekti

ingl.: *information access subject*

rus.: *субъект доступа к информации*

1. Axborot jarayonlarida huquqiy munosabatlar ishtirokchisi.
2. Harakatlari erkin foydalanishni cheklash qoidalari bilan tartibga solingan ixtiyoriy shaxs yoki jarayon.

axborotdan ruxsat etilmagan erkin foydalanishdan muhofazalash

ingl.: *information protection from unauthorized access*

rus.: *защита информации от несанкционированного доступа*

1. Manfaatdor subyekt muhofazadagi axborotdan erkin foydalanish huquqi yoki qoidalarini buzib qiladigan harakatlarning oldini olishga qaratilgan faoliyat. Erkin foydalanish huquqi yoki qoidalari huquqiy hujjalarda belgilanadi yoki axborot mulkdori, egasi tomonidan o‘rnatiladi.
2. Dasturlar va ma’lumotlardan ruxsatsiz erkin foydalanishning oldini olish yoki sezilarli qiyinlashtirish apparat, dasturiy, kriptografik usullarni va muhofaza vositalarini qo‘llab, hamda tashkiliy tadbirlarni o‘tkazish bilan

amalga oshiriladi. Parollar tizimi eng qo‘llaniladigan dasturiy muhofazalash usulidir.

axborotdan ruxsatsiz erkin foydalanishni muhofazalash tizimi

ingl.: *unauthorized access protection system*

rus.: *система защиты информации от несанкционированного доступа*

1. Axborotlashtirilgan tizimlarda axborotni ruxsatsiz olishdan muhofaza qilishning tashkiliy choralar va dasturiy-texnikaviy (jumladan, kriptografik) vositalar majmui.
2. Axborotlashtirish obyekti (ma’lumotlarni uzatish tarmog‘i)ni undagi axborotdan ruxsatsiz erkin foydalanish (u ilan ruxsatsiz amallar bajarish)dan muhofaza qilishning tashkiliy choralar va dasturiy-texnikaviy vositalar majmui.

axborotga ishlov berish texnologiyasi jarayoni

ingl.: *technological process of data processing*

rus.: *технологический процесс обработки информации*

Axborotga ishlov berishga oid o‘zaro bog‘liq bo‘lgan qo‘l va mashina yordamida bajariladigan amallar majmuasi. Bunda texnika vositalari va ma’lumotlar markazi xizmatlari orqali barcha o‘tish bosqichlarida, ishlov natijalarini idrok qilish uchun qulay shaklda ifoda etish ko‘zlanadi.

axborotga ishlov berish tili

ingl.: *Information Processing Language (IPL)*

rus.: *язык обработки информации*

Sun‘iy tafakkur jarayonlarini tavsiflovchi va dasturlarga sonlar o‘rniga tushunchalarga ishlov berish imkonini beruvchi, fikrlash funksiyasiga taqid qilishning birinchi vositasi bo‘lgan, ixtisoslashgan til.

axborotga tahdidlar modeli

ingl.: *information threat model*

rus.: *модель угроз информации*

Axborotga bo‘lgan tahdidlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi ma’lumotlarning sizishining texnik kanallarning rasmiylashtirilgan tavsifi.

axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi

ingl.: *information and communication infrastructure*

rus.: *информационно-коммуникационная инфраструктура*

Jami hududiy taqsimlangan davlat va korporativ axborot tizimlari, aloqa liniyalari, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari va kanallari, uzib-ulash va axborot oqimlarini boshqarish vositalari, shuningdek ularning samarali faoliyatini ta'minlovchi tashkiliy tuzilmalar, huquqiy va me'yoriy mexanizmlar.

Axborot-Kommunikatsiya Texnologiyalari (AKT)

ingl.: *Information Communication Technologies (ICT)*

rus.: *Информационно-Коммуникационные Технологии (ИКТ)*

1. Xususiy, umumiylar va ishlab chiqarish kommunikatsiyasida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va eltib berish bilan bog'liq bo'lgan obyektlar, harakatlar va qoidalar, shuningdek barcha texnologiyalar hamda sanab o'tilgan jarayonlarni birlashgan ravishda ta'minlovchi sohalar majmuasi. AKT tushunchasiga mikroelektronika, kompyuter va dasturiy ta'minot, telekommunikatsiyalar ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish, Internetdan erkin foydalanishni ta'minlash, Internetning axborot resurslarini ta'minlash, shuningdek sanab o'tilgan sohalar bilan bog'liq bo'lgan turli xil hodisalar va bu faoliyat sohalarini tartibga soluvchi qoidalar (rasmiylari kabi norasmiyatlari ham) kiradi.

2. Axborotni yaratish, uzatish, boshqarish va unga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan texnologiyalar.

3. Xohlagan kommunikatsiya qurilmasi yoki qo'llanmaga nisbatan ishlatiluvchi umumiylar atama, jumladan: radio, televideeniye, uyali telefonlar, kompyuterlar va tarmoq uskunlari va dasturiy ta'minot, yo'dosh tizimlari va h.k., shuningdek turli xizmatlar va ularga tegishli dasturlar, masalan, videoanjuman va masofaviy ta'lim. AKT, shuningdek, torroq ma'noda ham ishlatiladi, masalan, AKT ta'limda, tibbiyotda, kutubxonada va h.k.

Yevropa Komissiyasi fikricha, AKT muhimligi texnologiyaning o'zida emas, balki AKTning aholi orasida ko'proq axborot va kommunikatsiyasidan erkin foydalanish qobiliyatidadir. Dunyoning ko'p mamlakatlari AKT rivojlanishi uchun tashkilotlar yaratgan, chunki rivojlangan mamlakatlarning texnologiya jihatidan kamroq rivojlangan

mamlakatlarga nisbatan ustunligi texnologiyalar bor va texnologiyalar yo'q hududlar o'rtafigi iqtisodiy ajralishni keskinlashtirishi mumkin. Juhon miqyosida BMT raqamli tabaqalanishga qarshi vosita sifatida «AKT rivojlanish uchun» dasturini faol ravishda olg'a surmoqda.

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ijtimoiy ta'siri

ingl.: *social impact of ICT*

rus.: *социальное воздействие информационно-коммуникационных технологий*

AKTning jamiyatga – mehnat va bandlikka, iqtisodiyotga, ta'limga va madaniyat sohasiga, ijtimoiy tuzilmaga, uy va oilaga, umuman kundalik hayotga ta'siri.

axborotlashtirish

ingl.: *informatization*

rus.: *информатизация*

1. Yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni. (*qonun*)

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish va bilim va axborotni tarqatishning jadallashtirish jarayoni.

3. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalarida axborot va bilimlardan foydalanan samaraliligini oshirish, fuqarolar, tashkilotlar va davlatning axborot ehtiyojlarini qondirish va axborot jamiyatiga o'tish uchun sharoitlar yaratish maqsadida AKTdan keng ko'lamli foydalanish jarayoni.

4. Davlat hokimiyyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning axborot resurslariga ishlov berish va foydaluvchiga hujjalashtirilgan axborotni taqdim etishni amalga oshiruvchi axborot tizim va tarmoqlari asosida shaxslar, predmetlar, dalillar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish ehtiyojlarini qondirishning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni.

axborotlashtirish obyekti

ingl.: *informatization object*

rus.: *объект информатизации*

Berilgan axborot texnologiyalariga muvofiq ishlatalidigan, axborot resurslari, vositalari va axborotga ishlov berish tizimlari, ko'makchi texnika vositalari, ular o'mnatilgan binolar yoki obyektlar (imoratlар, inshootlar, texnika vositalari), yoki maxfiy muzokaralarni olib borish uchun mo'ljallangan binolar va obyektlar majmuasi.

axborotlashtirish obyektining attestatsiyasi

ingl.: *attestation of informatization object*

rus.: *аттестация объекта информатизации*

Vakolatli davlat organi tomonidan axborotlashtirish obyektining belgilangan axborot muhofazasi talablari va me'yorlariga muvofiqligini tasdiqlash.

axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati

ingl.: *information society policy*

rus.: *государственная политика в области информатизации*

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. (*qonun*) Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini ta'minlash;
- davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O'zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;
- xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;
- davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning birbiriiga mosligini va o'zaro aloqada ishlashini ta'minlash;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
- axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko'maklashish;

- dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirishini rag'batlantirish;
- tadbirkorlikni qo'llabquvvatlash va rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;
- kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish.

axborotlashtirish vositalari

ingl.: *informatization tools*

rus.: *средства информатизации*

Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida foydalaniladigan asbobiy apparatli va dasturiy vositalar, shuningdek axborot texnologiyalari.

axborotlashtirishning me'yoriy-huquqiy asosi

ingl.: *regulatory and legal informatization base*

rus.: *база информатизации нормативно-правовая*

Axborotlashtirish jarayonlarini tartibga soluvchi qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmui.

axborotlashtirishning texnikaviy texnologiyaviy asosi

ingl.: *technical and technology informatization base*

rus.: *база информатизации технико-технологическая*

Istiqlolli axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari, hisoblash va telekommunikatsiya texnikasi vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish sohalaring va shu sohaga xizmat ko'rsatuvchi ilmiy tadqiqot va loyiha-konstrukturlik tashkilotlari va korxonalar majmui, hamda shu sohaning mutaxassis xodimlari.

axborotni hujjatlashtirish

ingl.: *information documenting*

rus.: *документирование информации*

Axborotni axborot resurslariga kiritishning majburiy shartidir. Axborotni hujjatlashtirish tartibi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi. (*qonun*)

Axborot resurslarida saqlanadigan va ishlov beriladigan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan axborot elektron hujjat bo'lib, qog'oz hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega. Elektron hujjatni va elektron raqamli imzoni shakllantirish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar qonun bilan tartibga solinadi.

axborotni kriptografik o'zgartirish

*ingl.: cryptographic information conversion
rus.: криптографическое преобразование информации*

Kriptografik usullar (shifrlash va shifrnii ochish, elektron raqamli imzo chekish va uni tekshirish, xesh-funksiyani hosil qilish va uni tekshirish) qo'llashga asoslangan axborot o'zgartirish jarayoni.

axborotni muhofaza qilish

*ingl.: information protection
rus.: защита информации*

1. Axborot xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf qilish.
2. Axborot egalariga keltiriladigan zararning oldini olish yoki zarar keltirishni qiyinlashtirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va texnik (dasturiy-apparat) tadbirlar majmui.
3. Axborot butunligi, mahfiyligi va undan erkin foydalanish qulayligini ta'minlashga qaratilgan usullar va vositalar majmui. Axborotga bo'layotgan tabiiy va sun'iy tavsifdagi tahidilar ta'siri sharoitida ularni qo'llash, axborot egalariga yoki foydalanuvchilariga zarar keltirishning oldini oladi.

axborotni muhofaza qilish sohasidagi akkreditatsiya

*ingl.: accreditation in information protection security sphere
rus.: аккредитация в области защиты информации*

Muhofaza qilingan mahsulotlar, texnik vositalar va axborotni muhofaza qilish yo'llarini sertifikatsiya qilish sohasidagi muayyan faoliyat yurgizish huquqlarining rasman tan olinishi.

axborotni muhofaza qilishning kriptografik usuli

*ingl.: cryptographic method of information protection
rus.: криптографический метод защиты информации*

Axborotni shifrlash va kodlash tamoyiliga asoslangan, axborotni muhofazalash usuli. Kriptografik usul dasturiy vositalar bilan ham, apparat vositalar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

axborotni muhofaza qilishning ma'naviy-axloqiy vositalari

*ingl.: moral and ethical protection means
rus.: морально-этические средства защиты информации*

Davlat va jamiyatda an'anaviy ravishda vujudga kelgan turli xil me'yorlar. Ushbu me'yorlar qonuniy choralar kabi ko'pincha majburiy bo'lmasa ham, biroq ularga rioya qilmaslik inson obro'si va nufuzining yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

axborotni muhofaza qilishning texnik vositalari

*ingl.: technical protection means
rus.: технические средства защиты информации*

Tizim tarkibiga kiruvchi turli elektron qurilmalar va maxsus dasturlar. Ular mustaqil yoki boshqa vositalar bilan majmua tarkibida axborot muhofazalash vazifalarini (foydanuvchilarni aynanlash va autentifikatsiyalash, resurslardan erkin foydalanishni cheklash, hodisalarни ro'yxatga olish, axborotni kriptografik yopish va h.k.) bajaradi.

axborotni muhofazalash strategiyasi

*ingl.: information protection strategy
rus.: стратегия защиты информации*

Axborotni muhofaza qilish strategiyasi deganda, axborotni muhofaza qilish sohasida faoliyatni tashkillashtirishdagi umumiy yo'naltirish tushuniladi. U ma'lum faoliyat turida obyektiv ehtiyojlar, uni amalga oshirishning mumkin bo'lgan imkoniyatlar va mumkin bo'lgan tashkilashtirishidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Axborotni muhofaza qilish ehtiyoji paydo bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitlarning ko'pligini hisobga olgan holda, strategik masalalarni hal qilishning umumiy maqsadi turli xil muhofaza strategiyalarini, ya'ni har qanday sharoitlarda talab qilingan muhofazani samarali ta'minlashi mumkin bo'lgan eng kam to'plamini ishlab chiqishdan iborat. Ko'rib chiqilgan omillar mazmunlarining eng voqeiy birga qo'shilish xillariga ko'ra uchta muhofaza strategiyasi ajratilgan:

- Mudofaa,
- Hujum,
- Oldini oluvchi.

axborotni muhofazalash texnikasi

*ingl.: information protection technique
rus.: техника защиты информации*

Axborot muhofazasini ta'minlashga mo'ljalangan vositalar va boshqarish tizimlari.Unga axborot muhofazalash vositalari

va uni muhofazalash samaradorligini nazorat qilish vositalari kiradi.

axborotni muhofazalash usuli

ingl.: *information protection method*

rus.: *способ защиты информации*

Axborot muhofaza qilishning ma'lum tamoyillari va vositalardan foydalanishning tartibi va qoidalar.

axborotni muhofazalash vositalari

ingl.: *information protection tools*

rus.: *средства защиты информации*

1. Ma'lumotlarni, ular amalga oshirilgan vositalarni, shuningdek axborot muhofazasi samaraliligini nazorat qilish vositalarini muhofaza qilish uchun mo'ljallangan texnikaviy, kriptografik, dasturiy va boshqa vositalar.
2. Axborotni muhofaza qilish uchun mo'ljallangan yoki foydalilanidigan texnikaviy, dasturli vosita, modda va (yoki) boshqa narsa.

axborotni muhofazalashning kriptografiya vositalari

ingl.: *information protection cryptographic tools*

rus.: *средства криптографической защиты информации*

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun uning kriptografik o'zgartirishini amalga oshiruvchi hisoblash texnikasi vositalari.

axborotni muhofazasini ta'minlovchi mexanizmlarni kafolatlanganligi

ingl.: *assurance of information protection mechanisms*

rus.: *гарантированность механизмов обеспечения защиты информации*

Axborot muhofazasini ta'minlash uchun foydalilanidigan mexanizmlarning tanlangan faoliyat talablariga mutanosibligi bahosi. Kafolatlanganlik, axborot muhofazasini ta'minlash mexanizmlarining samaradorligi va bextatoligi bilan aniqlanadi.

axborotni oshkor qilishdan muhofazalash

ingl.: *information protection from disclosure*

rus.: *защита информации от разглашения*

Muhofazadagi axborotni, nazorat qilib bo'lmaydigan ko'p sonli axborot qabul qiluvchilarga beruxsat yetkazishni oldini olishga qaratilgan faoliyat.

axborotni qasddan qilinmagan harakatdan muhofazalash

ingl.: *information protection from inadvertent action*
rus.: *защита информации от непреднамеренного воздействия*

Muhofazalanayotgan axborot bilan amalga oshiriladigan faoliyat. U axborot foydalanuvchisi xatolarini, axborot tizimlarining texnik va dasturiy vositalarining to'xtab qolishini, hamda tabiiy hodisalar yoki o'zga axborotni to'g'ri maqsad yo'lida o'zgartirishga qaratilmagan harakatlar oldini oladi. Bular axborotni soxtalashtirish, yo'q qilish, undan nusxa olish, axborotdan erkin foydalanishi qamal qilish, hamda axborot tashuvchisini yo'qtish, yo'q qilish yoki ishlashini to'xtatishga olib keluvchi texnik vositalarni, tizimlarni ishlashi yoki inson faoliyati bilan bog'liq.

axborotni ruxsat etilmagan ta'sirlardan muhofazalash

ingl.: *information protection from unauthorized action*

rus.: *защита информации от несанкционированного воздействия*

Muhofazalanayotgan axborotga axborotni o'zgartirishga o'rnatilgan qoidalarni buzgan holda unga ta'sirlarni oldini olish uchun bajarilayotgan faoliyat. U axborotni soxtalashtirishga, yo'q qilishga, undan nusxa olishga, axborotdan erkin foydalanishni qamal qilishga, hamda axborot tashuvchisini yo'qtishga, yo'q qilishga yoki ishlashini to'xtatishga olib keladi.

axborotni sizib chiqishidan muhofazalash

ingl.: *information protection from leak*

rus.: *защита информации от утечки*

Muhofazadagi axborotni nazorat qilinaolmaydigan tarqatishning oldini olishga qaratilgan faoliyat. U axborotni oshkor aylash, undan beruxsat erkin foydalanish va muhofazadagi axborotni (chet el) razvedkalariga oshkor bo'lishini oldini olishga qaratilgan

axborotni texnikaviy muhofazalash vositalari

ingl.: *information protection technical tools*

rus.: *средства технической защиты информации*

Axborotning bitta yoki bir necha texnik kanallardan sizishining oldini olish uchun mo‘ljallangan texnik vositalar.

axborotning nishonli tizimi

ingl.: character based information system

rus.: знаковая система информации

Axborotni uzatish va saqlashga mo‘ljallangan o‘z-o‘zini tashkillashtiradigan tizimning alohida turkumi. Ular ikki turga bo‘linadi: xususan tizimli (yo‘l harakati belgilari, musiqa, nutq va ham tabiiy ham sun’iy tillar) va tizimdan tashqari (qachonlardir mayjud bo‘lgan tizimlarning qoldiqlari, masalan imo-ishoralar va holatlar tili).

axborotning sizishi

ingl.: information leakage

rus.: утечка информации

Muhofaza qilinayotgan axborotning nazoratsiz tarqalishi. Bu axborotni oshkor qilish, uni ruxsatsiz olish va razvedka tomonidan axborotni olish natijasida sodir bo‘ladi.

axborot-ruhiy xavfsizlik

ingl.: information psychological weapon

rus.: информационно-психологическая безопасность

Fuqarolar, ularning alohida guruhlari va ijtimoiy qatlamlari, shuningdek umuman olganda aholini salbiy axborot-ruhiy ta’sirlardan muhofaza qilinganlik holati.

aylanib o‘tishlar va almashishlar grafigi.

ingl.: bypass and replacement graph

rus.: график обходов и замен

Traktlar (kanallar), ular va tarmoq bog‘lamalarining tartib raqamlari ro‘yxati.Unda tarmoqda yuzaga kelgan aniq holatlarda ishlashdan chiqib ketgan traktlar o‘rniga ulanadigan traktlarning yoki trakt qismining aniq tartib raqamlari, shuningdek, uzib-ulashlar va ikkilamchi tarmoqlarga hamda boshqa iste’molchilarga taqdim qilish joyi bo‘lgan tarmoq bog‘lamalarining tartib raqamlari aks etgan.

aylantirish

ingl.: extra counting

rus.: накрутка

Veb-saytga tashriflar soni hisoblagichi ko‘rsatkichlarini ko‘paytirishga qaratilgan noto‘g‘ri harakatlar. Odatda ko‘paytirish

maqsadi turli xil reyting va musobaqlarda yuqori o‘rin olish uchun raqobatdir.

A

aynanlash

ingl.: identification

rus.: идентификация

qarang: identifikatsiya

Bb

B&W

qisq.: Black and White

Oq -qora monoxrom.

B1

qisq.: B1 security

B1 xavfsizlik pog'onasi. Tizimdan ruxsat etilmagan erkin foydalanishdan muhofazalanganligi pog'onasi uchun NSA standarti. DOD griflar tizimini ishlatalishini talab qiladi.

B2

qisq.: B2 security

B2 xavfsizlik pog'onasi. Tizimdan ruxsat etilmagan erkin foydalanishdan muhofazalanganligi pog'onasi uchun NSA standarti. DOD griflar tizimini ishlatalishini, testlash imkonini va erkin foydalanish pog'onasini tasodifan pasaytirish mumkin emasligini talab qiladi.

B2B

qisq.: Business-To-Business

qarang: biznes uchun biznes

B2C

qisq.: Business-To-Customer

qarang: iste'molchi uchun biznes

B3

qisq.: B3 security

B3 xavfsizlik pog'onasi. Tizimdan ruxsat etilmagan erkin foydalanishdan muhofazalanganligi pog'onasi uchun NSA standarti. Tizimni, uning modeli doirasida zaruriy xavfsizlikni isbotlash mumkin bo'lgan, matematik modelini yaratishni talab qiladi.

BACP

qisq.: Bandwidth Allocation Control Protocol

O'tkazish qobiliyatini ajratishning boshqarish bayonnomasi. ISDN da ishlataladi.

badniyat mantiq

ingl.: malicious logic

rus.: злонамеренная логика

Dasturiy, dasturiy-apparat va apparat vositalariga tatbiq qilingan dastur. Bundan maqsad ayrim shaxsi o'rnatilmagan yoki zarar keltiruvchi harakatlar sodir etish. Masalan, mantiqiy bomba, troyan oti, virus, qurt.

bahssiz imzo

ingl.: indisputable signature

rus.: бесспорная подпись

1990 yilda Chom (Davhd Chaum) va Van Antverpen (van Antwerpen) tomonidan taklif qilingan raqamli imzo sxemasi. Xabarning haqiqiyligi faqat imzo qo'yyuvchining yordamida tekshiriladigan sxemalarda, imzo qo'yyuvchi o'z xabaridan voz kechishi mumkin. Shubhasiz imzo sxemasida, bu muammoni hal etish imkonini beruvchi inkor qilish bayonnomasi ishlataladi.

bank standartlari bo'yicha Yevropa qo'mitasi

ingl.: European Committee for Banking Standards (ECBS)

rus.: европейский комитет банковских стандартов

Bank hujjalari me'yorlari ishlab chiqishni olib boradigan xalqaro tashkilot. ECBS bank, bank tizimlari va banklararo tizimlar faoliyati hamda kompyuter kartochkalarini ishlatalish bilan bog'liq standartlar bilan shug'ullanadi. Bu hujjalar shuningdek, foydalanuvchilar orasida o'zaro hisoblarni amalga oshiruvchi «avtomatik hisob markazlari»da ishlataladi.

bank tarmog'i

ingl.: banking network

rus.: банковская сеть

Bankga yoki banklar guruhiga xizmat ko'rsatuvchi axborot tizimi. Bank tarmog'i virtual tarmoq yoki jismoniy tarmoq bo'ladi. Birinchi holda u, ko'pmaqsadli tarmoqning mantiqiy ajratilgan qismi (begona shaslar uchun berk) resurslarining bir qismidan yakkahokim sifatda foydalanadi. Ikkinchi holda, axborot tizimining barcha jihozlari va dasturiy ta'minoti faqat bank tizimlarini ishlashi uchun mo'ljallangan bo'ladi (masalan, SWIFT tarmog'i).

Bank tarmog'inining asosiy vazifalari bo'lib, banklar, ularning tarkibiy qismlari va bo'limlari orasida moliyaviy elektron hujjalarni uzatish; hisoblarni bajarishda tranzaksiyalarni

quvvatlash; moliyaviy MB dan erkin foydalanishni ta'minlash; uzoqlikdagi bankomatlarning ishini quvvatlash; banklarning mahalliy tarmoqlarini birlashtirish; moliya axborot tizimlaridan erkin foydalanish ; ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash.

bank tizimi

ingl.: banking system

rus.: банковская система

Bankda moliyaviy va hisobga tegishli amallarni bajarilishini ta'minlovchi texnik va dasturiy vositalar majmui.

banklararo tizim

ingl.: interbank system

rus.: межбанковская система

Bank tizimlarining o'zaro ishslash vazifalarini bajaruvchi tarmoq xizmati tizimi. Banklararo tizim ko'p maqsadli tarmoqlar yoki maxsus bank tarmoqlardan foydalangan holda banklarda naqd pulsiz hisob-kitoblarни avtomatlashtirishni ta'minlaydi. Banklararo tizimlar ishning katta ishonchligini va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydigan tarzdak quriladi. Xalqaro bank moliyaviy tarmoqlar jamiyatni o'zining SWIFT tarmog'iaga ega.

bankomat

ingl.: bankmate

rus.: банкомат

Bank mijozlarini masofada o'z-o'zlariga xizmatini ta'minlovchi qurilma. Bankomat ixtisoslashtirilgan foydalanuvchi tizimi bo'lib, mijoz undan foydalanib qator bank amallarini bajarishi mumkin – qog'oz kupuralarni berish; pul qabul qilish; o'z hisobidan, magnit yoki kompyuter kartochkasidan boshqa hisobga pul o'tkazish. Bankomatdan foydalanishda mijozga klaviatura, kartochkalarni kirgizish qurilmasi va monitor taqdim etiladi.

banner

ingl.: banner

rus.: баннер

Veb-sahifadagi reklama xarakteridagi tasvir yoki matn bloki. U reklama beruvchining Veb-saytiga yoki mahsulot yohud xizmat turi atroflicha bayon qilingan sahfalarga giper murojaatdan iborat. Bannerlar tashrifchilarini jaib etish uchun, imidjni shakkantirish yoki shu resursni siljитish uchun turli Internet – resurslarda joylashtiriladi.

banner namoyishi

ingl.: banner demonstration

rus.: баннеропоказ

Bannerni veb-sayt tashrifchisiga amalda namoyish qilish. Tashrifchining brauzeri ushbu bannerni so'rab uni to'la yuklaganidan so'ng hisobga olinadi.

banner reklamasi

ingl.: banner advertisement

rus.: баннерная реклама

Biror veb-saytni, boshqa veb-saytlarda joylashtirilgan bannerlar yordamida reklama qilish usuli. Reklama qilinayotgan veb-saytg'a tashriflarlar sonini ottirish uchun xizmat qiladi, shu bilan birga kompaniyaning, mahsulotning, xizmatlarning va x.k.ning imidjini yaratish qurolidir.

banneralmashish tarmog'i

ingl.: banner exchange network

rus.: баннерообменная сеть

Reklama maydonlari ishtirop etgan reklama tarmog'i. Bannerlar almashish tarmoqlarining ko'pi ochiqdir, ya'ni tarmoqning reklama siyosatiga javob beruvchi xohlagan sayt uning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Bannerlarni almashish ishtirokchisi o'z sahifalarida boshqa ishtirokchilar bannerlarini ko'rsatadi, buning uchun u o'z sayti sahifalarida tarmoq kodini joylashtiradi. Buning evaziga u o'z reklamasini boshqa ishtirokchilar sahifalarida ko'rsatish huquqi va imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z reklamasini boshqa saytlarda ko'rsatish soni boshqalar reklamasini o'z sahifalarida ko'rsatishlar soniga to'g'ri nisbatda bog'liq.

bannering kuyishi

ingl.: burn out of a banner

rus.: сгорание баннера

Bannerni ma'lum banner tizimida yoki ma'lum veb-saytda ko'rsatishlar soni oshgani sayin uni bitta foydalanuvchiga takror-takror ko'rsatish mumkinligi ehtimoli oshadi. Bu, o'z navbatida, bannerga javoban ochilishlar soni kamayishiga olib keladi. Banner «kuyishi» vaqtida qanchalik ko'p ko'rsatilishi va u qanchalik keng auditoriyaga ko'rsatilishi bog'liq (bir xil ko'rsatilishlar sonida ko'p turli veb-sahifalarda ko'rsatilayotgan banner uncha tez kuyib qolmaydi). Bannering kuyib qolishi ikki ko'rsatkichga bog'liq – Site Reach va Site

Frequency (ushbu atamalar nafaqat veb-saytlar, balki banner tizimlariiga ham tegishli). Bannering mavzusi va dizayni uning «kuyishi» tezligiga ta'sir qilmaydi.

Banyan Systems korporatsiyasi

ingl.: *Banyan Systems corporation*

rus.: *корпорация Banyan Systems*

Mahalliy tarmoq uyushmalarining dasturiy ta'minotini ishlab chiqaruvchi kompaniya. Banyan Systems kompaniyasi AQSHda 1983 yilda yaratilgan. Kompaniya mahalliy tarmoqlarni yaratish va ularni bir-biri bilan hududiy tarmoqlar orqali bog'lash imkonini beruvchi blokli dasturiy ta'minotni taklif etadi.

banyan tarmog'i

ingl.: *banyan network*

rus.: *баньяновая сеть*

Kaskadli manzillanadigan tezkor taqsimlangan tarmoq. Banyan tarmog'ining tuzilmasi 16 kirish va chiqishga ega bo'lib bir-biri bilan ulangan oddiy ulovchi elementlardan tashkil topgan. Shu elementlar ketma-ketligi orqali ma'lumotlar bloklari uzatiladi. Banyan tarmoqlari katta o'tkazish qobiliyatini ta'minlay oladilar, chunki, ma'lumotlar bloklari ular orqali parallel ravishda o'tadi, yo'naltirish vazifalarini esa, apparatlar bajaradi. Banyan tarmoqlari integral ulab-uzish bog'lamlarda ishlataladi.

bari axborot

ingl.: *content*

rus.: *контент*

qarang: kontent

barmoq halqasi

ingl.: *finger ring*

rus.: *кольцо на пальце*

Barmoqdagi uzuk. U moliyaviy amallarni bajarish uchun mo'ljallangan tashqi qurilmadir. Mikroprotessorli uzuk kompyuter kartochkasiga muqobil yechimdir. Har bir uzuk xotirasiga yozib (tikib) qo'yilgan 64-razradli nomerga ega. Bu, AQSH banklar assotsiatsiyasi standarti tomonidan belgilangan yuqori darajadagi muhofazani ta'minlaydi. Bunday uzukning narxi kompyuter kartochkasidan ancha arzon.

BASIC tili

ingl.: *BASIC language*

rus.: язык *BASIC*

BASIC (Beginner's All-purpose Symbolic Instruction Code), «boshlovchilarga barcha maqsadlar uchun buyruq kodlari» deb atalgan til. 1960 yil o'talarida Dartmut kollejida talabalar uchun John Kemeney va Thomas Kurtz tomonidan ishlab chiqilgan. Til sodda va qulay bo'lib chiqdi va foydalanuvchilarning uncha katta bo'lmagan tizimlar bilan muloqot maromida ishlashida katta shuhrat qozondi. O'zining soddaligiga qaramay BASIC ko'pgina qo'llanmalarni ishlab chiqishda qo'llaniladi. BASIC tili tavsifining ANSI standarti mayjud bo'lsa ham, BASICning ko'pchilik rusumlari kengaytmalarni o'z ichiga oladi. Masalan, Microsoft kompaniyasining Visual Basic mahsuloti, BASIC tilining standartiga qo'shimcha ravishda, obektga - yo'naltirilgan funksiyalar to'plamini o'z ichiga olgan. Hozirgi kunda, BASIC tilining turli xillari qo'llanmalarning makrotillari sifatida qo'shilmoqda. Masalan, Microsoft Word va Excel foydalanuvchiga shu qo'llanmalarni sozlash va avtomatlashtirish uchun dasturlar yozish imkonini beradigan BASIC tilining rusumini qo'shadilar.

bastion

ingl.: *bastion host*

rus.: *бастион*

Kompyuter-shluz. U tashqi va ichki tarmoqlar oralig'iga joylashtiriladigan, tarmoqlararo ekranning dasturiy ta'minotida ishlaydi. Internet saytlardan erkin foydalanish xizmatini va ichki tarmoqni muhofazalashni ta'minlab beradi.

Bay Networks korporatsiyasi

ingl.: *Bay Networks corporation*

rus.: *корпорация Bay Networks*

Axborot tarmoqlarining tarkibiy qismlarini ishlab chiqaruvchi kompaniya. Bay_Networks kompaniyasi tomonidan AQSHda ishlab chiqariladigan asosiy masulot to'plagich va yo'naltirgichlardir, jumladan asinxron uzatish usuli va Ethernet tarmoqlari uchun. Kompaniya, shuningdek, turli xil bayonnomalarini amalga oshiruvchi qurilmalarni, shu jumladan, ISDN ham ishlab chiqaradi.

bayonnama

ingl.: *protocol*

rus.: *протокол*

1. Biror jarayon haqidagi axborotni davriy tartibda ro'yxatga olish natijasi.
2. Qurilma, dastur va ma'lumotlarga ishlov berish tizimlariga hamda jarayonlar yoki foydalanuvchilarning o'zaro ishlashiga oid algoritmi belgilovchi jami qoidalar. Masalan, aloqa liniyasi bayonnomasi – bu ma'lumotlar ulushining tuzilmasi va kodlash usullarini va uning aloqa liniyalari orqali uzatish jarayonini tartibga soluvchi qoidalar. Xalqaro Internet kompyuter tarmog'i bayonnomalari – bu IP bayonnomalaridir.

bayroq

ingl.: flag

rus.: флаг

1. Dasturdagi o'zgaruvchi. U muayyan shartlar bajarilganda dasturga axborot beradi.
2. Ma'lumotlarni sinxron uzatishda bayroq – maxsus sakkiz bitli signal (odatda 0111110), axborot kadrining boshi va oxirini belgilash uchun ishlatiladi. Bir kadrni boshqasidan farqlash va tarmoqda, uni o'tkazish qobiliyatini oshirish maqsadida, qurilmalarni sinxronlash uchun ishlatiladi.
3. Ma'lumotlar elementini odatdagidan farqli ekanini bildiradigan maxsus belgi. Misol uchun, jadval yozuvi xatolik bayrog'ini o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin, bu yozuv xato ma'lumotlardan iboratligini bildiradi.
4. Yer shari atrofidagi optik tolali kanal. Bayroq inson qo'l bilan yaratilgan eng uzun tuzilma bo'lib, bu kabelning uzunligi 17,000 milni va o'tkazish qibiliyati sekundiga 10 gigabitni tashkil qiladi. Kabel asosan dengiz tubiga, Yaponiya bilan Buyukbritaniyani birlashtirib, Xitoy, Tailand, BAA, Italiya va yana olti mamlakat hududlaridan o'tkazilib yotqizilgan.

bayt

ingl.: byte

rus.: байт

Sakkiz bitga teng bo'lgan axborot miqdorining asosiy o'ichov birligi. Keng ishlatiladigan qisqartirishlar: Kb = Kilobayt = 210 bayt, Mb = Megabayt = 220 bayt, Gigabayt (Gb) = 230 bayt, Terabayt (Tb) = 240 bayt, Petabyte (Pb), Exabyte (Eb), Zettabyte (Zb), Yottabyte (Yb).

bazis variant

ingl.: basis alternative

rus.: базисный вариант

Ko'rileyotgan mazkur loyiha yechimini taqqoslash uchun qabul qilinadigan boshlang'ich loyiha yechimi.

BBS

qisq.: Bulletin Board System

qarang: elektron e'lонлар taxtasi

B

BCC

qisq.: Blind Carbon Copy

Ko'r ko'chirma nusxa. e-mail sarlavhasidagi ko'chirma nusxa yuboriladigan manzil. Shu bilan birga BCC oluvchiga xabarning barcha manzil egalari ma'lum emas.

BCD

qisq.: Binary Coded Decimal

Ikkilik-o'nlik sanoq tizimida ifodalangan son. Sonlarni, bir baytda ikki xonali o'nlik sonlar razradi bilan kodlashga asoslangan ifodalash usuli.

BDC

qisq.: Backup Domain Controller

Domenning zahiraviy nazoratchisi. Windows NT domenidagi dastlabki domen nazoratchisini (PDC) zahiralash va undan bir qism yuklanmani kamaytirish uchun ishlatiladigan kompyuter. BDC ma'lumotlar bazalarining hisob yozuvlari bilan birga, zahira nusxasini, domenni xavfsizlik siyosati fayllarini zahira nusxasini va erkin foydalanish skriptlarini o'z ichiga olgan. Agar domenning bosh nazoratidan foydalanish mumkin bo'lmasa, BDC domenni boshqarish bo'yicha asosiy vazifalarni bajaradi.

BDE

qisq.: Borland Database Engine

Borland firmasining ma'lumotlar bazasidan erkin foydalanish texnologiyasi. (API) texnologiyasi Borland Int. firmasi tomonidan ma'lumotlar bazasidan o'zaro aloqada foydalanish uchun ishlab chiqilgan. BDE ni yaratish loyihasi 1990 yildan boshlangan; dastavval bu texnologiya ODAPI (Open Database API) nomi bilan taqdim qilingan.

belgi

ingl.: symbol

rus.: символ

1. Kodlashtirilishi, kompyuterga kiritilishi va uning display ekranida ko'rsatilishi mumkin bo'lgan hisoblash tizimi tomonidan ruxsat

etilgan belgilarni to'plami elementi. Belgilarga harf, raqam, qavs va ayirish belgilari hamda arifmetika amallari belgilari, shuningdek maxsus, boshqaruv va soxtagrafik belgilarni kiradi. Hisoblash tizimi erkin foydalanish mumkin bo'lgan deyarli barcha belgilarni kompyuter xotirasiga klaviatura yordamida bitta yoki bir guruh tugmalar bosilishi orqali kiritilishi mumkin. Hisoblash tizimlarining aksariyati belgilarni taqdim etish uchun alohida shakllar bilan birga ASCII (American standard code for information interchange) kodidan foydalangan. Ushbu kodlarda 256 belgi 0 dan 255 gacha bo'lgan sonlar sifatida aks etgan. Matnlarni tuzish va chompson uchun maxsus dasturlar – matn muharrirlari va matnga ishlov beruvchilar xizmat qiladi. Ularning ko'pi standart ASCII to'plamida yo'q bo'lgan belgilarni, masalan, grek alifbosini belgilarni, kiritish va ekran va printerga chiqarish imkonini beradi.

2. Bior narsani belgilash uchun ishlataladigan bitta yoki birin-ketin joylashgan belgilarni ketma-ketligi.

belgilarni optik o'qish

ingl.: Optical Character Reading (OCR)

rus.: оптическое чтение символов

Belgilarni tanish va matn tasvirini matnga o'zgartirish uchun mo'ljallangan tizim. OCR tizimlarining muhimligi shundaki, ular statcionar yoki qo'l skanerlari yordamida, tabiiy tilda yozilgan matnlarni avtomatik kiritish va tanish imkonini beradi. Eng yaxshi tizimlar, belgilarni tanishda 99,5% ishonchlilikni ta'minlaydi. OCR tizimlari o'qitilmaydigan va o'qitiladiganlarga bo'linadi. Tizimning ishi, kiritilayotgan matnni qog'oz tashuvchida bosilishi sifatiga ko'proq bog'liq.

bepul

ingl.: freebie

rus.: задаром

Ko'pchilik foydalanuvchilar Interneting barcha mazmuni – kontent ham, xizmat ham – bepul ekanligiga o'r ganib qolgan. Bundan tashqari, Internet ko'p hollarda "oddiy" hayotda pulga sotiladigan narsalarni teginga olish imkonini beradi – gazetani nashr qilish, kitob matni, telefon ma'lumotnomasi, uyali telefonga xabarlar (SMS) jo'natish va h.k. Odatda bior narsaning tekin tarqatishdan maqsad –

reklamadir. Bunda axborotni olish yoki xizmatlardan foydalangani uchun foydalanuvchi reklamani ko'rish orqali to'laydi (televideniyedagi kabi).

Internetda muntazam reklama kampaniyalari o'tkaziladi (viktoria, lotereya, musobaqalar va h.k.), va ular davomida tegishli sayt tashrifchilariga sovg'alar beriladi. Ba'zan kompaniya faqatgina anketani to'ldirganingiz uchun esdalikliklarni yoki o'z mahsuloti namunalarini tarqatadi. Internetda maxsus bepul narsalar kataloglari, ya'ni qayerda va nimani bepul olish mumkinligi haqida axborotni yig'uvchi saytlar mavjud.

bepul dasturiy ta'minot

ingl.: freeware

rus.: бесплатное программное обеспечение

Bepul tarqatiladigan va ayrim hollarda pulga sotib olingan dasturiy ta'minot kabi ishlay oladigan dasturiy ta'minot. Bepul dasturiy ta'minot ayrim dasturchilar, tashkilotlar va davlat muassasalari tomonidan yaratiladi. Shuni nazarga tutish kerakki, bepul dasturiy ta'minotda xatolar bo'lishi mumkin, bu holda kafolatlar va xizmat ko'rsatish ko'zda tutilmaydi. Shu bilan birga, shartli – bepul dasturiy ta'minot ham mavjud, bunday dasturlarni ishlab chiquvchilar ayrim foydalanuvchilarga boshqalarga tarqatmaslik sharti bilan bepul beradilar.

BER

qisq.: Bit Error Rate

Xato bitlar chastotasi. Ma'lumotlarni uzatishda xato bitlarning paydo bo'lish jadalligi.

beruxsat erkin foydalanish

ingl.: penetration

rus.: проникновение

Ma'lumotlarga ishlov berish tizimidan ruxsatsiz erkin foydalanish.

beruxsat erkin foydalanishdan muhofazalash vositasi

ingl.: unauthorized access protection tools

rus.: средство защиты от несанкционированного доступа

Beruxsat erkin foydalanishning oldini olish yoki o'ta murakkablashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy, texnikaviy yoki dasturiy-texnikaviy vosita.

beta testlash

ingl.: *beta testing*

rus.: *бета-тестирование*

Dasturiy mahsulotni bozorga chiqarishdan avval sinash uchun ishlatib ko'rish. Ishlab chiqaruvchi firma sinovlaridan o'tkazilgan dasturning dastlabki versiyasi (beta-versiya) hujjatlarning dastlabki versiyasi bilan birga, ekspert sifatida ko'rildigan nufuzli potensial foydalanuvchilarga rasmiy ravishda tarqatiladi. Ular dasturlarni funksional imkoniyatlarini tekshiradilar, hujjatlarni dasturlarga mos kelishini ko'rib chiqadilar. Beta-testlash jarayonida, dasturni ishlash va sinash davrida payqamay qolningan bevosita mahsulotni ishlatish bilan bog'liq xatolar aniqlanadi. Ishlab chiqaruvchi – firma beta-testlash natijalariga ko'ra dasturiy mahsulotga tuzatishlar kiritgandan so'ng, uning nusxalarini ko'paytiraladi va bozorga chiqariladi

beshinchchi avlod tili

ingl.: *fifth generation language (5GL)*

rus.: *язык пятого поколения*

Sun'iy tafakkur va neyron tarmoqlarida masalalarini yechish uchun foydalaniладиган til. Hozirgi kunda bunday tillar ishlab chiqish bosqichida turibdi.

BGA

qisq.: *Ball Grid Array*

BGA tanasi. Mikrosxemaning tutashmalar guruhini zo'ldirilar matritsasi shaklidagi tuzilishi. Mikrosxema plataga payvandlanadi.

BGP

qisq.: *Border Gateway Protocol*

BGP bayonnomasi chegara tarmoqlararo bayonnomma. NSFNET tarmog'iда EGP bayonnomasini ishlatish tajribasi asosida yaratilgan tashqi yo'naltirish bayonnomasi. RFC da 1163 va 1164 tartib raqamlari bilan berilgan.

bibliografik ta'rif

ingl.: *bibliographic description*

rus.: *библиографическое описание*

Hujjat haqidagi bibliografik ma'lumotlar majmu. Ma'lumotlar o'rnatilgan qoidalarga binoan beriladi va u hujjatni aniqlab umumiy tavsiflashga xizmat qiladi.

Big Blue

IBM (International Business Machines Corporation) kompaniyasining jargon nomi. Ko'k rang (Blue) IBM kompaniyasining korporativ rangidir.

B

bilimlar

ingl.: *knowledge*

rus.: *знания*

- Aniq bir predmet sohada inson bilimlarini aks ettiradigan va bilimlar bazasida saqlanadigan axborot turi.
- Shu turdagи obyektlarning barcha joriy (oraliq) holatlari to'plami va obyektning bir tavsifidan boshqa tavsifga o'tish usullari. Bilimlarga ichki tushuna olish, tuzulmalashganlik, bog'langanlik, faollik xosir. Boshqacha aytganda, «bilimlar = dalillar + etiqod + qoidalar».

bilimlar bazasi (BB)

ingl.: *knowledge base (KB)*

rus.: *база знаний (БЗ)*

- Aniq bir predmet sohasi bo'yicha dalillar va qoidalar shaklida rasmiylashtirilgan bilimlar to'plami.
- Inson tomonidan aniq predmet sohasi bo'yicha yig'ilgan bilimlarni kompyuterda ifodalash uchun mo'ljallangan semantik (ma'noli) model.
- Biror bir predmet sohasiga oid tushuncha, qoida va dalillarning tizimlashgan majmuini saqlash uchun bitta fayl yoki maxsus tashkil qilingan fayllar to'plami.

Bilimlar bazasi (BB) sun'iy tafakkur (intellekt) masalarini yechishda keng qo'llaniladi. Intellektual va ekspert tizimlarda BBning ikki muhim sinfi ishlatalidi. Statik BB masalani yechish davomida o'zgarmaydigan muayyan sohaning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Dinamik BB muayyan masalani yechish uchun ahamiyatga ega bo'lib, uni yechish jarayonida o'zgarib boradigan (masalan, tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazish davrida) ma'lumotlarni saqlash uchun xizmat qiladi.

Har bir BB ma'lumotlar, qoidalar va mantiqiy xulosa chiqarish mexanizmlari to'plamini o'z ichiga oladi.

Uning faoliyatini bilimlar bazasining boshqarish tizimi aniqlab beradi.

bilimlar ombori (BO)

bilimlarga asoslangan ...

ingl.: knowledge base (KB)

rus.: база знаний (БЗ)

qarang: bilimlar bazasi (BB)

bilimlarga asoslangan iqtisodiyot

ingl.: knowledge economy

rus.: экономика, основанная на знаниях

Yalpi ichki mahsulotning (YAIM) ko‘p qismi axborotlar ishlab chiqarish, ularga ishlov berish, saqlash, axborotlar va bilimlarni tarqatish bilan bog‘liq faoliyat evaziga ta’milanadigan iqtisodiyot.

bilimlarni boshqarish

ingl.: knowledge management

rus.: управление знаниями

Rasmiy jarayon. U tashkiliy tartiblar, insonlar va texnologiyalarni baholash hamda ushbu tarkibiy qismalar orasida samaralilikni oshirish uchun kerakli insonlarga kerakli paytda kerakli axborot berish maqsadida o‘zaro aloqaga asoslangan tizim yaratishni ko‘zlaydi (IDC tavsifi bo‘yicha.)

billing

ingl.: billing

rus.: биллинг

qarang: elektron billing

bin

Binary, ya’ni ikkilik so‘zining qisqartmasi.

biologik informatika

ingl.: biological informatics

rus.: биологическая информатика

Biosferada – tirik organizmlar va o‘simliklarda axborot texnologiyalari amalga oshishining umumiyy qonuniyatlarini va xususiyatlarini o‘rganuvchi fan. XX asrning oxirlarida rivojlanan boshlagan fundamental informatikaning bo‘limi

biometrik

ingl.: biometric

rus.: биометрический

Alohiда atributlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunda insонning takrorlanmas shaxsiy xususiyatlarini ifodalovchi barmoq izlari, ko‘z qon tomirlarining rasmi, tovush yozuvni kabilardan foydalanish shaxsnii aniqlash imkonini berishi ko‘zda tutilgan.

biometrik texnologiya

ingl.: biometric technology

rus.: биометрическая технология

Inson buyruqlarini biotoklar orqali foydalanuvchi tizimga yetkazish usuli.

bionika

ingl.: bionics

rus.: бионика

Tirik tabiat tamoyillari, xossalari, vazifalari va tuzilmalarini texnik qurilma va tizimlarda qo‘llashga qaratilgan amaliy fan. Internet o‘zo‘zini tashkil viluvchi tizim bo‘lib, ko‘p jihatlari bilan tirik organizm evolutsiyasini “takrorlaydi”.

BIOS

qisq.: Basic Input/Output System

1. Kiritish-chiqarishning asosiy tizimi. Shaxsiy kompyuterni ona platasidagi DXQ (doimiy xotira qurilmasi) yoki QDDXQ (qayta dasturlanadigan doimiy xotira qurilmasi) mikrosxemasiga yozilgan dastur. BIOS kompyuterni operatsion tizimdan kelayotgan kirish-chiqish, qurilmalarni boshqarish so‘rovlariga xizmat ko‘rsatadi. Shuningdek, kompyuter yoqilganda uskulalarni boshlang‘ich tekshirish (POST tartiboti), MBR ni yuklash va operatsion tizimga boshqaruvni uzatish ham BIOS vazifasiga kiradi, BIOS da shaxsiy kompyuterni ona platasining tarkibiy tuzilmasini asosiy ko‘rsatkichlarini qo‘ida sozlash uchun o‘zaro faol nimdasturi ham mavjud.

2. BIOS ni o‘z ichiga olgan mikrosxema.

BIP

qisq.: Bit Interleave Parity

Bitlar navbatlanishi juftligi. Juftlik bitini hisoblash va taqqoslashga asoslangan ma’lumotlar uzatishning to‘g‘riligini nazorat qilish usuli.

birinchi avlod tili

ingl.: first generation language (1GL)

rus.: язык первого поколения

Mashina tili.

birja

ingl.: exchange

rus.: биржа

Muntazam faoliyat ko‘rsatuvchi tashkiliy rasmiylashtirilgan bozor. Klassik birjalar bilan bir qatorda elektron birjalar ham paydo bo‘ldi. Ularda, barcha kelishuvlar tarmoqqa ulangan

kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Lekin, hatto klassik birjaldarda ham informatikaning elektron vositalari, shu jumladan - telekommunikatsiyalar keng qo'llaniladi.

birmarotabali raqamli imzo

ingl.: disposable digital signature

rus.: одноразовая цифровая подпись

Raqamli imzo ixtiyoriy xabar uchun faqat bir marta ishlatalishi mumkin bo'lgan sxema, ya'ni, har qanday yangi xabarga yangi kalitlar jufti zarur bo'ladi. Bunday sxemaning afzalligi tezkorlik bo'lsa, kamchiligi – katta miqdordagi axborotni (oshkora kalitlarni) e'lon qilishdir, chunki, har bir imzo faqat bir marta ishlataladi.

birmarotabali yon daftar

ingl.: disposable notebook

rus.: одноразовый блокнот

qarang: Vernam kriptotizimi

birtomonlama funksiya

ingl.: one-way function

rus.: односторонняя функция

Berilgan X argument bo'yicha $F(X)$ funksiyaning qiymatini hisoblash yengil bo'lsa, X ni $F(X)$ dan aniqlash, hisoblashda qiyin bo'lgan funksiya. Hozirgi kungacha birtomonlama funksiyalar mavjudligi qat'iy isbot qilinmagan. Axborotni shifrlash uchun birtomonlama funksiyalar yaramaydi, chunki, ular yordamida shifrlangan matnni, uning shifrini egasi ham hatto ocha olmaydi. Birtomonlama funksiyalar asimmetrik kriptografiyada keng tatbiqini topdi.

B-ISDN

qisq.: Broadband Integrated Services Digital Network

qarang: xizmatlari birlashgan keng yo'l-yo'lli raqamli tarmoq

BIST

qisq.: Built-In Self-Test

Ichiga o'rnatilgan o'z-o'zini nazorat. O'z-o'zini testlash uchun mahsulot ichiga o'rnatilgan apparat va/yoki dasturiy vositalar.

bit

ingl.: bit

rus.: бит

Axborot tizimlarida axborotni ifodalashning eng kichik birligi. Axborot miqdorining eng kichik o'lchov birligi hisoblanadi. Axborot 0 va

1 sonlarining ketma-ketligi bilan ifodalanaadi. Atama «binary digit»(ikkilikraqam) iborasining qisqartmasi bo'lib hisoblanadi va Princeton universiteti professori Hohn W. Tukey tomonidan kiritilgan.

B

bit sekundiga

ingl.: bits per second (bps)

rus.: бит в секунду

Foydali hamda yordamchi axborotga oid barcha uzatilayotgan bitlarni hisobga oladigan axborot uzatish (kompyuterda ishlov berish) tezligining o'lchov birligi. Faqat foydali axborotni uzatish tezligini o'lhash uchun "ramz sekundiga" (characters per second, cps) iborasi ishlatiladi.

bitta rang arxitekturasi

ingl.: peer-to-peer architecture

rus.: одноранговая архитектура

Har bir abonent tizimi bir xil ko'lama resurslarni taqdim va iste'mol qilishi mumkin bo'lgan, axborot tizimining konsepsiysi. Yagona rang arxitektura shu bilan tavsiflanadi, unda hamma abonent tizimlar teng huquqli va ularning bir birlarini resurslariga murojaatlari simmetrik bo'ladi. Buning evaziga, foydalanuvchi ma'lumotlarni taqsimlangan ishlovini bajarishi, amaliy dasturlar, tashqi qurilmalar, shu jumladan, ixtiyoriy tizimlarda joylashgan fayllar bilan ishlashi mumkin. Yagona rang arxitekturasi, tarmoq vositalarini oddiy yuklanishi, yengil kengaytirilishi bilan tavsiflanadi.

biznes

ingl.: business

rus.: бизнес

Ishlab chiqarish, sotib olish, tovarlarni sotish yoki xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyat. Informatikaning usullari va vositalarini keng tatbiq qilish, global tarmoqlarni paydo bo'lishi, biznesning yangi modelini yaratilishiga olib keldi. Mumtoz, tovarga yo'naltirilgan modeldan farqli ravishda yangi model, tranzaksiyalarni ishlatishiga tayanadi. Axborot jamiyatni deb ataluvchi hozirgi jamiyatda reklama va savdosotiqlar tarmoq xizmati yordamida amalga oshiriladi. Bularga birinchi galda EDI tarmoq xizmati va global ularash xizmati misol bo'laadi. Tijoratning informatika bilan birlashuvli infotijoratning paydo bo'lishiga olib keldi.

biznes hamkor uchun mo'ljallangan elektron biznes

ingl.: *electronic business oriented on business partner*
 rus.: *бизнес электронный, ориентированный на бизнес-партнера*
qarang: biznes uchun biznes

biznes uchun biznes

ingl.: *business-to-business (B2B)*

rus.: *бизнес для бизнеса*

1. Axborot makonida iqtisodiy faoliyat sohasi. Bu soha qo'shimcha qiymatni shakllantirish zanjirida ishtirok etuvchi tashkilotlar bilan samarali va uzoq muddatga mo'ljallangan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

2. Biznes olib borishning elektron modeli. Unda korxonalar o'ttasidagi oraliq shartnomalar elektron ko'rinishda amalga oshiriladi.

B2B sektoriga turli firmalar o'ttasidagi barcha savdo munosabatlari, ta'minotni, sotuvni tashkil qilish, shartnomalarni va rejalarни kelinishtrish kiradi. B2B tizimlari sifatida quyidagilarni tushunishadi:

- Procurement Systems – mahsulot iste'molchilarini ishlab chiqaruvchilar bilan, xardorlarni sotuvchilar bilan aloqa tizimlari.
- Supply Chain Management – asosiy ishlab chiqarish uchun korxonani uzluksiz ravishda ta'minot to'g'risida va kontragentlar logistikasi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlovchi tizim.

biznes yechim

ingl.: *business solutions*

rus.: *бизнес-решение*

Internet texnologiyalarga (portallar, kataloglar, Internet ommaviy axborot tizimi, elektron do'konlar, auksionlar va boshqalaraga) asoslangan to'la biznes faoliyatini ta'minlovchi tizim.

BLOB

qisq.: *Binary Large Object*

Katta ikkilik obyekt. Ayrim dasturlash tillari va MBBT dagi ixtiyoriy ikkilik sanoq tizimida berilgan axborotni saqlash uchun mo'ljallangan ma'lumotlar turi.

BLOG

qisq.: *weB LOG*

Tarmoqda o'qilishi mumkin bo'lgan shaxsiy kundalik. Vlogni olib borishni blogging (blogging) deb, uning egasini esa, blogger

(blogger) deb ataladi. Korporativ blogga misol: blog.redgraphic.ru.

blokli shifr

ingl.: *block cipher*

rus.: *блочный шифр*

Blokning kirish ketma-ketligidagi o'rnidan qat'iy nazar, bir xil uzunlikdagi dastlabki matn bloklarini xuddi shunday uzunlikdagi shifrlangan matnga aylantirish. Blokli shifrlarning kamchiligi shundaki, shifrlangan matndan o'girilgan dastlabki matn buzilgan bo'lishi mumkin. Bu aloqa kanalidan xabar uzatish jarayonida xatolarni tarqalishi oqibatida yuzaga keladi.

bloknotli shaxsiy kompyuter

ingl.: *notebook personal computer*

rus.: *блокнотный персональный компьютер*

Ko'chma ixcham shaxsiy kompyuter. Bunday kompyuterlarning ko'pchiligi deyarli standart klaviaturaga, kompyuter grafikasi vositalariga ega. Bu kompyuterlar unchalik katta bo'limgan qattiq disklar yoki optik disklar bilan ishlaydi.

Bluetooth

Kichik faoliyat doirasiga ega (chastotalar oralig'i 2,4 GGs) bo'lgan simsiz aloqa texnologiyasi. Tarmoq qurilmalari orasidagi o'zaro ishlashni va ularning Internetga ulanishini osonlashtiradi. U, shuningdek, Internet qurilmalari va boshqa kompyuterlar orasida ma'lumotlar sinxronlashtirilishini osonlashtiradi. Bluetooth katta ma'lumotlar oqimlarini uzatish uchun mo'ljallangan bo'lgani uchun u mahalliy va global tarmoq texnologiyalarining o'rmini bosa olmaydi.

BMP

qisq.: *Bit MaP*

Bit kartasi, BMP formati. Rastrli grafik tasvirlarni ifodalash uchun mo'ljallangan oddiy format.

BNC

qisq.: *Bayonet Nut Connector, Bayonet Neil-Concelman connector*

Bayonet ulagichi, BNC-ulagich. Koaksal kabel uchun ularash uyasi.

BNF

qisq.: *Backus-Naur Form, Backus Normal Form*

Bekus-Naarning normal shakli, BNF. Tilni sintaksisini rasmiy aniqlash uchun matnli ko'rsatmalar.

bod

ingl.: *baud*

rus.: *бод*

Ma'lumotlarni uzatish tezligining o'lchov birligi. U bir sekundda uzatilgan ramzlar soni bilan aniqlanadi. Axborotni ikkilik kodida uzatadigan kanallar uchun 1 bod 1 bit/sekundga teng. Hozirgi zamonda bu tushuncha ishlatalmaydi.

BOF

qisq.:

1. Beginning Of File – Fayl boshi.
2. Birds Of Feather – Birgalikda uchayotgan qushlar. Internet orqali biror bir mavzuni muhokamasi bilan mashg'ul bo'lganlarning vaqtinchalik norasmiy hamjamiyati.

BOND

qisq.: *Bandwidth ON Demand*

Talabga ko'ra o'tkazish qobiliyatini taqdim qilish.

BOOTP

qisq.: *Bootstrap Protocol*

BOOTP bayonnomasi, boshlang'ich yuklash bayonnomasi. Disksiz ishchi stansiyalarini serverdan boshlang'ich tarkibiy tuzilmalash va yuklash uchun mo'ljallangan tarmoq bayonnomasi. BOOTP bayonnomasi RARP uchun muqobil sifatida ishlab chiqilgan va odatda TFTP bilan birgalikda ishlataladi. U amalga oshirishda soddaroq va RARP singari kanal pog'onasidagi freymlarni emas, balki UDP transport bayonnomasini ishlataladi. BOOTP bayonnomasi RFC 951, 1542 va 1533 larda tavsiflangan.

Borland International korporatsiyasi

ingl.: *Borland International corporation*

rus.: *корпорация Borland International*

Dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi kompaniya. Borland 1983 yilda yaratilgan bo'lib, Kaliforniyada (AQSHda) joylashgan. Kompaniyaning asosiy ishlanmalari qatoriga quydigilar kiradi:

- Delphi – Windows qo'llanmalarini yaratish muhiti,

- Borland C++ – dasturlashtirish tili,
- IntraBuilder – JavaScript tili uchun ko'rib ishlaydigan vosita,
- CodeWright – dasturlar muharriri,
- Kylix – Linux amaliy tizimi uchun elektron biznes yechimi.

B

BOT

qisq.: *Back On Topic*

Mavzuga qaytib.

bog'lagich

ingl.: *communicator*

rus.: *коммуникатор*

Foydalanuvchiga turli aloqalarni taqdim qiladigan ixcham qurilma. Bog'lagich ko'chma ixcham qurilma bo'lib, u uyali paketli radiotarmoqda ishlash uchun mo'ljallangan. Bu foydalanuvchi tizimi telefoniyani, uzoqlashgan mahalliy tarmoq bilan o'zaro ishlashni, faksimil aloqani, elektron pochtani, «qisqa xabarlar xizmati» SMS ni ta'minlaydi.

bog'lama

ingl.: *node*

rus.: *узел*

qarang: hisoblash tarmog'i bog'lamasi

bog'lash

ingl.: *link*

rus.: *линик*

Fayl yoki direktoriya manzili. Odatda, ushbu manzil maxsus faylda saqlanadi. MS-Windowsda bunday fayllar yorliq deb ataladi.

bog'liqlik

ingl.: *connectivity*

rus.: *коннективность*

Tizim tarkibiy qismlarining bog'langanligi, ularish imkoniyati (masalan kompyuterlar o'zaro), o'zaro ishlash qobiliyati (masalan dasturlarni o'zaro).

bosh kompyuter

ingl.: *host computer*

rus.: *главный компьютер*

1. Ko'pmashinali hisoblash majmualarida, boshqa kompyuter larni boshqaradigan, tizimda (hisoblash tarmog'ida) ishlarni tashkillashtiradigan va asosiy axborot ishlovini amalga oshiradigan kompyuter.
2. Telekommunikatsiya hisoblash tarmoqlarida, tarmoqqa xizmat ko'rsatishni, xabarlarini uzatishni va dasturlarni bajarish bilan bog'liq

qo'shimcha funksiyalar yoki vazifalarni ta'minlaydigan kompyuter.

bosh muharrir

ingl.: *chief editor*

rus.: *главный редактор*

Tahririyatni (qanday atalishidan qat'iy nazar) boshqaradigan va ommaviy axborot vositasini ishlab chiqarish va nashr qilish bo'yicha yakuniy qarorni qabul qiladigan shaxs.

bosh sahifa

ingl.: *home page*

rus.: *начальная страница*

Asosiy sahifa. Ingliz tilidan to'g'ri tarjima qilinganligidan qat'iy nazar, bu muayyan insonning uy (shaxsiy) sahifasi emas, balki veb-saytning boshlang'ich sahifasidir. Odatda murojaatlар aynan veb-saytning bosh sahifasiga qilinadi, shuning uchun ushbu sahifaga tashrif buyuruvchilar soni xohlagan boshqa sahifaga qaraganda ko'proq. Bosh sahifa (veb-sayt yuzi) bo'yicha foydalanuvchi qayerda ekanligi va saytning boshqa sahifalarida nimalarini ko'rish mumkinligi haqida tasavvur oladi (ba'zan bosh sahifa birinchi va yagona bo'ladi).

bosh o'zgartirgich

ingl.: *head-end convertor*

rus.: *головной преобразователь*

Yakka kanalli kabelda signal uzatishda bir chastota kengligini boshqasiga o'zgartirish uchun ishlatalidigan qurilma.

boshi berl holat

ingl.: *deadlock*

rus.: *тупиковая ситуация*

Bitta yoki undan ortiq jarayonlar faoliyatini to'xtab qolishiga olib keladigan vaziyatlar majmuasi. Bunday vaziyatlar axborot tizimlarida yoki tarmoqlarida quyidagi holatlarda sodir bo'ladi:

- dasturiy ta'minotda ko'zda tutilmagan vaziyatlar yuz berganda;
- uskunalarining ishdan chiqishi yoki signallar buzilishi yuz berganda;
- bayonnomada yoki dasturiy ta'minotda xatolik bo'lganda;
- jarayonlar faqat bir resursni talab qilgan hollarda.

boshqarish

ingl.: *management*

rus.: *управление*

qarang: *Menejment*

boshqaruvchi axborotning umumiyligi bayonnomasi

ingl.: *Common Management Information Protocol (CMIP)*

rus.: *общий протокол управляющей информации*

Tarmoqni boshqarish tartibotlarini aniqlaydigan ISO standarti. CMIP bayonnomasi tarmoqni boshqarish funksiyalarini aniqlaydi va olti xil xizmatlarni taqdim qiladi:

- tarkibiy tuzilmani – tashqi shaklini, hamda tarmoq tarkibiy qismalarini o'zaro joylashuvini boshqarish;
- ma'lumotlar muhofazasini boshqarish;
- ma'lumotlar xavfsizligini nazorat qilish;
- tarmoq ishini hisobini olib borish;
- faoliyat sifatini boshqarish;
- kataloglar xizmatini olib borish.

BPE

qisq.: *Back Propagation of Error*

Xatoning teskari tarqalishi. Sun'iy neyron tarmog'ini o'qitish uslubi.

bpi

qisq.: *Bits Per Inch*

Bit dyumda.

bpp

qisq.: *Bits Per Pixel*

Bit pikselda.

BPR

qisq.: *Business Process Reengineering*

Biznes – jarayon rejiniringi (qayta qurish). Korxonada uning muhim faoliyat ko'rsatkichlarini sezilarli yaxshilash maqsadida ish tartibotlarini to'la ro'yxatdan o'tkazish, tahlil qilish va qayta tashkillashtirish. Odatda, malakali konsalting firmalari tomonidan umum qabul qilingan va/yoki firma uslubiyatlarini qo'llab, korxonada yangi axborot texnologiyalarini tatbiq qilish bilan amalga oshiriladi.

bps

qisq.: *bits per second*

qarang: bit sekundiga

BPU

qisq.: *Branch Prediction Unit*

Shoxlanishni bashoratlovchi qurilma.
Mikroprotsessorning arxitektura elementi.

brandmauer

ingl.: firewall

rus.: межсетевой экран

“Tarmoqlararo to’siq” yoki “firewall» atamalarining sinonimi (nemis tilidan “olovli devor” deb tarjima qilinadi).

1. Tashqaridan kompyuterga yoki kompyuterlar guruhidan erkin foydalanishni nazorat qiluvchi va hujumlarni bartaraf qiladigan dastur va apparat ta’mintoning birikmasi. Asosan Internet tarmog‘iga ulangan mahalliy tarmoqda ishlataladi.

2. Xususiy (Intranet) tarmoq qilinadigan noxush tajovuzlarni bartaraf qilish uchun, ikki va undan ortiq tarmoqlar orasida muhofaza to’sig‘ini hosil qiladigan hisoblash tizimi yoki tizimlar birikmasi. Brandmauer bir tarmoqdan boshqa tarmoqqa paketlarni uzatishda virtual to’siq bo‘lib xizmat qiladi va Internet hamda Intranet tarmoqlari orasida ma’lumotlar oqimini kuzatib turadi.

3. Mazkur tarmoq xavfsizligiga boshqa tizim va tarmoqlardan bo‘layotgan tahdidlardan muhofazalash usuli. Bu usul tarmoqdan erkin foydalanishni markazlashtirish va uni nazorat qilish orqali apparat-dasturiy vositalar yordamida amalga oshiriladi.

brauzer

ingl.: browser

rus.: браузер

1. Gipermatnni o‘qish, veb-resurslarda navigatsiyalash va ko‘rib chiqish dasturi. Vebaizupei gipermatnlarni o‘qishdan tashqari, tovushni va video ma’lumotlarni qaytadan chiqarish, ya’ni, gipermedianı qayta chiqarish, tarmoqning boshqa kompyuterlari bilan ularishni o‘rnatish va ularda ishlayotgan serverlarga veb-hujjalarga so‘rovlanri yuborish, tarmoqni boshqa foydalanuvchilar bilan muloqat tashkil qilish va uni quvvatlash kabi qo‘srimcha imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Eng ommaviy tarqalgan veb-brauzerlar — Microsoft Internet Explorer va Netscape Navigator.

2. Obyektga-yo’naltirilgan dasturiy tizimlarda sinfiy shajarani tahlil qilish uchun ishlataladigan vosita.

brend

ingl.: brand

rus.: бранд

Qonunchilik tomonidan muhofazalangan mahsulot, kompaniya (uning nomi) yoki konsepsiya (tamoyil). U ijtimoiy ong tomonidan birtalay o‘ziga o‘xhashlari ichidan ajratib olinadi.

BRI

qisq.: Basic Rate Interface

Asosiy pog‘ona interfeysi, BRI interfeysi. Ikki ma’lumotlar uzatish kanalining (B-kanal) har birini tezligi 64 Kbit/s va bitta boshqaruv kanali (D-kanal) tezligi 16 Kbit/s. tashkil bo‘lgan ISDN liniyasi. Axborotni 128 Kbit/s.tezlik bilan uzatish imkonini beradi.

broker

ingl.: broker

rus.: брокер

Turli ko‘rinishdagi amallarda vositachi. Broker-inson bilan bir qatorda, elektron brokerlar ham faoliyat ko‘rsatadilar. Informatikada, broker amaliy dastur bo‘lib, boshqa guruh dasturlarining o‘zaro aloqasini ta’minlaydi. Buning misoli sifatida obyekt so‘rovlarini brokerini keltirish mumkin.

BS

qisq.:

1. Bachelor of Science – Fanlar (tabiiy) bakalavri (AQSH da).
2. BackSpace – Belgiga qaytish. (ASCII ning boshqaruvchi kodi).

BSA

qisq.:

1. Business Software Alliance – Tijoriy dasturiy ta’milot ishlab chiqaruvchilari alyansi. Microsoft tomonidan dasturiy ta’milot noqonuniy tarqatishga (qarochchilikga) qarshi kurashish uchun tuzilgan tashkilot.
2. Boy Scouts of America – AQSH boyskautlari (hech narsadan toymas bolalarri) tashkiloti.

BSD

qisq.: Berkeley Software Distribution

Berkli shahrida (AQSH, Kaliforniya) dastlab ishlab chiqilgan rusumni rivojlantirayotgan UNIX operatsion tizimining klonlari oilasining belgilanishi.

BSDI korporatsiyasi*ingl.: BSDI corporation**rus.: корпорация BSDI*

Berkeley Software Design, Inc. so'zlarining qisqartmasi. Tijorat bo'yicha UNIX operatsion tizimining BSD (Berkeley) rusumiga asoslangan tarmoq (jumladan Internet tarmog'i uchun) dasturiy ta'minotini yetkazib berish bilan shug'ullanadi.

BSI*qisq.: British Standards Institute*

Britaniya standartlar instituti.

BSOD*qisq.: Blue Screen Of Death*

O'limning ko'k ekranasi. Windows NT operatsion tizimining muhofaza nolli halqasida (operatsion tizim o'zagida yoki drayverda) xotira muhofazasining buzilishi (GPF) xatosiga bo'lgan javob harakati. U tizimning to'xtashiga va qayta yuklanishiga olib keladi.

BTB*qisq.: Branch Target Buffer*

Shoxlashning maqsadli buferi. Mikroprotsessorni ichki bloki.

bufer*ingl.: buffer**rus.: буфер*

Ma'lumotlarni vaqtincha saqlash uchun ishlatalidigan kompyuterning tezkor xotira yacheykalarining bir qismi. Boshqa (masalan, kompyuterga kiruvchi) qurilmalardan kelgan ma'lumotlar bilan birlgilikda qayta ishlash zarurati tug'ilganda, ular buferdan chaqirib olinadi. Ma'lumotlarni buferga yozish va vaqtincha eslab qolish jarayoni buferlashtirish deb ataladi. Yuqori tezlikli katta bufer keshxotira deb ataladi.

bul algebrasi*ingl.: boolean algebra**rus.: булева алгебра*

1. Har bir o'zgaruvchisi ROST yoki YOLG'ON qiymatlardan birini qabul qilishi mumkin bo'lgan algebra.

2. Uch amaldan AND (VA), OR (YOKI), NOT (YO'Q) iborat algebraik tuzulma.

Bul algebrasi, mantiq qonuniyatlarini o'rganib uni taklif etgan irlandiyalik Jon Bul sha'niga uning nomi bilan atalgan. Bul algebrasida

o'zgaruvchilar ustida bajariladigan amallar bul amallari yoki mantiqiy amallar deb ataladi. Mantiqiy amallarni bajarish qoidalari mantiqiy sxemalarni o'zgartirish uchun qulay. Shu sababli, bul algebrasi kompyuterni ishlab chiqishda asos bo'lgan.

Bus Master

Shina egasi. Qurilmaning xohlagan shinada (jumladan PCIida) mumkin bo'lgan ish rejimi. Bunday rejimda ishlash uchun qurilma shina arbitriga shinani boshqarishni olish haqidagi talabini ifodalovchi buyruq beradi. Arbitr, ushbu shinada arbitrajning ustuvorligi va/yoki ketma-ketligiga muvofiq, hujjalarda buyruqdan keyin o'tishi lozim bo'lgan belgilangan vaqtidan keyin so'rayotgan qurilmaga shina boshqarishni uzatadi. Barcha kerakli amallarni bajarib bo'lgandan keyin qurilma arbitrga shina bo'shatilishi haqida xabar beradi.

butunlik*ingl.: integrity**rus.: целостность*

Obyektning (axborotni, apparat yoki dasturiy ta'minotni) buzilmagan shaklda (uning qaydlangan biror bir holatiga nisbatan) mavjud bo'lish xossasi.

buyruq*ingl.: instruction**rus.: команда*

Bajarilishi zarur bo'lgan amalning ta'rifi. Topshiriqlarni boshqarish tilini ko'rsatish, dastur operatori, boshqaruvchi signal va foydalanuvchi talablari buyruq (ko'rsatma) hisoblanadi. Barcha hollarda, buyruqlar yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash tizimida ma'lumotlar jo'natish yoki tizimlar orasida ma'lumotlar uzatish jarayonlarini boshqarish amalga oshiriladi. Har bir buyruq amal kodidan tashkil topib, qaysi obyektga va nima qilish kerakligini, olingan natijani qayerga yuborish kerakligini xabar qiladi. Amallarni bajarishda ishlatalidigan buyruqlar yig'masi buyruq tili bilan aniqlanadi. Buyruqlar arifmetik, mantiqiy, kiritish-chiqazish, ma'lumotlarni uzatish turlariga bo'linadi. O'zaro bog'langan buyruqlar ketma-ketligi makrobuyruq deb ataladi. Makrobuyruqlardan foydalanish dasturlashni soddalashtiradi va dasturlarning turli yerlariga qo'shimchalarni kiritish

mexanizmini ta'minlaydi. Buyruqlar tizimga klaviatura, sichqoncha, sensor qurilmalari va boshqa qurilmalar yordamida uzatiladi.

buyruq satri

ingl.: command line

rus.: команда строка

DOS yoki Unix dagi o'rinni Unda foydalanuvchi mashinadan nima hohlayotganini xabar qilish uchun buyruqlarni kiritadi. Operatsion tizim oilasining maxsus oynasida shunga o'xshash o'rinni bor.

B

buyruq turlanishi

ingl.: instruction modification

rus.: модификация команды

Tizim va tarmoqlarda manzillar, buyruqlar tuzilishining o'zgartirilishi. Bu turli buyruqlar to'plamlariga ega tizimlarning o'zaro ishlashi yoki buyruqlarni tizimda qabul qilingan standart shaklga keltirish lozim bo'lgan paytda ro'y beradi.

buzib erkin foydalanish

ingl.: hacking

rus.: взлом

Kompyuter muhofazasidagi ma'lum elementni chetlab o'tish yoki ishdan chiqarish. Bu ma'lumotlarni qayta ishlash tizimidan erkin foydalanishga olib kelishi mumkin. Aniqlanadigan yoki aniqlanmaydigan bo'lishi mumkin.

buzib ochish

ingl.: disclosure

rus.: раскрытие

Kompyuter muhofazasi buzilishi. Buning oqibatida, ma'lumotlardan mualliflashmagan obyektlar erkin foydalanishi mumkin.

bo'lingan vaqt rejimi

ingl.: time sharing mode

rus.: режим разделенного времени

Kompyuterdan foydalanish maromi. Bunda mashinaga joylashtirilgan maxsus dastur, turli vazifalarni alohida qismlarini, bir biriga «aralashtirmagan» holda, ketma-ket yechishi ta'minlanadi.

Dd

D3D

qisq.: Direct 3D

D3D spetsifikatsiyasi. Windows maslagi uchun Microsoft tomonidan ishlab chiqarilgan API ko'ptashuvchi spetsifikatsiyasi.

DAC

qisq.: Digit-to-Analog Conversion

qarang: raqam-analog o'zgartirishi

DAMA

qisq.: Demand Assignment Multiple Access

[Kanallarni] Talab bo'yicha ajratish bilan ko'p tomonlama erkin foydalanish. Ushbu usul yo'l dosh radio aloqasida ishlatalidi.

DAMPS

qisq.: Digital AMPS

Raqamli AMPS (Advanced Mobile Phone Service). AMPS standartining rivojlangan shakli.

DAO

qisq.: Data Access Objects

Ma'lumotlardan erkin foydalanish obyektlari. Ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish uchun Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan COM-sinflar kutubxonasi.

DAP

qisq.: Directory Access Protocol

Katalogdan erkin foydalanish bayonnomasi, DAP bayonnomasi. X.500 standartidagi katalogdan erkin foydalanish uchun foydalilaniladigan bayonnomasi.

DARPA

qisq.: Defense Advanced Research Projects Agency

qarang: ARPA.

darvoza

ingl.: gateway page

rus.: гейтвей

qarang: geytvey

dastlabki matnga o'girish

ingl.: deciphering

rus.: расшифрование

Shifrlangan matnga o'girish jarayoniga teskari jarayon. U ma'lum kalitdan foydalanib, shifrlangan matndan dastlabki matnni tiklashdan iborat bo'lgan jarayon.

dastur

ingl.: software

rus.: программа

1. Hisoblash mashinasiga algoritmi beruvchi ko'rsatmalar (buyruq yoki tasnif va operatorlar)ning ketma-ketligi. Dastur kompyuter tomonidan qaysi tartibda, qaysi ma'lumotlar ustidan va qaysi amallar bajarilishi va natija qaysi shaklda taqdim etilishini ko'rsatadi. Kompyuterning boshqarish qurilmasi mashina buyruqlari ketma-ketligi shaklida berilgan dasturni qabul qiladi. Dasturni mashina tilida yaratish – noqulay va katta mehnat talab qiluvchi jarayon. Shuning uchun kompyuter uchun dastur inson tomonidan dasturlash tillaridan birida yaratilib, keyin esa kompyuterning o'zi ushbu dasturni mashina tiliga o'giradi.

2. Ma'lum natijani olish uchun kompyuter va boshqa kompyuter qurilmalari faoliyati uchun mo'ljallangan jami ma'lumot va buyruqlarni taqdim etishning obyektiv shakli.

dasturiy mahsulot

ingl.: software product

rus.: программный продукт

Boshqa shaxslarga sotish yoki ishslash uchun berishga mo'ljallangan va qator talablarga javob beruvchi dastur (dasturlar paketi). Ushbu talablarning eng muhimlari quyida keltirilgan:

- dasturning o'zi va unga tegishli ko'rsatma o'zining to'laqonli foydalanilishi uchun yetarli ma'lumotlar miqdoriga ega bo'lishi lozim;
- dastur ishlab chiqaruvchi tomon kuzatuvida bo'lishi lozim, ya'ni topilgan xatolar sotib oluvchilar uchun bepul tuzatilishi lozim;
- dastur o'rnatish va foydalanish uchun qulay shaklda, odatda epchil yoki lazer disklarda ko'rsatma va muhofaza tahlami bilan yetkazilishi lozim;
- dastur qonuniy ravishda sotib olingan dasturiy vositalar yordamida yaratilgan va patentlangan bo'lishi lozim.

dasturiy qaroqchilik

ingl.: software piracy

rus.: программное пиратство

1. Dasturiy vositalardan ruxsatsiz foydalanish, ulardan nusxa ko'chirish va ularni tarqatish.
2. Dasturiy mahsulotlardan noqonuniy ravishda foydalanish yoki ulardan nusxa ko'chirish.

dasturiy ta'minot

ingl.: *software*

rus.: *программное обеспечение*

Axborotga ishlov berish tizimining barcha yoki ba'zi dasturlari, tartiblari, qoidalari va ularga tegishli hujjatlar. Dasturiy vositalar ular yozilgan tashuvchidan qat'iy nazar intellektual mahsulot hisoblanadi.

dasturiy ta'minot replikatsiyasi

ingl.: *software replication*

rus.: *репликация программного обеспечения*

Namunaviy axborot majmuasining dasturiy ta'minotini, uni keyinchalik, yangi soha portali yoki majmuasi asosida klonlash maqsadida takror ishlab chiqarish.

dasturiy ta'minot sifati

ingl.: *quality of software*

rus.: *качество программного обеспечения*

Dasturiy ta'minotning afzallikkari va kamchiliklarini belgilaydigan alomatlar, xossalari, fazilatlar majmui. Yaratilayotgan dasturiy ta'minot sifatini baholash miqdoriy usullarni ishlatib amalga oshiriladi. Bu tadbir dasturlash jarayonida amalga oshadi. Bu masalaning dolzarbligini oshishiga munosib ravishda, bozorda yaratilayotgan dasturlarning sifatini aniqlashni ta'minlaydigan dasturlar paydo bo'ldi. Ammo, bu sifatni aniqlashga doir xalqaro standartlar hozircha yo'q.

dasturiy ta'minot umri

ingl.: *software life cycle*

rus.: *жизненный цикл программного обеспечения*

Kompyuter dasturiy ta'minotini loyihalashtirish boshlangan daqiqadan to uning ishlatilishi to'xtashigacha o'tgan vaqt.

dasturiy ta'minotni elektron tarqatish

ingl.: *Electronic Software Distribution (ESD)*

rus.: *электронное распространение программного обеспечения*

Kommunikatsiya tarmoqlari orqali dasturiy ta'minot tarqatish texnologiyasi. Bu maqsadlarda ESD maxsus tizimlari yaratiladi, ular foydalanuvchilarga dasturlarni ochib-ko'chirib olish va ularning haqini to'lash

imkonini beradi. Bunday tizimlar Internet tarmog'i xamda modemli ulanish orqali faoliyat ko'ssatadilar. ESD tizimlari, foydalanuvchilarga dasturiy ta'minotdan ma'lum vaqt davriga sinab foydalanish uchun yozib olish imkonini ham beradi.

D

dasturiy ta'minotni muhofazalash vositalari

ingl.: *software protection tools*

rus.: *средства защиты программного обеспечения*

Dasturiy vositalarini beruxsat foydalanishdan muhofaza qiluvchi vositalar.

dasturiy uyg'unlik

ingl.: *software compatibility*

rus.: *программная совместимость*

Turli kompyuterlarda bir xil dasturlarni bajarib bir xil natijalarga erishish mumkinligi.

dasturiy vositalar

ingl.: *software tools*

rus.: *программные средства*

qarang: dasturiy ta'minot

dasturiy xatcho'p

ingl.: *software bookmark*

rus.: *программная закладка*

Axborotga tahdid tug'diruvchi, ruxsatsiz o'rnatilgan dastur.

dasturiy-apparat vositasи

ingl.: *software-hardware tool*

rus.: *программно-аппаратное средство*

Asosiy xotiradan alohida faoliyat ko'ssatish mumkin bo'lgan holda (odatda doimiy xotira qurilmasida) saqlanuvchi jami tartibga solingan buyruqlar va ular bilan bog'liq ma'lumotlar.

dasturlarni tez ishlash

ingl.: *Rapid Application Development (RAD)*

rus.: *быстрая разработка программы*

Dasturlarni sodda va tushunarli qadamlar yordamida ishlab chiqish texnologiyasi. Bu texnologiya, instrumental dasturiy ta'minot bo'lib, u dasturchilarga zarur amaliy jarayonni tez ishlab chiqish, tayyor dasturiy ta'minotni mukammallashtirishda ish hajmini qisqartirish, unga zarur bo'lgan qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Dasturlar ularning mualliflari tasavvurida hosil bo'lgan ko'rinishda yaratiladi va bo'laklab sintez qilinadi. Maksimal soddalashtirish

maqsadida matnli uskunaviy vositalar o'rniga grafik vositalar ishlatalidi

dasturlash

ingl.: programming

rus.: программирование

1. Dasturni yaratish jarayoni. Dasturlash o'z ichiga dasturga bo'lgan talablar tahlili va uni ishlab chiqish va yaratishning barcha bosqichlarini oladi:

- algoritm, ma'lumotlar tuzilmasi va dasturlash tizimini tanlash;

- dasturni yozish (kodlash) va ma'lumotlarni tayyorlash;

- dasturni sozlash va sinovdan o'tkazish;

- dastur uchun qo'shimcha hujjatlarni yaratish.

2. Hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish va amalga oshirish uslublari va vositalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi fan.

dasturlash tili

ingl.: programming language

rus.: язык программирования

Kompyuterlar uchun dasturlar (ko'rsatmalar yig'masi) yoziladigan, uni u yoki bu harakatlarni bajarishiga majbur qiladigan rasmiy til. Dasturlash tilida yozilgan ko'rsatmalar dastlabki kod deb ataladi. Dastlabki kod kompyuterda amalda bajarilishidan avval, uni mashina kodiga yo bo'laklab talqin qilish, yo batamom talqin qilish zarur. Dasturlash tilining ta'rifi quydagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mumkin bo'lgan belgilari ro'yxatini.
2. Zahiralangan so'zlar ro'yxatini.
3. Sintaksisni (belgilarni va zahiralangan so'zlarni birikmalash usullarini).
4. Semantikani (dasturlash tilining birikmalar ma'nosi).

Dasturlash tillari quyi pog'ona tillariga (Assembler tili va mashina tili) va yuqori pog'onadagi tillariga (BASIC, C, C++, COBOL, FORTRAN, Ada, Pascal va b.) bo'linadi. Yana, to'rtinchli avlod tillarini (4GL) ham ajratiladi.

dasturlashtirish tizimi

ingl.: programming system

rus.: система программирования

Jami dasturlashtirish tili va dasturlarni yaratish tizimi. U berilgan tilda dasturlarni avtomatlashirilgan tarzda yaratish va bajarish hamda tegishli hujjatlar tayyorlashni

ta'minlaydi. Odadta dasturlashtirish tizimi tilning etalon xilini emas, balki uning dialektik – ma'lum osonlashtirish yoki kengaytirishlarga ega rusumini o'z ichiga oladi. Ba'zi dasturlashtirish tizimlari dasturlarni bir necha tilda yaratishni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shaxsiy kompyuterlar uchun eng mashhur dasturlashtirish tizimlari: Microsoft kompaniyasining Basic, Java, C++ tillarini qo'llab-quvvatlovchi Visual Studiosi; Inprise (Borland International) kompaniyasining Delphi tili va boshqalar.

dasturni sozlash

ingl.: program debugging

rus.: отладка программы

Dasturda xatolarni topish va tuzatish jarayoni. Bu jarayonni bajarish uchun maxsus sozlovchi deb atalmish dasturlar yaratiladi. Ular, dasturlashda yo'l qo'yilgan xatolarni qidirib topishga mo'ljallangan. Sozlashda dastur qadamma-qadam bajariladi. Har bir qadamda ma'lumotlarda yuz berayotgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Bu jarayon o'zgartirilishi zarur bo'lgan elementlarni topish imkonini beradi.

DAT

qisq.: Digital Audio Tape

1. Raqamlı audio kasseta, DAT kassetasi. Axborot yozish uchun mo'ljallangan magnit tasmali ixcham-kasseta standarti. Boshida audio axborotni raqamlı shaklda saqlash uchun mo'ljallangan; DAT kassetalarini ma'lumotlarning zahiraviy nus'halarini saqlash uchun qo'llaniladi.

2. DAT kassetasiga yozish formati.

Data General korporatsiyasi

ingl.: Data General corporation

rus.: корпорация Data General

Keng foydalanish, jumladan ishlab chiqarish texnologiyalarida foydalanish uchun kompyuterlar va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi kompaniya. Data General kompaniyasi AQSHda DEC kompaniyasining sobiq xodimlari tomonidan yaratilgan. Kompaniya kompyuterlarning bir necha oilasini ishlab chiqaradi. Data Generalning muhim ishlanmasi serverlarni yaratishdir.

davlat axborot resurslari

ingl.: state information resources

rus.: государственные информационные ресурсы

Davlat axborot resurslari quyidagilardan shakllantiriladi:
davlat organlarining axborot resuslaridan;
yuridik va jismoniy shaxslarning davlat budgeti mablag'ları hisobidan yaratilgan axborot resurslaridan;
yuridik va jismoniy shaxslarning davlat sirlari hamda mahfiy axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslaridan.

davlat sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlarni olish

ingl.: *access to state secrets*

rus.: *доступ к сведениям, составляющим государственную тайну*

Ma'lum shaxsning vakolatli mansabdor shaxs ruxsati asosida davlat sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlar bilan tanishib chiqishi.

davlatning axborot sohasidagi manfaatlari

ingl.: *state interests in information sphere*

rus.: *интересы государства в информационной сфере*

Axborot infratuzilmasining uyg'un rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish. Bunda inson va fuqaroning axborot olish va undan mamlakatning konstitutsiyaviy tizimining mustahkamligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligi maqsadida foydalanish sohasidagi konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirish, qonuniylik va huquqiy tartibini ta'minlash, teng huquqli va o'zaro manfaatlari xalqaro hamkorlikni rivojlantirish nazarda tutiladi.

davriy halqa

ingl.: *cyclic ring*

rus.: *девирическое кольцо*

Axborot tizimlari guruhiga signallarni ketma-ket uzatilishini ta'minlaydigan halqasimon jismoniy kanal. Bu mahalliy tarmoq umumiyligi bo'g'indan, kirish bloklari va abonent bo'g'inlaridan tashkil topadi. Umumiy bo'g'in kirish bloklari bilan o'rama juft, yassi koaksal kabel yoki optik kanal asosida yaratilayotgan sohalarga bo'linadi. Kirish bloklari abonent bo'g'indan yordamida abonent tizimlari bilan ulanadi. OSI ning asosiy etalon modelida halqa kanali ulanishning jismoniy vositali sifatida taqdim qilinadi. Halqada signallar uzatish bir

yo'nalishda, ya'ni, bir kirish blokidan boshqasiga qarab amalga oshiriladi. Shu bilan birga, kadrni uzatgan blok kadr halqani butunlay o'tib bo'lganidan so'ng, bu kadrni yo'q qilishi shart. Qolgan kirish bloklari uzatilayotgan kadrni uzatishda davom etadi.

D

DB

qisq.: *DataBase*

qarang: ma'lumotlar bazasi (MB)

DB2

IBM tomonidan ishlab chiqilgan relyatsion MBBT.

DBA

qisq.: *DataBase Administrator*

Ma'lumotlar bazasining ma'muri.

DBCC

qisq.: *DataBase Consistency Check*

Ma'lumotlar bazalarining butunligini tekshirish. MBBT tomonidan bajariladigan ma'lumotlar butunligi shartlarini tekshirish tartiboti.

DBCS

qisq.: *Double-Byte Character Set*

Ikki baytli belgilari to'plami. Matn axborotni kodlashning shunday usuliki, unda har bir belgi ikki baytdan iborat bo'lgan kod shaklida taqdim etilgan.

DBMS

qisq.: *DataBase Management System*

Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi, MBBT.

DC

qisq.:

1. Direct Current – Doimiy tok.
2. Device Context – Qurilma nimmatni. Tizimga ulangan qurilma haqidagi axborotga ega OT ma'lumotlari tuzilmasi.

DCE

qisq.: *Distributed Computing Environment*

qarang: ma'lumotlarga taqsimlangan ishlov berish muhitni

DCOM

qisq.: *Distributed Component Object Model*

(shuningdek COM+) Taqsimlangan tarkibiy qismli obyektlı model. Tarkibiy qismlarning

tarmoqda o'zaro ishlashini qo'llab-quvvatlash uchun COM kengaytmasi.

DCR

qisq.: Dynamic Color Rendition

Rangni dinamik andozalash.

DCT

qisq.: Discrete Cosine Transform

Diskret kosinusli o'zgartirish. Tasvirlarni sifatni yo'qotishga olib keluvchi zichlash algoritmlarida ishlataladi.

DD

qisq.:

1. Double Density – Zichligi ikki kara oshgan (axborot yozish).

2. Digital Display – Raqamli ko'rsatkich.

DDB

qisq.: Distributed Database

qarang: taqsimlangan ma'lumotlar bazasi

DDC

qisq.: Display Data Channel

Kompyuter va monitor orasida ma'lumotlar almashish interfeysi. Ushbu interfeysning ikkita turi bor:

1) DDC 1 – monitor modeli va qo'llab-quvvatlanadigan video rejimlar parametrleri to'g'risidagi ma'lumotlarning bir tomoniga, monitordan kompyuterga uzatilishi; 2) DDC 2 – ma'lumotlarni ikki tomonlama almashinuv.

DDE

qisq.: Dynamic Data Exchange

Ma'lumotlarning dinamik almashinushi. Windows muhitida dasturlararo o'zaro ishlash bayonnomasi. Asta-sekin OLE (COM) mexanizmi tomonidan siqib chiqarilmoqda.

DDK

qisq.: Device Driver Kit

Qurimalar drayverlarini ishlab chiqish uchun asbobiy vositalar to'plami (Windows muhitida).

DDL

qisq.: Data Definition Language

qarang: ma'lumotlarni tavsiflash tili

DDN

qisq.: Defense Data Network

Mudofaa ma'lumotlar uzatish tarmog'i.

DDP

qisq.: Distributed Data Processing

qarang: ma'lumotlarga taqsimlangan ishlov berish

DDR SDRAM

qisq.: Double Data Rate SDRAM

Tezligi ikki marta oshgan SDRAM. Ma'lumotlar almashinuvining tezligi ikki marta oshgan SDRAM tezkor xotira mikrosxemalarining turi.

DEC

qisq.: Digital Equipment Corporation

DEC korporatsiyasi. EHM, jihoz va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi (AQSH). Compaq Computer korporatsiyasi tomonidan 1998 yilda sotib olingan.

DEC korporatsiyasi

ingl.: DEC corporation

rus.: корпорация DEC

Ish stansiyalari, serverlar va shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqaruvchilar orasida yetakchilardan biri. Nomi Digital Equipment Corporation (Raqamli jihozlar korporatsiyasi) qisqartmasidan kelib chiqqan. DEC 1957 yilda AQSHda yaratilgan. Kompaniya Alta Vista – Internetdagi yetakchi izlash tizimlaridan birini yaratgan.

1998 yilning yanvar oyida DEC Compaq kompaniyasi tomonidan sotib olingan, keyin esa Compaq Hewlett-Packard kompaniyasi bilan birlashgan.

DECT

qisq.: Digital European Cordless Telecommunications

qarang: raqamli Yevropa simsiz aloqasi

Dell Computer korporatsiyasi

ingl.: Dell Computer corporation

rus.: корпорация Dell Computer

Keng ko'lAMDagi axborot tizimlari va kompyuterlarni ishlab chiqaruvchi kompaniya. Kompaniya Michael Dell tomonidan 1984 yilda yaratilgan. Dell Computer turli xil shaxsiy kompyuter, server va superserverlarni ishlab chiqaradi. Simmetrik ko'pprotessorli ishlov berishni ta'minovchi ko'pprotessorli serverlar keng mashhur bo'lgan. Kompaniya pochta orqali uy foydalanuvchilariga yetkaziluvchi shaxsiy kompyuterlar miqdori bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

Delphi tili*ingl.: Delphi language**rus.: язык Delphi*

Borland International, Inc kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalarni tezkor ishlab chiqish tizimi. Delphi tili Microsoft kompaniyasining Visual Basic tiliga o'xshash, lekin, Visual Basic tili BASICga asoslangan bo'lsa, Delphi tili esa Pascal ga asoslanganligi bilan farqlanadi.

demon*ingl.: demon**rus.: демон*

Unix tizimining har doim faol va interfeysga ega bo'lмаган xizmat dasturi. Ushbu dastur foydalanuvchisi odatda uni ko'rmaydi va faqat uni ish natijalarini ko'radi.

DEN*qisq.: Directory Enabled Network*

Katalog xizmatini qullab-quvvatlovchi tarmoq.

DES*qisq.: Data Encryption Standard*

Ma'lumotlarni shifrlash standarti, DES shifrlash standarti. AQSH hukumatining davlat siri hamda tijoriy bo'lмаган axborot uchun shifrlash standarti. Kalit uzunligi 56 bit bo'lgan blokli shifr. Kuchaytirilgan hili mavjud bo'lib, u «uchlangan DES» (triple-DES, 3DES) deb ataladi, unda uchta turli kalit bilan DES standarti qo'llaniladi.

dezinformatsiya*ingl.: misinformation**rus.: дезинформация*

Ma'lumotlarni bitta obyektdan boshqa obyektga biror maqsad bilan uzatishning shunday holatini yuzaga keltiradiki, unda ma'lumot uzatishning amalga oshirilishi bitta obyekt uchun ma'qul bo'lib, boshqa obyekt uchun ma'qul bo'lmaydi.

DFA*qisq.: Deterministic Finite Automaton*

Aniq chekli avtomat.

DFD*qisq.: Data Flow Diagram*

Ma'lumotlar oqimi chizmasi. Tizimni chizma shaklida tahlillash uchun «ma'lumotlar oqimi» va «ma'lumotlar ombori» tushunchalaridan foydalanadigan tuzilma tahlilining uslubiyati.

DGPS*qisq.: Differential Global Positioning System, Differential GPS*

Diferensial GPS. GPS qabul qiluvchisinining shunaqa ishslash rejimi-ki, unda u yo'l dosh signallaridan tashqari tayanch stansiyasining signallari ham hisobga olinadi (diferensial to'g'rilash).

DHCP*qisq.: Dynamic Host Configuration Protocol*

Tarmoq bog'lamasining dinamik tarkibiy tuzilmasi bayonnomasi, DHCP bayonnomasi. Maxsus tarmoq xizmati – DHCP serveri yordamida mijoz kompyuterining dinamik tarkibiy tuzilmasi tartibotini tavsiflovchi bayonnomasi. Tarmoqda DHCP serverlarni izlash kenguzatuv so'rovi yordamida amalga oshiriladi. DHCP yordamida mijoz kompyuteri DHCP egalik qilayotgan manzillar to'plamidan IP manzilini hamda boshqa tarkibiy tuzilma axboroti- shluz manzili, DNS serverlari manzili va h.k.ni ijaraga oladi. DHCP bayonnomasi BOOTP bayonnomasi bilan uyg'un va aslida uning kengaytmasisidir. DHCP spetsifikatsiyasi RFC 2131da tavsiflangan.

DHTML*qisq.: Dynamic HyperText Markup Language*

Dinamik HTML, DHTML tili. Aks etirilayotgan sahifalarga o'zaro faollik baxsh etishuchun mo'ljallangan HTML tilining kengaytmasi. O'z ichiga rang, shakl, belgililar shakli, ayrim sahifa elementlarining aniq joylashishi va harakatlanishini dinamik ravishda o'zgartirish vositalarini oladi.

Dinamik HTMLning asosiy g'oyasi shunda-ki, ssenariy tilida hujatning istisnosiz barcha elementlari, ularni bezash va joylashish parametrлari (HTMLda belgilanganlar ham, CSS yordamida belgilanadiganlar ham) va hatto sahifa matni ustidan ham to'la nazorat qilinadi. Shu tufayli HTML hujjatining xohlagan elementi istalgan yo'nalishda harakatlanishi, o'z formatlanganligini istalganicha o'zgartirishi va qayta yozilishi mumkin. Bu foydalanuvchi harakatlariga javoban ham, o'z tashabbusi bilan ham sodir bo'lishi mumkin.

dialog*ingl.: dialog*

rus.: диалог

Foydalanuvchilarning fikrash jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan tezlikda amaliy jarayonlar va foydalanuvchilarning o'zaro ishslash uslubi.

DIB

qisq.: Device-Independent Bitmap

Apparatdan mustaqil bit kartasi. Rangi to'rtburchak tasvirni aks ettirish formati.

DII

qisq.: Dynamic Invocation Interface

Dinamik chaqiruv interfeysi. Obyekt usullarini dinamik chaqirish uchun interfeysi (CORBA).

DIMM

qisq.: Dual In-line Memory Module

Chiqish tutashmalari ikki qatorda joylashishgan xotira moduli. Standart xotira moduli. U 168ta, ya'ni plataning har tomonida 84tadan tutashmaga ega.

dinamik HTML

ingl.: dynamic HTML

rus.: динамический html

garang: DHTML.

dinamik veb qolipi

ingl.: dynamic web template

rus.: динамический веб-шаблон

Umumiy maketga ega bo'lgan boshqa HTML fayllarini bog'lash mumkin bo'lgan HTML fayli. Dinamik veb qolipini yangilaganda ushbu qolip asosida yaratilgan barcha sahifalar yangilanadi. Dinamik veb qoliplar fayllari, masalan, Macromedia DreamWeaver tizimida .dwt nom kengaytmasiga ega.

DIP

qisq.: Dual-In-line Package

Chiqish tutashmalari ikki qatorda joylashishgan (mikrosxema) tanasi.

Direct3D

3D texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli DirectXning eng mashhur qismiga aylanib qolgan. Direct3D ikki xil vazifani bajaradi:

- 1) 3D tezlashtiruvchilarisiz tizimlar uchun butun 3D konveyerini qo'llab-quvvatlash bilan 3D tasvirga dasturiy ishlov berish;
- 2) amaliy dasturlarning 3D tezlashtiruvchilarining barcha apparatlari

resurslari ulash shaffof tarzda erkin foydalanishni ta'minlash.

OpenGLdan farqli o'laroq Microsoft firmasi tomonidan qat'iy belgilanadigan vazifalar to'plamidan iborat. Ushbu APIning boshqa firmalar tomonidan kentgaytirilishiga ruxsat berilmaydi.

DirectDraw

Videokarta ishini bevosita qo'llab-quvvatlovchi va, masalan, to'g'ridan-to'g'ri video xotiraga yozish imkonini beruvchi DirectX drayverlar to'plamining qismi. Aslida DirectDraw – bu video xotira menejeri. DirectDrawdan foydalangan holda xohlagan dastur video xotirani, ushbu harakatlarni aniq videokarta modeliga bog'lamagan holda joyini o'zgartirishi mumkin.

DirectInput

Analog va raqamli richag bilan bevosita ishni qo'llab-quvvatlovchi DirectX drayverlar to'plamining qismi. DirectInput drayverlari richagli mexanizm parametrлari va uming kalibrovkasi natijalarini saqlash uchun Windows reyestridan foydalanadi.

DirectPlay

Ma'lum o'yining tarmoq bayonnomasi va transportga qaramlikdan ozod qiluvchi, uyin dasturlari Windows kommunikatsiya vositalaridan foydalanishini ta'minlovchi dasturiy interfeysi.

DirectSound

Voqeiy vaqtida aralashtirish va tovush kartasidan to'g'ri erkin foydalanish imkonini beruvchi DirectX to'plamining audio tarkibiy qismi.

DirectX

Microsoft kompaniyasining Windows operatsion tizimida ko'ptashuvchi kompyuter dasturlari va qurilmalardan foydalanish uchun ishlab chiqilgan texnologiyasi. DirectX to'plamiga ko'ptashuvchi dasturlarni yaratish imkonini beruvchi qurilma drayverlari va dasturiy vositalar kiradi. Ushbu texnologiya to'xtovsiz rivojlanishda davom etib, hozirgi kunga kelib uning quyidagi rusumlari chiqqan (har bir keyingi rusum o'z ichiga avvalgi imkoniyatlarini ham oladi):

- DirectX 1.0 DirectDraw, DirectInput, DirectPlay va DirectSoundlardan iborat bo'lgan;
- DirectX 2.0ga qo'shilib Direct3D hosil bo'lgan;
- DirectX 3.0 DirectInputda MMX texnologiyasini qo'llab-quvvatlash uchun richagli mexanizmni va virtual hamprotessor drayverini maxsus boshqarish dasturining paydo bo'lishi bilan farq qilgan. DirectSound uchun o'ziga tegishli API paydo bo'lgan;
- DirectX 5.0 qator yangiliklarni mujassamlantirgan, jumladan teskari aloqa bilan o'yin nazoratchilarini qo'llab-quvvatlash (masalan, otish qurolining teskarisini), o'yin nazoratchilarini boshqarish uchun yangi panel, ancha yaxshilangan MMX texnologiyasini qo'llab-quvvatlash interfeysi va foydalanuvchi uchun yaxshilangan boshqarish interfeysi;
- DirectX 6.0 bir necha yangi 3D vazifalarini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi, jumladan bir o'tishli ko'p teksturalash, teksturalarni siqish va h.k. Shuningdek, terish drayverlarining tezkorligi oshirilgan va AMD firmasining 3DNow texnologiyasini qo'llab-quvvatlash qo'shilgan;
- DirectX 6.1 DirectMusic deb nomlangan yangi API ni o'z ichiga olgan;
- DirectX 7.0, 8.0, 9.0 yangi yaxshilangan rusumlardir.

direktoriya

ingl.: directory

rus.: директория

Alovida ajratilgan fayllar ro'yxatini o'z ichiga olgan fayllar tizimining bo'limi. O'zi ham maxsus fayl shaklida bo'lishi mumkin.

disk

ingl.: disk

rus.: диск

Bitta yoki ikkita tomonida ma'lumotlarni o'qish yoki yozishni amalga oshirish uchun aylanuvchi yassi dumaloq plastinadan iborat ma'lumotlar tashuvchisi.

qarang: Qattiq disk, Lazer disk.

diskdagi katalog

ingl.: directory

rus.: каталог на диске

qarang: direktoriya

diskret

ingl.: discrete

rus.: дискретный

Ramzlar kabi alohida elementlardan iborat bo'lgan ma'lumotlar yoki aniq ko'rsatilgan qiymatlarning chekli soniga ega bo'lgan fizik miqdorlarga, shuningdek, jarayonlar va ushbu ma'lumotlardan foydalanuvchi funksional moslamalarga tegishli ta'rif.

distributiv

ingl.: distributive

rus.: дистрибутив

Ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilgan shakldagi dastur mahsuloti. Distributiv diskda, odatda, dasturning o'zi hamda dasturni qattiq diskka o'rnatish va uning parametrlarini moslashtirish uchun mo'ljallangan o'rnatuvchi bo'ladi.

dizassemblash

ingl.: disassembling

rus.: дисассемблевание

Protssessor uchun ko'rsatmalarni nisbatan oson o'qiladigan dastur matniga aylantirish. Dizassemblash maqsadi odatda boshqa dasturlarni o'zgartirishdir (odatda bu muhofazani buzish). Dizassemblash bajarilayotgan faylni Assembler tilidagi dastur matniga aylantiradi.

dizayn

ingl.: design

rus.: дизайн

qarang: veb-dizayn

DLC

qisq.: Data Link Control

Ma'lumotlarni uzatish kanalini boshqarish, DLC bayonnomasi.

DLL

qisq.: Dynamic Link Library

Dinamik ravishda ulanadigan kutubxona. Windowsning dinamik ravishda ulanadigan funksiyalari va resurslaridan iborat ktubxona fayli.

DLP

qisq.: Digital Light Processing

Yorug'likka raqamli ishlov berish. Millionlab mikroynalardan iborat yuzaga ega bo'lgan integral mikrosxemalardan foydalanishga asoslangan tasvirni aks ettirish texnologiyasi.

DLT

qisq.: Digital Linear Tape

Chiziqli yozuv raqamli tasmasi, DLT tasmasi.

DMA

qisq.: Direct Memory Access

Xotiradan to'gridan-to'g'ri erkin foydalanish. Maxsus qurilma otmonidan boshqarilayotgan (DMA nazoratchisi) va markaziy protsessor ishtirokisiz bajarilayotgan xotira va kiritish/chiqarish qurilmasi orasida ma'lumotlarni almashish rejimi. Ushbu rejimdan foydalanish ma'lumotlar jo'natilishini ancha tezlashtiradi, chunki bu ma'lumotlarni protsessorga va undan qayta jo'natishni inkor etadi.

DMI

qisq.: Desktop Management Interface

Stolusti kompyuterlarni boshqarish interfeysi. Boshqaruvchi qo'llanmalar agentlari kompyuter apparuterasi va dasturiy ta'minotini to'g'risida axborot to'plashi va uning tarkibiy tuzilmasini masofadan sozlashi mumkin bo'lgan API.

DML

qisq.: Data Manipulation Language

qarang: ma'lumotlarni boshqarish tili

DMTF

qisq.: Desktop Management Task Force

Stolusti kompyuterlarni boshqarish bo'yicha ish guruhi. Mahalliy tarmoqlarda shaxsiy kompyuterlarni boshqarish uchun standartlar ishlab chiqaruvchi tashkilot.

DMY

qisq.: Day-Month-Year

Kun-oy-yil.

DMZ

qisq.: DeMilitarized Zone

Harbiysizlashtirilgan zona. Korxonaning tarmoq infratuzilmasiga nisbatan ishlataliganda ommaviy va ichki tarmoqlardan tarmoq ekranlari bilan ajratilgan «betaraf» chegaradosh nimtarmoqni bildiradi.

DNS

qisq.: Domain Name System

1. Domain Name System – Domen nomlari xizmati. Kompyuter nomi bo'yicha uning IP manzilini aniqlashni amalga oshiruvchi Internet

xizmati. Taqsimlangan nomlar ma'lumotlar bazasi va manzillarni qo'llab-quvvatlovchi DNS serverlari tizimidan iborat. DNS asosidagi konsepsiylar tavsifi RFC 1034da, DNS spetsifikatsiyalari esa RFC 1035da keltirilgan.

2. Domain Name Server – Domen nomlari serveri, DNS serveri. Doimiy ravishda xizmat ko'sratilayotgan domenning nomlar ma'lumotlar bazasi va xostlar manzillarini o'zida saqlaydi. Internet tarmog'idagi har bir nomlangan server turli kompyuterlarda joylashgan 2ta DNS serveriga, ya'ni, birlamchi va ikkilamchi serverlarga (ishonchlilik uchun) ega bo'lishi shart.

DNS nomi

ingl.: DNS name

rus.: имя DNS

qarang: domen nomi

DNS serveri

ingl.: DNS server

rus.: сервер DNS

qarang: domen nomlari serveri

DOA

qisq.: Dead On Arrival

(shuningdek D.O.A.) Yo'lda vafot etdi. Ko'chma ma'noda (qurilma to'g'risida gap borsa) – “ishga noloyiq holatda yetkazib berilgan” degan gap.

DOM

qisq.: Document Object Model

Hujjatlarining obyektlari modeli. W3C konsorsiumi tomonidan obyektlar shajarasini shaklida ishlab chiqilgan va API tomonidan bunday model bilan ishslash uchun tavsija etilgan hujjat modeli.

domen

ingl.: domain

rus.: домен

1. Tarmoq ichida umumiy qoidalar va tartibotlar asosida yaxlit shaklda idora etiluvchi kompyuterlar va qurilmalar guruhi. Internet tarmog'ida domen IP manzil bilan belgilanadi.

2. Ikki nuqta orasidagi domen manzili qismi. Chekka o'ng tomondag'i domen yuqori pog'ona domeni bo'ladi. Masalan, www.mves.gov.uz - 3-pog'ona domeni; mves.gov.uz - 2- pog'ona domeni; gov.uz - 1- pog'ona domeni; uz - 0-pog'ona domeni. Shunday qilib, yuqori pog'ona

domenlari shajarasи tashkil bo‘ladi: yuqori pog‘ona uz (O‘zbekiston) domeni, o‘z ichiga olgan gov (hukumat) domeni, uni o‘z ichiga olgan mves (Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi) va uni o‘z ichiga olgan www (www serveri). Nolinchи pog‘ona domenlari har doim tarmoq nomlarini bildiradi. Nol pog‘ona domenlari – xalqaro shartnomalar predmeti. 1chi va undan yuqori pog‘ona domenlarini taqsimlash vakolatli tashkilotlar va provayderlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Ma’lumotlar bazalari texnologiyalarida domen atributning mumkin bo‘lgan qiymatlari tavsifidir.

domen manzili

ingl.: dome address

rus.: доменный адрес

qarang: domen nomi

domen nomi

ingl.: domain name

rus.: доменное имя

Domen nomlar tizimiga binoan kompyuter tarmog‘i bog‘lamasiga berilgan noyob belgili nom. Internet tarmog‘ida bu doimiy IP-manzilga ega bo‘lgan qurilma nomidir. Odatda u bog‘lamaning umumiyoj joylashishini belgilaydi. Har bir domen nomi tarmoqda ro‘yxatdan o‘tkazilib, alohida kompyuter yoki funksional guruh (domen)ga birlashtirilgan identifikator bo‘lib xizmat qiladi.

domen nomi ajrataolishi

ingl.: domain name resolution

rus.: разрешение доменных имен

Internet domen nomini mos ravishda IP-manzilga o‘girish jarayoni.

domen nomini ro‘yxatga kiritish

ingl.: domain name registration

rus.: регистрация доменного имени

Talabnoma asosida domen nomi va uning ma‘muri to‘g‘risida axborotni ro‘yxatga oluvchi tomonidan reyestrga kiritib qo‘yish. Reyestrga domen nomi to‘g‘risidagi axborot kiritilgan vaqtidan boshlab u ro‘yxatga olingan hisoblanadi. Masalan, .uz domenida ro‘yxatning kuchga ega bo‘lish muddati bir yil. Bu davrda reyestrda domen nomi to‘g‘risidagi axborot saqlanib turadi. Domenni ro‘yxatga olish navbatdagi bir yilga davom ettirilishi mumkin.

domen nomlari reyestri

ingl.: domain name registry

rus.: реестр доменных имен

Domenning markaziy ma’lumotlar bazasi. Unda, ro‘yxatdan o‘tgan domen nomlari, domenlarning ma’murlari haqidagi va domenlarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun zarur axborot saqlanadi.

domen nomlari ro‘yxatchisi

ingl.: domain name registrant

rus.: регистратор доменных имен

Domen nomlarini ro‘yxatga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan va tegishli axborotni Reyestrga uzatadigan yuridik shaxs.

domen nomlari serveri

ingl.: domain name server

rus.: сервер имен доменов

Domen nomlarini tarmoq manzillariga o‘giruvchi server. Ushbu serverlar o‘z ixtiyorida domen nomlari tizimining ma’lumotlar bazasining kompyuter nomlari va ularning raqamli manzillari o‘rtasida muvofiglikni aniqlovchi qismi bo‘ladi. Bundan tashqari, DNS serverlari nomni tarmoqda ishlatish uchun ruxsat so‘rovchi tarmoq mijozlariga nomlarni taqdim etadi.

domen nomlari xizmati

ingl.: Domain Name Service (DNS)

rus.: служба доменных имен

qarang: DNS

dorvey

ingl.: doorway

rus.: двереу

1-3 kalitli so‘z yoki iboralar uchun maqbullashtirilgan sahifalar. Ularni odatda kirish sahifalari, shluzlar (ingl. gateway) yoki reklama sahifalari (splash pages) deyiladi. Ko‘p hollarda dorveylar ma’lum izlash mashinasi uchun maxsus yaratiladi.

DoS

qisq.: Denial Of Service

Xizmat ko‘rsatishni rad etish. Bir payting o‘zida amalga oshirilayotgan ko‘p sonli so‘rovlardan iborat bo‘lgan Internet bog‘lamasiga hujum turi. Natijada hujum qilinayotgan bog‘lama resurslarining yuklanishi juda ortib, uning hatto to‘liq ishdan chiqishiga olib kelishi ham mumkin.

DOS

qisq.: Disk Operating System

Disk operatsion tizimi, DOT.

DOS operatsion tizimi

ingl.: DOS

rus.: операционная система DOS

DOS (disk operating system) atamasi ixtiyoriy operatsion tizimiga tegishli bo‘lishi mumkin, ammo u, ko‘pincha, Microsoft kompaniyasining MS-DOS (Microsoft disk operating system) operatsion tizimiga nisbatan ishlataladi.

Download

Yuklab olish. Ma’lumotlarning (odatda fayning) boshqa kompyuterdan (masalan, Internet serveridan) kompyuteringizga uzatish.

dpi

qisq.: dot per inch

Dyunga nuqtalar soni. Turli qurilmalarning (printerlar, skanerlar va h.k.) ajrataolish qobiliyatining o‘lchov birligi.

DPMS

qisq.: Display Power Management Signaling

Monitor energiya iste’molini boshqarish tizimi – VESA uyushmasi tomonidan monitor energiya iste’molini ko‘pbosqichli kamaytirish uchun yaratilgan standart. Standartni amalga oshirish uchun u monitor tomonidan qo’llab-quvvatlanishi lozim. Standartda to‘rtta bosqich belgilangan:

Bosqich 0 - DPMS Mode On- Monitor odaddagidek ishlataliyapti

Bosqich 1 - DPMS Mode Standby - Tasvir yo‘q, iste’mol kamaytirilgan

Bosqich 2 - DPMS Mode Suspend - Tasvir yo‘q, iste’mol yanada kamaytirilgan

Bosqich 3 - DPMS Mode Off - Tasvir yo‘q, iste’mol eng kam qiymatgacha kamaytirilgan

DQDB

qisq.: Distributed Queue Double Bus

garang: taqsimlangan ikki yoqlama navbatli shina

DRAM

qisq.: Dynamic Random Access Memory, Dynamic RAM

To‘g‘ri erkin foydalanishning dinamik xotirisasi – sxematehnika nuqtai nazaridan kondensatorlarning ikkio‘lchamli matritsasi

(qatorlar x ustunlar) shaklida yaratilgan xotira. Juda arzon, lekin kondensatorlardagi zarandlarning doimiy «yangilanib turishini» yoki qayta yaralishini (refresh) talab qiladi. Qayta yaralish xotirani «bo‘sht» o‘qish sifatida bajariladi. Ushbu jarayon ancha vaqt talab qiladi, chunki bu paytda regeneratsiya nazoratchisidan tashqari hech bir qurilma xotiradan erkin foydalana olmaydi.

drayver

ingl.: driver

rus.: драйвер

Boshqaruvchi dastur. Odatda, bu bajarilayotgan dasturning ma’lum moslama bilan o‘zaro ishlashini ta’minlovchi va undan qulay foydalanishga yordam beruvchi amallি tizimning dasturidir. Masalan, klaviatura, display, sichqoncha, printer va shular kabi drayverlar mavjud. Drayver dasturlarning moslamaga qaratilgan buyruqlarini qabul qilib, ularni moslamani boshqarish buyruqlariga aylantiradi, shuningdek u xizmat ko‘rsatilayotgan moslamadan uzilishlarni qayta ishlaydi. Bunda drayver moslamaning tuzilishidagi xususiyatlari va vaqtning voqeiy ko‘lamidagi ishlash xususiyatlari hisobga oladi. Moslama mumkin bo‘lgan moslamalar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa, bunday moslama drayveri odatda amaliy tizim tarkibiga kiradi. Moslamalar drayverlari kompyuter yoqilganda avtomatik tarzda yuklanib, undan keyin foydalanuvchi uchun ko‘rinmas tarzda bajariladi.

DRDA

qisq.: Distributed Relational Database Architecture

Taqsimlangan relyatsion ma’lumolar bazasi arxitekturasi, DRDA bayonnomasi. Ma’lumotlar bazalaridan erkin foydalanish uchun standart kommunikatsiya bayonnomasi.

DRI

qisq.: Declarative Referential Integrity

Deklarativ ishoratlari butunlik.

DSA

qisq.: Digital Signature Algorithm

Raqamlı imzo algoritmi. Ochiq kalitli raqamlı imzo algoritmi. NIST tomonidan 1991 yilda ishlab chiqilgan.

DSDM konsorsiumi

ingl.: DSDM consortium

rus.: консорциум DSDM

Amaliy dasturlar ishlab chiqish usullari va vositalari yaratish bilan shug‘ullanadigan tashkilot. Konsorsium 1994 yili Buyukbritaniyada 70 ga yaqin ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar ishtirokida tuzilgan. Dasturlarni tezkor ishlab chiqish usuli standarti, uning asosiy ishi bo‘lib qoldi.

DSL

qisq.: Digital Subscriber Line

qarang: raqamli abonent liniyasi

DSOM

qisq.: Distributed System Object Model, Distributed SOM

Tizim obyektlarini taqsimlash modeli. IBM firmasi texnologiyasi.

DSP

qisq.: Digital Signal Processor

Raqamli signal protsessori. Raqamli shaklga o‘girilgan analog signalarga ishlov berish uchun ixtisoslashtirilgan protsessor.

DSS

qisq.:

1. Decision Support System – Qarirlarni qabul qilishni qo‘llab-quvvatlar tizimi.
2. Digital Signature Standard – Raqamli imzo standarti, DSS standarti. AQSHda qabul qilingan, DSA algoritmiga asoslangan raqamli imzo standarti.

DSSS

qisq.: Direct-Sequencing Spread Spectrum

Spektr kengaytirish texnologiyasi, DSSS texnologiyasi. Ma’lumotlarni keng yo‘l-yo‘lli uzatish texnologiyasi.

DSSL

qisq.: Document Style Semantics and Specification Language

Hujjatlар uslubiyati semantikasi va spetsifikatsiyasini belgilovchi til. SGML hujjatlarining aks ettirilishini boshqarish tili. XML hujjatlari uchun ham qo‘llanilishi mumkin. «Dizel» deb talaffuz qilinadi.

DTC

qisq.: Data Transmission Channel

qarang: ma’lumotlar uzatish kanali

DTD

qisq.: Document Type Definition

Hujjat turini aniqlash. SGML va XML belgilash tillarida – hujjat qolipining rasmiy aniqlanishi.

DTP

qisq.: Distributed Transaction Processing

Taqsimlangan tranzaksiyalarga ishlov berish.

DTR

qisq.:

1. Data Transfer Rate – Ma’lumotlarni uzatish tezligi.
2. Data Terminal Ready – Ma’lumotlarni uzatishga tayyorlik signali.

DVD

qisq.:

qarang: raqamli videodisk

DVD-1

DVD disklar uchun birinchi avlod yuritmalarining shartli nomi. Oddiy CD-ROM disklarini o‘qish tezligi 8dan oshmaydi, bundan tashqari, CD-R va CD-RW disklarini o‘qiy olmaydi.

DVD-2

DVD disklar uchun ikkinchi avlod yuritmalarining shartli nomi. Oddiy CD-ROM disklarini o‘qish tezligi 24gacha yetadi, bundan tashqari, CD-R va CD-RW disklarini o‘qiy oladi.

DVI

qisq.: Digital Video Interactive

(shuningdek DV-I) O‘zaro faol raqamli video, DVI standarti. Videoqator va birga aks ettiriluvchi tovushni zichlash standarti.

DVI kirish

ingl.: DVI input

rus.: DVI exod

Monitorni kompyuterga ulash uchun xizmat qiluvchi va monitorni kompyuterdan boshqarish, jumladan uning ichki mo‘ljallarini kalibrovka qilish, tasvirning geometrik parametrlarini sozlash va h.k. imkonini beruvchi raqamli interfeys. Raqamli DVI-D kirishlar videokartalarni mustaqil tanlash va qulay ulanish imkonini beradi. SK monitorlar odatda videokartangiz qo‘llab-quvvatlovchi kirishga ko‘ra analog va DVI kirishlar orasidan tanlash imkonini beradi. DVI afzalligi signalni o‘girish

zarurati yo'qligidir, ya'ni monitorni yoqqandan keyin tasvir kalibrovkasini amalga oshirish lozim emas.

DVR

qisq.: Digital Video Recorder

Raqamli videomagnitonfon.

DWDM

qisq.: Dense Wavelength Division Multiplexing

Spektral zichlashtirish. Optik tola aloqa liniyalarining o'tkazish tezligini oshirish imkonini beradi.

Ee

e'lonlar taxtasi

ingl.: www-board

rus.: доска объявлений

O'z e'loningizni joylashtirish mumkin bo'lgan sayt – oddiy hayotda e'lonlar taxtasi yoki bepul e'lonlar gazetasiga o'xshash. Odatda bunday taxtalar bepul, mavzu bo'yicha tashkillashtirilgan va nazorat qilinadigan bo'ladi. Bunday taxtada o'z e'loningizni osonlik bilan, uning mavzusini va saqlash muddatini belgilab, joylashtirish mumkin va u taxtada deyarli darrov paydo bo'ladi.

EAN

qisq.: European Article Numbering

Yevropa mahsulotlari kodi. Yevropada qo'llaniladigan uzluk-chiziqli kod.

EAPROM

qisq.: Electrically Alterable Programmable Read-Only Memory

Elektr yordamida qayta dasturlashtiriluvchi DXQ.

EARN

qisq.: European Academic Research Network

qarang: Yevropa akademik tadqiqot tarmog'i

EAROM

qisq.: Electrically Alterable Read-Only Memory

Elektr yordamida dasturlashtiriluvchi DXQ.

EBCDIC

qisq.: Extended Binary Coded Decimal Interchange Code

Axborot almashishning kengaytirilgan ikkilik-o'nlik kodi. IBM meynfreymlarida ishlataladigan belgilarning bir baytli kodirovkasi.

EBNF

qisq.: Extended Backus-Naur Form, Extended Backus Normal Form

Bekus-Naurning kengaytirilgan normal shakli, RBNF. Til sintaksisini rasman belgilash uchun kengaytirilgan matn notatsiyasi.

EBS

qisq.: Electronic Banking System

Elektron bank tizimi.

ECBS

qisq.: European Committee for Banking Standards

qarang: bank standartlari bo'yicha Yevropa qo'mitasi

ECC

qisq.: Error Correction Code, Error Checking and Correcting

Xatolarni tuzatish mumkin bo'lgan kod, xatolarni tekshirish va to'g'rilash. Serverlar va ish stansiyalari uchun mikrosxemalarda, shuningdek ma'lumotlarni uzatish va buferlash bosqichlarida ishlataladi. Odatda dastlabki ma'lumotlarning har 64 bitiga qo'shimcha 7 bitni saqlashga (uzatishga) asoslangan Rid-Solomon kodi qo'llaniladi. Bunday kod bir marta uchraydigan xatolarni to'g'rilash va ikki marta uchraydigan xatolarni aniqlash imkonini beradi.

E

ECMA

qisq.: European Computer Manufacturers Association

Yevropa kompyuterlar ishlab chiqarish uyushmasi. Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasida standartlashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi notijorat tashkilot.

ECP

qisq.: Extended Capabilities Port

Kengaytirilgan imkoniyatlarga ega bo'lgan port, ECP porti. SHK va chekka qurilma orasida parallel port orqali ikki tomonlama ma'lumotlar almashuvini ta'minlovchi spetsifikatsiya. EPP spetsifikatsiyasi bilan raqobatdosh. Zamonaviy ona platralari ikkala standartni ham qo'llab-quvvatlaydi.

EDF

qisq.: Electronic document flow

qarang: elektron hujjat aylanishi

EDGE

qisq.: Enhanced Data GSM Environment

Ma'lumotlarni uzatish uchun yaxshilangan GSM. Alovida modulyatsiya turi tufayli standart chastotalar oralig'i GSMDan foydalanganda ma'lumotlarning yuqori tezlikda (384 Kbit/s gacha) uzatilishiga erishish imkonini beradi.

EDI

qisq.: Electronic Data Interchange
qarang: ma'lumotlarni elektron almashuvi

EDIFACT

qisq.: Electronic Data Interchange for Administration, Commerce and Transportation

Boshqarish, savdo va qatnovlar uchun ma'lumotlarning elektron almashuvi.

efir

ingl.: ether
rus.: эфир

Radiotarmoq va infraqizil tarmoqlar kanallari yotqiziladigan va elektromagnit nurlanishlar tarqaladigan fazo. Shuni nazarda tutish kerakki, elektromagnit maydon maxsus tashuvchiga muhtoj emas.

EFT

qisq.: Electronic Funds Transfer
qarang: pul vositalarining elektron almashuvi

EGA

qisq.: Enhanced Graphics Adapter
Mukammallashtirilgan grafik moslagich. 1984 yilda qabul qilingan grafik moslagich standarti, VGA va SVGA tomonidan siqib chiqarilgan.

egiluvchan disk

ingl.: floppy disk
rus.: гибкий диск
qarang: epchil disk

EGP

qisq.: Exterior Gateway Protocol
Tashqi yo'naltirish bayonnomasi, EGP bayonnomasi. Tavsifi RFC 827 va 904da keltirilgan. EGP bayonnomasi AQSHdag'i cheklangan idoraviy tarmoqlarda ishlataladi.

EIDE

qisq.: Enhanced Integrated Drive Electronics
Qattiq disklarining birlashtirilgan elektronika bilan mukammallashtirilgan interfeysi, yaxshilangan IDE. IDE o'rniga kelgan qattiq disklar interfeysi. Boshqa nomi – Fast ATA-2.

EISA

qisq.: Enhanced Industry Standard Architecture
Sanoat standarti shinasining yaxshilangan arxitekturasi. 32-razradli mikroprotsessorlar uchun shina standarti, ISA arxitekturasining kengaytmasi.

EJB

qisq.: Enterprise Java Beans
Java server tarkibiy qismlari, EJB texnologiyasi. Sun kompaniyasining Java imkoniyatlari kengaytiruvchi texnologiyasi. J2EE maslagining tarkibiy qismi.

ekran

ingl.: screen
rus.: экран

Axborot aks ettirilayotgan yuza. Ekran display va monitoring asosiy qismidir. Oddiy ekranning kengligi bilan balandligiga nisbati 4:3 ga teng, kengyo'l-yo'lli ekran esa 16:9 nisbatga ega bo'ladi. Ish prinsipiغا ko'ra ekranlar faol va sust turga bo'linadi. Faol ekran unda yuz berayotgan fizik jarayonlar evaziga yoritiladi, masalan, lyuminessensiya evaziga. Sust ekran tashqi yorug'lik manbalarining nurlarini aks ettirish hisobiga ishlaydi (masalan, proyektion ekran, matodan yoki plastmassadan yasalgan oq tekis yuza). Foydalanuvchi yoki operator foydalanadigan axborot ekranga chiqariladi. Shu bilan birga, sezgir qurilmalar bilan uyg'unlashgan ekranlar yaratilgan bo'lib, ularda qo'l barmoqlarini tekkizish yo'li bilan kompyuterga axborot kiriladi.

ekran ajrata olishi

ingl.: display resolution
rus.: разрешение экрана

Ekranda aks ettirish mumkin bo'lgan eng ko'p piksellar soni. U gorizontal bo'yicha piksellar sonini vertikal bo'yicha piksellar soniga ko'paytmasiga teng, masalan, 1024x768. Gorizontal ajrata olishni vertikal ajrata olishga nisbati, odatda 4:3 ni tashkil qiladi, bu oddiy televizorning ekranidagi nisbatga mos keladi.

ekran dasturi

ingl.: screen program
rus.: экранная программа

Ekranda aks ettirilgan qurilma harakatlarini uning ishiga taqlid natijasi sifatida ko'ssatadigan amaliy dastur. Ekran dasturi qator vazifalar bajarilishini juda sodda va ko'rgazmali namoyish qiladi. Masalan, dastur kalkulatorning klaviaturasini kompyuter ekranida aks ettiradi. Bu kursorni tugmachaga keltirib sichqonchaning tugmasini «bosish», kompyuterning klaviaturasining o'sha tugmchasini barmoq bilan bosish o'rniga

o‘tadi. Shu usulda yaratilgan taqvim-xotira ekranda varaqlanayotgan sahifalarni vaqt va sana bilan birga aks ettiriladi. Dastur – soat ham juda ko‘rgazmali tarzda taqdirm qilingan.

ekranlangan o‘rama juft

ingl.: Shielded Twisted Pair (STP)

rus.: экранированнаявитая пара

Simni elektromagnit to‘siqlardan muhofazalash maqsadida, har bir kabeli yoki simi alohida ekranlangan «o‘rama juft» kabeli.

ekranlash

ingl.: screening

rus.: экранирование

Tarmoqlararo ekran vazifasi. U ruxsatsiz tashqi qismidan kelayotgan so‘rov larga e’tibor bermay, ichki qism obyektlarining xavfsizligini saqlab turish imkonimi beradi.

ekspert tizim

ingl.: expert system

rus.: экспертичная система

Boshqa holda ekspert-inson tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan vazifani bajaradigan kompyuter tizimi. Masalan, bemorlarni tashxislaydigan, moliyaviy bashoratlaydigan, tovari yetkazishning eng yaxshi yo‘llarini belgilaydigan ekspert tizimlar mavjud. Ayrim ekspert tizimlar ekspert – insonni almashtirish uchun yaratilgan bo‘lsa, boshqalari unga faqat ko‘mak berish uchun yaratilgan. Ekspert tizimlar bilimlarga asoslangan va inson tajribasi asosida yaratilgan bilimlar bazasidan xulosalardan foydalanim, maxsus yoki amaliy sohalarda masalar yechishni ta‘minlaydi. Ayrim ekspert tizimlar o‘zining bilimlar bazasini takomillashtirishi va xulosa chiqarish uchun, bundan avvalgi muammolar bilan bog‘liq tajribalarga asoslangan holda yangi qoidalarni rivojlantirishi mumkin. Ekspert tizimlar bundan ham umumiyoq kompyuter tizimlari, sun‘iy tafakkur deb ataluvchi, toifasining qismidir.

eksport

ingl.: export

rus.: экспорт

1. Tovarlar va xizmatlarni chet elga uzatish. Informatikaning rivojlanishi bilan tovarlarni mamlakat hududidan olib chiqmay eksport qilish imkon yaratildi. Masalan, pullarni o‘tkazish, videofilm, dastur va MB dagi

axborotlarni sotish, maslahatlar berish va tarmoqlar yordamida masofadan o‘qitish.

2. Ma’lumotlarni bir axborot tizimidan boshqasiga uzatish.

ekstranet tarmog‘i

ingl.: extranet

rus.: экстрапрет

Yopiq korporativ intratarmoqni kengaytirish natijasida hosil bo‘lgan tarmoq. U biznesni samaraliroq olib borish uchun tashkilot axborot tizimidan tanlov asosida erkin foydalinish zarurati bo‘lgan mijoz, yetkazib beruvchi, subpudradchi va ishchan hamkorlarni hamda tashkilotga nisbatan boshqa tashqi tomonlarni, o‘zaro bog‘laydi.

elektr aloqasi

ingl.: electrical communication

rus.: электрическая связь

Simli, radio-, optik va boshqa elektromagnit tizimlar orqali belgililar, signallar, yozma matn, tasvirlar va tovushni har qanday uzatish va qabul qilish.

elektr aloqasi xabari

ingl.: telecommunication message

rus.: сообщение электросвязи

Simli, radio - optik va boshqa elektrmagnit tizimlari orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan belgi, signal, yozma matn, tasvir, tovush.

elektromagnit nurlanish

ingl.: electromagnetic radiation

rus.: электромагнитное излучение

Fazoda elektromagnit to‘lqinlarning nursimon tarqalishi. Elektromagnit nurlanish, fotonlardan (bu nurlanish elementar zarralaridan) tarkib topgan. U vaakumda ham, efirda ham yorug‘lik tezligida tarqaladi.

elektromagnit spektr

ingl.: electromagnetic spectrum

rus.: электромагнитный спектр

Elektromagnit nurlanislarning spektri.

elektromagnit to‘lqin

ingl.: electromagnetic wave

rus.: электромагнитная волна

Fazoda tarqaladigan elektromagnit tebranishlar. Radionurlanish, yorug‘lik va boshqa turdagil elektromagnit tebranishlar, tebranishlar chastotasi har xil bo‘lgan elektromagnit

to‘lqinlardir. Ular, elektromagnit spektrni tashkil qiladi.

elektromagnit uyg‘unlik

ingl.: *electromagnetic compatibility*

rus.: *электромагнитная совместимость*

Radioelektron vositalarni xalal beruvchi radioshowqinlar ta’siri ostida bir paytda, mayjud ish sharoitlarida talab qilingan sifat bilan ishlay olish qobiliyati.

elektron aravacha

ingl.: *shopping cart program*

rus.: *электронная тележка*

Veb-saytda ishga tushiriladigan va tashrifchi tomonidan tanlangan tovarlar yig‘masi haqida ma’lumot to‘playdigan dastur.

elektron armiya

ingl.: *electronic army*

rus.: *электронная армия*

Informatika va telekommunikatsiya tizimlaridan harbiy ishda foydalanish texnologiyasi.

elektron arxiv

ingl.: *electronic archive*

rus.: *электронный архив*

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida foydalanishga yaraydigan elektron shaklda taqdim qilingan hujjatlar arxivi.

elektron auksion

ingl.: *electronic auction*

rus.: *электронный аукцион*

Bir sotuvchi va bir necha xaridor bo‘lgan holda, turli tovarlarni elektron biznes doirasida auksionda sotish. Muayyan takliflardan manfaatdor bo‘lgan mijozlar sotuvchiga to‘lovnii o’tkazadilar va belgilangan vaqt mobaynida kerakli tovarni oladilar.

elektron bank

ingl.: *electronic bank*

rus.: *электронный банк*

Axborot tarmog‘ining vositalari yordamida yaratilgan bank. Virtual yoki elektron bank, bank tizimining rivojlangan turi bo‘lib, unda banklarda mijozlar uchun operatsion zallarga extiyoj qolmaydi. Virtual bankda barcha moliyaviy amallar, jamiyatda va mijozlarning uylarida joylashgan shaxsiy kompyuterlar va do‘konlarda, mehmonxonada, vokzalda va hatto ko‘chalarda joylashtirilgan bankomatlar yordamida bajariladi.

qarang: virtual bank

elektron billing

ingl.: *electronic billing*

rus.: *электронный биллинг*

Bank va mijoz o‘rtasidagi, haqiqiy vaqt maromida, chiqarib qo‘yilgan hisob raqamlarni olish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘langan hisob raqamlarni yuborish imkonini beradigan, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmi.

elektron birja

ingl.: *electronic exchange*

rus.: *электронная биржа*

1. Ko‘p sotuvchilar va ko‘p xaridorlar mayjud bo‘lganda, elektron biznes doirasida birjada xilma xil tovarlar oldi – sotdisi. Muayyan taklifga ehtiyoji bo‘lgan mijoz, kontraktini yutib olib, sotuvchiga to‘lovnii o’tkazadi va muayyan vaqt davomida kerakli tovarni oladi.
2. Axborot tarmog‘idan foydalangan holda sotuvlarni olib boruvchi birja. Oldi – sotdi amallari foydalanuvchilar tomonidan axborot tizimiga ulangan abonent tizimlar yordamida bajariladi.

elektron biznes

ingl.: *electronic business (e-business)*

rus.: *электронный бизнес*

1. Qo‘sishma qiymatning birlashtirilgan zanjirini yaratish va ishchan hamkorlarning optimal o‘zaro ishlashini ta’minalash uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan Internet – biznes. Elektron savdo tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha. Elektron biznes quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sotuvlar, marketing, moliyaviy tahlil, to‘lovlardan, xodimlarning izlash, foydalanuvchilarni qo’llash va hamkorlik munosabatlarini qo’llash.

2. Asosiy biznes jarayonlarini Internet texnologiyalari yordamida o‘zgartirish. Ebiznes deb global axborot tarmoqlarining imkoniyatlardan, foyda olish maqsadida ichki va tashqi aloqalarni o‘zgartirish uchun, foydalanadigan ishchan faoliyikka aytildi. Xodimlarning o‘zaro ishlash samaradorligini oshiruvchi va rejalah hamda boshqarish jarayonlarini optimallashtiruvchi yagona axborot tarmog‘i (Intranet) asosida kompaniyani ichki tashkillashtirish; hamkorlar, yetkazib beruvchilar va mijozlar bilan tashqi

o‘zaro ishslash (Ekstranet), bular hammasi elektron biznesning tarkibiy qismlaridir.

elektron bozor

ingl.: *electronic market, electronic marketplace, e-marketplace*

rus.: *электронный рынок*

1. Elektron biznes olib borish uchun foydalilaniladigan virtual bozor makoni. U kelishuvlar va sotuvlar hamda tovar, mahsulot va xizmatlar to‘g‘risida ma‘lumotlar taqdim qilish, shuningdek, sotuvchi va xaridor orasidagi o‘zaro kommunikatsiyalarni quvvatlash uchun xizmat qiladi. Ommaviy ehtiyoj tovarlari va xizmatlarini taqdim etuvchi gorizontal bozor makoni va ayrim iqtisodiyot sohalari xususiyatlarini aks ettiruvchi vertikal bozor makoni mavjud.

2. Yagona axborot-tehnologik infratuzilmada o‘zaro ishlayotgan, ta’minotchi va xaridorlar guruhi.

elektron broker

ingl.: *electronic broker*

rus.: *электронный брокер*

Global tarmoq orqali birjada ishslash texnologiyasi. Elektron broker texnologiyasidan foydalinish, kompyuter foydalanuvchisiga, zarur bo‘lgan barcha axborotni ola turib va kelishuvlarni rasmiylashtirib, birjada mustaqil ishslash imkonini beradi. Bunday amallarning to‘lovi, broker-odamdan foydalanilgandagiga nisbatan bir darajaga arzonroq bo‘ladi.

elektron do‘kon

ingl.: *electronic store (e-shop)*

rus.: *электронный магазин*

Onlayn maromida va mavjud assortiment doirasida zarur tovarni xarid qilish imkonini beradigan elektron savdo nuqtasi. Unda mahsulotlar katalogi, sotib olish uchun virtual savat, savdo asboblari va ba‘zi hollarda buyurtmalar yetkazish tizimi mavjud. Xaridorni elektron do‘konga «tashrifi» tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuter yordamida amalga oshiriladi. Xarid sotib olingan tovar uchun haq to‘lashda, bankka o‘z hisobidan zarur pul miqdorini sotuvchiga o‘tkazish uchun ko‘rsatma beradi. Elektron do‘konlarda axborot vitrinalaridan keng foydalilanadi, u kerakli tovarni topishga, virtual borliq vositalari yordamida ko‘rib

chiqishga, tovar haqidagi barcha zarur ma‘lumotlarni olishga yordam beradi.

elektron e’lonlar taxtasi

ingl.: *Bulletin Board System (BBS)*

rus.: *электронная доска объявлений*

Telekonferensiyaning xususiy holi. Undan yirik tashkilotlar ayniqsa, mutaxassislarini tayyorlash bilan shug‘ullanadiganlar foydalanishi. E’lonlar doskasi, aslida, maxsus ma‘lumotlar bazasidir. Unda turli tuman e’lonlar «osiladi». Masalan, taqdim qilinayotgan xizmat xillari to‘g‘risida,

kurs va seminarlar jadvallari va mavzulari, taqdim qilinayotgan o‘quv materiallari, o‘tkazilayotgan masahatlar, ulardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar va h.k.

elektron fotoapparat

ingl.: *electronic camera*

rus.: *электронный фотоаппарат*

qarang: raqamlı kamera

elektron hamjamiyat

ingl.: *electronic community*

rus.: *электронное сообщество*

Umumiyligida qiziqishlarga ega bo‘lgan va global tarmoq resurslaridan foydalanadigan insonlar birlashmasi. Birinchi elektron hamjamiyatlar ish qidirish, savdo, sport va dam olishni rejalash masalari atrofida hosil bo‘lgan. Elektron hamjamiyatlarning yaratilishida Internet muhim rol o‘ynaydi.

elektron hamyon

ingl.: *electronic purse*

rus.: *электронный кошелек*

1. Xilma xil tovarlarni sotib olish va xizmatlar uchun to‘lovlarini amalga oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan naqd pulni o‘z mikrochipida raqamlı shaklda saqlaydigan smart-karta. Smart-karta emitenti mablag‘larni turli elektron hamyonlar orasida xavfsiz ko‘chib yurishini ta’minlaydi.

2. Xotirasida pul mablag‘larini saqlaydigan, xarid qilish imkonini beradigan va offlaysh texnologiyasini nazarda tutadigan elektron qurilma.

elektron hisoblash mashinasi (EHM)

ingl.: *electronic computer*

rus.: *электронная вычислительная машина (ЭВМ)*

qarang: kompyuter

elektron hujjat*ingl.: electronic document**rus.: электронный документ*

1. Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot. (*qonun*)

Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari hizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalilanigan holda yaratiladi, ishllov beriladi va saqlanadi.

Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

2. Elektron savdo sohasida kelishuvlarni sodir etish munosabati bilan elektron vositalar yordamida shakllanadigan, jo‘natiladigan, qabul qilinadigan yoki saqlanadigan axborot.

elektron hujjat aylanishi*ingl.: Electronic Document Flow (EDF)**rus.: электронный документооборот*

1. Elektron hujjat aylanishi elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo‘natish va qabul qilib olish jarayonlari yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Elektron hujjat aylanishidan bitimlar tuzish (shu jumladan shartnomalar tuzish), hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarini amalga oshirish hamda boshqa axborotni o‘tkazishda foydalanish mumkin.

2. Turli kompaniyalarning avtomatlashtirilgan tizimlari orasida standartlashtirilgan shakldagi ishchan hujjatarini (sotib olishga buyurtma, hisob raqamlari va sh.k.) elektron almashuvi.

elektron hujjat jo‘natuvchisi*ingl.: sender of the electronic document**rus.: отправитель электронного документа*

Rekvizitlarida nomi ko‘rsatilgan, hamda elektron hujjatni qabul qilib oluvchiga elektron hujjat jo‘natuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Bu hujjatlarga nisbatan axborot vositachisi sifatida harakat qiluvchi shaxslar bundan istisno.

elektron hujjat taqdim qilish shakllari*ingl.: electronic document representation forms**rus.: формы представления электронного документа*

Elektron hujjat ichki va tashqi taqdim qilish shakliga ega. Ichki taqdim qilish shakliga

elektron hujjatni tashkil qiluvchi axborotni mashina tashuvchisiga yozish kiradi. Tashqi taqdim qilish shakli elektron hujjatni display ekranida, qog‘ozda yoki boshqa mashina tashuvchisidan farqlanadigan moddiy obyektda, ko‘rish imkoniyatini beradigan ko‘rinishda (qo‘srimcha texnik qurilmalarsiz) va inson tushunib idrok eta oladigan shaklda aks ettirilishidir.

elektron hujjat tuzilmasi*ingl.: electronic document structure**rus.: структура электронного документа*

Elektron hujjat ikkita ajratib bo‘lmas – umumiylar alohida qismlardan iborat. Elektron hujjatning umumiylar qismi hujjat mazmunini tashkil qiluvchi axborotdan iborat. Manzil egasi to‘g‘risidagi axborot umumiylar qismiga kiradi. Elektron hujjatning alohida qismi bitta yoki bir nechta elektron raqamli imzolardan iborat.

elektron hujjat xesh-funksiyasi*ingl.: electronic document hashing function**rus.: хэш-функция электронного документа**qarang: xabar xesh-funksiyasi***elektron hujjatga qo‘yiladigan talablar***ingl.: requirements for electronic documents**rus.: требования, предъявляемые к электронному документу*

Elektron hujjat quyidagi talablarga javob berishi kerak: elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni aynanlash imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo‘lishi; axborot tizimlarining va texnologiyalarining texnik vositalari va xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalilanigan holda yaratilishi, ishllov berilishi va saqlanishi; qonun bilan o‘rnatilgan tuzilmaga ega bo‘lishi; elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan tomonidan o‘zlashtira oladigan shaklda taqdim qilinishi.

elektron hujjatning asl nusxasi*ingl.: original of e-document**rus.: оригинал электронного документа*

Elektron hujjatning har bir aynan bir xil nusxasi, basharti u belgilangan tartibda haqiqiy deb tasdiqlangan bo‘lsa, asl nusxadir.

elektron hujjatning qog‘ozdagi nusxasi

ingl.: e-document copy on paper medium

rus.: копия электронного документа на бумажном носителе

Elektron hujjatning qog'ozdag'i nusxasining tashqi shaklini ifodalashni qonunchilik tomonidan o'rnatilgan tartibda guvohnomalash yo'li bilan yaratiladi. Elektron hujjatning qog'ozdag'i nusxasi qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda guvohnomalanadi va saqlanadi.

elektron hujjatning rekvizitlari

ingl.: electronic document attributes

rus.: реквизиты электронного документа

Elektron hujjatning majburiy rekvizitlari quyidagilardan iborat: elektron raqamli imzo; jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki jo'natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi; jo'natuvchining pochta va elektron manzili; hujjat yaratilgan sana.

Qonun hujjatlari asosida yoki elektron hujjat aylanishi ishtirochilarining kelishuvida boshqa rekvizitlar ham belgilanishi mumkin.

elektron hukumat

ingl.: electronic government

rus.: электронное правительство

Barcha ham «ichki», ham «tashqi» aloqalar va jarayonlar majmuasi tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan quvvatlanib va ta'minlanib turadigan hukumat. Kommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan Internet) orqali axborotga ishlov berish, uni uzatish va tarqatishni elektron vositalari asosida davlat boshqaruvini tashkil qilishni, davlat hokimiyyati organlarini barcha bo'g'irlari tomonidan fuqarolarning barcha toifalariga elektron vositalar bilan xizmatlar ko'rsatish, o'sha vositalar yordamida fuqarolarga davlat organlarining faoliyati haqida axborot berish. «Elektron hukumat» tushunchasi 1990 yillarning boshida paydo bo'lgan, lekin amaliyotga so'nggi yillardan boshlab tatbiq qilina boshladi. Elektron hukumatni ishlab chiqish bilan birinchi galda AQSH va Angliya, hamda Italiya, Norvegiya, Singapur, Avstralija va ayrim boshqa davlatlar (Fransiya, Germaniya, Katar, BAA va h.k.) shug'ullandilar. Elektron hukumatning uch asosiy rivojlanishi tizimi ajratiladi:

- hukumat – aholi (G2C);
- hukumat – biznes (G2B);

- hukumat – hukumat (G2 G).

O'zbekistonda ham elektron hukumat barpo qilish ishlari boshlab yuborilgan. Jahan tajribasiga mavjud amaliyotga ko'ra, u ikki o'zaro bog'langan, lekin funksional jihatdan mustaqil qismlardan, Hukumat Intranetidan va tashqi infratuzilmasdan tarkib topgan. Hukumat Intraneti axborot tizimining ichki infratuzilmasini qamrab oladi, u davlat tuzilmalari tomonidan davlat korporativ vazifalarini amalga oshirishdagi o'zaro munosabatlarda foydalaniadi. Tashqi infratuzilma, davlatni fuqarolar (G2C) va tashkilotlar (G2B) bilan o'zaro ishslashini ta'minlaydigan ommaviy axborot infratuzilmasini qamrab oladi.

elektron idora

ingl.: electronic office

rus.: электронный офис

Kompaniyada axborotga elektron qurilmalar yordamida ishlov berish texnologiyasi. Ma'muriy vazifalarini avtomatlashtish tabora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu avtomatlashtirishda, hujjatlarga ishlov berish tamoyillariga muhim rol ajratilmoqda.

U tizimlarda, kompyuter majmularida, mahalliy tarmoqlarda amalga oshirilmoqda. Elektron idoralarda ekspertiza va maslahat xizmatlari keng tarqalmoqda. Elektron idoralarda sun'iy tafakkur uslubiyati katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Elektron idora o'rniغا virtual idora kirib kelmoqda.

elektron iqtisodiyot

ingl.: electronic economy

rus.: электронная экономика

1. Keng ma'noda: axborot, bilimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga asoslangan iqtisodiyot.

2. Tor ma'noda: tarmoq texnologiyalariga hamda «biznes-biznes» (B2B) va «biznes-iste'molchi» (B2C) modellariga asoslangan iqtisodiyot.

elektron jadval

ingl.: spreadsheet program

rus.: электронная таблица

Jadval shaklida ifodalangan ma'lumotlarga ishlov berishga mo'ljallangan amaliy dasturlar majmuasi. Elektron jadval bilan ishslash quyidagilarga imkon beradi:

- xilma xil ma'lumotlarni qulay shaklda taqdim qilish;
 - jadval kataklaridagi yozuvlarni o'zgartirish;
 - vertikal va gorizontal yo'nalish bo'yicha raqamlar qiymatlarining yig'indisini avtomatik tarzda hisoblash, kataklardagi yozuvlar o'zgarganda qayta hisoblash;
 - kataklardagi yozuvlarning o'zaro bog'likligini aniqlash va yozuvlardan biri o'zgarganda boshqalarini avtomatik tarzda o'zgartirish;
 - argumentlari katakdagi yozuv bo'lgan funksiyalar qiymatini aniqlash. Boshida elektron jadvallar tijorat va moliya hisob-kitoblarida foydalanildi. So'nggi yillarda bu jadvallar ilmiy va texnik masalarni yechishda, buxgalteriya hisoblarini bajarishda, ma'lumotlarni grafik tasvirlashda taboro keng foydalanilmogda. Elektron jadvallar bozorida eng mashhurlari Lotus 1-2-3 va Excel hisoblanadi.

elektron jurnal

ingl.: electronic journal

rus.: электронный журнал

Internet global tarmog'i orqali tarqatilayotgan ilmiy va texnikaviy nashrlar majmuasi.

elektron kartoteka

ingl.: electronic filing

rus.: электронная картотека

Hujjatlarni saqlashni va izlashni tartibga solishga mo'ljallangan sodda ma'lumotlar bazasi. Odatda, elektron kartoteka kompyuter dasturi shaklida yaratiladi. Bu holda, monitor ekranida kartotekaning sahfalari aks etadi. Klaviatura yoki sichqoncha yordamida kartotekani varaqlab chiqish, sahfalar mazmunini o'qish, kerak bo'lmagan sahfalarni tashlab yuborish va zarur bo'lgan tartibda yangilarini qo'shib qo'yish mumkin.

elektron katalog

ingl.: electronic catalog

rus.: электронный каталог

1. Mijozlar va ishchan hamkorlar uchun mahsulot hamda xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot tizimi. Ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar orasida qo'shimcha axborot almashuviga imkon beradi. Tashkilotlar uchun sotib olishga va yetkazib berishga ketayotgan harajatlarni qisqartirish imkonini beradi. Qoidaga ko'ra, elektron

katalog elektron savdo tizimining tarkibiy qismidir.

2. Mashina o'qiy oladigan shaklda amalga oshirilgan kutubxona katalogi.

elektron kissa

ingl.: electronic wallet

rus.: электронный бумажник

Smart-karta egasiga, onlayn maromda tranzaksiyalarni amalga oshirishga, to'lovlarini boshqarishga va raqamli sertifikatlarni saqlashga imkon beradigan dasturiy ta'minot.

elektron kitob

ingl.: electronic book

rus.: электронная книга

Elektron tashuvchida axborot taqdim qilingan kitob. Elektron kitoblar ixcham yoki epcil disklarda ishlab chiqariladi. Birinchi navbatda, ensiklopediya, lug'at, albom va geografik xaritalar elektron kitob shaklida nashr qilinadi. Ularda gipermatn va gipermuhit g'oyalaridan foydalamiladi.

elektron konsalting

ingl.: electronic consulting

rus.: электронный консалтинг

Mijozlarga elektron pochta orqali malakali maslahatlar berish. Axborot xizmatlaridan ma'lumotnomalar taqdim qilish, Internet orqali turli so'rovlari o'tkazish, va boshqalar. U elektron biznes turlaridan biridir.

elektron kutubxona

ingl.: digital library

rus.: электронная библиотека

1. Axborot tizimi. Unda hujjatlar (maqolalar, monografiyalar, hisobotlar, referatlar va sh. k.lar) odatda, mashina tashuvchilarida elektron to'lamatnli shaklida saqlanib va foydalanuvchilarga ularning so'rovlarini bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimga taqdim qilinadi. Ko'pincha bu hujjatlarning matnlari foydadanuvchilarga elektron pochta orqali uzatiladi.

2. Taqsimlangan axborot tizimi. U elektron hujjatlarning (matn, grafika, audio, video va h.k.) xilma xil turdag'i to'plamlarini oxirgi foydalanuvchiga qulay shaklda, ma'lumotlarni uzatishning global tarmoqlari orqali, ishonchli saqlash va samarali foydalanish imkonini beradi.

elektron ma'lumotlar jo'natuvchisi

*ingl.: sender of electronic data
rus.: отправитель электронных данных
qarang: elektron hujjat jo‘natuvchisi*

elektron marketing

*ingl.: electronic marketing
rus.: электронный маркетинг*

Axborot tizimlari va tarmoqlari yordamida marketingni amalga oshirish texnologiyasi. Elektron texnologiyalar asosida marketing olib borish.

elektron maslahat

*ingl.: electronic advising
rus.: электронная консультация*

Ta’sischilar, firmalar va sh.k. larni huquq, soliq solish masalalari bo‘yicha onlayn maromida o‘zaro ishlashi. Amalga oshirish uchun elektron pochta, telefon aloqa (sall-centre), elektron konferensiya tizimlari, shu jumladan Internet konferensiyalardan ham foydalaniлади.

elektron matn

*ingl.: electronic text
rus.: электронный текст*

Axborot tiziminining xotirasiga yozilgan matn (hujjatlar, kitoblar, oynomalar, ma’lumotnomalar va h.k.). Elektron matnlari tizimlarda joylashgani sababli, o‘quvchilar (foydalanuvchilar) oldida yangi imkoniyatlar ochiladi. Matning ixtiyoriy tahlilini bajarish, kerak bo‘lgan qatorlar, xatboshi, bo‘lim va h.k.larni topish mumkin.

elektron mo‘yqalam

*ingl.: electronic brush
rus.: электронная кисть*

Tasvirlarni chizishda va bo‘yashda, aniq o‘lcham, rang va fakturadagi yo‘llarni o’tkazish texnologiyasi.

elektron naqd pul

*ingl.: electronic cash
rus.: электронная наличность*

Smart – karta shaklida amalga oshirilib, naqd pullarni elektron tasavvurida saqlovchi elektron hamyon yoki elektron kissa bo‘lishi mumkin. Smart-karta naqd pul bilan qilinadigan amallarni mualliflash uchun kerak bo‘lgan barcha axborotni o‘z ichiga oladi va mayda maishiy to‘lovlar bo‘lishi, shahar transporti uchun kira haqi to‘lash va ro‘znomalar sotib olishda foydalaniлади.

elektron nashriyot

*ingl.: electronic publishing house
rus.: электронное издательство*

Nashriy asarlarni tayyorlash va nashr qilish uchun mo‘ljallangan tizim. Interneta pdf-formatda hujjatlarni nashr qilish texnologiyasi keng tanildi.

E

elektron oynoma

*ingl.: electronic journal
rus.: электронный журнал
qarang: elektron jurnal*

elektron ochiqxat

*ingl.: virtual card (e-card)
rus.: электронная открытика
(sinonimi - virtual ochiqxat)*

O‘zining oshnasiga xushfe’l xabar (tabriknomा, taklifnomा va sh.k.) yubormoqchi bo‘lgan odam, veb-xizmatdan - elektron ochiqxatlar xizmatidan foydalanishi mumkin. Ochiqxatlar saytida mos keladigan rasmni tanlab unga matn qo‘shib, oluvchi manzilini (e-mail) ko‘rsatish kifoya. Goho, ochiqxatlar sayti topshirish vaqtini ham ko‘rsatishni taklif qiladilar. Ayrim hollarda, ochiqxat animatsiyali yoki musiqali bo‘lishi mumkin. Manzil egasi «dalolatnomा» xat olgach, unda saytning sahifasiga murojaat bo‘lib, u o‘z ochiqxatini ko‘rib, o‘qishi mumkin.

elektron pero

*ingl.: electronic pen
rus.: электронное перо*

Grafik dasturlarda chiziqlarni va sodda geometrik shakllarni chizish texnologiyasi. Texnologiya tasvirlarni hosil qilishda zarur bo‘lgan chiziqlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Har bir chiziq uslub, qalinlik va rang bilan tavsiflanadi. To‘rt asosiy stildan foydalanadilar: uzluksiz, punktir, shtrixli va shtrixpunktirli chiziqlar.

elektron pochta

*ingl.: electronic mail (e-mail)
rus.: электронная почта*

1. Kommunikatsiya tarmog‘i orqali kompyuterdan kompyuterga xabarlar uzatish. Elektron pochta o‘z ichiga matnlar, nutq va tasvirlarni olgan ixtiyoriy xabarlarini foydalanuvchilar orasida uzatishni avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan. Elektron pochtaning asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- tizimga hujjatlar kiritish va chiqarish;
- foydalanuvchilarning pochta qutilariga hujjatlar uzatish va boshqa foydalanuvchilardan hujjatlar qabul qilish;
- uzatishda yuzaga kelgan xatoliklarni tekshirish va tuzatish;
- hujjatlar yetkizilganligi haqida tasdiqnoma yuborish;
- manzillar ro'yxati bo'yicha hujjatlar tarqatish. Turli ishlab chiqaruvchilar turli turga va tuzilmaga ega bo'lgan elektron pochtalarni taklif qiladilar. Keng tarqalgan MHS/MOTIS tarmoq xizmati ITU tomonidan qabul qilingan va X.400 tavsiyanoma deb atalmish standart tomonidan belgilanadigan pochtani taqdim qiladi. Internet tarmog'i taklif qilgan SMTP «pochta uzatishning sodda bayonnomasi» ham keng foydalaniladi.
- 2. Xabarlarni kompyuterda to'g'ridan-to'g'ri terib jo'natish va boshqalar yuborgan xatlarni olish imkonini beradigan dastur.
- 3. Inson yoki tashkilotning jo'natmalarini kelib tushadigan elektron manzili.

elektron pochta manzili

ingl.: electronic mail address

rus.: электронный почтовый адрес

Elektron pochtaning har bir abonentiga ega bo'lgan shaxsiy manzil. Tizimdagi foydalanuvchi nomi, @.belgisi va pochta serveri ishga tushirilgan kompyuter nomidan tarkib topgan ketma-ketlik bilan belgilanadi.

elektron pochta qutisi

ingl.: electronic mail box

rus.: электронный почтовый ящик

1. Internet tarmog'i bo'ylab xabarlar jo'natish va qabul qilish uchun noyob tartib raqamidan (elektron pochta manzili) dan foydalanadigan dasturiy-texnika vositalari majmuasi.
2. Qabul qiluvchi so'ramaguncha elektron pochta xabari saqlanadigan serverdagiga o'rinni. Aksariyat hollarda pochta qutisidan erkin foydalanish uchun parol talab qilinadi.

elektron pochta tarqatmasi

ingl.: electronic mailing list

rus.: электронная почтовая рассылка

Elektron pochta orqali hujjatlar tarqatadigan tarmoq xizmati. Elektron pochta orqali hujjatlar tarqatish hujjatlar bilan ishlashni tubdan o'zgartiradi. Avvallari, ular zarur miqdorda

choplanib, so'ng manzillar bo'yicha tarqatilar edi. Endi esa ular avval tarqatilib, zarur bo'lgan joylarda, yetkazilgan yerlarda cholanadi.

elektron pul

ingl.: electronic money

rus.: электронные деньги

1. Keng ma'noda – axborot tarmoqlarida pul aylanishini tashkil qilish shakli.

2. Elektron vositalar yordamida muomala qilinadigan naqd pulsiz sarmoya.

Elektron pullarni boshlang'ich rivojlanish bosqichida, kompyuterlar bir birlariga, sotilgan tovar uchun xaridolarni sotuvchi bilan to'lov hisoblarini belgilaydigan pul hujjatlari matnlarini jo'natganlar. Keyingi bosqichda, kompyuterlar mahalliy tarmoqlarga birlashib tovarlar aylanishini ta'minlaydigan, pul muomalasi bilan bog'liq, hamda notovar hisoblarga tegishli amallarning barchasini bajara boshladilar. Banklararo tizimlar va elektron to'lovlari tizimlari paydo bo'ldi. Nihoyat, magnit va kompyuter kartochkalarini qo'llash elektron pullar tarqalishining yangi bosqichi bo'ldi. Savdo, transport va boshqa tashkilotlarda, pul hisob-kitoblari uchun kartochkalardan foydalaniladigan, elektron kassalarni yaratish va o'rnatish elektron pullarning yaratilishini yakunladi. Elektron pullarni qog'oz pullarga almashtiradigan bankomatlar paydo bo'ldi.

elektron pul o'tkazish

ingl.: electronic funds transfer

rus.: электронный денежный перевод

Elektron tizim orqali tezlashtirilgan pul o'tkazishlarni qabul qilish va jo'natish.

elektron qo'lqop

ingl.: electronic glove

rus.: электронная перчатка

Virtual borliqqa botish uchun qo'lga kiyiladigan qurilma. Elektron qo'lqop virtual borliq obyektlarini boshqarish vazifalaridan foydalanuvchi qo'llarining kafti va barmoqlari yordamida amalga oshiradi. Elektron qo'lqop odatda, shlenga yoki shlem-display tizimiga qo'shimcha bo'ladi.

elektron raqamli imzo (ERI)

ingl.: electronic digital signature

rus.: электронная цифровая подпись

1. Elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo. (*qonun*)

Qonunda talab etilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda elektron raqamli imzo qog'oz hujjatga shaxsan qo'yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga egadir.

2. Elektron ma'lumotlarni kriptografik o'zgartirish natijasida hosil qilingan belgilarni ketma-ketligi. Elektron raqamli imzo ma'lumotlar blokiga qo'shib qo'yildi va blokni qabul qiluvchiga, manbaniga va ma'lumotlarning butunligini tekshirish hamda soxtalashtirishdan muhofazalanish imkonini beradi. Hozirgi kunga kelib, ayrim mamlakatlar qonunchilik yo'li bilan raqamli imzodan foydalishni layoqatliligidagi qonunlashtirib qo'yanlar. Elektron raqamli imzo kalitlari sertifikatlari ro'yxatga olish markazlari tomonidan beriladi.

elektron raqamli imzo kalitining sertifikati

ingl.: *signature key certificate*

rus.: *сертификат ключа подписи*

Elektron raqamli imzo kalitining sertifikati elektron raqamli imzoning ochiq kaliti elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mosligini tasdiqlaydigan va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga ro'yxatga olish markazi tomonidan berilgan hujjatdan iborat bo'ladi.

Elektron raqamli imzo kalitining sertifikati elektron hujjat shaklida va qog'oz hujjat shaklida tayyorlanishi mumkin.

Elektron raqamli imzo kalitining sertifikatida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasi bo'lgan jismoniy shaxsnинг familiyasi, ismi, otasining ismi;

agar elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasi yuridik shaxsnинг vakili bo'lsa, shu yuridik shaxsnинг nomi;

uning tartib raqami va amal qilish muddati;

elektron raqamli imzoning ochiq kaliti;

elektron raqamli imzoning ochiq kalitidan foydalishda yordam berishi mumkin bo'lgan elektron raqamli imzo vositalarining nomi; mazkur sertifikatni bergan ro'yxatga olish markazining nomi va joylashgan manzili; elektron raqamli imzodan foydalish maqsadlari to'g'risidagi ma'lumotlar; elektron raqamli imzolar kalitlari sertifikatlari reyestrining elektron manzili.

Elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasi tashabbusi bilan elektron raqamli imzo kaliti sertifikatiga boshqa ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

elektron raqamli imzo vositalari sertifikati

ingl.: *e-signature tools certificate*

rus.: *сертификат средств электронной цифровой подписи*

Sertifikatsiya tizimi qoidalariga binoan, belgilangan talablarga binoan elektron raqamli imzo vositalarining muvofiqligini tasdiqlash uchun berilgan qog'oz hujjat.

elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash

ingl.: *acknowledgement of e-signature authenticity*

rus.: *подтверждение подлинности электронной цифровой подписи*

Elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishliligi va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligi tekshirilgandagi ijobilgi natija. (*qonun*)

elektron raqamli imzoning ochiq kaliti

ingl.: *public key of the EDS*

rus.: *открытый ключ электронной цифровой подписи*

Elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalananuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilarni ketma-ketligi. (*qonun*)

elektron raqamli imzoning tayinlanishi

ingl.: *e-signature purpose*

rus.: *назначение электронной цифровой подписи*

ERI quyidagilar uchun mo'ljallangan:

- elektron hujjatning umumiyl qismini tashkil qiluvchi axborotni tasdiqlash;

- elektron hujjatning haqiqiyligi va butunligini tasdiqlash.

Elektron hujjatning umumiy qismini tashkil qiluvchi axborotni tasdiqlash elektron raqamli imzo vositalaridan foydalanilgan holda hujjatni imzolovchi shaxslarning shaxsiy imzo kalitlari yordamida amalga oshiriladi. Elektron hujjatning haqiqiyligi va butunligi deganda hujjatning aynan shaxsiy imzo kaliti egasi tomonidan yaratilganligi va ushbu hujjatga o'zgartirishlar kiritilmaganligini tushuniladi. Elektron hujjatning haqiqiyligi va butunligi elektron raqamli imzo vositalaridan foydalanilgan holda hujjatni imzolovchi shaxslarning shaxsiy imzolarini tekshirishning ochiq kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

elektron raqamli imzoning yopiq kaliti

ingl.: *private key of the EDS*

rus.: *закрытый ключ электронной цифровой подписи*

Elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsnинг o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgililar ketma-ketligi. (*qonun*)

elektron raqamli imzo vositalari

ingl.: *e-signature tools*

rus.: *средства электронной цифровой подписи*

1. Quyidagi vazifalardan kamida bittasining amalga oshirilishini ta'minlovchi apparatli va (yoki) dasturiy vositalar:

- elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish;

- ERIning ochiq kalitidan foydalangan holda elektron hujjatda ERIning haqiqiyligini tasdiqlash;

- ERIning ochiq va yopiq kalitlarini yaratish.

Elektron raqamli imzo vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sertifikatlashirishi lozim.

2. ERIni ishlab chiqish va tekshirishini ta'minlovchi va muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgan dasturiy yoki texnikaviy vositalar.

elektron savdo

ingl.: *electronic trade*

rus.: *электронная торговля*

Internet tarmog'ida elektron hujjat aylanishi yordamida amalga oshiriladigan savdo. Telekommunikatsiya uslub va vositalaridan foydalanadi. Uning asosiy maqsadi, savdoni soddalashtirib va kelishuvlarni tezlatib, hamkorlarning o'zaro aloqada ishlash samaradorligini oshirish. Elektron savdo rivoj topishiga, EDI «elektron ma'lumotlar almashuv» va EFT «pullarni elektron o'tkazish» texnologiyalari imkon yaratmoqda. Buning natijasida foydalanuvchi o'z kompyuteridan:

- tovarlar reklamasi bilan tanishish;
- qiziqish uyg'otgan tovarlarni virtual borliq maromida ucho'lchamli rangli tasvirlarini ko'rib chiqish;
- sotuvchi bilan elektron pochta orqali muzokara olib borish;
- shartnomalarini tayyorlash va imzolash;
- tovarlarga o'z banki orqali pul to'lash;
- tovarlar yuklanishi va tashilishini kuzatish imkoniyatlariiga ega bo'ldi.

Elektron savdo texnologiyalaridan foydalanish sotuvchi va xaridor uchun ko'pgina harajat turlarini qisqartiradi, xodimlar tomonidan bajarilayotgan amallar sonini kamaytiradi, savdo xizmatlari sifatini oshiradi, xizmatchilarni ikir-chikir ishlardan ozod qiladi. Elektron savdoni tashkil qilishda ma'lumotlar xavfsizligiga katta e'tibor qaratiladi.

elektron savdo ishtirokchisi

ingl.: *electronic trade participant*

rus.: *участник электронной торговли*

Elektron savdo yurituvchi shaxs va mijoz.

elektron savdoni amalga oshiruvchi shaxs

ingl.: *electronic trade performing person*

rus.: *лицо, осуществляющее электронную торговлю*

Yakka tartibdagи ishbilarmon sifatida ro'yxatga olingan, elektron hujjatları yordamida tadbirkorlik sohasida mahsulotlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish hamda boshqa faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

elektron sayyoqlik agentligi

ingl.: *electronic travel agency*

rus.: *электронное туристическое агентство*

Sayyoqlarga AKT uslublari va vositalari yordamida xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan

tashkilot. Bunday agentlik, bir yoki bir necha serverlardan tashkil topgan, bo'lg'usi sayyohlarga zarur bo'lgan axborotni o'z ichiga olgan axborot tizimi tomonidan quvvatlanadi. Buyurtmasining bajarilishi uchun foydalanuvchi muloqat maromida, tegishli tarmoqdan uzoqdan erkin foydalanishni ta'minlashi mumkin bo'lgan kompyuterdan foydalanishi kerak. Dastlabki elektron sayyohlik agentligi Travelocity (AQSH) bo'lgan.

elektron siyosat

ingl.: *electronic politics*

rus.: *электронная политика*

Davlat organlari, partiylar yoki jamiyatlar faoliyatini ularning manfaatlari va maqsadlari bilan uyg'un tarzda axborot tarmoqlari resurslari yordamida olib borish. Global tarmoqlar, birinchi galda Internet tarmog'i yaratilishi, dastlab ma'lumotlar uzatish uchun foydalanilib, bu kunga kelib ommaviy axborot vositalariga aylandi. Bu holatdan siyosatchilar jadal sur'atda foydalandilar. Internet uning tarafdarlari orasida tashviqot va o'z tomoniga og'dirish quroliga, turli mamlakatlarda siyosiy partiylar va harakatlarning saylovoldi kurashlarini olib borish vositasiga aylandi.

elektron soliqlar

ingl.: *electronics taxes*

rus.: *электронные налоги*

Soliq arizalariga onlayn maromda ishlov berish va ularni uzatish. Bu texnologiya elektron hukumat faoliyati doirasida katta ahamiyatga ega.

elektron ta'minot

ingl.: *electronic procurement*

rus.: *электронное снабжение*

Korxonaning ishlab chiqarish davrida tovarlarni barcha elektron sotib olish va yetkazib berish shakllarini qamrab oladi.

elektron tender

ingl.: *electronic tender*

rus.: *электронный тендер*

Bitta xaridor va bir necha sotuvchi mavjud bo'lgan holda, elektron biznes doirasida turli tovar, ish va xizmatlarni sotib olish uchun o'tkaziladigan tender. Muayyan xaridorda manfaatdor sotuvchilar o'zlarining mahsulot va narxlarini taklif qiladilar, xaridor esa, o'z nuqtai nazaridan eng yaxshi taklifni tanlaydi (narxi,

sifati va h.k. bo'yicha), sotuvchiga to'lovni o'tkazadi va aniq vaqt ichida kerakli mahsulot/xizmat egasi bo'ladi.

elektron tijorat

ingl.: *electronic commerce, e-commerce*

rus.: *электронная коммерция*

1. Axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tadbirdorlik faoliyati. Elektron tijoratni to'rt yo'naliшgа ajratish qabul qilingan:

biznes - biznes (business-to-business, B2B);
biznes – iste'molchi (business-to-consumer, B2C);
biznes - ma'muriyat (business-to-administration, B2A);
iste'molchi - ma'muriyat (consumer-to-administration, C2A).

Shuningdek, keyingi vaqtida iste'molchi - iste'molchi (consumer-to-consumer, C2C) va iste'molchi -biznes (consumer-to-business, C2B) modellari rivoj topmoqda.

2. Elektron tijorat – axborot texnologiyalariga asoslangan biznes. Elektron tijorat quyidagiлarni nazarda tutadi:

- Internetda o'z saytini va virtual do'konini ochish;
- kompaniyani boshqarish tizimining mavjudligi;
- elektron reklamani va marketingdan foydalanish;
- biznes biznes uchun va/yoki iste'molchi uchun biznes modellaridan foydalanish.

3. Ishbilarmonlik faoliyati. Bunda tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish axborot tizimlari yordamida amalga oshiriladi. Elektron tijoratda EDI standarti va Internet tarmog'i muhim rol o'ynaydi.

elektron tijorat yuritish bo'yicha xizmatlar sifatiga kafolat

ingl.: *electronic business assurance*

rus.: *гарантия качества услуг по ведению электронного бизнеса*

Xizmatlarning olish osonligi, korporativ ma'lumotlarni muhofazalash, biznes yuritishda tiniqlikni ta'minlovchi yuridik amaliyotga rioya qilish va biznes-jarayonlarni ta'minlashning yuqori sifati kafolati.

elektron to'lov

elektron to'lov hujjat...

ingl.: electronic payment

rus.: электронный платеж

Xaridlarga elektron vositalar yordamida haq to'lash. Uy banki, tovarlar uchun elektron do'konlarda haq to'lash va shu kabi tizimlar eng ko'p tarqalgan.

elektron to'lov hujjatini qayta ishlash

ingl.: processing of the electronic payment document

rus.: обработка электронного платежного документа

To'lov hujjati bilan bajariladigan barcha yig'ish, kiritish, yozish, o'zgartirish, o'qib olish, saqlash, yo'q qilish, elektron to'lov hujjatini ro'yxatga olish kabi amallarning majmuasi.

elektron to'lovlari tizimi

ingl.: electronic payments system

rus.: система электронных платежей

Mahsulotlarga to'lovlarni kompyuter va magnit kartalari yordamida amalga oshiruvchi apparatli va dasturiy vositalar majmui.

elektron vositachi

ingl.: electronic intermediary

rus.: электронный посредник

Elektron vositalar yordamida asosiy maqsadi qayta sotish yoki vositachilik bo'lgan elektron biznes shakli. Elektron vositachi mumkin bo'lgan xaridorga mahsulotlar to'plami, xizmatlar ro'yxati va bozorga yetkazib beruvchilari orasidan omilkorlik bilan tanlash bilan yordam bersa, sotuvchiga bozor va xaridorlar ehtiyojlari bo'yicha marketing tahlili bajarish imkoniyati bilan qo'l keladi.

elektron xaridlar

ingl.: electronic procurement

rus.: электронные закупки

Xaridlar jarayonini avtomatlashtirish va uyg'unlashtirish. Uning samaradorligi Internet tarmog'ini va korporativ intratarmoqlarni ishlatalish bilan ta'minlanadi.

elektron xarita

ingl.: electronic map

rus.: электронная карта

Kompyuterning ekranida ko'rindigan holda aks ettiriligan xaritografik tasvir. U raqamli xarita yoki geaoxbarot tizimining ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlar asosida tuziladi.

elektron xizmat

ingl.: electronic service

rus.: электронный сервис

Elektron vositalar yordamida ko'rsatilayotgan barcha xizmat va xizmat turlari.

elektron yorliq

ingl.: memory-based tag

rus.: электронный ярлык

Mahsulotni aynanlashni ta'minlaydigan maxsus rasmiylashtirilgan integral sxema. Bu sxema, zarbga mustahkam, suv o'tkazmaydigan, zanglamaydigan po'latdan yasalgan diametri 10-20 mm bo'lgan tugmasimon g'ilofga joylashtiriladi. Yorliq, mahsulotga yopishtiriladigan identifikatsiya birkasi bilan teng kuchlidir.

elektron shakldagi hujjat

ingl.: electronic document

rus.: документ в электронной форме отображения

Hisoblash texnikasi elementlari yoki ma'lumotlarni qayta ishslash, saqlash va uzatishning boshqa vositalari holatlari majmui shaklida taqdim etilgan axborot. U inson tomonidan bir ma'noli qabul qilinish uchun mos shaklga aylantirilishi mumkin bo'lgan va aniplash uchun atributlarga ega bo'lishi shart.

elektronika

ingl.: electronics

rus.: электроника

Elektronlarni elektromagnit maydonlar bilan o'zaro ta'siri va ular asosida axborot to'plash, saqlash, uzatish va unga ishlov berish uslublarini yaratish to'g'risidagi fan. Elektronika faqtigina nazariyani o'rganibgina qolmay, turli obyektlarni, shu jumladan, integral sxema, kompyuter, tizim, asbob va qurilmalarini yaratish uslubiyatini ham o'z ichiga oladi. 60 – yillar boshida, kichiklashtirib yasalgan elektron qurilmalarini yaratish muammosini o'rganadigan, elektronikaning bir qismi bo'lgan mikroelektronika paydo bo'ldi. So'nggi yillarda, atom pog'onasida ishslash imkonini beradigan nanoelektronika tobora ko'proq rivojlanmoqda. Optoelektronikaning paydo bo'lishi lazerlarni, yorug'lik signallarini va yorug'lik uzatgichlaridan keng foydalanilishi bilan bog'liq. Xuddi shunday, akustoelektronika, avtomobil elektronikasi va maishiy elektronika keng rivojlanmoqda.

elektronlashtirishga tayyorlik

ingl.: electronic readiness

rus.: готовность к электронизации

Jahon banki tomonidan, mamlakatni, qit'ani yoki butun yer yuzini yalpi elektronlashgan iqtisodiyotga tayyorligini belgilash uchun kiritgan atamasi.

elliptik egi chiziqli kriptotizim

ingl.: cryptosystem with elliptical curves

rus.: криптосистема с эллиптическими кривыми

Sonlar nazariyasining elliptik egi chiziqlar bo'limiga oid matematik apparatga asoslangan kriptotizim.

emitter

ingl.: emitter

rus.: эмитент

Moliya tashkiloti. U plastik kartalar chiqaradi va chiqarilgan kartalardan to'lov vositasi sifatida foydalanish bilan bog'liq moliyaviy majburiyatlar bajarilishini kafolatlash uchun xizmat qiladi.

EMS

qisq.: Electronic Messaging System, Enhanced Messaging Service

Xabarlar almashishining elektron tizimi. SMSga asoslangan xabarlarni jo'natish tizimi. YEMS quydigilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- 1) xabarlar matnini formatlash (qora harflar, kursiv, ayrim so'zlarning ostiga chizish), rasm va logotiplarni almashish: oq-qora, 4 rangli, 64 rangli, 255x255 pikselgacha bo'lgan hajmda; 2) tasvirlar animatsiya qilingan (parametrlari bir xil) va eng oddiy tovush signallari bo'lishi mumkin. YEMS xabari ushbu standartni qo'llab-quvvatlamaydigan telefonga jo'natilgan bo'lsa, uni qabul qilib oluvchi faqat matnni oladi.

emulyatsiya

ingl.: emulation

rus.: эмуляция

Faoliyati boshqa bir obyektning ishidan farqlanmaydigan obyektning yaratilishi. Emulyatsiya obyekti sifatida qurilma yoki dastur bo'lishi mumkin. Emulyatsiyaga mumtoz misol haqiqiy

virtual terminal yaratilishidir. Buning uchun terminalga emulyatsiya jarayonini bajaradigan dastur qo'shib qo'yiladi. Natijada berilgan standart bilan belgilanadigan tavsifnomalari o'zgacha terminal hosil bo'ladi.

eng kam imtiyozlar

ingl.: minimum of privilege

rus.: минимум привилегий

Muhofaza tizimini tashkillashtirishning asosiy tamoyillaridan biri. Unga ko'ra, har bir subyekt o'z oldida qo'yilgan vazifalarни bajarish uchun mumkin bo'lgan eng kam imtiyozlarga ega bo'lishi lozim. Ushbu tamoyilga rioxal qilish yovuz niyat, xato yoki imtiyozlardan ruxsatsiz foydalanish natijasida ro'y berishi mumkin bo'lgan buzishlarning oldini olish imkonini beradi.

EOF

qisq.: End Of File

Fayl oxiri.

EOL

qisq.:

1. End Of Line – Qator oxiri.
2. End Of Life – «Hayot oxiri». Mahsulotning ishlab chiqaruvchi tomonidan chiqarilishi yoki qo'llab-quvvatlanishining to'xtatilishi.

EOM

qisq.: End Of Message

Xabar oxiri.

EOT

qisq.:

1. End Of Transmission – Uzatish oxiri.
2. End Of Tape – Tasma oxiri.
3. End Of Thread – Mulohaza oxiri.

EPIC

qisq.: Explicitly Parallel Instruction Computing

Buyruqlarning oshkora parallelligi bilan hisoblashlar, EPIC texnologiyasi. Mikroprotsessor buyruqlarining shunaqa tizimiki, unda ko'rsatmalar bloklarini parallel bajarilishin oshkora belgilash mumkin. Intel firmasining (Merced loyihasi) Itanium protsessorlarida qo'llaniladi.

EPP

qisq.: Enhanced Parallel Port

Yaxshilangan parallel port, EPP port. SHK va chekka qurilma orasida ma'lumotlarning tezkor almashuvni uchun parallel port spetsifikasiyasi. ECP spetsifikasiyasiga raqobatdosh. Zamona naviy ona platalarini ikkala standartni ham qo'llab-quvvatlaydi.

EPROM

qisq.: Erasable Programmable Read-Only Memory
 O'chiriladigan dasturlashtiriluvchi DXQ, DDXQ.

EPS

qisq.:

1. Encapsulated PostScript – Inkapsulyatsiyalangan PostScript, EPS formati. Choplash uchun mo'ljallangan hujjalarni tavsiflash tili.
2. Electronic Publishing System – Elektron nashriyot tizimi.

epchil disk

ingl.: floppy disk

rus.: гибкий диск

Kompyuter axborotini yozish uchun mo'ljallangan asosi yupqa egiluvchan polimer magnit moddadan plastina shaklida yasalgan magnit disk. Plastina uni changdan saqlash va shikastlanmasligi uchun uning ichki tomonida tozalovchi qoplamasni bo'lgan zinch korpusga joylashtirilgan. Korpusda o'yiq bo'lib, u ma'lumotlarni yozish va o'qish uchun xizmat qiladi. Diskda axborot, konsentrik yo'laklar bo'ylab joylashtiriladi va saqlanadi.

ERD

qisq.: Entity-Relationship Diagram

«Mohiyat-aloqa» chizmasi. Relyatsion ma'lumotlar bazalarini loyihalashtirish uchun qo'llaniladigan grafik notatsiya turi.

ergonomika

ingl.: ergonomics

rus.: эргономика

Muayyan sharoitlarda faoliyat olib borayotgan inson haqidagi fan. Mavjud muammolar to'plamidan dasturchi yoki foydalanuvchi ishchi o'rni ergonomikasi alohida ajratiladi. Uning asosiy vazifasi uzoq vaqt ishslash oqibatida zo'riqishlar holsizlanishlar bilan kurashishdir. Bu masalani yechish terminal yoki abonent tizim bilan ishlayotgan operatorni optimal ravishda joylashtirishdan boshlanadi. Buning uchun quyidagilar zarur:

- ekran ko'zdan 90-120 sm uzoqlikda joylashtirish;
- ekranning yuqori chekkasi pog'onasini peshona balandligi bilan moslashtirish;

- klaviaturani operatorning panjalari va tirsagi gorizontall chiziq hosil qiladigan qilib joylashtirish;
- operator jussasini vertikal tiklash va stulning suyanchig'iga tirash;
- oyoqlarni shunday balandlikda past o'rindiqqa qo'yilsin, operatorning tizza oldilari gorontal holatni qabul qilsin.

erkin foydalanish aynanlovchisi

ingl.: access identifier

rus.: идентификатор доступа

qarang: erkin foydalanish identifikatori

erkin foydalanish huquqi

ingl.: access rules

rus.: право на доступ

Subyekta ma'lum obyektdan ma'lum turdag'i amal uchun erkin foydalanishni olishga ruxsat berish. Masalan, jarayonga faylni o'qish uchun, lekinunga ma'lumot yozmaslik sharti bilan ruxsat berish.

erkin foydalanish identifikatori

ingl.: access identifier

rus.: идентификатор доступа

Subyekt yoki erkin foydalanish obyektingining noyob belgisi.

erkin foydalanish matritsasi

ingl.: access matrix

rus.: матрица доступа

Erkin foydalanishni ajratish huquqlarini aks ettiruvchi jadval. Ushbu jadvalda tizimdag'i har bir obyekta ustun, subyekta esa qator to'g'ri keladi. Matritsaning ustun va qatori kesishgan katagida subyektning obyektdan erkin foydalanish huquqlari ko'rsatiladi.

erkin foydalanish nazorati

ingl.: access auditing

rus.: контроль доступа

1. Talab qilingan muhofazaning modeliga mos keladigan, avtomatlashirilgan tizimming resurslaridan erkin foydalanishni cheklaydigan jarayon.

2. Ma'lumotlarga ishlov berish tizimining resurslariga, ruxsat berilgan tartibda mualliflashgan obyektlar erkin foydalanishlari mumkinligini kafolatlash usullari.

Erkin foydalanishni nazorat qilishning uch usuli ishlataladi. Ulardan birinchisi, filtrlovchi yunaltirgichlarni ishlatishga asoslanadi. Buning

uchun, yunaltirgichlarni dasturiy ta'minotida paketlarni jo'natish va qabul qilish manzillari nuqtai nazaridan, paketlarni tahlil qilish algoritmi amalga oshiriladi. Ikkinchisi, paketlar filtrini ishlatishta asoslangan. Bu holda, muhofazadagi tarmoqdan yoki uning qismidan chegaralaridan chiqib ketuvchi erkin foydalanishlarni o'rnatish taqiqlanadi. Barcha paketlar tekshiruvdan o'tkaziladi, qaysi paketlar o'tkazilishi va qaysilari orqaga qaytarilishi kerakligi aniqlanadi. Uchinchisi, amaliy dasturlarning shluzini ishlatadi. Bu eng mukammal va qimmatbaho muhofazadir. Erkin foydalanishni tekshirish MB da bajariladi, buning uchun unda zarur bo'lgan hamma ma'lumotlar yig'iladi. Erkin foydalanishlar faqat puxta tekshiruvdan keyin o'rnatiladi. Sutka davomida, ishslash mumkin bo'lgan vaqt ham nazorat qilinadi.

erkin foydalanish obyekti

ingl.: *access object*

rus.: *объект доступа*

Avtomatlashtirilgan tizim axborot resursi birligi. U erkin foydalanish, erkin foydalanishni cheklash qoidalariiga binoan tartibga solinadi.

erkin foydalanish pog'onasi

ingl.: *access management*

rus.: *уровень доступа*

Muhofaza qilinayotgan resursdan erkin foydalanish uchun obyektdan talab qilinadigan vakolatlar pog'onasi. Masalan, belgilangan muhofaza pog'onasiga oid ma'lumotlar yoki axborotni olishga vakolatlar.

erkin foydalanish toifasi

ingl.: *category of access*

rus.: *категория доступа*

Obyektga uning resurslariga mos ravishda berilishi mumkin bo'lgan toifa. U obyekt qaysi resurslardan erkin foydalanishga mualliflashganini bildiradi.

erkin foydalanish turi

ingl.: *access type (in computer security)*

rus.: *вид доступа (в защите компьютера)*

Qayta ishslash turi. U erkin foydalanishga bo'lgan huquq bilan belgilanadi. Misollar – o'qish, yozish, bajarish, qo'shish, o'zgartirish, o'chirish, yaratish.

erkin foydalanishga ruxsat

ingl.: *access permission*

rus.: *разрешение на доступ*

Subyektning, biror obyektdan erkin foydalanishga oid barcha huquqlari.

erkin foydalanishni cheklash

ingl.: *access differentiation*

rus.: *разграничение доступа*

Tizim resurslarini ishlatish maromi. Bunda subyektlar o'rnatilgan qoidalarga kat'ian mos ravishda obyektlardan erkin foydalanish huquqiga ega. Erkin foydalanishni cheklash turli modellar bo'yicha, mavzu alomatiga asoslanib qurilgan yoki ishlatishga ruxsat berilgan axborotni maxfiylik grifiga qarab amalga oshirilishi mumkin.

E

erkin foydalanishni cheklash qoidalari

ingl.: *access differentiation rules*

rus.: *правила разграничения доступа*

Erkin foydalanish subyektlarining erkin foydalanish obyektlaridan erkin foydalanish huquqlarini tartibga soluvchi jami qoidalari.

erkin foydalanishni cheklash rejimi

ingl.: *access differentiation mode*

rus.: *режим разграничения доступа*

Shaxslarni texnik vositalar, dasturlar va maxfiy axborotdan erkin foydalanish tartibi. Bu ilgaridan ishlab chiqilib tasdiqlangan qoidalarga mos bo'lib, hisoblash vositalarida ishlov berish uchun zarur.

erkin foydalanishni cheklash tizimi

ingl.: *access differentiation system*

rus.: *система разграничения доступа*

Hisoblash texnikasi vositalari yoki avtomatlashtirilgan tizimlarda amalga oshiriladigan jami erkin foydalanishni cheklash qoidalari.

erkin foydalanishni cheklash vositasi

ingl.: *access differentiation tool*

rus.: *средство разграничения доступа*

Qabul qilingan modelga ko'ra subyektlarning axborot resurslaridan erkin foydalanishini cheklashni ta'minlovchi dasturiy-texnikaviy vosita. Bularga erkin foydalanish matritsasi va maxfiylik belgisi kiradi.

erkin foydalanishning nazorat ro'yxati

ingl.: *control access list*

rus.: *контрольный список доступа*

Resursga mualliflashtirilgan erkin foydalanish obyektlari ro'yxati, unda erkin foydalanish huquqlari ham keltirilgan bo'ladi.

EROM

qisq.: Erasable Read-Only Memory

O'chiriladigan DXQ.

ERP

qisq.: Enterprise Resource Planning

Korxona resurslarini rejalashtirish. Korxonani avtomatlashtirishning to'la tizimi. Korxonaning barcha asosiy biznes jarayonlariga xizmat ko'sratuvchi qo'llanmalarning birlashgan to'plamidan iborat.

ESD

qisq.: Electronic Software Distribution

qarang: dasturiy ta'minotni elektron tarqatish

ESMS

qisq.: Enhanced Short Message Service

Uzoqlashgan qisqa xabarlar xizmati. Uyali radiotelefon aloqasi tarmoqlaridagi xizmat.

ESSID

qisq.: Extended Service Set IDentification

Kengaytirilgan xizmatlar dastasining identifikatsiyasi. Bog'lanishni o'rnatish usuli va tarmoq qurilmalarini identifikatsiya qilishni belgilovchi ma'lumotlarni uzatishning simsiz tarmoqlarining IEEE 802.11 standarti bandlari. ESSID identifikatori tarmoq nomi deb ham ataladi.

Ethernet

Mahalliy kompyuter tarmog'ini tashkil qilish uchun qo'llaniladigan texnologiya. Ethernet texnologiyasi yordamida «yumumi shina» va «yulduz» sxemalari bo'yicha tarmoqlarni yaratish mumkin. Ethernet tarmoqlarida ma'lumotlarni uzatish tezligi 10 Mbit/s gacha bo'ladi. Ethernet standarti IEEE 802.3 hujjati bilan belgilangan.

Ethernet ajrataolunuvchan muhit va keng eshittirishli uzatish tarmoqlari me'moriy tuzilmasini belgilaydi (barcha bog'lamalar paketni bir paytning o'zida qabul qiladi), erkin foydalanish uslubi – CSMA/CD. Jismoniy topologiyasi – ekranlashtirilgan koaksiyal kabel (koaksiyal) uchun shina, o'rama juft uchun yulduz, optik tola kabeli (optik tola) uchun ikki nuqtali ularish.

ETL

qisq.: Extract, Transfer, Load

Chiqarib olish, uzatish, yuklash [ma'lumotlarga tegishli]. To'plangan axborotni mavjud qo'llanmalardan ma'lumotlarni saqlash joyiga ko'chirish tartibotining bosqichlari.

ETSI

qisq.: European Telecommunications Standards Institute

qarang: bank standartlari bo'yicha Yevropa qo'mitasi

EUTELSAT Yevropa tashkiloti

ingl.: EUTELSAT european organization

rus.: европейская организация EUTELSAT

Yo'ldoshli tarmoqqa egalik qiluvchi Yevropa hukumatlararo tashkiloti EUTELSAT. Shtab qarorgohi Parijda joylashgan. U 1977 yilda tashkil qilingan va ayniqsa, 1985 yilning oxirlaridan boshlab shiddat bilan rivojiana boshlagan. Uning vazifasi bo'lib, Yevropada ma'lumotlarni uzatish, yaratish va aloqa yo'ldoshlari asosida keng ko'lamma tarmoq xizmatlarini taqdim etish hisoblanadi. EUTELSAT «rang – barang xizmatli yo'ldosh tizimlar» SMS sinfiga kiradi. U telefoniya, faksimil aloqa, ma'lumot uzatish, radioeshittirish, teleko'rsatuvlar, videomatn, telekonferensiylar va metereologiya vazifalarini, hamda aerosuratlar olish, mobil tizim, dengizdag'i neft «orollari» obyektlarini boshqarish va yangiliklar yig'ishni o'z ichiga oladi.

EUUG

qisq.: European UNIX systems User Group

Yevropa UNIX OT foydalanuvchilari uyushmasi.

EXT

qisq.: EXTerinal

Tashqi.

Ff

faks-apparat

ingl.: *telefax*

rus.: *факс-аппарат*

qarang: [telefaks](#)

faksimil

ingl.: *facsimile*

rus.: *факсимиле*

Tasvir nusxasini ixtiyoriy usul bilan yetarlichcha aniq qayta aks ettirish.

faksimil aloqa

ingl.: *facsimile communications*

rus.: *факсимильная связь*

Qo‘zg‘almas tasvirlarni kommunikatsiya tarmog‘i orqali uzatish texnologiyasi. Faksimil aloqa bir juft faks-apparatlar yordamida telefon tarmog‘i orqali amalga oshiriladi. Uning vazifasi bo‘lib, jo‘natuvchining qog‘oz varaqlardagi hujjalarni qabul qiluvchining qog‘oz varaqlariga uzatish hisoblanadi. Faksimil aloqa sodda, ammo qator kamchiliklarga ega bo‘lib, bularga biringchi galda quyidagilar kiradi:

- ma’lumotlarni xotira qurilmalarida saqlab bo‘imaslik;
- axborotni tahrirlashdagi keskin cheklanishlar;
- kompyuterlar uchun noqulay aloqa (oraliq tashuvchi qog‘oz ishlatalish zaruriyati);
- axborotni noaniq uzatish. Bu qog‘oz va mexanik yuritma ishlatalish bilan bog‘liq,

Bu kamchiliklarni yo‘q etish uchun kompyuterli, tarmoqqa faksimil plata orqali ulanadigan, faksimil tizimlar yaratilgan. Bu tizimlar, bir biriga ulanib, qog‘ozdan foydalanmay hujjalarning aniq nuxsalarini uzatishga qodir. Faksimil aloqa asta-sekin, ma’lumotlarni uzatish imkoniyatlarini kengaytiradigan elektron pochta bilan almashtirilmoqda.

faks-modem

ingl.: *fax modem*

rus.: *факс-модем*

Ichiga, aloqa o‘rnatish, modulyatsiya va tasvirlarni uzatish bo‘yicha faks bayonnomalari o‘rnatilgan modem. Bunday modem odatiy

modemlar (ma’lumotlarni uzatish bayonnomalari vositasida) kabi, faks-mashinalar (tasviri uzatish bayonnomalari orqali) bilan ham ishlay oladi. Odatda, barcha zamonaviy modemlar fakslarni birday yaxshi uzata oladilar. Lekin odatiy fakslardan qolishmasada qabul qilish vazifasini ularning hammasi ham eplay olavermaydi.

F

faks-server

ingl.: *fax-server*

rus.: *факс-сервер*

Faksimil aloqa standartlarida xabarlar uzatishni va qabul qilishni ta’minlaydigan server.

faol giperishorat

ingl.: *active hyperlink*

rus.: *активная гиперссылка*

qarang: [faol gipermurojaat](#)

faol gipermurojaat

ingl.: *active hyperlink*

rus.: *активная гиперссылка*

Bog‘lamaga tashrif buyuruvchi veb-brauzerda tanlanadigan gipermurojaat. Masalan, foydalanuvchi gipermurojaatga bosganda u sichqoncha tugmasini bosish va bo‘shatish orasida o‘tgan vaqt ichida faol bo‘ladi.

faol tahdid

ingl.: *active threat*

rus.: *активная угроза*

Ma’lumotlarga ishlov berish tizimi holatini ruxsatsiz ataylab o‘zgartirish tahdidi. Masalan, xabarlarni o‘zgartirish, qalbaki xabarlarni jo‘natish, maskarad yoki xizmat ko‘rsatishni rad etishga olib keluvchi tahdid.

faol veb bog‘lamasi

ingl.: *active web node*

rus.: *активный веб-узел*

Joriy paytda ochiq veb bog‘lamasi.

faol veb-sahifa

ingl.: *active webpage*

rus.: *активная веб-страница*

Ayni paytda ochiq veb-sahifasi.

faoliyatni ro‘yxatga kiritish

ingl.: *activity registration*

rus.: *регистрация деятельности*

Tizimda erkin foydalinish subyektining yoki jinoyatchining harakatlarni kuzatish.

FAQ

qisq.: Frequently Asked Questions

Tez-tez beriladigan savollar. Sayt foydalanuvchilarining asosiy savollariga bag'ishlangan bo'lim. Sizga nimadir tushunarsiz bo'sa, vebmasterga yozishdan avval FAQni o'qing – balki u yerda javob bordan.

Kengroq ma'noda FAQ – u yoki bu mavzudagi maslahatlar to'plami, masalan, idish yuvish mashinasini tanlash yoki printerni sozlash bo'yicha.

farq belgisi*ingl.: label**rus.: метка*

Farqlovchi belgi. Informatikada belgilari quyidagilarni aniqlash maqsadida qo'llaniladi:

- dastur va qurilmalarda – ularning tarkibiy qismrlari yoki elementlari;
- ma'lumotlar bloki, fayl, maydon, ma'lumotlar elementi, gap, ibora, so'zning boshi yoki oxiri;
- tanlangan menu elementi;
- dasturning turli qismalarida ishlataladigan operator;
- xotira qurilmasi yoki uning qismi;
- elektron jadvalning bir guruh kataklari;
- to'plamdag'i buyruq.

Farq belgilarini dasturlovchilar ham, foydalanuvchilar ham yaratadi va qo'llaydilar. Farq belgilari ekranda ko'rindigan yoki foydalanuvchilardan yashirilgan bo'lishi mumkin.

Fast Ethernet

Axborotni uzatish tezligi 100 Mbit/s gacha bo'lgan Ethernet texnologiyasi.

FAT*qisq.: File Allocation Table*

1. FAT fayl tizimi. Fayllarni joylashtirish jadvali (FAT)ga asoslangan oddiy disk fayl tizimi. FAT-32 fayl tizimining paydo bo'lishi bilan FAT FAT-16 deb belgilana boshladи.
2. Fayllarni joylashtirish jadvali. Fayl tizimining disk joyining taqsimlanishi to'g'risidagi axborot saqlanuvchi xizmat sohasi.

fayl*ingl.: file**rus.: файл*

Yagona yaxlit deb qaraladigan ma'lumotlar yoki dasturlar majmuasi. Fayl o'z nomiga ega

bo'lgan va tizimda saqlanadigan ma'lumotlarning asosiy elementi bo'lgan obyektdir. Foydalanuvchi faylni yaratishi, tahrirlashi, bir qurilmadan boshqasiga jo'natishi va yo'q qilishi mumkin. Har bir fayl atributlar va undagi axborotdan iborat. Faylning atributlariga, birinchi navbatda, uning ismi, axborot turi, yaratilish kuni va vaqt, undan erkin foydalanish usuli, uni ishlatalishga ruxsat berish shartlari kiradi. Faylni kuzatib borish muhim tushunchalardandir. U davriy zahira nusxalarini yaratishni va faylni samaraliroq izlash imkonini beradigan tarzda tashkil qilishni nazarda tutadi. Matn, grafik va tovush fayllari ajratiladi.

fayl ismi kengaytmasi*ingl.: file name extension**rus.: расширение имени файла*

Nuqtadan keyin joylashadigan, fayl ismining bir qismi. Masalan, «def.exe» fayl ismidagi «exe» qismi kengaytma bo'lib hisoblanadi. Kengaytma, fayllar oilasini belgilash uchun ishlataladi. Odatda operatsion tizim, kengaytmaga qarab fayl bilan nima qilish mumkinligini bilib oladi.

Masalan:

BAS – BASIC tilidagi fayl

BAT – ishga tushirilayotgan buyruq fayli

COM – tushirilayotgan DOS fayli

DAT – matn fayli

DOC – MS Word formatidagi fayl

ERR – xatolarni yozuv fayli

EXE – tushirilayotgan fayl

GIF – grafik fayl

HLP – yordam fayli

HTM – Internetda ishlataladigan HTML formatidagi fayl

INI – initsializatsiya fayli

OVL – overlay fayli

PS – Postscript formatidagi fayl

RAR – arxiv fayli

SYS – operatsionnoy tizim fayli

XLS – MS Excel formatidagi fayl

ZIP – arxiv fayli

fayl ombori*ingl.: file store**rus.: файлохранилище*

Fayllar to'plamini saqlayotgan ma'lumotlar bazasidagi xotira.

fayl serveri

ingl.: *file server*

rus.: *файловый сервер*

1. Mahalliy tarmoqdagi ko‘p sonli foydalanuvchilar uchun fayllarini boshqarish va saqlash funksiyalarini ta’minlaydi. U apparat va dasturiy vositalar majmuasi. Bu maqsad uchun eng ommaviy dasturiy ta’mintolarga Microsoft va Novell kompaniyalarining mahsulotlari kiradi. Fayllarni fayl serverida saqlash bir faylning nusxalar to‘plamini ayrim kompyuterlarda saqlash zaruriyatidan halos qiladi. Bu bilan disk makoni tejaladi, fayllarni ma’murlash va yangilash jarayoni yengillashadi hamda fayllarni muhofazalash ishonchhliligi oshadi.
2. Tarqoq resurslarni, shu jumladan, fayllar, dasturiy ta’minti va ma’lumotlar bazalari faoliyatini ta’minlovchi server.

fayl turlari

ingl.: *file types*

rus.: *типы файлов*

Bir xil tuzilmaga ega bo‘lgan fayllar guruhi. Aksariyat hollarda fayllar turlari kengaytmalariga, fayl ismining nuqtadan keyin joylashgan qismiga qarab farqlanadi. Masalan, «def.exe» fayl ismida «exe» qismi kengaytma hisoblanadi. Operatsion tizim kengaytmaga qarab fayl bilan nima qilish mumkinligini bilib oladi.

fayl virusi

ingl.: *file virus*

rus.: *файловый вирус*

O‘z ko‘payish jarayonida u yoki bu usul asosida, biror bir operatsion tizimning (yoki tizimlarning) fayl tizimini ishlataligan virus. Amalda, fayl virusi barcha ommaviy operatsion tizimlarning bajarilayotgan hamma fayllariga yuqishi mumkin. Dasturning dastlabki matnini, kutubxona yoki obyektni modullarni o‘z ichiga olgan fayllarni ham zaharlaydigan viruslar mavjud. Virus, ma’lumotlar fayliga ham yozilishi mumkin. Biroq, bu yo virusning xatosi tufayli, yo uning tajovuzkorligini namoyon bo‘lishi oqibatidir. Makro-viruslar ham, o‘zlarining kodlarini ma’lumotlar fayllariga, hujjatlar yoki elektron jadvallarga, yozib qo‘yadilar, ammo bunday viruslar maxsus alomatga ega bo‘lib, alohida guruh hosil qiladilar.

fayl-server

ingl.: *file-server*

rus.: *файл-сервер*

qarang: fayl serveri

faza

ingl.: *phase*

rus.: *фаза*

1. Seans o’tkazish davrida ma’lumotlarning uzatish jarayonini rivojlanishidagi holatni aniqlaydi. Seans o’tkazishda to’rt fazani ajratishadi:
 - seansni o’rnatish;
 - ma’lumotlarni ifodalash shaklini boshqarish fazasi;
 - ma’lumotlarni uzatish;
 - seansning yakunlanishi.
2. Biror narsaning shakli yoki holati, harakati o‘zgarishidagi ma’lum bir payt, davr. Masalan, mayatnik tebranish fazasi.
3. Elektr generatori o’ramasining ayrim guruhi, shularga ulangan simlar.

faza modulyatsiyasi

ingl.: *phase modulation*

rus.: *фазовая модуляция*

Modulyatsiya uslubi. Bunda signal «nol»dan «bir»ga va «bir»dan «nol»ga o‘zgarganda sinussimon tashuvchini fazasi 180 gradusga o‘zgaradi. Yuqori tezlikli modemlarda qo‘llanadi.

FC

qisq.: *Fibre Channel*

Optik-tola kanali, Fibre Channel standarti. Ma’lumotlarni optik tolasi orqali uzatish uchun ANSI standarti.

FCC

qisq.: *Federal Communication Commission*

AQSH Federal aloqa hayati. AQSHning xohlagan elektron apparaturasini uning nurlanishining insonlarga va/yoki boshqa elektron texnikasiga xavfifilik sinfi bo‘yicha sertifikatlashtiruvchi tashkiloti. Ushbu tashkilot tomonidan sertifikatlarning ikkita turi beriladi – FCC-Class A – faqat kasbiy foydalanish uchun ruxsat etilgan va FCC-Class B – xohlagan joyda foydalaniishi mumkin.

FD

qisq.: *floppy disk*

qarang: epchil disk

FDC

qisq.: Floppy Disk Controller

Egiluvchan magnit disklarda jamlovchi nazoratchisi.

FDD

qisq.:

1. Floppy Disk Drive – Egiluvchan magnit disklardagi jamlovchi, EMDJ.
2. Frequency Division Duplex – Chastota bo'yicha ajratish bilan dupleks uzatish.

FDDI

qisq.: Fiber Distributed Data Interface

Optik tola orqali taqsimlangan ma'lumotlardan erkin foydalanish uchun interfeys, FDDI standarti. Optik toladan foydalangan holda yuqori tezlikli mahalliy tarmoqlarni qurish standarti.

FDMA

qisq.: Frequency Division Multiple Access

qarang: chastotani taqsimlash bilan ko'p tomonidan erkin foydalanish

Feystel shifri

ingl.: Feistel's cipher

rus.: шифр Фейстеля

Takrorlanadigan blokli shifrning maxsus sinfi. Unda shifr - matn ochiq matn asosida aylanib o'tish vazifasini takror qo'llash hisoblanadi. Ayrim hollarda Feystel shifrini DES kabi shifr deb atashadi. Ishlov berilayotgan matn ikki qismga bo'linadi va aylanib o'tish vazifasi qo'shimcha kalitni birinchi qismga qo'llanadi. Aylanib o'tish vazifasini qo'llashning natijasi ikinchi qism bilan 2 moduli (XOR amali) bo'yicha qo'shiladi. So'ngra, ikkala bo'lak o'zaro almashib jarayon takrorlanadi.

FFT

qisq.: Fast Fourier Transform

Furye tez o'zgartirishi, FTO'. Signallarga ishlov berishda qo'llanadi.

FH

qisq.: Frequency Hopping

Chastotaning sakrashsimon o'zgarishi.

FHMA

qisq.: Frequency Hopping Multiple Access

Chastotaning sakrashsimon o'zgarishi bilan ko'ptomonlama erkin foydalanish, FHMA texnologiyasi.

FHSS

qisq.: Frequency Hopping Spread Spectrum

Spektrni chastotaning sakrashsimon o'zgarishi orqali kengaytirish, FHSS texnologiyasi.

FIDO

qisq.: FIDOnet

(shuningdek Fido) FIDO kompyuter tarmog'i. Notijorat global kompyuter tarmog'i, 1984 yilda yaratilgan.

FIFO

qisq.: First Input First Output

Birinchi bo'lib kirdi, birinchi bo'lib chiqdi. Bu degani avval yozilgan (ya'ni, kirgan) ma'lumotlar undan so'ng yangi ma'lumotlar kiritilganda old tomonga siljishini nazarda tutuvchi xotirani tashkillashtirish usuli. Odatda bunday tashkil etilgan xotira ma'lumotlarni qabul qilish-uzatish paytida bufer xotirasi sifatida qo'llaniladi.

filtr

ingl.: filter

rus.: фильтр

1. Filtrlashni bajarish uchun ishlataladigan qurilma (sodda elektrik sxema) yoki dastur. Filtr kirishdagi signallar yoki ma'lumotlar oqimini bir necha kerakli qismlarga bo'ladi.
2. Muayyan turdag'i erkin foydalanish ma'lumotlarini qabul qilib, unga ishlov berib, so'ngra chiqarib beruvchi dastur. Masalan, saralash dasturi filtrdir. U saralamagan shaklda so'zlarni qabul qiladi, so'ngra ularni saralaydi va foydalanuvchiga saralangan ko'rinishda beradi. Gohida, filtr deganda, tashqi dasturlardan ma'lumotlarni import - eksport qilish vositalari ham tushuniladi.
3. Ma'lumotlarni tanlab olish sharti. Filtr faqat berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi ma'lumotlarni chiqarib beradi.
4. Grafik muharrirlarda, tasvirga tatbiq qilish mumkin bo'lgan zo'r hodisa filtrdir. Ayrim shunday filtrlar, tasvirni tanib bo'lmaydigan darajagacha o'zgartirish yuborishi mumkin.
5. Pochta mijoziga ko'rsatmalar. Ularning vazifasi – xabarlarni avtomatik tarzda saralash. Tarkibiga xabarlarni ajratish qoidalari va

ajratilgan xabarlar bilan bajariladigan harakatlar kiradi. Gohida filtrlarni xabarlar uchun qoidalar deb ham ataladi.

filtrlash

ingl.: *filtering*

rus.: *фильтрация*

Signallarni yoki ma'lumotlarni umumiyligini oqimidan kerakli mezonlarga ega bo'lganlarini ajratib qo'yish jarayoni. Filtrlash filtr yordamida amalga oshiriladi.

firma markasi

ingl.: *TradeMark (TM)*

rus.: *фирменная марка*

qarang: savdo markasi

Flash texnologiyasi

ingl.: *Flash technology*

rus.: *технология Flash*

Brauzerdan mustaqil va aloqa kanalining ixtiyoriy kengligi quvvatlaydigan vektorli grafika va animatsiya texnologiyasi. Flash animatsiyasini namoyish qilish uchun brauzer kerakli plug-in bilan jihozlangan bo'lishi zarur. Macromedia Inc. kompaniyasi 1997 yilda ishlab chiqaruvchi kompaniyani sotib olmaguncha, Flash texnologiyasi FutureSplash sifatida ma'lum edi.

flesh

ingl.: *flash*

rus.: *флэш*

Macromedia Flash – tarmoqda, o'zaro faol vektorli grafikani va animatsiyani yaratish imkonini beradigan dastur. Veb-dizaynerlar Flash ni turli tugmachalarni, aylantirish chizg'ichlarini, menyuni, animatsiyalashgan logoturlarni va boshqa elementlarni, shu jumladan tovushni, yaratish uchun ishlatalardilar. Flash fayllari ixcham va tez yuklanadi (oqim (streaming) texnologiyasi ishlataladi).

flesh-xotira

ingl.: *flash memory*

rus.: *флэш-память*

Ma'lumotlar butun bloklab o'chiriladigan va qayta yoziladigan maxsus xotira qurilmasi. Flesh-xotira qurilmasi yarim o'tazgichlar texnologiyasi asosida yaratiladi. Ular disk va tasmalardan farqli o'laroq, darhol ishga tayyor turadilar, kamroq energiya sarflaydilar, lekin ancha qimmat. Zamonaviy kompyuterlarning

ko'pchiligi o'zlarining BIOS larini flesh-xotirada saqlaydilar, bunda ularni yangilab turish osonlashadi. Bunday BIOS larni flesh BIOS deb ataladi. Flesh-xotira modemlarda ham ommaviy ishlatilmoqda. U yangi bayonnomalarni standartlashtirilgani sari modem ishlab chiqaruvchilarni quvvatlashni ta'minlashda davom etmoqda.

FLOPS

qisq.: *Floating-point Operations Per Second*

Soniyada suzuvchi nuqtali amallar [soni]. Hisoblash tizimlarining ish samaraliligi o'lcovchi. Odatda hosislaviy birliklarda o'chanadi: MFLOPS, GFLOPS, TFLOPS.

FM

qisq.: *Frequency Modulation*

Chastota modulyatsiyasi, CHM.

fon rejimi

ingl.: *background mode*

rus.: *фоновый режим*

Kompyuter faqatgina, haqiqiy vaqt maromida ishlanadigan vazifalardan bo'sh bo'lganda, amaliy jarayonlar bajaruvchi texnologiya. Fon maromida quyi prioritetga ega amaliy dasturlar bajariladi. Bu, yuqori prioritetti dasturlar uchun o'zaro faol maromda, bunga zarur bo'lgan resurslar ishlatilmaganda yuz beradi.

Fon maromida xuddi shunday yordamchi amallar ham bajariladi. Masalan, hujjatni printerda chompson. Ko'rilyotgan maromida ko'p masalali operatsion tizimlar bilan quvvatlanadi. Fon maromida mavjud resurslarni samarali ishlatish imkonini beradi.

fon tovush yozuvi

ingl.: *background sound*

rus.: *фоновая звукозапись*

Veb-sahifa bilan bog'langan tovush yozuvi fayli. Foydalanuvchi veb-sharhlovchisini ochganda tovush yozuvi fayli uzluksiy yoki veb-sahifaning kodida ko'rsatilgan marotaba eshittiriladi.

format

ingl.: *format*

rus.: *формат*

Axborot obyektining tuzilmasi. Format, ma'lumotlarni turli obyektlarda, ya'ni, jadvallarda, MB da, printerlarda, ma'lumotlar bloklarida joylashish va ifodalanish usullarini

format o'zgartirish

belgilaydi. Manzillar, kodlar, buyruqlar, sahifalar, qatorlar va h.k. larning formatlarini ajratadilar. Kompyuter bilan bog'liq barcha tushunchalar o'zining formatiga egadir.

format o'zgartirish

ingl.: *format converting*

rus.: *конвертирование форматов*

Ma'lumotlarni bir formatdan boshqasiga, o'zga tizim qabul qila oladigan formatga (odatda, ma'lumotlar eksportida va importida), o'zgartirish.

formatlash

ingl.: *formatting*

rus.: *форматирование*

1. Xotira qurilmasini, odatda diskni yozishga va o'qishga tayyorlash. Diskni formatlashda, operatsion tizim diskda joylashgan barcha axborotni o'chiradi, diskni hamma sohalarining ishonchliligini tekshiradi, yaroqsiz sohalarni belgilaydi va manzillar jadvalini yaratadi. Bular, keyinchalik diskdagи axborotni topish uchun ishlataladi.

2. Tanlangan formatga monand bajarilayotgan harakat. Maxsus dasturlar yordamida bajariladi. Masalan, matnni formatlash, uni saqlash, uzatish, choplash yoki ekranga yoki printerga chiqariladigan ko'rinishga keltirishdir. Bu jarayonga sarlavhalar va xat boshlarini shakllantirish, qatorlarni o'ng tarafdan tekislash, sahifalarga bo'lish kiradi.

FORTRAN tili

ingl.: *FORTRAN language*

rus.: *язык FORTRAN*

Eng eski yuqori pog'onadagi dasturlash tili. Ilmiy hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan dasturlash tili. «Formulalarni o'girish» tili FORTRAN (FORmula TRANslator), 1956 yili John Backus tomonidan IBM korporatsiyasi uchun ishlab chiqilgan. Tilda arifmetik amallar, tarvaqaylagan mantiqiy masalalar, ro'yxat shakllarini tuzish, iqtisodiy hisob-kitoblar yengillik bilan bajariladi. Fortran tili hozirgacha mustahkam o'rinni egallab kelmoqda. Chunki u azaldan ma'lumotlarga matematik ishllov berish uchun mo'ljallangan. Zero, inson faoliyatining bu sohasida asosiy hisoblash algoritmlari 50 yil avval qanday bo'lsa, shundayligicha qolganligidadir. FORTRAN tilining eng ommaviylashgan rusumlaridan ikkitasi

FORTRAN IV va FORTRAN 77 bo'ladi. 1992 yili uchinchi rusum FORTRAN 90 tasdiqlandi. Unda ko'pgina yangi elementlar paydo bo'lди, turli maslaklar bilan uyg'unlik ta'minlandi, matritsalar ustida amallar qo'shildi. Aynanlash avvaldagi olti belgi o'rniga 31 belgi bilan bajariladi.

forum

ingl.: *forum*

rus.: *форум*

Saytda suhabtlashish uchun uskuna. Forumdagi xabarlar pochta xabarlariga nimasi bilandir o'xshash, ularning har biri muallifga, mavzuga va xususiy mazmunga ega. Ammo xabarni forumga yuborish uchun hech qanday qo'shimcha dastur kerak emas, shunchaki saytda tegishli shaklni to'ldirish kifoya. Forumning tamoyili xossasi shundaki, undagi xabarlar tredlarga (inglizcha, thread - «ip») birlashtiriladi. Siz forumda kimningdir xabariга javob bersangiz, sizning javobingiz birlamchi xabarga «bog'lanadi». Shunday javoblar, javoblarga yana javoblar ketma-ketligi tredni hosil qiladi. Natijada, forum tredlardan tashkil topgan daraxtsimon tuzilmaga ega bo'ladi. Forum egasi undagi intizom qoidalarini belgilaydi va zarur bo'lganda uni boshqarib turadi. Chatlardan farqli o'laroq, forumga yuborilgan xabarlar cheklanmagan uzoq muddatda saqlanishi mumkin, javob ham savol paydo bo'lgan kunda yuborilmasligi mumkin. Forumning xususiy holi- Internetdagi matbuot konferensiysi, unda forum, sayt foydalanuvchilari suhbatni taklif qilingan mehmonlar bilan tashkillashtiriladi. Forum, foydalanuvchi turli fayllarni (dasturlar, drayverlar, matnlar, matbuot-relizlar, va h.k.) tortib olishi mumkin bo'lgan kutubxonani ham o'z ichiga olishi mumkin. Dasturiy va apparat ta'minotlari ishlab chiqaruvchilarining ko'pchiligi bunday forumlarni, o'z mijozlariga yordam beradigan yetarlicha samarali va arzon vosita sifatida qo'llaydilar.

FOSSIL

qisq.: *Fido/Opus/Seadog Standard Interface Level*

Dravyverning ketma-ket port bilan ishlash interfeysi.

fotodiод

ingl.: *photodiode*

rus.: фотодиод

Optik nurlanishning qabul qiluvchisi bo'lmish yarim o'tkazgich.

fotoelement

ingl.: photocell

rus.: фотоэлемент

Yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga o'zgartiruvchi yorug'lik qabul qiluvchisi. Yarim o'tkazgichli va elektrovakuumli fotoelementlarni farqlanadi.

fotokamera

ingl.: photocamera

rus.: фотокамера

Harakatsiz tasvirlarni xotira qurilmasiga yozish uchun mo'ljallangan qurilma.

fotolitografiya

ingl.: photolithography

rus.: фотолитография

Integral mikrosxemalarni yaratishda ishlataladigan rasmni lazer yordamida shakllantirish usuli.

foydanuvchi

ingl.: user

rus.: пользователь

Ma'lumotlarga ishlov berish tizimiga buyruq yoki xabarlar beruvchi yoki axborotga ishlov berish tizimidan xabar qabul qiluvchi har qanday shaxs yoki obyekt.

foydanuvchi aynanlovchisi

ingl.: user identifier

rus.: идентификатор пользователя

qarang: foydanuvchi identifikatori

foydanuvchi identifikatori

ingl.: user identifier

rus.: идентификатор пользователя

Foydanuvchini aynanlash uchun ma'lumotlarga ishlov berish tizimi tomonidan ishlataluvchi belgilari ketma-ketligi yoki tasvir.

foydanuvchi terminali

ingl.: user terminal

rus.: терминал пользователя

Kompyuter bilan o'zaro ishslash imkoniyatini beradigan terminal.

foydanuvchini ro'yxatga kiritish

ingl.: user registration

rus.: регистрация пользователя

Foydalanuvchi tizimdan erkin foydalanish ruxsatini olishida o'z identifikatsiya kodini va parolini bildirgan holda tizimga kiranini hisobga olish.

foydanuvchining tizimdan erkin foydalasnish

ingl.: system user access

rus.: пользовательский вход в систему

Ko'p foydalanuvchili tizimga nisbatan jami foydalanuvchi jami huquqlari. Erkin foydalanish uchun o'z ismi, paroli, uy katalogi va h.k. mavjudligi nazarda tutiladi.

FPGA

qisq.: Field Programmable Gate Array

Dasturlashtiriladigan ventil matriksasi.

fps

qisq.: Frames Per Second

Soniyada kadrlar [soni].

FR

qisq.: Frame Relay

Kadrlarni qayta uzatish, Frame Relay texnologiyasi. O'zgaruvchan uzunlikdagi kadrlar shaklidagi ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi.

FRAD

qisq.: Frame Relay Access Device

Frame Relay tarmog'idagi qurilma.

freym

ingl.: frame

rus.: фрейм

1. Grafik va nashriy ishlanmalarda – matn yoki tasvir joylashtiriladigan to'g'ri burchakli maydoncha.

2. Aloqada – uzatilayotgan axborot paketi.

3. Video va animatsiyada – tasvirlar ketma-ketligidagi tasvirlardan biri.

4. HTML tilida – teg, ekranда bir necha mustaqil sohalarni shunday ajratib beradiki, ularni har biriga o'zining veb-sahifasini yuklash imkonii bo'ladi. Odatta, foydalanuvchi ekranining qaydlangan yerida logoturini yoki navigatori joylashtirish uchun ishlatalidi.

FrontPage server kengaytmalari

ingl.: Frontpage server extensions

rus.: серверные расширения FrontPage

Microsoft FrontPageda sahifalarni yaratishni qo'llab-quvvatlovchi va veb-serverning

funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi dastur va ssenariylar to'plami. FrontPage server kengaytmalaridan IIS xizmatlari va Windows boshqaruvi ostida ishlovchi boshqa web-serverlar, shuningdek UNIX boshqaruvi ostida ishlovchi web-serverlar ham foydalanishi mumkin.

FSF

qisq.: Free Software Foundation
Bepul dasturiy ta'minoti fondi.

FTN

qisq.: File Transfer Network
Fayllarni uzatish tarmog'i.

FTP

qisq.: File Transfer Protocol

Fayllarni uzatish bayonnomasi hamda uni amalga oshiruvchi dastur. Bayonnomma fayllarni TCP/IP asosida tarmoqdan, jumladan Internetdan ham foydalanuvchi kompyuterlar orasida fayllar uzatish uchun ishlab chiqilgan. Bioror axborotdan FTP yordamida erkin foydalanish amalga oshirilayotgan kompyuterda FTP mijoz, boshqa kompyuterda esa FTP serveri o'maitilgan bo'lishi lozim. WEB amaliyotida FTP orqali erkin foydalanish odatda provayder serverida joylashgan WEB sayt sahifalarini o'qish uchun ishlatiladi. Bayonnomma shifrlanmaydi, mualliflash paytida login va parol ochiq matn sifatida uzatiladi. Sniffer yordamida ularni osonlik bilan «tutib olish» mumkin. Ushbu usul tarmoqning bitta qismida joylashganda yaroqlidir. Maxsus dasturlar yordamida uzatiladigan fayllarni mualliflash bo'lmasa tutib olish mumkin. Traffikni tutib olishdan muhofaza qilish uchun SSHdan foydalanish mumkin.

FTPD

qisq.: File Transfer Protocol Daemon
Fayllarni uzatish bayonnomasining demoni. FTP serveri vazifalarini bajaruvchi «demon» dasturi (servisi).

FTPdan yashirin erkin foydalanish

ingl.: anonymous FTP-access

rus.: анонимный доступ FTP

FTP (File Transfer Protocol) bayonnomasi orqali uzoqlashgan kompyuterdan qayd yozuvisiz erkin foydalanish mumkinligi. Yashirin FTPdan erkin foydalanish paytida

foydanuvchilar cheklangan huquqlarga ega bo'lib, odatda uzoqlashgan kompyuterda fayllarni faqt hisoblash, ko'rish va fayllarni katalogga ko'chirish va katalogdan olish uchun cheklangan huquqlarni oladi. Xavfsizlik maqsadlarida ko'pincha FTP bog'lamalarda yashirin erkin foydalanishga ruxsat berilmaydi.

Fujitsu konserni

ingl.: Fujitsu concern
rus.: концерн Fujitsu

Yaponiyaning yuqori samarali axborot tizimlarini yaratish bilan shug'ullanuvchi konserni. Dunyoda eng katta apparatlari ta'minotni ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lib, vektorli parallel texnologiya sohasida tadqiqtolar olib boradi, superkompyuterlar, baza kompyuterlari va korporativ shaxsiy kompyuterlar seriyalarini ishlab chiqaradi.

funksional blok

ingl.: functional unit

rus.: функциональный блок

Yechilayotgan vazifaning aniq qismini bajarayotgan qurilma yoki dastur. Axborot tarmoqlarining arxitekturasida, bayonnomani amalga oshiradigan va kerakli xizmatlarni ta'minlaydigan funksional blok tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Funksional blok algoritm bilan tavsiflanadi. Algoritm, ma'lumotlarga ishlov berish, ularni saqlash yoki uzatish bilan bog'liq jarayonlarni belgilab beradi.

funksional ixtisos

ingl.: functional profile
rus.: функциональный профиль
qarang: funksional profil

funksional nimtizim

ingl.: functional subsystem

rus.: функциональная подсистема

Avtomatlashtirilgan tizimning bir yoki bir necha, bir biriga yaqin vazifalarini amalga oshiruvchi tarkibiy qismi.

funksional profil

ingl.: functional profile

rus.: функциональный профиль

Aniq doiradagi ma'lumotlarga ishlov berish va ularni uzatish vazifalariga mo'ljallangan o'zaro bog'langan bayonnomalar shajerasi. ISO va ITU hujjatlarida tarmoq xizmatlarining keng

ko'lami belgilangan, bu ko'lam hamon kengaymoqda. O'zaro ishlash sohasining barcha yetti pog'onalariga tegishli ko'pdan ko'p standartlar chiqarilgan. Ta'kidlangan hamma standartlar epchil va har hil. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchilar o'zlarining standartlarini ishlatalishlari va ularni o'zaro ishlash sohasiga birlashtirishlari mumkin. Barcha standartlarni amalga oshirish mumkin emas, balki bunga zarurat ham yo'qdir. Shu sababli, yuzaga kelayotgan masalalarni yechish uchun tarmoq xizmatlari va ularni belgilaydigan standartlar to'plami tanlab olinadi. Natijada, funksional profillar yaratiladi. Funksional maslaklarning xilma xil turlari mavjud. Ishlatilayotgan o'zaro ishlash sohasini pog'onalariga qarab, to'la funksional profillar, chala funksional profillar va asosiy funksional profillar farqlanadi. Turli xildagi bayonnomalar yig'masi ishlatilishi munosabati bilan, ko'pshtabelli profillar taboro keng tarqalmoqda.

Gg

G2

G2 tizimi. Gensym firmasining voqeiy vaqt bilimdon tizimi.

GA

qisq.:

1. General Availability – Umumiy erkin foydalanish. Maslaan, dasturiy mahsuolning oxirgi nus’hasini chop etish.
2. Genetic Algorithm – Genetik algoritm. Masala yechimini biologik mavjudotlar populyatsiyasining kelib chiqish va taraqqiyot jarayonlariga taqlid qilish orqali topish algoritmi.

GAAP

qisq.: General Accepted Accounting Principles

Hisob-kitobning umumiy qabul qilingan tamoillari. AQSH va ba’zi boshqa mamlakatlarda hisob-kitob standarti.

Gabidulin kriptotizimi

ingl.: Gabidullin’s cryptosystem

rus.: криптомисима Габидуллина

Xatolarni rangli metrikada tuzatib, kodlarga asoslangan kriptotizim. 1992 yili E.M. Gabidulin taklif qilgan.

GAL

qisq.: Generic Array Logic

Namunali matriitsa mantig’i.

gammalash

ingl.: gamming

rus.: гаммированиe

Dastlaki (ochiq) matnni ma'lum algoritm bo'yicha shifr gammasi bilan qoplash. Xorijda «gammalash» atamasining sinonimi «oqim shifri» bo'ladı.

GAP

qisq.: Generic Access Profile

Namunaviy erkin foydalanish yo'nalishi.

gap poylash

ingl.: listening

rus.: прослушивание

Axborot tashuvchi to'lqinlarni ruxsatsiz tutib olish.

GB

qisq.: GigaByte

Gigabayt.

Gbit

qisq.: Gigabit

Gigabit.

GC

qisq.:

1. Garbage Collection – Axlat tozalash. Amalga oshiruvchi muhitning boshqa ishlatalmaydigan xotira bloklarini izlash va ularni taqsimlash uchun erkin bo'lgan bloklar to'plamiga qaytarishdan iborat bo'lgan vazifasi.
2. Garbage Collector – Axlat tozalovchi. Amalga oshiruvchi muhitning axlat tozalashni bajaruvchi funksional bloki.

GDI

qisq.: Graphic Device Interface

Grafik qurilma interfeysi. Microsoft Windowsda axborotni grafik shaklda chiqarish uchun standart API.

General Electric korporatsiyasi

ingl.: General Electric corporation

rus.: корпорация General Electric

Elektr va elektron mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kompaniya. Kompaniya AQSHda 1867 yilda yaratilgan. General Electric kompaniyasining birinchi mahsuloti elektr chiroqlari bo'lgan. Hozirgi paytda General Electric yo'ldosh tarmoqlarining tarkibiy qismi, mobil tizimlar uchun telefon apparatlarini ishlab chiqaradi.

generator

ingl.: generator

rus.: генератор

1. Mekanik energiyani elektr energiyasiga aylantirib beruvchi qurilma.
2. Muttasil signal chiqaradigan qurilma. Yana qaralsin: kalitlar oqimi generatori, kalitlar generatori, tasodifly sonlar generatori.

geoaxborot texnologiyalari (GAT texnologiyalari)

ingl.: geographic information technologies (GIS technologies)

rus.: геоинформационные технологии (ГИС технологии)

GAT ning funksional imkoniyatlarini ro'yogba chiqarishga imkon beradigan geografik axborot tizimi yaratishning texnologik asosi.

geografik axborot tizimi (GAT)

ingl.: Geographic Information System (GIS)

rus.: географическая информационная система (ГИС)

1. Axborot tizimi. U elektron geografik xaritalarni va ularga tegishli fazoviy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish, aks ettirish, tarqatish va undan erkin foydalanishni ta'minlash uchun mo'ljallangan. Geografik axborot tizimi fazoviy obyektlar va ular shaklining raqamli aksiga oid (vektorli, rastrlki, kvadrotomik va o'zgacha) ma'lumotlarga ishlov berish uchun o'z vazifalariga mos funksional imkoniyatlarga ega.
2. GATning dasturiy vositasi uning funksional imkoniyatlarini amalga oshiruvchi dasturiy mahsulotdir.

geoinformatika

ingl.: geoinformatics

rus.: геоинформатика

Ilmiy, texnologik va ishlab chiqarish faoliyati. U amaliy yoki geoilmiy maqsadlarda ilmiy asoslash, loyihalash, yaratish, ekspluatatsiya qilish va geografik axborot tizimlaridan foydalanish, geoaxborot texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliy jihatlar yoki GAT qo'llanmalari bilan shug'ullanadi.

geomatika

ingl.: geomatics

rus.: геоматика

1. Axborot texnologiyalari, multimedia va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish yo'nalishi. Ma'lumotlarga ishlov berish, geotizimlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan xaritaga olish mazkur ilmiy yo'nalishning asosiy vazifasidir.
2. Geoinformatika yoki geoaxborotlashgan xaritaga olish atamalarining sinonimi sifatida ham ishlatiladigan atama.

geterogen tarmoq

ingl.: heterogeneous network

rus.: гетерогенная сеть

Turli ishlab chiqaruvchilarning tizimlari har xil bayonnomalar asosida ishlashini ta'minlaydigan axborot tarmoq'i.

geytvey

ingl.: gateway page

rus.: вэйтвей

Ko'p sonli murojaatlardan tashkil topgan veb-sahifa.

G

GFLOPS

qisq.: GigaFLOPS

Milliard FLOPS.

GGP

qisq.: Gateway-Gateway Protocol

Shluzlararo bayonnomasi.

GGSN

qisq.: Gateway GPRS Support Node

GPRS shluzini qo'llab-quvvatlash bog'lamasi. GPRS tarmog'ining ma'lumotlarni paketli uzatish tarmoqlari (TCP/IP, X.25) bilan aloqasini ta'minlaydi.

GHz

qisq.: GigaHertz

Gigagers. Chastota o'lchashning fizikaviy miqdori (milliard Gers).

gibrider ekran

ingl.: hybrid screen

rus.: гибридный экран

Ma'lumolarni ham chiqarishni, ham kiritishni ta'minlovchi ekran. Gibrider ekran maxsus jarayonlarda masalan, dispetcherlar, sotuvchilar, bank xizmatchilari bajaradigan ixtisoslashgan jarayonlarda alohida katta ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalar orasida quyidagi ikki tamoyil ko'proq ishlatiladi. Sig'imiли tamoyilda, foydalanuvchining qo'l barmog'i ekrange chiqarilgan tasvir detallariga tegishi bilan ma'lumot kiritish yuz beradi. Buning uchun, suyuq kristalli indikatorning old va orqa tomonlaridan elektr o'tkazuvchi qatlamli shisha plastinalar qo'yiladi, yon tomonda esa elektrodlar joylashadi. Elektrmagnit tamoyili maxsus pero ishlatishga asoslangan. Buning uchun, suyuq kristalli indikatorning orqa tomoniga sezgir panjara yoki magnit konturlari joylashtiriladi. Pero, ekran qabul qilayotgan kuchlanishni induksiyalaydi.

gibrider uzib-ulash

*ingl.: hybrid switching
rus.: гибридная узеб-улаш*

Kanallar uzib-ulashi va paketlar uzib-ulashini ta'minlovchi kompleks transport xizmat ko'rsatish turi.

GIF

qisq.: Graphics Interchange Format

Grafik axborot almashish formati, GIF formati. Internetda eng keng tarqalgan grafik format. 256 ranggacha bo'lgan tasvirlarni saqlash imkonini beradi, shaffoflik, animatsiya, qatorlararo yoyilmasi, bitta faylda bir necha tasvirni saqlash kabi amallarni qo'llab-quvvatlaydi.

Gigabit Ethernet

Axborotni uzatish tezligi 1 Gbit/s gacha bo'lgan Ethernet texnologiyasi.

GII

qisq.: Global information infrastructure

qarang: global axborot infratuzilmasi

GIOP

qisq.: General Inter-ORB Protocol

ORB orasida kommunikatsiya uchun umumiy bayonnomma.

giperaloqa

ingl.: hyperlink

rus.: гиперсвязь

qarang: gipermurojaat

giperhavola

ingl.: hyperlink

rus.: гиперссылка

qarang: gipermurojaat

giperkub

ingl.: hypercube

rus.: гиперкуб

N-o'lchovli fazodagi kub. Giperkub g'oyasi, superkompyuterlar me'moriy tuzilmasining variantlaridan birini ishlab chiqishda ishlatiladi. Bunday me'moriy tuzilma bog'lama bloklarni ishlatishga asoslanadi, ularning har birida, protsessor, xotira va aloqa vositalari bo'lgan transpyuter mavjud. Kubning har bir bloki bevosita n -1 qo'shni bloklar bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Qolgan bloklar orasidagi o'zaro ta'sir vositachi-bloklar orqali amalga oshiriladi. Xabarlar ko'p sonli bloklar orqali o'tganligi sababli, ko'rilib-yotgan me'moriy tuzilma

ma'lumotlarni uzatishda sezilarli kechikishlar bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, u minglab protsessorlarni ulash imkonini beradi.

gipermatn

ingl.: hypertext

rus.: гипертекст

1. Matnni kompyuterda ifodalash shakli. Unda ajratilgan tushunchalar, obyektlar va bo'limlar orasidagi ma'noli bog'lanishlar avtomatik tarzda qo'llab-quvvatlanadigan.
2. Displeyning ekraniga gipermatnni chiqaradigan va ma'noli aloqalar bo'yicha o'tishlarni amalga oshiradigan axborot dasturi. Gipermatn klaviatura yoki sichqoncha yordamida, matnning rang bilan ajratilgan qismi - murojaatni shu zahotiyq ekranga chiqaradi. Bular mazkur so'z yoki jumлага ta'rif va izohlar, adabiyotlar ro'yxatiga murojaatlar va bundan keyingi o'qishga oid tavsiyalar bo'lishi mumkin. Gipermatnlarning ikki guruhini ajratishadi. Uning muallifi tomonidan ko'zda tutilmagan obyektlarni unga qo'shish mumkin bo'lsa, u ochiq gipermatn deb ataladi. Dinamik gipermatn turi uchun, uni kattalashtirish amalini qo'llash odatiy holdir.

Gipermatn, global ularish xizmatida WWW sahifalarini yozishda keng ishlatiladi. Zamonaviy dasturiy vositalarning so'rov (Help) tizimlari gipermatn ko'rinishida yaratilmoqda. Gipermatnlar ta'lim tizimlarida, izohli lug'atlarda va masofaviy o'qitishda keng ishlatilmoqda.

gipermatnli axborot uzatish bayonnomasi

ingl.: Hyper Text Transfer Protocol (HTTP)

rus.: протокол передачи гипертекстовой информации

Veb bog'lamalaridagi hujjatlarni o'qishni ta'minlovchi transport bayonnomasi. Ushbu holatda u aslida veb bog'lamalariga bo'lgan barcha so'rovlarni bajaradi.

gipermatnli markerlash tili

ingl.: HyperText Markup Language (HTML)

rus.: гипертекстовый язык разметки

Markerlash tili. Internetning global ularish xizmatida hujjatlarni yozma shaklini belgilaydi. HTML tili, matn muharriri yordamida tayyorlangan matnga kiritiladigan buyruqlar majmuiasidan iborat bo'lib, veb-sahifalarini

yaratishda ishlataladi. HTML abzatslarni formatlash, sarlavha bilan ishslash, ramzlarni formatlash, axborot bloklarini ifodalash, dastlabki tayyorlangan matnlarni, tasvirlarni va tovush parchalarini qo'llanma qilib qo'shish; gipermatnli murojaatlarini yaratish; ma'lumotlarni kiritishning interaktiv formalarini tashkillashtirish kabilarni yuzaga chiqaradi.

gipermatnli markerlashning kengayuvchan tili

ingl.: eXtensible Markup Language (XML)

rus.: расширяемый язык гипертекстовой разметки (XML)

Veb-sahifa yaratish tillaridan biri. W3C forumi quvvatlaydigan ochiq standart. Xuddi HTML ga o'xshash, teglar tuzulmasini ishlataladi, ammo HTML dan farqli, gipermatnli hujjatning elementlarini aks ettirmay, shu elementlarning mazmunini aniqlaydi. Bundan tashqari, XML ishlab chiquvchiga xususiy teqlarni ta'riflash va kiritish imkonini beradi. XML, B2B tizimlarida elektron tranzaksiyalarni quvvatlaydi. U elektron hujjat aylanishining ustun turadigan formati bo'lib qolishi kutilmoqda.

gipermatnli murojaat

ingl.: hyperlink

rus.: гипертекстовая ссылка

qarang: gipermurojaat

gipermedia

ingl.: hypermedia

rus.: гипермедиа

1. Turli ma'lumotlarni kompyuterda ifodalash. Bunda ajratilgan tushunchalar, obyektlar va bo'limlar orasidagi ma'noli bog'lanishlar avtomatik tarzda quvvatlandi.
2. Barcha turdagи axborotlarni ifodalash texnologiyasi. Ifoda o'zarо assotsiativ bog'langan, nisbatan katta bo'limgan bloklar shaklida bo'ladi.

Gipermedia gipermatnga o'xshash, ammo, bog'lanadigan bloklar sifatida matn parchalari emas, balki ixtiyoriy tabiatdagi ma'lumotlar: grafik tasvirlar, videokliplar, tovush fayllari va shu kabilarni bo'lishi mumkin. So'nggi vaqtida, gipermedia Internetda ishlatalmoqda. Gipermedia bilan ishslash uchun kompyuter tegishli multimedia aslahalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Gipermediada ishlaydigan

dasturlar bozori kengayib bormoqda. U, birincha navbatda, ensiklopediyalar, darsliklar, mollar va tovarlarning katalogi, ma'lumotnomalar va qo'llanmalar, mahalliy tarmoqlarda jamoa bo'lib ishslash vositalari, sun'iy tafakkur tizimlarini taqdim etmoqda. Gipermedia ta'lim tizimlarida va masofadan o'qitishda keng ishlatalmoqda.

gipermuhit

ingl.: hypermedia

rus.: гиперсреда

qarang: gipermedia

gipermurojaat

ingl.: hyperlink

rus.: гиперссылка

1. Faol (rang bilan ajratilgan) matn, veb-sahifadagi tasvir yoki tugma. Uni chertish (gipermurojaatni faollashtirish) boshqa sahifaga o'tishga yoki galadagi sahifaning boshqa qismiga o'tishga olib keladi.
2. Gipermatn shaklida amalga oshirilgan, hujjatdagi yozuvlar yoki turli hujjatlar orasidagi aloqa. Aloqa joyi biror usul bilan (masalan, rang bilan, shrift bilan va h.k.) ajratiladi.
3. Gipermurojaat amalga oshiruvchi dastur.

GIS

qisq.: Geographic Information System

Geoaxborot tizimi, GAT.

GIS korporatsiyasi

ingl.: GIS corporation

rus.: корпорация GIS

Ma'lumotlarga ishlov berish vositalarini ishlab chiqaruvchi kompaniya. AQSHda 1884 yilda yaratilib, dastlab NCR deb nomlangan. Keyin GIS (Global Information Solution – Global axborot yechimi) deb nomlanib, AT&T korporatsiyasining sho'ba korxonasi bo'lgan. GIS asinxron uzatish usuliga muvofiq ishlovchi baza tarmoqlari uchun tizimlar ishlab chiqaradi. Axborotni saqlash joylari, ma'lumotlarning aqliy tahlili va iqtisodiyotning turli sohalari uchun abonentlik tizimlarini (bank tizimlari, kassa apparatlari va skannerlar, bankomatlar, moliyaviy atamaallar) ishlab chiqaradi.

global aloqa tarmog'i

ingl.: global communication network

rus.: глобальная сеть связи

Yer sharining asosiy qismida aloqa xizmatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan elektr aloqa tarmog'i. U xalqaro miqyosda rostlanadi.

global axborot infratuzilmasi

ingl.: *Global Information Infrastructure (GII)*

rus.: глобальная информационная инфраструктура (ГИИ)

Sifat jihatidan tamomila yangi axborot tuzilmasi. Uni dunyo hamjamiyatining bir qator rivojlangan davlatlari 1995 yildan boshlab shakllantira boshlashgan. Ularning niyatlariga ko'ra global axborot infratuzilmasi, global va mintaqaviy axborot-kommunikatsion tarmoqlarini hamda raqamli televideeniye va radio eshittirishlar, yo'ldosh tizimlar va harakatlanuvchi aloqani uyg'unlashuvi asosida, sayyoramizning aholisiga ommaviy xizmat ko'rsatadigan umumjahon integrallashgan axborot tarmog'idan iborat bo'ladi.

global axborot jamiyatni xartiyasi

ingl.: *global information society charter*

rus.: хартия глобального информационного общества

2000 yil 22 iyul kuni Yaponiyaning Okinava shahrida bo'lib o'tgan «akkizlik» sammitida qabul qilingan. Xartiyaning kirish qismida ta'kidlab o'tilganidek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yigirma birinchi asr jamiyatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi eng asosiy omillaridan biridir. Ularning inqilobiy ta'siri insonlarning turmush tarzi, ta'limi va faoliyati, hamda hukumat va fuqarolik jamiyatning o'zaro aloqasiga tegishlidir.

global axborot tizimi

ingl.: *Wide-Area Information System (WAIS)*

rus.: глобальная информационная система

Internet tarmog'inining ma'lumotlar bazalaridan axborot izlash bo'yicha tarmoq xizmati. WAIS ko'p sonli ma'lumotlar bazalaridan axborot izlashni osonlashdirish uchun yaratilgan. Gopher tarmoq xizmatidan farqli, WAIS bilan ishlashda dastlab menyuni ko'rib chiqish kerak emas. Izlashda so'z kiritish kifoya. Shunda WAIS Internetdagi ma'lumotlar bazalarining nomlarini qarab chiqadi, natijada foydalanuvchi, bu so'z uchraydigan obyektlarning ro'yxatini oladi. Muhimi shuki, har bir baza o'zining axborot izlash usuliga ega. WAIS esa bu usullarning

barchasi bilan ishlay oladi va foydalanuvchiga yagona umumiy interfeysi taqdim qiladi.

global hisoblash tarmog'i

ingl.: *global computer network*

rus.: глобальная вычислительная сеть

Talaygina geografik maydonni (hududni, mamlakatni, bir necha mamlakatni) qamrab olgan mintaqaviy hisoblash tarmog'i. Internet eng yirik global hisoblash tarmog'idir.

global manzil

ingl.: *global address*

rus.: глобальный адрес

Tarmoqda ishlatiladigan manzil turlaridan biri. Global manzil ma'lumotlar bloki, xabar yoki signal barcha obyektlar uchun mo'ljallanganini ko'rsatadi. Tarmoqda global manzillar ishlatilganda tarmoqda keng qamrovli eshittirish bajariladi. Shuningdek, tarmoqda guruhli manzil (ma'lumotlar bloki mo'ljallangan obyektlar to'plamini aniqlaydi) va noyob manzil (tarmoqda faqat bitta obyektni ajratadi) ishlatiladi.

global tarmoq

ingl.: *global network*

rus.: глобальная сеть

Bir necha mamlakatlarda joylashgan va territorial tarmoqlarni birlashtirib yaratilgan tarmoq. U ko'p sonli foydalanuvchilariga tarmoq xizmatlarini va resurslarini taqdim qilish maqsadida yaratiladi. O'zining katta o'lchamlari tufayli har bir global tarmoq o'z foydalanuvchilariga minglab ma'lumotlar bazalarini, qit'alararo elektron pochtani, amalda ixtiyoriy mutaxassislik bo'yicha ta'lim olishni taqdim etadi. Bunday tarmoqqa misol Internetdir. Shu bilan birga, kompaniyaning turli mamlakatlarda joylashgan filiallarini birlashtiruvchi global korporativ tarmoqlar ham farqlanadi.

global ulanish

ingl.: *global connection*

rus.: глобальное соединение

Internet tarmog'inining ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanishning gipermuhitini yaratuvchi tarmoq xizmati. CERN dagi Tim Berners-Lee tomonidan ishlab chiqilgan. Uning asosiy g'oyasi, cho'qqilari hujjatlar bo'lgan, hujjatlardagi so'zlar va jumlalar ularning o'zaro aloqasini aniqlaydigan katta grafni yaratishdadir.

Natiyada, hujjalalar ko'psonli serverlarning ma'lumotlar bazalarida joylashadi va ularning assotsiativ aloqalari Internetda bir birini kesib o'tgan murojaatlar turini hosil qiladi. WWW uchun

standartlarni W3C konsorsiumi ishlab chiqadi. Global ularish xizmati yangiliklar haqida xabar beradi, fan, san'at, texnika, ishlab chiqarish va savdoga tegishli turli sohalar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari u, mahsulot va turli shaxslar tomonidan taqdim qilinayotgan xizmat turlari reklamasini ta'minlaydi. WWW ni tashkil qiluvchilarga quydigilar kiradi:

- gipermatnli uzatish protokoli;
- gipermatnli markerlash tili;
- ko'rib chiqish muharriri-brauzer;
- WWW serveri;
- WWW sahifasi.

WWW da axborotni topish uchun izlash serverlari ishlatalidi.

globallashuv

ingl.: *globalization*

rus.: *глобализация*

Axborot texnologiyalari, mahsulotlari va tizimlarini butun dunyoga tarqalish jarayoni. U iqtisodiy va madaniy jihatlardan qaraganda uyg'unlashuvga olib keladi. Bu jarayoning tarafdarlari bundan keyinggi taraqqiyot imkoniyatlarini faqat global axborot jamiyatini rivojlanish sharoitlarida ko'rishadi. Opponentlar globallashuvni milliy madaniy qadriyatlarga keltiradigan xatarlari haqida ogohlantirishmoqda.

GMR

qisq.: *Giant Magneto-Resistive*

O'ta magnitrezistivlik, GMR hodisisi. Qattiq magnit disklarga ega jamlovchilarda GMR hodisisi asosida yaratilgan kallaklar (GMR-kallaklar)dan foydalinish hotira hajmini juda sezilarli darajada ko'paytirish imkonini beradi.

GMSK

qisq.: *Gaussian Minimum Shift Keying*

GMSK modulyatsiyasi. Tashuvchi chastotasi fazasini o'zgartirishga asoslangan modulyatsiya.

GMT

qisq.: *Greenwich Mean Time*

Grinvich meridiani bo'yicha o'rtacha vaqt.

GNU

qisq.: *Gnu's Not Unix*

GNU loyihasi. Erkin tarqatiladigan operatsion tizim loyihasi.

G

Gnutella

Markaziy serverning yo'qligi bilan ajralib turuvchi, Internet doirasida fayllarni almashish tarmog'i, Napster avlod. Ish boshlash uchun ildiz serveri manzilini taqdim etish lozim. 2003-yil yozida tarmoq samaraliligi RIAA harakatlari tufayli yo'qqa chiqqan. RIAA uchinchi firmalar yordamida Gnutellani izlash natijalarida haqiqiyalaridan farq qilmaydigan qalbaki saytlar bilan to'ldirishga muvaffaq bo'lgan.

gomogen tarmoq

ingl.: *homogeneous network*

rus.: *гомогенная сеть*

Bir xil turdag'i tizimlardan iborat axborot tarmog'i.

Goppa kodlari

ingl.: *Goppa's codes*

rus.: *коды Гоппы*

Turli kriptotizimlarda ishlataladigan, xatolarni tuzatadigan kod. Goppa kodlarini ishlatish shunga asoslanganki, Goppa kodlarini dekodlashni qo'lda bajarish mumkin. Shu bilan birga, Goppa kodlari «niqoblanadigan» chiziqli blokli kodlarni dekodlash NP-to'la masala bo'lib, uni yechish ancha mushkul.

gorizontal portal

ingl.: *horizontal portal*

rus.: *портал горизонтальный*

Umumiyl tasvifga ega bo'lgan, turli mavzular bo'yicha xizmatlar taqdim etuvchi veb-sayt.

GOSIP

qisq.: *Government Open System Interconnection Profile*

OSI davlat yo'naliishi.

GPF

qisq.: *General Protection Fault*

Muhofazaning umumiy buzilishi. Qo'llanmaning unga tegishli bo'limgan xotira maydonlariga murojaat qilishida paydo bo'ladigan tanaffus.

GPL

qisq.: *General Public License*

Umumiy foydalanishdagi litsenziya.

GPRS

qisq.: General Packet Radio Service

[Ma'lumotlarni] Paketli radio uzatishning umumiy xizmati. Uyali mobil aloqasi tarmoqlarida ma'lumotlarni uzatish standarti. Bunda kanalda ma'lumotlarni uzatish tezligi 171,2 Kbit/s gacha boradi (GSM kadrida 8 taymslotgacha, GMSK modulyatsiyasi). GSM, TDMA, CDMA tarmoqlarida foydalanilishi mumkin.

GPS

qisq.: Global Positioning System

Global joylashishni aniqlash tizimi. Kichik maxsus GPS signallarni qabul qiluvchi yordamida o'zining geografik koordinatalari, harakatlanish balandligi va tezligi, shuningdek aniq vaqtini aniqlash imkonini beruvchi yo'ldosh tizimi.

GPSS

qisq.: General Purpose System Simulator

GPSS tili. Diskret voqealarni modellashtirish tili. 1960 yilda ishlab chiqligan.

graf

ingl.: graph

rus.: график

Graf bo'sh bo'limgan to'plamlar juftidir. Birinchi to'plam cho'qqilardan, ikkinchi to'plam esa qovurg'alardan tarkib topgan. Grafni uch shaklda, yani analitik, matritsaviy va grafik shakllarda ifodalash mumkin. Grafik shakl modellarni aks ettirish uchun juda qulay vosita. Bunda cho'qqi nuqta, to'g'riburchak yoki doiracha bilan aks ettiriladi. Bir juft cho'qqi orasida birtomonlama bog'lovchi qovurg'a yoy deb ataladi. Ikki tomonlama bog'lovchi qovurg'a deb ataladi. Yoy bo'yicha o'tish yo'nalishini strelka bilan belgilanadi. Bir cho'qqida boshlanib xuddi shu cho'qqida yakunlanadigan qovurg'a sirtmoq deb ataladi. Ular ba'zan bo'g'inlar deb nomlanadi. Graf cho'qqilari orasidagi qovurg'alar va yoylar bo'yicha o'tgan yo'l marshrut (yo'nalish) deb ataladi. Graf, boshqarish nazariyasida, elektronika, elektrotexnikada tarmoq, tizim, algoritm tushunchalarini aniqlashda ishlataladi. Graflar ma'lumotlarga ishlov berish jarayonlarini ifodalashda keng qo'llanmoqda. Bunda, cho'qqilar biror obyektlarga mos kelsa,

qovurg'a yoki yoylar ular orasidagi jismoniy yoki mantiqiy bog'lanishlarni ifodalaydi. Graflarning maxsus turlari bo'lib daraxtlar, xalqa va ro'yxatlar hisoblanadi. Graf tushunchasi axborot tarmog'ida yuzaga keladigan gipermuhit, gipermatn, superkompyuter, uzib-ulash, yo'naltirish va boshqa jarayonlarni ifodalashda ishlataladi.

grafik akselerator

ingl.: graphic accelerator

rus.: графический акселератор

Ishchi stansiyalarga qo'shimcha ulanadigan platalar. Bunday stansiyalarning tasvirga ishlov berishga ixtisoslashgan protsessorlari mayjud bo'lishi shart. Akseleratorlar qator murakkab shartlarni hisobga olib, harakatlanuvchi yorug'lik manbalarini, obyektlarning yuzasi tuzilmasini o'ziga xos xususiyatlarni aks ettirish kabi ikki o'lchamli geometrik tasvirlarni uch o'lchamli tasvirlarga o'tkazishni bajaradilar. Akseleratorlar stansiyalar narxini ikki-uch baravar oshiradi, ammo, ular bajaradigan murakkab amaliy jarayonlar tezligi keskin oshadi.

grafik axborot

ingl.: graphical information

rus.: графическая информация

Sxemalar, eskizlar, tasvirlar, grafiklar, diagrammalar, ramzlar ko'rinishida ifodalangan ma'lumotlar yoki xabarlar.

grafik fayl

ingl.: graphic file

rus.: графический файл

Nuqtama-nuqta kodlangan tasvirni o'z ichiga olgan fayl. Bundan tashqari, grafik faylga dasturlarda va qurilmalarda ishlatiladigan boshqaruvchi kodlar ham kiradi.

grafik interfeys

ingl.: graphic interface

rus.: графический интерфейс

Foydalanuvchini hisoblash tizimi bilan o'zaro aloqasini tashkil qiladigan grafik muhit. Grafik interfeys g'oyasi, axborotni amaliy tizim haqida axborot taqdim etishning tabiiyligidan foydalanishdan iborat. Foydalanuvchi interfeysining asosiy tushunchalari bo'lib, oyna va piktogramma hisoblanadi. Grafik interfeysni ishlataladigan tizimda amallarni bajarish, oynalar bilan va ular ichida ishlashdan iborat.

grafik ma'lumotlar bazasi

ingl.: graphical database

rus.: графическая база данных

Grafik ma'lumotlar saqlanayotgan ma'lumotlar bazasi.

grafik muharrir

ingl.: graphic editor

rus.: графический редактор

Tasvirlarni tahrirlashni ta'minlaydigan amaliy dastur. Grafik muharrir odatda vektorli tasvirlar dasturlari, ishchan grafiki, rastrli tasvirlar, rastrli tasvirlarni vektorli shaklga aylantirish, uch o'lchamli tasvirlar va fayllarni boshqarish dasturlarini o'z ichiga oladi. Grafik tahrirlash jarayoni tasvirning bo'laklari ustidan (ixtiyoriy yo'nalishda o'lchamlarni o'zgartirish, ekran bo'ylab surish va burish, ravshanligini, yaqqolligini, rangini va boshqalarini o'zgartirish) kabi amallar bajarishdan iborat.

grafik urg'ular

ingl.: graphical accents

rus.: графические акценты

"Tund basharalar", "iljayishlar", "tirjayishlar" kabi hissiy holatlarni ifodalovchi, o'ziga xos "hissiyot belgilari"ni umumlashtiruvchi nom. Grafik muharrirlarni ishlatmay klaviaturada mavjud ramzlardan foydalanim tuziladi. Elektron pochta vositasida shaxsiy yozishma yoki yangiliklar guruhiga xabar uzatishda kuzatiladi. Ularni tushunish uchun hayolda, soat yo'nalishi bo'yicha 90 gradusga burish kifoya. Namunaviy misol tariqasida quyidagilarni ko'ramiz :-) tabassum, ;-) ko'z qisish, :-(xafalik yoki g'azab.

grafika

ingl.: graphics

rus.: графика

Predmetlarni rang ishlatmasdan, kontur chiziqlar va shtrixlar vositasida aks ettirish san'ati. Shu sababli, dastlab oq - qora chizmalarni va sxemalarni tayyorlash jarayoni kompyuter grafikasi deb nomlangan edi. Biroq, tezda turli tusdag'i ranglar ishlatilgan rasmlar paydo bo'ldi. Harakatsiz rangli tasvirlardan keyin videofilmlar yuzaga keldi. Hozirga kelib, uch o'lchamli tasvirlar tobora keng ishlatilmogda. Shu kunlarda, kompyuter grafikasi uni yangicha anglashda, hatto virtual haqiqiylikni yarata olishi mumkin.

Vizuallashtirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Kompyuter grafikasi yordamida vektorli tasvirlar va rastrli tasvirlar yaratilmokda. Kompyuter grafikasining muhim vositasi bo'lib grafik muharrir hisoblanadi, u ziaru tasvirlarni sintezlash imkonini beradi. *qarang:* kompyuter grafikasi.

grafikani maqbullah

ingl.: graphics optimization

rus.: оптимизация графики

Tasvir fayllari o'lchamlarini, ularni maqbul sifatini saqlagan holda, mumkin qadar kichraytirish. Veb-sahifa yaratishda, uning sahifalarini yuklanish tezligini oshirish maqsadida ishlatiladi.

grafchizuvchi

ingl.: plotter

rus.: графопостроитель

Egi va to'g'ri chiziqlar o'tkazish yo'li bilan tasvir chizadigan qurilma. Ikki turdag'i, ya'ni barabanli va planshetli grafchizuvchilar ishlab chiqariladi. Barabanli (rulonli) graf chizuvchida tasvir chiqariladigan qog'oz yoki plenka barabanga mahkamlanadi. Barabanli graf chizuvchilar ixcham, ishlatishda qulay, katta uzunlikdagi chizmalar bilan ishlash imkonini beradi. Planshetli (yassi) grafchizuvchilar qog'oz yoki pylonka tekislikda joylashadi va u qo'z'almas. Tekislik ustidan metall konstruksiya o'rnatiladi, u yozuv blokini bir vaqtning o'zida ikki koordinata bo'yicha tekislik bo'ylab siljitiш imkonini beradi. Bular ancha qimmatbaho apparatlar bo'lsa-da, aks ettirilayotgan tasvirning yuqori aniqligini ta'minlab beradilar. Yozuv blokining turiga qarab grafchizuvchilar peroli, sharrachali va elektrostatik xillarga bo'linadi. Graf chizuvchilarning ikki sinfini farqlashadi. Vektorli turda yozuvchi blok vektorli tasvirlarni ikki yo'nalishda siljib chizadi. Rastrli grafchizuvchilar rastrli tasvirlar rastr nuqtalari yordamida yaratiladi.

GRASP

qisq.: General Responsibility Assignment Software Patterns

[Sinflarga] majburiyat yuklashning umumiyligi qoliplari.

Gray Research korporatsiyasi

ingl.: Gray Research corporation

rus.: корпорация Gray Research

Kompaniya – superkompyuterlarni ishlab chiqarishni boshlagan birinchi kompaniya. Gray Research kompaniyasi o‘z faoliyatini AQSHda 1972 yilda boshlab, birinchi bo‘lib o‘ta tez ishlaydigan kompyuterlarning yangi sinfini taklif qilgan. Gray-1 me’moriy tuzilmasi darsliklarga kirgan. Dastlab Gray Research kompaniyasi har biri bitta protsessorga ega bo‘lgan kompyuterlarni ishlab chiqargan. Keyin u ko‘pprotessorli tizimlarni ishlab chiqara boshladи. Bundan tashqari, tijorat maqsadlarida va bank tizimlari uchun Gray Research ixcham superkompyuterlarni ham ishlab chiqardi. Texnologiya sohasidagi yuksalish korporatsiyaga maxsus Sovutishni talab qilmaydigan superkompyuterlarni ishlab chiqarishni boshlash imkonini berdi.

grif

ingl.: signature stamp

rus.: згуф

1. Hujjat yoki nashrdagi, hujjatdan foydalanishning alohida tartibini o‘rnatuvchi yozuv (tamg‘a).
2. Axborot tashuvchi vositadagi maxsus belgi bo‘lib, u shu tashuvchida saqlanayotgan axborotni pinholiylik darajasi haqida dalolat beradi.

GSI

qisq.: Giant Scale Integration

O‘ta yuqori birlashish.

GSM

qisq.: Global System for Mobile communications

Global mobil aloqa tizimi, GSM standarti. Yevropada raqamli uyali aloqa standarti. Yetakchi (abonentlar soni bo‘yicha) ikkinchi avlod standarti. 200 kGs yo‘l-yo‘lida 8ta TDMA kanali (taymslotlar) joylashgan bo‘lib, bu 25 MGs kenglikdagi oraliqda 992 aloqa kanalini tashkil qilish imkonini beradi.

GSM 900

Telefon GSM 900 aloqa standartini qo‘llab-quvvatlashi. GSM 900 – 890-960 MGs chastotalar oraliq‘idan foydalanuvchi mobil aloqaning raqamli standarti. GSM 900 standarti Yevropa, Osiyo, Rossiya, O‘zbekistonda tarqagan bo‘lib, deyarli barcha zamonaviy Yevropa provayderlari tomonidan foydalilanadi.

Biroq apparat GSM 900 standartidan tashqari GSM 1800 standartini ham qo‘llab-quvvatlashi maqsadga muvofiq, chunki bunda 900 MGs chastotasida shovqinlar paydo bo‘lganda telefon 1800 MGs chastotasiغا o‘tishi mumkin.

GSM 1800

Telefonning GSM 1800 aloqa standartini qo‘llab-quvvatlashi. GSM 1800 – 1710-1880 MGs chastotalar oraliq‘idan foydalanuvchi mobil aloqa uchun raqamli standart. Ushbu standart Yevropa, Rossiya, O‘zbekiston, Avstraliya, Osiyoning Tinch okeani mamlakatlarda tarqalgan. Mobil telefonini sotib olayotganda mahalliy uyali aloqa operatorlari qaysi standartda ishlashini aniqlash lozim, chunki GSM 1800 standartidagi telefon GSM 900 tarmog‘ida ishlamaydi, GSM 900 standartidagi apparat esa GSM 1800 tarmog‘ida ishlamaydi. Yevropadagi deyarli barcha zamonaviy provayderlar GSM 1800 va GSM 900 standartlaridan foydalananadi (*qarang: «GSM 900»*), shuning uchun eng keng tarqalgan telefon apparatlaridan ikki oraliqli GSM 900/1800 apparatlaridir. Ular yoqilganda bunday telefon o‘zi soniya ulushlari ichida signal qaysi chastotada yaxshi ekanligini aniqlab ushbu chastotaga sozlanadi.

GSM 1900

Telefon GSM 1900 aloqa standartini qo‘llab-quvvatlashi. GSM 1900 – 1900 MGs chastotalar oraliq‘idan foydalanuvchi mobil aloqaning raqamli standarti. Ushbu standart AQSH va Kanadada keng tarqalgan, shuning uchun siz ushbu mamlakatlarda telefonni ishlatmoqchi bo‘lsangiz (uyali aloqa operatoringiz u yerda roaming xizmatlarini ko‘rsatishi shartida) apparatingiz GSM 1900 standartini qo‘llab-quvvatlashi lozim.

GUI

qisq.: Graphical User Interface

Foydalanuvchining grafik interfeysi.

GUID

qisq.: Globally Unique IDentifier

Global noyob identifikator. O‘n olti baytli (128 bitli) identifikator, noyobligi kafoflatlangan. Ikkiti bir xil GUIDni yaratish ehtimoli shunchali kam-ki, uni hisobga olmasa ham bo‘ladi. GUID COM-obyektlarining noyob

interfeys nomlarini yaratish uchun ishlataladi (CLSID).

tashkil topgan kesmani, kesma uzunligi bilan almashtiradi.

guruh

ingl.: group

rus.: группа

Umumiy masalani hal qilayotgan obyektlar, masalan kompyuterlar majmui.

guruh imzosi

ingl.: group signature

rus.: групповая подпись

Chom va Van Xeyst tomonidan 1991 yilda taklif qilingan raqamli imzo sxemasi. U guruhning ixtiyorli a'zosiga xabarni shunday imzolash imkonini beradiki, imzo tekshirilganda habar guruhnинг biror bir a'zosi imzolaganda shaxsi aniqlanmaydi.

G

guruh manzili

ingl.: group address

rus.: групповой адрес

Obyektlar to'plamini aniqlaydigan manzil. Ma'lumotlar bloki shu manzilga atalgan.

guruhiy dasturiy ta'minot

ingl.: group-ware

rus.: групповое программное обеспечение

Muayyan guruh tomonidan ishlatalidigan, umumiylar masalalarini bajaradigan dasturiy ta'minot. Guruhiy ta'minot alohida dasturlar majmuidan tuzilib, u bir vaqtning o'zida bir necha o'zaro bog'langan xodimlar tomonidan foydalilaniladi. Bu ta'minotga birinchi navbatda, xodimlar jamoasi uchun fayllar bilan baravar ishslash vositalari, xodimlar guruhi tomonidan o'tkazilayotgan telekonferensiylar va videokonferensiylar, ishlar rejasini tuzish, murakkab standart hujjatlarni ishlatish va uzatish, masalan, EDI tarmoq xizmati yordamida, ta'lim va boshqalar kiradi.

guruhiy kodlash

ingl.: group encoding

rus.: групповое кодирование (кодирование группами отрезков)

Rastrli ma'lumotlarni zichlashtirish usullaridan biri. U sodda va ommalashgan bo'lib, ketma-ketlikda takrorlanadigan ramzlar guruhini takrorlanishlar soni bilan ko'rsatishga (masalan, 0000011107777 ketma-ketligini 50411047 guruh kodi shaklida) asoslanadi, o'zgacha aytganda, rastrning nomdosh elementlaridan

Hh

HA

qisq.: High Availability

Yuqori darajada erkin foydalanish osonligi (tayyorligi). Kompyuter tizimining eng kam to'xtab qolish hususiyati.

HACMP

qisq.: High Availability Cluster MultiProcessing

Yuqori darajada ergin foydalanishni ta'min etuvchi ko'p protsessorli klaster tizimi. IBM firmasining klasterlashtirish DT, RS/6000 seriyali kompyuterlarda AIX muhitida ishlataladi.

hajmiy grafika

ingl.: three-dimensional graphics

rus.: объемная графика

qarang: ucho'lchamli grafika

HAL

qisq.: Hardware Abstraction Layer

Apparat mavhumoti pog'onasi. Windows NT OTda – apparatli maslak xususiyatlarini yashiruvchi modul.

halqa tarmog'i

ingl.: ring network

rus.: кольцевая сеть

O'zagi davriy halqa bo'lgan kabelli mahalliy tarmoq. Bunday tarmoqda davriy halqa jismoniylar vositasi vazifasini bajaradi. Shu halqaning ishlash ishonchlilikiga butun tarmoqning ishlay olish qobiliyati bog'liq. Yakka halqa kanalining uzilishi tarmoq faoliyatini to'xtashiga olib keladi. Shu sababli, sodda halqali kanal tarmoq qiymati eng kam bo'lishi lozim bo'lgan hollardagina qo'llanadi. Yuqori ishonchlilik halqa tarmog'iда qayta ulanadigan to'plagichli halqa ishlataladi, u tarmoqni ishdan chiqqan qismlarini uzib qo'yadi. Bunday ham yuqori ishonchlilikni juft halqa ta'minlay oladi, u ikki halqadan biri ishdan chiqqan holatlarda ham ishslash imkoniyatiga ega.

hammabop elektron savdo maydonchasi

ingl.: electronic mall

rus.: электронная торговая универсальная площадка

Har xil sotuvchilar tomonidan boshqariladigan va turli tuman mahsulotlar hamda xizmatlarni (gorizontall bozor maydonchasi deb atalmish) tarqatadigan bir necha elektron do'konlar majmuasi.

hammabop operator

ingl.: universal statement

rus.: универсальный оператор

Mijozga keng ko'lamda, ya'ni, standart telefon aloqasidan tortib uy ishini elektron yuritishda yordam berishgacha bo'lgan xizmatlarni taqdim etuvchi ko'p vazifali axborot magistrali egasi.

hammabop resurs joyi ko'rsatgichi

ingl.: Uniform Resource Locator (URL)

rus.: универсальный локатор ресурсов

Muayyan resursning Internetda joylashishini ko'rsatishning standart usuli. Uning tarkibiga fayl va katalog nomidan tashqari, mashinaning tarmoqdagi manzili va faylni olish usuli kiradi. Aslida uzoqlashgan kompyuterlarda faoliyat qiluvchi dastur-serverlar bilan ishslash bayonnomasidir. Misol: <http://www.ddi.uz>

hamprotsessor

ingl.: coprocessor

rus.: сопроцессор

Markaziy protsessorning funksional imkoniyatlarini to'ldiruvchi ixtisoslashtirilgan protsessor. Hamprotsessor dasturlashtiruvchi foydalanishi mumkin bo'lgan buyruqlar to'plamini kengaytiradi. Markaziy protsessor uning ish to'plamiga kirmaydigan buyruqni qabul qilganda u buyruqni ushbu buyruq ish to'plamiga kirgan hamprotsessorga uzatadi. Hisoblash tizimida ikki va undan ko'p hamprotsessor qo'llanilishi mumkin. Masalan, ularning bittasi matematik hamprotsessor bo'lishi, boshqasi esa ma'lumotlar bazasini boshqarishi mumkin.

haqiqiy vaqt

ingl.: real time

rus.: реальное время

Jarayon sodir bo'ladigan vaqt davomi. Haqiqiy vaqt obyektning kirish signallariga yoki ma'lumotlarga javoban shunday ta'sirlanishini belgilaydiki, bu holda u, chiqish signalarini yoki ma'lumotlarni yetarlicha tez ishlab chiqishga ulguradi. Shu asosda, haqiqiy vaqt

tizimlari quriladi, haqiqiy vaqtida analitik ishlov berish bajariladi.

haqiqiy vaqt tili

ingl.: *realtime language*

rus.: *язык реального времени*

Haqiqiy vaqt maromida ishlaydigan tizimlar jarayonlarini tavsiflash uchun foydalilanidigan maxsus til. Haqiqiy vaqt tillari ADA va Modula tillaridir.

haqiqiylikni tekshirish

ingl.: *authenticity checking*

rus.: *проверка подлинности*

Shaxs yoki obyekt haqiqiyligini tekshirish jarayoni. Masalan, foydalanuvchi haqiqiyligini tekshirish uchun foydalanuvchining ismi va paroli kerak bo‘lishi mumkin.

harakatlanuvchi tasvirlar sohasidagi ekspertlar guruhi

ingl.: *Moving Picture Experts Group (MPEG)*

rus.: *группа экспертов в области движущихся изображений*

Videofilmilar uchun standartlar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan xalqaro tashkilot. MPEG 1983 yili MOS va MEK ning qo‘shma qaroriga binoan tashkil etilgan. Standartlashtirishda bu guruhga tasvirlarni zichlashtirish usullari, ularni uzatish va tiklash sohasi ajratilgan. 1993 yilda videodisklarda ishlatiladigan MPEG texnologiyasi standartlari ishlab chiqildi. 1995 yilda DVD raqamli videodisk o‘ynatgichlari, televizorlar, «yuqori aniqlik teleko‘rsatuvlari» HDTV, televizion oldqo‘shimchalar, videokameralar, yo‘ldosh tarmoqlarning raqamli televizion priyemniklari uchun standartlar paydo bo‘ldi.

harfiy-raqamli kodlash

ingl.: *alphanumeric coding*

rus.: *буквенно-цифровое кодирование*

Harflar, sonlar va alfavitning boshqa ramzlaridan tashkil topgan koddan foydalananidigan kodlash.

havas uyg‘otgich

ingl.: *teaser*

rus.: *тизер*

Aniq sayt dizayniga moslashtirib o‘ziga xos tarzda sozlangan bannerning turi. Masalan, Internet – do‘konda «kun modeli» havas uyg‘otgich bo‘lishi mumkin, u sotuvdagি

tovarlardan birining modelining tavsifi va fotosuratini o‘z ichiga olgan blokdir. Odatta havas uyg‘otgich, xususiy materiallarni, bo‘limlarni va sayt xizmatlarining reklamasi vositasi sifatida ishlatiladi, lekin havas uyg‘otgichlarning bir qismi (odatda yarmidan ancha kam) sotuvga yoki almashishga tushishi mumkin.

HCL

qisq.: *Hardware Compatibility List*

Uyg‘unli moslamalar ro‘yxati.

H

HCMOS

qisq.: *High-density CMOS*

Yuqori izchillikka ega bo‘lgan CMOS tuzilmasi.

HCT

qisq.: *Hardware Compatibility Test*

Qurilmalar uyg‘unligi sinovi.

HD

qisq.:

1. Hard Disk – Qattiq disk.
2. High Density – Yuqori zichlik (axborotni yozishda).

HDBMS

qisq.: *Hierarchical DataBase Management System*

Shajara tuzilmasiga ega bo‘lgan MBBT.

HDD

qisq.: *Hard Disk Drive*

Qattiq [magnit] diskdagi jamlovchi.

HDL

qisq.: *Hardware Description Languages*

qarang: apparat vositalarni tavsiflash tili

HDLC

qisq.: *High-level Data Link Control*

Kanal boshqarishning yuqoripog‘onali bayonnomasi.

HDML

qisq.: *Handheld Devices Markup Language*

Qo‘l qurilmalari uchun belgilash tili. WML tilining akssiymosi.

HDSL

qisq.: *High-bit-rate Digital Subscriber Line*

Yuqori tezlikka ega bo‘lgan raqamli abonent liniyasi. Ma‘lumotlarni uzatishning DSL oilasiga mansub texnologiyalardan biri. Oddiy telefon tarmoqlaridan foydalangan holda

ma'lumotlar uzatishning yuqori (2 Mbit/s gacha) tezligini ta'minlaydi.

HDTV

qisq.: High Definition TeleVision
qarang: yuqori ajrataolishli teleko'rsatuv

HEX

qisq.: HEXadecimal
 O'noltilikli.

HIFO

qisq.: Hierarchical Input-Processing-Output
 «Kirish-ishlov berish-chiqish» shajaraviy chizmasi. Dasturiy mahsulotlarni tuzilmaviy loyihalash texnologiyasi.

hisoblash jarayoni

ingl.: computer process
rus.: вычислительный процесс
 Kompyuterda vazifalarni bajarish jarayoni.

hisoblash majmui

ingl.: computer complex
rus.: вычислительный комплекс
 Yagona hisoblash tizimi sifatida ishlaydigan ikki yoki undan ko'p kompyuterlar majmui

hisoblash mashinasi

ingl.: computing machine
rus.: вычислительная машина
 Axborotni qayta ishslashni mechanizatsiyalashtirish yoki avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan qurilma yoki qurilmalar majmui. Kompyuterlar murakkab va takrorlanadigan vazifalarni tezda, aniq va sifatlari bajarishi hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda saqlashi va o'qishi mumkin.

Mashinalarning ikkita turi bor: raqamli hisoblash mashinalari va analog hisoblash mashinalari. Hozirgi paytda asosan raqamli hisoblash mashinalari ishlataladi.

Zamonaviy kompyuterlar elektron sxemalar va kiritish-chiqarish moslamalari asosida quriladi. Kompyuterlarning ko'pchiligi to'rt xil tarkibiy qismlardan iborat: markaziy protsessor, kiritish va chiqarish moslamalari va xotira. Protsessor arifmetik va mantiqiy amallarni bajaradi. Kiritish va chiqarish moslamalari kompyuterning foydaluvchi va tashqi dunyo bilan aloqasini ta'minlaydi. Xotira oraliq natijalari, dastur va ma'lumotlarni saqlash uchun javobgardir.

hisoblash resurslari almashuvi

ingl.: peer-to-peer computing (P2P)
rus.: обмен вычислительными ресурсами
 Internetga ulangan bir necha kompyuterlar orasida, hisoblash va boshqa resurslari bilan ayriboshlash imkoniyatini ta'minlaydigan texnologiya. Tarmoq biznesining ayniqsa istiqbolli yo'llaridan biri.

hisoblash tarmog'i

ingl.: computer network
rus.: вычислительная сеть
qarang: kompyuter tarmog'i

hisoblash tarmog'i bog'lamasi

ingl.: computer network node
rus.: узел вычислительной сети
 Hisoblash tarmog'iga ulangan kompyuter, terminal yoki boshqa qurilma. Har bitta bog'lama noyob manzilga ega. U mazkur bog'lama bilan tarmoqning boshqa bog'lamalari ma'lumotlarni uzatish kanallari orqali bog'lanishi imkonini beradi. Tarmoq bog'lamalari uch xil bo'ladi:
 - faqat bitta shox uchida joylashgan oxirgi bog'lama;
 - ikkita va undan ko'p shoxlarga umumiyligiga oraliq bog'lama;
 - kamida bitta yo'l bilan bog'langan boshqa hech qanday boshqa bog'lamalarga ega bo'limgan qo'shni bog'lama.

hisoblash texnikasi

ingl.: computer technology
rus.: вычислительная техника
 1. Axborotni qayta ishslash va saqlash uchun apparat vositalarini yaratishga ixtisoslashgan ilm-fan va texnika sohalari majmui.
 2. Vazifalarni bajarish jarayonini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan hisoblash vositalari majmui: kompyuterlar, tashqi qurilmalar, abonent punktlari, alohida terminallar, ma'lumotlarni uzatish vositalari.

hisoblash texnikasi vositalarining muhofazalanganligi ko'rsatkichi

ingl.: computer security indicator
rus.: показатель защищенности средств вычислительной техники
 Muhofazalanganlikni belgilovchi hisoblash texnikasi vositalarining tavisifnomasi. U muhofazalanganlik sinfiga ko'ra pog'ona va

chuqurlik bo'yicha o'zgarib boruvchi ma'lum talablar guruhi bilan tavsiflanadi.

hisoblash texnikasi vositalarining muhofazalanganlik sini

ingl.: protection class of computer system

rus.: класс защищенности средство вычислительной техники

Axborotdan ruxsat etilmagan erkin foydalanishdan hisoblash texnikasi vositalarini muhofazalashga doir aniq talablar majmui.

hisoblash texnikasi vositasi

ingl.: computer tools

rus.: средство вычислительной техники

Axborot raqamli shaklda taqdirm etilgan holda axborotga ishlov berish uchun texnika vositasi. Hisoblash texnikasi vositasiga protsessorlar, selektiv va multipleks kanallari, tashqi xotira qurilmalari, ma'lumotlarni kiritish va chiqarish qurilmalari, operatorning kompyuter bilan bevosita aloqa qilish qurilmalari, ma'lumotlarga masofadan ishlov berish tizimlari qurilmalari, ishonch oshirish qurilmalari va h.k. kiradi.

hisoblash texnikasining muhofazalangan vositasi

ingl.: trusted computer system

rus.: защищенное средство вычислительной техники

Muhofaza vositalari yaxlit amalga oshirilgan hisoblash texnikasi vositasi.

hisoblash texnikasining obyekti

ingl.: computing machinery object

rus.: объект вычислительной техники

Ko'chmas yoki ko'chma obyekt. U axborotga ishlov berishga oid muayyan vazifalarini bajarishga mo'ljallangan, hisoblash texnikasi vositalarining majmuasi. Hisoblash texnikasi obyektlariga, avtomatlashtirilgan tizimlar, avtomatlashtirilgan ish joylari, axborot-hisoblash markazlari va hisoblash texnikasi vositalarining boshqa majmualari kiradi.

hisoblash tizimi

ingl.: computer system

rus.: вычислительная система

Ma'lumotlarni qayta ishslash vazifasini bajarish uchun o'zaro ishlovchi kompyuterning apparat va dastur vositalari majmui. Hisoblash tizimi misoli sifatida dasturlar o'rnatilgan shaxsiy kompyuterni keltirish mumkin.

hisoblash tizimi arxitekturasi

ingl.: computer system architecture

rus.: архитектура вычислительной системы

Hisoblash tizimining umumiyl mantiqiy tuzilishi. U ma'lumotlarga ishlov berish jarayonini ta'riflovchi va kompyuter arxitekturasi hamda dasturiy ta'minot tavsifnomalari va uning apparat vositalari bilan o'zaro ishslashini qamrab oladi.

hisoblash tizimining muhofazasi

ingl.: computer system protection

rus.: защита вычислительной системы

qarang: kompyuter muhofazasi



Hitachi korporatsiyasi

ingl.: Hitachi corporation

rus.: корпорация Hitachi

Yaponiyaning elektronika va kompyuterlar sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyasi. Hitachi ma'lumotlarga ommaviy parallel ishlov beruvchi superkompyuterlarni ishlab chiqaradi. Hitachi, shuningdek, Fast Ethernet tarmoqlari uchun uzib-ulagichlarni, baza kompyuterlarini, Internet tarmog'i uchun tarmoq kompyuterlarini va axborotni saqlash joylari uchun dasturiy ta'minoti ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, uyuqori zichlikka ega integral sxemalarni ishlab chiqaradi.

HLL

qisq.: High-Level Language

qarang: yuqori pog'ona tili

HLS

qisq.: Hue-Lightness-Saturation

Tus-yorqinlik-to'yinganlik. Tasvirning rang tavsifnomalarini belgilash usuli (rang modeli). Chiziqsiz B (Brightness) parametri L (Lightness)ga o'zgartirilgan HSB (Hue-Saturation-Brightness) modeli hildir.

HOLAP

qisq.: Hybrid OLAP

Chatishma OLAP, HOLAP texnologiyasi. MOLAP va ROLAP yondashuvlarini mujassamlovchi OLAP tizimlari arxitekturasi.

HotBot

Inktomi Corporation va HotWired, Inc., Wired jurnalining noshiri, tomonidan birgalikda yaratilgan WWW izlash tizimi. Veb-sahifalarini izlash va indekslash uchun bir necha asosiy

superkompyuterdan foydalanish o'rniga HotBot parallel ravishda ishlaydigan ko'plab ish stansiyalaridan foydalanaadi va bu Ish stansiyalar tarmog'i (Network of Workstations, NOW) deb ataladi. HotBotga ko'ra, bunday strategiya ularga raqobatdosh izlash tizimlariga qaraganda WWWning jadal o'sishi bilan birga rivojlanish imkonini beradi.

HotSpot

Kirish nuqtasi WLAN orqali mobil tashrifchilarga ommaviy simsiz keng ko'lamli tarmoq xizmatlarini ko'rsatadigan aniq jo'g'rofik joy. Hotspotlar aholi zinch joylarda, jumladan aeroportlar, temir yo'l stansiyalari, kutubxonalar, kemalar to'xtaydigan joylar, yig'inalr o'tkazish markazlarida va mehmonxonalarida joylashadi. Hotspotlardan erkin foydalanish oralig'i odatda cheklangan bo'ladi.

HotSwap

(so'zma-so'z – issiq o'zgartirish) Kompyuter tizimi ishlayotgan paytda biron bir qurilmani o'zgartirish texnologiyasi.

HP korporatsiyasi

ingl.: *HP corporation*

rus.: *корпорация HP*

Kompyuter texnikasi va elektronika sohasidagi yetakchi kompaniyalardan biri. HP (Hewlett-Packard qisqartmasi) kompaniyasi 1939 yilda William Hewlett va David Packardlar tomonidan yaratilgan. Kompaniya lazer va purkovchi printerlarni ishlab chiqarish tufayli alohida mashhur bo'lgan. Shu bilan birga kompaniya 10 mingdan ortiq mahsulotlarni ishlab chiqaradi – kompyuter tizimlaridan tortib ixtisoslashtirilgan elektron uskunlargacha. HP superkompyuter, yashil kompyuter va ixcham shaxsiy kompyuterlarni, shuningdek, kompyuterlar uchun turli qurilmalar, jumladan qattiq disklar, printerlar, skannerlar, faks apparatlarini ishlab chiqaradi. So'nggi yillarda kompaniya ma'lumotlarni uzatish va mahalliy tarmoqlar uchun tarmoq jihozlarini ishlab chiqarishga alohida e'tiborini qaratyapti.

HPFS

qisq.: *High Performance File System*

Yuqori samaralilikka ega bo'lgan fayl tizimi, HPFS fayl tizimi. Microsoft va IBM tomonidan

OS/2 operatsion tizimi uchun ishlab chiqilgan fayl tizimi. HPFSni qo'llab-quvvatlash Windows NTga yuklatilgan.

HPGL

qisq.: *Hewlett-Packard Graphic Language*

Hewlett-Packard korporatsiyasining grafikani tavsiflash tili, HPGL tili.

HPNA

qisq.: *Home Phoneline Networking Alliance*

HPNA texnologiyasi, VDSL kabi, bino ichida ma'lumotlar uzatishni tashkillashtirish uchun ishlatalib (tahminan 400 metrga yaqin masofada 1 Mbit/s gacha tezlik) va ADSL va SHDSL, shuningdek oddiy telefoniya bilan to'la uyg'un. Ushbu standart liniyaga kam talablar qo'yadi: bitta shinaga bir necha abonentni ularash mumkin, aloqa liniyasi sifatida esa xatto radio qayta uzatish simidan foydalanish mumkin.

HP-UX

HP-UX operatsion tizimi. Operatsion tizim, UNIX kloni. Hewlett-Packard kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan serverlarda ishlataladi.

HRAA

qisq.: *High Resolution Anti-Aliasing*

Yuqori ajrataolish uchun silliqlash. Kompyuter grafikasida – yuqori ajrataolish rejimlarida poligonlar chegaralarini silliqlash.

HSB

qisq.: *Hue-Saturation-Brightness*

Tus-to'yinganlik-yorqinlik. Tasvirning rang tavsifnomalarini belgilash usuli (rang modeli). H – tus, «sof» rang to'lqini uzunligini belgilab «rang doirasi» graduslarida ko'rsatiladi, S – rang tozaligini, B – yorqinligini (chiziqsiz tarkibiy qism) belgilaydi.

HSCSD

qisq.: *High Speed Circuit Switched Data*

Kanallarni uzib-ulashga asoslangan tarmoqlar orqali ma'lumotlarni yuqori tezlikda uzatish, HSCSD texnologiyasi. GSM tarmoqlarida ma'lumotlarni simsiz uzatish. Ma'lumotlar uzatish kanalini tashkillashtirish uchun GSM kadrida bir vaqtning o'zida to'rttagacha taymslotdan foydalanish imkonini beradi, bunda kanal tezligi 57,6 Kbit/s gacha boradi (GMSK modulyatsiyasi).

HTML

*qisq.: HyperText Markup Language
qarang: gipermatnli markerlash tili*

HTML atributi

ingl.: HTML attribute

rus.: атрибут HTML

Belgilanayotgan elementga qo'shimcha xususiyatlarni belgilash uchun HTML tegida qo'llaniluvchi qiymat.

HTTP

qisq.: HyperText Transfer Protocol

qarang: uzatishning gipermatnli bayonnomasi

HTTPD

qisq.: HTTP Daemon

HTTP-demon. Operatsion tizimda HTTP server vazifalarini bajaruvcchi jarayon.

HTTPS

qisq.: HTTP Secure

Muhofaza qilingan HTTP. Veb-brauzerlariga Internetda veb-sahifalar va boshqa ma'lumotlarni xavfsiz o'qish imkonini beruvchi gipermatni uzatish bayonnomasi. HTTPS bayonnomasi shifrlash va axborotni maxsus port orqali uzatish mumkinligini ta'minlaydi.

hududiy tarmoq

ingl.: Wide-Area Network (WAN)

rus.: территориальная сеть

Tarkibiy qismlari turli geografik nuqtalarda joylashgan axborot tarmog'i. Hududiy tarmoq katta fazoni – tuman, viloyat, mintaq'a, mamlakat, mamlakatlar guruhini qamrab oladi. Agarda u qit'alarni qamrab olsa global tarmoq atamasi ishlatalidi. Hududiy va global tarmoqlarning alohida xususiyatlari bor. Ular kengpolosali uzun kanallar, ko'p sonli uzib-ulash bog'lamalari yoki aloqa yo'ldoshlaridan foydalanadilar.

hujjat

ingl.: document

rus.: документ

1. Matn, tovush yoki tasvir shaklida axborot yozilgan, zamon va makonda uzatish hamda saqlash va jamoat tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy obyekt.
2. Ma'lum bir faktni yoki biror narsaga huquqni tasdiqlovchi ish qog'izi.

3. Ko'rsatuvchi shaxsini aniqlovchi guvohnoma, rasmiy qog'oz.
4. Ma'lum tarixiy voqealar, faktlar haqidagi yozma guvohnoma.

hujjatga ishlov berish

ingl.: document processing

rus.: обработка документов

Hujjatlarni yaratish va o'zgartirish jarayoni. Hujjatlarga ishlov berish tasniflash, saralash, zarur bo'lgan shaklga o'zgartirish, ma'lumotlar bazasida joylashtirish, izlash va foydalanuvchilarga berishdan iborat. Ishlovga insonga ham, tizimga ham tushunarli hujjatlar loyiq. Masalan, hisobotlar, loyihibar, yozma murojaat, arizalar, bank hisoblari, do'konlarning cheklari.

hujjatlarga ochiq ishlov berish

ingl.: open document processing

rus.: открытая обработка документов

Xalqaro standartlar va belgi qo'yish uchun umumlashgan standart tilga tayanadigan, muayyan foydalanuvchilardan mustaqil ravishda hujjatga ishlov berish. Hujjatga ishlov berishning ikkita yirik sohasini ajratadilar. Bularga nashriyot va muassasalar kiradi.

hujjatlashtirilgan axborot

ingl.: documented information

rus.: документированная информация

1. Zamon va makonda uzatish uchun sun'iy ravishda yozilgan axborotli moddiy obyekt.
2. Moddiy tashuvchiga yozilgan va uni aniqlashga yordam beruvchi rekvizitlarga ega bo'lgan axborot.

hujjatlashtirilgan axborot**ilmiy-texnikaviy axborot**

ingl.: documented scientific information

rus.: документированная научно-техническая информация

Moddiy tashuvchiga yozilgan va uni aniqlashga yordam beruvchi rekvizitlarga ega bo'lgan ilmiy-texnikaviy axborot.

hujjatlashtirilmagan axborot

ingl.: undocumented information

rus.: недокументированная информация

Jismoniy shaxslar tashiydigan yoki ramz, timsol, signal, texnik yechim, jarayonlar shaklida fizik maydon va muhitlarda aks ettirilgan ma'lumotlar.



hujum*ingl.: attack**rus.: атака*

Kompyuter muhofazasini buzishga qaratilgan harakat. Masalan, badniyat mantiq, tutib olish. Misol sifatida Denial On Service ya'ni «xizmat ko'rsatishni rad etish» hujumini ko'rsatish mumkin. Bunday hujum uyuştirilganda foydalananuvchilar odatda foydalananayotgan xizmat yoki resurslardan voz kechadi. Mazkur hujumning eng keng tarqalgan turi – ma'lum manzilga ma'lumotlar buferi mo'ljallanmagan katta hajmdagi ma'lumotlarni yo'naltirish.

hujumni payqash*ingl.: attack detection**rus.: обнаружение атаки*

Tizimning obyektlariga qilinayotgan hujumlarni topib olishda ishlatalidigan mexanizm.

hujumni tanish*ingl.: attack identification**rus.: распознавание атаки**qarang: hujumni payqash***huquqiy informatika***ingl.: legal informatics**rus.: правовая информатика*

Huquqda (yoki huquqiy tizimda) axborot, axborot jarayonlari va axborot tizimlarini o'rganuvchi fan. Huquqiy informatikaning tadtiqot obyektlari:

- huquqiy tizimda axborot maxsus obyekt navi sifatida;
- huquqiy tizimda axborot jarayonlari va ular bajarilayotganda paydo bo'ladigan axborot munosabatlari;
- huquqiy maqsadlarda qo'llaniladigan, hisoblash texnikasi, aloqa va telekommunikatsiyalar vositalari asosida yaratiladigan axborot tizimlari, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalari, jumladan, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklari, ularning tizimlari, boshqa axborot texnologiyalari.

huquqiy kibernetika*ingl.: legal cybernetics**rus.: правовая кибернетика*

Huquqiy tizimning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy rostlash tizimi sifatidagi axborot xususiyatlarini o'rganuvchi fan.

Hz*qisq.: Hertz*

Gers. Chastota uchun fizikaviy o'lchov birligi.

Ii

I/O

qisq.: Input/Output
Kiritish/chiqarish.

i18n

qisq.: InternationalizatioN

Baynalminallashirish. Turli jo‘g‘rofiy hududlarda turli millatlarning tillarida ishlashni quvvatlash. 18 soni internationalization so‘zidagi birinchi «i»harfigidan to oixirgi «n» harfigacha bo‘lgan harflar sonini bildiradi.

IAB

qisq.: Internet Architecture Board

Internet arxitekturasi bo‘yicha qo‘mita. Internet jamiyatning maslahatli texnika guruhi (ISOC).

IANA

qisq.: Internet Assigned Numbers Authority

Internet raqamli manzillari bo‘yicha vakolatli organ. Internet rivojlanishining boshlang‘ich bosqichlarida IP- manzillarni va bayonnomalar bo‘yicha tartib raqamlarini taqsimlash ishlarini bajargan tashkilot. Keyinchalik bu vazifalar ICANN zimmasiga o‘tgan.

IB

qisq.: InterBase

InterBase MBBT (ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi). Borland. kompaniyasi tomonidan rivojlantirilayotgan relyatsion MBBT.

iBCS

qisq.: Intel Binary Compatibility Specification

Intel firmasining ikkilik uyg‘unlashuv standarti.

IBM funksional profili (kasbiy yo‘nalish)

ingl.: IBM functional profile

rus.: функциональный профиль IBM

IBM korporatsiyasi tomonidan ishlatiladigan funksional kasbiy yo‘nalish. Axborotga ishlov berish bilan bog‘liq turli - tuman vazifalarni yechishni ta‘minlaydi.

IBM halqa tarmog‘i

ingl.: IBM ring network

rus.: кольцевая сеть IBM

IBM korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqariladigan halqa tarmog‘i. 1989 yili IBM korporatsiyasi Token_Ring mahalliy tarmog‘ini taklif qildi. Uning o‘zagini, 4 yoki 16 Mbit/s. tezlik bilan ma’lumotlarni uzata oladigan halqa kanali tashkil qiladi. Halqa yuqori ishchilik bilan tavsiflanadi. Ishchiliklilik oshirish maqsadida IBM halqaning qayta-ulanib turadigan to‘plagichli yulduz-halqa «stansiyalar to‘plamiga ularish bloklari» MSAU deb ataluvchi topologiyani ishlataladi. Bu yerda stansiyalar sifatida abonent tizimlari tushuniladi.

IBM korporatsiyasi

ingl.: IBM corporation

rus.: корпорация IBM

Kompyuter texnikasi sohasida dunyodagi eng katta kompaniya. IBM kompaniyasi (International Business Machines – Xalqaro biznes mashinalari) AQSHda 1911 yilda yaratilgan. 1953 yilda kompaniya «701» nomli o‘zining birinchi kompyuterini taqdim etgan. 1981 yilda IBM ma’lum ma’noda standart bo‘lib qolgan o‘zining birinchi shaxsiy kompyuteri – IBM PCni ishlab chiqargan. Hozirgi paytda IBM keng ko‘lamda mahsulotlar ishlab chiqaradi – paralel ishlov berish vositalariga ega superkompyuterlardan tortib shaxsiy kompyuterlar va shaxsiy elektron yordamchilarigacha.

IBM quyidagi katta strategik ishlanmalari bilan mashhur:

- Nways arxitekturasi,
- keng yo‘l-yo‘lli tarmoq arxitekturasi,
- uzib-ulanadigan virtual tarmoq,
- uzatishning paketli usuli,
- FORTRAN tili.

IBM PC ga uyg‘un shaxsiy kompyuter

ingl.: personal IBM compatible computer (IBM PC)

rus.: компьютер IBM-совместимый персональный

Shaxsiy kompyuter, unda shaxsiy kompyuterlar uchun IBM firmasi ishlab chiqqan dasturlarni ishlatalish mumkin.

ICANN

qisq.: Internet Corporation for Assigned Names and Numbers

Internetda nomlar va manzillarni beradigan tashkilot. Bayonnomalar tartib raqamlarini va Internetda nomlar beradigan notijorat tashkiloti.

Bundan tashqari, birinchi pog'ona domen nomlari bazasini ham quvvatlaydi.

ICC

qisq.: Integrated Circuit Card
Mikrosxemali kartochka, smart-karta.

ICL korporatsiyasi

ingl.: ICL corporation

rus.: корпорация ICL

Aralash tarmoqlar uchun jihozlar ishlab chiqaruvchi kompaniya. ICL kompaniyasi 1968 yilda Buyuk Britaniyada yaratilgan bo'lib, ma'lumotlarga ishlov berish qurilmalarini yetakchi ishlab chiqaruvchilardan biridir. ICL keng ko'lamdagi aborot tizimlarini ishlab chiqaradi – shaxsiy kompyuterlardan tortib superkompyuterlargacha.

ICMP

qisq.: Internet Control Message Protocol

Internetda boshqaruvchi xabarlar bayonnomasi, ICMP bayonnomasi. Tarmoq pog'onasidagi boshqaruvchi xabarlar bayonnomasi, TCP/IP bayonnomalari oilasiga mansub. RFC 792 da belgilangan.

ICP

qisq.: Integrated Circuit Package

Mikrosxemaning tanasi.

ICQ

qisq.: I Seek You

ICQ oniy xabarlar tarmoq - xizmati. Internet peydjeri. Mirabilis kompaniyasining ishlanmasi, keyinchalik AOL xarid qilib olgan.

ICT

qisq.: Information Communication Technologies

qarang: Axborot-Kommunikatsiya Texnologiyalari (AKT)

ID

qisq.: IDentifier

Identifikator, noyob nom.

IDAPI

qisq.: Integrated Database API

Ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish uchun ichiga o'rnatilgan API. Ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish uchun Borland API kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, BDE ning qismi. Avval ODAPI deb atalgan.

IDCT

qisq.: Inverse Discrete Cosine Transform

Teskari diskret kosinusli o'zgartish. Zichlashtirilgan ma'lumotlarni dekoderlashda ishlataladi.

IDE

qisq.:

1. Integrated Development Environment – ishlab chiqishning birlashgan muhiti.
2. Integrated Drive Electronics – IDE diskli qurilmalari interfeysi. Birlashgan boshqaruv elektronikasiga ega diskli to'plovchilari uchun interfeysi turi.

identifikatsiya

ingl.: identification

rus.: идентификация

Erkin foydalanish subyekt yoki obyektlariga identifikator berish va (yoki) taqdirm etilayotgan identifikatorni berilgan identifikatorlar ro'yxati bilan taqoslash.

IDL

qisq.: Interface Definition Language

Interfeyslarni tavsiflash tili, IDL tili. Sintaksisi C++ ga o'xshash so'f tavsiflovchi til. Tarqoq obyektlar – usullar nomlari va o'zgaruvchi-argumentlar turlari interfeyslarini tavsiflash uchun OMG tomonidan ishlab chiqilgan.

IDS

qisq.: Intrusion Detection System

Hujumlarni [tarmoqda] payqash tizimi.

IEC

qisq.: International Electrotechnical Commission

qarang: Xalqaro Elektrtexnika Komissiyasi (XEK)

IEEE

qisq.: Institute of Electrical and Electronics Engineers

Elektrotxnika va elektronika muhandislari instituti.

IELTS

qisq.: International English Language Testing System

Ingliz tili bo'yicha testlash xalqaro tizimi.

IESG

qisq.: Internet Engineering Steering Group

IETF ijroi qo'mitasi.

IETF

qisq.: Internet Engineering Task Force

Internet loyihalash bo'yicha ishchi guruh. Internet arxitekturasi va bayonnomalarini rivojlantirish bilan shug'ullanadigan ochiq xalqaro hamjamiyat.

IFAC

qisq.: International Federation of Automatic Control
qarang: Xalqaro avtomatik boshqaruv federatsiyasi

IFIP

qisq.: International Federation for Information Processing
qarang: Xalqaro axborotga ishlov berish tashkiloti

IFS

qisq.: Internet File System

Internet uchun fayl tizimi. Oracle kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan fayl tizimi.

IGES

qisq.: Initial Graphics Exchange Specification
 Grafik ma'lumotlar almashuv bo'yicha dastlabki standart, IGES standarti. CAD-tizimlar orasida ma'lumotlar almashish uchun fayning ochiq formati.

IGMP

qisq.: Internet Group Management Protocol
 Internet guruhi larini boshqarish bayonnomasi, IGMP bayonnomasi. TCP/IP bayonnomalari oilasiga mansub tarmoq pog'onasi bayonnomasi. IP-paketlarni guruhlab jo'natishni boshqarish uchun xizmat qiladi. RFC 1112da belgilangan.

IGP

qisq.: Interior Gateway Protocol
 Ichki shluzlar bayonnomasi, IGP bayonnomasi. Muxtor tarmoqni yo'naltirgichlari orasida yo'nalishlar haqida axborot almashish uchun ishlatalidi.

IHV

qisq.: Independent hardware vendor

"Mustaqil apparatlari ta'minotni yetkazib beruvchi" qisqartmasi. Butun kompyuter tizimi emas, balki alohida turdag'i apparatlari ta'minotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kompaniya. IHV odatda yetkaziladigan apparatlari ta'minot uchun drayver taqdim etadi.

IIP**qisq.: Internet Inter-ORB Protocol**

TCP/IP tarmoqlarida ORB o'zar oloqada ishslash bayonnomasi, IIOP bayonnomasi. IIOP-GIOP bayonnomasining TCPda aks etishi.

IIS

qisq.: Internet Information Server

Internetning axborot serveri. Windows NT va Windows 2000 operatsion tizimlari uchun o'z ichiga HTTP- va FTP-serverlarni olgan, Microsoft kompaniyasining server uchun dasturiy ta'minoti.

IISP

qisq.: Information Infrastructure Standards Panel
qarang: axborot infratuzilmasi standartlari hay'ati

**ijara kanali**

ingl.: rented channel

rus.: канал арендованный

Tarmoq operatori tomonidan, tarmoq foydalanuvchisiga shartnoma asosida ijara ga berilgan kanal.

ijtimoiy informatika

ingl.: social informatics

rus.: социальная информатика

Jamiyatda axborot harakatlanshi qonuniyatlarini va shakllari to'g'risidagi fan. Informatikaning ilmiy taddiqotlarning yangi fanlararo sohasini bildiruvchi bo'limi.

ijtimoiy muhandislik

ingl.: social engineering

rus.: социальная инженерия

Notexnikaviy choralar (aldash va h.k.) yordamida axborot tizimining xavfsizlik tizimini chetlab o'tishi.

ikki qutbli kod

ingl.: bipolar code

rus.: биполярный код

Ikkilik ketma-ketliklarni 0, +1, -1, uchlik signallar bilan ifodalab uzatish usuli. Undagi birlikning qiymati har bir keyingi bir bilan bog'liq ravishda davriy o'zgaradi. Ikki qutbli kodlarda musbat va manfiy impulslar mos tarzda "+1" va "-1" ni aks ettiradi. Impulsning yo'qligi "0" ni bildiradi. Ikki qutbli kodlarni ishlatalish yakka xatolarni topib olishni ta'minlaydi. Chunonchi, agar nol o'rniiga bir paydo bo'lsa, yoki xatolik tufayli bir nolga aylanib qolsa, bu oson topib olinadi, chunki har

ikki holda ham impulsarning qutblarini davriy almashinuvi buziladi.

ikkilamchi tarmoq kanali

ingl.: secondary network channel

rus.: канал вторичной сети

Telekommunikatsiyalarning ikkilamchi tarmog‘ini uzib-ulash bog‘lamalari va stansiyalari nuqtalari oralig‘idagi telekommunikatsiya kanalining qismi. Ikkilamchi tarmoqning turiga qarab uning kanallari quyidagicha nomlanadi: telefon tarmog‘i kanali, telegraf tarmog‘i kanali, ma‘lumotlar uzatish kanali va h. k.

ikkinchchi avlod tili

ingl.: second generation language (2GL)

rus.: язык второго поколения

Assembler tili. Tushunchalari kompyuter arxitekturasini aks ettiradigan quyi pog‘ona dasturlash tili.

ikkiportli shluz

ingl.: dual-port gateway

rus.: шлюз двухпортовый

qarang: ikkiyli shluz

ikkiyli shluz

ingl.: dual-homed gateway

rus.: шлюз двудомный

Tarmoqlararo ekranning (brandmauerung) dasturiy ta‘minoti ishlab turgan kompyuter. Ikki yuli shluz ikkita tarmoq kartasiga ega, ularidan birinchisi tashqi tarmoqqa, ikkinchisi esa ichki tarmoqqa ulangan. Shluz bir tarmoqdan ikkinchisiga axborot uzatadi, ularning bevosita o‘zaro ishlashiga yo‘l qo‘ymaydi. Ikki yuli shluzlarga, seans pog‘onasi va amaliy pog‘onasi shluzlari ham mansub.

ikonacha

ingl.: icon

rus.: иконка

Display ekranida Microsoft Windows muhitida obyekt yoki dasturni aks ettiruvchi kichik tasvir.

ilmiy-axborot faoliyati

ingl.: scientific information activity

rus.: научно-информационная деятельность

Ilmiy-teknikaviy axborotni tashkil qilish, to‘plash, tartibga keltirish, tahliliy-sintetik qayta ishslash, yozish, saqlash, tarqatish va foydalanuvchi (iste‘molchi)ga taqdim qilish bilan bog‘liq harakatlar majmui.

ilmiy-teknikaviy axborot

ingl.: scientific and technical information

rus.: научно-техническая информация

Ilmiy, ilmiy-teknikaviy, innovatsion va ijtimoiy faoliyat davomida yig‘ilgan hujjat va faktlar haqidagi ma‘lumot.

ilmiy-teknikaviy axborot tizimi

ingl.: science and technology information system

rus.: система научно-технической информации

Ilmiy-teknikaviy axborotni davlat, yuridik va jismoniy shaxslar ehtiyojolarini qondirish uchun yaratish, to‘plash, ishlov berish, tizingma keltirish, izlash va taqdim etish jarayonlarini bajaruvchi tartibga solingan jami ilmiy-teknikaviy axborot resurslari va tashkiliy-tehnologik vositalar.

ilmiy-teknikaviy mahsulot

ingl.: scientific and technical information production

rus.: научно-техническая информационная продукция

Ilmiy-teknikaviy axborot foydalanuvchilarini (iste‘molchilarini) ehtiyojolarini qondirish uchun mo‘ljallangan axborot ilmiy-teknikaviy faoliyatning moddiy natijasi.

IMAP

qisq.: Internet Message Access Protocol

Internet xabarlaridan erkin foydalanish bayonnomasi, IMAP bayonnomasi. e-mail xabarlarini qabul qilish va jo‘natish, hamda pochta serverida xabarlarni saralash va yo‘q qilish uchun standart bayonnomma. RFC 2060 da belgilangan. Foydalanuvchilarga markaziy serverda joylashgan o‘zlarining pochta qutilarini boshqarish va unda ishslash uchun boy imkoniyatlarni taqdim qiladi. Bu bayonnomma pochta serverida joylashgan elektron pochta va e’lonlarning elektron taxtasidagi xabarlardan erkin foydalanishni belgilaydi. O‘zgacha qilib aytganda, u jo‘natmani oluvchisining pochta dasturiga serverdagi xatlar omboridan shunday erkin foydalanishi amalga oshiradiki, ular xuddi oluvchining kompyuterida joylashgandek bo‘ladi. IMAP ni ishlatib, mijozning pochta dasturi faqatgina pochtani qabul qilishi emas, balki serverda saqlangan xabarlarni, hattoki to‘la qabul qilmay, ularni boshqarishi ham mumkin.

imitoqo‘yish

ingl.imitation insert:

rus.: имитация вставки

qarang: xabarlar butunligi kodi

IMS

qisq.: Information Management System

Axboriy boshqaruv tizimi.

imzo

ingl.: signature

rus.: подпись

Familiya, ism, manzil va boshqa axborotdan iborat kichik matn. Uy katalogidagi maxsus fayldan olinadigan imzo avtomatik ravishda jo‘natilayotgan xat va teleanjumanda jo‘natilgan maqolalar oxiriga qo‘shiladi. Raqamli imzo – shaxsingizga guvoh bo‘lувчи maxfiy kod.

imzo kaliti sertifikati egasi

ingl.: owner of key certificate

rus.: владелец сертификата ключа подписи

Nomiga ro‘yxatga olish markazi tomonidan imzo kaliti sertifikati ajratilgan va tegishli o‘z yopiq elektron-raqamli imzo (ERI) kalitiga ega jismoniy shaxs. ERI kaliti ERI vositalari yordamida elektron hujjatlarda o‘z elektron raqamli imzosini yaratish (elektron hujjatlarga imzo chekish) imkonini beradi.

imzo kaliti sertifikati foydalanuvchisi

ingl.: e-signature certificate user

rus.: пользователь сертификата ключа подписи

Elektron raqamli imzo kaliti sertifikatida keltirilgan ma’lumotlardan foydalanuvchi jismoniy shaxs. U bunday ma’lumotlarni yoki sertifikatni ro‘yxatga olish markazidan olib, elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo kaliti sertifikati egasiga tegishliligini tekshirish jarayonida ishlataladi.

informatika

ingl.: informatics

rus.: информатика

1. Axborot xususiyatlari va uni taqdim etish, to‘plash, unga avtomatik ishlov berish va uni uzatish usullarini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish. Informatikaga hisoblash texnikasini yaratish va undan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan turli masalalar bilan shug‘ullanuvchi fanlar guruhi kiradi: amaliy matematika, dasturlashtirish, sun’iy tafakkur, kompyuter arxitekturasi, hisoblash tarmoqlari va h.k.

2. Axborotning tabiat va jamiyatda harakatlanishining qonuniyatları va shakllari to‘g‘risidagi fan. Fanlararo tavsifga ega murakkab ilmiy yo‘nalish. Bugungi kunda ilmiy bilimning axborot jarayonlari, axborotni olish, o‘zgartirish, uzatish, saqlash va undan foydalanish usullari va vositalarini o‘rganuvchi asosiy sohalaridan biridir. Inson amaliy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jadal rivojlanuvchi va muntazam kengayuvchi soha.

3. Inson faoliyatining barcha sohalarida axborot, axborot jarayonlari va axborot tizimlarini o‘rganuvchi fan.

informatika obyekti

ingl.: computer science objects

rus.: объект информатики

1. Ma’lum vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan, axborotga ishlov berish uchun texnika vositalarining majmuasi bo‘lgan ko‘chmas yoki ko‘chma obyekt.

2. Turli vazifalarning avtomatlashtirilgan tizimlar, aks ettirish va ko‘paytirish, telekommunikatsiya tizimlari, ular o‘rnatilgan binolari bilan birgalikda, hamda ayrim axborotga ishlov berish texnika vositalari va maxfiy muzokaralar olib borish uchun mo‘ljallangan binolar.

Informix Software korporatsiyasi

ingl.: Informix Software corporation

rus.: корпорация Informix Software

Ma’lumotlar bazalari va bilimlar bazalarini yaratish bilan shug‘ullanuvchi kompaniya. 1980 yilda yaratilgan. Informix kompaniyasi tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlarni boshqarish relyatsion tizimlari mijoz-server me’moriy tuzilmasi uchun mo‘ljallangan, turli xil operatsion tizimlar muhitida ishlaydi, ommaviy parallel ishlov berish texnologiyasini keng qo‘llaydi.

informodinamika

ingl.: informodynamics

rus.: информодинамика

Axborot va uning o‘zini o‘zi tashkil qilishiga oid noyob hodisa, axborot hodisalarini bo‘ysunuvchi qonun (qidalar) haqidagi fan. U axborot hodisalarini energetika hodisalarini bilan aloqalari, jumladan jami axborot hodisalarini va

tafakkur, aql, umuman barcha negentropiya jarayonlarini ham qamrab oladi.

informografiya

ingl.: informography

rus.: информография

Axborot resurslarining jahon hamjamiyatida hamda u yoki bu mamlakat hududida taqsimlanish topologiyasini o'rganuvchi fan. U shuningdek, resurslar xususiyatlari, tegishliligi, ulardan erkin foydalanish osonligi, samarali foydalanish mumkinligini o'rganadi.

informologiya

ingl.: informology

rus.: информология

O'rganish obyekti makon, axborotning makondagi tashkillanishi, hamda axborot tizimlarining makonda qurilishi qonuniyatlari bo'lgan fan. V.S.Mokiy, A.O.Jamborova, O.YE.Shevay fikricha, uni, konsepsiysi tashqi dunyoni tadqiq qilishda umumiy tizimli yondashuvning mumkin bo'lgan turi sifatidagi fan kabi qabul qilish lozim. Informologiyaning umumiyligi vazifasi turli tadqiqot tamoyillariga asoslangan ilmiy yo'nalishlar doirasida olingan bilimlarni umumlashtirish va tartibga solishdir. Maqsadi ushbu barcha bilimlarni umumiy mazmun bilan to'ldirishdir.

infracizil interfeys

ingl.: infrared interface

rus.: инфракрасный интерфейс

Qurilmalarni simsiz ularash uchun ishlatiladigan interfeys. Bunda qurilmalar orasidagi aloqa infraqizil oraliqda ba'zi turdag'i svetodiiodlar tarqatadigan elektromagnit to'lqinlari orqali o'rnatiladi. Masalan, infraqizil interfeys orqali infraqizil portga ega noutbuk va printer ullanishi mumkin. Ma'lumotlarni infraqizil usulda uzatish uchun standart ishlab chiqilgan.

infracizil port

ingl.: infrared port

rus.: инфракрасный порт

Cheka qurilmalarni simsiz ularash uchun infraqizil interfeysi ta'minlovchi port. Masalan, infraqizil port mobil kompyuterlarda printerni ularash yoki mahalliy hisoblash tarmog'i bilan aloqa bog'lash uchun ishlatilishi mumkin.

inititsializatsiyalash

ingl.: initializing

rus.: инициализация

1. Dastur yoki tizimni yurgizish jarayoni.
2. Dasturlashtirishda – dastlabki qiymatli o'zgaruvchini belgilash.
3. Apple Macintosh kompyuterlari muhitida disk inititsializatsiyalash uni formatlashni bildiradi.

inkapsulyatsiya

ingl.: encapsulation

rus.: инкапсуляция

Obyektga-yo'naltirilgan dasturlashtirish atamasi. Dasturni sinflar deb ataluvchi hamda ma'lumotlarni va ularga ishlov berish tartibotini birlashtiruvchi alohida turdag'i modullarga ajratishni bildiradi. Bunda sinfdagi ichki ma'lumotlarga faqat mazkur sinf uchun mo'ljallangan tartibda ishlov berilishi mumkin. Har bitta bunday sinf amalga oshirish (yoki taqdim etish) deb ataluvchi ichki va interfeys deb ataluvchi sirtqi qismiga ega. Amalga oshirish faqat interfeys orqali mumkin. Shunday qilib, sinfni amalga oshirish xuddi kapsulaga solingan va yashirilgan bo'lib, inkapsulyatsiya atamasi shundan kelib chiqqan.

inkor

ingl.: negation

rus.: отрицание

1. Kommunikatsiyaga kiritilgan subyektlardan birini, muloqtdan to'la yoki qisman voz kechishi. Kommunikatsiya usullari va mexanizmlarini tavsiflashda, «inkor mumkin emasligi » tushunchasi, ko'p hollarda, almashuvga kiritilgan subyektlar, o'zlarining kommunikatsiyada ishtiroylarini inkor qila olmaydigan holatini ifodalaydi.
2. Bul algebrasining NOT operatori. Operatori bajarish natijasi, rost (TRUE) yoki yolg'on (FALSE) bo'ladi.

INMARSAT

qisq.: INternational MAritime SATellite organization

Xalqaro dengiz yo'Idosh aloqasi tashkiloti.

INRIA

qisq.: Institute Nationale de Recherche en Informatique et en Automatique

Informatika va avtomatashtirish [sohasida] tadqiqotlar milliy instituti (Fransiya). W3C konsorsiumi ishtiroychisi.

inson-kompyuter o'zaro ishlashi

ingl.: human-computer interaction

rus.: взаимодействие человека с компьютером

«Inson-mashina» axborot tizimida ro'y berayotgan jarayonlarni o'rjanuvchi ilmiy-tadqiqot yo'naliishi.

Integral mikrosxema

ingl.: integral microcircuit

rus.: интегральная микросхема

1. O'zaro bog'liq elektron elementlarga ega yarimo'tkazgich materialdan yasalgan kichik tarkibiy qism.

2. Oxirgi yoki oraliq shaklga ega bo'lgan elektron sxema vazifalarini bajarish uchun mo'ljallangan mikroelektronika mahsuloti. Uning elementlari va aloqlari mahsulot yaratilgan material hajmi va (yoki) yuzasida ajratib bo'lmash ravishda shakkantirilgan.

3. Bitta yarimo'tkazgich kristall yuzasida yoki ichida yaratilgan elektron sxema. Integral mikrosxema mantiqiy amallarni bajarish va axborotni saqlash qobiliyatiga ega bo'lgan ko'p sonli elektron elementlardan iborat. Buning uchun integral mikrosxema axborotga ishlov berish, uni saqlash va uzatishga oid turli vazifalar bajarishi mumkin. Katta integral mikrosxemalar (KIM) bitta kristalda minglab elektron mantiqiy elementlardan iborat bo'lishi mumkin, o'ta kattalari (O'KIM) esa millionlab elementlardan yaralgan.

Integral mikrosxema topologiyasi

ingl.: topology of integral microcircuit

rus.: топология интегральной микросхемы

Integral mikrosxema elementlari majmuasini va ular orasidagi aloqlarni moddiy tashuvchida qayd etilgan fazoviy-geometrik joylashuvi.

Integral sxema

ingl.: integral circuit

rus.: интегральная схема

qarang: integral mikrosxema

Intel korporatsiyasi

ingl.: Intel corporation

rus.: корпорация Intel

Dunyodagi eng katta kompyuter protsessorlari va mikrosxemalari ishlab chiqaruvchisi. AMD va Cyrix kompaniyalaridagi raqiblarning so'nggi muvaffaqiyatlariga qaramasdan, Intel shaxsiy kompyuterlar uchun mikroprotsessorlar bozorida hanuzgacha birinchi o'rinn egallab turibdi.

Intel kompaniyasi 1968 yilda Bob Noyce va Gordon Moorelar tomonidan yaratilgan.

INTELSAT xalqaro tashkiloti

ingl.: INTELSAT international organization

rus.: международная организация INTELSAT

Sun'iy yo'ldosh tarmog'iga ega xalqaro tashkilot. INTELSAT «xalqaro sun'iy yo'ldosh aloqasi tashkiloti» ITSO sifatida 1964 yilda yaratilgan, va 1995 yilga kelib unga 200dan ortiq mamlakat tashkilotlari a'zo bo'lgan. INTELSAT vazifasi birqalikda tadqiqotlar o'tkazish, ishlab chiqarish va sun'iy yo'ldosh tizimlaridan foydalishdir. U, shuningdek, aloqa yo'ldoshlariga bo'lgan talablarni tayyorlashni ham amalga oshiradi. INTELSAT yer ustti stansiyalari barcha qit'alarda joylashgan. Mayjud tizimning uzib-ulash bog'lamalari aloqa yo'ldoshlarida joylashgan.

Intercast texnologiyasi

ingl.: Intercast technology

rus.: технология Intercast

Ma'lumotlarni Internet tarmog'idan shaxsiy kompyuterlarga teleko'rsatuvlar tarmog'i orqali uzatish uslublari. Intercast texnologiyasi Intel korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan. Uni amalga oshirish uchun shaxsiy kompyuter maxsus plata yordamida teleko'rsatuvlar tarmog'iga ulanadi. Teleko'rsatuvlar tarmog'i esa, o'z navbatida Internet tarmog'iga ulanadi. Maxsus yaratilgan dasturiy ta'minot berilgan mavzu bo'yicha Internetda axborot izlaydi, uni guruhlaydi va kompyuterga uzatadi. Eng ommaviy lashgan mavzularga quyidagilar kiradi: artistlarning tarjimai holi, konsert dasturlari haqidagi e'lonlar, musiqali videofilmlarning yangi yozuvlari.

Interfeys

ingl.: interface

rus.: интерфейс

IKKI tizim o'zaro samarali aloqada bo'lgan makon.

1. Ikkita funksional qurilmalar orasida birligida foydalilanildigan berk makon. U vazifa, jismoniy o'zaro ishslash va signal almashtinuvlari hamda boshqalarga xos turli tavsifnomalar bilan belgilanadi.

2. Qurilma va dasturlarning o'zaro yoki foydalananuvchi bilan o'zaro ishslashiga oid jami qoidalari va ushbu o'zaro ishslashni amalga

oshiruvchi vositalar. Interfeys tushunchasi turli qurilma yoki dasturlarni o'zaro yoki foydalanuvchi bilan bog'lovchi apparatli va dasturli vositalarni ham, ushbu vositalar asoslanib yaratilgan qoida va algoritmlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, qurilmalar interfeysi – bu ular orasidagi aloqa liniyalari ham, biriktirish qurilmalari ham, qurilmadan qurilmaga uzatiluvchi signal va ma'lumotlarni o'g'irish usuli ham, aloqa kanalining jismoniy xususiyatlari ham.

Internet

ingl.: Internet

rus.: Интернет

1. Butun jahon global tarmog'i. U davlat, ta'lim, tijorat, harbiy va korporativ tarmoqlarni birlashtirib, IP (Inter-network Protocol) ma'lumotlarni uzatish bayonnomasiga asoslangan.

2. Ommaviy yoki xususiy ravishda yuqori darajali kommunikatsiya xizmatlarini ta'minlovchi global axborot tizimi. Uning qismlari IP bayonnomasiga asoslangan noyob manzil makoni orqali o'zaro bog'liqdir.

3. Yer sharini qamrab olgan o'zaro bog'liq kompyuter tarmoqlari to'plami. Internet, barchasi IP bayonnomasidan foydalanuvchi kompyuterlar, elektron pochtasi, e'lonlar doskalari, ma'lumotlar bazalari va mulohaza guruhlaridan erkin foydalanishni ta'minlaydi.

Internet banki

ingl.: Internet bank

rus.: Интернет-банк

Internet - bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bank. Mijozlarga Internet orqali xizmat ko'rsatuvchi an'anaviy bank ham, virtual bank ham Internet - bank hisoblanishi mumkin.

Internet bayonnomasi

ingl.: Internet protocol

rus.: Интернет-протокол

qarang: IP

Internet brokeri

ingl.: Internet broker

rus.: Интернет-брóкер

Internet treyding xizmatlarini ko'rsatuvchi brokerlik (sarmoya) kompaniyasi.

Internet do'koni

ingl.: Internet shop

rus.: Интернет-магазин

Mahsulotlarni iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri sotishni amalga oshiradigan web-server. Bunda iste'molchilarga axborot berish, mahsulotga buyurtma berish va shartnomaga tuzish Internet do'konini saytida amalga oshiriladi.

Internet etiketi

ingl.: etiquette of Internet

rus.: этикет Интернета

Internet amalda qonunlar bilan tartibga solinmaydi. Bundan, to'g'ridan to'g'ri unga tatbiq qilsa bo'ladigan «voqeiy hayot» qonunlari, istisno. Ammo Internet hamjamiyatining ayrim urf-odatlari va madaniyati mavjud, ularga vebustalar va foydalanuvchilar bo'yusnadir. Bu yozilmagan qonun netiket deb ataladi, ya'ni «tarmoq etiketi» (<net> – tarmoq so'zidan).

Internet foydalanuvchilarining motivatsiyasi

ingl.: Internet user motivations

rus.: мотивации пользователей Интернета

Foydalanuvchilarni faoliyka chorlovchi va ularning tarmoq axborot makonida ishlashga yo'naltirilishini belgilovchi mayllar. Motivatsiyaning quyidagi turlari ajratiladi (ahamiyatiligi kamayib borgan tartibda): ish, bilish, hamkorlik, o'zini ifoda etish, affiliativ (ijtimoiy mohiyatni ifoda etish), dam olish va o'yin, o'z mavqeini aniqlash, kommunikativ. Foydalanuvchilar motivatsiyalari vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi – ish va kasbiy tavsifdagi mayllar ahamiyati sekin kamayib, kommunikativ, korporativ va ijodiy ma'noli mayllar ahamiyati oshadi.

Internet futurologiyasi

ingl.: Internet futurology

rus.: фьютюровология Интернета

Ilmiy bilimlar sohasi (sinonimi-bashoratlash, prognostika). U tarmoq axborot makonining rivojlanish istiqbollarini qamrab oladi. Bu Internet sanoatini voqeiy rivojiga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi, tahlilchilarning tadqiqotlarida va nashr etishda ajratilmaydigan mavzudir.

Internet hamjamiyati

ingl.: Internet community

rus.: Интернет-сообщество

Nisbatan barqaror aloqalar va munosabatlar tizimi. U tarmoq axborot makoni

foydalanuvchilari orasidagi birgalashgan faoliyat jarayonida tashkil topgan. Shaxslararo aloqalardan farqli o'laroq, Internet hamjamiyati agentlari «barcha barcha bilan» turidagi to'g'ridan-to'g'ri axborot almashuvi asosida o'zaro aloqada ishlaydilar.

Internet inkubatori

ingl.: *Internet incubator*

rus.: *Интернет-инкубатор*

Internet kompaniyalari va loyihalarini tezkor ravishda tayyorlash va bozorga chiqarishga qaratilgan venchur sarmoya modeli.

Internet jamiyati

ingl.: *Internet society (ISOC)*

rus.: *общество Internet*

Internetni rivojlantirish sohasida hamkorlikni tashkillash va tirishishlarni muvofiqlashtirish masalalari bilan shug'ullanadigan xalqaro notijorat tashkiloti. ISOC 1991 yili AQSH da manfaattdor tashkilotlar tomonidan tuzilgan. Uning asosiy vazifasi bo'lib, zamonaviy axborot texnologiyalarini ommalashtrish va axborot tarmoqlarini global axborot infratuzilmasiga birlashishiga yordam berish hisoblanadi.

Jamiyat, Internet tarmog'ini ekspluatatsiya qilmaydi, lekin, uni yaratishda, rivojlantirishda va ishlatishda yordam ko'rsatadi. U, shu bilan birga, Internet arxitekturasini o'rganish va tarmoqni ekspluatatsiya qilish bo'yicha o'qitish olib boradi, tarmoq tadqiqotlarini va ishlanmalarini rag'batlantirish uchun texnik va tadqiqot ishchi guruhalrini yaratadi.

Internet kimoshdi savdosi

ingl.: *Internet auction*

rus.: *Интернет-аукцион*

Elektron savdo tizimi. Unda mahsulotlar bevosita bitta insondan boshqasiga sotiladi. Odatda «iste'molchi-iste'molchi» sohasiga tegishli. Bunday kimoshdi savdosiga mashhur www.ebay.com sayti misol bo'lishi mumkin. Kimoshdi savdolari to'g'ridan-to'g'ri «biznes-biznes» sohasiga ham taalluqli bo'lishi mumkin, masalan, energiya kimoshdi savdolari.

Internet kompaniyasi

ingl.: *Internet company*

rus.: *Интернет-компания*

Internet xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda

haqiqiy biznes (jumladan, savdo) yurituvchi kompaniyalardan uni farqlash lozim.

Internet marketing

ingl.: *Internet marketing*

rus.: *Интернет-маркетинг*

Internet tarmoqlari resurslaridan foydalanishga asoslangan onlays marketing.

Internet maslahatxonalari

ingl.: *Internet advising*

rus.: *Интернет-консультации*

Huquq, soliq, firmalarni ta'sis etish va boshqa masalalar bo'yicha onlays maromida o'zaro aloqada ishlash. Ularni yo'lga qo'yish uchun elektron pochtasi, Internet anjumanlaridan foydalaniadi. Elektron biznes turi bo'lgan elektron konsaltingdan farqlash lozim.

Internet ovozberishi

ingl.: *Internet voting*

rus.: *Интернет-голосование*

Ovoz berishning turli shakllari. U ijtimoiy fikrnı o'rganish, referendumlardan tortib Internet orqali o'tkaziladigan siyosiy saylovni ham o'z ichiga oladi. Saylovchi ma'lum veb-saytda elektron bulletenini olib o'z ovozini beradi. Bulleten haqiqiyligi raqamlı imzo orqali kafolatlanadi. Ovoz berish sirini ta'minlash, elektron bulletenlari bilan turli shakl o'zgartirishlar va xakerlik hujumlari muhim muammolardan hisoblanadi. Elektron hukumati faoliyati doirasida alohida ahamiyatga ega. Kelajak texnologiyasi.

Internet portalı

ingl.: *Internet portal*

rus.: *Интернет-портал*

Foydalanuvchilarga Internet orqali kerakli axborotni izlashda yordam beruvchi sayt. Ba'zan bunday saytlar navigatsiya saytlari deyiladi.

Internet provayderi

ingl.: *Internet service provider (ISP)*

rus.: *Интернет-провайдер*

Foydalanuvchilarga Internetdan erkin foydalanish xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya.

Internet qonuniyatatlari

ingl.: *Internet regularities*

rus.: *закономерности Интернет*

Tarmoqli axborot makoni jarayonlarining obyektiv turg'un tartiblanganligi. Ularga, bechegaralik, giperbog'langanlik, kirisimlilik, gipervaqt ko'lamida kommunikatsiya, hududiy cheklanishlarning yo'qligi kiradi.

Internet reklama

ingl.: *Internet advertisement*

rus.: *Интернет-реклама*

Internet tarmog'idagi reklama. Odatta ikki pog'onali bo'ladi:

1 – reklama tashuvchisi: reklama beruvchi tomonidan nashr qiluvchida joylashtiriladigan tashqi reklama.

2 – bevosita reklama beruvchining saytlari.

Internet resursi reytingi

ingl.: *ratings*

rus.: *рейтинг Интернет-ресурса*

Tayinli vaqtda, biror bir Internet – resurs (xuddi shunday, teledastur, bosma nashr, radiostansiya) bilan qamrab olingan maqsadli guruh auditoriyasi foizi. Reytingni har bir bandi bir foizga mos keladi.

Internet sanoati

ingl.: *Internet industry*

rus.: *индустрия Интернет*

Tarmoq axborot makonining faoliyatini ta'minlovchi moddiy va aqliy ishlab chiqarish sohasi. Sharqli ravishda olita sohaga bo'linadi: apparatura, dasturiy ta'minot, erkin foydalanish, axborot to'ldirilishi, xizmatlar, maslahatlar.

Internet serveri

ingl.: *Internet server*

rus.: *Интернет-сервер*

Xohlagan kerakli Internet xizmatlar faoliyatini ta'minlovchi texnikaviy va dasturiy vositalar: http (sayt), Email (elektron pochtasi), anjumanlar, ftp va h.k. Saytni Internetda joylashtirish uchun kamida http xizmatini qo'llab-quvvatlovchi Intenet serveri zarur.

Internet tarmog'ining axborot resursi

ingl.: *Internet information resource*

rus.: *ресурс информационной сети Интернет*

Tuzilmalamashtirilgan axborot yig'masi. Undan Internet tarmog'i vositalari tomonidan ochiq erkin foydalanish maromida taqdim qilinadigan noyob manzilga ega.

Internet telefoniyasi

ingl.: *Internet phone*

rus.: *Интернет-телефония*

IP telefoniyasining xususiy holi. U telefon trafigini uzatish liniyalari sifatida oddiy Internet kanallaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Internet treyding

ingl.: *Internet trading*

rus.: *Интернет-трейдинг*

Internet orqali savdo (sarmoya) hisob raqamlariga aksiyalarni va boshqa fond qiymatlarini sotib olish/sotish bo'yicha amallarni amalga oshirish imkonini bilan masofada turib erkin foydalanish.

Internet uzatishi

ingl.: *Internet broadcasting*

rus.: *Интернет-вещание*

Internet kanallari orqali uzatiladigan axborotning (yangilik lentalari, radio, video, saylov natijalari to'g'risidagi xabarlar va h.k.) dinamik o'zgarishi. O'zaro faol televide niye asosi. Internet orqali teleuzatish kuchli kompyuter va dekoder, yuqori tezlikdagi aloqa va ixtisoslashtirilgan server mavjudligini talab qiladi. Eng tez rivojlanayotgan texnologiyalardan biri.

Internet xizmatlari

ingl.: *Internet services*

rus.: *Интернет-услуги*

1. Internet tarmog'i abonentlariga amaliy bayonnomalari tomonidan taqdim etiluvchi funksional imkoniyatlar majmui: elektron pochta, fayllarni qabul qilish va uzatish, veb-hujatlarni o'qish, voqeiy vaqtidagi muloqot (chat), terminal orqali erkin foydalanish, tarmoqda hujatlarni saqlash va ishlash va h.k.
2. Foydalanuvchilar uchun xizmatlar. Unga tarmoqdan erkin foydalanish, Internet resurslarini ishlab chiqish, tashkiliy va axborot ta'minlash, tarmoqda reklamani yaratish va joylashtirish kiradi.

Internet-2

ingl.: *Internet-2*

rus.: *Интернет-2*

Yangi Internet infratuzilmasini yaratish loyihasi. Yangi IPv6 bayonnomasiga asoslangan bo'lib, allaqachon 150 dan ko'p universitetni birlashtirgan. Yuqori samaradorlik, ishonchilik va ma'lumotlarni uzatish tezligiga ega (soniyasiga 2,4 Gigabit). Tasvir va tovushni uzilishlarsiz uzatilishini va uzatish kanallarining

barqaror kengligini kafolatlaydi. Uning yordamida tarmoqning ortiqcha yuklanishi muammosi hal bo‘ladi, trafikni tartibga solish va uning deyarli darhol uzatilishi imkonи paydo bo‘ladi. Kelajakda tarmoq televideniyesini yaratish, golografik va sezish mumkin bo‘lgan tasvirni uzatishga yo‘l ochiladi.

Internetda muloqot

ingl.: communication in Internet

rus.: общение в Интернете

Internet – bu nafaqat ommaviy axborot vositasi va butundunyo ma‘lumotnomasi, balki muloqot muhiti hamdir. Internetning, muloqot joylarini – chatlar, forumlar, mehmon kitoblari, tarqatish ro‘yxatlari. Shunga o‘xshash tashkiliy imkoniyatlar beradigan vositalari ko‘p. Qoida bo‘yicha, har bir bunday joy o‘z egasiga ega bo‘lib, u (moderator) o‘sha yerdagi tartibni nazorat qiladi. Odatda, bunday joylar o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmaydi, balki qandaydir mavzuviy saytlarning qismi bo‘ladi. Agar mavzu qiziqish uyg‘otadigan va sayt yetarlichcha davomatli bo‘lsa, bunday joylar atrofida, «kommyuniti» (ingлиз tilidagi community so‘zidan) yoki «uyushma» yig‘ilishi mumkin.

Internetdagi manzil

ingl.: Internet address

rus.: адрес в Интернете

Sahifay yoki boshqa resursning Internetda joylashishini aniqlovchi noyob manzil. Internetdagi manzil odatda to‘rtta elementdan iborat: resursdan erkin foydalanish bayonnomasi, masalan <http://>; odatda resursni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilot nomi bilan bir xil bo‘lgan server nomi; resursni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilot turini belgilovchi qo‘srimcha. Internetdagi manzil, shuningdek. URL (Uniform Resource Locator) manzili deb ham ataladi.

Internetga ruhiy og‘ish

ingl.: Internet addiction

rus.: Интернет-аддикция

Internetga ruhiy bog‘liq bo‘lishning haqiqatan mavjud bo‘lgan hodisasi. (Uni kasallik deb hisoblash uchun ayni paytda klinik ma‘lumotlar yetarli emas). Internetga bog‘liqlik ko‘rinishlari orqasida, shuningdek, boshqa ruhiy og‘ishlar ham yashiringan bo‘lishi mumkin. Voqelikdan o‘ziga xos uzoqlashish ko‘rinishida namoyon

bo‘ladi. Bunda tarmoqdan foydalanish jarayoni subyektni shu darajada o‘ziga rom qiladiki, u voqe dunyoda to‘la faoliyat ko‘rsatish qobiliyatini yo‘qotadi.

Internetga ulanish

ingl.: Internet connection

rus.: подключение к Интернету

1. Ajratilgan aloqa kanali (optik tolasi, yo‘ldosh aloqasi, radiokanal, ajratilgan uzibulanmaydigan telefon liniyasi) bo‘yicha doimiy ulanish
2. Uzib-ulanadigan (Dial-up) ulanish. To‘lov bepul yoki ishslash vaqt uchun aniq bo‘lishi mumkin.

Internetika

ingl.: Internetics

rus.: Интернетика

Amaliy ilmiy yo‘nalish. U global kompyuter tarmog‘ining inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilishiga oid xususiyatlar, qonuniyatlar va foydalanish usullarini o‘rganadi. Informatikaning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish jihatida qarashda uming mantiqiy davomidir.

Internetika obyekti va predmeti

ingl.: Internet science objects

rus.: объект и предмет информатики

Axborot muhiti, uning xossalari, hamda unda yuz berayotgan jarayonlar. Bular global kompyuter tarmog‘i vositasida kommunikatsiyalar amalga oshirgan holatga tegishliligi nazarda tutiladi.

Internetni rostlash

ingl.: Internet regulation

rus.: регулирование Интернета

Internetni rivojlantirish va quvvatlashga qaratilgan qonunchilikka oid va tashkiliy tadbirlar majmui. Bularga: tijorat sohasidagi qonunchilik, raqobatni rivojlantirish, litsenziyalash, texnologiya standartlari, narxlarni rostlash, soliq solish, intellektual mulkni, iste’molchilarni, pinhoniylikni muhofazalash, provayderlarning ma‘suliyatini ta‘minlash, kompyuter jinoyatchiliginini ta‘qib qilish va boshqalar kiradi. Internetni rostlash tadbirlari shaffoflikni va oshkoraklikni ta‘minlashi zarur. Internetning noyob tabiatib sababli, uni tartibga solish mushkul va ko‘pgina mamlakatlarda maxsus “Internet to‘g‘risida”

qonun qabul qilinmagan. Hukumatlarning xaddan ziyod bu masaladagi harakatlari Internetning eng asosiy yutuqlaridan biri – uning ozodligini yo‘q qilish xavfi ham mavjud.

Internetni tartibga solish

ingl.: *sorting of Internet*

rus.: *упорядочение Интернета*

Tarmoq axborot makonining ichki tartibga solinishi. U asosiy axborot bog‘lamalarini tartibga solish, guruhlarga qayta ajratish va ularni muayyan mavzular bo‘yicha birlashtirishni ko‘zlaydi. Axborot resurslari inson faoliyatining aniq sohalari atrofida birlashadi, masalan ilm, ta‘lim, iqtisodiyot, san‘at, siyosat va h.k. Birlashish nuqtalari sifatida ushbu sohalarning tarmoqlari (ko‘rinishlari, turlari) bo‘ladi. Bunday yondashuv tarmoq arxitekturasini o‘zgartirish zarurligidan kelib chiqib, quyidagilarni ta’minlashni talab qiladi: axborotni taqdim etish standartlarini ishlab chiqish; resurslarni maqsad, haqqoniylig va ahamiyatliligi, iqtisodiy imkoniyati bo‘yicha aniqlash; foydalanuvchi harakatlarini nazorat qiluvchi qoida va bayonnomalarni qabul qilish. Internetni tartibga solish boshqarishdan farq qilib, aslida texnologik jarayonlar tartibidir.

Internetning ichki tahdidlari

ingl.: *internal Internet threats*

rus.: *внутренние угрозы Интернета*

Tarmoq axborot makonining ahvoli va rivojlanishi uchun salbiy oqibatlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahididlari. Bular: tarmoqning ortiqcha yuklanganligi tufayli axborot kollapsi (qulashi); xakerlarning ma‘lumotlarni yo‘q qilish yoki o‘zgartirish, uzellar va trafikning «chetlab o‘tish» yo‘nalishlarini to‘sish maqsadida uyuşhtirgan hujumlari; kommunikatsion kanallarning tasodifiy yoki uyushtirilgan avariyalari; axborot-izlash tizimlarning mukammal emasligi; protokollarning «ma’naviy» eskirib qolishi va boshqalar.

Internetning tashqi tahdidlari

ingl.: *external Internet threats*

rus.: *внешние угрозы Интернета*

Foydalanuvchilar uchun salbiy oqibatlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahididlari. Tashqi tahididlari texnologik va ijtimoiy bo‘lishi

mumkin. Texnologik: sekin kanallar; tarmoqqa ulanishning unumsiz uslublari; olib keltirilgan viruslar; axborot «toshqini» va h.k. Ijtimoiy: foydalanuvchilarning jismoniy va psixik sog‘lig‘iga bo‘lgan ta’sir; insонning shaxsiy ongiga bo‘lgan ta’sir; axborot terrori va jinoyati; resurslarni ingliz tilida chop etish tendensiysi va boshqalar.

interneziya

ingl.: *internesia*

rus.: *интернейзия*

Ma‘lum axborotning qaysi veb-sayt yoki boshqa Internet manbaidan (email yoki yangiliklar guruhi) olinganligini eslash mumkin emasligi. Internet (Internet) va amneziya (amnesia) so‘zları birikmasidan yasalgan.

interpretator

ingl.: *interpreter*

rus.: *интерпретатор*

To‘la o‘girgich kabi, qadam-baqadam o‘girgich dastur tuzuvchi tomonidan yozilgan dastlabki kodni mashina kodiga o‘giradi. Masalan, BASIC tili uchun qadam-baqadam o‘girgich. To‘la o‘girish usuli butun dasturni o‘sha kompyuterda qo‘sishma o‘girishlarsiz keyingi safar ham undan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish uchun bir marta foydalaniladi. Qadam-baqadam o‘girgich esa, dastur kodining har bitta qatori bo‘yicha o‘giradi. Shuning uchun, mashina dasturni bajarishi uchun har safar qadam-baqadam o‘girgichdan foydalanishi lozim bo‘ladi.

intranet

ingl.: *intranet*

rus.: *интранет*

Internet standartlari, texnologiyalari va dasturli ta’minotidan foydalanuvchi tashkilot yoki korxonaning mahalliy hisoblash tarmog‘i. Odatta intranet Internet bilan brandmauer orqali bog‘langan bo‘lib, u tarmoqdan ruxsatsiz erkin foydalanishdan muhofaza qiladi. Intranet faqat tashkilot xodimlari tomonidan foydalaniladi, biroq uning ish hamkorlari ham undan erkin foydalanishi mumkin. Kompaniyalar intranet ya‘ni ichki veb-serverlaridan xodimlarni axborot bilan qulay va oson ravishda ta’minlash uchun foydalanadi. Masalan, universitetlarda barcha ma’ruza

materiallari, boshqa resurslar, talabalar uchun axborot, uy vazifalari intranetda mavjud bo‘ladi.

intratarmoq

*ingl.: intranetwork
rus.: интрасеть
qarang: intranet*

IP

qisq.: Internet Protocol

Internet – bayonnomma. TCP/IP bayonnomalari yig‘masidan iborat tarmoq pog‘onasi bayonnomasi. IP bayonnomada tarmoqdagi xar bir kompyuterga to‘rt xonalik IP – manzil (4 bayt) mos qo‘yiladi. Shu bilan birga nimirmoqdagi kompyuterlar manzilning umumiyligi boshlang‘ich bitlari bilan birlashtiriladi. Hamma joyda IP bayonnomaning 4 rusumi (IPv4) tarqalib ketgan, u RFC 791 da tavsiflangan. Shuningdek, bayonnomaning yangi 6 rusumi (IPv6) ishlab chiqilmoqda.

IP aliasi

*ingl.: IP-alias
rus.: IP-alias*

Bitta LAN interfeysida bir necha IP manzilni qo‘llab-quvvatlash imkonini beruvchi vazifa. Bu modemming bitta fizik qo‘sishchiga bir necha kompyuterni qo‘sishchiga ruterlar va boshqa tarmoq qurilmalarini o‘rnatmay ulash imkonini beradi. Bunda har bir kompyuter o‘z shaxsiy IP manziliga ega bo‘ladi.

IP bayonnomalari

*ingl.: IP protocol
rus.: протокол IP*

Xalqaro Internet kompyuter tarmog‘ining asosiy bayonnomalari to‘plami. Ular Internetda birlashgan hududiy tarmoqlarning ham, tarmoqqa alohida ulangan kompyuterlarning ham o‘zaro ishslash qoidalarini belgilaydi. Tarmoqlararo IP bayonnomasi 40 baytdan 32 Kbaytacha bo‘lgan axborotning apparatli vositalar va axborot tashuvchilariga ko‘ra «paketlar» shaklida uzatilishi hamda har bir paketning tarmoq orqali boshqa paketlardan mustaqil ravishda uzatilishini belgilaydi. Bunday texnologiya biror bir foydalanuvching tarmoqqa yakka hokim bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Paketlar ularni yetkazish uchun yetarli bo‘lgan Internet manzillari va sarlavhalarga ega bo‘ladi. Ma‘lumotlarni uzatishning boshqarish

bayonnomasi TCP (Transmission Control Protocol) ma‘lumotlarni paketlarga ajratish va ularga tartib raqami berish qoidalarini, hamda alohida paketlar olinganda axborotning to‘liq olinganligi, ma‘lumotlar esa to‘g‘ri tartibda joylashganligini tekshirish qoidalarini belgilaydi. Paketni uzatayotganda xato paydo bo‘lganligi aniqlanganda uning qayta uzatilishi so‘raladi. Internet orqali ma‘lumotlar uzatilishini amalga oshiruvchi apparatli va dasturiy ta‘minot TCP/IP bayonnomalariga binoan ishlaydi.

IP manzili

*ingl.: IP-address
rus.: IP-адрес*

1. Nuqtalar bilan ajratilgan to‘rtta sondan iborat noyob son. Har bir son 0-255 oralig‘ida bo‘lishi lozim. Masalan, 212.134.145.156. Internet tarmog‘idagi har bir kompyuter o‘zining noyob (doimiy yoki ulanish vaqtida belgilanadigan) IP manziliga ega. Kompyuterdan osonroq erkin foydalaniш uchun odatda uning domen nomidan foydalilanadi.

Internetga ulangan tarmoqlarni qurishda IP manzillar provayder tomonidan taqdim etilgan oraliqdan tanlab olinadi. Provayder tomonidan berilgan IP manzilga ega bo‘lmagan kompyuterlar (yo‘naltirish to‘g‘ri sozlanganda) mahalliy tarmoqlar uchun zahiralangan oraliqdagi IP manzillarga ega bo‘lib, boshqa mahalliy kompyuterlar bilan ishlashi mumkin: 192.168.0.1 - 192.168.255.255

172.16.0.1 - 172.16.255.255

10.0.0.1 - 10.255.255.255

Ushbu kompyuterlar Internetga proksi serverlar yordamida yoki IP maskarading orqali ulanishi mumkin.

2. IP bayonnomalari, masalan Internet asosida qurilgan hisoblash tarmog‘ida kompyuterning raqamli manzili. Bunday tarmoqda ma‘lumotlarni faqat IP manzillar bo‘yicha uzatish mumkin. Bugungi kunda 4 mldr. turli xil manzillarni ishlatish imkonini beruvchi 32-bitli manzillash qo‘llaniladi. Manzil makonining ma‘lum oraliqlariga alohida ishlov beriladi: masalan, o‘z-o‘ziga axborot uzatish uchun «teskari aloqa halqasi» (loopback), mahalliy hisoblash tarmoqlarida ishlatiladigan manzillar bloklari, keng ko‘lamda tarqatish (broadcast) va guruhiy uzatish (multicast)

manzillari. 32-bitli manzilni yozayotganda uning baytлari nuqtalar bilan ajratiladi, masalan: 192.168.38.94 (manzil 3'232'245'342 yoki C0A8265E16). Manzil ko'lamin kengaytirish uchun 128-bitli IPv6 manzillashini ishga tushirish rejaları bor. U tarmoqdagi turli qurilmalar uchun manzillarni erkin belgilash imkonini yaratadi. Inson uchun raqamli manzilni eslash noqulayligi tufayli bitta kompyuterga bitta yoki bir necha so'z ramzlarini berish imkonini yaratuvchi domen nomlarning maxsus tizimi ishlab chiqilgan.

IP telefoniyasi

ingl.: *IP-phone*

rus.: *IP-телефония*

Internet yoki boshqa IP tarmoqni ayni vaqtdagi xalqaro va shaharlararo telefon so'zlashuvlari va fakslarni jo'natishni tashkil etish va amalga oshirish vositasi sifatida qo'llanilishini ta'minlovchi texnologiya. Buning uchun tovush raqamli shaklga o'tkazilib raqamli ma'lumotlar uzatiladigan holda uzatiladi.

Odatda xalqaro va shaharlararo so'zlashuvlar ko'plab oraliq telefon stansiyalari orqali amalga oshirilib, har bir stansiya uzib-ulash uchun o'z narxini qo'shami va bu so'zlashuv narxining oshishiga olib keladi. Internet orqali amalga oshirilgan so'zlashuvlar telefon stansiyalari tarifikatsiyasiga uchramaydi. Shu bilan birga, IP telefoniyasida tovush sifati, sekinlik, zinchash algoritmi va xizmat sifati kabi muammolar mavjud.

IP shluzi

ingl.: *IP gateway*

rus.: *иптоуз IP*

IP-bayonnomadan foydalanadigan tarmoqda signallar yoki ma'lumotlarni tashish uchun yaroqli shaklga aylantiruvchi qurilma. Masalan, Internet orqali telefon aloqasini tashkil qilishda, analogli tovush tebranişlarini (nutqni) raqamli paketlarga aylantiruvchi qurilma.

IPL

qisq.: *Information Processing Language*

qarang: axborotga ishlov berish tili

IPO

qisq.:

1. Initial Public Offer – Dastlabki (aksiyalar) oshkora taklif qilinishi. Kompaniyani aksionerlash bosqichi.

2. Input-Processing-Output – Kirish-ishlov berish-chiqish, IPO diagrammasi. Tuzilmalali loyihalashning HIPO texnologiyasining asosiy elementi.

IPS

qisq.: *Information Processing System*
Axborotga ishlov berish tizimi.

IPsec

qisq.: *Secure IP*
Xavfsiz IP, IPsec bayonnomasi.

IPv6

qisq.: *Internet Protocol Version 6*
Internet – bayonnomma, 6-rusum. TCP/IP uchun tarmoq pog'onasidagi bayonnomanning yangi rusumi. Avvalgi, 4- rusumga nisbatan, IPv6 bayonnomasi manzillar fazosini kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifati (QoS) degan tushunchani kiritish imkonini beradi.

IPX

qisq.: *Internetwork Packet eXchange*
Tarmoqlararo paket almashushi, IPX bayonnomasi. Novell NetWare tarmoqlarida tarmoq pog'onasi bayonnomasi, IP ga o'xshash.

IPX/SPX

qisq.: *Internetwork Packet eXchange/Sequenced Packet eXchange*
IPX/SPX bayonnomalarining steki. Novell NetWare tarmoqlarida ishlatalidi. IPX bayonnomasi tarmoq pog'onasini ta'minlasa (paketlar yetkazish, IP ga o'xshash), SPX transport va seans pog'onalarini ta'minlaydi (TCP ga o'xshash).

IR

qisq.: *InfraRed*
Infracizil (IQ). Masalan, IQ-port (noutbukda, shaxsiy kompyuterda).

IRC

qisq.: *Internet Relay Chat*

Haqiqiy vaqt Internet chati. Internetda boshqa odamlar bilan haqiqiy vaqt rejimida bog'lanish uchun ishlataladigan xizmat tizimi. IRC 1988 yili fin talabasi Yarko Oykarinen (Jarkko Oikarinen) tomonidan yaratilgan. Rus kompyuter slengida IRC ni «Irka» deb ataladi.

Foydalanuvchi IRC-mijoz dasturi yordamida IRC-serverga ulanganda, erkin foydalanishi uchun kanallar ro'yxatini ko'radi, ularning har biridan (yoki birdaniga bir nechasiga) «erkin foydalanishi» mumkin. Kanal virtual «xonalar» shaklida namoyon bo'ladi, unda bir necha kishi bo'lishi mumkin. Bu kanalda berilayotgan barcha xabarlar shu kanaldagilarning barchasiga ko'rindi. Har bir kanal o'z nomiga ega, odatda muhokama uchun o'z mavzusiga ham. Foydalanuvchi kanalga ulangandan so'ng ekranga qolgan munozara ishtrokhchilari nima ko'rsatayotganini ko'radi, hamda o'zi ham unda ishtirot etishi mumkin. Odatda kanaldagi munozara mavzusi uning nomidan kelib chiqadi (masalan, kanal ##OpenGL).

IRC ga ularish uchun maxsus mijoz-dastur kerak bo'ladi. Ko'proq tanilgan mijoz-dasturlar: mIRC - <http://www.mirc.com> va Xchat - <http://xchat.org> lardir

IrDA

qisq.: Infrared Data Association

1. Ma'lumotlarni infraqizil uzatish uyushmasi. Xalqaro uyushima, ma'lumotlarni infraqizil spektr oralig'iда uzatishning xalqaro standartini yaratish uchun 1993 yili yaratilgan.
2. IrDA standarti. IrDA uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan ma'lumotlarni infraqizil uzatish standarti.
3. Telefonda infraqizil portni (IQ-port) mayjudligi, u mobil telefonni ixtiyoriy IQ-portga ega qurilma (noutbuk, cho'ntak kompyuteri, modem va h.k.) bilan simsiz va to'g'ridan – to'g'ri ko'rindigan masofadan ularish o'rnatishga imkon beradi. Kompyuter bilan aloqadan foydalanib, siz telefonga yangi logoturlar va kuylarni yuklashingiz, telefon va kompyuter orasida sinxronlashni amalga oshirishingiz (masalan, manzillar kitobidagi yoki oynomadagi yozuvlar bilan almashish), bevosita kompyuterdan SMS-xabarlarni qabul qilish va jo'natishni boshqarishingiz mumkin. IQ-portga ega mobil telefon noutbuk uchun modem sifatida yoki cho'ntak kompyuteri (agar telefon GPRS standartini quvvatlasa) sifatida ishlatalishi mumkin.

IRQ

qisq.: Interrupt ReQuest (line)

Tanaffuslarni so'rov liniyasи. Qurilma kompyuterning protsessorga tanaffus signalari uzatiladigan liniya tartib raqami. PnP paydo bo'lgunga qadar, bu qiymatni qo'lda o'rnatishga to'g'ri kelardi.

IRTF

qisq.: Internet Research Task Force

Internet tadqiqotlar ishchi guruhi [rivojlantirish uchun]. Internetni bayonnomalari, arxitekturasi va texnologiyalari masalalari ustida ish olib boradi.

IRU

qisq.: Indefeasible Right of Use

Foydalanish uchun ajralmas huquq. Xalqaro optik kabellarga nisbatan qo'llanadigan uzoq muddatli ijara xili. Aniq o'tkazish qobiliyatiga ega bir necha kanallarni ajratishda ifodalanadi.

I

IS

qisq.: Information System

Axborot tizimi.

ISA

qisq.: Industry Standard Architecture

Standart sanoat arxitekturasi, ISA [shina] standarti. Kompyuter shinasi standarti. Shaxsiy kompyuterlarda amalda PCI standarti tomonidan siqib chiqarilgan.

ISAPI

qisq.: Internet Server Application Programming Interface

IIS (Microsoft) uchun API. Qo'shimcha DLL fayllarni qo'shish evaziga IIS vazifalar doirasini bajaradigan kengaytirish imkonini beradi.

ISBN

qisq.: International Standard Book Number

Kitob uchun xalqaro standart tartib raqami. Kitobga nashrlovchi tomonidan beriladigan 10-xonalik noyob tartib raqami. Tartib raqamlash tamoyillari ISO 2108 ko'rsatmalarida keltirilgan.

ISDN

qisq.: Integrated Services Digital Network

qarang: xizmatlari birlashgan raqamli tarmoq

ISO

qisq.: International Organization for Standardization

qarang: Xalqaro Standartlar Tashkiloti (XST)

ISOC*qisq.: Internet SOCiety*

Internet hamjamiyati. Internetni rivojlantirish sohasidagi hamkorlikni tashkil qilish va harakatlarni muvofiqlashtirish masalalari bilan shug‘ullanadigan xalqaro notijorat tashkilot.

ISP*qisq.: Internet Service Provider*

Internet xizmatlari yetkazib beruvchi. Boshqa tashkilotlarga va xususiy shaxslarga Internetdan erkin foydalanish xizmatlarini va qo’shimcha xizmatlarni (e-mail, news, xosting) taqdim qiluvchi tashkilot.

iste’molchi iste’molchi uchun*ingl.: customer to customer (C2C)**rus.: потребитель для потребителя*

Tijorat munosabatlari iste’molchilarning bir-biri bilan muloqotida quriladigan bozor sohasi. Ushbu soha veb-resurslariga Internet kim oshdi savdolari misol bo‘laoladi.

iste’molchi uchun biznes*ingl.: business-to-customer (B2C)**rus.: бизнес для потребителя*

1. Axborot makonida iqtisodiy faoliyat sohasi. Bu soha yakuniy foydalanuvchi talablarini qondirishga va uzoq muddatga mo‘ljallangan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

2. Biznes olib borishning elektron modeli. Unda yakuniy mahsulot iste’molchisi bilan ishlab chiqaruvchi orasida kelishuvlar elektron ko‘rinishda bajariladi. B2C sektoriga, Internet orqali bevosita iste’molchilar va boshqalar bilan savdo qiluvchi elektron do‘konlar, tashkilotlar kiradi.

ISV*qisq.: Independent Software Vendor*

Mustaqil dasturiy ta’minotni yetkazib beruvchi.

IT*qisq.: Information Technology*

Axborot texnologiyasi. Axborot yaratish, saqlash, ishlov berish va uni uzatish amalga oshiriladigan ixtiyoriy texnologiyani bildiradigan tushuncha.

itoatkorlik*ingl.: non-failure operation**rus.: безотказность*

Obyektning berilgan sharoitda, berilgan vaqt oralig‘i davomida talab qilingan amallarni bajara olish qobiliyati

ITU*qisq.: International Telecommunications Union**qarang: Xalqaro Elektr Aloqa Ittifoqi (XEAI)***ixcham disk***ingl.: Compact Disk (CD)**rus.: компакт-диск*

Markazida teshigi bor disk shaklidagi axborot tashuvchisi. Undan axborot lazer yordamida o‘qib olinadi. CD shaklidagi kichkina optik yig‘uvchilar. Ular foydalanishda qulay va katta hajmdagi axborotlarni yozish imkonini beradi. Shu sababli CD disklar kasbiy axborot tizimlarida ham, maishiy elektronikada ham keng tarqalib ketdi. Axborotni yozish tavsifi va qo’llanish sohasiga qarab disklarni bir necha turlarini ajratishadi: CD-R (yoziladigan disk), CD-RW (qayta yoziладиган disk), CD-DA (tovush yozish uchun raqamlı tovush disk), DVD (diskret signallarni yozadigan raqamlı videodisk) va boshqalar. Ixcham disk. U qalinligi 1,2 mm va diametri 12 sm bo‘lgan doira shaklidagi yupqa plastinadan iborat. Disk polikarbonat asosidan tarkib topgan, uning bir tarafi lak plyonkasi bilan muhofazalangan, yupqa aluminimiqtatlami bilan qoplangan.

ixcham kompyuter*ingl.: portable computer**rus.: компьютер переносимый*

Kichkina ko‘chma shaxsiy kompyuter, u muxtor ozuqa manbaidan ishlay oladi.

izlash agenti*ingl.: search agent**rus.: агент поисковый*

Tarmoqni doimiy ravishda kezib yuruvchi va veb-sahifalardan axborot yig‘uvchi (ularni indekslovchi) maxsus dastur.

izlash tizimi*ingl.: search engine**rus.: поисковая система*

Internet tarmog‘ida axborot izlash va uni yetkazish uchun mo‘ljallangan tizim. Axborotni kataloglashtirish uchun tashkil qilingan. Odatta keyinchalik ushbu axborotni topishni osonlashtirish uchun HTML sahfalarini indekslashdan foydalanadi. Izlash

mashinasining ishi ikki bosqichdan iborat. Maxsus dastur (izlash roboti, avtomati, agenti, o'rgimchak. Qurt) tarmoqni doimiy ravishda kezib yurib veb-sahifalardan axborot yig'adi (ulari indekslaydi). Foydalanuvchi so'rov berganda izlash oldindan qurilgan indeks orqali amalga oshiriladi. Izlash natijasi – so'rovga tegishli hujjatlarga (veb-sahifalarga) murojaatlar ro'yxatidir.

Izlash mashinalari faoliyat sohasi bo'yicha mahalliy (milliy domen, ma'lum til bilan cheklangan) va globallarga bo'linadi.

izlash tizimida veb-saytni ro'yxatga kiritish

ingl.: web-site registration in searching system

rus.: регистрация веб-сайта в поисковой системе

Veb-saytning manzilini izlash tizimi ma'lumotlar bazasining indekslanadigan serverlar yoziladigan sohasiga bepul kiritib qo'yish tartiboti. Agar siz, saytingizda joylashtirilgan axborot bilan yetarlicha foydalanuvchilar tanishishini istasangiz, izlash tizimida reklama qilinayotgan serverning URL ni ro'yxatga olish kerak. Buning uchun, izlash tizimining birinchi sahifasida «URL qo'shish / Add URL» murojaatiga chertish yetarli.

izlovchi

ingl.: search engine

rus.: поисковик

qarang: izlash tizimi

izomorfizm

ingl.: isomorphism

rus.: изоморфизм

Obyektlardan tuzilgan ikki to'plam orasidagi munosabat bo'lib, birinchi to'plamdan tanlangan har bir obyekt uchun ikkinchi to'plamning yagona elementi mos keladi. Izomorfizm analogiya tushunchasining matematik aniqlashgan holidir. Izomorfizm ushbu ikki to'plam uchun bir xil bo'lgan jami xususiyatlarni belgilaydi, ya'ni ularning biri uchun chiqarilgan xulosalar boshqasi uchun ham to'g'ridir. S tizimiga izomorf bo'lgan S' har qanday obyektlar tizimi S tizimining «modeli» hisoblanishi va S tizimining xilma-xil xususiyatlarini o'rGANISH S' «model» tizimi xususiyatlarini o'rGANISHGA keltirilishi mumkin.

ish guruhi

ingl.: working group

rus.: рабочая группа

Umumiylar resurslarga ega bo'lib, ulardan foydalanuvchilar to'plami. Mahalliy tarmoqlarda ish guruhi, foydalanuvchilarining funksional majburiyatlari belgilagan vazifalar majmuini bajarish uchun tuziladi. Masalan, loyiha ishlab chiqish, elektron marketing o'tkazish. Tarmoqda bu guruhga maxsus resurslar: axborot tizimlari, amaliy dasturlar, qurilmalar ajratiladi. Shunga mos tarzda, ish guruhining resurslari qolgan tarmoq foydalanuvchilaridan mantiqiy yakkalab qo'yiladi. Guruh ixtiyoridagi axborotdan erkin foydalanish huquqi faqat guruh a'zolariga qagina tegishli. Ish guruhining faoliyatida, elektron pochta va videokonferensiyalar muhim rol egallaydi. Ish guruhi g'oyasi taraqqiyoti virtual tarmoqlar yaratilishiga olib keldi.

ish stansiyasi

ingl.: workstation

rus.: рабочая станция

1. Bitta foydalanuvchi uchun mo'ljallangan shaxsiy kompyuterdan quvvatliroq kompyuter. Odatta kasbga yo'naltirilgan avtomatlashtirilgan ish joyi sifatida ishlatiladi. Ish stansiyasi foydalanuvchi tomonidan bir necha vazifa ishga tushirilishi, ya'ni, ma'lumotlarga ko'pvazifali ishlov berish maromi bilan tavsiflanadi. Bu amaliy jarayonlar guruhini bajarish imkonini beradi. Ish stansiyasi arxitekturasida axborotga ko'rib turib ishlov berish muhim ahamiyatga ega.

2. Mahalliy hisoblash tarmog'iga ulangan kompyuter. U foydalanuvchining vazifalarini tarmoq bilan birgalikda bajarishga ixtisoslashgan

Dastlabki ish stansiyasi, SUN «Stanford universitetining tarmoq mahsuloti» deb atalgan, SUN Microsystems korporatsiyasi tomonidan «tarmoq bu kompyuter» shiori ostida yaratilgan. Bu, ish stansiyasi eng avvalo axborot tizimida ishslash uchun mo'ljallanganligi bilan bog'liq.

ish varag'i

ingl.: work sheet

rus.: рабочий лист

Tuzilmalashtirilgan ma'lumotlarga ishlov berish va ularni yozishga mo'ljallangan rasmiylashtirilgan anketa. Ish varaqasi, ishlov berilayotgan hujjatlар yoki ma'lumotlar turiga mos keladigan ma'lumotlar maydoni tarkibini

hamda ularning mazmuni va to'ldirish qoidalari haqida ma'lumotlar to'plamini o'z ichiga oladi.

ishlab chiqarishni kompyuterlashgan avtomatlashtirish

ingl.: Computer-Integrated Manufacturing (CIM)

rus.: комплексная автоматизация производства

Kompyuterlar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uslubiyati. U o'zida loyiha ishlari, texnologik vositalar bilan bir qatorda rejalashtirish, nazorat, boshqarish va hisob tizimlarini birlashtiradi. CIM ni ishlatish avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish korxonalarini yaratish imkoniyatlarini ochadi. Natijada korxona qo'shimcha harajatlarni va moliya sarfini sezilarli kamaytiradi. Bundan tashqari, energiyani va xom ashyoni tejash ta'minlanadi, yaroqsiz mahsulot va chiqindilar kamayadi. CIM asosida kompyuterlashgan logistik tizimlar yaratiladi.

ishlamaydigan gipermurojaat

ingl.: not-working hyperlink

rus.: неработающая гиперссылка

Noto'g'ri URL manzilga yoki mavjud bo'Imagan sahifa yoki faylga ko'rsatuvchi gipermurojaat.

ishonchli hisoblash bazasi

ingl.: reliable computer base

rus.: достоверная вычислительная база

Hisoblash tizimining muhofaza mexanizmlari majmuasi, shu jumladan xavfsizlik siyosatiga javobgar dastur va apparat komponentlari. Ishonchli hisoblash bazasi tizim doirasidagi yagona xavfsizlik siyosatini amalga oshirish uchun birgalikda javob beruvchi bir yoki bir necha komponentlardan iborat. Ishonchli hisoblash bazasining yagona xavfsizlik siyosatini to'g'ri amalga oshirishi bиринчи navbatda ishonchli hisoblash bazasining mexanizmlari hamda tizim ma'muriyatini tomonidan to'g'ri boshqarishga bog'liq.

ishonchli hisoblash tizimi

ingl.: reliable computing system

rus.: надежная вычислительная система

Ma'lumotlarni qayta ishslash tizimi. Bunda turli erkin foydalanish huquqlariga ega foydalanuvchilarning turli muhofaza tasnifi va muhofaza darajalaridagi ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida olishiga ruxsat etish uchun

yetarli kompyuter muhofazasi borligi nazarda tutilgan.

ishorat

ingl.: link

rus.: ссылка

qarang: gipermurojaat

ichki gipermurojaat

ingl.: internal hyperlink

rus.: внутренняя гиперссылка

Faol veb bog'lamasidagi xohlagan veb-sahifa yoki faylga ko'rsatuvchi gipermurojaat (bog'lamasi ichidagi gipermurojaat).

ichki korporativ tarmoq

ingl.: internal corporate network

rus.: внутрикорпоративная сеть

qarang: Intranet

ichki veb bog'lama

ingl.: internal web-node

rus.: внутренний веб-узел

Tashkilot doirasida yaratilgan va faqat o'sha tashkilot ichki tarmoqidan erkin foydalanish mumkin bo'lgan veb bog'lamasi. Ichki veb bog'lamasidan faqat ushbu tashkilot a'zolari foydalanishi mumkin.

Jj

J2EE

qisq.: Java 2, Enterprise Edition

Java 2, korxonalar uchun tahrir. Java asosida korxona pog'oniysi uchun qo'llanmalarni ishlab chiqish va yoyish muhitini. J2EE, ko'ppog'onali Web-yo'nalgar qo'llanmalarni ishlab chiqish uchun API bilan to'ldirilgan xizmatlar yig'masidan iborat.

JAAS

qisq.: Java Authentication and Authorization Service
Java maslagi uchun muvofiqlash va mualliflash xizmati.

Jabber

Internet chatini yakka-yakka yoki ko'rga bir usulida amalga oshiruvchi zamonaviy tarmoq bayonnomasi. Bayonnomma XML tiliga asoslangan. O'z serveridagi vositalar yordamida shaffof ravishda ICQ, IRC, AIM, Yahoo Messengerlar bilan aloqada bo'lish imkonini beradi.

jadval

ingl.: table

rus.: таблица

1. Har bir element boshqa elementlarga nisbatan tutgan o'mni bilan aniqlanadigan ma'lumotlar majmuasi. Jadval bir necha ustunlar va qatorlardan iborat bo'lib, ular kesishgan joy kataklardan iborat. Jadvalning o'lchami, uni saqlaydigan va unga ishllov beruvchi abonent tizimning imkoniyatlariga bog'liq. Kataklarga, jadvalning bir katagini boshqa katakgaga bog'liqligini aniqlaydigan belgilari, matnlari va formulalar yozildi. Turli ma'lumotlarni aks ettirishga mo'ljallangan ko'p sonli ixtisoslashgan jadvallar mavjud. Ularga quydigilar kiradi:

- tizim yoki tarmoqdagi obyektlarning mantiqiy va jismoniy manzillari orasidagi mutanosiblikni aniqlaydigan manzillar jadvali;
- uzatilayotgan har bir ma'lumotlar blokining manziliga uzib-ulash bog'lamasida optimal chiqish kanalini ko'rsatuvchi yo'naltirish jadvali;

- bir kodni boshqa kodga o'zgartirishni aniqlaydigan qayta kodlash jadvali;

- chekli avtomatnning kirishidagi o'zgaruvchilarning holatiga qarab chiqish o'zgaruvchilari qiymatlarini ifodalovchi holatlar jadvali.

2. Aksariyat veb-saytlar dizaynining asosiy elementi. Masalan, veb-sahifada yonma-yon turgan ikki fotosurat va ular orasiga matni joylashtirish uchun, bu sahfaga uch kolonkadan iborat jadval tuziladi. Ikki kolonka fotosurat va bittasi matn uchun ajratiladi.

JAF

qisq.: JavaBeans Activation Framework

JavaBeans tarkibiy qismlarini faollashtirish Frameworki, JAF API. U, Java tilidagi dasturga ma'lumotlar massivi turini (formatini) avtomatik ravishda aniqlashga, u bilan ishlash uchun usullar ro'yxatini olishga, ularni amalga oshirish uchun tegishli JavaBean nusxasini yaratishga imkon beradi.

Jamiyat tarmog'i

ingl.: public network

rus.: общественная сеть

Davlat tasarrufidagi axborot tarmog'i.

jamiyatning axborot imkoniyati

ingl.: information potential of society

rus.: информационный потенциал общества

1. Axborot resurslarini faollashtirish va ulardan samarali foydalanish imkonini beruvchi jami vosita, usul va sharoitlar.

2. Axborotni ishlab chiqish va axborot xizmatlarini ko'rsatish qobiliyati.

jamiyatning axborot madaniyati

ingl.: information culture of society

rus.: информационная культура общества

Jamiyatning o'z ixtiyorida bo'lgan axborot resurslari va axborot kommunikatsiyasi vositalaridan samarali foydalanish qobiliyati. Shuningdek, ushbu maqsadlarda axborotlashtirish va axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish sohasidagi ilg'or yutuqlardan foydalanish ham nazarda tutiladi.

JAR

qisq.: Java ARchive

Java arxivisi, JAR fayli. Java sinfi fayllarini taxtlangan shaklda, ko'makchi sinflarni va metaaxborotni («manifest») o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari raqamli imzolarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

jarayon

ingl.: process

rus.: процесс

1. Berilgan sharoitlarda erishiladigan maqsad yoki natija bilan belgilanuvchi voqealarning berilgan ketma-ketligi.

2. Dastur yoki uning qismi bajarilayotganda ro‘y beradigan voqealarning berilgan ketma-ketligi.

Java texnologiyasi

ingl.: Java technology

rus.: технология Java

Java amaliy maslakiga asoslangan texnologiya. U ishlatalayotgan kompyuter turiga nisbatan dasturiy ta‘minot mustaqilligini ta‘minlaydi. Java texnologiyasi SUN Microsystems korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u uch asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- dasturlash tili;
- virtual mashina;
- dasturlash interfeyslarini amalga oshiruvchi fayllar.

Texnologiyaning muhim xususiyati bo‘lib har biri, amaliyotda ixtiyoriy apparat maslakida xilma xil operatsion tizimlar yordamida, bajarilishi mumkin bo‘lgan dasturlarning rusumlarini yaratish imkonи hisoblanadi. Java texnologiyasi ma‘lumotlarga tarmoqda ishlov berishning sodda modeliga asoslangan, dasturlarni yaratishda qulay, uzoqdagi axborot tizimlaridagi ma‘lumotlarning xavfsizligini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, texnologiya kuchli ommabop Java tilini taklif qiladi.

Java tili

ingl.: Java language

rus.: язык Java

1. Obyektga-yo‘naltirilgan me‘moriy tuzilmali dasturlash tili. Java tili 1992 yili paydo bo‘lgan va SUN Microsystems korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan. U avvaliga OAK deb atalib, elektron-maishiy asboblarning boshqarish tili sifatida ishlab chiqilgan. Ammo, 1995 yili nomini Javaga almashtirib, tarmoqda foydalanilayotgan maslakdan mustaqil ravishda amaliy dasturlarni yaratish imkonini beradigan vosita bo‘lib qoldi. Shu sababli, bu til bir maslakdan boshqasiga engil ko‘chirilishi bilan

tavsiflanadi, axborotni muhofazalashning rivojlangan vositalariga ega va tarmoqda ishlash imkoniyatiga ega. Bu birinchi navbatda Internet tarmog‘iga va uning global ulanish xizmatiga tegishli. Java tili sintaksisi S++ ning sintaksisiga o‘xshash bo‘lib, u maxsus ochiq tarmoq muhitida ishlashga mo‘ljallangan. Java tilining texnologiyasiga tayanib SUN Microsystems korporatsiyasi operatsion tizim ishlab chiqdi. Java asosida, shuningdek JavaOS operatsion tizimi hamda Java texnologiyasi yaratilgan va xilma xil operatsion tizimlar ishlab chiqilmoqda.

2. Internetga tatbiqan - «appletlarni» yaratish texnologiyasi foydalanuvchining kompyuteriga saytning sahifasi bilan birga yuklanib, shu sahifani «jonlashtirish» imkonini beradi. Appletlar sahifaga qo‘srimcha funksionallikni ta‘minlashi mumkin, multiplikatsion reklamani amalga oshirishi va hattoki, sahifaning ichiga o‘rnashtirilgan katta bo‘limgan o‘yinni ifodalashi mumkin.

Java virtual mashinasi

ingl.: Java virtual machine

rus.: виртуальная машина Java

Java qo‘llanmalari va dasturlarini bajaruvchi dastur. Java virtual mashinasi ko‘pchilik veb-brauzerlari tarkibiga kiradi.

JavaOS operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: JavaOS operating system

rus.: операционная система JavaOS

Java tilida yozilgan amaliy jarayonlarni bajarish uchun yaratilgan operatsion tizim. JavaOS operatsion tizimi JavaSoft kompaniyasi tomonidan Java texnologiyasi doirasida ishlangan va turli xildagi shaxsiy kompyuterlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan. JavaOS uchun uning tarkibiy qismlarini tarqoq ishlashi, ma‘lumotlar xavfsizligi, hamda server ham, mijozning ham resurslarini ishlatishni nazorati tavsiflidir.

JavaScript tili

ingl.: JavaScript language

rus.: язык JavaScript

SUN Microsystems va Netscape kompaniyalari tomonidan o‘zaro faol veb-saytlarni yaratish uchun ishlab chiqilgan Skriptlar tili. Soddaligi va foydalanilayotgan maslaklarga nisbatan mustaqilligi bu tilning ustunliklaridir.

Nomlarining o‘xshashligiga qaramay Java va JavaScript bir biridan sezilarli darajada farqlanadi. Agar Java – to‘la funksional obyekta yo‘naltililgan me’moriy tuzilmali dasturlash tili bo‘lsa, JavaScript esa, gipermatlni markerlash tillariga yaqinroq. JavaScript tili HTML kodi bilan o‘zaro ishlashi mumkin va barcha asosiy brauzerlar tomonidan quvvatlanadi, shu jumladan Netscape Navigator va Microsoft Internet Explorer tomonidan ham.

JavaSoft

Sun Microsystems kompaniyasining Java texnologiyasi uchun mas’ul bo‘limi.

JAXM

qisq.: Java API for XML Messaging

XML-xabarlar almashish uchun Java API. Shuningdek «M loyihasi» (Project M) nomi bilan ham mashhur.

JAXP

qisq.: Java API for XML Processing

XML ga ishlov berish uchun Java API. O‘qish, ishlov berish va XML-hujjatlarni yaratish uchun API ni ta’minlaydigan Java maslagini kengaytiruvchi paket. Shuningdek «X loyihasi» nomi bilan ham mashhur.

JB

qisq.: Java Beans

Java tarkibiy qismlari, JavaBeans texnologiyasi. Java tilida vizual va novizual tarkibiy qismlarni yaratish texnologiyasi. JavaBeans va EJB tarkibiy qism modellari bir-biri bilan bog‘liq emas.

JBOD

qisq.: Just a Bunch Of Disks

RAID bo‘ligan shunchaki bir necha qattiq disklar.

JCA

qisq.: Java Cryptography Architecture

Java kriptografiyaviy arxitekturasi. Kelishuvlar va spetsifikatsiyalar yig‘masi, hamda Java tilining Security API qismi (kriptografiya vazifalari).

JCE

qisq.: Java Cryptography Extension

Java ni kriptografiyaviy kengaytmasi. Asosiy kriptografiya algoritmlarini amalga oshiruvchi

va JCA (Java Cryptography Architecture) API vazifalarini kengaytiruvchi Sun Microsystems mahsuloti.

JCL

qisq.: Job Control Language

Topshiriqlarni boshqarish tili, JCL tili.

JDBC

JDBC texnologiyasi. Java tilidagi qo‘llanmalardan bazalardan erkin foydalanish uchun API spetsifikatsiyasi. ODBC ga o‘xshash, JDBC ni ko‘pincha Java DataBase Connectivity shaklida talqin etadilar, vohalanki, JDBC rasman qisqartma emas.

J

JDK

qisq.: Java Development Kit

Sun Microsystemsdan, Java tilidagi dasturlarni ishlab chiqish uchun uskunaviy paket. Yangi nomi- Java SDK. Java-qo‘llanmalarini va Java-appletlarini yozish, testlash va sozlash uchun bepul tarqatiladigan vositalarni, shu jumladan JRE ni ham, o‘z ichiga oladi.

JEDEC

qisq.: Joint Electron Device Engineering Council Elektron qurilmalar bo‘yicha birlashgan muhandislar kengashi (AQSH). Elektron sanoatda qator standartlarni belgilaydigan tashkilot. 1958 yili tuzilgan.

JEITA

qisq.: Japan Electronics and Information Technology Industries Association

JEITA uyushmasi. Elektron sanoat va axborot texnologiyalari ishlab chiqaruvchilarining Yaponiya uyushmasi.

JFC

qisq.: Java Foundation Classes

Javaning asosiy [kengaytmalari] sinflari. API yig‘masidan: Swing, accessibility API, Java 2D API iborat. Tilning Java 2 rusumidan boshlab Java SDK tarkibiga kiradi.

JFIF

qisq.: JPEG File Interchange Format

JPEG almashuv [tasvirlar bilan] uchun fayl formati. JPEG algoritmi bo‘yicha zichlashtirilgan tasvirlarni saqlash va uzatish uchun fayl formati.

jild

*ingl.: folder**rus.: папка*

Windows yoki Macintosh muhitida, foydalanuvchi grafik interfeysning obyekti. U hujjalarni to'plamini o'z ichiga olib, axborot tashkil qilish uchun ishlataladi. DOS va UNIX muhitida folder direktoriy (katalog) deb ataladi.

jilmayishlar

*ingl.: smiles**rus.: смайлики*

Insonlar elektron xabarlarni yozayotganda o'z hissiyotlarini ifodalovchi (kulish, yig'lash, birov ustidan kulish) alomatlar (shartli belgilar) to'plami. Masalan: **J L**

jismoniy kanal

*ingl.: physical link**rus.: физический канал*

Signallar uzatish vositasi. Jismoniy muhitdan va ma'lumotlarni uzatish apparatlaridan tashkil topadi. Signallarni uzatish uslubiga qarab jismoniy kanallar ikki turga bo'linadi:

- signallar modulyatsiya qilinmay uzatiladigan asosiy polosali kanallar;
- signallar modulyatsiya qilib uzatiladigan torpolosali va kengpolosali kanallar.

Turli joylarida abonent tizimlar guruhlari ulanadigan jismoniy kanallar yakkakanal yoki davriy halqa bo'ladi. Jismoniy kanalda bitta yoki bir necha mantiqiy kanal yotqiziladi.

jismoniy manzil

*ingl.: physical address**rus.: физический адрес*

1. Jismoniy tuzilma obyektini, ya'mi, pochta manzilini, mahalliy tarmoqni, tizimni, protsessorni, qurilmani, manzil shinasini, bir ma'noli aks ettrigadigan manzil.

2. Kommunikatsiya kanalini yoki portni tizimda jismoniy joylashuvini aniqlaydigan raqamlar yig'masi.

jismoniy muhit

*ingl.: physical media**rus.: физическая среда*

Signallar uzatiladigan va ulanish uchun jismoniy vositalar quriladigan asos. Jismoniy muhit sifatida efir, metallar, optik shisha va kvars keng ishlataladi. Jismoniy muhit turini tanlashda erkin foydalanish qulayligi, narx va uzatish tezligi bosh mezonlar hisoblanadi.

jismoniy muhofaza

*ingl.: physical protection**rus.: физическая защита*

Mexanizm va izchil jarayonlar. Ular jinoyatchilarning qasddan qilgan harakatlari yoki xizmatchi xodimlarning sovuqqonligi oqibatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jismoniy zarardan, telekommunikatsiya yoki axborot tizimlarining tarkibiy qismlarini va ularning tuzilmalarini muhofazalash uchun mo'ljallangan.

jismoniy muhofaza vositalari

*ingl.: physical protection means**rus.: физические средства защиты*

AT tarkibiy qismlari va muhofazalanayotgan axborotga katta kuch – qudratga ega bo'lgan jinoyatchining kirib borish yo'llariga qo'yilgan maxsus jismoniy to'siqlar majmuasi. Bularga, turli rusumdagagi elektr yoki elektron-mexanik qurilmalar va inshootlar, hamda ko'rib - kuzatish texnik vositalari, aloqa va qo'riqlash signalizatsiyasi kiradi. Jismoniy muhofaza vositalari sifatida apparatlar o'rnatilgan joylardagi, eshiklarda o'rnatilgan quflar, derazalardagi panjaralar, qo'riqlash signalizatsiyasining elektron-mexanik jihozlari bo'lishi mumkin.

jismoniy pog'ona

*ingl.: physical layer**rus.: физический уровень*

OSI pog'onalar shajarasini modelidagi eng quyi (birinchi) pog'ona. Kanal pog'onasiga bilan jismoniy ulanish vositalari oraliqida joylashadi. Shu munosabat bilan, jismoniy pog'ona jismoniy ulanish vositalarini ishlataladi, o'zining xizmatlarini qo'shadi va bularni hammasini kanal pog'onasiga taqdim qiladi. Pog'onaning vazifasi bo'lib, axborot tizimlarini jismoniy ulanish vositalariga ulanishi uchun zarur bo'lgan jismoniy interfeyslarni yaratish hisoblanadi. Jismoniy pog'ona quyidagi vazifalarini bajaradi:

- jismoniy ulanishlarni o'rnatish va uzish;
- signallar ketma-ketligini uzatish;
- zarur hollarda, kanallarni eshitish;
- kanallarni aynanlash;
- nosozliklar va rad qilishlarni paydo bo'lishi haqida xabar berish.

jismoniy tahdid

ingl.: physical threat

rus.: физическая угроза

Amalga oshish oqibati butun tizimga jismoniy ziyondan iborat bo‘lgan tahdid.

jismoniy ulanish vositalari

ingl.: physical interconnection facility

rus.: физические средства соединения

Axborot tizimlari orasida signallarni uzatishni ta’minlaydigan jismoniy muhit, apparat va dasturiy vositalar majmuasi. Asosiy namunaviy OSI modelida, ulanishni jismoniy vositalari o‘zaro ishslash sohasining jismoniy pog‘onadan pastda joylashadi. Bu ulanishlarning asosi bo‘lib, ularda ishlatiladigan jismoniy muhit: o‘rama juft, yassi kabel, koaksal kabel, optik kabel, efir va h.k. hisoblanadi.

Jismoniy ulanish vositalari ikki turga bo‘linadi. Sust deb ataladigan ulanishlar faqat signallarni uzatishga mo‘ljallangan. Masalan, ikki tizimni ulaydigan o‘rama juft simlar. Faol vositalar na faqat signal uzatishni, balki murakkab bo‘Imagan signalga ishlov berish turlarini ham bajaradilar. Bularga modulyatsiya va demodulyatsiyalash, kanalning bandligini nazorat qilish kiradi.

jismoniy xosting

ingl.: physical hosting

rus.: физический хостинг

Kompyuteringiz (serveringiz)ni xosting provayderining telekommunikatsiya bog‘ lamasi (server xonasi)da joylashtirish, kompyuterni Internet tarmog‘iga ularash va provayder tomonidan texnik xizmat ko‘rsatishni ta’minalash. Jismoniy xostingning virtual xostingdan asosiy farqlari quyidagicha:

- ishlatilayotgan dasturiy ta’minot va texnologiyalarga cheklashlar yo‘qligi (ushbu cheklashlar virtual xostingdan foydalanganda albatta mavjud bo‘ladi);

- serverning texnik resurslaridan faqat sizning loyihangiz uchun foydalanish (virtual xostingda resurslar barcha virtual serverlarning umumiy foydalanishida bo‘ladi);

- bir necha Internet loyihangizni o‘z kompyuteringizda joylashtirish virtual xostingga qaraganda qulayroq va hatto arzonroq bo‘ladi.

jismoniy xotira

ingl.: physical memory

rus.: физическая память

Axborot tizimiga (kompyuterga) o‘rnatalgan xotira (odatda RAM). Bu atamani, “virtual xotira” atamasiga qarama-qarshi qo‘yish uchun ishlatiladi.

jismoniy yozuv

ingl.: physical record

rus.: физическая запись

Kompyutering asosiy va tashqi xotirasi orasida yaxlit bir butun ko‘rinishda uzatilayotgan ma’lumotlar parchasi.

JIT

qisq.: Just-In-Time

Ayni vaqtida. Biror bir harakatda zarurat paydo bo‘lishi bilan amalga oshirilishini bildiruvchi atama. Masalan, JIT-to‘la o‘girish, Java baytkodini mashina kodiga bevosita uni bajarilishi oldidan to‘la o‘girilishini bildiradi.

JLS

qisq.: Java Language Specification

Java tili spetsifikatsiyasi. Java tilining til tuzilmalarini sintaksisini va semantikasini tavsiflovchi hujjat.

JMAPI

qisq.: Java Management API

Boshqarish uchun Java API. Yana JMX ni qarang.

JMS

qisq.: Java Message Service

Xabarlar xizmatidan erkin foydalanish uchun Java API. Java-dasturlardan korxona miqyosidagi xabarlar xizmatlaridan erkin foydalanish imkonini beradi, masalan, IBM ning MQSeries xizmatidan JMS, J2EE maslagining muhim tarkibiy qismi.

JMX

qisq.: Java Management eXtensions

Javani [tarmoq] boshqarish uchun kengaytmasi.

JNDI

qisq.: Java Naming and Directory Interface

Java tilini nomlar va kataloglar xizmatidan erkin foydalanishi uchun API. Nomlar va kataloglar xizmatidan erkin foydalanishni standartlashtirish uchun xizmat qiladi, quiy pog‘onada foydalanilayotgan standartlar va bayonnomalarga bog‘liq emas.

JNI

qisq.: Java Native Interface

Javadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri erkin foydalanish interfeysi. Ci va C++ tillari uchun API, maslakka bog‘langan usullarni yozish va Java bo‘limgan qo‘llanmalarga JVM ni tirkab qo‘yish uchun xizmat qiladi.

JNLP

qisq.: Java Network Launching Protocol

Java-qo‘llanmalarni tarmoqqa yuklash bayonnomasi. Java-qo‘llanmalarni web-server orqali tarqatish va ularni web-brauzerdan ishga tushirib yuborish imkonini beradi.

joyiga qo‘yish

ingl.: manipulation

rus.: манипулирование

1. Biror narsa ustida murakkab usul, harakat.
2. Informatikada – ma‘lumotlarga ishlov berish. Bunda dasturlar foydalanuvchi buyruqlarini qabul qilib, kompyuterga nima va qaysi tartibda bajarish lozimligini buyuradi.
3. Algebraik ifodalarni qayta o‘zgartirish.
4. Ma‘lum qurilmani boshqarayotganda muayyan vazifani bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘l harakati. Odatda robotlar inson qo‘llari harakatlariga taqlid qiladi va buyumlarni olib ularning fazodagi joyini o‘zgartirishni ta’minlaydi.

joylashtirish

ingl.: allocation

rus.: размещение

1. Biror narsani joylashtirish, ishlatish tartibi.
2. Informatikada- sahifalarning o‘lchovlarini va matnlarning sahifasini, tasvir tuzulmasini belgilaydi.
3. Dasturlashda - ma‘lumotlarni kiritish-chiqarish tartibi va ketma-ketligi.
4. Apparat ta’motini loyihalashda-platalar, integral sxemalar va tarkibiy qismarlarni joylashtirish.
5. Tashqi xotirada faylni yozish uchun makon ajratish.

JPDA

qisq.: Java Platform Debugger Architecture

Java maslagi uchun sozlovchi arxitekturasi. Qo‘llanma-sozlovchilarini yaratish uchun Java maslagining standart interfeyslari yig‘masi.

JPEG

qisq.: Joint Photographic Experts Group

1. Fotografiya sohasidagi ekspertlar guruhi birlashmasi, JPEG guruhı.

2. JPEG algoritmi. Shu nomli guruh tomonidan ishlab chiqilgan tasvirlarni zichlash algoritmi. Internetda ommaviyligi bo‘yicha (GIF dan so‘ng) ikkinchi o‘rinni egallaydigan grafik formatdir. Saqlash uchun yo‘qotishli zichlash usulidan foydalanadi, shu tufayli, fantastik pog‘onadagi zichlash pog‘onasiga erishilgan. Asosan yuqori sifatli fotosuratlarni saqlash uchun ishlatiladi.

JRE

qisq.: Java Runtime Environment

Javaning ijro muhiti. Java dasturlarni ishga tushirib yuborish uchun eng kam zarur bo‘lgan bepul tarqatiladigan tizimli dasturiy ta’mot.

JScript tili

ingl.: JScript language

rus.: язык JScript

Skriptlar tili JavaScript ni Microsoft kompaniyasi tomonidan kengaytirilgan tatbiqi.

JSP

qisq.: Java Server Pages

Serverga Java sahifalar. Javani ishlatib dinamik Web-sahifalar yaratish texnologiyasi.

JTA

qisq.: Java Transaction API

API tranzaksiyalar uchun Java. Tarqoq tranzaksiyaviy tizimning tranzaksiyalar menedjeri va boshqa ishtirokchilari orasida o‘zarlo aloqada ishslashni tartibga soladi.

JTS

qisq.: Java Transaction Service

Java tranzaksiyalarining xizmati. Java ni kengaytmasi. Java tilida OMG OTS ni amalga oshiradi, JTA bilan uyg‘unlashuvni quvvatlaydi.

juftlik biti

ingl.: parity bit

rus.: бит четности

Bitlar massivining oxirida yoziladigan bit. U hamma bitlar yig‘indisi juft yoki toqligini bildiradi. Juftlik ramzlar guruhini tekshirish uchun hisoblanadigan fuksiya. Ramzlar guruhida xato borligini topib olish uchun ko‘rilayotgan guruhdagi nollar yoki birlar soni hisoblanadi. U juft ham, toq ham bo‘lishi

mumkin, bu haqda guruhni aniqlaydigan kodning qo'shimcha xonasida yoziladigan juftlik biti xabar beradi. Tekshirish vaqtida nollarning yoki birlarning soni takror sanaladi. Hosil bo'lgan qiymatni avvalgisi bilan solishtirib, ma'lum aniqlik bilan ramzlar guruhida xato paydo bo'lganligini bilish mumkin.

jurnal

ingl.: *journal*

rus.: *журнал*

- Qayd yozuvlarini saqlovchi fayl. Ushbu fayl matn formatida yoki ma'lumotlar bazasi formatida bo'lishi mumkin.
- (Internet Explorer brauzerida) oxirgi N kun ichida ko'rilgan sahifalar manzillari saqlanadigan joy. N sonini (yozuvlarning eng ko'p saqlanish muddatini) belgilash uchun "Xizmat" menyusida "Свойства обозревателя" bandini tanlang va "Общие" qismida "Журнал" bo'limini toping. Ro'yxatni ko'rish uchun "Вид" menyusida "Панели обозревателя" bo'limini topib "Журнал"ni bosing. Oynaning chap tomonida manzillar ro'yxati paydo bo'ladi.

jug'rofiy domen

ingl.: *geographic domain*

rus.: *географический домен*

Jug'rofiy belgi bo'yicha birlashtirilgan domen nomlari guruhi. Masalan, www.uga.uz, www.bilimdon.uz nomlari «uz» (O'zbekiston) domeniga mansub.

JVM

qisq.: *Java Virtual Machine*

Java virtual mashinasi. Java (sinflar) tilidagi bayt-kodlarga to'la o'girilgan dasturlarni bajaradigan dastur.

jo'natish ro'yxatlari

ingl.: *mailing lists*

rus.: *списки рассылки*

O'z bayonnomasiga ega bo'lмаган va faqat elektron pochta orqali ishlaydigan Internetning oddiy xizmati. Xabarlarni bitta maxsus manzildan barcha obunachilarga yetkazishni amalga oshiradi.

jo'natuvchi

ingl.: *sender*

rus.: *отправитель*

Buyurtma berish niyatiga ega yoki aloqa xizmatiga buyurtma beruvchi aloqa foydalanuvchisi.

Kk

kabel

ingl.: cable

rus.: кабель

Ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallangan izolatsiya qilingan o'tkazgich yoki o'tkazgichlar guruhni. Ishlatilayotgan fizik muxitiga qarab, kabellar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhni yassi kabellar, o'rama juft va koaksiyal kabellar tashkil qiladi. Ularda metall, aksariyat holda, mis orqali elektr signallari uzatiladi. Koaksiyal kabellar, eng qimmatbaho bo'lib, signallarni katta tezlikda uzata oladilar va shovqindan yaxshi muhofazalanganlar. Ikkinci guruhga yorug'lik uzatuvchi optik kabellar kiradi. Ularning asosini, elektromagnit shovqinlardan ideal muhofazalangan yorug'lik uzatgichlari tashkil qiladi. Optik kabellar koaksiyal kabellardan qimmatroq bo'lib, ular yuqoriq tezlikda ma'lumot uzatishni ta'minlaydilar.

kabelli mahalliy tarmoq

ingl.: cable local-area network

rus.: кабельная локальная сеть

Kanallari kabellar asosida yaratilgan mahalliy tarmoq. Kabelli mahalliy tarmoqlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, har bir kanalga o'nlab tizimlar ulanishi mumkin. Shu tarzda, yakka kanalli tarmoq, xalqasimon tarmoq va uzib-ulanadigan mahalliy tarmoq hosil bo'ladi.

kabelli modem

ingl.: cable modem

rus.: кабельный модем

Kabelli televizion tarmoq orqali Internetga chiqishni ta'minlaydigan modem. Koaksiyal kabelning o'tkazish kengligi telefon liniyasi nikiga nisbatan sezilarli keng, shu sababi Internet – provayderlari bunday kanal orqali yuqori tezlik (10 Mbit/sekgacha) bilan Internetdan erkin foydalanishni ta'minlashlari mumkin.

kabelli tarmoq

ingl.: cable network

rus.: кабельная сеть

Tizimlari kabel orqali o'zaro aloqada bo'lgan axborot tarmog'i. Kabellarni axborot tizimlarda ishlatalish, atmosfera shovqinlardan va quyosh nurlanishidan saqlanish, ma'lumotlarni yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qator ijobjiy xossalarga olib keladi. Ayni vaqtida, simsiz tarmoqlarga nisbatan, kabelli tarmoqlar fazo va koinotdag'i tizimlar bilan aloqa qiluvchi mobil tizimlarni yaratish uchun yaroqsiz. Bundan tashqari, kabelli tarmoqlar aholi kam istiqomat qiluvchi hududlarda va erkin foydalanish qiyin bo'lgan tarmoqlarda tejamli emas. Kabelli tarmoqlar, birinchi galda, global va hududiy tarmoqlarda ishlatalidi.

kabelli telefoniya

ingl.: cable telephony

rus.: кабельная телефония

Kabel teleko'rsatuvlari xizmatlarini yetkazib beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan telefon aloqasi xizmatlari.

kabelli teleko'rsatuv

ingl.: cable television

rus.: кабельное телевидение

Kabelli teleko'rsatuvlari tarmog'i. Kabellar bo'yicha ixtiyoriy axborotni, birinchi galda, teleko'rsatuvlarni uzatishga mo'ljallangan televizion tarmoq.

kadr

ingl.: frame

rus.: кадр

Kanal sathida uzatiladigan ma'lumotlar bloki. Tarmoqda kadrlar, birinchi galda, tutash tizimlarni o'zaro ishlashini ta'minlab beradi. Kanallar bo'yicha yo'naltirilgan kadrlar ikki turga bo'linadi. Axborot kadrlari ma'lumotlarni uzatadi. Boshqaruvchi kadrlar tarmoqni boshqaruvchi axborot uzatadi

kadrlarni qayta uzatish

ingl.: frame relay

rus.: репротрансляция кадров

Apparat ta'minoti yordamida ma'lumotlarni tezkor uzib-ulash texnologiyasi. Kadrlarni qayta uzatish texnologiyasi Bell laboratoriysi tomonidan taklif qilingan. U tez paketlar deb ataluvchi paketlarni to'g'ridan-to'g'ri uzib-ulashdan iborat bo'lib, o'z - o'zini apparat bilan yo'naltirishni ta'minlaydi. O'z navbatida bunday yo'naltirish har bir uzib-ulashni birlashtiruvchi bog'lamadan o'tayotgan

kadrlarni qabul qilish manzillari bo'yicha taqsimlashni ta'minlaydi. Xatolik paydo bo'lgan kadrlar yo'q qilinadi. Shu bilan birga, yuqori tezliklarga erishish maqsadida, oraliq uzib-ulash bog'lamlalarda ma'lumotlarni inobatlilagini va butligini nazorat qilinmaydi. Bu amal oxirigi uzib-ulash bog'lamlalari zimmasiga tushadi. Ular ulanishlarni kanal bo'g'inida amalga oshiradilar, virtual kanallar orqali ma'lumotlar oqimini boshqaradilar, xatolarni topib tuzatadilar. Qayta uzatish kam sonli xatoliklar bilan ishlaydigan kommunikatsiya tarmoqlarida ishlatiladi. Kadrlarni qayta uzatish ma'lumotlarni haqiqiy vaqtida uzatishni ta'minlaydi.

kalofatlar

ingl.: assurance

rus.: гарантия

Tizim xavfsizligini ta'minlashning memoriy tuzimasi va vositalariga ishonch o'lchovi. U xavfsizlik siyosatini bexato va puxta o'tkazilishiga nisbatan o'lchanadi

kalit

ingl.: key

rus.: ключ

1. Ramzlar majmui. U obyektlarni o'xshashlari to'plamidan ajratib olish, ularni axtarish yoki maxfiylashtirish uchun ishlatiladi. Obyektlar sifatida foydalanuvchilar va dasturlar, ma'lumotlar, fayllar, klaviatura va h.k. bo'lishi mumkin. Ikki turdag'i kalitlar farqlanadi: ochiq (baracha foydalanuvchi) va dasturlarga beriladigan, masalan klaviatura tugmachalarining kodlari) va yopiq (cheklangan doiradagi shaxslarga va dasturlarga ma'lum, masalan korporatsiya ma'lumotlar bazasidan erkin foydalanish kaliti).

2. MB da - ma'lumotlarni aniqlash uchun ishlatiladigan bir yoki undan ortiq ramzlar yoxud yozuv maydoni.

3. Kriptografiyada – dastlabki matnni shifrmatnga o'girish va unga teskari amalarini boshqarish uchun ishlatiladigan axborot majmui (bitlar ketma-ketligi).

kalit generatsiyasi

ingl.: key generation

rus.: генерация ключей

Kriptografik kalitni generatsiyalash jarayoni. Bunda turli usullar, masalan tasodifiy sonlar va

soxta tasodifiy sonlar ketma-ketligini generatsiyalash ishlatiladi.

kalit oqimi generatori

ingl.: key stream generator

rus.: генератор ключевого потока

Oqimli kriptotizimlar uchun kalit oqimini ishlab beruvchi algoritm. Jo'natuvchi va qabul qiluvchi tomonlarida bir xil kalit oqimini qayta tiklash uchun yo u aniqlangan (deteministik), yo tasodifiy bo'lishi mumkin. Agar generator aniqlangan bo'lsa, u maxfiy kalitga qaram bo'ladi. Odatda kalit oqimi generatori surish registri va nochiziqiy Bul funksiyalari birikmalaridan tug'iladi. Kalitlar oqimi generatorini qurishda qo'shimcha blokli shifrlar ustida kriptografik o'zgartirishlar ishlatiladi, masalan OFB yoki hisoblagich usuli.

K

kalit so'zi

ingl.: key word

rus.: ключевое слово

1. Ishlov berilayotgan matndan (axtarishda hujjatlar va so'rovlar tizimiga kiritiladigan) tanlanadigan leksik birlik.
2. Izlash tizimlari yordamida tashrifchilarga sizning saytingizni topib beradigan so'zlar.

kalit taqsimoti

ingl.: key distribution

rus.: распределение ключей

Kalitlarni boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri. Har xil usullar bilan amalga oshiriladi. Simmetrik kriptotizimlar uchun kalitlarni abonentlarga yetkazish usullari quyidagilardir:

- muhofazalangan kanallar orqali, masalan, feldyeger xizmatini ishlatish;
 - turli kanallar orqali qismalarga bo'lib uzatish;
 - kalit taqsimlash markazi orqali yetkazish.
- Asimmetrik kriptotizimlar uchun kalitlarni oshkora taqsimlash mexanizmini ishlatish mumkin.

kalit tizimi

ingl.: key system

rus.: ключевая система

1. Qoidalar majmui. U kriptografik kalitlarni generatsiyalash, taqsimlash, ishlatish, saqlash, alishtirish, yo'q qilish va qayta tiklash tartibini belgilaydi.

2. Axborotni kriptografik muhofazalashni ta'minlashdagi kriptografik kalitlar va ular bilan muloqot qilish qoidalari majmui.

kalitlarni eksponensial tarqatish

ingl.: exponential distribution of keys

rus.: экспоненциальное распределение ключей

Kalitlarni ochiq taqsimlash algoritmi. U asimetrik kriptotizimlarga xos bo'lib, Diffi-Xellman algoritmi deb ham ataladi. Modul arifmetikasida birtomonlama ko'rsatkichli funksiya $f(x) = ax \pmod n$ dan foydalanishga asoslangan. Bu yerda x - daraja kursatkichi, a – asos, n – modul.

kalitlarni oshkora taqsimlash

ingl.: public distribution of keys

rus.: открытое распределение ключей

Kriptografiya kalitlarini muhofazalanmagan aloqa kanallari orqali taqsimlash mexanizmi. Bu mexanizm ilk bor, 1976 yili amerikalik olimlar Diffi va Xellman tomonidan taklif qilingan va diskret logarifmlash muammosiga asoslanadi. Shunga qaramay, kalitlarni ochiq tarqatish va ochiq kalit bilan shifrlash g'oyalari bir vaqtida taklif qilingan bo'lsa ham, mualliflar ochiq kalit bilan shifrlash tizimini aniq amalga oshira olmadilar. Shifrlash uchun ochiq kalitlar tamoyilini amalga oshiruvchi tizimlar keyinchalik paydo bo'ldi.

kalitli nomlash

ingl.: indexing

rus.: индексирование

Ma'lumotlarning tezroq va osonroq olinishi uchun ularga kalitli so'zlardan tuzilgan nom berish jarayoni. Ma'lumotlar bazalarida kalitli nomlash ma'lumotlarni tezda izlab topish, saralash, guruhlarga ajratish va olish uchun muhim element hisoblanadi.

Hujjatga uning ma'noli mazmunini aks ettiruvchi kalithi so'zlar to'plami bilan belgilash.

kalkulator

ingl.: calculator

rus.: калькулятор

Sonlar ustida elementar amallar bajarish uchun mo'ljallangan sodda kompyuter. Kalkulatorlar dasturlanmaydigan va dasturlanadigan bo'lishi mumkin.

kallak

ingl.: head

rus.: головка

Ma'lumotlarni diskdan o'qish va unga yozish komponenti. Dastlabki diskdan o'qish va unga yozish kallakkari ferritdan yasalgan edi. So'ngra, ular o'rniغا juda yupqa metall qatlamlari tuzilmali kompozit moddalardan yasalgan kallakklar ishlataldi. Yupqa plenkali kallakkarga o'tish ularning o'lchamlarini juda kamaytirish imkonini berdi. Ma'lumotlarni diskda yuqori zichlikda yozish uchun ishlab chiqilgan magnit rezistiv kallakklar haqiqiy inqilob bo'ldi.

kamera

ingl.: camera

rus.: камера

Yorug'likka sezgir moddalarda predmetlarning tasvirini olishga mo'ljallangan qurilma. Eslab qolindigan signalning turiga qarab kameralar analogli va raqamli turlarga bo'linadi.

kanal

ingl.: channel

rus.: канал

Signal yoxud ma'lumotlar uzatish vositasi yoki yo'li. Signallarni uzatish vositasi jismoniy kanal deb ataladi. Ma'lumotlar manbadan uni qabul qiluvchiga uzatiladigan yo'lni mantiqiy kanal aniqlab beradi. Kanallarning ikki sinfini farqlashadi: asinxron va sinxron. Sinxron kanalda amalga oshirilayotgan uzatish jarayonini sinxronlashtirish ta'minlangan bo'лади. Asinxron kanal, shu bilan ajralib turadiki, u orqali ma'lumotlar uzatishda, jo'natuvchi va qabul qiluvchi ishlari sinxronlashtirilmaydi. Uzatilayotgan signallarning shakliga ko'ra, kanallar ikki turga: analog va diskret turlarga bo'linadi. Signallarni uzatish usuliga qarab, kanallar bir necha turlarga bo'linadi – simpleks, nimdupleks, dupleks kanallar.

kanal pog'onasi

ingl.: data link layer

rus.: канальный уровень

Axborot tizimlari orasida ma'lumotlar uzatishni amalga oshiruvchi pog'ona. Kanal pog'onasi OSI modelining pog'onalar shajarasida ikkinchi bo'lib, jismoniy va tarmoq pog'onalarini orasida joylashgan.

kanallarni uzib-ulash

ingl.: circuit switching

rus.: коммутация каналов

Kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarni uzatish usuli. U har bir juft foydalanuvchilarga, tarmoq kanallari ketma-ketligini yakkaxon ravishda ishlatalish uchui taqdim qilishni ta'minlaydi. Kanallarni uzib-ulashning mumtoz sxemasida jismoniy pog'ona funksional bloklari va kanallarni uzib-ulash bog'lamalarining yoki aralash uzib-ulash bog'lamalarining fizik jarayonlari ishtirot etadi. Natijada, ulanishning jismoniy vositalari orqali to'g'ridan-to'g'ri uzib-ulash amalga oshiriladi. Bunda o'zaro ishlovchi foydalanuvchi tizimlari yoki ma'muriy tizimlar orasida mantiqiy kanallar ketma-ketligi hosil bo'ladi. Ular orqali amaliy jarayonlar bir-biriga ma'lumotlar bloklarini uzatadilar. Shu yo'l bilan hosil bo'lgan ketma-ketlik, u orqali o'zaro ishlashdagi bir juft foydalanuvchilar tomonidan yakkaxon ishlataladi. Kanallarni uzib-ulashning paketlarni uzib-ulashga nisbatan, ijobiy tomoni shundaki, bu maqsadda ishlatilayotgan bog'lamalar nisbatan arzon tushadi. Bundan tashqari, seans davomida uzatilayotgan barcha ma'lumotlar bloklarini oluvchiga, bog'lamalar va kanallarning tezlik tavsiynomalari bilan belgilanadigan, hamda vaqt bo'yicha bir xil kechikish bilan yetkaziladi. Bu kommunikatsiya tarmog'i orqali nutqni uzatishni osonlashtiradi.

kanalli shifrlash

ingl.: channel level coding

rus.: канальное шифрование

Telekommunikatsiya vositalari bilan uzatilayotgan axborotni kriptografik usullar bilan muhofazalash. Shifrlash, aloqa kanalinig ikki bog'lamasi (yuboruvchidan qabul qiluvchigacha yo'lda oraliq shifrlash ham bo'lishi mumkin) orasida amalga oshiriladi.

Kardano panjarasi

ingl.: Kardano's grid

rus.: Кардано решетка

O'rin almashtirishlar shifrini amalga oshiradigan kriptografik tizim. U kvadrat jadval (panjara) bo'lib, kataklarning chorak qismida shunday o'yiq qilinganki, o'yiq to'rt marta burilsa butun jadvalni qoplashi mumkin. Dastlabki matn panjaraning o'yilgan kataklariga yozib qo'yiladi, ular 90°ga burilib yangi, to'ldirilmagan kataklarni ochib beradi.

kartografik axborot

ingl.: cartographical information

rus.: картографическая информация

1. Kartografik asarlar to'g'risida ma'lumotlar.
2. Kartografik asarlar shaklida ifodalangan axborot.
3. Kartografik asarlarlarni yaratishda va yangilashda ishlatiladigan axborot.

kartografik kommunikatsiya

ingl.: cartographical communication

rus.: картографическая коммуникация

Kartografik axborotni xarita yaratuvchidan foydalanuvchiga uzatish. Buning ustiga xaritaning o'zi, o'ziga xos aloqa kanali sifatida ham talqin qilinadi.

kartografik ma'lumotlar banki

ingl.: cartographical databank

rus.: картографический банк данных

Raqamli kartografik ma'lumotlarni saqlash, ishlov berish va ishlatalishing texnik, dasturiy, axborot va tashkiliy vositalari majmui. Uning tarkibiga bir yoki bir necha predmet (mavzu) sohasidagi kartografik ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlar bazasining boshqarish tizimi, hamda so'rovlar va amaliy dasturlar kutubxonasi kiradi.

kartografik ma'lumotlar bazasi

ingl.: cartographical database

rus.: картографическая база данных

Biror bir predmet (mavzu) sohasi bo'yicha o'zaro bog'liq kartografik ma'lumotlar majmui. U raqamli shaklda (shu jumladan kartografik ma'lumotlar bazasi shaklida) ma'lumotlar ifodalash, saqlash va joyini o'zgatirishga oid umumiy qoidalarga mos ravishda berilgan Kartografik ma'lumotlar bazasiga ko'pgina foydalanuvchilar kira olishlari mumkin. U amaliy dasturlar paketiga bog'liq bo'lmay ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) tomonidan boshqariladi.

kartridj

ingl.: cartridge

rus.: картридж

1. Kerak bo'lganda axborot tizimiga ulanadigan muxtor apparatni yoki dasturning tarkibiy bo'lagi. Kartridj tushunchasi «ma'lumotlarga ishlov berishning tarmoq me'moriy qiyofasida» keng ishlatiladi. Bu yerda kartridjlardasturilay modullarning turli yig'malari taklif qilinadi. Zarur bo'lgan kartridjlarni tanlab va ularni

ishlatilayotgan dasturlarga qo'shib qo'yib masalalarни yechish mumkin.

2. Kassetta (quti) shaklida yaratilgan, uya yordamida kompyuterga ularanadigan katta bo'Imagan taşhqı xotira qurilmasi. Ba'zida magnit disklar va magnit tasmalar qutikartridjlar tarzida bajariladi.

3. Sharrachalı yoki lazerli printerga qo'yildigan, bir marta ishlatiladigan bo'yoqli quti.

Katalog

ingl.: catalogue

rus.: каталог

1. Izlab topish qulayligini hisobga olib tartibga solingen obyektlar ro'yxati.

2. Informatikada, bir xil turdagı obyektlar orasidan qidirishni ta'minlaydigan ma'lumotlarning tuzilmasini aniqlovchi ma'lumotnoma. Obyektlar sifatida ma'lumotlar elementlari, fayllar, dasturlar, serverlar, mijozlar, printerlar, magnitli va optik to'plovchilar va boshqalar bo'lishi mumkin.

3. Amaliy tizimlarda – talab qilingan ma'lumotlar yig'masini o'z ichiga olgan jild joylashgan yerini topish uchun boshqaruvchi dastur tomonidan ishlatiladigan indekslar majmui.

4. Veb-resurslar katalogi (ingl. web-directory) bu, tavsiflari bilan birga berilgan Internet – resurslariga tizimlashtirilgan va rubrikator asosida tartibga solingen murojaatlar termasi. Kataloglar ixtisoslashgan (soha bo'yicha) va umumiyl, hamda hududiy, milliy va global turlarga bo'linadi.

katod nurli trubka

ingl.: Catode-Ray Tube (CRT)

rus.: трубка с катодными лучами

Ko'pchilik televizor ekranlarida va kompyuter displaylarida ishlatiladigan elektron trubka. Xuddi shunday, «Elektron-Nurli- Trubka» deb ham ataladi. CRT ning ish tamoyili, ekranning orqa qismida elektron nurini oldi va orqaga harakatlanishiga asoslangan. Nurni ekran orqali har bir siljishida, bu nur shisha trubkaning ichki tamonidagi fosforli nuqtalarini, ekranni faol maydonchalarini yoritadi. Shunday chiziqlar to'plamini chizish evaziga, nur ekranدا tasvirning umumiyl suratini yaratadi.

Kaziski usuli

ingl.: Kaziski's method

rus.: Казиски метод

Kriptotahliil usuli. U ko'p alifboli kriptotizimlarning davrini shifrlangan matnda bir xil so'zlarni topish orqali hisoblashga asoslangan Agar ko'p alifboli kriptotizimning davri ma'lum bo'lsa, kriptotahllash bir alifboli tizimlarni kriptotahliliga keltiriladi.

KB

qisq.:

1. KiloByte - Kilobayt.

2. Knowledge Base - Bilimlar bazasi (BB). Aniq bir predmet sohasi bo'yicha dalillar va qoidalar shaklida rasmiylashtirilgan bilimlar to'plami.

Kbit

qisq.: Kilobit

Kilobit.

Kbps

qisq.: KiloBits Per Second

Kilobit soniyaga.

Kembridj xalqasi

ingl.: Cambridge ring

rus.: кембриджское кольцо

Kembridj xalqa tarmog'i. Ilk bor Kembridj universitetida (Buyukbritaniya) yaratilgan taktlanadigan halqasimon tarmoq.

keng yo'l-yo'lli kanal

ingl.: broadband channel

rus.: широкополосный канал

Ma'lumotlarni tezkor uzatishni ta'minlovchi jismoniy kanal. Keng yo'l-yo'lli kanallar koaksal kabellar, radiokanallar va optik kanallar asosida yaratiladi. Ular nisbatan qimmat. Shu sababli, ma'lumotlarni yuqori tezlikda uzatish talab qilinmasa, tor yo'l-yo'lli kanallar yoki yo'l-yo'l asosli kanallardan foydalaniлади.

keng yo'l-yo'lli tarmoq

ingl.: broadband network

rus.: широкополосная сеть

Katta o'tkazish qobiliyatiga ega kommunikatsiya tarmog'i. U xilma xil, shu jumladan audio va video signallarni uzatishga qodir. Bunday tarmoq, optik kanallardan foydalish, yuzlab megabayt soniyasiga oraliqdagi ma'lumotlarni uzatish tezliklarini standartlashtirish, ma'lumotlarni asinxron uzatish bilan tavsiflanadi.

kengeshittirishlar

ingl.: *broadcasting*

rus.: *широковещание*

Har bir ma'lumotlar blokini, tarmoqning barcha axborot tizimlariga uzatish. Keng eshittirishlar umumiyligi tavsifdagi, barcha foydalanuvchilarda qiziqish uyg'otadigan axborotlarni uzatish uchun foydaliladi. Masalan, televizion tarmoqda. Ularga birinchi galda, reklama, so'nggi xabarlar, tarmoq ma'muriyatining xabarlari kiradi.

keshlash

ingl.: *cache*

rus.: *кэширование*

Ingliz tilidagi cache - «maxfiy zahira» so'zidan olingan. Kesh - kompyuter siz Internetdan olgan barcha hujjatlarni yozib qo'yadigan jild. Agar hujjatni takroran so'rasangiz, sizga keshning ichidagini ko'rsatishadi. Proksi-server ham Internetdan olingan hujjatlarni maxsus jildga yozib qo'yadi. Agar siz, yoki Internetning boshqa foydalanuvchisi shu hujjatga murojaat qilsa, proksi-server uni o'zining keshidan yetkazib beradi. Siz buni sezmaysiz ham. Bu holda, siz uzoqdagi WWW-serverga shu hujjat uchun yana murojaat qilganingizga nisbatan, tezlik bir daraja yuqoriroq bo'ladi.

kesh-xotira

ingl.: *cache memory*

rus.: *кеш-память*

Protsessor faoliyatini kutishdan halos qiladigan tezlik bilan ishlaydigan buferli xotira qurilmasi. Juda katta tezlik bilan ishlaydigan protsessorlarning paydo bo'lishi, kesh-xotirani yaratish zaruratini keltirib chiqardi. Shu bilan birga, murakkab amaliy dasturlarning bajarilishi uchun katta xotira zarurdir. Katta o'ta tezkor xotirani ishlatish esa foydasiz. Shu sababli, operativ xotira bilan protsessor orasiga, kichkina sig'imli yuqori tezlikli kesh-xotira deb atalgan buferni o'rnatma boshladilar. Buning ustiga, uni protsessor ichiga o'rnatilgan va tashqi turlari mavjud. Ichiga qurilgan kesh-xotira tashqiga nisbatan yuqoriroq tezkorlikka ega, tabiiyki, narxi ham baland. Shu sababli, birinchisi ikkinchisidan sig'im bo'yicha kichikroq. Kesh-xotiraga, tezkor xotirada joylashgan buyruqlar va ma'lumotlarning bir qismi yoziladi.

KHz

qisq.: *KiloHertz*

Kilogers. Chastota uchun fizikaviy o'lchov birligi.

kiberkasalliklar

ingl.: *cyber sickness*

rus.: *киберболезни*

Inson ruhiyati va fiziologik funksiyalariga virtual voqeiylik texnologiyalarining zararli ta'siri oqibatida paydo bo'lgan inson kasalliklarining yangi turlari.

kibermadaniyat

ingl.: *culture*

rus.: *циберкультура*

Madaniyatni rivojlantirishdagi texnokrat yangi yo'nalish. U kompyuter o'ynilarining imkoniyatlari va virtual voqeiylik texnologiyalarini ishlashiga asoslangan.

K

Kibermakon

ingl.: *cyberspace*

rus.: *циберпространство*

Bu tushuncha yozuvchi Ulyam Gibson tomonidan 1984 yili «Cyberspace» («Kibermakon») deb nomlangan trilogiyaning birinchi romani «Neuromacer» («Neyromant») chop etilishi bilan bog'liq va amerikaliklar hayotidan kirib kelgan. U, dunyonи barcha kompyuterlaridagi elektron ma'lumotlar aylanib yuradigan virtual makonni ta'riflab beradi.

kibernetika

ingl.: *cybernetics*

rus.: *цибернетика*

Tabiatda va jamiyatda boshqaruvi hamda aloqa haqidagi fan. Kibernetika tabiatning va jamiyatning murakkab obyektlarini, ularning tashkil bo'lish usulidan qat'iy nazar, boshqaruvchi va boshqariladigan elementlardan tashkil topgan, ular orasida to'g'ri va teskari axborot aloqasi mavjud bo'lgan katta kibernetik tizim deb qaraydi. Kompyuterlar yaratilishi va rivojlanishi bilan kibernetik yondashuv keng tatbiq qilina boshladи. Bu kibernetika qator ilmiy yo'nalishlarni yuzaga kelishiga olib keldi:

- Diskret matematikaga asoslangan nazariy kibernetika. U boshqarish nazariysi va axborot nazariysi bilan shug'ullanadi.

- Texnik kibernetika. U boshqarishning avtomatlashtirish vositalari, shu jumladan,

kompyuterlar va avtomatlashirilgan boshqarish tizimlari bilan shug‘ullanadi.

- Biologik kibernetika. U biologiyada va tibbiyotda kibernetika g‘oyalaridan foydalanadi.

- Iqtisodiy kibernetika. U iqtisodiy jarayonlar, matematik modellarini yaratish va iqtisodiy hisoblarda kompyuterlar qo‘llash bilan shug‘ullanadi.

- Jitmoiy kibernetika kishilik jamiyatida bo‘ladigan turli jarayonlarni boshqarish uchun matematika modellarini quradi va o‘rganadi.

Kibernetik tizimlarga misollar: texnikadagi avtomatik rostlagichlar, kompyuterlar, inson miyasi, biologik populyatsiyalar, kishilik jamiyati. Har bir bunday tizim, axborotni idroklay, xotiralay va qayta ishlay oladigan, hamda axborot almasha oladigan o‘zaro bog‘langan obyektlar to‘plamidan iborat. Kibernetika qo‘ygan ko‘pgina masalalar bilan hozirgi kunda informatika va axborot texnologiyalari sohasi shug‘ullanmoqda.

O‘zbekistonda Hisoblash markaziga ega bo‘lgan O‘Z FA Kibertetika instituti akademik Vosil Qobulovich Qobulov (5 sentabr, 1921 y. tug‘ilgan) tashabbusi bilan 1966-yilda buniyod bo‘lgan va yuqorida keltirilgan barcha yo‘nalishlarda faol tadqiqotlar olib borgan.

kilobayt

ingl.: kilobyte

rus.: килобайт

1024 baytga teng bo‘lgan, axborot miqdorining o‘lchov birligi. Bayt – axborot miqdorini o‘lchashning asosiy birligi. Masalan, rus alifbosining bitta ramzi kompyuter xotirasida bir baytni egallaydi.

kissa shaxsiy kompyuteri

ingl.: palmtop personal computer

rus.: карманный персональный компьютер

Imkon boricha kichik o‘lchamlari bilan ajralib turadigan ixcham shaxsiy kompyuter. Katta bo‘Imagan o‘lchamlarga ega bo‘lib, u yengil, akkumulator yoki batareyadan ozuqa oladi. Kichiklashtirilgan formatli suyuq kristalli indikatorga ega. Ma’lumotlarni yoki dasturlarni saqlash uchun kompyuter yoki magnit kartochkalari ishlataladi.

kichik tarmoq

ingl.: Tiny-Area Network (TAN)

rus.: малая сеть

Tuzilishi eng sodda va arzon bo‘lgan mahalliy tarmoq. Bu tizim imkoniyatlarini cheklash va ish tezligini pasaytirish orqali amalga oshiradi. Tizimga oddiy shaxsiy kompyuterlar, o‘lchov apparaturasi va asboblar kiradi. Bog‘lanishing fizik vositalari yassi kabel, o‘rama jufti yoki elektr tarmog‘i simlari asosida quriladi. Ushbu vositalarga bog‘lanish uchun keng qo‘llaniladigan interfeyslardan foydalaniлади.

kichik tarmoq niqqobi

ingl.: subnetmask

rus.: маска подсети

IP manzilida tarmoq va bog‘lamasi tuzilmasini saqlovchi TCP/IP parametri.

klaster

ingl.: cluster

rus.: кластер

1. Tezkor kanal bilan ulangan bir necha kompyuterlardan iborat hisoblash tizimi. Klasterli me’moriy qiyofa o‘stira borish va yuqori darajadagi bosh tortishga qarshi turg‘unlikni ta‘minlaydi.

2. Bir g‘ilofdag‘i qurilmalar majmui. Foydalanuvchi, klasterga murojaat qilib, bir vaqtning o‘zida bir guruhi protsessorlar bilan ishlashi mumkin. Bunday birlashtirish ma’lumotlarga ishlov berish tezligini oshiradi va ishlatalayotgan tezkor xotirani kengaytradi. Shu bilan birga, bosh tortishga qarshi turg‘unlik sezilarli ortadi, chunki klasterlar ma’lumotlarni ehtiyoj tarzda juftlaydi.

3. Qattiq diskka yozilishi yoki qattiq diskdan o‘qilishi mumkin bo‘lgan axborotning eng kichik ulushi. Amaliy tizim boshqaruvi ostida ishlatalayotgan birorta ham dastur, faqat yarim klasterni o‘qiy olmaydi. Klaster - faylli tizim bilan bog‘liq bo‘lgan mantiqiy tushuncha. U bir necha jismoniy bloklardan – qattiq disk sektorlaridan iborat bo‘lishi mumkin.

Fayl bir necha klasterlardan iborat bo‘ladi. Shu bilan birga, so‘nggi klaster odatda oxirigacha to‘ldirilmaydi. Agar siz Windows rusumiga tegishli amaliy tizimida ishlatalayotgan bo‘lsangiz, ixtiyoriy faylga keltirib o‘ng tugmachani bosing va kontekstli menyuda «Свойства» («Хоссалик») buyrug‘ini tanlang. «Размеры» («О‘лчови») qatoriga e’tibor bering. Faylning o‘lchovi (fayldagi axborot miqdori) fayl egallab turgan makondan doimo kamroq bo‘ladi.

klaviatura*ingl.: keyboard**rus.: клавиатура*

1. Kompyuterga raqamli, alvafitli va boshqaruvchi axborotni kiritish qurilmasi.
 2. Katta bo‘lmagan plastina-tugmachalarning yoki ularning tasvirlarini aniq tartibda joylashtirilgan to‘liq to‘plami. Ularni bosish yoki ko‘rsatish buyruqlar va ramzlar kiritishni ta‘minlaydi. Klaviatura kompyuter bilan muloqat uchun tanlangan til ramzlarini va amaliy tizim yoki maslak (platforma) tomonidan ishlatalidigan buyruqlarni o‘z ichiga oladi. Chunonchi, shaxsiy kompyuterning klaviaturasi tabiiy tilning barcha harflari, raqamlar, algebraik ishoralar va buyruqlarni ifodalandi. Klaviaturada tugmachalar joylashuvni qabul qilingan standartlarga mos keladi, ishlatalayotgan kalitlar va generatsiya qilinayotgan kodlar bilan belgilanadi. Klaviatura ekranda maxsus tasvir hosil qilish yo‘li bilan ham yaratilishi mumkin. Bunday klaviaturadan foydalanishda yorug‘lik perosi yoki barmoq bilan ko‘rsatish ishlatalidi.

Kliring*ingl.: clearing**rus.: клиринг*

O‘zaro talablarни va majburiyatlarni hisobga olishga asoslangan hisob-kitoblar tizimi. Kliring hisob-kitoblarini o‘tkazishda elektronika va informatika usul va vositalari keng ishlatalidi. Kliring amallari kommunikatsiya tarmog‘i orqali amalga oshiriladi. Bu amallarni bajarishda EDI tarmoq xizmati muhim rol o‘ynaydi.

Kloaking*ingl.: cloaking**rus.: клоакинг*

Veb-serverning foydalanuvchiga bir mazmunni, izlovchi robotga boshqa mazmunni ko‘rsatuvchi ish usuli. Izlovchi robotlar qaragan IP-manzillarni kuzatib borish va ularga boshqa axborotni berish yordamida amalga oshiriladi. Kloaking aldovni yashirish imkonini beradi, buning evaziga sahifa axtarish natijalarida yuqori joylashishi va foydalanuvchiga eskirgan mazmunni berish imkon yaratiladi. Kloakingning ayon bo‘lishi ko‘p hollarda saytning, axtarish tizimining «qora ro‘yxati»ga

kiritilishiga va uni indekslashning to‘la to‘xtatilishiga olib keladi.

KLOC*qisq.: KiloLines Of Code*

Kodning ming qatori. Dasturlar murakkabligining o‘lchov birligi.

koaksial kabel*ingl.: coaxial cable**rus.: коаксиальный кабель*

1. Bir biridan izolatsiyalangan, ichki va tashqi o‘tkazgichlardan iborat kabel. Koaksal kabel bir yoki bir necha dielektrik izolatsiya bilan qoplangan, markaziy mis o‘tkazgichlarga ega, markaziy o‘tkazgichlarni tashqi elektromagnit ta‘sirlardan asrash uchun metall qobig‘ (to‘r) bilan, yoki trubka bilan qoplangan. Va nihoyat, ustidan tashqi qatlam joylashtiriladi, aksariyat, mexanik muhofaza uchun po‘lat lenta bilan o‘raladi.

kod*ingl.: code**rus.: код*

1. Shartli belgi, odatda raqamli.
2. Muayyan ma‘no berilgan ramzlar majmui. Kod, inson, qurilmalar va dasturiy ta‘minot idrok qila oladigan axborotning ramzlar to‘plami bilan tasviflash usulini belgilaydi.
3. Ochiq daslabki matn elementlarini (harflar, harflar birikmasi, so‘z, va h.k.) ramzlar guruhi (harflar, raqamlar yoki boshqa ishoralar) bilan almashtirishlar to‘plami. U shifrning maxsus turidir.
4. Xabarlarni bir (dastlabki) alifboden boshqa (obyektlifi) alifboga, odatda axborot talofat ko‘rmagan holda, o‘zgartirish qoidası.

kod bo‘lagi*ingl.: code fragment**rus.: фрагмент кода*

Saqlash va takror ishlatalish mumkin bo‘lgan HTML kodining yoshqa kodning bir yoki bir necha qatori.

kodek*ingl.: codec**rus.: кодек*

Foydalanuvchi tizimlarida analog signallarni va diskret signallarni ikki tomonlama o‘zgartiruvchi qurilma. Videokonferensiya o‘tkazilganda, u hujjatlarni namoyish qiladigan

aks ettirgichning ichiga joylashtirilgan mikrofondan va kameradan analogli signallarni qabul qiladi. Bu signallar raqamli shaklga o'zgartiriladi va tarmoq orqali boshqa tizimga yuboriladi. Kodek, tarmoq orqali boshqa tizimning diskret signallarini qabul qilib, ularni analog shaklga o'zgartiradi va radiokarnaylar hamda monitorlar orasida taqsimlaydi.

koder

ingl.: coder

rus.: кодер

Kodlashni amalga oshiruvchi qurilma yoki dastur.

kodlama

ingl.: encoding

rus.: кодировка

Ramzlar (insonlar tili) bilan sonlar (kompyuterlar tili) orasidagi mutanosiblik. Bir xil sonlarni turli alifbolarning ramzlariga almashtirish mumkin. Raqamni harfga almashtirish qoidasini o'zgartirish uchun Internet Explorer da «Вид» (<Turi>) menusida «Вид кодировки» (<Kodirovka turi>) bandini tanlang. Internet da ommaviy ishlatalidigan kirill kodirovkalar KOI8-R va Win1251 hisoblanadi.

kodlash

ingl.: coding

rus.: кодирование

1. Dastlabki alifboni obyektlari alifboga o'zgartirish jarayoni.
2. Ma'lumotlarni ramzlar ketma-ketligi bilan ifodalash jarayoni.

Kodlash dasturchi tomonidan yoki avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Garchand kodlashda harf, sonlar va alifboni boshqa ishoralaridan tuzilgan kod ishlatsila ham, bunday kodlash harfli-raqamli kodlash deb ataladi. Kodlash harfma – harf, so'zma – so'z bo'lishi mumkin. Kodlash axborot tizimlarida keng ishlataladi. U, ma'lumotlarga ishlov berishni va ma'lumotlarni uzatishni, mumkin bo'lgan eng katta tezlikni, buzilishlardan muhofazalanishni ta'minlaydigan bo'lishi kerak. Shu maqsad bilan shovqingga bardoshli kodlash alohida ajratiladi. Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun shifrlash deb ataluvchi maxsus kodlash amalga oshiriladi.

kodlash kaliti

ingl.: coding key

rus.: ключ кодирования

Kriptografiyada - kodlarni o'zgartirishda, ularning o'zaro mosligini tekshirish uchun ishlatalidigan kalit. Bu kalitning vazifasi, begona obyektlar tomonidan dasturlarni va ma'lumotlarni ishlatalishdan muhofazalash.

kodli ajratishli ko'p tomonidan erkin foydalanish

ingl.: Code Division Multiple Access (CDMA)

rus.: множественный доступ с кодовым разделением

Tovushga o'xshash signallardan (taqsimlangan spektrli signallar) foydalanishga asoslangan uyali radioaloqa standarti. Shovqinlardan muhofaza qilishning yuqori pog'onasini ta'minlaydi. AQSHda keng tarqalgan.

kogerent optoelektronika

ingl.: coherent optoelectronics

rus.: когерентная оптоэлектроника

Murakkab axborot tizimlar yaratishning yangi tamoyillarini belgilaydigan optoelektronika turi.

kogerentlik

ingl.: coherence

rus.: когерентность

To'lqin jarayonlarining zamон va makonda o'zaro uyg'un o'tishi. Bu to'lqin jarayonlarini qo'shish orqali namoyon bo'ladi.

kognitiv texnologiyalar

ingl.: cognitive technologies

rus.: когнитивные технологии

Inson tafakkuri imkoniyatlarini rivojlantirishga maxsus yo'naltirilgan axborot texnologiyasi. Bunday texnologiyaning o'ziga xos misoli bo'lib, kognitiv kompyuter grafikasi hisoblanadi. U, kompyuter ekranida fazoviy shaklda na faqat turli geometrik shakllarni, balki turli matematik formulalarini ham ifodalay oladi. Bunday ifodalashlar insonni fazoviy tasavvurini va uning assotsiativ fikrlashini rivojlantiradi. Interbilding kognitiv texnologiyaning misoli bo'lib, u insonni aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishning tashishi, treningi va monitoringining kompyuter texnologiyasidir.

KOI8

ingl.: KOI8

rus.: KOI8

Keng tarqalgan, kirill ramzlarini o‘z ichiga olgan kod jadvallaridan biri (kod jadvali sonlar-kompyuterni ona tili bilan inson alifbosi ramzlar orasidagi mutanosiblikni o‘rnatadi).

kolliziya

ingl.: collision

rus.: коллизия

1. Ikki ishchi stansiya (kompyuter) tomonidan bir vaqtning o‘zida ma’lumotlar uzatish uchun yagona muhit (kabel)dan, masalan – mahalliy tarmoqdan, birgalikda foydalanishga qilingan urinish natijasi. Bu signallarning yo‘qolishiga va takroran uzatish zaruriyatini tug‘diradi.
2. Axborot muhofazasida – turli xabarlarning xesh-funksiyalari bir-biriga teng bo‘lib chiqish xodisisi.

kommunikativistika

ingl.: communication science

rus.: коммуникативистика

Axborot kommunikatsiyalari (shu jumladan, tarmoqlar) muammolarini o‘rganadigan fan.

kommunikatsiya nazoratchisi

ingl.: communication controller

rus.: коммуникационный контроллер

Bufer protsessorlari va uzib-ulash bog‘lamasi vazifalarini bajaradi. Nazoratchilar har xil turdag‘i kanallar bilan ishlaydilar. Uzoqlashgan (bosh kompyuterdan) kommunikatsiya nazoratchilari guruhiy nazoratchilar deb ataladi. Hamma nazoratchilarga terminallar ulanadi.

kommunikatsiya protsessori

ingl.: communication processor

rus.: коммуникационный процессор

Kanallar orqali ma’lumotlar uzatishga ichtisoslashib, terminallar yig‘masini boshqaradi. Ma’lumotlarni formatlash va dastlabki ishlov berishni ta’minlaydi.

kommunikatsiya tarmog‘i

ingl.: communication network

rus.: коммуникационная сеть

Asosiy vazifasi ma’lumotlar uzatish bo‘lgan tarmoq. Ma’lumotlarni uzatishning va ularga ishlov berishning ayrim turlarini ta’minlaydigan axborot tarmog‘ining o‘zagi. Bir kommunikatsiya tarmog‘i asosida bir necha axborot tarmog‘ini yaratish mumkin. Kommunikatsiya tarmog‘ining vazifasi bo‘lib qabul qiluvchilarga ma’lumotlar bloklarini o‘z

butunligini yo‘qotmagan holda, xatolarsiz va buzilishlarsiz yetkazib berish hisoblanadi. Tarmoqda ortiqcha yuklamalarni, katta navbatlarni va tizim buferlarini to‘lib ketishini oldini olish ham muhimdir.

Kommunikatsiya tarmoqlari uch sinfga bo‘linadi: ma’lumotlarni yo‘naltirishni bajaradigan tarmoqlar, ma’lumotlarni tanlab uzatadigan tarmoqlar va aralash tarmoqlar. Uzatilayotgan signallarni turlariga qarab, mos ravishda analogli tarmoqlar va raqamli tarmoqlarni farqlashadi. Qamrab olingan makoniga qarab, kommunikatsiya tarmoqlari mahalliy tarmoqlar, hududiy tarmoqlar va global tarmoqlar hosil qiladi. Bundan tashqari kabelli tarmoqlar va simsiz tarmoqlar turlari mavjud.

kommunikatsiya tizimi

ingl.: communication system

rus.: коммуникационная система

Boshqa tizimlar orasida axborot uzatish bilan bog‘liq yordamchi vazifalarni bajaradigan tizim.

kommunikatsiya, kommunikatsiyalar

ingl.: communication

rus.: коммуникация, коммуникации

1. Aloqa, xabar, aloqa vositasi, axborot, axborot vositasi, tutashma, muloqot, ularish.
2. Telekommunikatsiyalar. Faoliyat sohasi - axborot uzatish usullari va vositalari.

kompilyator

ingl.: compiler

rus.: компилятор

Bir tilda yozilgan dasturni, protsessorning boshqa tilida ifodalangan dasturga aylantiruvchi dastur. Masalan, kompilyator SI tilida yozilgan dasturni olib, uni assembler tilida yozilgan dasturga aylantiradi.

kompyuter

ingl.: computer

rus.: компьютер

Hisoblarni bajarish, shu jumladan elektron shakldagi axborotni oldindan belgilangan algoritmlar bo‘yicha qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ishlov berish uchun mo‘ljallangan mashina. Kompyuter so‘zi ingliz tilidagi to compute, computer, so‘zlarining hosisasi bo‘lib, ular «hisoblash», «hisoblagich» deb tarjima qilinadi. Dastlab ingliz tilida bu so‘z, mexanik qurilmani jalb qilib yoki uning ko‘magisiz

arifmetik hisoblarni bajaradigan insonni anglatgan. Keyinchalik uning ma’nosini mashinalarning o’ziga ko’chirildi, biroq, zamonaviy kompyuterlar matematika bilan bevosita bog’liq bo’lmagan ko’plab masalalarни ham bajaradilar. XX asrning 90-yillardan boshlab, kompyuter atamasini elektron hisoblash mashinalari (EHM) atamasini amalda siqib chiqardi. Kompyuter quyidagi asosiy bloklardan iborat:

- asosiy xotira;
- protsessor;
- tashqi qurilmalar.

Kompyuterning hamma blok (bloklari o’zaro tizim magistrali (shinasi) bilan bog’langan. Uning o’zagi bo’lib, bitta protsessor yoki protsessorlar guruhni hisoblanadi. Ular, kesh-xotira yoki tezkor xotira bilan bevosita o’zaro ishlaydi va nazoratchilar yordamida tashqi qurilmalarga shu jumladan, tashqi xotira qurilmalariga va kiritish-chiqarish qurilmalariga ularni mumkin. Ma’lumotlarni kiritish uchun klaviatura, skanerlar va h.k. lar ishlatiladi. Ma’lumotlar ekranga, printerlarga, radiokarnaylar va boshqa qurilmalarga chiqariladi. Kompyuter ishini amaliy tizim boshqaradi. Birinchi - Z1 va Z3 – dasturlanadigan kompyuterlarni nemis muhandisi Konrad Suze (Konrad Zuse) mos ravishda, 1938 va 1941 yillarda yaratgani.

kompyuter aloqasi

ingl.: computer communication

rus.: компьютерная связь

Aloqa kanallari bo’ylab kompyuterdan kompyuterga axborot uzatish. Aloqa elektron vositalar yoki jamoa telekommunikatsiya kanallari (telefon, radio- va yo’ldoshli aloqa), yoki maxsus kabellar va simlar orqali amalgalashiriladi.

kompyuter arxitekturasi

ingl.: computer architecture

rus.: архитектура компьютера

Kompyuter tarkibiy bo’laklarining texnik va dasturiy vositalarining o’zaro aloqalarini o’z ichiga oluvchi kompyuterning mantiqiy tuzilishi va funksional tavsifnomalari.

kompyuter axboroti turlanishi

ingl.: computer information modification

rus.: модификация компьютерной информации

Kompyuter tizimi, tarmoq yoki mashina tashuvchilarida saqlanayotgan axborotni o’zgartirish yoki yolg’on axborotni ataylab kiritish.

kompyuter dasturidan foydalanish

ingl.: software use

rus.: использование программы для ЭВМ

Chop etish, aks ettirish, tarqatish va ularni turli xo’jalik faoliyatiga kiritish (jumladan o’zgartirilgan shaklda ham) bo’yicha harakatlar. Ommaviy axborot vositalari tomonidan kompyuter uchun dastur chop etilishi haqidagi xabar berish kompyuter uchun dasturidan foydalanish hisoblanmaydi.

kompyuter dasturi

ingl.: computer program

rus.: компьютерная программа

1. Masalani yechish algoritmining tavsifi. Dasturlash tilida beriladigan, dasturchi tomonidan tuziladigan va kompyuter bajaradigan ko’rsatmalar yig’masi.
2. Muayyan funktsiyalarni, masalalarni va muammolarni yechish uchun zarur bo’lgan, ixtisoslashgan dasturlash tilining qoidalariga bo’ysuyanadigan va operatorlar yoki buyruqlar tavsifidan iborat sintaksis birlilik.
3. Hisoblash mashinasiga algoritmnini belgilab beradigan, ko’rsatmalar (buyruqlar yoki tavsiflar va operatorlar) ketma-ketligi. Kompyuter dasturi kompyuter qanday tartibda, qaysi ma’lumotlar ustidan va qanday amallarni bajarishi kerakligini, hamda qanday shaklda natija berishi kerakligini ko’rsatib beradi. Kompyuterni boshqarish qurilmasi kompyuter dasturini mashina buyruqlari ketma-ketligi shaklida qabul qiladi. Kompyuter dasturini mashina tilida tuzish – noqlay va sermehnat jarayon. Shu sababli, odatta kompyuter dasturini inson tomonidan biror-bir dasturlash tilida tuziladi, so’ngara kompyuterning o’zi bu dasturni mashina tiliga o’tkazadi (translatsiya qiladi).

kompyuter dasturini nashr etish

ingl.: software publishing

rus.: выпуск программы для ЭВМ

Kompyuter uchun dastur nusxalarini muallif roziligi asosida cheklanmagan shaxslar doirasiga taqdim etish (jumladan, kompyuter xotirasiga yozish va bosma matn chop etish

orqali ham). Bunday nusxalar soni ko'rsatilgan asarlar tavsifiga ko'ra mazkur doiradagi shaxslar ehtiyojlarini qondirishi lozim.

kompyuter dasturining muallifi

ingl.: software author

rus.: автор программы для ЭВМ

Ijodiy faoliyat tufayli kompyuter uchun dastur yaratgan jismoniy shaxs.

kompyuter dasturining shakliy turlanishi

ingl.: software modification

rus.: модификация программы для ЭВМ

Moslashtirish bo'lmasan va dastlabki matnning o'zgarishiga olib keluvchi har qanday o'zgartirishlar.

kompyuter dasturlarini qo'riqlash

ingl.: protection of computer software

rus.: охрана компьютерных программ

Ixtiyoriy tilda va ixtiyoriy shaklda, shu jumladan, dastlabki matn yoki obyektlı kod ham, ifodalaniši mumkin bo'lgan, dasturlarni (shu qatori operatsion tizimlar ham) barchasiga tegishli bo'lgan qo'riqlash turi.

kompyuter grafikasi

ingl.: computer graphics

rus.: компьютерная графика

Kompyuterlar yordamida tasvirlarni yaratish va ishlov berish texnologiyasi. Avvaliga, oq-qora chizmalarini va sxemalarini tayyorlash jarayoni kompyuter grafikasi deb atalgan. Ammo, tez orada turli-tuman ranglarni ishlataidan rasmlar paydo bo'ldi. Qimirlamaydigan rangli tasvirlardan keyin videofilmlar paydo bo'ldi. Endi esa, uch o'lchamli tasvirlar tobora keng tarqalmoqda. Hozirgi kunda kompyuter grafikasi, uni yangicha tushunishda, hattoki virtual haqiqiylikni yarata oladi. Vizualizatsiya tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Kompyuter grafikasi yordamida vektorli tasvirlar va rastrlı tasvirlar yaratilmoqda.

kompyuter huquqi

ingl.: computer law

rus.: компьютерное право

Qonunchilikning yangi sohasi. U kompyuter, kompyuter tizimlari va tarmoqlarini ishlatalish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar majmuasini tartibga soladigan huquqiy hujjalilar majmuuidir Huquqshunoslikka oid adabiyotlarda «kompyuter huquqi» atamasi

bilan birga: «informatika huquqi», «axborot huquqi», «kompyuter - axborot huquqi» kabi atamalar ham uchraydi. Axborot huquqi tushunchasi kompyuter huquqi tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noga ega, chunki u, axborotga qanday texnik vositalar bilan ishlov berilishidan va uni tashuvchilar qandayligidan qat'iy nazar, axborot faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

kompyuter ilmi

ingl.: computer science

rus.: компьютерная наука

qarang: informatika

kompyuter ish tashlashi

ingl.: computer sabotage

rus.: компьютерный саботаж

Qasddan kompyuter axborotini yoki dasturini yo'q qilish, qamat qilish. yaroqsiz holga keltirish, kompyuter uskunalarini safdan chiqarish, kompyuter tizimini, tarmog'i yoki axborotning mashinali tashuvchisini barbob qilish.

kompyuter jinoyatlari

ingl.: computer crimes

rus.: компьютерные преступления

1. Bevosita ma'lumotlarga ishlov berish tizimi yoki kompyuter tarmog'i yordamida qilingan jinoyatlar.
2. Apparat, dasturiy vositalarni va ma'lumotlarni ishlatalish, turlash yoki qo'porish yo'li bilan sodir etilgan jinoyat.
3. Kompyuter informatikasi sohasidagi jinoyatlarning qisqartirilgan nomi.
4. Axborot – telekommunikatsiya tarmoqlari orqali axborotdan erkin foydalishning yangi imkoniyatlarini ishlatalish, hamda kompyuter tizimlari foalitini buzish bilan bog'liq huquqbuzarlik harakatlari.

kompyuter jinoyatlari tasniflagichi

ingl.: codifier of computer crimes, classifier of computer crimes

rus.: кодификатор компьютерных преступлений, классификатор компьютерных преступлений

U Interpol tashkilotining Bosh kotibiyotining ishchi guruhi tomonidan 1991 yili ishlab chiqilgan. U so'rovlar bo'yicha axborotni avtomatlashirilgan axtarish tizimi bilan uyg'unlashgan va hozirgi kunda, Interpolni 100 dan ortiq Milliy bo'limlardan erkin foydalanan

imkonini beradi. Tasniflagich kompyuter jinoyatlarining olti guruhini o‘z ichiga olib, ularning har biri yana ayrim turlarga bo‘linadi. Tasniflagichda Z shartli belgisi nazarda tutilgan bo‘lib, u «jinoyatlarning boshqa turlari»ni ifodalaydi va kompyuter texnologiyalarining bo‘lajak rivojlanishini hisobga olib kiritilgan.

- QA guruhi — Ruxsat etilmagan erkin foydalanish va tutib olish;
- QD guruhi — Kompyuter ma’lumotlarini o‘zgartirish;
- QF guruhi — Kompyuter qallobligi;
- QR guruhi — Noqonuniy nusxa olish;
- QS guruhi — Kompyuter ish tashlashi;
- QZ guruhi — Boshqa kompyuter jinoyatlari;

kompyuter kartochkasi

ingl.: computer card

rus.: компьютерная карточка

Ichiga mikroprotsessor, dasturiy ta’milot va energiyaga qaram bo‘lmagan xotira qurilmasi o‘rnatalgan plastika kartochkasi. Kompyuter kartochkasi, boshqacha, tafakkur kartochkasi deb ham atalib, uncha katta bo‘lmagan o‘lchamlarga, o‘zining oddiy OT ga va beruxsat erkin foydalanish dan ichiga o‘rnatalgan muhofazasiga ega. Kartochkada bir guruh tutashmalar bo‘lib, ular ozuqa manbaiga ulanish, kartochkaga ma’lumotlarni kiritish va undan ma’lumotlarni chiqarish uchun xizmat qiladi. Kompyuter kartochkasi uning egasini aniqlash uchun va qo‘srimcha axborot (bankdagi hisob raqami, biror tovar uchun to‘langan pul miqdori va h.k.) taqdim qilish uchun mo‘ljallangan.

kompyuter ma’lumotlarini g‘ayriqonuniy egallab olish

ingl.: improper possession of computer information

rus.: неправомерное владение компьютерной информацией

Kompyuter tizimida, tarmoqda yoki mashina tashuvchilarida saqlanayotgan axborotni ruxsatsiz ko‘chirish yoki boshqa g‘ayriqonuniy yo‘l bilan egallab olish, yoki kompyuter aloqasi vositalari yordamida uzatiladigan axborotni ushlab qolish.

kompyuter muhofazasi

ingl.: computer protection

rus.: защита компьютера

Ma’lumotlar va tizim resurslarini, odatda tasodifiy va qasddan qilingan harakatlarga

qarshi qo‘llanadigan tegishli tadbirlar tizimi bilan muhofazalash. Bunday harakatlar o‘zgalar axborotini o‘zgartirish, yo‘q qilish, oshkor etish, olish yo undan erkin foydalanish kabilar bo‘lishi mumkin.

kompyuter musiqasi

ingl.: computer music

rus.: компьютерная музыка

Kompyuter texnikasi va tegishli dasturiy ta’milotni ishlatib yaratiladigan musiqa.

kompyuter qallobligi

ingl.: computer fraud

rus.: компьютерное мошенничество

Ma’lumotlarga ishlov berish tizimi yoki kompyuter tarmog‘i yordamida yoki bevosita u orqali qilingan qalloblik.

kompyuter reklamasи

ingl.: computer advertisement

rus.: компьютерная реклама

Axborot tarmog‘i tomonidan texnologiyalar, tovarlar va taklif qilinayotgan xizmat turlari to‘g‘risida taqdim qilinayotgan axborot. Kompyuter reklamasi audiovideotizimlar, multimuhit va virtual borliqdan foydalanishga tayanadi. Reklamada taklif qilinayotgan obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashgan MB katta ahamiyatga ega. Barcha hollarda ma’lumotlarning hamma turlari, ya’ni, matn, nutq, musiqa va tasvirlar, shu jumladan, rangli, hajmiy tasvirlar ishlatiladi. Ommaviy tamoshabinga mo‘ljallangan reklama uchun, teleko‘rsatuvlar tarmog‘i ishlatiladi.

kompyuter savodxonligi

ingl.: computer literacy

rus.: компьютерная грамотность

Shaxsiy kompyuterda ishlash uchun zarur bilim va ko‘nikmalarning eng kam to‘plamini egallash. Shu kunda, o‘qish va yozishda ustalik qanchalik zarur bo‘lsa, kompyuter savodxonligi ham shunday qaralmoqda.

kompyuter tarmog‘i

ingl.: computer network

rus.: компьютерная сеть

Hisoblash tizimi. U bir necha kompyuter, terminal va boshqa apparat vositalarini o‘z ichiga olib, ma’lumotlar uzatishni ta’minlaydigan aloqa liniyalari bilan o‘zaro bog‘langan. Kompyuterlar bir biri bilan o‘zaro

bevosita yoki oraliq kompyuterlar orqali ulanadilar. Tarmoqning tuzilishi va tarmoq dasturiy ta'minoti imkoniyatlarga qarab, biror kompyuter yoki terminal foydalanuvchisi quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin: boshqa kompyuter xotirasida saqlanayotgan ma'lumotlardan erkin foydalanish; o'zining amaliy dasturini bajarish uchun quvvatliroq kompyuterning markaziy protsessoriga va uning xotirasidan erkin foydalanish; tarmoqqa qo'shilgan barcha kompyuterlarning birlashgan resurslaridan erkin foydalanish. Tarmoqlarga misol sifatida avialiniyalar chiptalariga buyurtma berish yagona tizimi yoki bankni va uni turli shaharlarda va hatto, mamlakatlarda joylashgan bo'limlarini bog'lovchi tarmoqni ko'rsatish mumkin. Butun dunyoda keng tarqalgan global kompyuter tarmog'i Internet esa yaqqol misoldir.

kompyuter telefoniyasi

ingl.: computer telephony

rus.: компьютерная телефония

Chaqiruvlar generatsiyasi va qabul qilinishi, seanslarni boshqaruvi kompyuter zimmasiga yuklatilgan telefoniya. U tufayli foydalanuvchiga quyidagi xizmatlar taqdim qilinadi:

- xabarlar uchun yagona makon (ovozi va faksimil) qo'llish;
- telefon chaqiriqlarni bir kompyuterdan boshqasiga ularsh;
- MB bilan interfaol ovozli o'zaro ishslash;
- kirayotgan va chiqayotgan chaqiriqlarni nazorat qilish;
- chaqirilayotgan foydalanuvchi tartib raqamini terish;
- nutq xabarlarini sintezlash;
- avtojavobchini ishini taqlid qilish;
- foydalanuvchilar guruhi orasida telekonferensiya tashkil qilish.

kompyuter texnologiyasi

ingl.: computer technology

rus.: компьютерная технология

garang: axborot texnologiyasi.

kompyuter tezligi

ingl.: computer speed

rus.: быстродействие компьютера

Mashinaning markaziy protsessori tomonidan bir sekundda bajarilayotgan elementar amallar

soni. Zamonaliviy kompyuterlar tezligi sekundiga bir necha milliard amallarga yetadi.

kompyuter tili

ingl.: computer language

rus.: компьютерный язык

Kompyuterlar va kompyuter texnikasi bilan bog'liq, odatda tillarga tegishli tushuncha.

Bu tushuncha ko'proq dasturlash tili tushunchasiga mos keladi, lekin bunday moslik bir ma'noli emas. Masalan, markerlash tillari (HTML kabi) dasturlash tillariga kirmaydi, ammo aniq kompyuter tillariga tegishli.

kompyuter tizimi

ingl.: computer system

rus.: компьютерная система

Markaziy kompyuter va unga aloqador chekka qurilmalar, konsol kompyuterlar, disk massivlari, lentali tashuvchilar, ma'lumotlarni robotlashgan saqlash tizimi va shunga o'xshashlar.

kompyuter tizimi auditi

ingl.: computer system audit

rus.: аудит компьютерной системы

Ma'lumotlarga ishlov berish tizimida qo'llanilayotgan jarayonlarning samaraliligi va to'g'riligini baholash va ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berish uchun ekspertiza.

kompyuter uchun dasturni moslashtirish

ingl.: software adaptation

rus.: адаптация программы для ЭВМ

Foydalanuvchining muayyan texnik vositalari yoki aniq dasturlari boshqaruvidagi kompyuter uchun mo'ljallangan dasturning faoliyatini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan o'zgartirishlar kiritish.

kompyuter uchun dasturni tarqatish

ingl.: software distribution

rus.: распространение программы для ЭВМ

Ixtiyoriy moddiy shaklda qayta ishlab chiqarilgan kompyuter uchun dastur erkin foydalanishni, shu jumladan, tarmoq va boshqa usullar bilan, taqdim qilish. Shuningdek, sotish, kiraga berish, ijaraga topshirish, qarzga berish, shu maqsadlarda importni ham o'z ichiga oladi.

kompyuter virusi

ingl.: computer virus

rus.: компьютерный вирус

1. Boshqa dasturlarni turlab o‘z-o‘zini tarqatadigan dastur. U iloji boricha, o‘z o‘zgartirilgan nusxalarini ham va kasallangan dasturni chaqirilganda bajariladigan dasturlarni ham o‘z ichiga oladi. Virus, aksariyat hollarda nosozlikka sabab bo‘ladi yoki g‘ijinish uyg‘otadi va biror hodisa yuz berishi bilan, masalan, aniq kunning kelishi bilan ishga tushirilishi mumkin.

2. Quyidagi xossalarga ega dastur: o‘zini boshqa fayllarga, disklarga, kompyuterlarga nusxasini ko‘chirish, axborotdan ruxsat berilmagan erkin foydalanishni amalga oshirish imkoniyati bor; topib olishga urinishlardan niqoblanish imkoniyatiga ega.

3. Dastur yoki boshqa dasturlarga ulanadigan buyruqlar yig‘masi. U o‘zining nusxalarini kompyuterlarda yoki kompyuter tarmoqlarida qayta ko‘paytirib va tarqatib, hamda qonuniy foydalanuvchilar uchun nomaqbul harakatlarni bajaradi.

Kompyuter virusi tezkor xotiradagi va diskdag‘i dasturlarni «zaharlaydi». Tarqatilish usullari, «tajovuzkorlik», virusga qarshi dasturlarni muhofazasini yengib o‘tadigan va tavsifnomalari bilan ajralib turadigan kompyuter viruslari xillari to‘plami mavjud. Zaharlash usuliga qarab kompyuter viruslari dasturiy yoki yuklovchi bo‘lishi mumkin. Dasturiy virus dasturning tanasiga yo‘zilib oladi va uni xotiraga yuklaganda, rezident ravishda yukanadi, natijada tezkor xotirada joylashgan barcha dasturlarni diskda ularning fayllariga o‘zini yozib olib zaharlaydi. Yuklovchi virus o‘zini diskka hufiya tarzda, o‘ziga diskli yuklovchida murojaat qoldirib yozib oladi va diskka birinchi murojaat vaqtida faollashib ketadi. Kompyuter viruslari diskdan diskka nusxa ko‘chirishda yohud Internet tarmog‘i orqali “yuqadi”.

kompyuter xaritasi

ingl.: computer map

rus.: компьютерная карта

Avtomatlashtirilgan kartografik tizim yoki GAT vositalari yordamida olingan xarita. U grafik chiqarish qurilmalari - grafqurgich, printer va boshqalar yordamida qog‘oz, fototasma va boshqa materiallarda tayyorlanadi.

kompyuter o‘yini

ingl.: computer game

rus.: компьютерная игра

Holatlarni kompyuter yordamida modellash. U samarador yechimlarni ishlab chiqish maqsadida, ziddiyat usulidan foydalanadi. O‘yinlar nazariyasi asosida yaratilayotgan kompyuter o‘yinlarida, bir ishtirotchi sifatida – kompyuter, boshqalari sifatida – odamlar qatnashadi. Har bir kompyuter o‘yini, uming o‘tib borish jarayonini tavsiflaydigan algoritm tomonidan belgilanadi. Bu algoritm qator talablarga javob berishi zarur:

- jarayon shunday bo‘lishi kerakki, o‘yinchini ko‘nikmalar olsin va takroriy o‘yinda yig‘ilgan tajribani ishlata olsin;
- o‘yin, o‘yinchini eng yaxshi natija erishishiga qiziqtira olish bilan maftunkor bo‘lishi kerak;
- o‘yinda ma‘lumotlarni ifodalashning turli shakllari ishlatalishi zarur.

O‘yin tushunchasi insонning ishi va dam olishi bilan bog‘liq turli sohalarni qamrab oladi. Bunga ishchanlik o‘yinlari (iqtisod va ishlab chiqarishni boshqarish), o‘qish, sport, dam olish, ko‘ngil ochish kiradi. O‘yinlarni o‘tkazish uchun kompyuterlarga maxsus kiritish-chiqarish qurilmalari - richagli mexanizm, radiokarnay, mikrofon va boshqalar bilan jihozlanadi.

kompyuteramaniya

ingl.: computer-prone

rus.: компьютеромания

Insonning kompyuter tizimlarini muntazam ishlatalishdagi patologik ehtiyoji. Bu inson ruhiyatiga kompyuter o‘yinlari va virtual borliq texnologiyalari ta’siriga ko‘nikib qolishi bilan yuzaga kelgan.

kompyuter-bosma

ingl.: computer-to-press

rus.: компьютер-печать

Raqamli poligrafiyada ishlataladigan atama. U kompyuter bilan poligrafiya orasida oraliq amallar yo‘qligini bildiruvchi tushuncha.

kompyuterlar avlod

ingl.: computers’ generation

rus.: поколение компьютеров

Asosan ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniluvchi texnologiyaga asoslangan kompyuterlarning tarixiy tasnidifikasi toifa. Masalan, birinchi avlod kompyuterlari rele yoki elektron lampalarga, ikkinchisi – tranzistorlarga,

uchinchisi – integral mikrosxemalarga, to'rtinchisi – katta va o'ta katta integral sxemalarga asoslangan.

kompyuterlashgan dasturiy ta'minot ishlab chiqish

ingl.: Computer-Aided Software Engineering (CASE)

rus.: компьютеризованная разработка программного обеспечения

Dasturiy ta'minot ishlab chiqishga mo'ljallangan tizim. CASE texnologiyasi dasturlarni ishlab chiqishga, umumiylar MB yaratishga, shu baza bilan o'zaro ishlashni yagona usulidan foydalanishga mo'ljallangan kompyuterlashgan tizim vositalari to'plamidan iborat. Buning ustiga, bu yondashuv yagona axborot tarmog'iga ulanadigan axborot tizimlarida ishlatiladigan OT (amaliy tizim) larni xilma-xilligini hisobga oladi. Bundan tashqari, CASE turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlatiladigan tarmoq texnologiyalarining yagona asosini belgilaydi. CASE yana, yaratilayotgan dasturlarni testlashning uslubiyatini va testlash vositalarini taqdim qiladi. CASE ni ishlatish evaziga ishlasmalar arzonga tushadi va ularni ishlab chiqish davri qisqaradi.

kompyuterlashgan ishlab chiqarish

ingl.: Computer-Aided Manufacturing (CAM)

rus.: компьютеризованное производство

Kompyuter ishtirokida ishlab chiqarish.

kompyuterlashgan logistik tizim

ingl.: Computer-Aided Logistics System (CALS)

rus.: компьютеризованная логистическая система

Loyihalash va murakkab qurilmalar to'plamini kuzatib borish texnologiyalari majmui. CALS tizimi avtomatlashtirish funksiyalari to'plamini belgilab beradi. U bozorni o'rghanish va marketing, texnik shartlarni ishlab chiqish, loyihalash, ishlarni moddiy-teknik ta'minoti, texnologik jarayonni ishlab chiqish va tayyorlash, ishlab chiqarish, nazorat va boshqalarни o'z ichiga oladi. Ko'rsatib o'tilgan funksiyalarni bajarish uchun CALS quyidagi vositalarni ishlataladi:

- logistik tizimlarni spetsifikatsiyasini yaratish;
- loyihalash, shu jumladan, ma'lumotlar bazalarini;

- dasturlash;

- uyg'unlashuv uchun maslaklarni kuzatib borish;

- turli nimtizimlarni yaratuvchilarni o'zaro ishlashini rejalash, nazorat qilish.

kompyuterlashgan loyihalash

ingl.: Computer-Aided Design (CAD)

rus.: компьютеризированное проектирование

Ishlab chiquvchilar mehnatini avtomatlashtirish texnologiyasi. Mahsulotlar (asboblar, qurilmalar, apparatlar, tizimlar) tobora murakkablasha borishi, ularni yaratishda yangicha yondashuvlar qo'llashni taqoza etadi. Ular CAD, Loyiha Ishlarini Avtomatlashtirish Tizimi (LIAT) deb ham ataladigan texnologiya bilan amalga oshiriladi. CAD loyihalash va chizmachilikni, yassi yoki hajmiy detallar va konstruksiyalarni uch o'lchamli modellashni ta'minlaydigan amaliy dasturlar paketidir. Bundan tashqari CAD, konseptual konstruktorlash, animatsiya, vizualizatsiya, MB ni boshqarish va muhandislik hujjatlari tayyorlash vazifalarini bajaradi. CAD yaratilishi kerak bo'lgan mahsulot haqida ma'lumotlar yig'ishdan tortib, uni tayyorlashgacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

kompyuterlashgan tarjima

ingl.: computer-aided translation

rus.: компьютеризованный перевод

Kompyuter yordamida bajariladigan, bir tabiiy tildan boshqasiga tarjima. Kompyuterlashgan tarjima, ko'p hollarda mashinali tarjima deyiladi, sun'iy tafakkurga ega bo'lgan amaliy jarayon tomonidan bajariladi.

Kompyuterlashgan tarjimaning uch turi mavjud. To'g'ridan – to'g'ri tarjima usuli eng eskisi bo'lib, faqat bir juft tillarga mo'ljallangan. Vositachi – til ishlatishga asoslangan tarjima usuli. U avvalgidan matn mazmunini ifodalash uchun vositachi kiritilishi bilan farqlanadi. Bu usul, ayniqsa, ko'ptillik muhitda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari u oldingi to'g'ridan – to'g'ri tarjima usulidan tejamliroq. Transfer (uzatish) usulida, tarjimaning yana bir bosqichi kiritiladi. Ulardan birinchisida, boshlang'ich matn kirish tilining ifodalariga aylantiriladi. Ikkinci bosqichda bu ifodalanish chiqish tili ifodalariga qayta aylantiriladi. Nihoyat oxirgi bosqichda chiqish tilidagi matn hosil bo'ladi.

kompyuterlashgan tizim

ingl.: Computer-Aided System (CAS)

rus.: компьютеризованная система

Kompyuter yordamida ixtiyoriy ishlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan tizim. CAS tizimi, modellashtirish, loyihalash, ishlab chiqish, yaratish, amalda ixtiyoriy mashinalarni, apparatlarni, asboblarini va boshqa mahsulotlarni tayyorlash va sinash bilan bog'liq ishlarni qamrab oladi.

kompyuterlashtirish

ingl.: computerisation

rus.: компьютеризация

1. Kompyuterlar vositasida avtomatlashtirish.
2. Inson faoliyatining turli sohalarida, axborot jarayonlarini va texnologiyalarni avtomatlashtirishni ta'minlaydigan kompyuterlarni rivojlantirish va tatbiq qilish jarayoni.
3. Kompyuter mahsulotlari va xizmatlari sanoatini, hamda jamiyatda ulardan fodenishni rivojlantirish jarayoni. Internetni keng rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri.

konferens-aloqa

ingl.: teleconference

rus.: конференц-связь

Foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida bir necha, o'zaro aloqaga ega bo'lishi mumkin abonentlar bilan axborot almashuvi imkonini beruvchi xizmat turi.

konferensiya

ingl.: conference

rus.: конференция

Bir necha foydalanuvchilar tarmoqda o'zaro ishlash usuli. U matn, audio va video shaklida mavjud bo'ladi. Matnli konferensiylar News (foydalanuvchilarni berilgan mavzuda o'qish-yozish orqali asinxron muloqati) shaklida va Chat (haqiqiy vaqt davomida) shaklida o'tkaziladi. Audio va video konferensiylarni o'tkazish uchun kanalning o'tkazish qobiliyati mos ravishda 30 va 100 Kbit/s dan ortiq bo'lishi zarur. Mikrofon va kamera mavjud bo'lishi, hamda konferensiylar o'tkazish uchun tegishli dasturiy ta'minot - IPhone, WebPhone, NetMeeting ham bo'lishi kerak.

konsalting

ingl.: consulting

rus.: консалтинг

Ekspertiza o'tkazish va maslahat berish faoliyati bilan bog'liq xizmat turi. Muhim rolni axborot konsaltingi egallaydi.

konsol

ingl.: console

rus.: консоль

Ma'mura tarmoqni boshqarish uchun taqdim qilinadigan terminal. Bunday konsollarda foydalanuvchi interfeysi tarmoqning ishini va uning tarkibiy qismlarini ko'rib turishini ta'minlaydigan qilib yaratiladi. Bu interfeysda uch o'lchamli multiplikatsiya va virtual borliq elementlari toboro keng ishlatilmoqda.

konsolli kompyuter

ingl.: console computer

rus.: консольный компьютер

Asosiy kompyuterni ishga tushirib yuborish uchun tayyorgarlik harakatlarini bajaruvchi kompyuter. Bunday vazifa «katta» kompyuter tizimlari masalan, superkompyuterlar bajarilganda, ayrim mashinaga berilishi mumkin. Odatda, konsol kompyuterdan bosh kompyuter tizimining elementlari va bog'lamalarining holatini monitoringi bajariladi, shu bilan birga unda, asosiy kompyuterni sozlash va unda xizmat ko'rsatish uchun ishlatiladigan tarkibiy tuzilma axboroti va xizmat utilitlari saqlanadi.

kontent

ingl.: content

rus.: контент

1. Axborot tizimini ixtiyoriy mazmundagi axborot – matn, grafika, multimedia bilan to'ldirish. Gipermatnli belgi qo'yish vositalari bor sahifa ko'rinishida tashkil qilinadi. Kontentning ahamiyatlari ko'rsatkichlari bo'lib uning hajmi, dolzarbligi va relevantligi hisoblanadi.
2. Veb-bog'lamaning axborot resurslari (mazmuni, axborot to'ldirilishi, mazmunli axborot).
3. HTML-hujjatda shu sahifaning qisqacha tavsifi joylashtiriladigan bir nomli maydonidagi xizmat axborotining qismidir. Izlovchi mashinalar uchun ahamiyatlidir.

konvergensiya

ingl.: convergence

rus.: конвергенция

Har xil elektron texnologiyalarni ularning tez rivojlanishi va o‘zaro ishlashi natijasida yaqinlashish jarayoni. Yaqin kelajakda, telekommunikatsiya tarmoqlarida trafikni uzatish tezligi shunday katta, hamda ma’lumotlarni ifodalash usuli shunchalik hammabop bo‘ladiki, yagona paket bilan bir vaqtning o‘zida ovozni, tasvirni, matnni, teledasturni uzatish mumkin bo‘ladi.

korporativ axborot tizimi

ingl.: *corporate information system*

rus.: *корпоративная информационная система*

Ishtirokchilari cheklangan doiradagi shaxslar bo‘lgan axborot tizimi. Ishtirokchilar axborot tizimining egasi tomonidan yoki shu axborot tizimi ishtrokchilari orasidagi bitim bilan aniqlanadi.

korporativ portal

ingl.: *corporate portal*

rus.: *корпоративный портал*

Ichki foydalinish uchun mo‘ljallangan korporativ veb-sayt. U kompaniya xodimlariga korporativ axborotga, elektron tijorat maydonchalariga (ta’minotchilar, mijozlar bilan o‘zaro harakat va boshqalar), hamda cheklangan sonli tashqi veb-saytlardan erkin foydalishni taqdim qiladi.

korporativ tarmoq

ingl.: *enterprise network*

rus.: *корпоративная сеть*

Katta tashkilotning mahalliy tarmog‘i. Korporativ tarmoq, xuddi shunday korxona tarmog‘i deb ham ataladi, korxonada bajarilayotgan barcha ishlarni avtomatashtirish uchun mo‘ljallangan: yangi mahsulotlarni loyihalashdan tortib, ularni reklama qilish va sotishgacha. Zamonaviy korporativ tarmoq uni tashkil qiluvchi axborot tizimlarining shajaraviy tuzilmasi bilan xarakterlanadi. Uning modeli modullilik va masshtablanuvchilik xususiyatlari ega.

korxona resurslarini rejorashtirish tizimi

ingl.: *Enterprise Resource Planning (ERP) system*

rus.: *система планирования ресурсов предприятия*

Korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarini hisob-kitob va nazorat qilish, rejorashtirish hamda boshqarish vazifalarini kelishilgan holda bajarishni ta’minlashga qaratilgan axborot tizimi. ERP tizimlarida

ta’minlash va savdo vazifalarini bajarish odatda hisoblash vazifalaridan iborat. Bunda yetkazuvchi va iste’molchilar resurslarini rejorashtirish tizimlari bilan ularga o‘xshash tizimlar bevosita o‘zaro ishlash mexanizmi mavjud bo‘lmaydi.

kredit kartochka

ingl.: *credit card*

rus.: *кредитная карточка*

Bank tizimlarida keng tarqalgan magnit kartochkasi. Bankomatlarda, savdo va xizmat ko‘rsatish tashkilotlarining kassa apparatlarida kartochkaning egasini aniqlash uchun ishlatalidi. Har qysi bunday kartochka o‘zining «shaxsiy identifikatsiya tartib raqami» PIN ga ega, u uning egasiga biriktiriladi.

K

kreker

ingl.: *cracker*

rus.: *крекер*

Xakerning Internetda qabul qilingan nomlanishi. Tarmoqda haqorat so‘zi hisoblanmaydigan «xaker» so‘zidan farqli, aynan qo‘poruvchi (sindiruvchi - «yomon odam»). Bu atama ko‘p ma’noli: sindiruvchi deb qarsillab sinadigan quruq pecheniyni ham, va shovqinsiz, muhofazani sindiradigan xakerlarning dasturlarini ham, atashadi.

kriptografik algoritm

ingl.: *cryptographic algorithm*

rus.: *криптографический алгоритм*

Axborotni (ma’lumotlarni) buzishga to‘sqinlik qilish va undan ruxsatsiz erkin foydalish dan muhofazalash maqsadida uni o‘zgartirishning matematik algoritmi.

kriptografik bayonnomma

ingl.: *cryptographic protocol*

rus.: *криптографический протокол*

Almashilayotgan axborot xavfsizligini kafolatlaydigan algoritm. Uning yordamida ikki yoki undan ortiq tomonlar, biror axborot bilan almashadi. Kriptografik bayonnomalar asosida simmetrik kriptoalgoritmalar ham, ochiq kalitli algoritmlar ham olinishi mumkin. Kriptografik bayonnomalarni bardoshli deb hisoblash uchun, uni ishlatalish jarayonida to‘la huquqli ishtirokchilar o‘z maqsadlariga erishishlari, qo‘poruvchilar esa erishaolmasliklari shart.

kriptografik jihoz

kriptografik kalit*ingl.: cryptographic equipment**rus.: криптографическое оборудование*

Kriptografik algoritmlarni amalga oshiruvchi va axborotni uzatishda, ishlov berishda va saqlashda muhofazalash uchun mo'ljallangan, dastlabki matnni shifrmatnga va shifrmatnni dastlabki matnga o'girish, shifr kalitlarni tayyorlash va ruxsatsiz erkin foydalanish dan muhofaza uchun apparat, dasturiy-apparat, dasturiy majmua va vositalar.

kriptografik kalit*ingl.: cryptographic key**rus.: ключ криптографический*

1. Dastlabki matnni shifrmatnga va shifrmatnni dastlabki matnga o'girish imkonini ta'minlaydigan, kriptografik algoritmlarning parametri bo'lgan ramzlar ketma-ketligi.

2. Shifr o'zgartirishlari to'plamidan muayyan o'zgartirishni aniqlaydigan ma'lumotlar majmui.

kriptografik muhofaza*ingl.: cryptographic protection**rus.: криптографическая защита*

Axborotni kriptografik o'zgartirish bajarish yo'li bilan muhofazalash.

kriptografik tizim*ingl.: cryptographic system**rus.: криптографическая система*

1. Axborotni kriptografik o'zgartirishni va (yoki) boshqarishni ta'minlaydigan, shu jumladan, avtomatlashtirilgan, kriptografik kalitlarni tayyorlash va tarqatishni ta'minlaydigan tashkiliy, texnik va dasturiy vositalar majmui.

2. Kalit yordamida tanlanadigan qaytar o'zgartirishlar oilasi, ular dastlabki matnni shifrlangan matnga va teskarisiga o'zgartiradilar.

3. Dastlabki matnni shifrlagan matnga va shifrlagan matnni dastlabki matnga o'girish usullarini ta'minlaydigan hujjatlar, qurilmalar, uskunalar va birgalikda ishlataladigan tegishli usullar.

kriptografiya*ingl.: cryptography**rus.: криптография*

1. Fan (bilimlar sohasi). U axborot (ma'lumotlar) o'zgartirish tamoyillari, vositalari va usullari bilan shug'ullanadi. Bundan maqsad axborot mazmunidan ruxsat etilmagan erkin

foydalinish dan muhofazalash va uni buzishni bartaraf qilish.

2. Ma'lumotlarni aloqa kanallari orqali uzatishda yoki saqlashda maxfiylikni va/yoki haqiqiylikni ta'minlash usullari to'g'risidagi fan.
3. Ma'lumotlarni xabardor bo'Imagan shaxslar uchun tushuna olmaydigan qilish maqsadida o'zgartirish usuli. Ma'lumotlar xavfsizligi tizimining muhim tarkibiy bo'lagidir. Uning mohiyati, ma'lumotlarni uzatishdan oldin ma'nosiz belgilari yoki signallar yig'masiga aylantirishda va ma'lumotlarni oluvchi qabul qilib olgandan so'ng, ularni dastlabki shakliga qayta tiklashda.

kriptologiya*ingl.: cryptology**rus.: криптология*

Aloqa kanallari orqali axborotning xavsizligini ta'minlab saqlash va uzatish tizimlarini yaratish va tahlil qilish to'g'risidagi fan. Kriptologiyani ikki qismga bo'lishadi: kriptografiya va kriptotahhil.

kriptotahhil*ingl.: cryptanalysis**rus.: криптоанализ*

1. Ma'lumotlarni oshkor aylash va/yoki soxtalashtirish usullari to'g'risidagi fan.

2. Dastlabki matn shaklida nozik axborotni ajratish uchun kriptografik tizimni, uning kirish va (yoki) chiqishini tahlil qilish.

kriptotahhiliy hujum*ingl.: crypto analytical attack**rus.: криптоаналитическая атака**qarang: tahliliy hujum***kriptotizim***ingl.: cryptosystem**rus.: криптосистема**qarang: kriptografik tizim***kross-dastur***ingl.: crossware**rus.: кросс-программа*

Ekstratarmoqlar foydalanuvchilari uchun ishlab chiqiladigan dastur. Bu amaliy dasturlar odatdagilardan shu bilan farq qiladiki, ular muayyan amaliy tizimlar bilan emas, balki Amaliy tizimlar yig'masi bilan ishlashi mumkin. Shu sababli, kross – dasturlarni ishlatganda,

turli ishlab chiquvchilarga umumiyl bo‘lgan standartlarni qo‘llash zarur.

Kruk kriptotizimi

ingl.: Crook’s cryptosystem

rus.: криптомосистема Крука

Xatolarni tuzatish kodlariga asoslangan kriptotizim. MakEllisning kriptotizimini kamchiliklarini yo‘qotish uchun YE.Kruk tomonidan taklif qilingan.

kursor

ingl.: cursor

rus.: курсор

Kompyuter ekranida siljib boradigan obyekt nomini yoki bajarilayotgan amalning joyini ko‘rsatuvchi nishon, belgi. U klaviatura, «sichqoncha», yorug‘lik perosi yoki dastur boshqaruvidan olingen buyruqlarga monand siljiydi. Ekranda kursor to‘rtburchak, nishon, strelna yoki qisqa chiziqcha shaklida aks etadi. Inson va kompyuter muloqatining muhim elementi.

kvant

ingl.: quantum

rus.: квант

Diskret fizik kattalik, masalan, signal o‘zgarishi mumkin bo‘lgan eng kam kattalik.

kvant axborot nazariysi

ingl.: quantum theory of information

rus.: квантовая теория информации

Kvant axborotining vujudga kelishi, ishlov berish, uzatish va saqlash jarayonlarini ifodalovchi futuristik nazariya. Bu axborot ustidan amallar, bitlar sifatida elementar zarrachalar holatini ishlatish yo‘li bilan amalgalashirildi.

Kvant axborotini mumtoz shaklga aylantirish uchun maxsus dekoderlovchi qurilma ishlatiladi. Axborotning kvant nazariysi sof nazariy fan bo‘lib, hozirgacha, u asosida qurilgan texnologiyalar amaliyotdan ancha uzoq.

kvant kompyuteri

ingl.: quantum computer

rus.: квантовый компьютер

Kvant nazariyasining tamoyillaridan foydalanib, «hisoblashlarning kvant parallelizmi» deb ataluvchi effekt asosida loyihalanayotgan kompyuter. Nazariy jihatdan, kvant kompyuterlari, hozirgi zamонавиј

yarimo‘tkazgichli kompyuterlarga nisbatan bir necha daraja yuqoriroq hisoblash tezligini ta‘minlashlari mumkin. Ularning yaratilishi bilan misli ko‘rilmagan texnologik siljish kutilmoqda. Ilk bor kvant hisoblashlar g‘oyasi rus matematigi YU.I. Manin tomonidan 1980 yili aytilgan.

kvant kriptografiyasi

ingl.: quantum cryptography

rus.: квантовая криптография

Kvant fizikasining tamoyillarini ishlatishga asoslangan kriptografik mexanizm. Xabarlarni uzatish uchun fotonlar ishlatiladi, bu kriptoanalitik tomonidan axborotni shakl turini yoki uni uzatish jarayonini buzish mumkin emasligini kafolatlaydi. Bu mexanizm 70-yillarda oxirida chop etilgan. Hozirgi kunga kelib, kvantli kriptografiya amalda qo‘llanilmayapti, faqat tajriba sifatida ishlatiladi.

kvantlash

ingl.: quantization

rus.: квантование

1. Biror bir uzlusiz kattalik qiyatlari kengligini cheklar bilan kesishmaydigan oraliqlarga bo‘lish.
2. Ma‘lumotlarni uzlusiz shakldan diskret shaklga o‘tkazish amali.
3. Ma‘lumotlarni nimguruhlarga (sinflarga) bo‘lish, masalan, tasvirlarga raqamli ishlov berilganda.

Kvantlash berilgan kattalikni kvantlarga bo‘lishga keltiriladi. Informatikada, birinchi navbatda kvantlashga vaqt va analogli signallar yaroqiladi.

ko‘p dasturli rejim

ingl.: multiprogramme mode

rus.: мультипрограммный режим

Kompyuter yoki hisoblash majmui tomonidan bir paytning o‘zida bir necha vazifani yechish. Uning turlaridan biri taqsimlangan vaqt maromi, boshqasi – vazifaning paketli yechilishi, ya’ni hisoblash qurilmalarini to‘la yuklash maqsadida vazifalarning tanlab guruhlarga birlashtirilishi.

ko‘p foydalanuvchili davra

ingl.: Multi-User Dimension (MUD)

rus.: многопользовательская среда

Foydalanuvchi turli xil harakatlarni (masalan, rolli o‘yin) amalda qo‘llashi mumkin bo‘lgan matn muhitini yaratuvchi kompyuter dasturi.

Teleanjuman turlaridan biri. Ko‘p ishtirokchilar uchun ochiq bo‘lan virtual voqeiylik foydalanuvchilarning o‘zлari tomonidan kengaytirilishi mumkin. Hozirgi paytda turli xil ko‘p foydalanuvchili muhitlar o‘zgartirilgan ko‘rinishda keng tarqalgan va turli mavzulardagi hamjamiyatlar tuzish uchun xizmat qiladi, masalan, astronomiya, biologiya, adabiyot va madaniyat nazariyotchilar, ommaviy axborot vositalari tadqiqotchilar va boshqa hamjamiyatlar.

ko‘p kristalli integral sxema

ingl.: multicroystal integrated circuit

rus.: многокристальная интегральная схема

Bitta korpusda joylashgan va o‘zaro bog‘langan kristallar guruhidan iborat integral sxema. Kristallar bitta taglikda joylashgan bo‘lib ko‘p qatlamlı yupqa tasmali bog‘lovchi chiziqlar yordamida o‘zaro ishlaydi. Albatta ishlatiladigan kristallar korpuzzidir. Ko‘p kristalli modullarda o‘zaro bog‘lanishlar uzunligi bosma plataga qaraganda ancha kichkina bo‘lishi sababli modullar ishlaydigan tezliklar gigagers chastotalarga yetib borgan. Ko‘p kristalli modullar avvalo katta kompyuterlarda qo‘llanilgan. Endilikda esa ular shaxsiy kompyuterlarda ishlatiladi. Bu ma’lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish imkonini beradi.

ko‘p manzilli uzatish

ingl.: multiaddress trasmission

rus.: многоадресная передача

Maxsus manzilga («hammagा») ko‘ra har bir abonent tizimiga blok nusxalarini alohida, ketma-ket yo‘naltirish orqali keng tarqatish.

ko‘p pog‘onali kriptografiya

ingl.: multilevel cryptography

rus.: многоуровневая криптография

R.Rayvest tomonidan taklif qilingan va simmetrik kriptotizimlar uchun kriptografik kalitlar tuzishning maxsus usulini ko‘zlovchi mexanizm. Ushbu mexanizmni amalga oshiruvchi kriptotizim shunday tuzilganki, birinchi kriptografik kalit ixtiyoriy ravishda tanlanishi mumkin, barcha keyingi kalitlarni tanlash esa muayyan qonunga mos kelishi lozim.

ko‘p pog‘onali muhofaza

ingl.: multilevel protection

rus.: многоуровневая защита

Turli erkin foydalanish huquqlariga ega subyektlarning turli xavfsizlik pog‘onali obyektlardan erkin foydalanishni ajratuvchi muhofaza.

ko‘p pog‘onali xavfsizlik

ingl.: multilevel security

rus.: многоуровневая безопасность

Turli noziklik pog‘onalariga ega axborotni saqlovchi tizimlar sinfi. Ushbu pog‘onalar turli ochiqlik pog‘onali obyekt yo subyektlardan bir paytning o‘zida erkin foydalanish imkonini berib, ayni paytda ulardan ruxsatsiz erkin foydalanishni man etadi.

ko‘p tomonidan erkin foydalanish

ingl.: multiple access

rus.: множественный доступ

Bir necha abonent (foydalanuvchi, dastur yoki qurilma)ning bitta resurs bilan o‘zaro ishslash jarayoni. Erkin foydalanish amalga oshiriladigan resurslarga fayllar, xotira qurilmalar, printerlar, kanallar va h.k. kiradi. Erkin foydalanishni boshqarish tanlangan erkin foydalanish usuli (yo‘li)ga bog‘liq.

ko‘p vazifali qurilma

ingl.: multifunctional device

rus.: многофункциональное устройство

Bir necha vazifani bajaruvchi qurilma. Har biri printer, skaner, faks apparati, nusxa olish apparati bo‘lgan qurilmalar ayniqsa keng tarqalgan.

ko‘p vazifali rejim

ingl.: multitasking

rus.: многозадачный режим

Kompyutering bir paytning o‘zida bir necha amaliy jarayonlarni amalga oshirish imkonini beruvchi ish maromi. Ko‘p vazifali marom operatsion tizim imkoniyatlari tomonidan ta’milanadi. Ko‘p vazifali maromning bir necha turi bor. Ularning eng oddiysi kompyuterga bir necha amaliy dasturlarning yuklanishidir. Biroq ularning faqat bittasi bilan ish yuritiladi. Boshqa maromda bitta dastur ustun bo‘ladi. Boshqa dasturlar bilan esa kompyuter tegishli resurslari ustun vazifa bilan band bo‘lmaganda ishlaydi. Eng murakkab marom vaqt taqsimlanishi maromidir. Bu yerda kompyuter har bir vazifaga ketma-ket sonyaning bo‘lagini ajratadi. Ba’zi vazifalarga ustunlik berilishi mumkin.

ko'p o'lchamli taqdim etish*ingl.: multidimensional view**rus.: многомерное представление*

Ma'lumotlarni tezkor tahliliy qayta ishslash uchun qulay tarzdagi taqdim etish texnologiyasi. Ma'lumotlar ko'p o'lchamli ma'lumotlar bazalari ko'rinishida taqdim etiladi. Relyatsion ma'lumotlar bazalaridan farqli o'laroq, ushbu ma'lumotlar bazalarida ma'lumotlar ayrim jadvalarda joylashmaydi. Foydalanuvchi uni qiziqtirayotgan obyektlar haqida turli axborotga ega bo'lishini xohlasa, u jadvallar guruhi bo'yicha izlashi lozim. Ko'p o'lchamli bazada sanab o'tilgan uchala tavsifnomasi ham bitta massiv ichida joylashgan va izlash aynan uning doirasida amalga oshiriladi. Shu tufayli turli xildagi elementlardan iborat murakkab so'rovga tezkor javob beriladi. Ma'lumotlarning ko'p o'lchamli taqdim etilishi mijoz-server arxitekturasida qo'llaniladi. Bazalar, relyatsion strukturalarni ko'p o'lchamli massivlarga aylantirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotga ega. Bu foydalanuvchilarining tegishli so'rovlariga javoban tarmoqda uzatiluvchi ma'lumotlar hajmini kichraytirish imkonini beradi.

ko'priк*ingl.: bridge**rus.: мост*

Trafikni ikki tomonga o'tkazuvchi qurilma (*qarang: yo'naltirgich ko'priк*). U bir xil bayonnomaga ega bir necha fizik mahalliy tarmoqlarni bog'laydi. Ko'priк ma'lumotlarni uzatish muhitini qismlarga ajratib, kichik tarmoqning ma'lum qismlarini boshqalardan ajratadi, bu esa ma'lumotlarni uzatish tezligini oshiradi va tarmoqdan ruxsatsiz erkin foydalanish imkoniyatini kamaytirishni ta'minlaydi. OSI atamalar to'plamida ko'priк ma'lumotlarni uzatish kanali pog'onasidagi oraliq tizim (Data Link Layer) hisoblanadi.

ko'priк-yo'naltirgich*ingl.: brouter**rus.: мост-маршрутизатор*

Ko'priк va yo'naltirgich vazifalarini birlashtiruvchi qurilma. U mahalliy jismoniy tarmoqlarning turli bayonnomalar bilan bog'lanishini ta'minlaydi.

ko'ptashuvchi*ingl.: multimedia**rus.: мультимедиа**qarang: multimedia***ko'rilgan gipermurojaat***ingl.: visited hyperlink**rus.: просмотренная гиперссылка*

Bog'lama tashrifchisi oldinroq sichqoncha, klaviatura yoki boshqa qurilma yordamida faollashtirgan veb-sahifadagi gipermurojaat.

ko'rish muharriri*ingl.: browser**rus.: редактор просмотра**qarang: brauzer***ko'rsatkich***ingl.: pointer**rus.: указатель*

URL formatidagi ma'lumotlarga qo'shilgan va ma'lumotlarning boshqa yozuv yoki faylda joylashishini ko'rsatuvchi manzil. Ko'rsatkich misoli sifatida murojaatni keltirish mumkin.

ko'zgu*ingl.: mirror**rus.: зеркало*

Boshqa domen nomi bilan kiradigan va jismonan boshqa yerda joylashgan veb-sayt nus'hasi. Odatda ko'zgu haddan tashqari band bo'lgan veb-sayt da, tashrifchilar oqimini bo'lish uchun ishlatalidi. Mashhur veb-saytlar foydalanuvchilarga yaqinroq (bu axborotni uzatish tezligiga ta'sir qiladi) ko'zguni tanlashi uchun, ko'p mamlakatlarda o'z ko'zgulariga ega.

L1

L1

qisq.: Level 1

Birinchi pog'ona. L1-cache – birinchi pog'ona keshi.

L10N

qisq.: Localization

Mahalliylashtirish. Aniq jo'g'rofiy hududda muayyan milliy tilda ishlashni quvvatlash. 10 soni, localization so'zidagi birinchi «l» harfidan to oxirgi»n» harfigacha mavjud harflar sonini bildiradi.

L2

qisq.: Level 2

Ikkinchi pog'ona. L2-cache – ikkinchi pog'ona keshi.

L2TP

qisq.: Layer 2 Tunneling Protocol

2 pog'onani tunnellash bayonnomasi. VPN yaratish uchun bayonnomma.

L3

qisq.: Level 3

Uchinchi pog'ona. L3-cache – Alpha protsessorlarida uchinchi pog'ona keshi.

LALR

qisq.: LookAhead Left Recursive

Ilgariga qarab turib chapga rekursiya. Sintaksis bo'yicha tahsil uchun ishlatalidigan algoritm.

lamer

ingl.: lamer

rus.: ламер

(jargon) (inglizcha lame - «zaif») O'zini kompyuter ekspertlari deb hisoblaydigan odamlarning o'yashicha kompyuterni yomon tushunadigan odamlarga beriladigan laqab.

LAN

qisq.: Local Area Network

Ma'lumotlar uzatishning mahalliy tarmog'i, mahalliy hisoblash tizimi.

LAN emulyatsiya

ingl.: LAN Emulation (LANE)

rus.: эмуляция LAN

ATM tezkor kanali orqali Ethernet va Token Ring tarmoqlarini yagona tarmoqqa birlashtirish imkoniyati. LANE texnologiyasi bu jarayoni favqulodda soddalashtirish imkoniyatini beradi. Bunda Ethernet va Token Ring tarmoqlarining kompyuterlariga qo'shimcha o'zgarishlar kiritilmaydi. Shu bilan birga, IP, IPX, AppleTalk va DECnet standart bayonnomalari ATM kanalidan baland pog'onada ishlaydi,

LANE

qisq.: LAN Emulation

qarang: LAN emulyatsiya

LATA

qisq.: Local Access and Transport Area

Mahalliy telekommunikatsiya tarmog'i.

lazer disk

ingl.: laser disk

rus.: лазерный диск

Lazer nuri yordamida o'qiladigan, disk shaklidagi ma'lumotlar tashuvchisi. Ikkilik sanoq tizimida berilgan ma'lumotlar metall yoki polimer lazer disk ustiga kuchli lazer nuri yordamida mayda chiqurliklarga (pit) va ular orasidagi o'rtaliklarga (lands) yoziladi. Biroq, chiqurliklar va o'rtaliklar ikkilik kodining bir va nollariga mos bo'lmaydi. Yozish disk markazidan chetlariga o'tkazilgan spiralsimon yo'lkalar bo'ylab amalga oshiriladi. Bitta diskda matn, tovush, tasvir kabi shakllarda axborotlarni yozish uchun mo'ljallangan turli formatlardagi yo'lkalar (treklar) mavjud bo'lishi mumkin. Shaxsiy kompyuterlarda tahminan 650 Mbayt hajmidagi ma'lumotlarni saqlash imkonini beradigan kompakt-disklar (CD) qo'llaniladi. Ushbu hajm standart bilan tasdiqlangan bo'lsa-da, yo'lka yoki pitlarning qalinroq joylashishida diskda ko'proq hajmdagi ma'lumotlar saqlanishi mumkin. Lazer disk bir marta yoziladigan — CD-R (CD-Recordable — yoziladigan CD) va ko'p marta yoziladigan — CD-RW (CD-Rewritable — qayta yoziladigan CD) bo'lishi mumkin. CD-R va CD-RW atamalari yozish moslamalarini, hamda disklarning o'zlarini ham bildiradi.

lazer printeri

ingl.: laser printer

rus.: лазерный принтер

Lazerli chop etish texnologiyasi uslubi asosida ishlovchi va kompyuter axborotini chop etish (chiqarish) vazifasini bajaruvchi apparat. Kompyuterdan chiqish ma'lumotlari ekranning nuqtalar to'plamiga o'xshash rastr formatiga o'giriladi. Shakllangan rastr tasvir lazer yordamida ijobji elektrstatik elektrlanishga ega bo'lgan barabanda aks ettiriladi. Lazer bilan yorug'langan nuqtalarda baraban elektrsizlanadi. Bundan keyin ijobji elektrlanishga ega bo'lgan bo'yoq (toner) barabanga elektrsizlangan nuqtalarda yopishadi. Aylanib, baraban bo'yoqni salbiy elektrlangan qog'oz varag'iga o'tkazadi. Keyin boshqa baraban qog'ozni qizdiradi va bu bo'yokni mustahkamlaydi.

lazerli chop etuvchi

ingl.: *laser printer*

rus.: *лазерный принтер*

qarang: *lazer printeri*

LBA

qisq.: *Logical Block Addressing*

Mantiqiy bloklarni manzillash. EIDE – standartidagi qattiq disklarda, ma'lumotlar blokini manzilini berish usuli.

LCD

qisq.:

1. Liquid-Crystal Display - Suyuqkristalli display (indikator, SKI).
2. Lowest Common Denominator – Eng kichik umumiyl maxraj.

LCP

qisq.: *Link Control Protocol*

Liniyani boshqarish bayonnomasi. PPP bayonnomasining tarkibiy qismi.

LDAP

qisq.: *Lightweight Directory Access Protocol*

Katalogdan erkin foydalanishning yengillashtirilgan bayonnomasi. TCP/IP tarmoqlarda kataloglar xizmatining soddashtirilgan bayonnomasi. X.500 standartiga asoslanadi.

LDF

qisq.: *LDAP Data Interchange Format*

LDAP ma'lumotlar almashuvi formati.

LED

qisq.: *Light-Emitting Diode*

Yorug'lik nuri taratuvchi diod, yorug'lik diod.

LEO

qisq.: *Low Earth Orbit*

Past yeroldi orbitasi. Bir necha kilometr balandlikdagi orbita.

leptop

ingl.: *laptop*

rus.: *лэптоп*

Eng katta ixcham tizimlar. Oddiy leptop og'irligi 3 kg dan oshiq bo'lib, hajmi 9x12x2 dyum (taxminan 23x30x5 sm)ga teng; bozorda katta hajmli ekranlarning paydo bo'lishi albatta ixcham kompyuterlar hajmining kattalashishiga olib keladi. Bir paytlari eng kichik kompyuterlardan bo'lib, hozirda leptoplar o'z imkoniyatlari va ish samaradorligi bo'yicha stolusti tizimlar bilan qiyoslanishi mumkin bo'lgan o'ta zamonaviy mashinalarga aylanmoqda.

LET

qisq.: *Logical Equipment Table*

Mantiqiy qurilmalar jadvali. MS-DOS da ishlataladi.

LEXIS-NEXIS korporatsiyasi

ingl.: *LEXIS-NEXIS corporation*

rus.: *корпорация LEXIS-NEXIS*

Yuridik va moliyaviy-iqtisodiy ma'lumotlarni yetkazib beruvchi eng katta kompaniya. LEXIS-NEXIS AQSHda (Deyton sh.) yaratilgan bo'lib, dastlab qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Keyin kompaniya katta ma'lumotlar banklarini yaratib, yurisprudensiya, moliya va umuman iqtisodiyot sohalarida ixtisoslashgan. Ma'lumotlar banklarida mijoz-server me'moriy tuzilmasi va uzoqlashgan, jumladan Internet tarmog'i orqali erkin foydalanish keng qo'llanilgan.

LF

qisq.: *Line Feed*

Satrni o'tkazish. ASCII ni boshqarish belgisi.

LFU

qisq.: *Least Frequently Used*

Kamdan kam ishlatalidigan.

LG

qisq.: *Lucky Goldstar*

Goldstar firmasining yangi nomi.

L

LGA

qisq.: Land Grid Array

LGA tanasi. Mikrosxemaning yassi maydonchalar matritsalari shaklidagi tutashma guruhiga tuzilmasi.

Linda tili

ingl.: Linda language

rus.: язык Linda

Ma'lumotlarga parallel ishlov berishga mo'ljallangan dasturlash tili. Linda tilidan foydalanishda amaliy jarayon, jarayonlar guruhiga bo'linadi, ularning ichidan asosiyasi ajratiladi. Ko'rsatilgan jarayonlar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi va bir biriga nisbatan sinxronlashgan bo'ladi.

liniyaga sust ulanish

ingl.: passive line connection

rus.: пассивное подключение к линии

Liniyaga ma'lumotlarni o'qish uchun qo'shilish.

Linux operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: Linux operating system

rus.: операционная система Linux

O'zagi Unix operatsion tizimi asosida ishlangan, tarmoq operatsion tizimi. Linux ilk bor 1991 yili LiniusTorvalds tomonidan chiqarilgan. Linuxning muhim xususiyatlaridan biri – u bepul dasturiy ta'minot Fondi doirasida, GNU oshkora litsenziyasiga ko'ra bepul tarqatiladi. Asosan, Internetda va intratarmoqlarda serverlar yaratish uchun qo'llanadi.

LISP

qisq.: LISt Processing

Ro'yxatlarga ishlov berish, LISP dasturlash tili. 1959 yili ishlab chiqilgan, sun'iy tafakkur sohasidagi masalalarni dasturlash uchun ishlataladi.

LISP tili

ingl.: LISP language

rus.: язык LISP

"Ro'yxatlarga ishlov berish" (LISt Processor) ixtisoslashtirilgan tili. 60 -yillar boshida MIT da John McCarthy tomonidan ishlab chiqilgan. Yuqori pog'onadagi dasturlash tili bo'lib hisoblanadi. Bu til sun'iy tafakkur vazifalarini yechishda ayniqsa shuhrat qozongan. Tilning barcha obyektlari (dasturlar va ma'lumotlar) ro'yxatlar deb qaraladi. Foydalanuvchining

axborot tizimi bilan muloqot maromida ishlashi ta'minlanadi.

LLL

qisq.: Low-Level Language

qarang: quiy pog'ona tili

log

ingl.: log file

rus.: лог

Veb-saytning o'ziga xos bortdag'i jurnali. Server loglariga u yoki bu foydalanuvchi qayerdan va qachon kelgani, saytda qancha vaqt bo'lgani va u yerda nimani ko'rgani va yuklab olgani, uning brauzeri va uning kompyuterining IP manzili qandayligi haqidagi ma'lumot yoziladi. Logga har bir yozuv ma'lum xitga tegishli bo'ladi, chunki server aynan sayt elementlaridan biriga murojaat qilishni qayd qilishi mumkin.

log-fayl

ingl.: log-file

rus.: лог-файл

Resurslardan erkin foydalanish urinishlarini qayd qiluvchi fayl. Masalan, log-fayl veb-sayingizga kirganlar haqidagi ma'lumotlarni saqlashi mumkin: foydalanuvchi nomi, foydalanuvchi domeni, ma'lum sahifada o'tkazilgan muddat, ochilgan gipermurojaatlar va h.k.

login

ingl.: login

rus.: логин

1. Foydalanuvchining kompyuter yoki tarmoqdan erkin foydalanish jarayoni.
2. Kompyuterdan erkin foydalanishga ega bo'lish uchun foydalilanuvchi qayd yozuvi nomi, Maxfiy emas.
3. Kompyuterga aynanlash ma'lumotlarini (odatda qayd yozuvi nomi va parol) uzatayotganda u bilan bog'lanish.

log-out

Kompyuterda seansni tugatish. Shaxsiy kompyuterlarda seansni tugatish uchun dasturlardan chiqib mashinani o'chirish lozim xolos. Resurslar boshqa foydalanuvchilar bilan birga ishlatalayotgan kattaroq kompyuter va tarmoqlarda odatda seansni tugatishga ruxsat beruvchi operatsion tizim buyrug'i mavjud bo'ladi.

Lotus Development korporatsiyasi*ingl.: Lotus Development corporation**rus.: корпорация Lotus Development*

Elektron idoralarda ish yuritishni avtomatlashtirish bilan bog'liq turli vazifalarni bajarish uchun amaliy dasturlar yaratish bilan shug'ullanuvchi kompaniya. Lotus Development AQSHda 1982 yilda yaratilgan.

LPC*qisq.: Local Procedure Call*

Tartibotni mahalliy chaqirish.

lpi*qisq.: Lines Per Inch*

Satrlar (chiziqlar) dyumda. Choplashda qatorlar joylashushi zichligi.

LPT*qisq.: Line PrintTer*

Satrli printer. Shaxsiy kompyuterning parallel portini (interfeysi) belgilanishi. Dastlab, IBM PC da u matnni satrlarini belgima - belgi printeriga uzatish uchun mo'ljallangan edi.

LQ*qisq.: Letter Quality*

Bosmaxona sifati.

LRU*qisq.: Least Recently Used*

Anchadan buyon ishlatilmayotgan LRU algoritmi. Anchadan buyon ishlatilmayotgan elementlar yangilari tomonidan siqib chiqarilayotgan keshlashni boshqarish algoritmi.

LSB*qisq.: Least Significant Bit*

Kichik xona biti.

LSI*qisq.: Large-Scale Integration*

Yuqori pog'onadagi birlashuv. Yuqori pog'onadagi birlashgan mikrosxema, katta integral sxema.

LU*qisq.: Logical Unit*

Mantiqiy qurilma.

LUID*qisq.: Locally Unique IDentifier*

Mahalliy noyob identifikator.

LUN*qisq.: Logical Unit Number*

Mantiqiy qurilma tartib raqami.

Lycos

Mashhur WWW izlash tizimi va direktoriyasi.

Lycos to'lamatnli izlash xizmati, kategoriyalar bo'yicha tashkil qilingan veb-saytlar direktoriyasi hamda tanlangan saytlar tahlilini taqdim etadi.

LZW*qisq.: Lempel-Ziv-Welch*

Lempel-Ziv-Velsh, LZW algoritmi. Axborotni zichlashtirish algoritmi, nomi mualliflarning familiyalarining birinchi harflaridan tashkil topgan.

L

Mm

ma'lum ochiq matnga hujum

ingl.: attack on open text

rus.: атака на известный открытый текст

Kriptoanalitik ko'p hajmdagi tegishli dastlabki matnlar va shifrlangan matnlar asosida uyushtirilayotgan tahliliy hujum.

ma'lumotlar

ingl.: data

rus.: данные

1. Rasmiylashtirilgan, ya'ni uzatish, izohlash va qayta ishslash uchun mos shaklda taqdim etilgan axborot.
2. Kompyuterda qayta ishlanishi jarayonida aylanayotgan hujjatlashtirilgan axborot.
3. Hisoblash mashinasida uzatish, saqlash va qayta ishslash uchun tayyorlangan, ya'ni ramzlar (raqamlar) shaklida taqdim etilgan axborot.

Ma'lumotlar misoli sifatida kompyuterga kiritish uchun kodlangan yoki allaqachon kiritilgan matn, nutq, tasvir, istalgan kattaliklardagi jadvallar va h.k.ni keltirish mumkin.

ma'lumotlar almashuvi

ingl.: data interchange

rus.: обмен данными

Funksional qurilmalar orasida ma'lumotlarni ko'chirish. Bu ma'lumotlarni siljitimishni va almashuvini kelishtirishni boshqarish qoidalar to'plamiga muvofiq amalgaga oshiriladi.

ma'lumotlar autentifikatsiyasi

ingl.: data authentication

rus.: аутентификация данных

Ma'lumotlar butunligini tekshirish uchun foydalaniladigan jarayon. Masalan, olingan ma'lumotlarning yuborilgan ma'lumotlar bilan bir xilligini tekshirish; dasturning virusdan zararlanmaganligini tekshirish.

ma'lumotlar banki

ingl.: databank

rus.: банк данных

1. Ma'lumotlar majmui. Bu ma'lumotlar berilgan mavzuga tegishli bo'lib

foydalanuvchilar bilan o'zaro ta'sir qila olishini ta'minlaydigan tarzda tashkil qilingan.

2. Ma'lumotlarni markazlashtirilgan holda saqlash va jamoa bo'lib foydalanishning avtomatlashdirilgan tizimi. Uning tarkibiga ma'lumotlar bazasi yoki ularning majmui, ma'lumotlar bazasi spravochnigi, MBBT, hamda so'rovlari va amaliy dasturlar kutubxonasi kiradi.

ma'lumotlar bazalarini boshqaruvi tizimi

ingl.: DataBase Management System (DBMS)

rus.: система управления базами данных

Umumiyligi maxsus maqsaddagi dasturiy va lingistik vositalari majmui. U ma'lumotlarga ishlov berishning qabul qilingan texnologiyasi sharoitida ma'lumotlar bazalarini yaratish, ularni markazlashtirilgan boshqarish va ularni turli foydalanuvchilar tomonidan erkin foydalanishni tashkil etishni qo'llab-quvvatlashni amalgaga oshiradi. MBBT afzalliklari ma'lumotlar samarali erkin foydalanish, butunlik, ma'lumotlarni qayta tiklash, parallelizmni nazorat qilish, shaxsiylik va xavfsizlikdadir. MBBT foydalanuvchilarga ma'lumotlar ustida turli amallarni bajarish, jumladan ajratib olish, qo'shish, tahrir qilish, yangilash, izlash, tartibga solish va hisobotlarni tayyorlash imkonini beradi. Eng mashhur MBBT: Oracle, MS SQL, SYBASE va boshqalar.

ma'lumotlar bazasi (MB)

ingl.: database (DB)

rus.: база данных (БД)

1. Elektron hisoblash mashinalari yordamida qidirib topilishi va qayta ishlanishi mumkin bo'lgan tarzda tartibga solingen ma'lumotlar to'plami (masalan: maqolalar, hisob-kitob).
2. Aniq qoidalar asosida tashkil qilingan va amaliy dasturlarga bog'liq bo'lmagan ma'lumotlar to'plami. Bu qoidalar ma'lumotlarni ta'riflash, saqlash va joyini o'zgarishga oid umumiyligi tomosiyallarni nazarda tutadi.

Ma'lumotlar bazasi (MB) yetarlicha to'la, to'g'ri tashkil qilingan, hozirgi kunga doimo mos keluvchi va foydalanish uchun qulay bo'lishi lozim. Bu ma'lumotlar bir-biriga zid bo'lmasligi zarur. Ma'lumotlarni tahrirlash, to'latish va yo'qotib tashlash, hamda ularni qidirib topish va saralash MBni boshqarish

tizimi (MBBT) yordamida amalga oshiriladi. MBlari shaxsiy va jamoaviy foydalanishga mo'ljallangan bo'ladi. Jamoa foydalanadigan yirik MBlarni kuzatib borishni ma'lumotlar bazasining boshqaruvchisi amalga oshiradi. Bitta kompyuterda joylashgan mahalliy bazalar va bir-biri bilan bog'langan bir nechta kompyuterda taqsimlangan bazalar farqlanadi.

ma'lumotlar bazasi ma'muri

ingl.: *database administrator*

rus.: *администратор базы данных*

Tashkilot yoki muassasa ma'lumotlar bazasining ahvoli, rivojlanishi va undan foydalanishga javobgar inson yoki shaxslar guruhi. Ma'lumotlar bazasi ma'muri ma'lumotlar bazasi faoliyatini ta'minlaydi, ma'lumotlarning to'liqligi, to'g'riliqi, qaramaqarshi emasligi va butunligi hamda kerakli muhofaza darajasini nazorat qiladi va qo'llab-quvvatlaydi. Dasturlari ma'lumotlar bazasidan erkin foydalanishda qo'llaniladigan foydalanuvchi va dasturlovchilar bilan o'zaro ish olib boradi.

ma'lumotlar bazasi muallifi

ingl.: *database author*

rus.: *автор базы данных*

Ijodiy faoliyat tufayli ma'lumotlar bazasini yaratgan jismoniy shaxs.

ma'lumotlar bazasidan foydalanish

ingl.: *database use*

rus.: *использование базы данных*

Chop etish, aks ettirish, tarqatish va ularni turli xo'jalik faoliyatiga kiritish (jumladan o'zgartirilgan shaklda ham) bo'yicha harakatlar. Ommaviy axborot vositalari tomonidan ma'lumotlar bazasini chop etilishi haqidagi xabar berish ma'lumotlar bazasidan foydalanish hisoblanmaydi.

ma'lumotlar bazasini boshqarishning gibrildizimi

ingl.: *hybrid database management system*

rus.: *гибридная система управления базой данных*

Gibrildizimi MBBT. U relyatsion va obektga – yo'naltirilgan tizimlarning ijobjiy sifatlarini o'zida mujassamtirgan. Relyatsion MBBT ning tranzaksiyaliga ishlov berish vositalarini o'z ichiga olib, obektga – yo'naltirilgan MBBT ning ko'pgina ma'lumot turlarini ham

quvvatlaydi. Gibrildizimi MBBT "tuzilmalashtirilgan so'rovlari tili" SQL dan foydalanadi.

ma'lumotlar bazasini boshqarishning ko'p o'lchamli tizimi

ingl.: *multidimensional database management system*

rus.: *многомерная система управления базой данных*

Ma'lumotlarni N-o'lchamli kub shaklida taqdim etilishini ta'minlaydi. Shu tufayli MDDBMS murakkab hujjatlar tizimlarini qayta ishlaydi.

ma'lumotlar bazasini moslashtirish

ingl.: *database adaptation*

rus.: *адаптация базы данных*

Foydalanuvchining muayyan texnik vositalari yoki aniq dasturlari boshqaruvidagi ma'lumotlar bazasini faoliyatini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan o'zgartirishlar kiritish.

M

ma'lumotlar bazasini tarqatish

ingl.: *database distribution*

rus.: *распространение базы данных*

Ixtiyoriy moddiy shaklda qayta ishlab chiqarilgan ma'lumotlar bazasidan erkin foydalanishni, shu jumladan, tarmoq va boshqa usullar bilan, taqdim qilish. Shuningdek, sotish, kiraga berish, ijaraga topshirish, qarzga berish, shu maqsadlarda importni ham o'z ichiga oladi.

ma'lumotlar bazasini chop etish

ingl.: *database publishing*

rus.: *выпуск базы данных*

Ma'lumotlar bazasi nuxxalarini muallif roziligi asosida cheklanmagan shaxslar doirasiga taqdim etish (jumladan, kompyuter xotirasiga yozish va bosma matn chop etish orqali ham). Bunday nuxxalar soni ko'rsatilgan asarlar tavsifiga ko'ra mazkur doiradagi shaxslar ehtiyojlarini qondirishi lozim.

ma'lumotlar bazasining turlanishi

ingl.: *database modification*

rus.: *модификация базы данных*

Moslashtrish bo'limgan va dastlabki matnning o'zgarishiga olib keluvchi har qanday o'zgartirishlar.

ma'lumotlar bloki

ingl.: *data unit*

rus.: *блок данных*

Bir xil uzunlikdagi ramzlar ketma-ketligi. U ma'lumotlarni ifodalashda yoki o'z holicha uzatishda ishlatalidi.

ma'lumotlar butunligi

ingl.: *data integrity*

rus.: *целостность данных*

qarang: axborot butunligi

ma'lumotlar bo'lagi

ingl.: *data fragment*

rus.: *фрагмент данных*

Amaliy jarayonlar bir – biriga tarmoq va trasport pog'onalarini chegarasida uzatayotgan ma'lumotlar bloklari. Uzatilayotgan xabarlarни qismalarga bo'lish oqibatida hosil bo'ladi.

ma'lumotlar elementi

ingl.: *data item*

rus.: *элемент данных*

Axborot obyekti bo'lib, o'z nomi va u ifodalovchi qiymatlar (kattaliklar) majmuasi bilan belgilanadigan Obyekt sifatida jarayon, hodisa, narsa, mamlakat, fan sohasi va h.k. lar bo'lishi mumkin. Ko'rilibayotgan obyektni tavsiflayotgan ma'lumotlarning elementlari majmuasi yozuv (masalan, mahsulot – uni nomeri, nomlanishi, o'chamlari, narxi, u yasalgan materiali) deb nomlanadi.

ma'lumotlar izlash

ingl.: *data search*

rus.: *поиск данных*

qarang: axborot izlash

ma'lumotlar maydoni

ingl.: *data field*

rus.: *поле данных*

1. Axborot tashuvchisida ma'lumotlarni, ma'lumotlar elementlarini yozish uchun ajratilgan maydon.

2. Funksional mustaqil qiymatga ega va alohida ma'lumotlar elementi sifatida ishlov beriluvchi yozuv yoki to'ldirilayotgan shakl qismi.

ma'lumotlar modeli

ingl.: *data model*

rus.: *модель данных*

Ma'lumotlarni saqlash, uzatish va qayta ishslash sohalarida tarkibiy qismlar turi va ularning aloqalari to'g'risidagi tasavvur. Ma'lumotlar modeli ma'lumotlarni tavsiflash tili bilan belgilanadi.

ma'lumotlar muhofazasi

ingl.: *data protection*

rus.: *защита данных*

1. Tegishli ma'muriy, texnik va jismoniy tadbirdirlarni qo'llash. U ma'lumotlardan muallif bo'limgan holda erkin foydalanish, hamda beruxsat qasddan yoki tasodifiy erkin foydalanish, takomillashtirish yo' barbod qilishning oldini olish uchun zarur.

2. Ma'lumotlarga ishlov berishda uning yaxshi saqlanishi, butunligi va ishonchlilagini ta'minlash jarayoni.

ma'lumotlar muhofazasi tizimi

ingl.: *data protection system*

rus.: *система защиты данных*

Ma'lumotlarning tasodifan yoki atayin qilingan buzilish, buzib talqin etish yoki foydalanishidan muhofazasini ta'minlovchi apparatlari, dsturli (jumladan, kriptografiya) vositalar hamda choralar majmui.

ma'lumotlar ombori (MO)

ingl.: *database (DB)*

rus.: *база данных (БД)*

qarang: ma'lumotlar bazasi (MB)

ma'lumotlar sifati

ingl.: *data quality*

rus.: *качество данных*

Ma'lumotlarning muayyan masalalarini yechish uchun yaroqliligini ta'minlab beradigan xossalari majmui. Ma'lumotlarning sifat ko'satkichlariga aniqlik, to'lalik, mutanosiblik, ziddiyatsizlik, muhofazalanganlik va boshqalar kiradi.

ma'lumotlar tashuvchisi

ingl.: *data carrier*

rus.: *носитель данных*

1. Moddiy obyekt yoki moslama. U ma'lumotlarni yozish, saqlash va o'qish imkonini beruvchi ma'lum fizik xususiyatlarga ega. Hisoblash texnikasida ma'lumotlar tashuvchisi sifatida yarimo'tkazgich kristallar, magnit va lazer disklari, magnit tasmalar, magnit kartalar, perfokarta va perfotasmalar hamda (bosish uchun) qog'oz ishlatalidi. Ma'lumotlar tashuvchisiga ma'lumotlarni yozish va ularni o'qish moslamalari bilan birga ma'lumotlar tashuvchisi xotira qurilmasini tashkil qiladi.

2. Axborotni yozish uchun va doimiy xotira qurilmasi sifatida ishlataladigan jism yoki muhit.
3. Ma'lumotlar yozilishi yoki o'qilishi mumkin bo'lgan moddiy obyekt.

ma'lumotlar uzatish kanali

ingl.: *Data Transmission Channel (DTC)*

rus.: *канал передачи данных*

1. Kanal pog'onasida obyektlarni ulaydigan mantiqiy kanal.
2. Bir qurilmadan ikkinchisiga ma'lumotlar uzatliladigan jismoniy ulanish. Ma'lumotlarni uzatish kanalini tashkil qiluvchi qurilmalar uzatish jarayonini tartibga soluvchi bayonnomalarga bo'y sunadi,

3. Tarmoq qismi. U tarmoqni har bir juft chekka terminallarini o'zaro bog'laydi va ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish texnik vositalaridan, shu jumladan, aloqa liniyasi hamda dasturiy ta'minot vositalari va bayonnomalardan tashkil topgan.

ma'lumotlar uzatishni qamal qilish

ingl.: *data transmission blocking*

rus.: *блокирование передачи данных*

Axborot xavfsizligi buzilishlaridan birdir. U foydalanuvchilar axborotidan iborat bo'lgan uzatilayotgan ma'lumotning haqiqiyligini, butunligini, o'z vaqtida yetib borishini va tartibini o'zgarishida namoyon bo'ladi. Buzz'unching axborot xavfsizligi obyektlariga (uzatilayotgan ma'lumotlar, tarmoq obyektlarining apparat-dasturiy vositalari, tarmoqni boshqaruvchi axborot) ataylab qilgan ta'sirlari axborot uzatishni ma'lum vaqtga to'xtashi yoki kechikishiga olib keladi. Bu vaqtida foydalanuvchi uchun axborotning qadri qolmaydi.

ma'lumotlar uzatishni to'sish

ingl.: *data transmission blocking*

rus.: *блокирование передачи данных*

qarang: ma'lumotlar uzatishni qamal qilish

ma'lumotlar va ularni tashuvchilarini maxfiylashtirish

ingl.: *classification of information and its bearers as secret*

rus.: *засекречивание сведений и их носителей*

Davlat siridan iborat ma'lumotlarga qonunchilik tomonidan o'rnatilgan tartibda, ularni tarqatishga va ularni tashuvchilaridan erkin foydalanishga chekllovlar kiritish.

ma'lumotlardan foydalanish

ruxsatsiz

erkin

ingl.: *unauthorized access to information*

rus.: *неканкционированный доступ к информации*

1. Axborotni olish qoidalarini buzgan holda olish.
2. Foydalanuvchining olish ruxsat etilmagan ma'lumotlarni o'qish, yangilash yoki buzish maqsadida atayin murojaat qilishi.
3. Subyektlarning axborotni olish va ishlatalish qoidalarini buzgan holda axborotlashtirish obyekti (ma'lumotlarni uzatish tarmog'i)ning asosiy vositalari yordamida axborotni olish yoki ulardan foydalanish.

ma'lumotlarga avtomatlashtirilgan ishlov berish

ingl.: *automated data processing*

rus.: *автоматизированная обработка данных*

Ma'lumotlarni asosan hisoblash texnikasi vositalari yordamida qayta ishslash.

M

ma'lumotlarga haqiqiy vaqtida ishlov berish

ingl.: *real-time data processing*

rus.: *обработка данных в реальном масштабе времени*

Ma'lumotlarga ishlov berish tezligi, hodisaning modellash tezligi bilan bir xil yuz bergen hol.

ma'lumotlarga ishlov berish

ingl.: *data processing*

rus.: *обработка данных*

Ma'lumotlar bilan aniq ketma-ketlikdagi amallarni bajarish jarayoni. Bunday amallarga misol tariqasida, ma'lumotlarni izlash, ma'lumotlarni saralash, ularni tahlil qilish va birlashtirishni keltirish mumkin. Iqtisodiy va muhandislik hisob-kitoblari, ilmiy-texnik masalalar va ishlab chiqarishni boshqarish masalalari ham ma'lumotlarga ishlov berish jaryonlaridir. Ma'lumotlarga ishlov berish abonent tizimlarda bajariladigan amaliy jarayonlar bilan amalga oshiriladi. Ma'lumotlarga ishlov berish foydalanuvchilar ehtiyojlari va tarmoq boshqarish ehtiyojlari uchun bajariladi. Foydalanuvchining topshirig'iaga binoan yoxud amaliy dastur tomonidan bajarilayotgan ishlov bir yoki guruh protsessorlar bilan, bir yoki bir nechta, tarmoqda parallel ishlayotgan tizimlarda bajarilishi mumkin. So'nggi holda,

ma'lumotlarga taqsimlangan ishlov berish yuz beradi. Ishlov ikki maromda - o'zarofaol va vaziyat maromida bajarilishi mumkin. Ma'lumotlarga ishlov berish muammosi quyidagi bo'limlarga ajratiladi:

- 1) ma'lumotlarga tarmoqli superishlov berish;
- 2) hujjatlarga ishlov berish; 3) tasvirlarga ishlov berish; 4) nutqqa ishlov berish; 5) signallarga ishlov berish; 6) ro'yxatlarga ishlov berish; 7) matnlarga ishlov berish.

ma'lumotlarga ishlov berish tizimi

ingl.: *data processing system*

rus.: *система обработки данных*

Ma'lumotlarga ishlov berishni ta'minlovchi bitta yoki undan ko'p kompyuter, chekka qurilmalar va dasturiy vositalar.

ma'lumotlarga masofadan ishlov berish

ingl.: *distant data processing*

rus.: *обработка данных дистанционная*

qarang: teleish.

1. Ma'lumotlarga masofada ishlov barish.
2. Kiritish (yoki chiqarish) qurilmalari markaziy protsessordan uzoqda joylashgan holda ma'lumotlarga avtomatlashtirilgan ishlov berish.

ma'lumotlarga ochiq tarmoqda ishlov berish

ingl.: *Open Network Computing (ONC)*

rus.: *открытая сетевая обработка данных*

SUN Microsystems korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan asosiy funksional profil. SUN Microsystems korporatsiyasiga tegishli bo'lgan ONC 1985 yili paydo bo'lgan va turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan chiqarilgan axborot tizimlarida tatbiq qilishga mo'ljallangan standartlar to'plamidir. Bu standartlar, operatsion tizim va kompyuterlarning arxitekturasiga bog'liq emas. Interfeyslarning barcha spetsifikatsiyalari va tavsiflari nashr qilingan va mutaxassislarining keng doirasiga murojaat etilgan, ya'ni, ONC ochiqdir. Unda dastlabki matnlarning talaygina qismi bepul uzatiladi, qolgan qismi uchun – arzimagan pul to'lanadi. ONC asosiy profili keng tarqalib, ma'lumotlarga tarqoq ishlov berish uchun de-fakto standart bo'lib qoldi.

ma'lumotlarga taqsimlangan ishlov berish

ingl.: *Distributed Data Processing (DDP)*

rus.: *распределенная обработка данных*

Amaliy dasturlarni, bir guruh axborot tizimlari tomonidan bajarish uslubi. DDP ning mohiyati shundaki, unda foydalanuvchi, bir necha o'zaro ishlovchi abonent tizimlarda joylashgan, tarmoq xizmatlari va amaliy jarayonlar bilan ishlash imkoniga ega bo'ladi. Taqsimlangan ishlov berish uchun amaliy dasturlar segmentlab bajariladi. Ma'lumotlarni uzatish, jarayonlarni masofadan chaqirish yoki elektron pochta yordamida yuz beradi. Taqsimlangan ishlov berishni alohida katta imkoniyatlarni aralash tarmoqlarda ko'rish mumkin.

ma'lumotlarga taqsimlangan ishlov berish muhiti

ingl.: *Distributed Computing Environment (DCE)*

rus.: *распределенная среда обработки данных*

Ma'lumotlarga taqsimlangan ishlov berish texnologiyasi. U DCE muhiti bo'lib, 1990 yilda ochiq dasturiy ta'minot fondi tamonidan taklif qilingan. Abonent tizimlar guruhlari bo'yicha tarqalgan geterogen tarmoqda amaliy jarayonlarni bajarish uchun mo'ljallangan tarmoq xizmatlarining yig'masidir.

ma'lumotlarni boshqarish tili

ingl.: *Data Manipulation Language (DML)*

rus.: *язык манипулирования данными*

Ma'lumotlar bazasining boshqarish tizimida dasturlar bilan ma'lumotlar bazasi orasida almashuvni tashkil qilish uchun foydalilanildigan til. Ma'lumolarni ajratib olish, yaratish, yo'q qilish va o'zgartirish uchun foydalilanildigan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining buyruqlari nimto'plami.

ma'lumotlarni dolzarblast

ingl.: *data actualization*

rus.: *актуализация данных*

Ma'lumotlarni dolzarb holatda saqlash, ya'ni ularni ma'lum sohadagi aks ettirilayotgan obyektlar holati bilan muvofiqlashtirish. Dolzarblast yozuvlarni qo'shish, o'chirish hamda tahrir qilish amallarini o'z ichiga oladi.

ma'lumotlarni elektron almashuvi

ingl.: *Electronic Data Interchange (EDI)*

rus.: *электронный обмен данными*

1. Axborot tuzilmalashning kelishilgan standartidan foydalab, bir kompyuterdan boshqasiga elektron tarzda axborot uzatish.
2. Korxonalar orasida elektron shakldagi buyurtma, tasdiqlov va hisob raqamli-fakturalar

kabi, hujjatlar bilan almashuv. Bu usuldan foydalaniň kompaniyalar, tarmoqlarni ishchan o'zaro aloqada ishlash uchun qo'llashlari mumkin. Agar kompaniyalar orasidagi yozishma odadtagi hodisa bo'lsa, EDI hisob raqami va shartnoma kabi katta hajmdagi qog'oz hujjatlarni almashtirib katta hajmdagi axborotlarni uzatishni nazarda tutadi. EDI korporativ malumotlar bazalariga bevosita o'zgarishlar kiritilishini nazarda tutadi.

ma'lumotlarni filtrlash

ingl.: *data filtering*

rus.: *фильтрация данных*

Ma'lumotlarni umumiy oqimidan kerakli mezonlarga ega bo'lganlarini ajratib qo'yish jarayoni. Ma'lumotlarni filtrlash jismoniy pog'onadan tashqari barcha pog'onalarda amalga oshirilishi mumkin. Ular quyidagilar zarur bo'lganda bajariladi:

- ruxsatsiz erkin foydalanish ga urinishlar bilan bog'liq ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash;
- yakkakanal yoki halqa tarmoqlarda ma'lumotlar bloklarining tanlanishi;
- o'rnatilgan standartlarga mos kelmagan, masalan MB ga yozishda, ma'lumotlarni chiqarib tashlash;
- ma'lumotlarni zichlashtirish, masalan, bittasidan boshqa bir biri bilan ketma ket kelgan barcha ochiq joylarni yo'q qilish va ularning o'rniغا ochiq joylar sonini yozib qo'yish.

ma'lumotlarni keng yo'l-yo'lli uzatish

ingl.: *broadband transmission*

rus.: *широкополосная передача данных*

Bitta muhit (sim) bir yo'la bir necha kanallarga xizmat ko'rsata oladigan ma'lumotlarni uzatish turi. Keng yo'l-yo'lli uzatish, misol uchun, kabel teleko'rsatuvlari xizmati tomonidan foydalaniladi.

ma'lumotlarni muhofazalash samaradorligining me'yorlari

ingl.: *efficiency norms of information protection*

rus.: *нормы эффективности защиты информации*

Me'yoriy hujjatlar tomonidan belgilangan axborotni muhofazalash samaradorligi ko'rsatkichlarining qiymati.

ma'lumotlarni muvofiqlash

ingl.: *data authentication*

rus.: *автентификация данных*

qarang: ma'lumotlar autentifikatsiyasi

ma'lumotlarni nusxalashtirish

ingl.: *data replication*

rus.: *тиражирование данных*

Tarqoq ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni tarqatish texnologiyasi. Azalda, to'la hujjatlar yoki fayllar nusxalashtirilgan. Keyinroq, tarmoqda tranzaksiyalarning sonini kamaytirish uchun hujjatlarni va fayllarni faqat o'zgartirilayotgan qismini nusxalashtirildi. Nusxalashtirish yangi ma'lumotlar kiritilganda ham, ularni butunlay yangilanganda ham amalga oshiriladi. Nusxalashtirish shunday amalga oshiriladiki, ma'lumotlar blokining biror nusxasiga kiritilgan ma'lumotlar, boshqa nusxalarga ham tarqatiladi. Tarmoqda nusxalashtirish davriy ravishda (aniq vaqt oraliqlarida) yoki yangi ma'lumotlarning tushishiga qarab bajariladi.

M

ma'lumotlarni tavsiflash tili

ingl.: *Data Definition Language (DDL)*

rus.: *язык описания данных*

Ma'lumotlarni jismoniy va (yoki) mantiqiy tuzilmasini tavsiflash tili. Ma'lumolar bazasi obyektlarini (jadval, indeks va h.k.larni) tuzilmasini yaratish, yo'q qilish va o'zgartirish uchun foydalananligidan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining buyruqlari nimto'plami.

ma'lumotlarni tezkor tarqatish

ingl.: *operative data delivery*

rus.: *оперативная рассылка данных*

Foydalanuvchilar tomonidan axborotni tezkor olish texnologiyasi. Foydalanuvchilar o'z abonent tizimlariga axborotni ikki texnologiyadan birini ishlatib olishlari mumkin. Ma'lumotlarni ko'chirib olish texnologiyasi shu bilan tavsiflanadiki, unda foydalanuvchi mustaqil yoki mobil agentlar yordamida kerakli axborotni bazadan qidiradi, uni topib, bazadan oladi. Ma'lumotlarni turkilab chiqarish texnologiyasining mohiyati shundaki, foydalanuvchilar guruhiga ularning muayyan talabnomalarsiz aniq axborot tarqatiladi. Uni buyurtma bergan va tarqatish manzili egalari ro'yxatiga kiritilganlar oladi.

ma'lumotlarni tortish texnologiyasi

ingl.: *pull technology*

rus.: *технология вытягивания данных*

Foydalanuvchi mustaqil ravishda yoki mobil agentlar yordamida tarmoqdan kerakli axborot izlaydi va uni topgach qabul qilib olishini ta'min etish texnologiyasi. Bu holda shaxsan bitta manzilga tarqatish yuz beradi.

ma'lumotlarni ularsh

ingl.: data

rus.: подключение данных

Ma'lumotlar bazasi fayli yoki server haqida nom, tur, joylashish va shartsiz ravishda boshqa axborot belgilanadigan ularish.

ma'lumotlarni o'tkazish texnologiyasi

ingl.: push technology

rus.: технология выталкивания данных

Bir guruh foydalanuvchilarga muayyan axborotni, unga aniq so'rovlar bo'limasa ham tarqatish texnologiyasi. Uni tarqatish manzillari ro'yxatiga kiritilgan buyurtma berganlar oladi. Bunda keng tarmoqli tarqatish yuz beradi. Bunday xizmat uslubi WWWxizmatida ishlataladi. Ma'lumotlarni o'tkazish texnologiyasidan quyidagi hollarda foydalilanildi.

- mahsulot va xizmatlar reklamasi;
- qo'l ostidagi tashkilotlarga hujjatlarni tarqatish;
- bank tomonidan qimmatli qog'ozlarning joriy qiymati to'g'risida ma'lumot berish;
- jamoa xodimlarini yangi xabarlar haqida ogohlantirish va ularga yangi dasturlar tarqatish; Mazkur texnologiyadan foydalananishda ko'pincha muayyan turdag'i axborotlarga obuna e'lon qilinadi.

ma'lumotlarning analog shakli

ingl.: analog data form

rus.: аналоговая форма данных

Ma'lumotlarni elektr kuchlanish yoki elektr toki kabi ma'lum diapazonda to'xtovsiz o'zgaruvchi fizikaviy kattaliklar shaklida taqdim etish, saqlash va uzatish uslubi.

ma'lumotlarning buzilishi

ingl.: data damage

rus.: повреждение данных

Ma'lumotlar butunligining buzilishi.

ma'lumotlarning xavfsizligi

ingl.: data security

rus.: безопасность данных

Dasturlarni va ma'lumotlarni tasodifiy yoki qasddan o'zgartirish, yo'q qilish, oshkor qilish, hamda ruxsatsiz foydalanishdan muhofazalash tamoyillar to'plami. Ma'lumotlar xavfsizligi arxitekturasi ko'prejali muammo bo'lib, u qator muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Ularga birinchi navbatda, autentifikatsiya, mahfiylik (konfidensiallik), erkin foydalanish nazorati, ma'lumotlar butunligi kiradi.

ma'muriy boshqaruv

ingl.: management control

rus.: административное управление

Axborot-hisoblash tarmog'ini boshqarish vazifalari. U ma'lumotlarni uzatish tizimlari, terminallari va kanallarini ishga tushirish va o'chirish, nosozliklarni aniqlash, statistik ma'lumotlarni to'plash, hisobotlarni tayyorlash va h.k. bilan bog'liq.

ma'muriy tizim

ingl.: management system

rus.: административная система

Sayt, portal, axborot majmui yoki ularning qismini boshqarishni ta'minlovchi tizim. U, shuningdek, obyektdan erkin foydalanish nazoratini va undan ruxsatsiz erkin foydalanishdan muhofazani amalga oshiradi.

MAC

qisq.: Media Access Control

Muhitdan erkin foydalanishni boshqarish. Ma'lumotlarni uzatish muhitidan erkin foydalanishni boshqarish pog'onasi.

Macintosh kompyuteri

ingl.: Macintosh computer

rus.: компьютер Macintosh

Apple Computer tomonidan yaratilgan mashhur kompyuter modeli. 1984 yilda yaratilgan bo'lib, Macintosh kompyuterdan osonlik bilan foydalinish uchun oynalar, belgilar va sichqonchadan iborat grafik foydalanuvchi interfeysiiga (graphical user interface, GUI) ega. Murakkab buyruqlarni o'rGANISHGA ko'ra siz faqat kursorni menuy bandiga qaratib sichqoncha tugmasini bosishingiz lozim xolos.

magistral

ingl.: backbone

rus.: магистраль

Yuqori tezlikka ega bo'lgan aloqa liniyasi. U tarmoq segmentlarini yagona tizimga

birlashtiradi. Ma'lumotlarni soniyasiga yuz va minglab megabit tezliklarda tashishni ta'minlab, samaraliligi pastroq bo'lgan boshqa aloqa kanallariga ham xizmat ko'rsatadi. Katta tarmoqlar uchun odatda optik tola kabeli asosida yaratiladi.

magistral kanal

ingl.: *trunk*

rus.: *магистральный канал*

Ikkita uzib-ulash bog'lamasini bog'lovchi jicmoniy kanal. Uzib-ulash bog'lamalari bilan birga magistral kanallari ma'lumotlar yo'naltirish tarmog'ini tashkil qiluvchi asosiy tarkibiy qismlardir. Magistral kanal ko'p sonli tizimlar tomonidan yo'naltirilgan ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallanganligi uchun, u ayniqsa katta ishonchlikka va yuqori o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun magistral kanallar odatda efir, optik kabel va koaksiyal kabellar asosida quriladi.

magistral yakka kanal

ingl.: *trunk monochannel*

rus.: *магистральный моноканал*

Bitta yoki bir necha umumiyligini bo'g'indirlari magistral tarzida amalga oshirilgan yakka kanal. Magistral yakka kanalning umumiyligini bo'g'ini odatda yassi kabelning o'rama jufti, koaksiyal kabel va radio kanal asosida yaratiladi. Juft past tezliklarda, koaksiyal kabel esa katta tezliklarda ishlataladi.

magnit disk

ingl.: *magnetic disk*

rus.: *магнитный диск*

Kompyuterlarning xotira qurilmalarida ishlataluvchi va bir o'qda parallel joylashgan dumaloq plastina yoki plastinalar shaklida yaratilgan ma'lumotlar tashuvchisi. Magnit diskda har bir plastinaning bitta yoki ikkita tomoni magnit qatlami bilan qoplangan. Ma'lumotlarni ushbu qatlamdagaga halqa yo'lklariga yoziladi. Ma'lumotlarni yozish va o'qish diskni aylantiruvchi disk yordamida amalga oshiriladi. Magnit disklarning asosiy turlariga qattiq disk va egiluvchan disk kiradi.

magnit karta

ingl.: *magnetic card*

rus.: *магнитная карта*

Magnit moddasi bilan qoplangan ma'lumotlar tashuvchisi. U standart o'ichamdag'i plastik karta shaklida bo'lib, undan ketma-ket erkin foydalanish mumkin. Ma'lumotlarni yozish, saqlash va o'qish uchun mo'ljallangan. Ixtisoslashtirilgan kompyuterlar, masalan, bank xizmati tizimida qo'llaniladi.

magnit tasma

ingl.: *magnetic tape*

rus.: *магнитная лента*

Ma'lumotlarni saqlash uchun magnit moddasi bilan qoplangan egiluvchan tasma. Magnit tasmasi g'altakka o'raladi yoki ikki g'altakli kassetada bo'ladi. G'altakli xotira to'plagichlari boshqalaridan oldin paydo bo'lgan bo'lib, asosan katta va o'rtacha kompyuterlarda ishlataladi. Shu bilan birga, 4 mm kenglikdagi DAT raqamli audiotasmalar bilan ishlaydigan magnitonofonlar ham keng tarqalgan.

M

magnit to'plagich

ingl.: *magnetic storage*

rus.: *магнитный накопитель*

Moddalarning magnit xususiyatlaridan foydaladanigan xotira qurilmasi. Magnit to'plagichlari o'qish usuli bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi: magnit tasma, magnit disk, magnit karta.

magnit yo'lli karta

ingl.: *card with magnetic strip*

rus.: *карта с магнитной полосой*

Oddiy karta. Undagi axborot uch yo'lakchali magnit yo'lida saqlanadi. Yo'l kartaning orqa tomonida joylashgan va muayyan standartlarga mos ravishda tashkil qilingan.

magnit-optik disk

ingl.: *Magneto-Optical Disk (MOD)*

rus.: *магнито-оптический диск*

Ma'lumotlarni o'ta zich saqlash uchun magnit-optik texnologiyalar asosida yaratilgan disk. U 1988-yilda yuzaga kelgan. Uning faoliy tashuvchisi terbiy qo'shilgan temirkobalt qotishmasidir. Yozish uslubi qutblanishga asoslangan. Yozish jarayonida lazer nuri 1 mkmidan kam bo'lgan joyni qizdiradi, buning natijasida ushbu nuqtadagi magnitlanganlik vektori tashqi magnit maydoniga parallel yo'naladi. Aks etgan lazer nuri kuchsiz bo'lib, magnitlanganlikni o'zgartirish uchun yetarli bo'lmaydi. Yozilgan ma'lumotlarni o'chirish

uchun tashuvchiga bir payning o'zida lazer nuri va tashqi magnit maydoni ta'siridan fodalaniladi. Shu tarzda ma'lumotni o'chirish va qayta yozish 10 mln. marta amalga oshirilishi mumkin. Disk juda katta xotiraga ega bo'lib, ma'lumotlarni arxiv usulida saqlash uchun qo'llaniladi.

mahalliy

ingl.: *local*

rus.: *локальный*

Bir xil tarmoqqa tegishli. Yo'naltirgichsiz bog'lanish mumkin bo'lgan eng yaqin qo'shni.

mahalliy hisoblash tarmog'i

ingl.: *local area computing network*

rus.: *локальная вычислительная сеть*

qarang: mahalliy tarmoq

mahalliy kompyuter tarmog'i

ingl.: *local area computer network*

rus.: *локальная компьютерная сеть*

qarang: mahalliy tarmoq

mahalliy printer

ingl.: *local printer*

rus.: *локальный принтер*

Printer. U kompyuterdagi portlardan bittasiga bevosita ulanadi.

mahalliy tarmoq

ingl.: *local area network*

rus.: *локальная сеть*

1. Kompyuter tarmog'i. U ma'lumotlar almashuvi va qimmatbaho moslamalarini (printer, skaner, plotterlar va h.k.) birga ishlatalish maqsadida bitta xona, bino yoki cheklangan hudud ichida bir-biri bilan bog'langan bir necha kompyuterdan iborat. Mahalliy tarmoq, shuningdek, ushbu aloqani ta'minlovchi dastur va moslamalarni ham o'z ichiga oladi. Odatda mahalliy tarmoq quvvatliroq bo'lgan bitta kompyuter va unumdarligi kamroq bo'lgan bir necha kompyuterlardan tashkil topib ularga o'rnatilgan tarmoq platralari, bu platralarga ulangan kabellar va dasturiy ta'minotdan iborat. Mahalliy tarmoq kompyuterlarning fizik ularishlarining umumiyo sxemasi odatda tarmoq topologiyasi deb ataladi. Topologiya turiga qarab daraxtsimon, halkasimon, radial va shina tarmoqlari ajratiladi.

2. Kompyuter tarmog'i. Foydalanuvchining geografik nuqtai nazardan chegaralangan hududida joylashgan. Foydalanuvchi egaligidagi mahalliy tarmoq ichidagi ma'lumotlar almashuvi tashqaridan boshqarila olinmaydi, biroq ma'lumotlar almashuvi tarmoq tashqarisiga chiqsa, u boshqaruvning ba'zi turlariga uchrashi mumkin.

mahalliy tarmoq uzib-ulagichi

ingl.: *local-area network switch*

rus.: *коммутатор локальной сети*

Bitta yoki bir guruh mahalliy tarmoqlarning segmentlari o'zaro ishlashini ta'minlaydigan qurilma. Mahalliy tarmoq uzib-ulagichi odatdagi uzib-ulagich kabi, unga ulangan mahalliy tarmoqlarning o'zaro ishlashini, hamda mahalliy tarmoq segmentlarining har xil turi ulanayotgan bo'lsa, interfeyslarni o'zgartirishni ta'minlaydi.

mahalliylashtirish

ingl.: *localization*

rus.: *локализация*

Kompyuter dasturini ma'lum mamlakat yoki mintaqasi uchun moslashtirish jarayoni. Masalan. Dastur mahalliy tilning alifbosini qo'llab-quvvatlashi va sonlar hamda boshqa qiyamatlarni mahalliy formatda taqdim etish uchun sozlangan bo'lishi lozim. So'zlarga ishlov berish dasturini mahalliylashtirish mahalliy til so'zlarini tanishi, yangi imloni tekshirish vositasini qo'shishni talab qilishi mumkin.

mahfiy axborot

ingl.: *sensitive (confidential) information*

rus.: *конфиденциальная информация*

1. Mamlakat qonunchiligi bilan erkin foydalanish cheklanadigan hujjalardagi axborot.
2. Foydalanuvchilar tomonidan erkin foydalanish huquqi cheklangan axborot. Shu tufayli, undan ruxsatsiz erkin foydalanish muhofazaga muhtoj.
3. Xizmat, kasbiy, tijorat va boshqa turdagи axborot. Qonunlar asosida huquqiy marom uning mulkdori tomonidan o'rnatiladi. U muhofazaga muhtoj.

mahfiy so'z

ingl.: *password*

rus.: *пароль*

qarang: parol

mailto bayonnomasi

ingl.: *mailto protocol*

rus.: *протокол mailto*

Elektron pochta jo'natish uchun Internet bayonnomasi.

maishiy elektronika

ingl.: *home electronics*

rus.: *бытовая электроника*

Aholi foydalanadigan elektron apparatlar.

majburiy nusxa tizimi

ingl.: *mandatory copy system*

rus.: *система обязательного экземпляра*

Jami shartli nusxa turlari, shuningdek, ularni to'plash, tarqatish va foydalanishning belgilangan tartibi

majoritar element

ingl.: *majority element*

rus.: *мажоритарный элемент*

Chiqish diskret signali qiymati uning kirishlarida ko'pchilikni tashkil etgan bir-biriga teng qiymatlarga mos obyekt. Majoritar element, ham qurilma tarkibiy qismi, ham dastur qismi bo'lishi mumkin. Uning mohiyati shundaki, u toq sonli kirishlarga va bitta chiqishga ega bo'lib, go'yo ovoz berish jarayonini aks ettiradi. Ya'ni, elementning chiqish signali uning kirishlaridagi bir xil signallar qiymatini aks ettiradi. Masalan, uchta kirishli majoritar elementning ikkita yoki uchta kirishiga "bir" berilgan bo'lsa, ushu element chiqishida ham "bir" paydo bo'ladi. Ikki yoki uch kirishida "nol"lar bo'lsa, chiqishda ham "nol" bo'ladi.

Makellis kriptotizimi

ingl.: *Macelles' cryptosystem*

rus.: *криптомисистема Макэллиса*

Xatolarni tuzatish kodlariga asoslangan kriptotizim. 1978 yili Robert MakEllis tomonidan taklif qilingan. Unga ikki kamchilik xos: kalitning katta uzunligi va katta ortiqchalik (shifrlangan matn uzunligi xabarni uzunligidan ikki barobar ko'p). 1991 yili ikki rossiya kriptografi MakEllis tizimini «sindirishgan».

makro

ingl.: *macro*

rus.: *макро*

1. (MACHine Routine qisqartmasi). Bir necha mashina buyrug'iidan tarkib topgan to'plamga

o'giriluvchi dasturlash tilida berilgan alohida ko'rsatma.

2. Boshqa buyruqlar ketma-ketligini chaqiruvchi buyruq.

3. «Juda katta» ma'nosida ishlataladi, masalan – makroiqtisodiyot.

makro buyruq

ingl.: *macro instruction*

rus.: *макрокоманда*

qarang: makros

makro til

ingl.: *macro language*

rus.: *макро язык*

Tizimda jami harakatlar sodir etishga imkon beruvchi til. U istalgan axborotni topish va unga ishlov berish, hamda tizimga axborotning yangi turlarini kiritish imkoniyatiga ega.

M

makro virus

ingl.: *macro virus*

rus.: *макро вирус*

Skript tili (masalan, Microsoft Visual Basic Script (VBS)) yordamida yaratilgan kompyuter virusi. U foydalanuvchi tomonidan Excel yoki Word formatidagi va ayniqsa Outlook pochta orqali qo'llanma sifatida olingan viruslangan hujjatni ochish paytida avtomatik tarzda ishga tushadi.

makros

ingl.: *macro instruction*

rus.: *макрос*

1. Boshqa buyruqlar ketma-ketligini bajarishga olib keluvchi buyruq.

2. O'rniغا makroko'rsatma (masalan, assembler tilining bir necha mashina buyruqlariga aylantiriluvchi buyrug'i) orqali berilgan matn yoziluvchi dastur ifodasi.

makrouya

ingl.: *macro cell*

rus.: *макросома*

Uyali telekommunikatsiya tizimlarida bitta tayanch stansiyasi xizmat ko'rsatadigan bir necha kilometr radiusli geografik zona.

mamlakat kodi

ingl.: *country code*

rus.: *код страны*

Chaqirilayotgan mamlakatni belgilaydigan, bitta, ikkita yoki uchta raqamdan iborat birikma.

MAN

qisq.: Metropolitan Area Network

Shahar miqyosidagi hisoblash tarmog‘i. LAN va WAN o‘rtasidagi oraliq pog‘ona.

mandat

ingl.: mandate

rus.: мандат

Erkin foydalanish matritsasi elementi. U muayyan subyektning muayyan obyektdan erkin foydalanish turini belgilaydi. Mandat subyektga har gal dinamik tarzda beriladi, ya’ni, erkin foydalanishga ruxsat so‘rash paytida. Mandatlarni tarqatish o‘ta dinamik tarzda amalga oshirilishi va ular bevosita obyektlar ichida joylashishi mumkinligi sababli ularni nazorat qilish juda qiyin. Sof tarzda ushbu mexanizm kamdan-kam qo‘llaniladi. Biroq, erkin foydalanish nazoratini amalga oshirishning boshqa mexanizmlari mandatlar yordamida amalga oshiriladi.

mandatli erkin foydalanish

ingl.: mandate access

rus.: мандатный доступ

Obyektlardan erkin foydalanishni boshqarish uslubi. U maxfiylik va obyektdagi axborotning maxfiyligi va nozikligi darajasi hamda mazkur jiddiylik darajasidagi axborotni olishda subyekt vakolatlari va huquqlarini rasmiy tekshirishga asoslangan. Erkin foydalanishni mandatli boshqarishdan asosiy maqsad – tizim subyektlarining turli noziklik darajasidagi obyektlardan xavfsiz erkin foydalanishini ta’minalash va axborotning lavozim shajarasining ustki pog‘onalaridan pastki pog‘onaga chiqib ketishining oldini olish hamda pastki pog‘onadan ustki pog‘onaga mumkin bo‘lgan o‘tishlarni to‘sish.

mantiq

ingl.: logic

rus.: логика

Mantiq tafakkur shakli va qonunlari haqidagi fan. Mantiq fanining obyekti – tafakkur qonunlari, shakkllari, uslublari va amallaridir. Mantiq fani u o‘rganadigan predmet sohasining turi bo‘yicha ikki bo‘limdan iborat: formal mantiq va dialektik mantiq. Formal mantiq statik borliqqa, dialektik mantiq dinamik borliqqa oiddir. Formal mantiq ilmining asoslari eramizdan avvalgi 4 – asrda buyuk Yunon olimi

Aristotel tomonidan yaratilgan. 9 – asrda yashab o‘tgan Markaziy Osiyolik alloma Abu Nasr Farobi Aristotelni umumiy formal mantiq tizimini uning boshqa asarlari asosida to‘ldirib o‘z zamonasi uchun eng muhim mantiq fanini shakllantirib bergan.

YO rost yo yolg‘on bo‘lishi mumkin bo‘lib qiymatlari ikkilik sanoq tizimiga xos fikrlar, ya’ni xukmlar ustida matematik tahlil va deduktiv fikrashni birinchi bo‘lib 19 – asr o‘rtalarida Irlandiyalik Jorj Bul qo‘llagan. Bu Bul algebrasi deb ataluvchi mantiq algebrasi yaratilishiga va oxir oqibatda 20 – asr o‘rtalarida elektron hisoblash mashinalarining yuzaga olib kelishiga olib kelgan.

mantiqiy bomba

ingl.: logic bomb

rus.: логическая бомба

Biror bir shart bajarilsa ishga tushib ketadigan va avtomatlashtirilgan tizim resurslarining (ma‘lumotlar, dasturiy yoki apparat ta’minoti) shikastlanishiga olib keladigan kompyuter dasturi yoki dastur bo‘lagi.

mantiqiy disk

ingl.: logical disk

rus.: логический диск

Amaliy (operatsion) tizim tomonidan aniqlanadigan disk moslamasi. Mantiqiy disk fizik diskdan farq qilishi mumkin. Masalan, bitta disk bir necha mantiqiy disklarga ajratilgan bo‘lishi mumkin (Windowsda C:, D:, E:).

mantiqiy manzil

ingl.: logical address

rus.: логический адрес

qarang: jismoniy manzil

mantiqiy topologiya

ingl.: logical topology

rus.: логическая топология

Tizimning fizik topologiyasidan farq qiluvchi mantiqiy chizmasi. Masalan, mahalliy tarmoqlarda tarmoq fizik nuqtai nazardan Yulduz topologiyasi ko‘rinishida bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, tarmoq mantiqiy shina sifatida faoliyat ko‘rsatishi mumkin.

mantiqiy shina

ingl.: logical bus

rus.: логическая шина

Mahalliy tarmoqlar topologiyasi, masalan, Ethernet kabi umumiyl aloqa kanalidan foydalanadigan topologiya.

manzil

ingl.: *address*

rus.: *адрес*

1. Ramz yoki ramzlar guruhi. Xotiraning ayrim qismalari, registr, kiritish-chiqarish qurilmalari, hisoblash tarmog‘ining ish stansiyasini yoki boshqa ma’lumot manbalarini, yoki ularni uzatish uchun belgilangan joyni aniqlaydi.
2. Hisoblash tarmoqlarida – uzatilayotgan ma’lumotlarni oluvchi yoki jo‘natuvchilarini aniqlovchi bitlar ketma-ketligi.

manzil niqobi

ingl.: *address mask*

rus.: *адресная маска*

Internet manzilidan nintarmoqni manzillashtirish uchun bitlarni ajratib olish uchun qo’llaniladigan bitlar niqobi. Niqob hajmi 32 bit bo‘lib, u Internet manzilining tarmoq qismini va manzilning mahalliy qismining bir yoki bir necha bitini ajratib oladi. Ba’zan nintarmoq niqobi deyiladi.

manzillar kitobi

ingl.: *address book*

rus.: *адресная книга*

Elektron pochta manzillarini yozish, saqlash va foydalanish uchun mo’ljallangan dastur. Pochta mijozining qismi.

manzillar turlanishi

ingl.: *address modification*

rus.: *модификация адресов*

Obyektga murojaat qilish. Bunda maxsus dasturlar va elektron jadvallar yordamida mantiqiy va virtual manzillar fizik manzillarga aylantiriladi. Foydalanuvchilar ko‘zlangan obyekt, masalan, bitta tizimdan boshqasiga ko‘chirilganligini sezmasligi mumkin.

Manchestercha kodlash

ingl.: *manchester coding*

rus.: *манчестерское кодирование*

Ma’lumotlarni kanal orqali uzatish uchun kodlash uslubiyati. Manchestercha kodlash mantiqi ikkilik sanoq tizimiga oid signalni manchestercha kodga aylantirish bilan bog‘liq. Mazkur kodlashni amalga oshirishda muvaqqat

bit oraliglari deb atalmish muddatlarga bo‘linadi.

MAP funksional profili (kasbiy yo‘nalishi)

ingl.: *MAP functional profile*

rus.: *функциональный профиль MAP*

Ishlab chiqarishning avtomatlashtirish bayonnomalarini belgilaydigan funksional kasbiy yo‘nalish. MAP «ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bayonnomasi» deb ataluvchi funksional kasbiy yo‘nalish General Motors korporatsiyasi tomonidan yaratilgan. Uning birinchi rusumi MAP 1 ni, General Motors 1984 yili nashr qilgan. MAP mahalliy tarmoqda ikki asosiy tarmoq xizmatini amalga oshirish uchun mo’ljallangan. MMS tarmoq xizmati ishlab chiqarish xabarlarini spetsifikatsiyasini belgilaydi. FTAM tarmoq xizmati faylarni boshqarish, ulardan erkin foydalanish va ularni uzatish imkonini taqdim qiladi.

MAPI

qisq.: *Messaging Application Programming Interface*
Xabarlar uchun amaliy dasturlash interfeysi. Elektron pochtadan erkin foydalanish uchun API (Microsoft).

markaziy protsessor

ingl.: *central processor*

rus.: *центральный процессор*

Axborot tizimining asosiy tarkibiy qismi. U tizimning boshqa protsessorlari ishini boshqarish va amaliy jarayonlarni bajarish uchun xizmat qiladi.

markazlashgan arxitektura

ingl.: *centralized architecture*

rus.: *централизованная архитектура*

Axborot tarmog‘i tamoyillari to‘plami. Unga ko‘ra ma’lumotlarga barcha ishlov berish jarayonlari bitta yoki bir guruh katta kompyuterlarda amalga oshiriladi

markazlashgan ma’lumotlar bazasi

ingl.: *centralized database*

rus.: *централизованная БД*

Biror kompyuterning, bir yoki bir necha tashuvchilarda yagona massiv shaklida joylashtirilgan ma’lumotlar bazasi.

marker

ingl.: *marker*

rus.: *маркер*

Grafik belgi.

markerlash tili

ingl.: markup language

rus.: язык разметки

Belgilari yoki ularning ketma - ketliklari yig'masi. U matnga qo'shib qo'yib, uning chiqarilishi yoki tuzilishi haqidagi axborotni uzatish uchun mo'ljallangan. Markerlash tillari formatlashtirilgan matnni chiqarish zarurati bo'lgan yer borki, ularning barchasida masalan, bosmaxonada (TEX), kompyuterlarning foydalanuvchi interfeyslarida (troff, Microsoft Word), Butundunyo Tarmog'ida (HTML, XML) foydalaniladi.

marketing

ingl.: marketing

rus.: маркетинг

Mahsulot yoki xizmatlarni sotish bilan bog'liq jamiyat faoliyati. Marketingni o'tkazish uchun maxsus axborot tizimlari yaratiladi. Ularning har biri mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun zarus bo'lgan axborotni yaratish, tahlil qilish va tarqatishga qaratilgan jami uslub va tartiblardan iborat. Marketingni o'tkazishda ma'lumotlarga ishlov berish va ularni uzatish uslublari va vositalari, amaliy dasturlar majmuidan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Bular axborotni to'plash, saqlash, olingan ma'lumotlarga statistik ishlov berish, kalendar rejalashtirish va h.k.larni ta'minlaydi.

maskarad

ingl.: masquerade

rus.: маскарад

- Vakolatsiz subyekt tomonidan tizim yoki obyektdan erkin foydalanish yoki boshqa harakatlarni bajarish. U ma'lum harakatlar bajarishga vakolatlari bo'lmagan holda, o'zini bunday vakolatlarga ega bo'lgan shaxs qilib ko'rsatadi.

- Global va korporativ tarmoqlarning o'zaro ishlash paytida tarmoq manzillarini o'zgartirish vositasi. Bunda korporativ tarmoqning barcha bog'lamalari tashqi dunyo uchun bittagina manzil bo'lib ko'rindi. Axborot oqimini nazorat qilish vazifasini bajarishdan tashqari, bu, shuningdek, Internet tarmog'ining manzil makonini tejash va zaruriyat tug'ilganda ichki

bog'lamalardan tashqaridan erkin foydalanish ruxsatini berish imkonini yaratib beradi.

maslak

ingl.: platform

rus.: платформа

Kompyuter qurish va uning ishlashi uchun qabul etilgan asos. Matn mazmuniga ko'ra, ushbu atama apparatura, jumladan, protsessor turi yoki apparatura va operatsion tizim birikmasiga tegishli bo'lishi ham mumkin.

MASM

qisq.: Macro Assembler

Makroassembler.

masofaviy erkin foydalanish

ingl.: remote access

rus.: удаленный доступ

Abonent tizimlarining mahalliy tarmoqlar bilan hududiy kommunikatsiya tarmoqlari orqali o'zaro ishlash texnologiyasi.

masofaviy ta'lim

ingl.: distance education

rus.: дистанционное образование

Masofaviy ta'lim uslublariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim xizmatlari majmuasi.

masofaviy o'qitish

ingl.: distance learning

rus.: дистанционное обучение

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri, shaxsiy aloqasiz «masofadan o'qitish» imkonini yaratib beruvchi zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o'qitish jarayonini amalga oshirishning yangi uslubi.

massiv

ingl.: array

rus.: массив

- Bir turdag'i ko'plab hujjat yoki ma'lumotlarning tartibga solingan tarkibi.
- Dasturlashtirish tillarida – nom berilgan jami sonlar, mantiqiy qiymatlar yoki ma'lumotlarning boshqa bir xil turdag'i elementlari. Massiv elementlari sonlar, ramzli qatorlar, yozuvlar, yozuv guruhlari bo'lishi mumkin. Har bir element indeks deb atalmish bir necha ko'rsatkichlarga ega. Indekslar elementlarni izlash va ular turini aniqlashga xizmat qiladi. Vektor deb nomlanuvchi bir

o'lchamli massivda har bir element bitta indeks bilan belgilanadi. Jadval va matritsalar ikki o'lchamli massivlarga kiradi. O'z tuzilishi bo'yicha massivlar fayllarga yaqin. Biroq, ularni fayllardan farqlovchi ikki asosiy belgi bor:

- massivning har bir elementi aniq belgilangan bo'lishi mumkin va undanbevosita erkin foydalanish mumkin;
- massivdagi elementlar soni uni ta'riflashda aniqlanadi.

Massivlarga boshqa ma'lumot tuzilmalari kabi ishlov berish mumkin. Shu bilan birga, tezlikni oshirish uchun odatda axborot tizimlarida massivlarga ishlov berish uchun maxsus matritsavti protsessorlari ham qo'llaniladi.

3. Bir xil axborotni bir paytning o'zida o'qiydigan va yozadigan ikki yoki undan ko'p qattiq disk. RADI tizimida operatsion tizim disklar massivini yagona qattiq disk sifatida qabul qiladi.

4. Bir necha yo'naltirilgan antennalardan iborat bo'lgan simsiz telekommunikatsion antenna turi.

mass-media

ingl.: *mass media*

rus.: *масс-медиа*

Davriy bosma nashr, radio-, tele- yoki videodastur, kinoxronika dasturi yoki ommaviy axborotni tarqatishting boshqa shakli.

2. Televizion, telefon, kompyuter va boshqa aloqa tarmoqlarini mujassamlovchi matbuot (gazetalar, jurnallar, kitoblar), radio, televide niye, kinematograf, tovush va tasvir yozuvlari, video matn, telematn, reklama shchit va panellari, uy videomarkazlari.

master/slave

Bitta qurilma (xo'jayin) sifatida, bitta yoki bir nechta qurilma (qullar) sifatida nazorat qilishini ko'zlovchi me'moriy tuzilma.

masshtablanuvchanlik

ingl.: *scaling*

rus.: *масштабируемость*

Qurilmaning bir xil vazifalarni bajaruvchi funksional bloklar sonini ko'paytirish orqali o'z imkoniyatlarini oshirish xususiyati.

matematik mantiq

ingl.: *mathematical logic*

rus.: *математическая логика*

Mantiq fani bo'limi. U matematika uslublari asosida rivojlantiriladi. Unga fikr (hukm) larni asoslash, isbotlar, mantiqiy hulosalar chiqarish kiradi. Buning uchun matematik mantiqda algebra uslublari va algoritmlar nazariyasi qo'llaniladi.

matn

ingl.: *text*

rus.: *текст*

Ma'lumotlarni ifodalash shakli. Mazmunan yagona yaxlit bo'lib, tanlangan tilning belgilari ketma-ketligidan iborat. Matn hujjat asosidir. Axborot tizimiga matnni kiritish klaviatura, nurli pero, mikrofon yoki skaner yordamida amalga oshirilishi mumkin. Matnlarga ishlov berish matn muharriri deb ataluvchi, maxsus amaliy dasturlar majmuasi tomonidan amalga oshiriladi. Tarmoqdan matnlar ma'lumotlar bloklari ko'rinishida uzatiladi.

M

matn brauzeri

ingl.: *Text based browser*

rus.: *текстовый браузер*

Faqat matnni aks ettirish uchun ishlataladigan va gipermedia fayllarini boshqara olmaydigan brauzer.

matn fayli

ingl.: *text file*

rus.: *текстовый файл*

Faqat harflar, raqamlar va belgilardan iborat fayl. Matn fayli matnni formatlash haqida hech qanday axborotga (masalan, qalin shrift yoki kursiv bilan ajratish, shriftning o'lchami va turiga) ega emas, karetkani qaytarish va yangi satrga o'tish belgilari bundan istisno. Matn fayli ASCII formatidagi fayl bo'lib hisoblanadi. Matn fayli ixtiyoriy matn muharriri tomonidan o'qilishi mumkin.

matn muharriri

ingl.: *text editor*

rus.: *текстовый редактор*

Matn, dastur va hujatlarni tahrirlashni ta'minlaydigan amaliy dasturlar majmuasi. «WYSIWYG nima ko'rgan bo'lsangiz shuni oldingiz» tasavvuri, matnni ekrannda shunday shaklda ko'rish imkonini beradi. U xuddi shu ko'rinishda printerda chop etiladi. Matn muharrirlari foydalanuvchining turli topshiriqlarini bajaradilar, shu jumladan:

- jadvallar, diagrammalar, rasmlar, kolonkalar bilan ishlash;
- ekranning o‘lchamini va shaklini tanlash;
- maxsus zo‘r ta’sirlarni (klonkalarni qoraytirish, kontur va egri shriftlarni hosil qilish va b.);
- matn va dasturlarni tahrirlash, imloni tekshirish;
- ma’lumotlar bazalari bilan o‘zaro ishlash;
- fayllar bilan bajariladigan ochish, saqlash, o‘zgartirish, yo‘q qilish, printerda choplash amallari;
- turli xildagi printerlarni quvvatlash.

Matn muharrirlari ichida Microsoft Word muharriri eng ommaviyashgan hisoblanadi.

matn protsessori

ingl.: *word processor*

rus.: *текстовый процессор*

qarang: matn muharriri

matnbop menu

ingl.: *context menu*

rus.: *контекстное меню*

Sichqonchaning o‘ng tugmachasini obyektga keltirib bosilganda paydo bo‘ladigan mumkin bo‘lgan harakatlар ro‘yxati. Har bir obyektning o‘z ro‘yxati mavjud.

matnbop reklama

ingl.: *context online advertising*

rus.: *контекстная реклама*

Reklama. Uning mazmuni foydalanuvchining izlash tizimiga qilgan so‘roviga bog‘liqdir. Shuningdek, Internet resurslari kataloglari va mavzuviy sahifalar tashrifchilari uchun reklamaga nisbatan ham ishlataladi. Bunday reklama uni izchil qidirayotganlarga «tashlab qo‘ylgani» sababli, uning samaradorligi ham oddiy reklamaga nisbatan yuqoriroq.

matnga ishlov berish

ingl.: *text processing*

rus.: *обработка текстов*

Matnlarni kiritish, tanish, saqlash, tahrirlash, formatlash va choplash jarayoni. Matnlarga ishlov berishning muhim bosqichi bo‘lib, ularni tizimga kiritish va xotirada joylashtirish hisoblanadi. Bu amal klaviatura, nurli pero yoki skaner yordamida bajariladi. Keyingi bosqichda matn tayyorlanadi. U hujatlardagi ko‘p sonli standart qismlarni - ko‘rilayotgan masalalar, vaqt, manbalarni o‘z ichiga olgan

- ma’lumotlarni joylashtirish bilan bog‘liq. Matnlarga ishlov berishda quyidagi vazifalar:
- hujatlarni varaqning o‘lchamlari va formatini tanlab tahrirlash;
- ko‘chirishlarni avtomatik bajarib matnni ko‘rsatilgan chegaralar bo‘yicha, tekislash;
- standart qolipli hujatlarni yaratish, masalan blanklarda;
- turli shriftlarni (qalin, kursiv), ost chiziqli harflari ishlatish;
- bir turdagи hujatlarni choplashda, matnning o‘zgaruvchan qismini kiritish ham bajariladi. Matnlarga ishlov berish, hujatlarga ishlov berish uchun poydevordir.

matnli xabar

ingl.: *message text*

rus.: *текстовое сообщение*

Matndan iborat va tarmoq bo‘yicha uzatiladigan xabar.

matritsa

ingl.: *matrix*

rus.: *матрица*

Obyekt yoki ma’lumotlarning ikki o‘lchovli massivi. Matritsa ikki o‘lchovli tuzilma bo‘lib, unda har bir element o‘zining muayyan qator yoki ustunda joylashishi bo‘yicha aniqlanishi mumkin. M qatorlar va n ustunlar soniga ega bo‘lgan matritsa mxn matritsasi deyiladi. Ma’lumotlarga ishlov berilganda turli vazifalar bajariladi, jumladan, teskarilash, matritsalarни ko‘paytirish amali. Matritsalar nafaqat ma’lumotlarga ishlov berishda, balki xotira qurilmalari, matritsaviy uzib-ulagichlar, matritsaviy protsessorlar, matritsaviy printerlarni yaratishda ham ishlataladi. Mantiqiy matritsalar ham keng qo‘llaniladi.

matritsaviy printer

ingl.: *matrix printer*

rus.: *матричный принтер*

Shakllantirilayotgan ramz yoki tasvir qismi nuqtalar shaklida aks ettiriladigan printer. Printer nozik tayoqchalar matritsasidan iborat bosib chiqaruvchi kallakka ega. Tayoqchalar matritsasi gorizontal tarzda harakatlanib matn qatori yoki tasvir chizig‘ini bosib chiqaradi. Matritsa printerlarining chiqarish sifati birinchi navbatda tayoqchalarining diametri va soniga bog‘liq. Zamonaviy printerlarda tayoqcha diametri 0,2-0,3 mm ga teng. Ramz chiqaruvchi

matritsada tayoqchalar soni printer narxiga bog'liq. Printerlarning asosiy qismida 9 tagacha tayoqcha vertikal holda o'rnatilgan bo'ladi. Biroq sifatli printerlarda ularning soni 24tagacha ko'paytirilgan. 24 tayoqchadan iborat har bir guruh odatda ikkita parallel qator shaklida joylashtiriladi, matritsa o'lchami esa 35x24 nuqtagacha bo'ladi. Matritsaviy printerlarining ish tezligi xomaki bosish maromida soniyasiga 300 ramzga, eng yuqori sifat maromida esa 15 ramzga yetadi.

matritsavy protsessor

ingl.: array processor

rus.: матричный процессор

Sonli massivlarni, masalan matritsalarni qayta ishslash uchun mo'ljallangan arxitekturaga ega bo'lgan markaziy protsessorning ham protsessori. Protsessor arxitekturasi o'z ichiga bir paytning o'zida ishlovchi bir xil protsessor elementlari, masalan 64x64, matritsasini oladi.

matritsavy uzib-ulagich

ingl.: matrix switch

rus.: матричный коммутатор

Operatorga seriyali interfeyslar orqali bog'langan bir necha kanallarni muayyan olis yoki mahalliy sxemaga yoki boshqa seriyali interfeyslarga bog'lash imkonini beruvchi qurilma.

Matsushita korporatsiyasi

ingl.: Matsushita corporation

rus.: корпорация Matsushita

Elektron qurilmalar ishlab chiqaruvchi kompaniya. Matsushita keng ko'lama televizorlar ishlab chiqaradi. U, shuningdek, shaxsiy kompyuterlar uchun plazma displaylarini ishlab chiqaradi. Matsushita ma'lumotlar yozishda yuqori zichlik ta'minlovchi o'zining ixcham-disklarini ham ishlab chiqaradi. Kompaniya tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar Panasonic nomi ostida mashhur.

MAU

qisq.: Medium Attachment Unit

qarang: ulanish bloki

mavhum sintaksis

ingl.: abstract syntax

rus.: абстрактный синтаксис

Amalga oshirish apparati va kodlash usuliga bog'liq bo'Imagan ma'lumotlar tuzilmasi tavsifi.

maxzu bo'yicha ko'chirish

ingl.: thematic citing index

rus.: тематический индекс цитирования

Veb-sahifa yoki veb-saytning mashhurligining son ko'rsatgichi. Bu sahifaga yoki saytga boshqa veb-resurslardan murojaatlar soni shaklida aniqlanadi. Shu bilan birga, har bir murojaat, u joylashgan veb-saytning «nufuzi»ga, hamda har ikki saytning mavzulari mos kelishiga bog'liq o'zining «vazni»ga ega.

maxfiy kalit

ingl.: secret key

rus.: секретный ключ

Shifr matnga o'girish va dastlabki matnga o'girish paytida cheklangan tomonlar soni tomonidan foydalilishi uchun mo'ljallangan kalit.

M

maxfiy kalitli kriptotizim

ingl.: cryptosystem with private key

rus.: криптосистема с секретным ключом

Bitta kriptografik kalitning o'zi dastlabki matnni shifrlash va shifrmatnni dastlabki matnga o'girish uchun ishlatiladigan kriptografik tizim. Bunday kriptotizimlar birkalitli, simmetrik, odatdag'i, ikkitomonlama va mumtoz deb ham ataladi. Simmetrik tizimlarning kamchiligi bo'lib, qabul qiluvchi ishonchli kanaldan maxfiy kalitni olmaguncha axborotni dastlabki matnga o'giraolmasligi hisoblanadi. Kalitlarni muhofazalanmagan kanallar bo'yicha taqsimlash muammosini yechish uchun 1975 yillarda kalitlarni ochiq taqsimlash modeli ishlab chiqilgan. Maxfiy kalitli kriptografik tizimlar blokli va oqimli kriptotizimlarga bo'linadi.

maxfiy savol

ingl.: secret question

rus.: секретный вопрос

«Maxfiy savol»+»Maxfiy javob» - bu qo'shimcha parol. Siz asosiy parolingizni unutgan bo'lsangiz, sizdan maxfiy savol so'raladi, sizdan olingan javob esa maxfiy javob bilan solishtiriladi. Javoblar bir xil bo'lsa, siz uchun fayllaringizga yo'l ochiladi.

maxfiylik belgisi

ingl.: confidentiality mark

rus.: метка конфиденциальности
Obyektdagi axborotning mahfiyligini ko'rsatuvchi belgi.

maxfiylik grifi

ingl.: confidentiality
rus.: гриф секретности

Axborot tashuvchidagi axborotning maxfiylik darajasini dalolatlovchi ko'rsatkich-rekvizitlar. Ular axborot tashuvchining o'zida yoki unga hamroh hujjatlarda ko'rsatiladi.

maxfiylik kaliti

ingl.: privacy key
rus.: ключ секретности

Foydalanuvchining yoki dasturning resurslar va ma'lumotlar bilan ishlash huquqlarini aniqlaydigan kalit. Maxfiylik kaliti autentifikatsiyada ishlatalib, parol, ya'ni, maxfiy so'z turlaridan biridir.

maxsus elektron xatcho'pli qurilma

ingl.: special electronic device
rus.: специальное электронное закладное устройство

Axborotga ishlov berishning texnika vositasiga beruxsat va niqoblangan holda kerakli paytda axborot sizishi, uning yaxlitligini buzish yoki uni to'sish maqsadida o'rnatilgan elektron qurilma.

maydon

ingl.: field
rus.: поле
qarang: ma'lumotlar maydoni

mashina grafikasi

ingl.: machine graphics
rus.: машинная графика
 Hisoblash texnikasidan grafik tasvirlarni yaratish, ularni turli vositalar orqali aks ettirish (masalan, monitor ekranida, qattiq nusxalar shaklida va h.k.) va joyini, shaklini o'zgartirish maqsadida foydalanish sohasi.
qarang: kompyuter grafikasi

mashina so'zi

ingl.: machine word
rus.: машинное слово

1. Hisoblash tizimining apparatli qismi tomonidan bir butun bo'lib ishlov beriluvchi ketma-ket (odatda ikki, to'rt yoki sakkiz) baytlar to'plami.

2. Tezkor xotira qurilmasida saqlanayotgan va mashina vositalari tomonidan ishlov berilayotganda yagona kod guruhi (so'z) sifatida qabul qilinuvchi ramzlar (raqamlar, harflar va h.k.)ning tartibga solingan to'plami. Mashina so'zlar raqam, buyruq, harfli yoki harfli-raqamli ma'lumotlar shaklida bo'lishi mumkin. Mashina so'zi odatda o'zarbo'lgan va farqlanishi uchun qayta raqamlangan xonalar (ramzlar holatlari)dan iborat bo'ladi.

mashina tafakkuri

ingl.: machine intelligence
rus.: машинный интеллект
qarang: sun'iy tafakkur

mashina tarjimasi

ingl.: computer-aided translation
rus.: машинный перевод
qarang: kompyuterlashgan tarjima

mashina tashuvchisi

ingl.: intelligence storage device
rus.: машинный носитель
 Elektron hisoblash texnikasi yordamida axborotni yozish va saqlash uchun ishlataladigan magnit disk, magnit tasma, lazer disk va boshqa modda tashuvchilar.

mashina tili

ingl.: machine language
rus.: машинный язык
 Kompyuter tomonidan to'g'ridan-to'g'ri kompilyatsiyasiz bajarilishi mumkin bo'lgan jami mashina ko'rsatmalaridan iborat kompyuter tili. Ko'rsatmalar va ma'lumotlar binar shaklida taqdim etiladi. Mashina tili kompyuter apparat ta'minotining ona tili bo'lib, kompyutering barcha vazifalarini nazorat qiluvchi mikroprocessorr tushunadigan yagona tildir. Kompyuterda ishlov beriladigan barcha dastur va ma'lumotlar ma'lum bosqichda albatta mashina tiliga o'giriladi.

mashina o'qiy oladigan tashuvchi

ingl.: machine-readable storage device
rus.: машиночитаемый носитель
 Texnik vositalar (kompyuter) tomonidan ma'lumotlarni bevosita yozish va o'qish uchun mos tashuvchi.

MB

qisq.: MegaByte
Megabayt.

MBCS

qisq.: MultiByte Character Set

Belgilarning multibaytli yig‘masi. Har bir belgi bitta yoki bir nechta baytlar bilan aks ettirilgan belgilarni yig‘masi.

Mbit

qisq.: Megabit

Megabit.

Mbps

qisq.: MegaBits Per Second

Megabit soniyada.

MBR

qisq.: Master Boot Record

Bosh yuklovchi yozuv.

MBSA

qisq.: Microsoft Baseline Security Analyzer

Microsoft himoyasining asosiy elementlarini tahlilovichisi. Windows asosidagi kompyuterlarda ma'lum zaifliklar bor – yo'qligini aniqlash maqsadida ularni markazlashgan tarzda skannerlashni (tekshirishni) bajarish imkonini beradigan Microsof firmasining mahsuloti.

MCA

qisq.: Micro Channel Architecture bus

qarang: MCA shinasi

MCA shinasi

ingl.: MCA (Micro Channel Architecture) bus

rus.: шина MCA

Shina me'moriy tuzilmasi, xuddi shunday «mikrokanal me'moriy tuzilmasi « deb ham ataladi. MCA, 1987 yilda IBM korporatsiyasi tomonidan yaratilgan. U kompyuterning tashqi qurilmasi va ichki tarkibiy qismlari orasida ma'lumotlar qanday almashuvini belgilaydi. MCA shinasi IBM PC-AT uyg'unlashgan kompyuterlarda foydalaniladigan me'moriy tuzilmada AT shinasinini almashtirish uchun ishlab chiqilgan edi. Ammo, turli sabablarga ko'ra, bu me'moriy tuzilma kompyuter ishlab chiqaruvchilari tomonidan standart sifatida qabul qilinmadi.

MCB

qisq.: Memory Control Block

Xotira boshqarish bloki (MS-DOS).

MCI

qisq.: Media Control Interface

Ma'lumotlar uzatish muhitini boshqarish interfeysi. Ko'ptashuvchi-qurilmalarni boshqarish uchun interfeysi.

MDI

qisq.: Multiple Document Interface

Hujjatlar to‘plamining interfeysi, MDI-interfeysi. Qo'llanma foydalanuvchisining interfeysini tashkil qilish usuli. MDI-qo'llanmalarning asosiy darchasida, vazifalar paneli orqali erkin foydalanib bo'lmaydigan ko'makchi darchalar (hujjatlar darchasi) joylashadi.

MDX

qisq.: MultiDimensional eXpressions

Ko'po'lchamli ifodalar, MDX tili. SQL tilining OLAP manbalariga so‘rovlar berish uchun kengaytmasi, Microsoft OLE DB texnologiyasining tarkibiy qismi.

**me'moriy tuzilma**

ingl.: architecture

rus.: архитектура

qarang: arxitektura

media

ingl.: media

rus.: медиа

1. Ommaviy axborot vositalari (OAV). Bir xil axborotni ko'p abonentlarga uzatish vositasi.
2. Informatikada «media» jargon so‘zi turli moddalarini – qog‘oz, optik disk, magnit disk, magnit tasmalarni bildiradi.

megapiksel

ingl.: megapixel

rus.: мегапиксель

Bir million piksel. Atama grafik qurilma, jumladan skaner, raqamli kamera yoki monitorlarning ajrataolish qobiliyatiga ko‘ra ishlataladi.

mehmonlar kitobi

ingl.: guest book

rus.: гостевая книга

Sayt tashrifchilari bilan teskari aloqa vositasi. Sahifa mazmuni to‘g‘risida o‘z fikringizni yozib jo‘natish mumkin bo‘lgan kichik shakl. Foydalanuvchi mehmonlar kitobida shakl to‘ldirgandan keyin uning fikri darhol saytda chop etiladi. Bu fikrlarni yig‘ishning eng

demokratik xildir, biroq mehmonlar kitobi o'zgartirishga muhtoj, masalan uyat gaplarni, agarda bunday gaplar paydo bo'lsa, qo'shish mumkin bo'lmasin.

MEMS

qisq.: Micro-Electro-Mechanical Systems

Mikroskopik elektromekanik qurilmalar.

menejer

ingl.: manager

rus.: менеджер

Obyektni boshqarish vazifalarini bajaruvchi inson, qurilma yoki dastur. Boshqaruv obyekti tarmoq, katta tarmoqning qismi, tizim, ma'lumotlar banki va h.k. bo'lishi mumkin.

menejment

ingl.: management

rus.: менеджмент

1. Kerakli natijalarga erishish maqsadida insonlar va obyektlarga ta'sir o'tkazish. Avtomatika, informatika, texnologik jarayonlarda boshqaruv obyektlarga, ularning faoliyatini ta'minlash uchun maqsadli ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi. U asosan qurilmalar va amaliy dasturlar majmui tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, boshqaruvda xodimlar ham ishtirot etishi mumkin. Jamiyatlarning axborot faoliyatini boshqarishning usullari va vositalari axborot menejmenti deyiladi.

2. Maqsadga qaratilgan jami harakatlar. Bunga ahvol va boshqaruv obyektining holatini baholash, boshqaruv ta'sirlarini tanlash va amalga oshirish ham kiradi.

menu

ingl.: menu

rus.: меню

1. Foydlanuvchining chizma interfeysining (GUI) qismi. Dasturning mumkin bo'lgan harakatlari ro'yxati. Menu qatori oynaning ustki qismida joylashgan. Ushbu oynada menu qatori – bu «Fayl», «Tahrir», «Ko'rinish», «Tanlangan», «Xizmat», «Ma'lumot». Matnbop menu ma'lum obyektga sichqonchaning o'ng tugmasi bosilganda paydo bo'ladi. Har bir obyekt alohida amallar ro'yxtiga ega.

2. Ovozni qaya ishlash tizimi aytadigan dastur amallarini davom ettirish variantlari. Foydalanuvchi o'z tanlovini bildirish uchun javoban bir yoki bir necha so'z aytishi lozim.

MEO

qisq.: Medium Earth Orbit

O'rta yeratrofi orbitasi. Yer sun'iy yo'ldoshining aylanish davri 2 soatdan 12 soatgacha bo'lgan orbitasi. MEO orbitasining balandligi LEOnikiga nisbatan yuqori, lekin, GEOga nisbatan pastroq.

Merkle jumboqlari

ingl.: Merkle's charades

rus.: шарады Меркля

R. Merkle tomonidan ishlab chiqilgan kalitlarni tarqatish algoritmi. Uning mohiyati, shifrlash uchun foydalilanidigan maxfiy kalitni ko'p sonli sharadalar -jumboqlar yig'masini ichida berkitib uzatishdadir. Har bir jumboq shifrlangan matnni ifodalab, kichik kalitlar fazosida blokli shifrdan foydalaniib olingan kriptografik kalitni o'z ichiga oladi.

MESI

qisq.: Modified/Exclusive/Shared/Invalid

MESI bayonnomasi. Protessorlarning (ko'pprotessorli tizimlarda) kesh-xotiralari moslashganligini quvvatlovchi bayonnomasi.

metafayl

ingl.: metafile

rus.: метафайл

Tarkibida boshqa fayllar bo'lgan yoki boshqa faylarni belgilovchi fayl. Fayllar fayli deb ataluvchi metafayl tushunchasi ma'lumotlarga, ayniqsa tasvirlarga, ishlov berish sohasining tezda kengayishi sababli kiritilgan. Negaki, tasvirlar odatda bitta seans bilan cheklanmaydi va ularni qayta ishlash uchun saqlash lozim. Ularni, shuningdek, tarmoq orqali bitta axborot tarmoqlaridan boshqalarga uzatish lozim. ISO IEC bilan birgalikda «kompyuter grafikasi metafayli» CGM deb ataluvchi standartni ishlab chiqib tasdiqlagan. U rastr tasvirlar va vektor tasvirlar xususiyatlarni o'z ichiga olgan. Mazkur standart metafayl tuzilishi, ya'ni uming u yoki bu elementlarining turi va joyini belgilaydi.

metaizlash

ingl.: metasearch

rus.: меганоуқ

Metaizlash tizimidan foydalangan holda Internetdan izlash.

metaizlash mexanizmi

ingl.: metasearch engine

rus.: механизм метапоиска

Boshqa izlash tizimlariga so'rov berib, ularning barchasidan olingan natijalarini umumlashtiruvchi izlash tizimi. Aslida, foydalanuvchi izlashni maqbullahtirish uchun bitta izlash tizimidan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan ko'p izlash tizimlaridan foydalanadi. Metaizlash tizimlari misoli sifatida Dogpileni ko'rsatish mumkin.

metakompyuting

ingl.: meta computing

rus.: метакомпьютинг

Kompyuter tarmoqlaridan milliy va jahon miqyosidagi taqsimlangan hisoblash tizimini yaratish uchun foydalanish. Metakompyuting maqsadi hududiy taqsimlangan va Internetga ulangan yuqori quvvatlari kompyuter va chekka qurilmalarini xohlagan shaxsiy kompyuter yoki ish stansiyasidan erkin foydalanish mumkin bo'lgan, foydalanuvchi va dasturlashtiruvchilar uchun yagona hisoblash muhiti bo'lgan o'ta kuchli kompyuter yoki metakompyuterga aylantirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotni yaratishdir. Bunda foydalanuvchi bitta, biroq stolida turgan mashinadan anchagina katta mashina bilan ishslash tasavvuriga ega bo'ladi.

metama'lumotlar

ingl.: metadata

rus.: метаданные

Ma'lumotlar haqidagi ma'lumotlar. Unga quyidagilar kiradi: ma'lumotlar tarkibi, mazmuni, statusi (dolzarbliji va yangilanishi), kelib chiqishi (olish usullari va shartlari), joylashishi, sifati (to'liqligi, qarama-qarshi emasligi, ishonchiligi), chiqarish formatlari va shakkllari, olish shartlari, sotib olish va foydalanish, ma'lumotlarga bo'lgan mualliflik, mulk va ular bilan chegaradosh huquqlar va boshqa tavsifnomalar to'g'risida axborotga ega kataloglar, ma'lumotnomalar, reyestrlar. Metama'lumotlarni taqdim etishning barcha formatlari ulardan foydalanuvchi dastur bilan chambarchas bog'liq. Metama'lumotlar kataloglar tavsifi va ma'lumotlarning saqlanish joyida joylashish chizmalarini tasvirlash uchun zarur. Metama'lumotlar, shuningdek, vaqt, ma'lumotlar manbai va qabul qiluvchisi,

amalga oshirilgan o'girish algoritmini aniqlash, ya'ni zarur bo'lganda umumlashmalar asoslangan dastlabki axborotni topish imkonini beradi.

metatarmoq

ingl.: metanetwork

rus.: мемасеть

O'zaro aloqada bo'lgan hududi yarmoqlardan iborat bo'lgan global tarmoq.

metateg

ingl.: meta tag

rus.: метатег

HTML tilining shart bo'lmagan tegi. U Internetdagi izlash tizimlari uchun veb-hujjati to'g'risida axborotni (keywords, description) ko'rsatish uchun ishlataladi. Metateg veb-sahifaning bosh, ya'ni <head> qismida yoziladi. Izlash tizimlari veb-sahifalarini indeksatsiyalash uchun «o'rgimchaklardan» foydalanib, metateg kodidagi axborotni o'qiydi. Metateg, shuningdek, muayyan sahifa ma'lum muddat o'tishidan keyin avtomatik ravishda o'tishi lozim bo'lgan URL manzilini ko'rsatish uchun ham ishlataladi.

metatil

ingl.: metalanguage

rus.: метаязык

Dasturlashtirish tillarini tafsiflash tili.

meteor aloqasi

ingl.: meteor burst communications

rus.: метеорная связь

Signalning meteoritlarning ionlashgan izlaridan qaytishiga asoslangan ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi. Ushbu kanaldan foydalanishning iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqqan holda (bepul «yo'ldosh»), ma'lumotlarni uzatishning kerakli sifatini ta'minlash uchun maxsus choralar ko'rilmoxda. Birinchidan, meteor kanallaridan diskret signallar uzatiladi. Ikkinchidan, kodlaganda xatolarni to'g'rilovich maxsus kodlar ishlataladi. Meteor aloqasi uzoqligi 1000 kmgacha yetib boradi. Meteor aloqasi katta mablag' talab qilmasdan, yo'ldosh tarmog'idan uch baravar arzondir.

MExE

qisq.: Mobile Execution Environment

Mobil qo'llanmalarni bajarish muhiti.

meynfreym*ingl.: mainframe**rus.: майнфрейм*

1. Katta, yuqori samarali kompyuter. U noyob arxitektura va dasturiy ta'minotga, ancha katta hajmli tezkor va tashqi xotiraga ega. Ko'p sonli chekka kompyuterlar va terminallarga ega. U rivojlangan mahalliy hisoblash tarmoqlarida server vazifalarini bajaradi.

2. Yuqori samarali va resurslarga ega bo'lgan kompyuter. Resurslardan birqalikda foydalanish uchun unga boshqa kompyuterlar ulanishi mumkin.

meyorlik*ingl.: conformance**rus.: конформность*

Obyektni uning me'yoriy – texnik hujjatlariga mos kelishi. Obyekt sifatida tizim, stansiya, dastur, funksional blok bo'lishi mumkin. U qurilma shaklida yaratilgan bo'lishi yoki, dasturlar majmui shaklida taqdim qilinishi mumkin. Obyektning meyorligi, uni testlash jarayoni natijasida aniqlanadi.

MFC*qisq.: Microsoft Foundation Classes*

Microsoft asosiy sinflari kutubxonasi. Windows uchun qo'llannalar ishlab chiqish uchun C++ tilining sinflari kutubxonasi.

MFLOPS*qisq.: MegaFLOPS*

Millionlab FLOPS lar.

MFT*qisq.: Master File Table*

Fayllarning bosh jadvali. Jiddagi narsa haqida axborot saqlanadigan NTFS fayl tizimidagi ma'lumotlar tuzilmasi.

MHS*qisq.: Message Handling System*

Xabarlar boshqarish tizimi. Tarmoq etalon modeli OSI (X.400)da elektron xabarlar uchun standart.

MHz*qisq.: MegaHertz*

Megagers. Chastotaning fizikaviy o'lcov birligi.

MIB*qisq.: Management Information Base*

Boshqaruvchi axborot (ma'lumotlar) bazasi.

Micron Technology korporatsiyasi*ingl.: Micron Technology corporation**rus.: корпорация Micron Technology*

Shaxsiy kompyuterlar va ularning tarkibiy qismlarini ishlab chiqaruvchi kompaniya. Micron_Technology AQSHda 1978 yilda ma'lumotlarni uzatish uchun dasturiy ta'minot va telekommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish maqsadida yaratilgan.

Microsoft korporatsiyasi*ingl.: Microsoft corporation**rus.: корпорация Microsoft*

Shaxsiy kompyuter tarixida ulkan va eng katta ta'sirga ega bo'lgan kompaniya. U dasturiy ta'minot yaratish sohasida yetakchilik qildi. 1975 yilda Bill Gates va Paul Allenlar tomonidan yaratilgan. DOS va Windows operatsion tizimlarini yaratish bilan birga, Microsoft kompaniyasi deyarli barcha turdag'i dasturiy ta'minotni yaratish bilan shug'ullanadi – dasturlashtirish vositalaridan tortib oxirgi foydalanuvchilar uchun Microsoft turli texnologiyalar va amaliy dasturlarni taklif etadi. Internet tarmog'iда Microsoft tomonidan yaratilgan Microsoft Network deb nomlangan axborot xizmati faoliyat ko'rsatib turibdi.

MIDI*qisq.: Musical Instrument Digital Interface*

Musika asboblari uchun raqamli interfeysi. Turli musiqa asboblari tovushlarini ifodalash tili va apparatlari uchun standart. MIDI buyruqlari apparaturaga qanday asbobda, qaysi oktavada va qanday nota yangrashi kerakligi haqida xabar beradi. Shu sababli ohangni MIDI buyruqlari shaklida yozilsa ancha ixcham bo'ladi. Bu standartning ko'pgina xillari mavjud - General MIDI, Roland MT-20 va boshqalar.

MIDI interfeysi*ingl.: MIDI interface**rus.: MIDI интерфейс*

Tashqi MIDI qurilmalarini ularash porti. Interfeysi uzatuvchidan oziqlanadigan va kirish zanjirlarining galvanik ajratilgan tok halqasi bo'lib, o'yin moslagichi ularash uyasiining 12-, 15-tutashmalariga chiqarilgan.

MIF

qisq.: Management Information File

Boshqaruvchi axborot fayli, MIF fayli. DMTF guruhi tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy kompyuterning tarkibiy tuzilmasini tavsiflash uchun xizmat qiladigan fayl standarti.

MIIS

qisq.: Microsoft Internet Information Server

IIS qaralsin.

mijoz

ingl.: client

rus.: клиент

1. So'rov bergen foydalanuvchi, kompyuter yoki dastur.

Bu so'rov xizmatlar, resurslar va ma'lumotlarga yoki boshqa dastur yoki kompyuterda ishlov berishga qaratilgan.

2. Mijoz – server me'moriy qiyoferasining elementi. Server (so'rovlarni yuborish, javoblarni olish) va foydalanuvchi bilan (sichqon tugmachasini va klaviatura tugmachasini bosilganda tushunadigan) muloqot qilishni biladigan dastur. Odatda, mijoz foydalanuvchi uchun qulay bo'lgan interfeysga ega.

3. Dastur – mijoz bajarilayotgan kompyuter.

4. Jismoniy yoki yuridik shaxs. Unga telekommunikatsiya korxonasi xizmatlarni yoki telekommunikatsiya vositalarini taqdim qilgani uchun u barcha harajatlarni yoki ijara haqini mazkur korxonaga to'lashga majbur.

mijoz tomonidagi dastur

ingl.: client-side software

rus.: программа на стороне клиента

Internetda serverda bajarilmay, mijoz kompyuterida bajariluvchi dastur.

mijoz-bank tizimi

ingl.: client-bank system

rus.: система клиент-банк

Mijozlar va bank orasidagi elektron moliyaviy hujjalalar va axborot materiallarni tayyorlash va ularni almashtishni ta'minlovchi dasturiy-apparatli majmua. Almarshuv maxfiyligi kriptografik muhofaza vositalari yordamida amalga oshiriladi, axborotning voqeiyligini tekshirish uchun elektron raqamlar imzolarni hisoblash vositalari ishlataladi.

mijoz-server

ingl.: client-server

rus.: клиент-сервер

1. Butunlay mijozlar, serverlar va tarmoq majmuasi.

2. Tarmoq qurilishining me'moriy qiyoferasi yoki tuzilmasi (shu jumladan mahalliy va tarmoqlangan). Unda, hisoblash yuklamasini ikki, ya'ni, tarmoq tarkibiga kiritilgan «mijoz» funksiyasini bajaruvchi kompyuterga va bitta quvvatli markaziy kompyuter - «server»ga bo'lib beriladi.

3. Xizmatlarni ta'riflashing umumiylisini va shu xizmatlar uchun foydalanuvchi jarayonlarining (dasturlarini) modeli. Vazifani bajarish ikki qismga bo'linadi: so'nggi foydalanuvchi (mijoz qismi) tizimi so'rovlari beradi va server qismi (resurslar zahirasini) ularga javob beradi.

mijoz-server arxitekturasi

ingl.: client-server architecture

rus.: архитектура клиент-сервер

Dasturlar yoki ko'p tarkibiy bo'lakli dasturning o'zaro ishlash uslubi. U server deb nomlanuvchi dastur yoki dastur tarkibiy bo'lagi va mijoz deb nomlanuvchi boshqa bir yoki bir necha dastur yoki tarkibiy bo'laklar mavjudligini ko'zlaydi. Mijoz serverdan asinxron bo'limgan tarzda server vazifalari bajarilishini boshlash va ular bajarilishi natijalarini olish imkoniga ega. Odatda mijoz-server arxitekturasi bir necha mijozlarga bir vaqtning o'zida va bir-biridan mustaqil tarzda server bilan o'zaro ishlash imkonini beradi. Ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish uchun axborot tizimlari bo'lmissiz dasturlar odatda mijoz-server arxitekturasi asosida yaratiladi. Internet ishini ta'minlovchi dasturlarning o'zaro faoliyati ham mijoz-server arxitekturasi asosida tashkil etilgan.

mikrodastur

ingl.: microprogram

rus.: микропрограмма

Protsessor registrlari ustida oddiy amallar ketma-ketligini boshqaruvchi dastur.

mikrodasturlashtirish

ingl.: microprogramming

rus.: микропрограммирование

Buyruqlarni bajarishda protsessoring elementar qadamlarining tavsifi. Mikrodasturlashtirish asosi mikrodasturdir.

Protessor boshqaruvining deyarli barcha bloklari mikrodasturlashtiriladi. Bu protsessorlarni loyihalashtirish osonligini ta'minlaydi va xotira tarkibini oddiy o'zgartirish orqali boshqaruva vazifalarini o'zgartirish imkonini beradi.

mikroelektronika

ingl.: microelectronics

rus.: микроелектроника

XX-asning 60-yillarda paydo bo'lgan va mayda shakldagi elektron qurilmalarni yaratish muammosini o'rganuvchi elektronika sohasi. Mikroelektronikada elektr, konstruktiv va texnologik ma'noda bog'liq bo'lgan yarimo'tkazgichlar xususiyatlaridan foydalilanadi. Ushbu jarayonda tarkibiy qismlar bir butunga birlashtirilib, integral sxemani tashkil qiladi.

mikrofon

ingl.: microphone

rus.: микрофон

Tovushni elektr signaliga aylantirilishini ta'minlovchi qurilma. Mikrofon tovushni tizim va axborot tarmog'iga kiritish uchun mo'ljallangan. Tovush tebranishlari uzlusiz shaklga ega bo'lgani tufayli mikrofonning analog signali analog-raqamli o'girilishda qatnashadi. Ish prinsipi bo'yicha ko'mir, elektrdinamik, elektrstatik va pyezoelektrik mikrofonlar farqlanadi. Mikrofonlar asta-sekin klaviatura o'mini bosyapti. Bunga nutqni tushunish muvaffaqiyatlari tufayli erishiladi. Birinchi navbatda, bu ishlab chiqarishni boshqarish va ta'minlash sohalarida ro'y bermoqda.

mikrokalkulator

ingl.: microcalculator

rus.: микрокалькулятор

O'ta ixcham mikrokompyuter. Nisbatan oddiy muhandislik, iqtisodiy va boshqa hisoblashlar uchun mo'ljallangan. Dasturlashtiriladigan kalkulatorlar keng tarqalgan. Murakkab bo'Imagan dasturni kiritish orqali mutaxassis bunday mikrokalkulatorda tenglamalarni yechishi, formulalar bo'yicha hisoblashlar qilishi mumkin.

mikrokompyuter

ingl.: microcomputer

rus.: микрокомпьютер

Raqamli kompyuter. Uning qayta ishlash qurilmasi bitta yoki undan ko'p mikroprotsessordan iborat hamda xotira va kiritish-chiqarish qurilmalariga ega. Kompyuterlar tasnifnomasida mikrokompyuter eng kam unumli hisoblanadi. Mikrokompyuterlar, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyasi va turli xil avtomatik boshqaruv apparaturasida qo'llaniladi.

mikronazoratchi

ingl.: microcontroller

rus.: микроконтроллер

Turli qurilmalarni (masalan, printerlar, terminallar, ma'lumotlarni uzatish apparatlari) boshqarish uchun ishlatiladigan ixtisoslashtirilgan mikrokompyuter.

mikroprotsessor

ingl.: microprocessor

rus.: микропроцессор

Elementlari bitta yoki bir necha integral sxemaga maydalashtirilgan protsessor. Kompyuterlar, jumladan, shaxsiy kompyuterlar tuzilishining asosiy elementi. Mikroprotsessor ichki xotira yordamida arifmetik, mantiqiy va boshqaruv amallarini bajaradi.

mikrosayt

ingl.: microsite

rus.: микросайт

Minisayt deb ham nomlanadigan mikrosayt – bu veb-saytning bosh sahifadan tashqari alohida URLga ega bo'lgan va axborotni taqdim etish va/yoki bosh sahifaga bog'liq bo'lgan nimanidir reklama qilish uchun foydalilanadigan alohida sahifasi. Masalan, muzej veb-sayti u yerda o'tkazilayotgan maxsus ko'rgazma haqida axborotga ega mikrosaytga murojaatga ega bo'lishi mumkin, yoki kompyuter ishlab chiqaruvchisi foydalananuvchiga yangi mahsulot dizayni to'g'risida axborot berish uchun mikrosayt yaratishi mumkin. Mikrosaytlar odatda reklama kompaniyasi tugagach yoki axborot ahamiyatsiz bo'lib qolganda veb-serverlaridan olinadigan vaqtinchalik veb-saytlardir.

mikrosxema

ingl.: microcircuit

rus.: микросхема

Elementlari konstruktiv va texnologik ravishda birlashtirilgan mayda elektron qurilma.

qarang: integral sxema

mikrouya

ingl.: micro cell

rus.: микросоцма

Uyali telekommunikatsiya tizimlarida bir necha yuz metr radiusdagi bitta tayanch stansiyasi xizmat ko'rsatayotgan geografik zona.

mikrouyali radio tarmoq

ingl.: microcellular radio network

rus.: микросотовая радиосеть

Kichik o'lchamdagisi uyali aloqa.

mikroo'zak

ingl.: microkernel

rus.: микроядро

Operatsion tizimning markaziy qismi. Axborot tizimini boshqarishning asosiy vazifalarini bajaradi va o'zidan-o'zi kompyuter bajaruvchi asosiy vazifalarning cheklangan to'plamiga ega tugallangan operatsion tizimdir. Ushbu vazifalar qatoriga quydigilar kiradi:

- virtual xotirani boshqarish;
- jarayonlar bajarilishini qo'llab-quvvatlash;
- jarayonlarning o'zarro ishslashini tashkillashtirish;
- ma'lumotlarni kiritish-chiqarish va uzilishlarga xizmat qilish.

mikrochip

ingl.: micro chip

rus.: микрочип

qarang: integral mikrosxema

MIMD

qisq.: Multiple Instruction, Multiple Data

Ko'rsatmalar to'plami, ma'lumotlar to'plami. Markaziy protsessor me'moriy tuzilmasi, bir necha operandalar (vektorlar) ustidan bir takt davomida bir necha (konveyer) buyruqlarni bajarishga imkon beradi; markaziy protsessor va EHMLarning konveyerli-vektorli me'moriy tuzilmasi.

MIME

qisq.: Multipurpose Internet Mail Extensions

Internet elektron pochtasining ko'pmaqsadli kengaytmalari. Elektron pochta xabarları yordamida ikkilik axborotni uzatish uchun standart. RFC 2045-2049 da keltirilgan.

minikompyuter

ingl.: minicomputer

rus.: миникомпьютер

Ma'lumotlarga ishlov berish imkoniyatlari cheklangan kompyuter. Minikompyuterlar 1960-yillarning oxirida paydo bo'lgan. Asosiy kompyuterga qaraganda minikompyuter uzunligi kamroq bo'lgan so'zlar bilan ishlaydi, cheklangan tezkor xotira va nisbatan katta bo'lмаган tezlilikka ega. Shuning uchun minikompyuterlar asosiy kompyuterga qaraganda oddiyroq vazifalarni bajarish uchun qo'llaniladi. Biroq, asosiy kompyuter bilan solishtirganda minikompyuter arzonroq va kichikroq hajmga ega, hamda foydalanshi osonroq. «Minikompyuter» atamasi shaxsiy kompyuterlar yaratilishidan oldin paydo bo'lgan. Bugungi shaxsiy kompyuterlar esa 1980-yillardagi baza kompyuterlaridan ham ustunroq keladi. Shuning uchun ham mazkur atamaning ishlatalishi kamayib, ish stansiyasi va shaxsiy kompyuter tushunchalariga o'rIN bermoqda.

miniplata

ingl.: mini-card

rus.: миниплата

Kompyuter imkoniyatlarini kengaytiradigan mayda xotira qurilmasi. Miniplatalar turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilib qattiq disk yoki flesh-xotira qurilmalari vazifalarini bajaradi.

mintaqaviy hisoblash tarmog'i

ingl.: regional computer network

rus.: региональная вычислительная сеть

Hududi uzoqlashgan kompyuterlarni bir-biri bilan ularash natijasida hosil bo'lgan, ammo mahalliy bo'lмаган hisoblash tarmog'i. U kompyuterlarga dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, fayllar va h.k. ni birgalikda ishlatish imkonini beradi. Zamonaviy mintaqaviy hisoblash tarmog'i bir necha mahalliy tarmoqlarning aloqasi uchun xizmat qiladi. Bunday tarmoqlarning ko'pchiligi ma'lumotlarni uzatishda optik-tolali kabellarni, ajratilgan telefon liniyalarini yoki ultraqisqa to'lqinli radiokanalarni ishlatadi.

mintaqaviy tarmoq

ingl.: regional network

rus.: региональная сеть

Aksariyat hollarda, geografik tarqoq yirik tarmoq. U turli joylardagi kompyuterlarni

komunikatsiya vositalari bilan yagona yaxlit tarmoqqa birlashtiradi. Bitta tumanda, ko'plab binolarni qamrab olishi ham, davlat chegarasidan tashqariga chiqishi ham mumkin. Bir biri bilan bog'langan bir necha taqsimlangan, mintaqaviy tarmoq deyish o'rniqa, ko'pincha intertarmoq yoki tarmoqlar majmui deb ataladi.

MIPS

qisq.:

1. Million Instructions Per Second – Soniyada million buyruq. Protsessor ishlab chiqilgan protsessor me'moriy tuzilmasi.
2. MIPS me'moriy tuzilmasi. MIPS Technologies tomonidan ishlab chiqilgan protsessor me'moriy tuzilmasi.

MIS

qisq.: Management Information System

Boshqaruva axborot tizimi. Hisoblarni boshqarish va qaror qabul qilishni quvvatlash uchun mo'ljallangan axborot tizimi.

MISD

qisq.: Multiple Instruction, Single Data

Ko'rsatmalar to'plami, yagona ma'lumotlar. Markaziy protsessor me'moriy tuzilmasi, bitta operand yoki bir nechta operandalar ustidan bir takt davomida bir nechta (konveyer) buyruqlarni bajarishga imkon beradi; markaziy protsessor va EHM larning konveyer-vektorli me'moriy tuzilmasi.

Mitsubishi korporatsiyasi

ingl.: Mitsubishi corporation

rus.: корпорация Mitsubishi

Televizion va global tarmoqlar uchun apparaturani ishlab chiqaruvchi kompaniya. Mitsubishi kompaniyasi o'zining odatiy vazifalaridan tashqari Internet tarmog'iga ularishi mumkin bo'lgan televizorlarni taklif etadi. Ushbu televizorlar ichiga o'rnatilgan ko'rish muharririga ega bo'lib, WWW sahifalarini ko'rish va elektron pochtasi bilan ishlash imkonini beradi. Bundan tashqari, Mitsubishi RISC protsessorlari va xotira qurilmalarini ham ishlab chiqaradi.

MJPEG

qisq.: Motion JPEG

Harakatlanuvchi JPEG. Harakatlanuvchi tasvirlarga ishlov berish uchun zichlash usuli.

Harakatlanuvchi tasvir JPEG algoritmi yordamida zichlashtirilgan kadrlar ketma-ketligidan tashkil topgan.

MMC

qisq.: MultiMedia Card

Ko'ptashuvchi kartochkasi. MMC formatidagi kartochka katta bo'limgan o'lchamlarga - 24x32x1,4 mm ga ega. SanDisk va Siemens kompaniyalari hamkorligida yaratilgan. MMC xotira nazoratchisiga ega bo'lib har xil turdag'i qurilmalar bilan yuqori darajada uyg'unlasha oladi.

MMS

qisq.: Multimedia Messaging Service

Qisqa ko'ptashuvchi xabarlar bilan almashish xizmati, SMS va EMS dan farqli GPRS texnologiyasiga asoslangan. Xizmat to'la rangli rasm, fotosurat, kuy va hatto videoroliqlarni qabul qilish-uzatish imkonini beradi. Ularga biriktirib qo'yilgan grafik tasvirlar va kuylar («EMS» qaralsin) bilan matn xabarlar shaklidagi EMS-xabarlardan farqli, MMS texnologiyasi bevosita xabar matninga grafika va kuyni tirkashni nazarda tutadi. MMS-xabarни qabul qiluvchi bir vaqtning o'zida rasmni ko'rishi va kuyni eshitishi mumkin. EMSda matn, tovush va grafika bir vaqtning o'zida ishlatalishi mumkin emas. MMS-xabarlarini jo'natish-qabul qilish uchun MMSni nafaqat telefon aloqa, balki mobil aloqa operatori ham quvvatlashi zarur. Afsuski hozirgi kunda, MMS-xabarlarini ikki uyali aloqa operatorlari orasida jo'natish-qabul qilish amalga oshirilmaydi.

MMX

qisq.: MultiMedia eXtension

Ko'ptashuvchi uchun kengaytma, MMX buyruqlari yig'masi. Pentium protsessori uchun Intel firmasi tomonidan taklif qilingan 57ta qo'shimcha SIMD-ko'rsatmalar. MMXni ko'ptashuvchi-qo'llanmalar tomonidan ishlatalishi ularning ishini tezlashtiradi.

mnemonika

ingl.: mnemonic

rus.: мнемоника

Qisqa osonlik bilan eslanadigan so'z yoki qisqartma. U inson va kompyuter muloqotida buyruq sifatida ishlataladi. Masalan, «Ctrl»

tugmasi kompyuterning ba'zi amallarini boshqaradi. Bu yerda «Ctrl» - mnemonika, «Control» so'zining qisqartmasi.

MO

*qisq.: Magneto-Optical
Magnitooptikaviy.*

mobil agent

*ingl.: mobile agent
rus.: мобильный агент*

Ma'lumotlar bazalari bo'ylab axborot izlash maqsadida «o'rmalovchi» dastur. Mobil agent izlashni amalga oshirish lozim bo'lgan ma'lumotlar bazasiga ega tizimga o'tadi. O'rgimchak deb ham nomlanuvchi mobil agent faqat nimadir topilganda va o'z foydalanuvchisiga topilganni berish lozim bo'lganda tarmoqqa murojaat qiladi. Bitta tizim bazasida izlashdan keyin mobil agent boshqa abonent tizimiga o'tib, u yerda izlashni davom etishi mumkin. Mobil agentlar global bog'lanish xizmatida ayniqsa keng tarqalgan. Bu yerda mobil agentlardan foydalanish kerakli axborotni topish tezligini ancha oshiradi. Robotlar deb ham nomlanuvchi agentlar deyarli to'xtovsiz bog'lamalar bo'ylab «o'rmalab», ular tarkibini so'raydi va ularda mavjud axborotni tahlil qiladi.

mobil aloqa

*ingl.: mobile communications
rus.: мобильная связь*

Mobil aloqa yerusti tayanch stansiyasi va bir guruh abonent tizimlaridan iborat. Bunday yulduzsimon tarmoqda tayanch stansiyasi tizimlarning o'zaro ishlovchi juftlarini bog'lab yoki keng tarqatishni amalga oshirib ushbu tizimlarni uzib-ulash jarayonlarini ta'minlaydi. Katta mobil aloqa tarmoqlari ko'plab o'zaro bog'langan tayanch stansiyalaridan tashkil qiladi. Bunda harakatlanylarning obyekt bitta stansianing ish zonasidan ketma-ket boshqa stansiya zonasiga o'tadi. Bunday o'tish rouming deyiladi.

mobil banking

*ingl.: mobile banking
rus.: мобильный банкинг*

Bank hisob raqamidan simsiz erkin foydalanish texnologiyasidan (WAP bayonnomasi) foydalangan holda uyali telefon yoki portativ kompyuter (PDA) yordamida boshqarish.

mobil Internet

*ingl.: mobile Internet
rus.: мобильный Интернет*

WAP bayonnomasi asosida Internetdan simsiz erkin foydalanish texnologiyasi. Mobil aloqa tarmoqlarida so'rovlarni uzatish uchun ma'lumotlarni paketti uzatish xizmati GPRS (general packet radio servise) yoki CSD transport vazifasini bajarishi mumkin. Yuqori darajali xizmatni, ayniqsa biznesni samarali boshqarish mumkinligini ta'minlaydi.

mobil telefon

*ingl.: mobile phone
rus.: мобильный телефон*

Mobil aloqada foydalaniladigan telefon apparati turi. Mobil telefon asta-sekin kompyuter, faks apparati, telefon apparati, qaydlar kitobchasi vazifalarini bajaruvchi ko'p maqsadli abonent tizimiga aylanmoqda. Buning uchun apparat klaviatura va ekraniga ega.



mobil telefoniya

*ingl.: mobile telephony
rus.: мобильная телефония*

Ko'chma telefon qurilmalarini zamonaviy kundalik hayotga tadbiq etish. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, mobil telefoniysi zamonaviy insonlarning yashash va fikrash tarzidagi o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

mobil tijorat

*ingl.: mobile commerce
rus.: мобильная коммерция*

Mobil aloqa vositalari – uyali telefon, PDA – yordamida mahsulot va xizmatlarni sotib olish va sotish. Internet bilan bog'lanish uchun bunday tizimlarda WAP bayonnomasidan foydalaniladi.

mobil tizim

*ingl.: mobile system
rus.: мобильная система*

Harakatlanylarning bir-biri bilan o'zaro ishlashini ta'minlovchi kommunikatsiya tarmog'i xizmati. Mobil tizimlar yer usti va sun'iy yo'ldosh tarmoqlarida tashkil etiladi. Ular, shuningdek, uyali paketti radio tarmoqlarida, jumladan uyasimon raqamli paketti ma'lumotlardan foydalanganda ham keng qo'llilanadi. Natijada mobil aloqa tarmoqlari,

ya'ni harakatlanuvchan mobil aloqa tizimlari tashkil etiladi.

mobil treyding

ingl.: mobile trading

rus.: мобильный трейдинг

Investitsiya hisob raqamidan simsiz erkin foydalanish texnologiyasidan (WAP bayonnomasi) foydalangan holda uyali telefon yoki portativ kompyuter (PDA) yordamida boshqarish.

MOD

qisq.: Magneto-Optical Disk

qarang: magnit-optik disk

moddiy axborot tashuvchisi

ingl.: information storage device

rus.: материальный носитель информации

Axborotni yozish va saqlash uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan, ma'lum fizik xususiyatlarga ega modda.

model

ingl.: simulator

rus.: модель

Ma'lum obyektning muayyan tavsifnomalari va harakatlariga taqlid qilishni ta'minlovchi dastur yoki qurilma. Model o'rGANILAYOTGAN yoki yaratilayotgan obyektning tuzilishi va vazifalarini tavsiflaydi. Modellar ikki sinfga bo'linadi. Ularning birinchisi matematika usullari orqali ifodalangan obyektlarning taxminiy tavsifi bo'lmish matematik modellardan iborat. Ikkinci sinfga obyektlarni ularning ma'lum tavsifnomalari yoki xususiyatlari taqlid qiluvchi modellashtiruvchi qurilmalar bilan o'zgartirish orqali yaratiladigan fizik modellar kiradi. Masalan, fizik model yordamida bitta kompyuterning faoliyati boshqa kompyuterda taqlid qilinadi.

Informatikada tizim va tarmoqlarni boshqarish modellari muhim ahamiyatga ega. Yaratilayotgan tarmoqlarning arxitekturasini belgilovchi ochiq tizimlarning o'zaro ishlashining asosiy etalon modeli, ISDN etalon modeli, tizim obyektlari modeli keng tarqalgan.

modellashtirish

ingl.: simulation

rus.: моделирование

Obyekt harakatlarining ayrim tavsifnomalarini boshqa obyekt, masalan kompyuter yordamida

aks ettirish texnologiyasi. Modellashtirish turli xil obyektlar tahlilini ta'minlaydi: tarmoqlar, tizimlar, qurilmalar, jarayonlar. U yangi texnika namunalari va texnologiyalarni loyihalashtirish va ishlab chiqish hamda xodimlarni o'qitishda muhim vosita sifatida qo'llaniladi. Modellashtirishda kompyuterlar va boshqa hisoblash texnikasi vositalari keng qo'llaniladi. Modellashtirish odatda ishlab chiqishning asosidir. Uning asosida pastga yo'nalgan loyihalashtirish amalga oshiriladi.

modem

ingl.: modem

rus.: модем

«Modulyator-demodulyator»ning qisqartmasi. Ushbu qurilmaning ish tamoyilini belgilaydi: kompyuterdan olingan raqamli signalni uzatish uchun analog shaklga aylantirish va qabul qilingan signalni analog shakldan raqamli shaklga qaytarish. Modem signalning telekommunikatsiya kanallari bo'ylab uzatishni ta'minlaydi. Modem yordamida Internetda oddiy analog telefon tarmog'i orqali ishslash mumkin. Bunday modemlarning nazariy jihatdan eng ko'p erkin foydalaniш tezligi – 56 Kbit/s. Mazkur atama ba'zan tezkor kabel yoki DSL modemlari hamda ISDN terminal adapterlariga nisbatan qo'llanilsa ham, ushbu qurilmalarning barchasi texnik nuqtai nazardan ma'lumotlarning raqamli uzatilishini amalga oshirib modem hisoblanmaydi.

modem-dastur

ingl.: software modem

rus.: модем-программа

Modem vazifalarini bajaruvchi dastur. Kerakli dasturiy ta'minot kompyuterning «doimiy xotira qurilmasiga» yuklanadi. Modem-dastur modemga ko'ra qator afzalliklarga ega:

- modem apparati uchun zarur bo'lgan joy egallamaydi;
- narxi solishtirib bo'lmaydigan pog'onada arzon;
- energiya iste'moli kamroq;
- modemni yangilash oson.

modemlar to'plami

ingl.: modem pool

rus.: модемный пул

Modemlar to'plami. Foydaluvchi o'z terminalini ularshga ruxsat so'raganda ushbu

modemlarning bittasiga ulanadi va uni telefon tarmog'i orqali ma'lumotlar uzatish va olish uchun ishlataladi.

moderator

ingl.: *moderator*

rus.: *модератор*

1. Forum, teleanjuman va chatlarda qoidalarga rivoj qilishni nazorat qiluvchi yetakchi. Odatda teleanjuman qoidalari juda oddiy: spam, fleym va anjumanga tegishli bo'lmagan mulohazalar man etiladi. Moderator, zarur bo'lganda ishtirokchilarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rishi mumkin – tartibbuzarlarni ogohlantirishdan tortib ma'lum xabarlarini o'chirish yoki hatto ba'zi foydalanuvchilar uchun erkin foydalanishni man etishgacha.
2. Kataloglarda moderator –u yoki bu mavzu bo'limiga javobgar shaxs. U sayt mavzusi va katalog bo'limining mosligini tekshirib turadi. Ba'zan (agarda bu katalogda axborotni joylashtirish shartlari bilan belgilangan bo'lsa) moderator saytlar mazmuni bilan tanishib chiqadi.

Modula-2 tili

ingl.: *Modula-2 language*

rus.: *язык Modula-2*

Dasturlash tili. Pascal tilining muallifi Niklaus Wirth tomonidan ishlab chiqilgan. Wirth, Modula-2 tili 70- yillarda oxirida Pascal tili tanqidiga javoban yaratgan. Hususan, Modula-2 tili Pascal tilida bo'lmagan modullarni alohida kompilyatsiyalarini va ko'p vazifalikni quvvatlaydi. Modula-2 tili ilmiy muhitda qo'llangan bo'lishiga qaramay, qo'llanmalarni yaratishda ko'p foydalanilmaydi.

modulli arxitektura

ingl.: *modular architecture*

rus.: *модульная архитектура*

Birga bog'lanishi mumkin bo'lgan alohida tarkibiy qismlardan iborat xohlagan tizim dizayniga tegishli atama. Modulli me'moriy tuzilma afzalligi xohlagan tarkibiy qism (modul)ni qolgan tizimga ta'sir ko'rsatmasdan o'zgartirish yoki qo'shish mumkinligidadir. Modulli me'moriy tuzilmaning qarama-qarshi tarkibiy qismlar orasida aniq chegaralar bo'lmagan birlashgan me'moriy tuzilmadir.

modullik

ingl.: *modularity*

rus.: *модульность*

Qurilmaning turli vazifalarni bajaruvchi funksional bloklardan foydalanish orqali o'z imkoniyatlarini o'zgartirish xususiyati.

modulyatsiya

ingl.: *modulation*

rus.: *модуляция*

Bitta statsionar signalning boshqa signal shakliga ko'ra o'zgarishi jarayoni. Modulyatsiya ma'lumotlarni elektrmagnit nurlanish yordamida uzatishda amalga oshiriladi. Modulyatsiyaning asosiy usullari:

- a. Amplituda modulyatsiyasi olib boruvchi amplitudaning o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi.
- b. Chastota modulyatsiyasi 0, 1 signallari turli chastotalarga ega sinusoidlar shaklida uzatilishini nazarda tutadi.
- c. Faza modulyatsiyasida «bir»dan «nol»ga va «nol»dan «bir»ga o'zgartirilganda sinusoidal tashuvchi fazasi 180 ga o'zgaradi. Yuqori tezlikda ishlaydigan modermarda qo'llaniladi.
- d. Impuls-kod modulyatsiyasida analog signal qator impulslar sifatida kodlanadi. Kodlash-dekodlash qurilmalarida qo'llaniladi.
- e. Spektr modulyatsiyasidan foydalanganda tashuvchi chastotasi bo'yicha uchinchi, ya'ni kod signali bilan birgalikda modulyatsiyalarini. Harbiy texnika va paketli radio tarmoqlarida ishlatiladi.

MOE

qisq.: *Measure Of Effectiveness*

Samaradorlik mezoni.

mol belgisi

ingl.: *TradeMark (TM)*

rus.: *товарный знак*

qarang: tovar belgisi

MOLAP

qisq.: *Multidimensional OLAP*

Ko'po'lchamli OLAP, MOLAP texnologiyasi. OLAP-tizimlarida ma'lumotlarni saqlashni ya'ni, aynan ko'po'lchamli massivlar shaklida tashkil qilish.

moliya tizimi

ingl.: *financial system*

rus.: *финансовая система*

Moliyaviy hisob-kitob hisoblashlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan o'zarboq bog'liq uslublar va vositalar majmuasi. Moliya tizimi mijoz-server

arxitekturasidan foydalaniб, ma'lumotlardan global miqyosda erkin foydalanishni ta'minlaydi. Axborotga ishlov berishda «tuzilmalashtirilgan talabnomalar tili» SQL ishlataladi. Foydalanuvchilarning tizim bilan ishlashi, haqiqiy vaqt maromida yuz beradi. Moliyaviy ma'lumotlar serverlarda va mijozlarda joylashtiriladi. Ishda maxsus MB ishlataladi.

MOM

qisq.: Message-Oriented Middleware

O'rta qatlam dasturiy ta'minoti, xabarlarga ishlov berish uchun mo'ljallangan.

monitor

ingl.: monitor

rus.: монитор

1. Monitor kompyuterning tashqi qurilmasi. U displeyning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Monitor tizimda ro'y berayotgan jarayonlarning ekranida aks ettilishini ta'minlaydi. Monitor ba'zan display deb ham ataladi. Monitorlar yaratilish texnologiyasi, ekan hajmi, hal qilish qobiliyati bilan farq qiladi.
2. Operatsion tizimda – vazifalar bajarilishi, jumladan, dasturlarning kiritilishi va chiqarilishini boshqaruvchi dastur.
3. Dasturlash tillarida – resurslardan erkin foydalanishni tashkillashtiruvchi jarayonlarning o'zaro ishlashi va sonxronizatsiyasini ta'minlovchi yuqori pog'onali mexanizm.

monitoring

ingl.: monitoring

rus.: мониторинг

Tadqiqotlarni tashkillashtirish shakli. Bunda u yoki bu obyekt to'g'risida to'xtovsiz axborot kelib turishi ta'minlanadi.

monolog

ingl.: monologue

rus.: монолог

Foydalanuvchi yoki amaliy jarayonning o'ziga o'xshash foydalanuvchi yoki jarayonga darrov javob berishni talab qilmaydigan murojaati. Monolog darrov javob berishni talab qilmaydigan turli xil xabarlarni uzatish uchun mo'ljallangan. Monolog elektron pochtasi, faksimil aloqa bilan ta'minlanadi. Hozirgi kunda, ayniqa multimuhitdan foydalanilganda, nutq monologi keng tarqatilmoqda. Uni o'tkazish uchun nutq pochtasi maxsus

yaratilgan. Foydalanuvchi yoki dastur nutqi abonent tizimining tashqi xotirasida haqiqiy oluvchi tomonidan talab qilinmaguncha saqlanadi. Internet tarmog'i nutq monologini ta'minlovchi birinchi global tarmoqdir. Monolog muqobil mulqotdir.

monoxrom

ingl.: monochrome

rus.: монохромный

Bir rangli. Misol uchun, monitorlar monoxrom, oq-qora yoki rangli bo'lishi mumkin. Monoxrom monitorlar aslida ikkita rangdan foydalanadi, ularning bittasi display tasviri, ikkinchisi esa fon uchun ishlataladi. Grafik tasvirlar ham monoxrom, oq-qora yoki rangli bo'lishi mumkin.

Mosaic

WWWda hujjatlarni o'qishni osonlashtiruvchi qo'llamma. Dastlab Milliy superkompyuter qo'llammalari markazi (National Center for Supercomputing Applications, NCSA) tomonidan yaratilgan. Mosaic doimo bepul dastur sifatida tarqatilgan. Biroq 1994 yilda NCSA dasturning tijoriy rivojlantirilishini Spyglass kompaniyasiga berib yuborgan. Hozirgi kunda Mosaicning bir necha turi bor, ba'zilari bepul va ba'zilari pullik.

moslagich

ingl.: adapter

rus.: адаптер

qarang: adapter

Motorola korporatsiyasi

ingl.: Motorola corporation

rus.: корпорация Motorola

Telekommunikatsiya vositalari, tizimlar va integral sxemalarini ishlab chiqaruvchi kompaniya. Motorola kompaniyasi AQSHda 1928 yilda yaratilgan bo'lib, dastlab Galvin Manufacturing deb nomlangan. 1947 yilda nomini o'zgartirgan. O'z faoliyatini kuchlanish o'zgartirgichlar ishlab chiqarishdan boshlagan. Keyin radio qabul qiluvchilar, televizorlar, radioapparaturni ishlab chiqishga o'tgan. 1952 yilda Motorola yarimo'tkazgichlarni, 1960 yilda esa radio chaqirish qurilmalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. 1974 yilda Motorola o'zining birinchi mikroprotessorini ishlab chiqargan. Hozirgi kunda kompaniya

turli xil radioapparaturani ishlab chiqaradi – kichik hajmdagi radio chaqirish qurilmalaridan tortib yerusti yo'ldosh stansiyalarigacha.

Mozilla

Netscape brauzerining dastlabki nomi, endilikda u Navigator deb nomlanadi. Ba'zi odamlarning ta'kidlashicha atama Mosaic Godzilla (masalan, Mosaicning josusi) iborasining qisqartirilgan shaklidir, chunki Mosaic Netscape o'z mahsulotini rivojlantirishni boshlagan paytda eng ilg'or veb-brauzeri bo'lgan. Mozilla atamasi hanuzgacha ko'p veb dasturlashtiruvchilari tomonidan ishlatilib, foydalanilayotgan brauzerlarni aniqlovchi server log fayllarida paydo bo'ladi.

MP3

qisq.: MPEG-1 Audio Layer 3

MP3 tovushni zichlash texnologiyasi. Internetda tovushni zichlashtirish uchun ishlatiladigan eng mashhur format. MP3 tovushni kodlashning samarali sxemasini beradi, u tovush fayllarining hajmini 12 martagacha zichlashtiradi.

MPEG

qisq.: Moving Picture Experts Group

qarang: harakatlanuvchi tasvirlar sohasidagi ekspertlar guruhi

MPEG standartlari

ingl.: MPEG standards

rus.: стандарты MPEG

Filmalar, video va misiqa kabi audiovizual axborotni raqamli zichlash bilan formatga kodlash uchun mo'ljallangan standartlar oilasi. MPEG fayllari hajmi odatda ko'pchilik videofayllarga qaraganda kichikroq bo'lsa ham, sifati ularga yaqin. MPEG formatidagi fayllar .mpeg yoki .mpg nom kengaytmasiga ega.

MPEG-1

ISO/IES 11172 standartlari – videotasvir va/yoki tovush kodlash turi. U 1.5 Mbit/s (170 kB/c)li darajadagi ma'lumotlar oqimida tasvirni VHS (Video Home System) standart maishiy kassetali videmagnitofonga ham sifat bilan va stereofonik tovush hamrohligida uzatish imkonini beradi. Dastlabki tasvir - 352x240 pikselga, 30 kadt har soniyada teng. Standartga shuningdek, Si tilida koder va dekoderni dasturiy amalga oshirilishi ham kiradi.

Ma'lumotlar oqimining katta bo'Imagan tezligi videoaxborot tashuvchisi sifatida oddiy to'rtta yoki undan ortiq tezlikka teng bo'lgan CD-ROMni ishlatish imkonini beradi. MPEG-1 formatidagi disklarni odatda Video CD deb belgilanadi.

MPEG-2

ISO/IEC 13818 standarti – tasvirlarni (720x480 piksellar) formatida, audioaxborotni va ma'lumotlarni 28 Mbit/c (3.5 MB/c) oqimida yuqori sifatlari uzoqish u saqlash uchun kodlash standarti. Standart TV-kanallar to'plamini axborotdan erkin foydalanishni cheklash maqsadida shifrlash imkoniyati bilan bir vaqtning o'zida uzatishni nazarda tutadi. Audio ma'lumotlarni ko'pkanalli uzoqish imkon mavjud (MPEG-2 audiooqimining 2tasi MPEG-1 oqimiga teng kuchli). Bu format hozircha keng ishlatilmayapti, DVDni CD-ROM to'plagichlari bilan paydo bo'lishi uning tabbiq doirasini kengayishiga olib kelmoqda.

MPEG-3

Video va audioni MPEG yordamida kompresssiyalash algoritmining rejalanayotgan rusumi, hamda fayllar formati. MPEG-3ni HDTVni belgilashi uchun MPEG-2ning kengaytmasi sifatida ishlatish rejalanigan edi, biroq, oxir oqibatda u MPEG-2ga qo'shilib ketdi. MPEG-3ni MP3 bilan adashtirmaslik kerak, u audio formatni kodlashda taniqli bo'lgan MPEG-1 layer 3ning qisqartmasi xalos.

MPEG-4

ISO/IEC 14496 standarti Moving Picture Experts Group (MPEG) tomonidan ishlab chiqilgan. Bu tashkilot xuddi shunday MPEG-1 va MPEG-2larga ham standartlarni ishlab chiqqan. MPEG-4ni ishlab chiqish 1998 yilning oktabrida tugagan bo'lsa, u 1999 yildan boshlab standart bo'ldi. Videofayllarni zichlaydigan hozirgi kundagi mashhur format bo'lib hisoblanadi.

MPO

qisq.: Maximum Power Output
Eng katta chiqish quvvati.

MPP

qisq.: Massively Parallel Processing
qarang: ommaviy parallel ishlov

MPR

qisq.: MultiProtocol Routing

Ko'pbayonnomali yo'naltirish.

MPR-II

Monitorlar xavfsizligi standarti, Shvetsiya milliy o'lchash va testlash laboratoriysi tomonidan 1987 yili ishlab chiqilgan. 1990 yildan monitor ishlab chiqaruvchilar tomonidan quvvatlana boshlangan. Bu standart bilan monitordan 50 sm masofada eng katta urlanish darajasi 2.5 V/m o'rnatilgan.

MRP

qisq.: Material Resources Planning

Moddiy resurslarni rejalashtirish. Korxonani boshqarish uslubiyati, hamda uni quvvatlash uchun axborot tizimlari sinfi.

MS

qisq.:

1. Mobile Station – Mobil aloqa stansiyasi.
2. MicroSoft – Microsoft kompaniyasi.
3. Microprocessor System – Mikroprotsessor tizimi.
4. Memory Stick – Sony kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va quvvatlanayotgan xotira standarti. Kartochka o'lchamlari - 21,5x50x2,8 mm. Tanasi yetarlicha mustahkam. Shu kunda taqdim etilayotgan xotiralardan eng qimmatbahosi. Sony firmasi MS asosida bundan ham kichiklashtirilgan xotira modulini ishlab chiqdi, u Memory Stick Duo (MSD) deb ataladi va uning o'lchamlari 20x31x1,6 mm.

MSB

qisq.: Most Significant Bit

Katta xona qiymatlari biti.

MSDE

qisq.: MicroSoft Desktop [database] Engine

Stolusti kompyuterlari uchun Microsoft ma'lumotlar bazasining yengillashtirilgan rusumi.

MSDN

qisq.: MicroSoft Developer Network

Microsoft [maslagida] ishlab chiquvchilar uchun tarmoq. Microsoft mahsulotlaridan foydalanib dasturiy ta'minot yaratuvchilar uchun xilma xil mumkin bo'lgan axborot, maqola va texnik hujjatlarning to'plami.

MS-DOS operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: MS-DOS operating system

rus.: операционная система MS-DOS

Microsoft korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan operatsion tizim. MS-DOS ning bиринчи rusumi 1981 yilda paydo bo'lgan. Avvalambor, Microsoft kompaniyasi tomonidan IBM uchun ishlab chiqilgan MS-DOS, IBM - uyg'un kompyuterlar uchun standart operatsion tizimdir. MS-DOS 16-xonali operatsion tizimi bo'lib, u ko'pfoydalanuvchili va ko'pmasalali maromlarni qo'llab-quvvatlay olmaydi. Operatsion tizimning muhim xususiyatlardan biri mutaxassis bo'lmagan foydalanuvchilarga amaliy jarayonlarni bajarishning qulay shakllarini taqdim qilsa, mutaxassislarga dasturiy ta'minotni ishlash uchun yaxshi asos taqdim qiladi. MS-DOS kataloglar shajarasini tashkil qiladi, taraqqiy etgan buyruqlar tiliga ega. MS-DOS amaliy jarayonlar, fayllar va tashqi qurilmalar bilan samarali ishlay oladi.

MSIE

qisq.: MicroSoft Internet Explorer

Microsoft firmasining Internet sharhlovchisi.

MSIL

qisq.: MicroSoft Intermediate Language

Microsoft korporatsiyasining oraliq tili, MSIL tili. Dasturning dastlabki matni. .NET muhitida amalga oshirilishi uchun traslyatsiya qilinadigan til. Java tilining bayt-kodiga o'xshash.

MTA

qisq.: Message Transfer Agent

Xabarlar uzatish agenti.

MTBF

qisq.: Mean Time Between Failures

Radddiyalar orasidagi o'rtacha vaqt. Qurilmaning ishonchligi ko'rsatkichi.

MTS

qisq.: Microsoft Transaction Server

Microsoftning trazaksiya serveri. Microsoftning server mahsuloti, tranzaksiyalar monitori va obyektni so'rovlarining brokeri vazifalarini bajaradi. Xuddi shunday Viper shartli nomi bilan ham ma'lum.

MUA

qisq.: Mail User Agent

Foydalanuvchining pochta agenti. Počta agenti u dastur bo'lib, uning yordamida foydalanuvchi elektron pochtani o'qiydi va jo'natadi.

mualliflash

ingl.: *authorization*

rus.: *авторизация*

1. Huquqlarni berish. U erkin foydalanish huquqlari asosida erkin foydalanishga huquq berishni ham o'z ichiga oladi.

2. Foydalanuvchining resursdan erkin foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni.

3. Foydalanuvchiga hisoblash tizimida ba'zi ishlarni bajarish uchun muayyan huquqlarni berish.

mualliflik huquqi

ingl.: *copyright*

rus.: *авторское право*

1. (Obyektiv ma'noda) Ilmiy, adabiy va san'at asarlaridan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan aloqalarni boshqaruvchi fuqarolik huquqi bo'limi. Mualliflik huquqi tarkibiga milliy fuqarolik qonunchiligining tegishli me'yordi hamda mualliflik huquqini muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyalar me'yordi kiradi.

2. (Subyektiv ma'noda) Adabiy, ilmiy va san'at asarlariga tegishli shaxsiy nomoddiy va moddiy huquqlar to'plami. Shaxsiy mualliflik huquqlariga (muallif huquqlari) mualliflik huquqi, muallif nomiga bo'lgan huquq, asarning dahsizligi, moddiy huquqlarga esa asar mazmuni va shaklini aks ettirish, chop etish va sotishga yolg'iz huquqi va boshqalar kiradi. Moddiy mualliflik huquqlari musodara qilinishi va meros bo'lib o'tishi mumkin. Mualliflik huquqlari intellektual mulk obyektlari qatoriga kiradi.

mualliflik huquqini qo'riqlash nishoni

ingl.: *copyright symbol*

rus.: *знак охраны авторского права*

Asarning har bir nusxasida joylashtirilgan nishon. U uch elementdan iborat: 1) aylana ichida «C» lotin harfi; 2) alohida mualliflik huquqi egasining ismi (rasmiy nomi); 3) asar birinchi marta chop etilgan yil.

muammoga-yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasi

ingl.: *problem-oriented database*

rus.: *проблемно-ориентированная база данных*
Ma'lum tur (sinf)dag'i amaliy vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan mavzu bo'yicha bog'liq hujjat va/yoki ma'lumotlarga ega ma'lumotlar bazasi.

MUD

qisq.: *multi-user dimension*

garang: ko'p foydalanuvchili davra

muhandislik

mehnatini

kompyuterlashtirish

ingl.: *Computer-Aided Engineering (CAE)*

rus.: *компьютеризация инженерного труда*

Modellashirish, sxemotexnika va mahsulotlar sinashga oid muammoli masalalar yechadigan, kompyuterlashgan loyihalashning mustaqil sohasi.

muhofaza apparat vositalari

ingl.: *hardware protection means*

rus.: *аппаратные средства защиты*

Axborotni ruxsatsiz olish, ko'chirish, o'g'irlash yoki turlashdan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan mexanik, elektromexanik, elektron, optik, lazer, radio, radiotexnikaviy, radiolokatsion va boshqa qurilma, tizim va inshootlar.



muhofaza auditi

ingl.: *security audit*

rus.: *аудит защиты*

Ma'lumotlarga ishlov berish tizimi yozuvlari va resurslarining mustaqil tahlil va tadqiq qilinishi. U tizimni boshqarish vositalarining talablariga muvofiglagini tekshirish, ularning belgilangan xavfsizlik siyosati va amaliy vazifalarga mosligini kafolatlash, muhofaza tizimidan buzib erkin foydalanishni aniqlash va boshqaruv, xavfsizlik siyosati va tartiblarda muayyan o'zgarishlar bo'yicha tavsiyalar berish maqsadida amalga oshiriladi.

muhofaza faolligi

ingl.: *protection activity*

rus.: *активность защиты*

Texnikaviy razvedkalarda muhofaza mo'ljaliga ko'ra obyekt haqida ataylab noto'g'ri fikr tug'dirish hamda texnikaviy razvedkaning imkoniyatlarini sindirishni ko'zlayotgan muhofaza tamoyili.

muhofaza kafolati

ingl.: *protection assurance*

rus.: гарантия защиты

Axborotga ishllov berish texnik vositasi uchun mutanosiblik sertifikati yoki informatika obyekti uchui attestat mavjudligi. Bular ishllov berilayotgan axborot xafsizlik standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga javob berishini tasdiqlaydi.

muhofaza ma'muri

ingl.: protection administrator

rus.: администратор защиты

Avtomatlashtirilgan tizimni undagi axborotlardan ruxsatsiz erkin foydalanishdan muhofaza uchun javobgar subyekt.

muhofaza modeli

ingl.: protection model

rus.: модель защиты

Ruxsatsiz erkin foydalanishdan muhofaza qilishning dasturli-texnik vositalari majmui va/yoki tashkiliy choralarining mavhum (rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmagan) tavsifi.

muhofaza niyati

ingl.: protection plan

rus.: замысел защиты

Axborot va obyektni muhofazalash maqsadlariga erishish uchun asosiy g'oya. U bajariladigan tadbirlarning tarkibini, mazmunini, alaqadorligini va ketma-ketligini ochib beradi.

muhofaza obyekti

ingl.: protection object

rus.: объект защиты

1. Kirish nazorat ostida bo'lgan obyekt. Misollar – fayl, dastur, asosiy xotira sohasi; inson tomonidan yig'ilayotgan va quvvatlanayotgan ma'lumotlar.
2. Axborotni muhofazalash maqsadiga binoan axborotning muhofazasini ta'minlash zarur bo'lgan axborot yoki axborot tashuvchi, yoki axborot jarayoni.
3. Texnik razvedkadan muhofaza talab qilinadigan, axborotning barcha mavjudlik shakllari uchun umulashma atama. Tarkibiga ko'ra, muhofaza obyektlari yakka va guruhiy bo'lishi mumkin.

muhofaza obyektini shahodatlash

ingl.: attestation of protection object

rus.: аттестация объекта защиты

Sertifikatsiya organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan muhofaza obyekti axborot muhofazasi samaraliliga bo'lgan talab va me'yorni ta'minlash uchun zarur bo'lgan yetarli sharoitlar mavjudligini rasman tasdiqlash.

muhofaza pog'onasini sertifikatlash

ingl.: protection level certification

rus.: сертификация уровня защиты

Hisoblash texnikasi vositasi yoki avtomatlashtirilgan tizimning muhofaza bo'yicha ma'lum talablar to'plamiga muvofiqligini aniqlash jarayoni.

muhofaza tasniflagichi

ingl.: classification of protection

rus.: классификация защиты

Ma'lumotlar yoki axborotdan erkin foydalanishning zarur bo'lgan maxsus muhofaza darajasini aniqlash va shu muhofaza darajasini belgilash. Masalan, «o'ta maxfiy», «maxfiy».

muhofaza toifasi

ingl.: category of protection

rus.: категория защиты

Nozik axborotning noshajaraviy tasnifi. U ma'lumotlardan erkin foydalanishni faqatgina shajaraviy tasnif muhofazasiga nisbatan aniqroq boshqarish uchun qo'llanadi.

muhofaza vositalari majmui (MVM)

ingl.: trusted computing base

rus.: комплекс средств защиты

Dasturiy va texnik vositalar majmui. U hisoblash texnikasi vositalari yoki tizimlarini ruxsatsiz erkin foydalanish dan muhofazasini va pochta sohasi va telekommunikatsiya obyektlari muhofazasini ta'minlash uchun yaratiladi va quvvatlanadi.

muhofaza yo'nalishi

ingl.: protection profile

rus.: профиль защиты

Axborot muhofazasini ta'minlash vazifalarini belgilovchi hujjat. U funksional talablar atamalari va kafolatlanganlik talablari asosida tuzilgan.

muhofazadagi axborot

ingl.: protected information

rus.: защищаемая информация

Mulkdorlik predmeti bo'lgan axborot. U huquqiy hujjatr asosida yoki axborot mulkdori

tomonidan o'rnatilgan talablarga binoan muhofazalanishi zarur.

muhofazalanadigan axborot turlari

ingl.: protected information types

rus.: виды охраняемой информации

Muhofazalanadigan axborot quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- amaldagi qonunlar tomonidan but saqlanishi va olish osonligi ta'minlangan ochiq axborot;
- amaldagi qonunlar tomonidan but saqlanishi va pinhoniyligi ta'minlangan olinishi cheklangan axborot.

Muhofazalanadigan ochiq axborotga axborot resursarini tashkil qiluvchi hujjatlashtirilgan axborotlar kiradi. Olinishi cheklangan ma'lumotlarga davlat, xizmat (tijorat), bank, kasb yoki boshqa siri hisoblangan axborotlar kiradi. Axborotga sir statusini berish amaldagi qonunlar tomonidan belgilangan tartibda axborot xavfsizligi subyekti tomonidan bajariladi.

muhofazalangan elektron tranzaksiyalar

ingl.: Secure Electronic Transaction (SET)

rus.: защищенные электронные транзакции

Internet kabi ommaviy erkin foydalanish tarmoqlarida, kredit kartalar bo'yicha to'lovlar muhofazasi bayonnomasining nomi. Visa va MasterCard kompaniyalari tomonidan 1996 yili ishlab chiqilgan. Moliyaviy axborotning mahfiyligini va kelishuv qatnashchilarining autentifikatsiyasini ta'minlaydi.

muhofazalangan muhit

ingl.: protected environment

rus.: защищенная среда

Ma'lumotlarni va resurslarni tasodifiy yoki qasddan qilingan harakatlardan muhofazalashga alohida e'tibor (mualliflash, erkin foydalanish, tarkibiy tuzilmani boshqarish va h.k shakkarda) beriladigan muhit.

muhofazalangan umum foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i

ingl.: protected public switched telecommunications network

rus.: защищенная сеть телекоммуникаций общего пользования

Umumiyl foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmog'i. Qoidabuzarning har bir harakati (loyihalashda belgilangan to'plamga tegishli) yo belgilangan ehtimollik bilan yo'l

qo'yilmaydi, yo belgilangan ehtimollik bilan tarmoq vositalari bilan aniqlanadi Shu bilan birga tarmoqda, bu harakatlarning oqibatlarini belgilangan ehtimollik bilan bartaraf qilinadi. Ya'ni, foydalanuvchilarga xabar berish, ta'sir joyini ajratish, tarmoq ish qobiliyatini tiklash va foydalanuvchilar axborotini uzatish kabilarni ta'minlashga qaratilgan amallar ishga tushiriladi.

muhofazalanganlik

ingl.: security state

rus.: защищенность

Tizimning maxfiy axborotdan beruxsat erkin foydalanishga, uni soxtalashtirish yoki buzishga qarshi tura olish qobiliyat. Texnik muhofaza (yo'latmaslik xossasi) nuqtai nazaridan ham, maxfiylik darajasiga qarab ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan ham qaraladi.

muhofazalanmaganlik

ingl.: vulnerability

rus.: незащищенность

Ma'lumotlarni qayta ishslash tizimidagi muayyan zaiflikka aniq hujum uyuştirish mumkinligi.

M

muhofazani ma'muriy boshqarish

ingl.: protection management

rus.: административное управление защитой

Ishlab chiqarish faoliyati va subyektlarning o'zaro ishslashini me'yoriy-huquqiy asosda qat'iy belgilash. Bunda axborotlashtirish obyekti va ma'lumotlarni uzatish tarmog'ining kerakli muhofaza darajasini ta'minlash muhofaza bo'yicha me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

muhofazaning ma'muriy choraları

ingl.: administrative protection means

rus.: административные меры защиты

Xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish va uni yurgizish choralar. U muhofaza to'g'risidagi hujjatlar talablariga ko'ra faoliyat doiralarida (masalan, xavfsizlik siyosati va uni yurgizish bo'yicha hujjatlar yuritish, obyekt joylashish joyini tanlash, nazorat qilinadigan (tekshiriladigan) zonani tashkil qilish, turli tashuvchilardagi muhofaza qilish lozim bo'lgan ma'lumotlarga ega hujjatarni qayd qilish, saqlash va aylanish qoidalarini bajarish va h.k.).

muhofazaning uzlksizligi

ingl.: protection continuity

rus.: непрерывность защиты

Obyektning hayotiy siklining barcha bosqichlarida (ishlab chiqish, yaratish yoki qurish, sinovdan o'tkazish, foydalanish va utilizatsiya qilish) muhofazasini tashkil qilishdan iborat muhofaza tamoyili.

multimedia

ingl.: multimedia

rus.: мультимедиа

inglizchadan olingan: multi – ko'p va media – tashuvchi, muhit

1. Axborotni turli shakldagi tashuvchilar bo'lmish tovush, tasvir va matnlar birikmasi.
2. Vizual va audio effektlarning o'zaro muloqotli dasturiy ta'minot boshqaruvida birgalikda nomoyoi bo'lishi. Odatda bu matn, tovush va grafikaning, so'nggi vaqtlardara esa – animatsiya va videoning ham birlashishini bildiradi. Multimedia veb bog'lamalari va ixcham diskarning tavsifli, agar eng muhim bo'imsa, xususiyatlari – gipermurojaatlardir.
3. Videotasvir va tovush bilan ishlash uchun apparatli va dasturiy vositalar majmui. Multimediaga ega kompyuterlar odatda kuchli videotozimga, videomagnitofon va videokameralarni qo'shish imkoniyatiga, tasvirni ushslash va uni raqamli shaklda qattiq magnit diskka yozishning apparatli vositalari, tasvirni ustiga qo'shish vositalariga ega. Shuning bilan bir qatorda, ular tovushni aks ettirish va uning sintezi uchun tovush platasiga, axborotni ixcham diskdan o'qish uchun uzatmaga, akustik tizimni qo'shish imkoniyatlariga egadir.
4. Xohlagan turdag'i ma'lumotlarni majmuaviy tarzda taqdim etish texnologiyasi. Multimedia birgalikda tasvirlarga ishlov berish, nutqni qayta ishlash va hujjalarga ishlov berishni ta'minlaydi. Bu ekranga tasvirni mant va tovush bilan birgalikda chiqarish imkonini beradi. Multimedianing muhim yo'nallishlaridan biri o'rgatuvchi tizimlarni yaratishdir. Bu foydalanuvchining multimediali faol ishlashda ishlatalayotgan axborotning 75 foizini eslashi bilan bog'liq. Faqat eshitilgan axborotdan esa foydalanuvchi 25 foizinigina eslab qolishi mumkin.

multimedia tarmog'i

ingl.: multimedia network

rus.: мультимедийная сеть

Kanallar bo'yicha turli shakldagi foydalanish axborot (matn, tovush, video va h.k.)ni tashish uchun mo'ljallangan tarmoq.

multimedia vazifalari

ingl.: multimedia functions

rus.: мультимедийные функции

Videoni raqamli filtrlash va mashtabga solish, videoni apparatli raqamli zichlash va yoyish, uch o'lchamli grafika (3D) bilan bog'liq grafik amallarni tezlashtirish, jonli videoni monitorga chiqarish, kompozitli video chiqishga ega bo'lish, TV signalini monitorga chaqirish.

multimedia shaxsiy kompyuteri

ingl.: multimedia personal computer

rus.: мультимедийный персональный компьютер

Multimedia PC Council ta'rifiga ko'ra, hozirgi kunda yaxshi tezkor xotira hajmi, katta qattiq disk, CD-ROM qurilmasi, raqamli tovushni qullab-quvvatlash tizimiga ega shaxsiy kompyuter multimedia shaxsiy kompyuteri hisoblanadi.

multipleks shinasi

ingl.: multiplexed bus

rus.: мультиплексная шина

Bir xil liniyalar bo'yicha ma'lumotlar uzatiluvchi va boshqaruv amalga oshiriladigan shina.

multiplekslash

ingl.: multiplexing

rus.: мультиплексирование

Multiplekslash bitta fizik kanalni kanallar guruhi bilan bog'lash imkonini beradi. Multiplekslash natijasida bitta fizik kanalda mantiqiy kanallar guruhi tashkil etiladi. Multiplekslashga teskari amal filtrlash orqali amalga oshiriladi.

multipleksor

ingl.: multiplexer

rus.: мультиплексор

Bir necha tor polosali (past tezlikli) kommunikatsiya kanallarini keng plosali (broadband) yoki yuqori tezlikli kanalga yig'uvchi elektron qurilma.

multiplikatsiya

ingl.: animation

rus.: мультипликация

(lotincha «multiplicatio» – «ko'paytirish») Harakatlanuvchi tasvirlarni modellashtirish

jarayoni. Harakatlanuvchi tasvir soxta tasavvurini yaratadi. U tasvirlarni tez almashtirishga asoslangan. Axborot tizimida multiplikatsiya bir necha yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin. Ulardan biri faqat «harakatlanishi» lozim bo'lgan jihatlari farq qiluvchi ko'plab tasvirlarni chizishdan iborat. Ikkinci yo'l ekranni boshqarish dasturlaridan foydalanishi nazarda tutadi. Ular yordamida boshlang'ich va oxirgi mo'ljal punktlari belgilash orqali tasvirning ketma-ket o'zgarishi amalga oshiriladi. Bunda kompyuter tomonidan tasvirlarni yaratish tezligi ko'rsatish tezligidan ancha past bo'lishi mumkin. Bunday holatda tasvirlar ekranga chiqarilishidan oldin xotirada to'planadi. Harakat soxta tasavvurini yaratish uchun ekranga soniyasiga kamida 16 tasviri chiqarish lozim. Televide niye standarti soniyasiga 25 tasvirda teng tezlikni belgilaydi.

MUMPS

qisq.: Massachusetts general hospital Utility Multi Programming System

MUMPS operatsion tizimi, MUMPS tili. Dasturlash tili o'z ichiga o'rnatilgan shajaraviy ma'lumotlar bazasini qo'llashga mo'ljallangan operatsion tizim.

murojaat

ingl.: link

rus.: ссылка

qarang: gipermurojaat

murojaatlar halqasi

ingl.: webring

rus.: кольцо ссылок

O'xshash mavzudagi veb-sahifalarni birlashtirish. Bu esa tashrifchiga halqaning ixtiyoriy saytlaridan uni qiziqfirayotgan mavzu bo'yicha boshqa saytlarni yengillik bilan topishga imkon beradi. Halqaning yaratilishi resurslarni birlashtirishga yordam beradi hamda foydalanuvchilarga kam vaqt sarf qilib ko'p axborot olishga imkon beradi. Halqaning har bir saytini birinchi sahifalarida avvalgi saytga, keyingi saytga va halqa saytlarining to'la ro'yxatiga murojaat mavjud. Tashrifchi, ixtiyoriy saytga kirib, butun halqa bo'ylab osonlik bilan «sayohat» qilishi mumkin.

murojaatlar monitori

ingl.: reference monitor concept

rus.: монитор ссылок

Erkin foydalanish nazorati tamoyillari. U subyektlarning obyektlardan erkin foydalanish urinishlarini ajratuvchi mavhum mashina tushunchasiga asoslangan. Xavfsizlik o'zagi shaklida amalga oshiriladi.

musiqa tizimi

ingl.: musical system

rus.: музыкальная система

Ixtisoslashtirilgan abonent tizimi U musiqa asarlarini yaratish, ishlov berish va ijro etish uchun mo'ljallangan. Kompyuterga tashqi qurilmalar, ya'ni maxsus klaviatura, mikrofonlar, karnaylar va tegishli dasturiy ta'minotning qo'shilishi orqali yaratiladi. Tizim imkoniyatlari ishlab chiqaruvchilarga ma'lumotlarni taqdim qilishning turli shakllaridan foydalanish imkonini beradi. Musiqa asari bilan ishlab, foydalanuvchi uning tarkibiy qismlarini kesib olish, nusxa olish, qo'shish, tozalash amallarini bajaradi. Musiqa tizimlari uchun musiqa qurilmasi interfeysi belgilangan va «standart musiqani tavsif qilish tili» SMDL yaratilgan.

mutlaq URL manzil

ingl.: absolute URL-address

rus.: абсолютный URL-адрес

Internetda sahifa yoki boshqa resurs manzili. Mutlaq URL manzil tarkibi bayonnomadan, masalan, "http"dan, tarmoqda joylashuvi, hamda qo'shimcha yo'l va fayl nomidan iborat. Masalan, <http://www.gov.uz/> mutlaq URL manzilidir.

muvaqqat kriptotizim

ingl.: cryptosystem with temporarily disclosure

rus.: криптосистема с временным раскрытием

Muhofazalangan xabarni berilgan vaqt oralig'i o'tgandan so'ng, shifrini ochishga imkon beradigan kriptografik tizim. Hozirgi kunda, bunday tizimlarni amalga oshirishning ikki turi mavjud:

- vaqtinchalik qulfli Sharadalar;
- o'ziga, berilgan vaqt oralig'ida axborotni ochmaslik majburiyatini oladigan ishonchli vakillarni ishlatishtash.

muvaqqat qulfli jumboqlar

ingl.: charades with temporarily lock

rus.: шарады с временным замком

R. Rayvest, A. Shamir va D. Wagner tomonidan taklif qilingan, vaqt mobaynida ochiladigan

kriptografik tizim. «Jumboq « ning murakkabligi yechishga sarf qilinayotgan hisoblash resurslariga bog'liq. «Jumboq « ni qurishda asosiy masala – algoritmi tanlashdir. Algoritmning samaradorligi amalga oshirishning turiga bog'liq bo'lmay, hisoblashlarda tamomila paralellashtirishning iloji bo'lmasligi kerak.

muvofiglash

ingl.: authentication

rus.: аутентификация

qarang: autentifikatsiya

MVC

qisq.: Model-View-Controller

Model-Turi-Kontroller, MVC qolipi. Foydalanuvchi interfeysi obyektlari (View) ma'lumotlar obyektlaridan (Model) butunlay ajratilgan bo'lib, faqat vositachi (Controller) orqali o'zaro ishlaydigan obyektga yo'naltirilgan dasturlashning qolipi.

MVS

qisq.: Multiple Virtual Storage

MVS operatsion tizimi. IBM firmasining S/360 EHM uchun operatsion tizimi.

MX

qisq.: Mail eXchange [record]

Pochta orqali almashish. DNS-serverning ma'lumotlar bazasidagi yozuv. Unda pochta xabarlariga ishlov beradigan kompyuter manzili bor.

mo'yqalam

ingl.: brush

rus.: кисть

qarang: elektron mo'yqalam.

Nn

NAK

qisq.: Negative Acknowledgement

Radiya haqida bildirish.

N-AMPS

qisq.: Narrowband Advanced Mobile Phone Service (xuddi shunday NAMPS ham). Torno‘l-yo‘lli AMPS, N-AMPS standarti. AMPS analog uyali aloqa standarti raqamli signallni axborot bilan birgalikda qo‘shilgan. Oddiy AMPSga nisbatan tarmoq hajmini uch baravar ortirishga va xabarlar bilan almashiga imkon beradi.

namunaviy uzatish kanali

ingl.: standard transmission channel

rus.: канал передачи типовой

Parametrlari qabul qilingan me’yorlarga javob beruvchi uzatish kanali.

NAS

qisq.: Network Access Server

Tarmoqli kirish serveri.

NASA

qisq.: National Aeronautics and Space Administration

Aeronavtika va kosmos bo‘yicha milliy boshqarma (AQSH). AQSH kosmik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi davlat tashkiloti.

NASDAQ

qisq.: National Association of Securities Dealers Automated Quotation

1. Fond dillerlari milliy uyushmasining (AQSH) kotirovkalar uchun avtomatlashtirilgan tizimi.
2. Aksiyalar ulkan kompyuter tarmog‘i orqali elektron tarzda savdo qilinayotgan birja. Uning aksi, masalan, savdo-sotiq ma’lum joyda o’tkazilayotgan Nuu-York Fond Birjasidir.

NAT

qisq.: Network Address Translation

Tarmoq manzillari translatsiyasi. Manzilni ichki tarmoqdan tashqi tarmoq (Internet) manziliga aylantirish. Xavfsizlikni oshirish va jalb qilingan oshkora IP- manzillar sonini kamaytirish uchun, korxonalar ichki

tarmoqlarida odatda maxsus oshkora Internetda uchramaydigan manzil to‘plamlari ishlataladi, masalan, 10.x.x.x, 172.16.x.x, 192.168.x.x. NAT texnologiyasi yordamida ichki tarmoq so‘roviga ko‘ra juftlik (manzil, port) (oshkora manzil, port 2) juftlikka aylantiriladi. Bu ichki tarmoqning bir necha xostlariga bitta oshkora IP- manzilni portlarning turli tartib raqamlarini birgalikda baham ko‘rishga imkon beradi. Shu bilan birga, ichki tarmoq xosti bilan Internetdagagi xost tashabbusi bilan ulanish o‘rnatilmasligi mumkin. NATning ishi batafsil RFC 3022da yoritilgan.

navbatlar nazariysi

ingl.: queues theory

rus.: теория очередей

qarang: ommoviy xizmat nazariyasi

navigatsiya

ingl.: navigation

rus.: навигация

Ko‘chish, harakatlanish. Internetga tegishli ravishda ishlatalganda sahifadan sahifaga o‘tishni, ya’ni ularning ketma-ket ko‘rilishini bildiradi.

nazorat jurnali

ingl.: control journal

rus.: контрольный журнал

qarang: audit jurnali

nazorat nuqtasi

ingl.: checkpoint

rus.: контрольная точка

Ma’lumotlarga ishllov berish jarayonini mo‘tadil to‘xtatib va qayta boshlash mumkin bo‘lgan dasturning nuqtasi. Nazorat nuqtalarining mayjudligi, to‘xtashlar va xatolar yuzaga kelganda dasturni nazorat qilish, uni boshidan emas, balki oxirigi nazorat nuqtasidan qayta ishga tushirish imkonini beradi. Shuningdek, nazorat nuqtasida, oraliq natijalarni Chop etish ham mumkin.

nazorat qilinadigan erkin foydalanish tizimi

ingl.: controlled access system

rus.: система контролируемого доступа

Fizikaviy erkin foydalanishni nazorat qilish uchun avtomatlashtirish vositasi. Misol – magnit yo‘lli jetonlar, tafakkur kartalari,

biometrik tavsifnomalarni o‘qish qurilmalaridan foydalanish.

nazorat yig‘indisi

ingl.: *checksum*

rus.: *контрольная сумма*

Ma‘lumotlar blokining oxiriga yoziladigan bitlar ketma-ketligi. U blok uzatilgandan so‘ng xato paydo bo‘lgan bo‘lmaganligini aniklaydi. Buning uchun blokning tanasidagi 0,1 raqamlari blokni uzatishdan oldin argument sifatida, qabul qilingan formulalar bo‘yicha hisoblanadi. Buning natijasida, hosil bo‘lgan funksiya nazoratlovchi yig‘indi bo‘ladi. Ma‘lumotlar blokini uzatilgandan so‘ng bu amal takrorlanadi. Agar ikki funksiya bir xil bo‘lsa, xato yo‘q deb hisoblanadi. Aks holda, blokda bir yoki undan ortiq xato paydo bo‘lgan deb hisoblanadi

nazoratchi

ingl.: *controller*

rus.: *контроллер*

Ixtisoslashgan protsessor. Uning yordamida kompyuterga tashqi qurilmalar ulanadi. Dastlab, nazoratchilar kompyuterini kiritish-chiqarish qurilmalari, masalan, monitorlar, displeyler, chopetgichlar bilan o‘zaro muloqatini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan edi. So‘ngra, bevosita xotiraga, tashqi xotiradan erkin foydalanishni ta‘minlaydigan qurilmalarni nazoratchi deb atay boshladilar. Mahalliy tarmoqlarning paydo bo‘lishi bilan, ularidan erkin foydalanish bloklarini ham nazoratchilar deb atadilar. Nazoratchining vazifasiga ma‘lumotlar oqimini ularning oxirini o‘zgartirmay boshqarish kiradi. Nazoratchi, kompyuterga qo‘yiladigan yoki tashqi qurilmaga ulanadigan ko‘rinishda ayrim qurilma yo‘plata sifatida tayyorlanadi.

NCR

qisq.: *National Cash Register company*

NCR kompaniyasi. NCR kompaniyasining faoliyati yo‘nalishlaridan biri – yuqori samaradorli kompyuter tizimlarini ishlab chiqish.

NCSA

qisq.: *National Center for Supercomputing Applications*

Superkompyuterlar uchun qo‘llanmalar bo‘yicha milliy markaz (AQSH).

NDIS

qisq.: *Network Driver Interface Specification*

Tarmoq drayverining interfeysi spetsifikatsiyasi. Shaxsiy kompyuterlar tarmoq moslagichlarini bir xil shaklga keltirish uchun Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan spetsifikatsiya.

NDS

qisq.: *Novell Directory Services*

Novell firmasining kataloglar xizmati.

NEC korporatsiyasi

ingl.: *NEC corporation*

rus.: *корпорация NEC*

Dunyoda kompyuterlar va elektronika mahsulotlari bo‘yicha eng yetakchi ishlab chiqaruvchilardan biri. NEC (Nippon Electronic Corporation) yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarish sohasida Intel kompaniyasidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. NEC apparatlari ta‘minoti ishlab chiqaradi, turli xil kompyuterlar, uy kompyuterlari, jumladan ko‘pmuhitli kompyuterlarni, ixcham shaxsiy kompyuterlarini va ular uchun xotira qurilmalarini yaratadi. Yaponiyaning shaxsiy kompyuterlar bozorining yarmini egallaydi.

NEST operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: *NEST operating system*

rus.: *операционная система NEST*

Novell korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan sodda, ichiga joylashtiriladigan operatsion tizim. « Novell ichiga joylashtirilgan texnologiyalar tizimi « NEST konsepsiadir. Unga ko‘ra, printer, faks-apparat va texnologik jarayonlarning bergichlari, monitorlar va boshqa kuchli protsessorga yoki diskka ega bo‘laman qurilmalar, maxsus ichiga joylashtirilgan voqeiy vaqtli operatsion tizim tufayli mahalliy tarmoqqa ulanadilar.

netiket

ingl.: *netiquette*

rus.: *нетикет*

Internet+Etiket=Netiket. Internet etiketi (odobahloq qoidalari). Internet “voqeiy hayotda” amal qiladigan qonunlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan hollardan tashqari qonunlar bilan deyarli rostlanmaydi. Biroq, Internet hamjamiyatining ko‘pincha vebmaster va foydalanuvchilar amal qiladigan ba‘zi an‘ana va madaniyati mavjud. Ushbu yozilmagan

qonun netiket, ya’ni “tarmoq etiketi” (net – tarmoq) deb nomlanadi.

Netscape Communications korporatsiyasi

ingl.: Netscape Communications corporation

rus.: корпорация Netscape Communications

Tarmoq uchun dasturiy ta’mot yaratish bilan shug’ullanuvchi kompaniya. 1994 yilda James H. Clark va Marc Andreessenlar tomonidan yaratilgan va AOL kompaniyasi tomonidan 1999 yilda sotib olingan. Kompaniya bepul Netscape veb-brauzerini chiqarib bozorda inqilob qilgan. Netscapening boshqa ishlasmalari qatoriga Live Media ma’lumotlarni haqiqiy vaqtida uzatish me’moriy tuzilmasi, Java texnologiyasi, LiveScript yazylsiz szenariylar tili va Java Script tili kiradi.

Netware operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: Netware

rus.: операционная система Netware

Novell (Orem sh., Yuta, AQSH) kompaniyasining mahalliy tarmoqlar uchun mo’ljallangan juda mashhur operatsion tizimi. Netver alohida amaliy tizim bo’lib, o’z ichiga periferiya (fayl serverlari, printerlar, modemlar va h.k.) va foydalanuvchilarni ham oladi. Netver DOS, OS/2 yoki Windows bo’lmasa-da, ular ko’rinishida bo’lib ular kabi ishlay oladi. Bu xususiyat Netverni mashhur qiluvchi afzallikklardan biridir.

news bayonnomasi

ingl.: news protocol

rus.: протокол news

Yangiliklar guruhlaridan fayllarni olish uchun mo’ljallangan Internet bayonnomasi ([news://](#)).

NeXT Software korporatsiyasi

ingl.: NeXT Software corporation

rus.: корпорация NeXT Software

Obyektga-yo’naltirilgan me’moriy tuzilma dasturlarini yaratish bilan shug’ullanuvchi kompaniya. AQSHda 1985 yilda yaratilgan NeXT_Software kompaniyasi turli ishlab chiqaruvchilarning apparatli maslaklarini qo’llab-quvvatlovchi NextStep obyektga-yo’naltirilgan muhiti yaratgan.

neyroringistik dasturlash

ingl.: neurolinguistic programming

rus.: нейролингвистическое программирование

So’z orqali ishontirishning alohida shakkllari yordamida insonlar ichki ongiga manipulyativ ta’sir ko’rsatish uslubi. Bunda insonlarda yetarli darajada mustahkam psixologik ko’rsatmalar paydo bo’lib, ular keyinchalik muayyan harakatlarga undashi mumkin. Internet orqali amalga oshirilishi mumkin.

neyron kompyuteri

ingl.: neural computer

rus.: нейронный компьютер

Bir-biriga bog’langan elektron neyronlar tarmog’idan tuzilgan kompyuter turi. Ushbu mashinalar o’rganish uchun yaratilgan va dasturlashtirish uchun yaratilmagan. Dizayni va faoliyati bo’yicha ular inson miyasiga o’xshaydi. Miyadagidek, neyronlar bir-biriga minglab moslashtiriladigan kanallar orqali signallar jo’natadi. O’rganish jarayoni davomida mashina kanallarni sozlaydi. O’zini sozlangandan keyin mashina yozuv yoki ovozni tushuna oladi.

N

neyron tarmog’i

ingl.: neural network

rus.: нейронная сеть

Bir-biri bilan o’zaro ta’sirda bo’lgan nerv hujayralari yoki ularning harakatlарини modellashtirayotgan tarkibiy qismlardan tashkil topgan tarmoq. Neyron tarmoqlari sun’iy intellektda inson miyasi faoliyatini modellashtirish uchun o’rganiladi. Ushbu tarmoq miya kabi ko’pgina kiruvchi signallaridan parallel tarzda ta’sirlanuvchi bir-biriga bog’langan neyronlardan tashkil topgan. Odatda neyron tarmog’i avvalo ko’p hajmdagi ma’lumotlar yoki ma’lumotlarning o’zaro bog’liqligi qoidalariini o’rganadi (masalan, «Bobomning yoshi otamnikidan katta»). Neyron tarmog’i avvalgi boy tajriba bazasiga ega bo’lganda asosan samaralidir. Neyron tarmoqlari sohasiga 1950-yillarda Stenford Universiteti vakili Bernard Vidrou asos solgan. Neyron tarmoqlari ovozni tanish, tasvirlarni aniqlash tizimlari, sanoat robotlari, aeronavtika, ma’lumotlarni olish va boshqa sohalarda qo’llaniladi.

NFA

qisq.: Deterministic Finite Automaton

Aniqmas chekli avtomat.

NFB

qisq.: Negative FeedBack
Manfiy teskari aloqa.

NFS

qisq.: Network File System

Tarmoq fayl tizimi, NFS bayonnomasi. Fayl tizimidan erkin foydalanish bayonnomasi, tarmoq orqali fayl tizimlarni o'rnatish imkonini beradi. Sun Microsystems korporatsiyasi ishlab chiqqan. NFS asosida RPC bayonnomasi yotadi. NFSning 3 rusumi spetsifikatsiyasi RFC 1813da, 4 rusumi spetsifikatsiyasi RFC 3010 da keltirilgan.

NGIO

qisq.: Next Generation Input/Output

Kiritish-chiqarish uchun spetsifikatsiyaning keyingi avlodni.

NGN

qisq.: Next Generation Network

Yangi avlod tarmog'i. Aloqaning yangi turi, video-telefoniya, video-Internetni, tezkor axborot resurslari texnologiyalarini quvvatlaydi.

Niderraytera kriptotizimi

ingl.: Nideraiter's cryptosystem

rus.: криптомосистема Нидеррайтера

Xatolarni tuzatish kodlariga asoslangan kriptotizim. 1986 yili G. Niderrayter tomonidan taklif qilingan.

nik

ingl.: nickname

rus.: ник

Tarmoq foydalanuvchisi odatda chatlar, yangilik guruhlarida, elektron pochtasida ishlataligan taxallus, haqiqiy bo'lmagan ism. Odatda nik turli xil qayd yozuvlarida foydalanuvchi nomi sifatida ishlataladi.

nitmarmoq

ingl.: subnetwork

rus.: подсеть

Tarmoq qismi.

nintizim

ingl.: subsystem

rus.: подсистема

Tizim qismi.

niqoblash

ingl.: masking

rus.: маскировка

Obyektni jinoyatkorlar uchun kirib bo'lmaydigan (ko'rinnmaydigan) yoki undan erkin foydalanishi murakkablashtiruvchi harakatlarni bajarishga asoslangan obyektlarni muhofaza qilish uslubi.

NIS

qisq.: Network Information Service

Tarmoq axboroti xizmati, NIS bayonnomasi. Unix operatsion tizimi oilasida, foydalanuvchilar ma'lumotlar bazasidan, tarmoq xizmatlari ro'yxatidan erkin foydalanish bayonnomasi.

nisbatlar

ingl.: proportions

rus.: пропорции

Kompyuterlar displaylari va rasmarda rasm enini bo'yiga bo'lgan nisbati. Masalan, 2:1 nisbati rasm eni uning bo'yidan ikki baravar kattaligini ko'rsatadi. Rasmni veb-sahifa kabi boshqa hujjatga qo'shish paytida nisbatini saqlash katta ahamiyatga egadir.

NIST

qisq.: National Institute of Standards and Technology
Standartlar va texnologiyalar milliy instituti.

nishon

ingl.: cursor

rus.: курсор

qarang: kurstor

NL

qisq.: Natural Language

qarang: tabiiy til

NLM

qisq.: Netware Loadable Module

NetWare operatsion tizimi yuklanadigan moduli.

NLP

qisq.: Neuro-Linguistic Programming

Neyro-lingvistikaviy dasturlash, NLD. Maxsus hisoblangan og'zaki ta'sir yordamida odamlarni o'qtishni tezlatish va ularning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish imkonini beradigan uslub.

NLQ

qisq.: Near Letter Quality

Deyarli bosmaxona sifati.

NMT

qisq.: Nordic Mobile Telephone

Skandinaviya mobil telefoni. 400 va 450 MGs chastotalardagi uyali telefon aloqasining analogli standarti, Yevropada keng tarqalgan. Raqamli standartlar tomonidan siqib chiqarilmoqda.

NNI

*qisq.: Network-to-Network Interface
garang: tarmoqlararo interfeys*

NNTP

qisq.: Network News Transfer Protocol

Yangiliklar uzatishning tarmoq bayonnomasi, NNTP bayonnomasi. Usenet yangiliklar guruhida xabarlarni uzatish uchun foydalilanligan bayonnomasi. UUCP bayonnomasi o'rniga yaratilgan.

nomlarning domen tizimi

ingl.: domain name system

rus.: доменная система имен

Internet kabi tarmoqlarning har bir bog'lamasiga noyob nom berishning shajaraviy tizimi. Nom subdomenlardan, ya'ni chapdan o'ngga o'suvchi shajara darajalarini bildiruvchi nuqtalar bilan ajratilgan qismlardan iborat. Nomda istalgancha domenlar soni bo'lishi mumkin, biroq odatda ularning soni beshdan oshmaydi. Har bir domen ma'nosini tegishli shajara darajaga javobgar shaxslar tomonidan tasdiqlanadi. Masalan, cmp.ctd.unv.reg.ru nomidagi cmp elementi voqeiy kompyuter nomidir. Ushbu nom kompyuter joylashgan kafedra (ctd) darajasida yaratilgan. O'z navbatida, kafedra Rossiyada (ru) joylashgan hududiy (reg) kompyuter tarmog'iga ulangan universitetga (unv) tegishlidir. Nomlarning domen tizimi kompyuterlarni ma'lumotlar almashuvini ta'minlash uchun IP manzillariga aylantiriluvchi so'zlardan iborat nomlar bo'yicha yo'llash uchun qo'llaniladi.

Nortel korporatsiyasi

ingl.: Nortel corporation

rus.: корпорация Nortel

Kommunikatsiya tarmoqlari uchun jihozlarni ishlab chiqaruvchi kompaniya. AQSHda yaratilgan Nortel (Northern Telecom) kompaniyasining birinchi tuzilmalari 1874 yilda tashkil topgan bo'lib, hozir ular Kanada, Yevropa va Osiyoda ham mavjud. Nortel optik kanallariga asoslangan tayanch tarmoqlar

yaratish imkonini beruvchi jihoz majmualarini taklif etadi. Kompaniya, shuningdek, tarmoq qurilmalarini yaratish uchun zarur bo'lgan integral sxemalarni ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar orasida tarmoq boshqarishning apparatlari va dasturiy ta'minoti muhim ahamiyat kasb etadi.

NorthBridge

Server ko'prigi – mikrosxema ishlab chiqaruvchilar orasida qabul qilingan atama. Tizim shinasi, AGP va PCI shinalari, xotira va xesh-xotira (oddiy Pentium uchun to'plamlar uchun) shinasini o'z ichiga oluvchi tizim nazoratchisini bildiradi. Odatda bu bitta mikrosxema va aynan unga ko'ra butun to'plam nomlanadi.

NOS

qisq.: Network Operating System

Tarmoq operatsion tizimi.

N

nosimetrik shifr

ingl.: non-symmetric code

rus.: несимметричный шифр

Shifr-matnga o'girish uchun barchaga ma'lum bo'lgan ochiq (ommaviy) kalit, dastlabki matnga o'girish uchun esa faqat qabul qilib oluvchiga ma'lum maxfiy (shaxsiy, yopiq) kalit ishlataligandan shifr.

Novell korporatsiyasi

ingl.: Novell corporation

rus.: корпорация Novell

Tarmoqlar uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqaruvchi kompaniya. AQSHda 1983 yilda yaratilgan. Novellning eng mashhur ishlansasi o'n yildan ko'p mahalliy tarmoqlarni yaratish uchun standart bo'lib kelgan NetWare operatsion tizimidir.

Novell-Perfect korporatsiyasi

ingl.: Novell-Perfect corporation

rus.: корпорация Novell-Perfect

Matn, xabar va hujjalarga ishlov berish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqaruvchi kompaniya. AQSHda yaratilgan bo'lib, dastlab WordPerfect deb nomlangan. Kompaniya tomonidan ochiq xabarlar muhitini hamda aloqa va obyektlarni butlash texnologiyasini belgilovchi «aloqa obyektlari va obyektlarni butlash» uslubiyati OLEOni yaratgan.

noyob aynanlovchi*ingl.: unique identifier**rus.: уникальный идентификатор**qarang: noyob identifikator***noyob identifikator***ingl.: unique identifier**rus.: уникальный идентификатор*

Muayyan mohiyat turining har bir nusxasining noyob aniqlanishi uchun mo'ljallangan atribut yoki jami atributlar va/yoki aloqalar. To'liq aniqlash holatida ushbu mohiyat turining har bir nusxasi o'zining muhim atributlari bilan to'liq aniqlanadi, aks holda uning aniqlanishida, shuningdek, boshqa ota-ona mohiyat atributlari ishtirok etadi. Har bir mohiyat kamida bitta mumkin bo'lgan kalitga ega bo'lishi lozim. Mohiyatning mumkin bo'lgan kaliti – bu qiymatlari mohiyatning har bir nusxasini bir ma'noda belgilovchi bir yoki bir necha atribut. Bir necha mumkin bo'lgan kalit mavjud bo'lsa, ularning bittasi birlamchi kalit sifatida, qolganlari esa muqobil kalitlar sifatida belgilanadi.

noyob tashrifchi*ingl.: unique visitor**rus.: уникальный посетитель*

Veb-sayt traffigi hajmini aniqlayotganda veb-saytga ma'lum muddat ichida birdan ko'p marta tashrif buyuruvchi shaxsga tegishli. Veb-sayt traffigini nazorat qiluvchi va o'lchovchi dastur saytga faqat bir marta tashrif buyurgan va saytga qayta-qayta tashrif buyuruvchi noyob foydalanuvchilarini ajrata oladi. Saytda o'qilayotgan fayllar soni bo'yicha o'lchanadigan sayt sahifalarini ko'ruchilar o'zlarining nolayn barmoq izlari kabi bo'lgan noyob IP manzili bo'yicha farq qiladi. Noyob tashrifchilar, shuningdek, saytga noyob tashrifchilar tashrif buyurishlar sonidan qat'iy nazar faqat bir marta hisoblanadi.

nozik axborot*ingl.: critical information**rus.: критичная информация*

To'la huquqli shaxs nuqtai nazaridan muhofazalanishi zarur bo'lgan axborot. Chunki, uni oshkor aylash, o'zgartirish, yo'q qilish yoki yo'qotish, kimadir yoki nimagadir sezilarli zarar yetkazishga sabab bo'lishi mumkin.

qisq.:

1. Non-Printable Character – Choplanmaydigan ishora.

2. Non-Player Character – O'ynamaydigan shaxs. Kompyuter o'yinida, kompyuter tomonidan boshqariladigan ishtirokchi shaxs.

NSAPI*qisq.: Netscape Server Application Programming Interface*

[Web-] server uchun Netscape kompaniyasining API si. Web-server imkoniyatlarini kengaytirish uchun Netscape kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan API (Application Programming Interface). CGIning o'rnini bosish uchun yaratilgan edi. NSAPI unchalik keng tarqalmadi. IPlanet serveri keyingi avlod interfeysi WAI (Web Application Interface)dan foydalanadi.

NSP*qisq.: Network Service Provider*

Tarmoqdan erkin foydalanish xizmatini yetkazib beruvchi.

NTFS*qisq.: NT File System*

Windows NT fayl tizimi. Windows NT va Windows 2000 operatsion tizimlari uchun asosiy fayl tizimi.

NTLM*qisq.: NT LanMan*

Windows NTda so'rov-javob turining chinligini tekshirish bayonnomasi. Bu bayonnomma tarmoqda uzatilayotgan maxfiy so'zlarni muhofazalash uchun shifrlashdan foydalanadi.

NTP*qisq.: Network Time Protocol*

Vaqtning [sinxronlash] tarmoq bayonnomasi. Kompyuterning ichki soatini ko'rsatishlarini kompyuter tarmog'i serveri soati ko'rsatishlari (odatda, yuqori aniqlikdagi, atomli) bilan sinxronlash uchun foydalaniladi. RFC 1305da tavsiflangan.

NTSC*qisq.: National Television Standards Committee*

1. Televizion standartlar bo'yicha milliy qo'mita (AQSH). 1953 yilda televizion eshittirishlar uchun standartlar yig'masini ishlab chiqish uchun javobgar tashkilot.

2. NTSC standarti. AQSHda qo'llaniladigan televizion ko'rsatuvlar standarti.

NTVDM

qisq.: NT Virtual DOS Machine

Windows NTdagi DOS virtual mashinasi. Windows NT operatsion tizimi o'rnatilgan kompyuterda DOSda yozilgan qo'llanmalarning bajarilishi uchun ishlataladi.

NUMA

qisq.: Non-Uniform Memory Access

Xilma-xil xotiradan erkin foydalanish, NUMA texnologiyasi. Xilma-xil xotirani ishlataladigan ko'pprotessorli tizimlar qurish usuli.

nusxa olishdan muhofazalash

ingl.: copy protection

rus.: защита от копирования

Dasturiy yoki dasturiy-apparat vositalarni, maxsus vositalarni qo'llash U ma'lumotlardan, shaxsi o'rnatilmagan tarzda nusxa olishni bilib qolish yoki oldini olish uchun zarur.

nutqiy axborot

ingl.: speech information

rus.: речевая информация

Manbai inson nutqi bo'lgan akustik axborot. Nutqiy axborot yuksak ma'noviy aloqaga va eng yuqori darajadagi axborot mazmundorligiga ega.

nutqiy interfeys

ingl.: voice-based interface

rus.: речевой интерфейс

Nutq shaklida buyruqlar va ma'lumotlar kiritish interfeysi. U foydalanuvchi va axborot tizimi o'zaro ishlashiga oid usullarni soddalashtirish maqsadida yaratilgan Tizimga ma'lumotlarga ishlov berishni boshqarish buyruqlari yoki ma'lumotlarni o'zi kiritiladi.

nutqiy pochta

ingl.: voice mail

rus.: речевая почта

Nutqiy xabarlar uzatishga mo'ljallangan elektron pochta turi. Nutqiy pochta foydalanuvchilar monologini ta'minlaydi. Nutq xabarlar shaklida uzatilib, ularni talab qilinmaguncha xotirada saqlana beradi. Buning uchun abonent tizimlarida pochta qutisi deb ataluvchi xotira sohasi ajratib beriladi.

nutqiy xabar

ingl.: audio message

rus.: речевое сообщение

Tarmoq orqali uzatilayotgan nutqdan iborat bo'lgan xabar. Nutqiy xabar uzatish odatdagiga nisbatan juda oson, chunki, klaviatura yoki nurli pero ishlatalishga ehtiyoj bo'lmaydi. Shu bilan birga, uzatish jarayoni analog-raqamli o'zgartirishni, qabul qilish jarayoni esa raqamlanalog o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, nutqiy xabarlar katta hajmliligini hisobga olgan holda, ma'lumotlarni zichlashtirishdan foydalananiladi. Masalan, 30 sekundlik nutq 100 Kbayli xotiraga taxlab joylashtirilishi mumkin.

nutqiy yo'l-yo'

ingl.: voice band

rus.: речевая полоса

Nutq uzatishni ta'minlaydigan chastotalar yo'l-yo'li 3000 Gs (300 dan 3330 gacha) ga teng deb qabul qilingan.

N

nutqni kodlash

ingl.: speech coding

rus.: кодирование речи

Nutqni kodlar ketma-ketligiga aylantirish.

nutqni tanish

ingl.: speech recognition

rus.: распознавание речи

Nutqni matnga o'girish jarayoni. Shu tufayli, foydalanuvchi kompyuter bilan gaplashishi, xatlar va xabarlarni aytib turishi, hujjalarni tahrirlashi mumkin. Nutqni tanish tizimlari uchta parametr bilan tavsiflnadi:

- tushuniladigan so'zlar lug'ati hajmi bilan;
- nutq uchun belgilab qo'yilgan yuzakilik (nutq to'xtovsiz aytilishi mumkin yoki so'zlar orasida tinishlar bo'lishi zarur) bilan;
- muayyan inson nutqiga sozlanishga qaramlik darajasi bilan.

Nutqni tanish tizimlari birincha navbatda, ayrim so'zlar yoki so'z birikmalari aytildigani hollarda ishlataladi. Bunday jumlalarni dispatcherlar, tabobat va bank xodimlari ishlataladi.

nutqqa ishlov berish

ingl.: speech processing

rus.: обработка речи

Nutqni tahvil qilish, o'zgartirish va sintezlash jarayoni. Nutqqa ishlov berishga avvalo, nutqni tanish va sintezlash kiradi. Nutqni tanish uni

matnga aylantirishdan iborat, uni axborot manbai sifatida ishlatish imkoniyatini ochadi. Tanishga teskari bo‘lgan masala nutqni sintezlashdir, ya’ni, aniq kod bilan ifodalangan matnni nutqqa o‘girish.

NVRAM

qisq.: Non-Volatile Random Access Memory

Energiyaga qaram bo‘lмаган тезкор хотира qurilmasi.

nyudjent

ingl.: newgent

rus.: ньюджент

Neyron tarmoqlari agenti. Hulq modellarini idrok qilish uchun tizim yoki dasturni nazorat qiluvchi dastur – kompyuter tarmog‘i, Internetdagi sotib oluvchi yoki ishlab chiqarish jarayoni bo‘lishi mumkin. Tizimga o‘rnatilgandan keyin Nyudjent tizimning normal faoliyatining umumiyligini modelini tushunish uchun ma'lumotlarni qayta ishlay boshlaydi. Nyudjent paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni bashorat qilish uchun nonormal voqealarni izlaydi va nonormal voqealarga qarshi harakatlar uyuştiradi. Nyudjent tizimda qanchalik uzoqroq qatnashsa uning intellekti shunchalik oshadi.

Oo

OAG

qisq.: Open Application Group

qarang: ochiq amaliy jarayonlar guruhi

obyekt

ingl.: object

rus.: объект

1. Foydalanuvchi tomonidan tavsif etiladigan tarkibiy qism. U tegishli xossalalar, amallar va munosabatlar bilan aniqlanadi.

2. Umumiy informatikada – axborot birligi. Qo'llanmalarning turiga qarab, bu atama ancha keng ma'noda ishlatalidi.

3. Obyektna – yo'naltirilgan dasturlashda, funksiya va ma'lumotlarni o'z ichiga olgan o'zgaruvchi. Obyektni ishlatalish alohida modelga asoslangan. Unda mijoz, bu obyektlardagi usullar va tegishli funksiyalar majmuasidan iborat ma'lumotlardan interfeysi orqali erkin foydalanadi. So'ngra, mijoz amallarni bajarish uchun bu usullarni chaqiradi.

4. Tarmoqni boshqarishda – boshqarilayotgan qurilmaning muayyan tarzini aniqlaydigan sonli qiymatdir.

5. Tizimning sust tarkibiy qismi. U axborotni saqlaydi, qabul qiladi yoki uzatadi, undan erkin foydalanishni cheklash qoidalariga ko'ra tartibga solinadi. Obyektdan erkin foydalanish, undagi axborotdan erkin foydalanishi nazarda tutadi. Obyektlarga misollar: yozuv, blok, sahifa, segment, fayl, mundarijalar va dasturlar, hamda ayrim bit, bayt, so'z va maydonchalar; turli qurilmalar (terminal, printer, diskovod va boshqalar); turli tarmoq qurilmalari (ayrim bog'lamlar, kabellar va h.k.)

obyekt so'rivrari brokeri

ingl.: Object Request Broker (ORB)

rus.: брокер объектных запросов

Namunaviy dasturlar blokini ishlab chiqish texnologiyasi. ORB texnologiyasi dasturiy ta'minotning oraliq qatlamlari turlaridan biri bo'ladi. ORB yordamida yaratilayotgan dasturlar murakkab dasturiy tizimlarni qurish uchun qayta-qayta ishlatalishi mumkin. Bu

tizimlar, birinchi navbatda global ulanish xizmatida foydalanishga mo'ljallangan. ORB obyektlri yo'naltirilgan me'moriy qiyofaga tayanadi, broker amallarini bajara turib, bir obe'ktlarga boshqa obyektlarni topib olishni va ularga tarmoq orqali so'rovlar bilan murojaat qilish imkonini yaratadi. ORB yordamida yaratilayotgan dasturlar, tarmoqda qo'llanayotgan platformaga, ular yaratilgan dasturlash tillariga bog'liq emas.

obyektdan erkin foydalanish

ingl.: access to object

rus.: доступ к объекту

1. Obyektdan erkin foydalanish undagi axborotni olishni bildiradi.

2. Obyektdan erkin foydalanish, undan biror maqsad yo'lida foydalanish demakdir.

obyektdan takroriy foydalanish

ingl.: repeated use of object

rus.: повторное использование объекта

Avval bitta yoki bir nechta obyektdan iborat bo'lgan xotira maydonining (masalan, bet, freym, disk sohasi, magnit tasma) qayta tayinlanishi va takroriy qo'llanilishi. Xavfsizlikni ta'minlash uchun ushbu maydon yangi obyekt uchun ajratilganda, unda eski obyektlar axboroti bo'lmasligi lozim.

obyektga-yo'naltirilgan arxitektura

ingl.: object-oriented architecture

rus.: объектно-ориентированная архитектура

Asosi, tizim yoki tarmoqning bir biri bilan o'zaro aloqada ishlovchi obyektlar to'plami bo'lgan arxitektura. Obyektga-yo'naltirilgan arxitektura obyekt texnologiyalarini belgilaydi. Bu arxitektura asosida dasturlashda, ma'lumotlarga qanday ishlov berilishi tavsiflanmaydi, balki, ishlov berish natijasida nima yuz berishi uqtirilgan xabar yo'llanadi. Algoritmlarni tavsiflash obyektga-yo'naltirilgan dasturlash tillaridan foydalanib amalga oshiriladi.

obyektga-yo'naltirilgan boshqarish

ingl.: object-oriented management

rus.: объектно-ориентированное управление

Obyektga-yo'naltirilgan arxitekturadan foydalanadigan tarmoqni boshqarish. Obyektga-yo'naltirilgan boshqarishning asosida, axborot tarmog'ini o'zaro bog'langan obyektlar - qurilmalar va dasturlar to'plami shaklida

ifodalash yotadi. Obyektga-yo'naltirilgan boshqarishni ishlashish amaliy dasturlarni ishlashga ketayotgan vaqtini qisqartirishni va boshqariladigan tarmog'i tarkibiy tuzilmasini sozlashda epchillikni ta'minlaydi.

obyektga-yo'naltirilgan dasturlash

ingl.: *object-oriented programming (OOP)*

rus.: *объектно-ориентированное программирование*

Dasturlashning hozirgi kunda eng ommaviy uslubiyati. U obyektlar, ya'ni standart bloklardan, tashkil topgan amaliy dasturlarni yaratishga yo'naltirilgan. Strukturali dasturlashning rivojlanishidir. OOP ning markaziy g'oyasi inkapsulyatsiyadir, ya'ni, dasturni alohida shakldagi, ma'lumotlarni va ularni ishlov beruvchi tartibotlari bilan birlashtirgan holda modullarga (sinflarga) tuzilmalashdir. Har bir shunday sınıf, amalga oshirish (yoki ifodalash) deb ataluvchi ichki qismga va interfeys deb ataluvchi tashqi qismga ega. Amalga oshirishdan faqat interfeys orqali erkin foydalanish mumkin. Odatda, interfeysda xossalarni (sintaksisda o'zgaruvchidek ko'rindi) va usullarni (sintaksisda tartibot yoki funksiyadek ko'rindi) ajratadilar. Sinf usul-konstrukturlarga va dasturni bajarilish vaqtida sinflarning nusxalarini yaratish va yo'q qilishga imkon beradigan, destrukturlarga ega bo'lishi mumkin. Bir sinfning nusxalari, o'zaro o'xshash (masalan sinfning usulini meros olgan), ammo, farqlanadi ham (masalan, xossalarni turli qiymatga ega). Sinflarni va sınıf nusxalarini obyektlar deb ataladi, «obyektga-yo'naltirilgan dasturlash» nomi ham shundan kelib chiqqan.

obyektga-yo'naltirilgan ma'lumotlar bazalarini boshqarish guruhi

ingl.: *Object Database Management Group (ODMG)*

rus.: *группа управления объектно-ориентированными базами данных*

Ma'lumotlar bazalari sohasida standartlarni ishlash bilan shug'ullanadigan jamiyat. ODMG, birinchi navbatda obyektga – yo'naltirilgan ma'lumotlar bazalari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi.

obyektga-yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasi

ingl.: *Object-Oriented DataBase (OODB)*

rus.: *объектно-ориентированная база данных*
Ma'lumotlari obyektlar shaklida ifodalangan ma'lumotlar bazasi. Kompyuterli loyihalash texnologiyasida ilk bor paydo bo'ldi, obyektga-yo'naltirilgan arxitekturaga asoslanadi. OODB ni ishlatish evaziga, ko'psonli tasvirlarni ma'lumotlar elementlariga bo'lmashlik, ularni obyektlar shaklida rasmiylashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. So'ngra, OODB ni harxil ma'lumotlar bilan ishlashga to'g'ri keladigan yuqori unumдорli jarayonlar va masalalarda ishlata boshladilar. OODB ma'lumotlarga taqsimlangan ishlov berish uchun juda qulay. OODB mijoz-server arxitekturasiga juda ham mos keladi. Bu yerda, mijozlar serverda joylashtirilgan bazaning obyektlariga murojaat qiladilar, ular haqida ma'lumotlarni ko'chirib, mahalliy tarzda ishlov beradilar. OODB ni obyektga-yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasining boshqarish tizimi boshqaradi.

obyektga-yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi

ingl.: *object- oriented database management system (OODBMS)*

rus.: *объектно-ориентированная система управления базой данных*

Obyektga-yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasiga asoslangan. Obyektlar shaklida saqlanayotgan ma'lumotlarning murakkab turlari bilan ishlashga imkon beradi, shu bilan birga, ma'lumotlar amaliy dasturlardan mustaqil ravishda saqlanadi. OODBMS tranzaksiyalar ishlovida yuqori unum beradi, shu sababli, tasvirlar va tovushni, relyatsion baza talab qilgani kabi jadval shaklida ifodalanmaydi.

obyektga-yo'naltirilgan operatsion tizim

ingl.: *object-oriented operating system (OOOS)*

rus.: *объектно-ориентированная операционная система*

Obyektga-yo'naltirilgan arxitekturaga ega bo'lgan operatsion tizim. Tizimning eng muhim bo'g'ini bo'lib, operatsion tizimning asosiy vazifalarini bajaradigan mikroo'zagi hisoblanadi. Uning yuqorisida, turli xizmatlarni taqdim qiladigan modullar joylashadi. Mikroo'zak bilan obyektga-yo'naltirilgan dasturlash tillari bog'langan.

obyektlarni bog'lash va joylash texnologiyasi

obyektlarni boshqarish guruhi

ingl.: Object Management Group (OMG)

rus.: группа управления объектами

Windows muhitida amaliy jarayonlarning o'zaro ishlashini amalga oshiruvchi obyektgayo'naltirilgan arxitektura. U Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va Plug-and-Play texnologiyasi bilan chambarchas bog'langan. 1991 yilda paydo bo'lib, OLE operatsion tizimlarning amaliy dasturlari orasida ma'lumotlar uzatishni ta'minladi. Bunday o'zaro ishslash amaliy dasturning umumiy interfeysidan foydalanishga asoslanadi. Bundan tashqari OLE, ma'lumotlardan uzoqdan erkin foydalanishni, tranzaksiyalarga ishlov berishni, amaliy dasturlarni tarmoqda taqsimlashni ta'minlaydi. OLE ikkita pikrogramma orasidagi ma'lumotlarni shatakkha olish bayonnomasi shaklida ikki amaliy dasturlar taqdimi sifatida amalga oshiriladi. Bu jarayon, kursor yordamida bir juft oyinalarni, ular orasida uzatishni bajarish kerakligini ta'kidlash bilan bajariladi.

obyektlarni boshqarish guruhi

ingl.: Object Management Group (OMG)

rus.: группа управления объектами

Tarmoq va axborot tizimlari obyektlarini boshqarish standartlarini ishlab chiqadigan tashkilot. Notijorat tashkiloti OMG 1989 yilda tashkil topgan.Uning taniqli ishlammalaridan biri bo'lib, «obyektlar so'rovlarini agentlarining umumiy me'moriy tuzilmasi» deb ataluvchi COBRA hisoblanadi. U tillar va amaliy tizimlardan qat'iy nazar, turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan amaliy dasturlarni o'zaro ishslashini ta'minlaydi.

obyektlarni boshqarish guruhi

ingl.: object code

rus.: объектный код

Dastlabki matnni mashina kodiga o'girish natijasida hosil bo'lgan dastur.

obyektlarni boshqarish guruhi

ingl.: object technology

rus.: объектная технология

Obyektgayo'naltirilgan arxitektura bilan aniqlanadigan texnologiya. Avvalgi yondashuvlardan farqli o'laroq, tartibot va ma'lumotlar tushunchalarini obyekt degan tushuncha bilan almashtirilgan.

obyektlarni boshqarish guruhi

ingl.: Object View Interaction Design (OVID)

rus.: объектное интерактивное проектирование

Murakkab masalalarni qulay bajarishga mo'ljallangan, foydalanuvchi interfeysi ni ishlab chiqish uslubiyati. OVID uslubiyati bir masalaning o'zini yechishda, foydalanuvchilar tomonidan mutazam amallar bajariladigan hol uchun mo'ljallangan. Masalan, matnlarni tahrirlash, moliya hisoblarini bajarish, chizmalarni yaratish. Bu uslubiyat, obyekt deb ataluvchi, obyektlarni ishlatishga asoslangan.

OCI

qisq.: Oracle Call Interface

Oracleni chaqirish uchun interfeysi. Oracleni ma'lumotlar bazasidan SQL-so'rovlarini chaqirish uchun API.

OCR

qisq.: Optical Character Recognition

garang: belgilarni optik o'qish

OCX

qisq.: OLE Custom eXtension

OLE boshqarish elementi. Maxsus tarzda rasmiylashtirilgan dastur, Windows muhitida takror ishlatilayotgan tarkibiy qism kabi erkin foydalanish mumkin.

ODAPI

qisq.: Open Database API

Ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish uchun ochiq API. Borland firmasi tomonidan ishlab chiqilgan ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish uchun API.

Windows 1.0 uchun ODAPI 1.0, Quattro Pro va Paradox bilan yetkazib berilgan. Keyinchalik, ODAPI BDEning qismi bo'lib qoldi va IDAPI deb atala boshlandi.

ODBC

qisq.: Open DataBase Connectivity [interface]

Ma'lumotlar bazalari bilan o'zaro ishslashning ochiq interfeysi. Qo'llannmalarini ma'lumotlar bazalari bilan o'zaro ishlashi uchun Microsoft korporatsiyasi ishlab chiqqan API. Windows muhitida keng foydalaniladi, UNIX uchun amalga oshirilgan. Qo'llannmalar nuqtai nazaridan ODBC-uyg'unlashadigan ma'lumotlar manbai, relyatsion ma'lumotlar bazasi deb qaraladi, u bilan o'zaro aloqada ishslash SQL tili yordamida amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar manbai bilan ODBC orqali ishlash uchun APIga maxsus dastur - ODBC-drayer talab qilinadi. ODBC-drayer o'z ichida muayyan MBBT bilan ishlashning xususiyatlарини «yashiradi»: ma'lumotlar formatlari, kommunikatsiya kutubxonasi va bayonnomalari bilan. Amalda barcha zamonaviy MBBT uchun ODBC-drayerlar ishlab chiqilgan, ular mijoz qismi bilan taqdirm qilinadi. Xuddi shunday norelyatsion MBBT ga va boshqa ma'lumotlar manbalariga ham drayerlar mavjud. ODBC APIni yaratishda SAG (SQL Access Group) tomonidan ishlab chiqilgan CLI (Call Level Interface) spetsifikatsiyasi muhim ahamiyat kasb etgan.

ODBMS

qisq.: Object DataBase Management System
OODBMS qaralsin.

ODMA

qisq.: Open Document Management API
Hujjalarni boshqarish uchun ochiq API. Hujjalarni boshqarish tizimlari va tashqi dasturlar orasida o'zaro aloqada ishlashni tashkil qilish uchun API standarti.

ODMG

qisq.: Object Database Management Group
qarang: obyektga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazalarini boshqarish guruhi

OEM

qisq.: Original Equipment Manufacturer
Aslida «apparatli ta'minot ishlab chiqaruvchi» so'zları qisqartmasi. Atama apparatli ta'minot ishlab chiqaruvchilar bilan maxsus munosabatlarni ta'minlovchi kompaniyani bildiradi. Odatta OEM ishlab chiqaruvchidan apparatli ta'minot partiyasini sotib olib, uni ma'lum qo'llanmaga moslashtiradi, keyin esa ushbu kompyuterlarni o'z nomi ostida sotadi. Atama noto'g'ri ishlatiladi, chunki aslida OEM dastlabki ishlab chiqaruvchi emas, balki apparatli ta'minot sozlovchisidir.

OFDM

qisq.: Orthogonal Frequency Division Multiplexing
Chastotani ortogonal bo'lish bilan multiplekslash.

offlayn

ingl.: offline

rus.: оффлайн

1. Foydalanuvchining kompyuteri bog'lama kompyuteri bilan ulanmagan holat.
2. Telefon liniyasi bilan ulanmagan, ammo, bu tizim bilan ishlash uchun faollashtirilishi mumkin bo'lgan ixtiyoriy qurilma.

offlayn rejimi

ingl.: offline mode

rus.: режим оффлайн

qarang: offlayn

offlayn texnologiyalari

ingl.: offline technologies

rus.: оффлайновые технологии

Ma'lumotlar va xabarlar almashuvida, sezilarli asinxronlikka yo'l qo'yadigan, axborot makonidagi xabarlar kommunikatsiyasi vositalari: tarqatish ro'yxatlari, yangiliklar guruhi, web-forumlar va h.q.

ogohlantiruvchi muhofaza

ingl.: preventive protection

rus.: предупредительная защита

Noqonuniy ravishda dastur yoki faylni nusxalashga urinayotgan shaxs uchun qat'iy jarima yoki jarima ehtimolini ko'zlovchi nusxalashdan muhofaza qilishning tashkiliy choralar.

ohang chastotasini uzatish kanali

ingl.: tonal frequency transmission channel

rus.: канал передачи тональной частоты

300-3400 Gs chastota kengligiga ega bo'lgan namusnavi analogli uzatish kanali.

OIS

qisq.: Office Information System

Boshqaruvchi axborot tizimi.

Okidata korporatsiyasi

ingl.: Okidata corporation

rus.: корпорация Okidata

Printer ishlab chiqaruvchilarini orasida yetakchilardan biri. Okidata Nyu-Jersi (AQSH)da joylashgan.

OLAP

qisq.: On-Line Analytical Processing

Haqiqiy vaqtida (ma'lumotlarga) analitik ishllov berish, OLAP texnologiyasi. Yig'ilgan ma'lumotlarni turli nuqtai nazarlardan tez tahlil qilish imkonini beruvchi dasturiy tizimlar sinfining umumiy nomi. OLTP- tizimlarda

yig'ilgan ma'lumotlarni bevosita tahlil qilish mumkin. Relyatsion (ko'pmillionli yozuvlari bor) ma'lumotlar bazasiga so'rov bir necha soat davomida bajarilishi mumkin. Tahlilni tezlatish uchun ma'lumotlar nusxalari maxsus OLAP-tizimga ko'chiriladi, u yerda ma'lumotlar ko'po'lchamli kub sifatida aks etiladi. Kubning tomonlari analitik kesmalarga mos keladi. Ma'lumotlarni OLAP-tizimga joylashtirishda odatda dastlabki yaxlitlash ham amalga oshiriladi. Shu bilan birga saqlanayotgan axborot hajmi bir necha marta ortadi, lekin keyingi so'rovlariga javob ham tezroq beriladi.

OLCP

qisq.: On-Line Complex Processing

Murakkab tezkor ishlov berish. Ma'lumotlarga haqiqiy vaqtida murakkab ishlov berish.

OLE

qisq.: Object Linking and Embedding

qarang: obyektlarni bog'lash va joylash texnologiyasi

OLED

qisq.: Organic Light Emitting Diode

Organik elektro-lyuminessent displeylar uyali telefonlarda qo'llaniladi. Ular ingichkaroq, ravshanroq, qo'shimcha yoritishga muhtoj emas va tejamliroq. LCD-texnologiyalarga nisbatan OLED juda yuqori aniqlik va ravshanlik (ya'ni, displey amalda ixtiyoriy sharoitda o'qiladi) kabi afzalliklarga ega. Hozirda OLED ekranlaridan ayrim telfon modellarida qo'shimcha tashqi displey sifatida foydalanimoqda.

olovrang kitob

ingl.: Orange Book

rus.: оранжевая книга

1983 yildan 1988 yilgacha, AQSH Mudofaa vazirligi va Kompyuter xavfsizligi bo'yicha milliy qo'mita (xrozirda TruSecure korporatsiyasi) birligida kompyuter xavfsizligi sohasida, o'ndan ortiq hujjatlardan iborat, standartlar tizimini ishlab chiqdilar. Bu ro'yhatni «Kompyuter tizimlarini xavfsizligini baholashni ko'rsatgichlari» boshlab beradi, muqovasini rangiga ko'ra, ko'proq «To'qsariq kitob » deb ataladi. Hujjatda, ishlov berilayotgan axborotni xavfsizligini ta'minlash bo'yicha umumiy talablar ajratilgan, bu

talablarni amalga oshirishni xarkterlaydigan, muhofazalanganlik ko'rsatkichlari ro'yhati aniqlangan. Ko'rsatkichlar majmuasi, ko'rilayotgan tizimni xavfsizlik sinfini belgilaydi. Axborot xavfsizligini ta'minlashni turli mexanizmlari bilan, yettita sinfini ajratadilar.

oltin

ingl.: gold

rus.: золото

Sariq rangli, cho'kichanuvchan, zanglamaydigan asl metall. Oltin apparat ta'minotini ishlab chiqarishda keng ishlatiladi. Korroziyadan saqlanish uchun, bosma platalarini elektr kontaktlarini oltin bilan, platina va kumush qotishmasi bilan qoplanadi.

oltin disk

ingl.: golden disk

rus.: золотой диск

Dasturiy mahsulot nusxalari ko'paytiriladigan dasturiy ta'minotning to'la va so'nggi rusumi.



oltin tartib raqam

ingl.: golden number

rus.: золотой номер

Oson eslab qolinadigan telefon tartib raqami.

OLTP

qisq.: On-Line Transaction Processing

Tranzaksiyalarga tezkor ishlov berish. Ma'lumotlarni (amallarni, hujjatlarni) haqiqiy vaqtida kiritish. Mumtoz misol – aviachiptalarni bronlash tizimi.

OMG

qisq.: Object Management Group

qarang: obyektlarni boshqarish guruhi

ommaviy axborot

ingl.: mass information

rus.: массовая информация

1. Cheklanmagan shaxslar doirasi uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual va boshqa xabar va materiallar.
2. Ommaviy axborot vositalari orqali ommaviy tarqatiladigan bosma, audio, audiovizual va boshqa xabar va materiallar.
3. Bir paytning o'zida maxsus vositalar – mass-media yordamida shaxslar guruhiga axborotni uzatish jarayoni.

ommaviy komunikatsiyaingl.: *mass communication*rus.: *массовая коммуникация*

Bir paytning o‘zida maxsus vositalar – mass-media yordamida shaxslar guruhiga axborot uzatish jarayoni.

ommaviy parallel ishlovingl.: *Massively Parallel Processing (MPP)*rus.: *массовая параллельная обработка*

Ma’lumotlarga ko‘p sonli protsessorlar bilan parallel ishlov berish uslubi. MPP «buyruqlarning ko‘p oqimi, ma’lumotlarning ko‘p oqimi» yoki MIMD prinsipini ishlatalib, parallelizmga asoslanadi. Ma’lumotlarga ishlov berishda ishtirok etayotgan protsessorlar soni bir necha yuzni tashkil qilishi mumkin.

ommaviy tarqatishingl.: *multicast*rus.: *мультивещание*

- Xabarlar (ma’lumotlar)ni mahalliy tarmoq, global tarmoq yoki Internet tarmog‘ining muayyan ajratilgan foydalanuvchilar guruhiga jo‘natish texnologiyasi.

- Televideniyeda – tomoshabinlar ko‘rishi uchun ko‘p sonli kanallarning mavjudligi.

ommaviy xizmat nazariysiingl.: *mass services theory*rus.: *теория массового обслуживания*

Amaliy matematikaning xizmatlarga bo‘lgan katta talablarni qondirish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganadigan bo‘limi. Ommaviy xizmat nazariysi, shuningdek, navbatlar nazariysi deb ham ataladi, telefoniya masalalari asosida 20 asr boshida paydo bo‘lgan. U davorda obyektlarga xizmat ko‘rsata oladigan kanallar sonini topish talab qilingan edi. Xuddi shunday muammolar aerodrom, yo‘l, ombor va do‘konlarni yaratishda ham yuzaga keladi. Ommaviy xizmatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, obyektlar, abonentlar yoki mijozlar xizmat talab qiladigan vaqt tasodifiyidir. Shu sababli, nazariyaning asosiy masalasi, xizmatlarga talabni yuzaga kelish jarayonini o‘rganishdir. Bu jarayonni tahlil qilish optimal qarorlarni qabul qilishga imkon beradi. Umuman bunda, aniq bo‘lmagan ya’ni, statistika qonumlari bilan topiladigan ehtimoliy natijalar olinadi. Nazariyada ko‘riladigan

informatikaning eng muhim masaalardan biri, ma’lumotlar oqimini boshqarish masalasidir.

ommaviy xotiraingl.: *mass storage*rus.: *массовая память*

Katta hajmdagi tashqi xotira qurilmasi. Ommaviy xotira qurilmalarining uchta guruhi ajratiladi. Ularning birinchisi eng ko‘p ishlatiladigan dastur va ma’lumotlarni saqlash uchun xizmat qiladi. Odatda bu matritsaning mustaqil disklarni va alohida qattiq disklarni zahirash majmularida amalga oshiriladi. Ikkinci guruh muntazam, biroq unchalik tez ravishda qo‘llanilmaydigan dastur va ma’lumotlarni saqlash uchun mo‘ljallangan. Uchinchi guruhga ahyon-ahyonda ishlatiladigan dastur va ma’lumotlar kiradi. Masalan, tasvirlar, ayniqsa, videofimllar. Ushbu guruhlarda magnit tasmalar va optik disklar keng qo‘llaniladi. Ommaviy xotira ma’lumotlarni zahiraga ko‘chirishda va arxivlashda keng qo‘llaniladi.

ommaviy xotira qurilmasiingl.: *mass storage device*rus.: *массовое запоминающее устройство*

- Katta hajmdagi tashqi hotira qurilmasi.
- Katta hajmdagi ma’lumotlar yozuvlarini saqlay oladigan magnit tasmali kartridjlar kutubxonasi turidagi zahiraviy saqlash tizimi.

ONAqisq.: *Open Network Architecture*

qarang: ochiq tarmoq arxitekturasi

ona plاتasiingl.: *motherboard*rus.: *материнская плата*

Shaxsiy kompyuterlar tizim blokining asosiy platosi. Shaxsiy kompyuterlarning ona platasida markaziy protsessor, tezkor xotira, tizim va mahalliy shinalar hamda alohida platalar shaklida bo‘lgan display adapteri, qattiq va egiluvchan disklarning nazoratchilari va portlar solinadigan uyalar joylashgan. Hozirgi paytda kompyuter ishlab chiqaruvchilari kompyuter qurilmalarining asosiy qismini ona platasida joylashtirishga harakat qiladi, chunki zamonaviy mikrosxemalar bunday imkoniyatlarga ega va bunday texnik yechim eng arzon va ishonchlidir.

ONC

qisq.: Open Network Computing

qarang: ma'lumotlarga ochiq tarmoqda ishlov berish

onlayn

ingl.: online

rus.: онлайн

1. On-line (ot). Sizning kompyuteringiz xosttizim bilan ulangan marom, hamda kompyuteringiz FTP-server, WWW-server, BBS va boshqa umumiyligida foydalanish mumkin bo'lgan tizim bilan ulanganda bevosita xizmatni taqdim qilish. O'zgacha qilib aytganda, foydalanuvchi bilan bevosita o'zarlo aloqada ishslash maromi (foydalanuvchi talabnomalarini paket ishslash tizimlaridan farqli).

2. On-line (sifat).

- elektron, tarmoqli nashrlarga, ma'lumotlar bazalariga nisbatan. Masalan, online magazine - tarmoq jurnali;
- online documentation – tarmoq dasturining ichiga o'rnatilgan elektron shakldagi hujjatlar; online help – ichiga o'rnatilgan aytib turish.

onlayn marketing

ingl.: on-line marketing

rus.: онлайновый маркетинг

Kompyuter tarmoqlarini - tijorat onlayn kanallarini va Internet tarmoqlarini ishlatalishga asoslangan marketing. Kanallardan foydalanib, xaridolar marketing axborotini oladilar va savdo bitimi tuzadilar.

onlayn rejimi

ingl.: online mode

rus.: режим онлайн

qarang: onlayn

onlayn resursi

ingl.: online resource

rus.: ресурс онлайновый

Ma'lumotlardan uzatish tarmog'iga ulangan kompyuter orqali, haqiqiy vaqt maromida erkin foydalanish amalga oshiriladigan resurs. Onlayn resursi shaklida, tezkor axborot yoki dastur yo boshqa foydalanuvchi bilan muloqat maromida ishslash imkoniyati taqdim qilinishi mumkin.

onlayn texnologiyalar

ingl.: online technologies

rus.: онлайновые технологии

Tarmoq axborot fazosida, haqiqiy vaqtida axborotni sinxron almashevini ta'minlab

beruvchi, xabarlarni kommunikatsiya vositalari: «suhbat kanallari» (chatlar), audio- va videokonferensiyalar va boshqalar.

onlayn xizmat

ingl.: web-service

rus.: онлайновая служба

Internetda maxsus dasturlar yordamida taqdim qilinadigan xizmatlar. Masalan, keng tarqalgan xizmatlar: qidirish tizimi, veb-xosting, veb-pochta, Internetda turli axborotni saqlash (fayllar, xatcho'plar), taqvim va boshqalar. Onlayn xizmatlarning muhim xossasi shundaki, ular sizning provaydringiz, kompyuterizingizga va brauzeringizga bog'liq emas, siz o'zingizga tegishli ma'lumotlar bilan, Internetdan erkin foydalanish imkoniyatingiz bo'lgan dunyoning ixtiyoriy nuqtasida ishlappingiz mumkin.

onlayn-banking

ingl.: online banking

rus.: онлайн-банкинг

Bank hisob raqamlarini telefon (telebanking), shaxsiy kompyuter va Internet (Internet-banking) yoki ixcham qurilmalar (mobil banking) orqali masofadan boshqarish.

onlayn-broker

ingl.: online broker

rus.: онлайн-брюкер

Internet orqali o'z xizmatlarini taqdim qiladigan broker. Texnologiya nuqtai nazaridan Internet telefonga nisbatan, ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun buyurtmalar qabul qilish uchun qo'shimcha vositadir.

onlayn-treyding

ingl.: online trading

rus.: онлайн-трейдинг

Savdo (investitsion) hisob raqamlarni shaxsiy kompyuter va Internet (Internet treyding) yoki ko'chma qurilmalar (mobil treyding) orqali masofadan boshqarish.

onlayn-o'yinlar

ingl.: online games

rus.: онлайн-игры

Insonlar Internetda o'ynaydigan o'yinlarning ikki turi mavjud: bevosita veb-sahifadagi soddagina o'yinlar va ko'pfoydalanuvchilarga mo'ljalangan o'yinlar. Birinchi holda, o'yin bevosita veb-sahifada o'ynaladi - sahifaga kirishda katta bo'Imagan dasturcha yoki flesh

yuklanadi va o'yin «iste'molga tayyor». Odatda bunday o'yinlar yetarlicha murakkab bo'lmay, ayrim hollarda juda zavqli va yoqimtoydir. Ko'pfoydalanuvchilarga mo'ljallangan o'yinlar, odadida mijoz-dastur bo'lishini talab qildi, ya'ni, siz sotib yoki ko'chirib oladigan o'yinlar. Bu mijozni ishga tushirib yuborib, siz Internet orqali o'yinlar serveri bilan ulanasiz va shu serverga ulangan, boshqa o'yinchilar bilan birgalikda o'yinda ishtirok etasiz.

OnNow PC texnologiyasi

ingl.: OnNow PC technology

rus.: технология OnNow PC

Axborot tizimining energiya iste'molini boshqarish usuli. OnNow PCning mohiyati, elektr energiya iste'molini keskin kamaytirib, shu bilan birga tizim ixtiyoriy vaqtida uning operatsion tizimini qayta yuklatmasdan ishga tushishga tayyor bo'lishidadir. Tizim (masalan, kompyuter) o'chirilganda, tashqi hodisalarga javob bera oladigan holatda qoladi: tugmacha foydalanuvchi tomonidan bosilishi, tarmoqdan kelgan signal. Buning sababi, tizimning katta bo'Imagan, alohida qismi hamisha yoqilgan holatda bo'ladi.

OO

qisq.: Object-Oriented

Obyektga yo'naltirilgan.

OOA

qisq.: Object-Oriented Analysis

Obyektga yo'naltirilgan tahlil.

OOD

qisq.: Object-Oriented Design

Obyektga yo'naltirilgan loyihalash,

OODB

qisq.: Object-Oriented DataBase

qarang: obyektga-yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasi

OODBMS

qisq.: Object-Oriented Database Management System

qarang: obyektga-yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi

OOP

qisq.: Object-Oriented Programming

qarang: obyektga-yo'naltirilgan dasturlash

OOPL

qisq.: Object-Oriented Programming Language

Obyektga yo'naltirilgan dasturlash tili.

Open Group konsorsiumi

ingl.: Open Group consortium

rus.: консорциум Open Group

Axborot tarmoqlarining tarkibiy qismlarini testlash va sertifikatsiyalash sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilot. Open Group konsorsiumi (avvalgi nomi X/Open) interfeyslar va ochiq tizimlar obyektlarining birlashtiruvchisi bo'lib hisoblanadi.

OpenDoc texnologiyasi

ingl.: OpenDoc technology

rus.: технология OpenDoc

Umumiylar interfeyslarga ega bo'lgan, standartlashtirilgan tarkibiy qismlardan hujjatlari va amaliy dasturlar ishlab chiqish uslublari. OpenDoc texnologiyasi, IBM korporatsiyasi, Novell korporatsiyasi, Apple Computer korporatsiyasi va boshqa qator korxonalar tashkil qilgan Component Integration Labs konsorsiumi tomonidan, mahalliy tarmoqda xilma xil dasturiy obyektlarni birlashishini ta'minlaydigan guruhiy dasturiy ta'minot ishlab chiqish uchun yaratilgan. OpenDoc texnologiyasi foydalanuvchilarga «konteynerlar» shaklidagi hujjatlarni yaratish uchun, dasturiy obyektlar bilan to'ldiriladigan vositalarni taqdim qiladi. U bu hujjatlarni uskuna dasturiy ta'minot bilan bog'laydi. OpenDocda ishlatiladigan obyektlar yo'naltirilgan me'moriy tuzilma, dasturlashda epchillikni ta'minlaydi, dasturchilar mehnatining unumdorligini oshiradi. Shu bilan birga u, standart interfeysli dasturlarning tarkibiy qismlari uchun keng bozor istiqbolini ochadi.

OpenGL

qisq.: Open Graphics Library

Ochiq grafik kutubxona, OpenGL tili. Ucho'Ichamli grafika bilan ishlash uchun API, SGI kompaniyasining ishlanmasi. Ko'pchilik malakali 3D-tezlatgichlar bilan apparat pog'onada va drayverlarda quvvatlanadi.

OpenServer operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: OpenServer operating system

rus.: операционная система OpenServer

Santa Cruz Operation korporatsiyasining operatsion tizimi. OpenServer biznes bilan

bog'liq jarayonlarni bajarish uchun yaratilgan. OpenServer UNIX operatsion tizimining rusumi bo'lib, u banklar, savdo tashkilotlari va davlat muassasalari uchun mo'ljallangan. Tizimning tuzilmasi, yetkazib berish buyurtmalarini rasmiylashtirish, buxgalterlik hisoblari, markaziy ofisni filiallar va vakolatxonalar bilan o'zaro aloqada ishlashi bilan bog'liq amaliy dasturlarning tez ishlovini ta'minlaydi.

operator

ingl.: *operator*

rus.: *оператор*

1. Axborotni kiritish, saqlash, unga ishlov berish, uzatish va chiqarish bilan bog'liq amallarni bajaruvchi belgi, inson yoki tashkilot.
2. Dasturlashda – ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida bajarilayotgan ishlov. Bajarilishi zarur bo'lgan ishlov amal belgisi bilan belgilanadi va bu amalga zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniq qiymatlari beriladi. U funksiya deb ham ataladi.
3. Tizim yoki tarmoq ishini boshqarish bilan bog'liq ishlovlarni bajaruvchi inson.
4. Tarmoqni ng rivojlanishini va boshqaruvini ta'minlovchi tashkilot.

operatsion muhit

ingl.: *operating enviroment*

rus.: *операционная среда*

Amaliy dasturlarni ishlab chiqish va ular bajarilishini ta'minlaydigan vositalar majmuasi. Operatsion muhit operatsion tizim, dasturiy ta'minot, amaliy dasturlar interfeyslari, tarmoq xizmatlari, ma'lumotlar bazalari va dasturlash tillaridan iborat.

operatsion tizim

ingl.: *Operating System (OS)*

rus.: *операционная система*

1. Kompyuter resurslarini va ma'lumotlarni muvofiqlashtiradigan va boshqaradigan dasturiy ta'minotning asosiy qismi.
2. Dasturlarning bajarilishini boshqaradigan va tizimning resurslarini taqsimlash, rejalashtirish, kirish-chiqishni va ma'lumotlarni boshqarish kabi vazifalarini ta'minlaydigan dasturiy vosita. Garchand operatsion tizimlar ko'proq dasturiy bo'lsalar ham, biroq, qisman apparat vositalari qo'llanishi ham mumkin.

Operatsion tizimlarning asosiy vazifalariga:

- fayl tizimini boshqarish (yozish, o'zgartish, fayllardan nusxa ko'chirish, erkin foydalanishni nazorat qilish);

- dasturlar bajarilishini boshqarish (protsessor vaqtini taqsimlash, dasturlarni diskdan tezkor xotiraga yuklash, yashirin xavfli ta'sirni tutib olish va h.q.);

- xotirani boshqarish (keshlash, taqsimlash, ma'lumotlar butligi nazorati va h.k.);

- foydalanuvchi bilan muloqot (klaviaturadan, sichqonchadan buyruqlarni o'qish, axborotni ekranga printerga chiqarish va h.k.) kiradi.

Bundan tashqari operatsion tizimlar, kompyuterlarni turli rusumdagи tarmoqlardan – mahalliy tarmoqlardan global korporativ tarmoqlargacha, shu jumladan, Internet taroq'idan erkin foydalanishni boshqaradi. Operatsion tizimga misollar - MS-DOS, Linux, UNIX, Windows, Solaris va boshqalar.

opsiya

ingl.: *option*

rus.: *опция*

1. Variant, tanlash imkoniyatlardan biri, fakultativ imkoniyat.
2. Menyu elementi (taklif qilinayotgan tanlash variantlaridan biri).

optik aralashtirgich

ingl.: *optical mixer*

rus.: *оптический смеситель*

Yakkakanal shoxchalarini ulaydigan va ixtiyoriy kirishlaridan biriga berilgan yorug'lik signali, uning barcha chiqishlariga yetib keladigan qilib yasalgan qurilma.

optik disk

ingl.: *optical disk*

rus.: *оптический диск*

Disk shaklida yasalgan optik to'plovchi. Magnit diskdan farqli o'laroq, optik diskda ma'lumotlar yozish va o'qish yorug'lik nuri yordamida, lazerda amalga oshiriladi. Ma'lumotlar diskning bir yoki har ikki tomoniga yoziladi. Optik disklar yuqori ishchililikka va yuqori darajadagi yozuv zichligiga ega.

optik kabel

ingl.: *optical cable*

rus.: *оптический кабель*

Yorug'lik signallarini uzatuvchi kabel. Optik, xuddi shunday, «optik-tolali kabel» deb ataluvchi kabelni, yaratish uchun yorug'lik

o'tkazgichlari ishlataladi, ularning har biri, bir necha qavat muhofazalovchi qoplamaga ega bo'lib, bu yorug'lik o'tkazgichlarini mexanik va optik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Bunday qoplamali yorug'lik o'tkazgichlarni optik tola deb ataladi. Optik tolalar guruhi optik kabelni hosis qiladi. Unda, tolalar nisbatan qalinqoq plastmass naychalarga taxlanadi.

optik kanal

ingl.: *optical channel*

rus.: *оптический канал*

Yorug'lik signalarni uzatish uchun mo'ljallangan kanal. Har bir kanal yorug'lik uzatgichlaridan va optik kuchaytirgichlardan iborat. Yorug'lik manbai – optik uzatgich bo'lib, lazer yoki yorug'likdiodini (kamroq) boshqaradi. Yorug'likni fotodiod qabul qiladi. Simsiz yorug'lik kanallari lazer kanallari deb ataladi.

optik kompyuter

ingl.: *optical computer*

rus.: *оптический компьютер*

Yorug'lik signalarni bilan amallar bajaradigan kompyuterlar.

optik kuchaytirgich

ingl.: *optical amplifier*

rus.: *оптический усилитель*

Optik nurlanish quvvatini kuchaytirishni ta'minlovchi kuchaytirgich. Optik kanal va tizimlarda, yorug'likni kuchaytirish tashqi manba energiyasi evaziga amalga oshiriladi. Kuchaytirgichning asosi bo'lib, faol jismoniy muhit hisoblanadi, unda energetik dam berish hisobiga nurlanish quvvati ortadi. Faol jismoniy muhit sifatida, lazerlarda ishlataladigan muddalar ishlataladi. Kuchaytirishda, boshlang'ich signal spektri o'zgarishi mumkin.

optik tarmoq

ingl.: *optical network*

rus.: *оптическая сеть*

Yorug'lik signalarni uzatadigan kommunikatsiya tarmog'i. Optik kommunikatsiya tarmog'i, bir biri bilan ulangan optik uzib-ulash bog'lamalaridan va optik kanalli abonent tizimlaridan tashkil topadi.

optik tola

ingl.: *optical fibre*

rus.: *оптическое волокно*

Diametri 50-125 mkm bo'lgan, ko'pincha kvarsdan yasalgan, yupqa shaffof tola. Optik kabelda yorug'lik uzatgichlari sifatida ishlataladi. Optik tola, ma'lumotlarni uzatishda juda kam yo'kotishga va keng o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lib, elektrmagnit shovqinlarni sezmaydigan, amaldagi benuqson muhitdir.

optik tolali ma'lumotlarni taqsimlangan interfeysi

ingl.: *Fiber Distributed Data Interface (FDDI)*

rus.: *оптоволоконный распределенный интерфейс данных*

Optik tola orqali tarqalgan ma'lumolarga kirish uchun interfeysi, FDDI standarti. Optik tola ishlatib, yuqori tezlikli mahalliy tarmoqlarni qurish standarti.

optik tranzistor

ingl.: *optical transistor*

rus.: *оптический транзистор*

Yorug'lik signalini, ichki elektr ta'siriga asoslangan kuchaytirgich.

optik to'plovchi

ingl.: *optical storage device*

rus.: *оптический накопитель*

Optik vositalar yordamida amalga oshirilgan xotira qurilmasi. Optik xotirani to'plovchisi, yupqa muhit qatlamida qayd etiladigan, diametri bir mikrongacha bo'lgan yorug'lik nuqtasini generatsiyalaydigan, yarim o'tkazgichli lazerdan foydalananiga asoslangan. Ma'lumotlar yozishda, nuring quvvati axborot tashuvchisi nuqtalarini shunday qizdirish uchun ishlataladiki, bunda uning optik ko'rsatkichlari qaytadigan tiklanadigan yoki tiklanmaydigan holda keladi. O'qishda, nuring quvvati shunday kattalikkacha kamayadiki, u axborot tashuvchisining holatini o'zgartira olmaydi. Tashuvchidan aks ettirilgan yoki uni ich-ichigacha o'tgan nuring shiddati, bu nuqtada nol yoki bir saqlanayotganini bildiradi. Optik to'plovchilar uch turga bo'linadi: o'chirilmaydigan, birmarotabali va o'chiriladigan yozuvli turlar. Optik to'plovchilar optik dislar va ixcham disklar shaklida chiqariladi.

optik uzib-ulash

ingl.: *optical switching*

rus.: *оптическая коммутация*

Optik kanallar orasida yorug'lik signallarini tarqatishni va xotirada saqlashni ta'minlovchi uzib-ulash.

oqim

ingl.: thread

rus.: нить

Teleanjuman ichida o'zaro murojaatlarga ega bo'lgan bir mavzuga tegishli jami maqolalar.

OQL

qisq.: Object Query Language

Obyektga yo'naltirilgan so'rovlar tili.

Oracle korporatsiyasi

ingl.: Oracle corporation

rus.: корпорация Oracle

Ma'lumotlar bazalari uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi eng katta kompaniya. Oracle 1977 yilda AQSHda yaratilgan bo'lib, bosh qarorgohi Redvud (Kaliforniya)da joylashgan. Kompaniya tarixan o'zining ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlarining faoliyati uchun ish stansiyalari asosida server maslaklarini yaratishga qaratilgan. Oracle kompaniyasining relyatsion ma'lumotlar bazasi keyinchalik soha standartiga aylangan SQL tilini qo'llab-quvvatlovchi birinchi ma'lumotlar bazasi bo'lgan. Kompaniya baza kompyuterlari, ish stansiyalari va shaxsiy kompyuterlar, ularni tarmoqqa qo'shish, axborot resurslarini yaratish va taqdim etish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqaradi.

ORB

qisq.: Object Request Broker

qarang: obyekt so'rovlar brokeri

ORPC

qisq.: Object Remote Procedure Call

Uzoqdan obyektning tartibotini chaqirish.

OS

qisq.: Operating System

operatsion tizim

OS/2 operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: OS/2 operating system

rus.: операционная система OS/2

IBM tomonidan shaxsiy kompyuterlar uchun ishlab chiqilgan operatsion tizim. Operatsion tizimning birinchi rusumi OS/2, ilgari asosiy kompyuterlarda ishlatalgan tizimli amaliy me'moriy tuzilma asosida 1987 yili yaratilgan.

OS/2, asosan serverlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Tizim yuqori darajadagi ishonchilikka ega, lekin, u bilan faqat malakali foydalanuvchilar ishlashi mumkin. OS/2 ma'lumotlarga ishlav berishning tarqoq muhitni spetsifikatsiyasi bilan mos keladi va simmetrik multiprotsessorli ishlavni qo'llab-quvvatlaydi. Bu ishlavda tizimning 16 gacha protsessori ishtiroy etishi mumkin. OS/2 turli rusumdagagi protsessorlar bilan ishlaydi.

OSA

qisq.: Open Systems Architecture

Ochiq tizimlar me'moriy tuzilmasi. Ochiq tizimlarning yetti pog'onali tuzilishini va o'zaro aloqada ishlashini aniqlaydigan ISO standarti.

OSF

qisq.: Open Software Foundation

qarang: ochiq dasturiy ta'minot Fondi



OSI

qisq.: Open System Interconnection

qarang: ochiq tizimlarning o'zaro ishlashining tayanch namunaviy modeli

osilib qolish

ingl.: hang

rus.: зависание

Kompyuter ishining kutilmaganda to'xtab qolishi. Bunda kompyuter foydalanuvchi buyruqlariga javob bermay qo'yadi.

OSPF

qisq.: Open Shortest Path First

Eng qisqa yo'lni ochiqchasiga izlash, OSPF bayonnomasi. Eng qisqa yo'lni izlash algoritmiga (SPF) asoslangan yo'naltirishning ochiq bayonnomasi. RFC 1247dagi IETFda spetsifikatsiyalangan.

OTM

qisq.: Object Transaction Manager

Obyektlar tranzaksiyalar menedjeri.

OTP

qisq.: One-Time Password

Bir martali maxfiy so'z.

OTS

qisq.: Object Transaction Service

Obyektlar tranzaksiyalar xizmati, OTS spetsifikatsiyasi. Tarqoq obyektlar tranzaksiyalar

xizmati, CORBAning umumiy obyekti xizmatlaridan biri.

otsifrovka

ingl.: digitalization

rus.: оцифровка

qarang: raqamlash

overley

ingl.: overlay

rus.: оверлей

1. Kompyuter grafikasini jonli yoki yozilgan video signal ustiga yozish imkoniyati va hosil bo'lgan video tasviri videotasmada saqlash. Ko'pincha, videotasmaga titrlarni qo'shish uchun ishlataladi.

2. Xotirada har doim ham rezident shaklda joylashmaydigan dasturiy ta'minot. Bunday dasturiy ta'minot tegishli talabnomaga binoan yuklanadi.

OVID

qisq.: Object View Interaction Design

qarang: obyekti o'zarfaol loyihalash

ovoz berish

ingl.: voting

rus.: голосование

Sayt auditoriyasi va uning fikrлari to'g'risida axborot yig'ish uchun asbobiy dastur. Odatda ovoz berish har bitta savolga standart javob xillaridan birini tanlash mumkin bo'lganda qulay.

oxirgi jihoz

ingl.: end-to-end equipment

rus.: оконечное оборудование

qarang: terminal jihoz

Foydalanuvchingining telekommunikatsiya tarmoqlari bilan o'zaro aloqada ishlovchi va ular orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan signallarni shakllantirish, o'zgartirish, ularga ishlov berish uchun mo'ljallangan texnika vositalari (telefon, faksimil, radioteleqabul qiluvchi va boshqa vositalar).

oxirgi bog'lama

ingl.: endpoint node

rus.: оконечный узел

Kommunikatsiya tarmog'i orqali o'zaro ishlasha ma'muriy yoki abonent tizimlar ulangan bog'lamlalar.

oxirgi yozuv

ingl.: trailer record

rus.: концевик

Ma'lumotlар blokini yakunlovchi qismi. Unga, uzatish oldidan, ma'lumotlar bloki uzatilgandan so'ng xato paydo bo'lganligini aniqlash imkonini beradigan nazoratlovchi yig'indi – bitlar ketma-ketligi yoziladi.

oxirgi shifrlash

ingl.: end-to-end encryption

rus.: оконечное шифрование

Avtomatlashtirilgan tizimning ikki subyekti orasida uzatiladigan axborotni kriptografik muhofazası.

oxirgi foydalanuvchiga mo'ljallangan elektron biznes

ingl.: electronic business oriented on end user

rus.: бизнес электронный, ориентированный на конечного пользователя

qarang: iste'molchi uchun biznes

oyna

ingl.: window

rus.: окно

1. Dasturiy qo'llanmani yoki hujjatni ko'rsatadigan display ekranining to'rtburchakli qismi, dastur yoki foydalanuvchi ayrim ekran bilan ishlagandek ishlaydigan, ekran qismi. Foydalanuvchingning grafik interfeysining muhim elementi.

2. Ma'lumotlarga ishlov berishda va ularni uzatishda bo'laklash vositasi. Oyna, ma'lumotlar manbai, ularni qabul qiluvchiga yetib borganligi va xatosi yo'qligi tasdiq'ini olmay turib, uzatishi mumkin bo'lgan ulushni aniqlaydi. Shu usul bilan, tarmoqda ma'lumotlar oqimini boshqarish va qabul qiluvchi – tizimni imkoniyatlardan oshadigan tezlik bilan uzatishga yo'l qo'ymaslik mumkin.

oyna mexanizmi

ingl.: windowing

rus.: механизм окна

1. Ma'lumotlarni uzatishni boshqarishda muhim rol o'yaydi. Oyna deyilganda kommunikatsion tizim orqali, xatosiz yetib borishi haqidagi xabar kutilmasdan uzatiluvchi ma'lumotlar bloklari soni tushuniladi. Ushbu uzatishning tugashida haqiqiy oluvchi jo'natilgan ma'lumotlar bloklarini olganligini tasdiqlashi lozim.

2. Bir paytning o'zida bir necha dasturni ishlatalish texnologiyasi, bunda har bitta dastur alohida oynada bajariladi. Masalan, birinchi oyna hujjatni qayta ishlash uchun, ikkinchisi elektron jadvalarni tuzish, uchinchisi esa elektron pochtani qabul qilish uchun ishlatilishi mumkin.

ochiq amaliy jarayonlar guruhi

ingl.: *Open Application Group (OAG)*

rus.: *группа открытых прикладных процессов*

Umumiyl foydalanishdagi modellarni va amaliy dasturlarning standartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan tashkilot. OAG, o'nta eng yirik dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan bo'lib, o'z e'tiborini qo'llanmalarni uyg'unlashtirishga qaratgan. Yaratilayotgan standartlar foydalanuvchilarga amaliy dasturlarni ishlab chiqaruvchilarni tanlash imkoniyatini va moliyaviy vositalarni iqtisod qilishni ta'minlaydi.

ochiq arxitektura

ingl.: *open architecture*

rus.: *открытая архитектура*

Tuzilmasi va spetsifikatsiyasi nashr qilingan, masalan kompyuter, shu sababli hamma kirishi mumkin bo'lgan qurilmaning arxitekturasi. Ochikkateskari tushuncha bo'lib, yopiq arxitektura hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi tomonidan spetsifikatsiyasi nashr qilinmagan kompyuter arxitekturasini yopiq deb ataydilar. Shu sababli, begona ishlab chiqaruvchilar yopiq kompyuterga tashqi kurilmalarni chiqara olmaydilar.

ochiq dasturiy muhit

ingl.: *open software environment*

rus.: *открытая программная среда*

Dasturlar uyg'unligini ta'minlay oladigan dasturiy muhit.

ochiq dasturiy ta'minot Fondi

ingl.: *Open Software Foundation (OSF)*

rus.: *фонд открытого программного обеспечения*

Dasturiy ta'minotni uyg'unlashtirish texnologiyalari bilan shug'ullanuvchi tashkilot. OSF tashkiloti 275 ta'sisci tomonidan tashkil qilingan. AQSH ning Massachusetts shtatidagi Kembridjda joylashgan. OSF ning oshkoralar ishlaridan ko'zlagan maqsadi, dasturlar uyg'unligini ta'minlashga qodir, ochiq dasturiy muhit deb atalmish muhitni yaratishdan iborat.

ochiq hujjat

ingl.: *open document*

rus.: *открытый документ*

Hujjat, undagi ma'lumotlar abonent tizimlarda ishlov berishga qulay va xalqaro standartlar bilan belgilangan ommabop shaklda yoziladi.

ochiq kalit

ingl.: *public key*

rus.: *открытый ключ*

Asimmetrik kriptotizimda ishlatiladigan va tizimning barcha foydalanuvchilari erkin foydalanishi mumkin bo'lgan kalit. Yana qaralsin: elektron raqamli imzoning yopiq kaliti.

ochiq kalit kriptografiyasi

ingl.: *public key cryptography*

rus.: *криптография с открытым ключом*

Kalitlar juftini ishlatadigan shifrlash usuli. Kalitlardan biri ochiq, boshqasi – maxfiy (xususiy) bo'ladi; bir kalit bilan shifrlangan xabarlarni, faqat ikkinchi kalit bilan shifrini ochish mumkin. Shifrlashning asimmetrik algoritmlarini ishlatadi.

ochiq kalitli kriptotizim

ingl.: *cryptosystem with public key*

rus.: *криптосистема с открытым ключом*

Ikkita, maxfiy va ochiq kalit ishlatadigan kriptografik tizim. Unda kalitlarning birortasi ham boshqasidan yetarli vaqt mobaynida hisoblab chiqarilishi mumkin emas. Maxfiy kalit sir saqlanadi, ochiq kalit esa, o'zar oishlovchi barcha abonentlarga yuborilishi mumkin. Ochiq kalitdan foydalanib ixtiyoriy abonent, ochiq kalitning muallifiga muhofazalangan xabarni jo'natishi mumkin. Bunda, bu xabarni faqat ochiq kalitga mos keluvchi maxfiy kalitga ega bo'lgan tomon dastlabki matnga o'girishi mumkin. Bunday kriptotizimlar ikki kalitli, yoki asimmetrik deb nomlanadi. Ochiq kalitli kriptotizimlar, ham nazariy, ham amaliy kriptobardoshlikni ta'minlovchi simmetrik kriptotizimlardan farqli o'laroq, faqatgina amaliy kriptobardoshlikni ta'minlaydilar.

ochiq kalitni ro'yxatga kiritish

ingl.: *public key registration*

rus.: *регистрация открытого ключа*

Sorov yuborgan shaxsga inobatlaxborot berilishini ta'minlaydigan ochiq kalitlarni

ochiq kod

qaydlash jarayoni. Bu ochiq kalit qiymatini soxtalash tirishning oldini olish maqsadida qilinadi.

ochiq kod

ingl.: open source

rus.: открытый код

Keng doiradagi mustaqil ishlab chiquvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan bepul dastlabki kod yoki dastur. Oshkora kalitli loyihalarning asosiy g'oyasi shundaki, mustaqil dasturchilar ning keng guruhi sifatli firma dasturiy ta'minotiga (yopiq kodga) xos bo'lgan, "qo'ng'iz" va "teshiklar"dan holi bo'lgan, dasturiy mahsulotni tayyorlashlari mumkin. Bunga erishish uchun, dastlabki kod undagi xatolarni topish maqsadida loyihaning ko'pchilik ishtirokchilari tomonidan ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari har bir ishtirokchi, o'zining shaxsiy talablariga monand turlashni kiritishi uchun, tarqatiladigan ochiq dasturiy ta'minotdan foydalanishi mumkin. Mashhur ochiq dasturlardan biri bo'lib, Apache web-serveri, Linux operatsion tizimi, amaliy tizimi va Netscape Communicator (Mozilla ochiq o'zak) brauzeri hisoblanadi.

ochiq mahsulot

ingl.: open enterprise

rus.: открытый продукт

Umun tomonidan tan olingen interfeysli amaliy dasturiy ta'minot. OSI sohasida standartlarning yaratilishi, UNIX operatsion tizimi, amaliy tizimini va amaliy jarayonlar va amaliy pog'ona orasidagi ochiq interfeyslarning keng ishlatalishi, turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan abonent tizimlarda ishlataladigan ochiq mahsulotlarni yaratish imkoniyatlarini berdi. Natijada, dasturiy mahsulotlarning katta bozori vujudga keldi. Bu yerda dasturlar muayyan turlarga emas, balki, bu maxsulotlarni ishlatishga ochiq bo'lgan barcha kompyuterlar uchun taklif qilinadi.

ochiq matn

ingl.: open text

rus.: открытый текст

1. Ma'noli mazmundan kriptografiya usullarini ishlatmasdan erkin foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar.
2. Muhofazalanayotgan dastlabki xabar.

ochiq me'moriy tuzilma

ingl.: open architecture

rus.: открытая архитектура

qarang: ochiq arxitektura

ochiq muhit

ingl.: open environment

rus.: открытая среда

Ma'lumot va resurslarni tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan muhofazalash sodda operatsion tartibotlar yordamida erishiladigan muhit.

ochiq savdo

ingl.: open commerce

rus.: открытая торговля

CommerceNet tomonidan taklif qilingan, CORBA «obyektlar so'rovi agentlarning umumiylar arxitekturasi» ga tayanadi va format, interfeys va bayonnomalar uchun standartlar taklif qiladi.

ochiq tarmoq arxitekturasi

ingl.: Open Network Architecture (ONA)

rus.: открытая сетьевая архитектура

British Telecom tomonidan ishlab chiqilgan to'la funksional maslak. ONA da, barcha yetti pog'onada ISO va ITU standartlari ishlataladi.

ochiq tizim

ingl.: open system

rus.: открытая система

Boshqa tizimlar bilan o'rnatilgan xalqaro standartlarga mos ravishda o'zaro ishlaydigan axborot tizimi. Har qanday ochiq tizim ikki vazifani ya'ni, – ma'lumotlarga ishlov berish va ma'lumotlarni uzatish vazifasini yechishga mo'ljallangan. Shu sababli, axborot tarmog'i nuqtai nazaridan ochiq tizim ikki qismdan iborat. Ulardan birinchisi, ma'lumotlarga ishlov berishga, birinchi navbatda foydalanuvchi ehtiyojlari uchun mo'ljallangan amaliy jarayonlardir. Ikkinci qism uchun, o'zaro aloqada ishlash sohasi, turli tizimlarda joylashgan amaliy jarayonlar orasida ma'lumotlar uzatishni ta'minlashdan iborat. Ochiq tizimlari ishlab chiqishda bosh vazifani ISO bajaradi, u OSI standartlarini ishlab chiqadi va tizimlarni ochiq qiladi.

ochiq tizimlarning o'zaro ishlashining ta'yanch namunaviy modeli

ingl.: Open Systems Interconnection basic reference model (OSI)

rus.: базовая эталонная модель взаимодействия открытых систем

Ochiq tizimlarning xususiyatlari va vositalarini belgilab beruvchi konseptual asos. Model, turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan axborot tizimlarini yagona tarmoqda ishlashini ta'minlovchi Ochiq Tizimlarning o'zaro ta'sirini aniqlab beradi. Shu sababli u, axborot tizimlari uchun amaliy jarayonlarni, ma'lumotlarni ifodalash usullari, ma'lumotlarni yagona ko'rinishda saqlashga, tarmoq resurslarini boshqarish, ma'lumotlarni xavfsizligi va axborotni muhofazalash, dasturlarni va texnik vositalarni tashhis qilish bo'yicha o'zaro ta'sirini muvofiqlashtiruvchi amallarni bajaradi. Model, Standartlar bo'yicha Xalqaro Tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan va axborot tizimlari, hamda ularning uyushmalari uchun tamoyillar asosi sifatida butun dunyoda keng qo'llaniladi. Modelning asosiy elementlari bo'lib, pog'onalar, obyektlar, ulanishlar, ulanishning fizik vositalari hisoblanadi.

Pp

p.m.

qisq.: Post Meridiem

Tushdan so'ng.

P2P

qisq.: Peer to Peer

garang: hisoblash resurslari almashuvi

paket

ingl.: packet

rus.: пакет

Uzatilayotgan ma'lumotlarning eng kam ulushi. Uzatilayotgan axborot ketma-ket paketlarga ajratib uzatiladi. Biroq paketlar tarmoq bo'ylab alohida "sayr etishi" oqibatida ular oxirgi nuqtaga tartibsiz ravishda yetib borishi mumkin. Shuning uchun paketlar o'z o'rniiga to'g'ri tushishi va ularning butunligini tekshirish uchun ularning har biriga noyob tartib raqami beriladi.

paket bayonnomasi

ingl.: packet protocol

rus.: пакетный протокол

Xabarni bo'lish, qayta jo'natish va yig'ish qoidalari.

paketlarni uzib-ulash

ingl.: packet switching

rus.: коммутация пакетов

Kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarni uzatish usuli. Unda axborot paketlarga bo'linib, har bir paketda qabul qilish va jo'natish punktlarining manzillari ko'rsatiladi. Paketlarni uzib-ulash tarmoqning ayrim ikki foydalanuvchiining o'zaro ishlashini sekinlashtiradi, lekin umuman olganda tarmoqda uzatilayotgan ma'lumotlar hajmini oshiradi. Paketlar uzib-ulashning kanallar uzib-ulashdan farqlaydigan alohida xususiyati shundaki, unda uzib-ulashni xotiraga olish va kommunikatsiya tarmog'i kanallarini jamaoa bo'lib ishlatish mumkin. Bu yerda, birorta ham kanal foydalanuvchi tizimlari jufti yoki ma'muriy tizimlar tomonidan hatto seans o'tkazish davrida ham egallanmaydi. Paketlar o'sha bir kanal orqali kirish ketma-ketligi tartibida manbalar va qabul qiluvchilardan

qat'iy nazar uzatilaveradi. O'zgacha aytganda, kanal o'zaro ishlagan foydalanuvchilar tomonidan faqat har bir paketni uzatish vaqtida egallanadi.

paketlarni uzib-ulash tarmoqlarining tarmoqlararo interfeysi

ingl.: packet switching networks internetwork interface

rus.: межсетевой интерфейс сетей коммутации пакетов

Paketlarni uzib-ulash tarmoqlari orasidagi interfeys. Tarmoqlararo interfeys X.75 tavsiyasi tomonidan belgilangan.

PAL

qisq.: Phase Alternation Line

Qatorlab fazani o'zgartirish, PAL televizion standarti. Analog televizion eshittirishlar standarti, asosan Yevropa mamlakatlarda tarqalgan.

PAM

qisq.: Pulse-Amplitude Modulation

Amplituda-impulslı modulyatsiya.

PAP

qisq.: Password Authentication Protocol

Maxfiy so'z bo'yicha autentifikatsiya bayonnomasi.

parallel ishlov berish tili

ingl.: parallel processing language

rus.: язык параллельной обработки

Ma'lumotlarga parallel ishlov berishdagи jarayonni tavsiflashni ta'minlovchi til. Parallel ishlov berish tili, amaliy jarayon bosh va ishchi jarayonlarga bo'linadigan modelga asoslanadi. Bosh jarayon jamaoa foydalanishidagi ma'lumotlarni bo'ladi, ularni kortejlarga butlaydi va topshiriqlar beradi. Ishchi jarayonlar o'zları olgan masalalarни yechadi. Shu bilan birga, barcha bu jarayonlarni bajarilishda sinxron marom ta'minlanadi. Ma'lumotlarni parallelashni amalga oshiradigan tillardan biri Linda tilidir.

parallel port

ingl.: parallel port

rus.: параллельный порт

Printer kabi tashqi qurilmani ulash uchun ishlataladigan parallel interfeysi. Ko'pincha shaxsiy kompyuterlar parallel porti ham, kamida bitta seriiali portga ham ega.

Shaxsiy kompyuterlarda parallel port 25 tilchali (DB-25 turli) qo'shgichga ega bo'lib, printerlar, kompyuterlar va boshqa nisbatan katta o'tkazish qobiliyatini talab qiluvchi qurilmalarni ulash uchun ishlataladi. Ba'zan u kompyuter va printer o'rtaida parallel aloqa uchun dastlabki standartni ishlab chiqqan kompaniya nomidan Centronics interfeysi deb ham nomlanadi. (Zamonaviy parallel interfeysi Epson dizayniga asoslangan.)

PA-RISC

qisq.: Precision Architecture RISC

RISC aniq me'moriy tuzilmasi, PA-RISC protsessori. HP kompaniyasi ishlab chiqqan RISC-protsessor.

parol

ingl.: password

rus.: пароль

1. Sir tutiladigan belgilar ketma-ketligi. Parol, uning egasi haqiqiyimi yo yo'qmi, shuni aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlataladi.
2. Subyekt siri bo'lmlish erkin foydalanish subyekti identifikatori.
3. Erkin foydalanishni aynanlash vositasi. U kompyuter bilan muloqot boshlashdan oldin, unga terminal klaviaturasi orqali yoki identifikatsiya (kodli) kartasi yordamida kiritiladigan harfli, raqamli yoki harfli-raqamli kod shaklidagi maxfiy so'zdan iborat.

Pascal tili

ingl.: Pascal language

rus.: язык Pascal

Yuqori pog'onadagi dasturlash tili. 1960 yil oxirlarida Niklaus Wirth tomonidan yaratilgan. Bu til, 17 asrda yashab o'tgan fransuz matematigi Blaise Pascal sharafiga atalgan. Blaise Pascal sonlarni qo'shish uchun yaratilgan dastlabki mexanik mashinalardan birining ixtirochisi bo'lgan. Pascal tili tuzilmalashgan dasturlash tili bo'lib hisoblanadi. Dastlab Pascal dasturlashga o'qitish uchun foydalaniqlan. Hozir xilma xil dasturlarni tuzishda keng qo'llanmoqda. Oddiy til, xilma xil turdag'i ma'lumotlarga ishlov berish imkonini beradi va turli kompyuterlarda oson amalga oshiriladi.

patch

ingl.: patch

rus.: насту

Xizmat patch deb ham nomlanuvchi dastur xatosini tuzatish vositasi. Patch – bu yurgiziladigan dastur ichiga solinadigan haqiqiy obyektni kod qismi. Patchlar odatda Internetdan yuklanib olinishi mumkin.

PB

qisq.: PowerBuilder

PowerBuilder qo'llanmalarini ishlab chiqish muhiti.

PBX

qisq.: Private Branch eXchange

Xususiy [telefon] tarmoq. Korxona tasarrufidagi telefon tarmog'i, muassasa ATSi.

PC

qisq.: Personal Computer

Shaxsiy kompyuter, SHK.

PCB

qisq.: Printed Circuit Board

Bosma plata.

P

PC-DOS operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: PC-DOS operating system

rus.: операционная система PC-DOS

IBM kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan DOS rusumi.

PCI

qisq.: Peripheral Component Interconnect

qarang: PCI shinasi

PCI Express

Kiritish/chiqarish me'moriy tuzilmasining uchinchi avlodni (ISA va PCI bиринчи ва иккинчи avlodni bildiradi). PCI Express – bu kiritish/chiqarish tizimlari uchun ketma-ket ullanishning hammabop, yuqori tezlikdagi texnologiyasi. Dastlabki o'tkazish qobiliyati 2,5 Gbit/s ga teng, ma'lumotlarni uzatish yo'il- yo'lining turli kengligini qo'llab-quvvatlaydi (1dan 32gacha ma'lumotlar liniyalari) va mis kabelining tavsifnomalariga ko'ra kengaytiriladi. PCI Express stolusti va mobil kompyuterlar, serverlar, kommunikatsiya qurilmalari, ish stansiyalari va ichiga o'rnatilgan qurilmalarning kiritish/chiqarish me'moriy tuzilmasini birlashtirish imkonini berib, PCI va USB bilan uyg'un qurilmalar bilan o'zaro ishslash imkonini beradi.

PCI shinasi

*ingl.: PCI (Peripheral Component Interconnect) bus
rus.: ууна PCI*

Kompyuterga tashqi qurilmalar ulash uchun mo'ljallangan shina. Obyektlarning o'zaro ishlashi to'g'ridan-to'g'ri, markaziy protsessor ishtrokitisiz amalga oshiriladi. Shina, 1992 yili Intel kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa ham, u protsessorlarning biror bir aniq oilasi bilan bog'liq emas. PCI 32-razradli bo'lib, uni 64 razradligacha kengaytirish imkonи bor. O'tkazish qobiliyatি cho'qqisi 32 razradli shina uchun 132 Mbayt/s.ni va 64 razradli uchun 300 Mbayt/s ni tashkil qildi. Shina mahalliy tarmoq bilan yaxshi ulanadi.

PCI-64

qisq.: Peripheral Component Interconnect, 64-bit
64-razradli PCI shinasi, PCI-64 shinasi. Kompyuterga, qo'shimcha qurilmalar ulash uchun 64-xonali tizimli shinasi. Odatda, serverlarda foydalilanildi.

PCL

qisq.: Printer Control Language

Chop etuvchini boshqarish tili, PCL tili. HP (Hewlett-Packard) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, u o'zi ishlab chiqargan Chop etuvchilarda foydalilanildi.

PCM

qisq.: Pulse-Code Modulation

Impuls-kodli modullash, IKM.

PCMCIA

qisq.: Personal Computer Memory Card International Association

1. Xalqaro shaxsiy kompyuterlarning xotira kartalari uyushmasi. Shaxsiy kompyuter kartalari uchun standartlar ishlab chiqishni ta'minlovchi xalqaro tashkilot. PCMCIA 1989 yilda turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan taqdim etiladigan shaxsiy kompyuterlarning bosma xotira platralari uyg'unligini ta'minlash maqsadida yaratilgan. Avvalo shaxsiy kompyuter kartalari tashqi xotirani oshirish uchun chiqarilardi, biroq keyin ularning vazifalari keskin kengaydi. PCMCIA uyushmasi Yaponianing JEIDA uyushmasi bilan birga 32 razradli kompyuter shinasi va xotiradan to'g'ri erkin foydalishni ko'zlovchi PC_Card standartini tasdiqlagan.
2. PCMCIA interfeysi.

PD/CD

Moddaning fazasini o'zgartirish usuli bo'yicha disklarni maxsus tashuvchiga yozadigan va o'qiydigan birikmalashgan to'pligich. Hozircha sezilarli darajada tatbiq etilmagan bo'lishi ham amri mahol. Qurilma shuningdek oddiy CDlarni ham o'qishi mumkin.

PDA

qisq.: Personal Digital Assistant

Shaxsiy raqamli yordamchi. Cho'ntak kompyuterlari va tafakkurli mobil telefonlar qurilmalari sinfi uchun umumiy belgilash.

PDC

qisq.:

1. Primary Domain Controller – Domenni dastlabki nazoratchisi. Windows NT asosidagi tarmoqlarda Windows NT Server boshqaruvi ostidagi kompyuter yoki Unix o'rnatilgan «SAMBA» dasturiy ta'minoti tarmoqni boshqarish vazifalarini bajaradi.
2. Personal Digital Cellurar – Shaxsiy raqamli yiali aloqa, PDC standarti. GSM bilan o'xshash raqamli yiali aloqaning Yaponiya standarti,

PDF

qisq.:

1. Portable Document Format – Ko'chma hujjatlar formati. Chop etuvchi qurilmaga chiqarilayotgan hujjatning elementlarini saqlash uchun fayl formati, Adobe firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Bunday faylni maxsus dastur (Novell Netware), (Acrobat Reader), yordamida qarab chiqilganda, ekrandagi hujjatning tashqi shakli uning chop etiladigan nusxasiga to'la mos keladi.
2. Probability Distribution Function – Ehtimollikni taqsimlash amali.
3. Printer Definition File – Chop etuvchini aniqlash fayli.

PDM

qisq.:

1. Physical Data Model – Ma'lumotlarning jismoniy modeli. Uning jismoniy amalga oshirilishi fazilatlarini hisobga oluvchi – mohiyatlar, indekslar, «ko'plik qupliklarga» munosabatlarni amalga oshirish usuli atributlari uchun aniqlashtirilgan ma'lumotlar turi bo'lgan relyatsion ma'lumotlar bazasi modeli.

2. Product Data Management – Mahsulot to‘g‘risidagi ma’lumotlarni boshqarish.

PDMS

qisq.: Product Data Management System

Mahsulot (buyum) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni boshqarish tizimi. Mahsulot ishlab chiqarishda va uni kuzatib borishda mahsulot haqidagi axborotni, muhandislik ma’lumotlarini boshqarish tizimi.

PERL tili

ingl.: PERL language

rus.: язык PERL

Ixtisoslashgan PERL (Practical Extraction and Report Language bosh harflaridan olingan) til. Matn fayllarini ko‘rib chiqishga, ulardan axborot chiqarib olishga va chompsoniga mo‘ljallangan. PERL tili 1987 yili paydo bo‘lib, avval tizimli dasturlashga mo‘ljallangan edi. So‘ngra uning imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Til o‘rganish uchun oson, hajmi katta emas, foydalanishda yengil va yuqori samaradorlik bilan tavsiflanadi. PERL tilining sintaksisi Si tilining sintaksisi bilan to‘la mos keladi. PERL tili ishlaydigan ma’lumotlar hajmi cheklanmagan. Obyektga yo‘naltirilgan me’moriy tuzilmani quvvatlaydi. Turli maslaklarda ishlay oladi. Bepul tarqatiladi. PERL tili CGI skriptlarni yozishda keng tarqalgan tillardan biri bo‘lib qoldi. PERL da yozilgan dasturlar server tomonidan ishga tushirib yuboriladi. Asosan, UNIX-yo‘naltirilgan veb-serverlarda qo‘llaniladi. Ma’lumotlar bazalaridan erkin foydalanishni ta‘minlash, dinamik sahifachalarni yaratish uchun foydalaniladi.

petabayt

ingl.: petabyte

rus.: небайт

2-chidan 50-chigacha bo‘lgan (1 125 899 906 842 624ta) kuch baytlari. Petabayt 1024 terabaytgina teng.

peydjing

ingl.: paging

rus.: пейджинг

Radioaloqa (telekommunikatsiya) xizmati. U abonentlarga bir yo‘nalishda akustik chaqiriq signallarini uzatish uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, qabul qiluvchi displayida

chaqiriqni aks ettirish uchun zarur ma’lumotlar ham uzatadi.

PFC

qisq.: PowerBuilder Foundation Classes

PowerBuilderning asosiy [kengaytmalari] sinfi. Sybase firmasining PowerBuilder qo‘llanmalari ishlab chiqish tizimi uchun qo‘srimcha sinflar kutubxonasi.

PGA

qisq.: Pin Grid Array

Tanasining (mikrosxemaning) ignasimon chiqishlarining matritsali joylashuvi.

PGP

qisq.: Pretty Good Privacy

Binoyidek maxfiylik, PGP dasturi. Elektron pochta xabarlarini shifrlash uchun ommaviy dastur. Ochiq kalitli shifrlash algoritmiga asoslangan.

PHP tili

ingl.: PHP language

rus.: язык PHP

Ixtisoslashgan (Hypertext Preprocessordan olingan) til. Veb-sahifalar mazmunini dinamik tarzda shakllantirib skriptlarni veb-server tomonda yaratish uchun mo‘ljallangan. PHP tili 1994 yili Rasmus Lerdorf tomonidan ishlab chiqilgan. So‘ngra, tilni ishlab chiqish ishlari boshqa mutaxassislar tomonidan davom ettirilgan. PHP skript (sintaksisi Perl va C tillarinikiga o‘xshash) HTML hujjatda maxsus PHP teglar ichida joylashgan bo‘ladi. Chunki, PHP serverda bajariladi, mijoz esa PHP kodning mazmunini ko‘ra olmaydi. PHP, CGI dasturning ixtiyoriy vazifasini bajarishi mumkin, ammo, uning bosh afzalligi ko‘pgina ma’lumotlar bazalari bilan uyg‘unlashganligidir. PHP, IMAP, SNMP, NNTP, POP3, HTTP bayonnomalarini quvvatlaydi.

PIC

qisq.: Picture Image Compression

Tasvirlarni zinchlash, PIC formati.

PIF

qisq.: Program Information File

Dastur to‘g‘risidagi axborot fayli, PIF-fayl. Windows uchun DOS-dastur ishlashini sozlash ko‘rsatkichlari saqlanadigan fayl.

*ingl.: pixel**rus.: пиксель*

Tasvir elementi. Tasvirni diskretlash (boshqa bo'linmaydigan elementlar – diskretlarga, uyalarga yoki rastr nuqtalariga bo'lish) natijasida paydo bo'ladigan eng kichik tarkibiy qism. To'g'ri to'rt burchak shakliga va tasvirning makonga oid ajrata olishini belgilovchi o'chamlarga ega.

piktogramma*ingl.: pictogram**rus.: пиктограмма*

Biror obyektni (fayl, dastur va h.k. ni) aynanlash uchun videoekranda joylashgan kichik rastrli tasvir. Uni tanlash va faollashtirish natijasida biror amalni chaqiradi. U foydalanuvchi grafik interfeysi elementlaridan biridir.

PIM*qisq.: Personal Information Manager*

Shaxsiy axborot yordamchisi. Elektron yon daftarcha; shuningdek, shaxsiy axborotlarni – aloqalar, uchrashuvlar va h.k.larni saqlaydigan shaxsiy kompyuter dasturi.

PIN*qisq.: Personal Identification Number*

Shaxsiy aynanlash tartib raqami.

ping*ingl.: ping**rus.: пинг*

(ingl. ping – “taqqillatmoq” so‘zidan) Boshqa kompyuterga tarmoq orqali signalni jo‘natish va javob signalini kutib olish. Odatda bu aloqani tekshirish uchun qilinadi.

pinglash*ingl.: pinging**rus.: пинговка*

Siz va sizni qiziqtiruvchi tarmoq kompyuteri orasida paketlarning o‘tish vaqtini o‘lchash (ping buyrug‘i orqali amalga oshiriladi). Bu domen va istalgan tarmoq qurilmasining IP manzili orasida muvofiqlikni o‘rnatish imkonini beradi.

PIO*qisq.: Programmed Input/Output*

Dasturlanadigan kiritish-chiqrish.

PKCS*qisq.: Public-Key Cryptography Standards*

Ochiq kalitli kriptografiya standartlari.

PKI*qisq.: Private Key Infrastructure*

Ochiq kalitlar infratuzilmasi.

PLA*qisq.: Programmable Logic Array*

Dasturlanadigan mantiqiy matritsa, DMM.

plugin*ingl.: plug-in**rus.: плагин*

Veb-brauzer kabi asosiy dasturning funksional imkoniyatlarini oshirish uchun ishlataladigan dinamik tarzda ulanuvchi modullar to‘plami. Ulardan odatda Veb-brauzeriga turli formatlardagi ma'lumotlarni aks ettirish va ularga ishlov berish yoki standart formatlarni aks ettirishning yangi imkoniyatlarini qo'shish uchun foydalilanadi.

plastik karta*ingl.: plastic card**rus.: карта пластиковая*

Shaxsiylashtirilgan to‘lov asbobi. Kartadan foydalanuvchi shaxsga tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish, hamda to‘lov tizimi qatnashchi-banklari bo‘limlаридан va bankomatlardan naqd pul olish imkonini beradi.

plazma display*ingl.: plasma display**rus.: плазменный дисплей*

Yuzasiga o‘rnatilgan parallel elektrodlar bilan ikki mustahkamlangan shisha platralari orasiga neon/ksenon gazlari aralashmasini zichlash yo‘li bilan ishlovchi yassi panelli display turi. Platalar elektrodlar to‘g’ri burchaklarni tashkil qilib piksellarni yaratishi mumkin bo‘lgan holda mustahkamlangan. Ikkiti elektrod orasida kuchlanish impulsi o‘tganda gaz bo‘linib, ultrabinafsha nurlanishni chiqaruvchi kuchsiz ionlangan plazmani ishlab chiqaradi. Ultrabinafsha nurlanish rang fosforlarini faollashtiradi va har bir pikseldan ko‘zga ko‘rinadigan yorug‘lik chiqadi. Bugungi kunda plazma displaylari ommabop bo‘lmoqda. An‘anaviy katod-nurli trubkali displaylarga solishtirganda plazma displaylari ulardan o‘n marta nozikroq (4 dyum) va olti marta

yengilroq (40 dyumli display uchun 67 funtdan kam). Ular 16 milliondan ziyod ranglardan foydalanib 160 darajali ko'rish burchagiga ega.

Plug-and-Play texnologiyasi

ingl.: *Plug-and-Play technology*

rus.: *технология Plug-and-Play*

Tizimni uning tarkibiy qismlarini tez o'rnatish yoki almashtirish yo'li bilan yaratish yoki o'zgartirish usuli. Plug-and-Play texnologiyasi, xuddi shunday PnP deb ham belgilanadi, obyektga-yo'naltirilgan me'moriy tuzilmadan foydalanishga asoslangan bo'lib, uning obyektlari bo'lib tashqi qurilmalar va dasturlar xizmat qiladi. Bunday yondashuv tufayli, bir qancha muhim masalalar yechiladi. Ulardan birinchisi, Plug-and-Play standartlariga mos platalarни ishlatishdir. Ular audioplate, videoplate va turli tashqi qurilmalarni, sozlash ishlarini bajarmagan holda kompyuter tizimiga ulash imkonini beradi. Bu foydalanuvchilarga tizim uskunalarini turini o'zgartirish bilan bog'liq ishlarini keskin soddalashtiradi. Ya'ni, «o'rnat va ishla» tamoyili qo'llanadi.

Ikkinci imkoniyat dasturiy ta'minot bilan bog'liq. Texnologiya dasturlarni bir yig'madan chiqarib boshqa yig'maga uzatishga imkon beradi. Tabiiyki, bu dasturlar bir xil interfeysga ega bo'lishlari kerak. Tashqi qurilmalarda va dasturlarda bu interfeysning mavjudligi tizimning tashkiliy qismlari shunchalik o'zaro ishlashiga, foydalanuvchilarga esa, tizimning tarkibiy tuzilmasini o'zgartirmagan holda dasturlarni sozlashlariga imkon beradi. Apparat va dasturiy ta'minotni standartlashtirish evaziga, turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan chiqarilayotgan mahsulotlarni avtomatik sozlash bajariladi. Texnologiya shu ma'noda ochiqki, undan hamma ishlab chiquvchilar erkin foydalanishiga ruxsat bor.

PNG

qisq.: *Portable Network Graphics*

Tarmoq ko'chma grafikasi, PNG formati. GIF formati bilan patentlash muammolari paydo bo'Igandan so'ng uning o'rninga kiritilgan yangi grafik format (ping deb o'qiladi). Format yangi bo'Iganligi sababli kam sonli brauzerlar va dasturiy ta'minotni ayrim turlari tomonidan quvvatlanadi. WEBda amalda tarqalmagan. GIFdan farqli o'laroq, ranglilik chuqurligi 64

bit pikselgacha bo'Igan tasvirlarni saqlash imkonini beradi, alohida alfa-kanalni quvvatlaydi, zichlash birmuncha yaxshilangan.

PnP

qisq.: *Plug and Play*

Ula va ishla. Yangi tarkibiy qismlarni tarkibiy tuzulmalash va ularni payqash uchun, operatsion tizim va kompyuter qurilmalarining o'zaro ishslash bayonnomasi.

POA

qisq.: *Portable Object Adapter*

Ko'chma obyektlri moslashtirgich.

PointCast korporatsiyasi

ingl.: *PointCast corporation*

rus.: *корпорация PointCast*

Internet tarmog'i orqali yangilik va boshqa axborotni uzatish uchun 1992 yilda yaratilgan va hozirgi paytda mavjud bo'lмаган kompaniya. Kompaniyaning asosiy mahsuloti PointCast Network bo'lib, u yangiliklarni foydalanuvchilar ish stoliga jo'natib turadi. PointCast Internet va ma'lumotlarni uzatish texnologiyasini muvaffaqiyatli birlashtirgan birinchi kompaniyadir.

1999 yilda PointCast kompaniyasi EntryPoint kompaniyasi tomonidan sotib olinib, 2000 yil oxirida esa EntryPoint Internet Financial Network Inc. bilan birlashib InfoGate kompaniyasini tashkil qilgan.

P

Polibiy kvadrati

ingl.: *Polibi's square*

rus.: *квадратом Полибия*

Grek tarixchisi Polibiy tomonidan tavsiflangan bir alfavitli kriptotizim. 5x5 o'lchovli kvadrat shaklida bo'ladi. Dastlabki matning har bir ramzi bir juft ramz bilan, ya'ni, dastlabki matn ramzi joylashgan katak qatori va ustuniga mos ramzlar bilan almashtiriladi.

polimorfik virus

ingl.: *polymorphic virus*

rus.: *полиморфический вирус*

G'ayrivirus dasturi tomonidan aniqlanishning oldini olish uchun har bir qayta yaratilish va yangi faylga yuqtirish paytida o'z virus imzosini (ya'ni binar tartibini) o'zgartiruvchi virus.

POP

qisq.: Post Office Protocol

1. Post Office Protocol - Pochta bayonnomasi, POP bayonnomasi. Serverdan elektron pochta olish uchun eng ommaviy bayonnomma. Bayonnomaning so'nggi POP (POP3) 3 rusumi, RFC 1939da aniqlangan.

2. Point of Presence – Hozir bo'lish nuqtasi. Tarmoqqa masalan telefon liniyasi orqali, erkin foydalanishga ijozat olish mumkin bo'lgan shaharni yoki geografik maydonni bildiradi. Masalan, Internet provayderi Namanganda uning hozir bo'lish nuqtasi bor degani, Namanganda turib mahalliy telefon tarmog'iiga qo'ng'iroq qilish va tarmoqdan erkin foydalanish mumkinligini bildiradi.

POP3

qisq.: Post Office Protocol, version 3

Pochta Internet bayonnomasining 3-rusumi. Faqat foydalanuvchilar pochta qutilarining ichidagi narsalarni saqlovchi markaziy serverdan pochtani qabul qilish uchun xizmat qiladi.

port

ingl.: port

rus.: порт

Qurilma yoki dasturdan erkin foydalanish nuqtasi.

port tartib raqami

ingl.: port number

rus.: номер порта

Bitta kompyuterda tarmoq orqali aloqa qila oladigan bir necha dasturni yurgizish mumkin. Ushbu dasturlarni ajratish uchun ularga yurgizilish paytida shaxsiy port tartib raqami beriladi. Ba'zan port tartib raqami URLda kompyuter nomidan keyin yoziladi. Masalan, <http://www.website.com:80/> URL tarkibida 80 soni bor. Bu port tartib raqami, u kompyuter nomidan ikki nuqta bilan ajratiladi.

portal

ingl.: portal

rus.: портал

Turli xil resurs va xizmatlardan tizimli tarzda ko'p pog'onali birlashma sifatida tashkil qilingan sayt. Foydalanuvchiga aniq axborot beradi, izlash tizimlari, elektron xaridlar, bepul elektron pochta, savdo reklamasi, xabarlarini birdaniga jo'natish, veb kimoshdi savdosи, chatlar kabi xizmatlardan bir onda foydalanish

imkonini beradi. Portallar ko'plab foydalanuvchilarni jalb etish va ularning qiziqishlari haqida axborot yig'ish imkoniga ega. Ushbu atama umumiy turdag'i, ya'ni Internetning ma'lum auditoriyasi uchun «bosholang'ich nuqta» rolini o'yinaydigan portallarga tegishlidir. Umumiy turdag'i portallar gorizontal tashkiliy tuzilmaga ega bo'lib, bir necha mavzuni birlashtiradi.

POSIX

qisq.: Portable Operating System Interface for computer environments

Ko'chirma operatsion tizimi interfeysi. Unix operatsion tizimi interfeyslarini tavsiflovchi standart.

POST

qisq.: Power-On Self-Test

Ozuqa ulangach o'z-o'zini testlash, POST tartiboti. BIOS dasturi vazifalaridan biri, kompyuter tarkibiy qismalarini ketma-ket testlab chiqadi.

PostScript tili

ingl.: PostScript language

rus.: язык PostScript

Hujjatlarni shu jumladan tasvirlarni tavsiflaydigan ixtisoslashgan til. Adobe Systems kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. PostScript asosan, lazerli printerlarda hujjatlarni choplash uchun mo'ljalangan til bo'lib, nashriy standart bo'lib hisoblanadi. PostScript obyektga yo'naltirilgan tildir, chunki, tasvirlarga ishlov berishda, shu jumladan shriftlarga ham, ularni geometrik obyektlar majmuasi deb qaraydi.

pochta manzili

ingl.: mail address

rus.: почтовый адрес

Foydalanuvchi pochta qutisining aynanlashtiruvchisi. @ belgisi bilan ajratilgan foydalanuvchi ismi va pochta serverining domen nomidan iborat. Misollar: adm@company.com, info@ddi.uz. Pochta manzilini olish uchun pochta serverida ro'yxatdan o'tish lozim (bepul serverlarda ro'yxatdan o'tish WWW orqali 3-5 daqiqa ichida ro'y beradi, ichki tarmoqlarda bu vazifani odatda pochta serveri ma'muri bajaradi).

pochta mijozি*ingl.: mail client**rus.: почтовый клиент*

Foydalanuvchi tomonidan xatlarni o'qish, qabul qilib olish, jo'natish va boshqa amallarni bajarish uchun foydalanadigan dastur. Ushbu dastur yordamida foydalanuvchi pochta va News serverlariga ulanib ular bilan ishlaydi. Eng mashhur dasturlarga Microsoft Outlook, Netscape Messenger, Eudora, The Bat kiradi.

pochta qutisi*ingl.: mail box**rus.: почтовый ящик*

Pochta serverida axborotni (xatlar, xabarlar, qo'llanmalar) yozish uchun mo'ljallangan qattiq disk maydoni. Pochta qutisi egasi maxsus mijoz dasturi yordamida quti tarkibini ko'rishi, nusxa olishi, ko'chirishi, o'chirishi mumkin. Pochta qutisiga har bir pochta qutisini boshqalardan farqlash imkonini beruvchi noyob elektron manzil beriladi.

pochta serverи*ingl.: mail server**rus.: почтовый сервер*

Foydalanuvchilarning shaxsiy xatlarini qabul qilib olish va uzatishni hamda ularni yo'naltirishni ta'minlovchi server. Pochta serverini tashkil qilish uchun shaxsiy kompyuterga tegishli dasturiy ta'minotni o'rnatish lozim. Pochta – Internetda muloqot qilishning asosiy vositasi.

pochta ustasi*ingl.: postmaster**rus.: постмастер*

Tashqi abonentlar mazkur bog'lama haqida axborot olish uchun murojaat qiluvchi shaxs. Uning vazifalariga, jumladan, foydalanuvchilarga ko'rsatmalar berish ham kiradi.

PPP*qisq.: Point-to-Point Protocol*

Nuqta-nuqta bayonnomasi, PPP bayonnomasi. Ulanishning ikki tomoni orasida uzib-ulanadigan yoki ajratilgan kanal bo'yicha ma'lumotlarni uzatish bayonnomasi. Ko'pincha, kompyuterlarni Internet tarmog'iga modem va telefon liniyasi orqali ulashda ishlataladigan bayonnomasi. RFC 1661da aniqlangan.

PPTP*qisq.: Point-to-Point Tunneling Protocol*

Nuqta-nuqta tunnellash bayonnomasi, PPTP bayonnomasi. Kriptografikaviy himoyalangan ulanishlarni yaratish bayonnomasi.

printer*ingl.: printer**rus.: принтер*

Printer qurilma. Axborotni yoki choplash uchun boshqa materiallarni – proyeksiyon apparatlar uchun shaffof tasma, plastik va h.k.larni – qog'ozga chiqarish. Printerlarning ko'plab farqli turlari mavjud.

printer ajrataolishi*ingl.: printer resolution**rus.: разрешение принтера*

Tasvirni chop etib chiqarishda bir dyumda yotgan nuqtalar soni. Masalan, 300-dpi (300 dyumga 300 nuqta) ajrata olishga ega printer, 1dyum chiziqqa 300 nuqtani choplay oladi. Bu degani u, bir dyum kvadratga 90.000 nuqtani Chop etishi mumkin.

P

print-server*ingl.: print-server**rus.: принт-сервер*

Mahalliy tarmoqda bitta printerdan ushbu tarmoqning barcha ish stansiyalari tomonidan foydalanish qurilmasi.

Progress Software korporatsiyasi*ingl.: Progress Software corporation**rus.: корпорация Progress Software*

Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari (MBBT) sohasida dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniya. Progress Software kompaniyasi o'z MBBTni yaratgan bo'lsa ham, uning asosiy ustunligi xohlagan MBBT bilan o'zaro ishlashi mumkin bo'lgan qo'llanmalarni yaratish vositalarini taqdim etishdan iborat.

proksi-server*ingl.: proxy server**rus.: прокси-сервер*

Brauzer va oxirgi veb-server o'rtasida vositachi sifatida foydalaniluvchi o'rtaлиq veb-serveri. Proksi-serverdan foydalanishning asosiy sababi – axborotni uzatishni tejash va keshlash orqali kirish tezligini oshirish. Masalan, kompaniyaning ko'pchilik xodimlari ko'pincha

bir xil veb-serveridan foydalanib turganda, bunday server sahifalari proksida saqlanadi va shunday qilib dastlabki serverdan bir martagina so'raladi. Proksi-serverdan foydalanishning ikinchi sababi IP manzillarini tejayolishi mumkinligi, ya'ni proksidan foydalanganda kompaniya faqat bitta ommaviy IP manzilga ega bo'lishi mumkin.

PROLOG tili

ingl.: PROLOG language

rus.: язык PROLOG

Sun'iy tafakkur masalalarida foydalaniladigan yuqori pog'onadagi dasturlash tili. «Mantiq tushunchalarida dasturlash» tili, PROLOG (PROgramming LOGic) mantiqiy fikrlardan va qoidalar majmuasidan iborat. Fikrlar shartlardan (predikatlardan), bog'lammallardan, doimiylardan iborat bo'lib, ma'lumotlar bazasini tashkil qiladi. Qoidalar quyidagi shaklga ega: «A, agar B va D». Tilning asosiy elementi bo'lib «atom» deb nomlangan element hisoblanadi, u ayrim obyektlar orasidagi munosabatlarni ifodalarydi. PROLOG bu – formal mantiqdan foydalanish uchun yangi yondashuv. Bu tildan foydalanib, dasturchi bevosita tushunchalar orasidagi mantiqiy aloqalar bilan ish tutadi.

PROM

qisq.: Programmable Read-Only Memory

Dasturlanadigan doimiy xotiralash qurilmasi, DDXQ.

protsessor

ingl.: processor

rus.: процессор

1. Kompyuterning buyruqlarni tahlil qiluvchi va bajaruvchi funksional qurilmasi. Protssessor kamida buyruqlarni boshqarish qurilmasi va arifmetik-mantiqiy qurilmadan iborat bo'ladi.
2. Muayyan buyruqlarning aniq bajarilishini ta'minlovchi funksional qurilma.

provayder

ingl.: Internet Services Provider (ISP)

rus.: провайдер

qarang: Internet provayderi

PSTN

qisq.: Public Switched Telephone Network

Umumiyl foydalanishdagi uzib-ulanadigan telefon tarmog'i.

PSU

qisq.: Power Supply Unit

Ozuqa bloki.

PTN

qisq.: Public Telephone Network

Umumiyl foydalanishdagi telefon tarmog'i.

pul vositalarining elektron almashuvi

ingl.: Electronic Funds Transfer (EFT)

rus.: электронный обмен денежными средствами

Biror bankdagi biror shaxsnинг yoki tashkilotning hisob raqamidan, boshqa shaxsnинг yoki tashkilotning hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish imkonini beradigan elektron tijorat texnologiyasi. Bu atamadan, shu texnologiyadan foydalanish hodisasini ifodalash uchun ham foydalaniladi.

Qq

Q&A

qisq.: Questions and Answers

Savollar va javoblar.

QA

qisq.: Quality Assurance

Sifat nazorati.

qadam-baqadam o‘girish

ingl.: interpreter

rus.: интерпретатор

qarang: interpreter

qadsizlanish

ingl.: discredit

rus.: компрометация

Kompyuter muhofazasi buzilishi. Buning natijasida dasturlar yoki ma‘lumotlar o‘zgartirilishi, yo‘q qilinishi yoki mualliflashtirilmagan obyektlardan erkin foydalanish imkoniyati tug‘ilishi mumkin.

qadsizlovchi nurlanish

ingl.: discredit emission

rus.: компрометирующее излучение

Ixtiyoriy nurladigan signallar. Ularni tutib olishda va tahlil qilishda ishlov berilayotgan yoki uzatilayotgan nozik axborot oshkor bo‘lishi mumkin. Misollar – akustik (tovush) nurlanishi, elektromagnit to‘lqinlar nurlanishi.

Qalpoq qurilmasi

ingl.: Head-Mounted Device (HMD)

rus.: шлем

Insonni, virtual borliqqa botishi uchun boshiga kiyiladigan maxsus qalpoq. HMD qurilmasi bosh kiyim shaklida yasalgan bo‘lib, o‘zi uncha og‘ir emas (200 gr atrofida) va uch asosiy qismlardan tashkil topgan. Ulardan birinchisi hajmi tasvir hosil qilish uchun mo‘ljallangan. U suyuq kristalli indikatorlar asosida yaratilgan ikki ekran shaklida yasalgan. Bu ekranlar foydalanuvchining ko‘zлari qarshisida joylashgan. HMD ning ikkinchi qismi hajmi tovush olish uchun xizmat qiladigan qulqoq radiokarnaylaridir. HMD ning uchunchi qismi bosh burilishlarini kuzatishni ta’minlaydi. Bu

virtual borliqda foydalanuvchi holatiga taqlid etish imkonini beradi.

qamal qilish

ingl.: locking

rus.: блокировка

1. Obyektni ajratib qo‘yish, uni muayyan amallarni bajarishga to‘sinqinlik qiladigan holatga keltirish.

2. Obyektlarni birgalikda ishlataladigan resursdan erkin foydalanishini nazorat qilish mexanizmi. Bir tarafdan, qamal qilish noxush holatlardan saqlanish tadbiridir. Boshqa tarafdan, axborot tizimida yoki tarmoqda vujudga kelgan noxush holatni qamal qilish deb tushuniladi.

3. Umumiyl foydalanishdagi ma‘lumotlar bazasida, turli foydalanuvchilar tomonidan bir xil ma‘lumotlardan bir vaqtida erkin foydalanish va o‘zgartirishlarini nazorat qilish mexanizmi.

qattiq disk

ingl.: hard disk

rus.: жесткий диск, твердый диск

Diskovodda doim mustahkamlangan qattiq magnit diskisi yoki disklar majmui. U yozish, o‘qish kallakkleri bilan birga changdan tozalangan atmosfera bosimi ostida oddiy havo bilan to‘ldirilgan germetik yopiq korpusga solingan. Diskning aylanishida uning ustida kallakkarning disk ustidan tahminan bir necha mikron balandlikda osilib turishini ta’minlovchi «havo yostig‘i» paydo bo‘ladi. IBM muhandislari o‘zlarining birinchi qattiq magnit diskda jamlovchilarini (QMDJ) Winchester deb atashgan. Bunga sabab qattiq diskning 30 Mbitli ikkitga plastinadan (30-30) iborat bo‘lganligidir. Bu loyiha rahbari Ken Xotonga (Ken Haughton) Winchester miltig‘ini eslatgan (0,30 kalibrli ikki stvol).

qayd yozuvni

ingl.: profile

rus.: учетная запись

Kompyuterda saqlanuvchi foydalanuvchi tavsifi. Odatda u o‘z ichiga foydalanuvchining tarmoqdagi ismi, haqiqiy ismi, paroli, foydalanuvchi huquqlari, uy katalogi nomini (agarda u mavjud bo‘lsa) oladi.

qaydlangan yo‘naltirish

ingl.: fixed routing

rus.: фиксированная маршрутизация

Tarmoqda ishlatalayotgan yo'naltirish usuli. Qaydlangan yo'naltirish, mo'ljallanayotgan tarmoq trafikining samaraliroq yo'llarini ko'rsatuvchi yo'nalishlar jadvalini tuzishni ko'zda tutadi. Bunda yo'nalish avvaldan tanlanadi va tarmoqning holatiga bog'liq bo'lmaydi.

qaynoq almashtirish

ingl.: *hot swap*

rus.: *горячая замена*

Elektr manbaini o'chirmagan va tizim ishini to'xtatmagan holda tizimning ichki bloklarini, masalan, server shaxsiy kompyuterida qattiq diskлarni, almashtirish usuli.

qayta uzatgich

ingl.: *relay*

rus.: *ретранслятор*

Radiotarmoqda ikkita radiokanal o'zaro ishlashimi ta'minlovchi ko'priq.

qayta uzatish tizimi

ingl.: *relay system*

rus.: *ретрансляционная система*

Ma'lumotlarni uzatishga yoki bayonnomalarni o'zgartirishga mo'ljallangan axborot tizimi. Turli arxitekturaga ega bo'lgan tarmoqlarni birlashtiradi. Qayta uzatish tizimlarida har bir tarmoq to'la muxtoriyatga va o'z boshqarash vositalariga ega. O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun, qayta uzatuvchi tizimlar quyidagilarni amalga oshiradi:

- ma'lumotlarni kommunikatsiyasi va ularni yo'naltirish;
- ulanadigan kommunikatsiya tarmoqlarida yoki tarmoqlar qismlarida bayonnomalarni moslash;
- ma'lumotlar bloklarini tarmoqlar yoki ularning qismlari orasida uzatish;
- ma'lumotlar bloklarini, agar tarmoqlarda (ularning qismlarida) ular turli o'lchovlarga ega bo'lsalar, yiriklashtirish yoki kichraytirish;
- tizimlarni buferlari toshib ketishi va yuz bergen nosozliklar haqida xabar berish;
- rad qilishlar va nosozliklardan so'ng ishni qayta tiklash;
- ulanayotgan tarmoqlarni yoki ularning qismlari holatini aniqlash;
- o'z ishini hisob qilib borish va bu haqida hisobot tayyorlash.

qayta-ulanadigan to'plagichli halqa

ingl.: *ring with a wiring concentrators*

rus.: *кольцо с переключающими концентраторами*
 Bir yoki bir necha guruh o'zaro bog'langan yulduzlar shaklida ifodalangan halqa tarmog'i. Ulanib turadigan to'plagichning vazifasi bo'lib, davriy halqani ishonchli ishini ta'minlash hisoblanadi. Buning uchun to'plagich yoylarni bir-biri bilan shunday ulaydiki, topologiya ma'nosida yulduzsimon tarmoq hosil bo'lsin. Natijada, barcha ularish bloklari orqali o'tadigan yagona halqa paydo bo'ladi. Yoyda yoki abonent tizimda nosozlik paydo bo'lishi bilan to'plagich tegishli yowni halqadan o'chiradi. Shuning evaziga, halqaning qolgan qismi odatdagisi ishini davom ettiraveradi.

QBASIC tili

ingl.: *QBASIC language*

rus.: *язык QBASIC*

Microsoft kompaniyasi tomonidan OS DOS va Windows 95 bilan bиргатаклиф qilingan BASIC dasturlash tilining interpretatori. QBASIC tilining interpretatori BASIC tili vazifalarining ko'pchiligini quvvatlaydi va to'ldiradi.

QBE

qisq.: *Query By Example*

Andoza bo'yicha so'rov.

QBF

qisq.: *Query By Form*

Shakl orqali so'rov. Ma'lumotlar bazasiga ekran shaklini to'ldirish vositasida so'rov berish.

qizil kitob

ingl.: *red book*

rus.: *красная книга*

1. AQSH Mудофоа Vazirligining kompyuter tarmoqlarini baholash bo'yicha yo'rqnoma sifatida chiqarilgan kitob. National Computer Security Center nashri. U hisoblash tarmoqlari uchun Trusted Computer System Evaluation Guidelines -TCSEC ni ta'riflab bergan. Qizil kitob nomi bilan ham mashhur. U qizil muqovali ikkita alohida kitobdan iborat. Birinchisi Trusted Network Interpretation of the Trusted Computer System Evaluation Criteria (NCSC-TG-005) nomi bilan chop etilgan, 1987 yilni 31 iyulida tasdiqlangan va ikkinchisi Trusted Network Interpretation Environments Guideline: Guidance for Applying the Trusted Network Interpretation (NCSC-TG-011) nomi bilan chop etilgan, 1990 yilni 1 avgustida tasdiqlangan.

2. ITU-T X.400 Message Handling System (MHS) tavsiyanomasi elektron pochtani saqlash va jo'natishga oid xalqaro ikkita standartning birini (ikkinci standart -SMTP) aniqlaydi. U ifodalashni, uzatishni va yetkazib qo'yishni muhofazalashni turli usullarini qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. X.400 standartini, (uning muqovasi tufayli) gohida qizil kitob deb ham atashadi.

QL

qisq.: Query Language

qarang: so'rovlar tili

qobiqsiz integral sxema

ingl.: bare integrated circuit

rus.: безкорпусная интегральная схема

Muhofazalovchi qobig'i bo'limgan integral sxema. Ularning chiqarilishi sharofati bilan, apparatura ishlab chiqaruvchilar o'zlarining ko'pmikrosxemali komplekslarini (mikroprotsessorlar, elektron xotira qurilmalari, maxsus mantiqiy modullar, mikrokontrollerlar, modemlar) yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunda ko'pmikrosxemali kompleks avval seriyalab ishlab chiqarilgan tarkibiy qismlardan yig'ilib, so'ngra biror bir qobig'a yoki boshqa muhofazalovchi g'ilofga joylashtiriladi.

qidabuzar

ingl.: infringer

rus.: нарушитель

1. Dastur yoki ma'lumotlardan ruxsatsiz erkin foydalanish niyatida bo'lgan, bunga urinayogan yoki urinib ko'rgan shaxs yoki tashkilot.

2. Harakatlari ma'lum kompyuter tizimi axborotining xavfsizligini buzuvchi subyekt.

qidabuzar modeli

ingl.: infringer model

rus.: модель нарушителя

Qidabuzarning amaliy va nazariy imkoniyatlari, oldingi bilimlari, harakat vaqt va joyi va h.k.ni aks ettiruvchi mayhum (rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmagan) tavsifi.

QoS

qisq.: Quality Of Service

qarang: xizmatlar sifati

qotil paketlar

ingl.: killer packets

rus.: пакеты-убийцы

Tizimni, unga tarmoq dasturlaridagi xatolardan foydalanuvchi Ethernet yoki IP paketlarini jo'natish yoki tizim ishini halokatli tugatish orqali ishdan chiqarish uslubi.

QUILP

qisq.: QUad-In-Line Package

Chiqish tutashmalari to'rt qatorda joylashgan (mikrosxema uchun) tana.

qurilma fayli

ingl.: device file

rus.: файл устроистства

Soxta-fayl (qurilma. U baytlar (ma'lumotlar ketma-ketligini yozish va undan o'qish uchun xizmat qiladi. Odatiy fayllar bilan ishslash doimo biror bir tashqi qurilmaga baytlar ketma-ketligini o'qish (yoki yozish)dan iborat Odatda bu qattiq disk, disketa yoki kompakt-disk. Lekin hech kim baytlar ketma-ketligini printerga yozishni yoki baytlar ketma-ketligini klaviaturadan o'qishni taqilamagan. Shu bilan birga operatsion tizim, odatiy fayl bilan ishlayotgandek ishlayaveradi. Masalan, MS-DOS da "CON" ismli faylga yozish, ekranga chiqarishni anglatadi. "PRN" ismli faylga yozish - bu ma'lumotlarni printerga uzatishni, "CON" faylidan o'qish - bu ma'lumotlar oqimini klaviaturadan uzatish, "COM1" ismli faylga yozish - bu ma'lumotlarni 1-chi ketma-ket port orqali uzatishni (tizimli blokning orqa tomonida shunday ajratgich bor) anglatadi. PRN, COM1, CON soxta-fayllar "qurilmalar fayllari" degan maxsus nom olganlar.

qurt

ingl.: worm

rus.: червь

Muxtor dastur.U ma'lumotlarni qayta ishslash tizimlari yoki kompyuter tarmoqlari orqali tarqalishi mumkin. Qurtlar xotira, xotira qurilmalari yoki ma'lumotlarni qayta ishslash vaqt kabi mayjud resurslarni kamaytirish uchun yaratiladi.

quyi pog'ona tili

ingl.: Low-Level Language (LLL)

rus.: язык низкого уровня

Ma'lumotlarni boshqarish va tuzilmasi bevosita muayyan kompyuter arxitekturasini aks ettiradigan dasturlash (Assembller tili yoki mashina tili) tili.

QWERTY

QWERTY klaviaturasi. Stolusti kompyuterlari uchun klaviaturaning standart yoyilmasi.

qo'llanma

ingl.: application

rus.: приложение

Ma'lum foydalanish sohasida ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiruvchi jami dasturlar.

qo'lyozma matnni tanish

ingl.: handwriting recognition

rus.: распознавание рукописного текста

Qo'lyozma matni ramzlarini kodlar ketma-ketligiga aylantirish texnologiyasi. Qo'lyozma matnnini tanish, matnni skaner yoki yorug'lik perosi yordamida axborot tizimiga kiritish imkonini beradi. Jipslashgan matnni tanish dasturiy ta'minotdan qo'lyozmaning uzlucksiz chizig'ini ayrim ramzlariga ajratishni talab qiladi. Bu oson masala emas, vohalanki, qo'lyozmaning o'zi yakka ma'noli emas. Bunda, lug'atlarni ishlatish qo'l keladi. O'qiydigan tizimlar ham mayjud bo'lib, ular har bir foydalanuvchiga 25-35 so'zni yozib berishni taklif qiladilar. Tizim yozilgancharni o'rganadi va mazkur foydalanuvchi qo'lyozmasini taniy oldi.

qo'riqlanadigan axborot

ingl.: protected information

rus.: охраняемая информация

1. Axborot mulkdori yoki mulkdor vakolat bergen shaxs tomonidan, kuchga ega qonunchilikka binoan muhofaza qilish maromi o'rnatilgan axborot.

2. Erkin foydalanish va almashuv bilan bog'liq jarayonlarda, ishlatilishi, qonunchilik bilan o'rnatilgan qoidalarga mos bajariladigan axborot.

Rr

R&D

qisq.: Research and Development
Tadqiqotlar va ishlanmalar.

R/W

qisq.: Read/Write
O'qish - yozish.

RAD

qisq.: Rapid Application Development
qarang: dasturlarni tez ishlash

radio chastota spektri monitoringi

ingl.: monitoring of radiofrequency spectrum

rus.: мониторинг радиочастотного спектра

Tashkiliy-texnik tadbirdilar majmui. U radio chastota spektri holatini nazorat qilish, undan foydalanishni baholash, radio chastota spektri to'g'risidagi qonunbuzarliklarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan.

radioaloqa

ingl.: radio communication

rus.: радиосвязь

Radioto'lqinlar yordamida amalga oshiriladigan telekommunikatsiya.

radioelektron qurilma

ingl.: radio electronic device

rus.: радиоэлектронное устройство

Bitta yoki bir necha radiouzatuvchi va (yoki) radioqabul qiluvchi qurilmalar hamda yordamchi uskunalaridan tashkil topgan texnika vositasi.

radioelektron vosita

ingl.: radio electronic tools

rus.: радиоэлектронные средства

Radioto'lqinlar uzatishga va qabul qilishga mo'ljallangan bir yoki bir necha radiouzatuvchi yoki radioqabul qiluvchi qurilmalar yoki ularning birikmasi va yordamchi uskunalaridan iborat texnika vositasi. Bu vosita uzatish va qabul qilish uchun mo'ljallangan, o'z ishida chastotasi 5 KGs dan yuqori bo'lgan elektromagnit tebranishlaridan foydalanidigan radiostansiyalar, radiotelefondlar,

radionavigatsiya va radioaniqlash tizimlari, kabel teleko'rsatuvlari tizimi hamda boshqa vositalardan iborat.

radiohalal

ingl.: radio interference

rus.: радиономеха

Bitta yoki bir necha nurlanishlardan hosil bo'lgan elektromagnit energiyasining radioaloqa tizimida qabulga ta'siri. U axborot sifati yomonlashishida, xatolar paydo bo'lishida yoki axborot yo'qotishda namoyon bo'лади.

radiokanal

ingl.: radio channel

rus.: радиоканал

Ma'lumotlar uzatish uchun radionurlanishdan foydalanadigan kanal. Radiokanal radiouzatkich va radio qabul qiluvchidan tarkib topgan. Radionurlanish chastotasi radiokanal vazifasiga ko'ra tanlanadi. Axborot tarmoqlarida radio kanallar ikki maqsadda ishlataladi. Birinchisi, abonentizmi kabellar guruhi asosida qurilgan tarmoq bilan ulashdir. Bunga, yer bo'ylab kabel tortish iloji bo'lmasa yoki tizim bir joydan boshqasiga ko'chib yursa ehtiyoj tug'iladi. Ikkinchisi, maqsad, radiotarmoq yaratishdir.

R

radionurlanish

ingl.: radio-frequency radiation

rus.: радиоизлучение

Elektromagnit spektrda infraqizil nurlanishdan oldin joylashgan elektromagnit nurlanish. Tebranish chastotasi 3-30 KGs dan 300-6000 GGs gacha bo'lgan elektromagnit to'lqinlari radionurlanishga oiddir. Bu chastotalar polosasini olti diapazonga bo'lish qabul qilingan. Bu diapazonlar radionurlanishlar tarqalishi xususiyatini belgilab beruvchi turli xil radioto'lqinlarga tegishli. Shuni nazarda tutish kerakki, bu polosalar doimiy bo'lmay radiotexnika rivojlana borgan sari kengayib boradi.

radiorele liniyasi

ingl.: microwave radio

rus.: радиорелейная линия

«O'tayuqori chastota» diapazonida ishlaydigan radiokanal. Radiorele liniyasi, 2; 7; 13; 15; 18; 23; 38 GGs chastotalarda ishlaydigan, o'tkazish polosasining kengligi 3,5-28 Mgs bo'lgan, 50 km uzoqlikgacha ma'lumotlarni uzata oladigan yerusti radiotarmog'ining tarkibiy qismidir.

radiostansiyaingl.: *radio station*rus.: *радиостанция*

Bitta yoki bir necha uzatgich yoki qabul qiluvchilar yoki uzatgich va qabul qiluvchilarning, shu jumladan, yordamchi uskunalar birikmasi. U belgilangan joyda radioaloqa xizmatini yoki radioastronomiya xizmatini bajarish uchun zarur.

radiotarmoqingl.: *radio network*rus.: *радиосеть*

Radiokanalallarga ega bo'lgan simsiz tarmoq. Radiotarmoqlar hududiy yoki mahalliy bo'lishi mumkin. Arxitekturasiga ko'ra -ma'lumotlarni yo'naltirishli tarmoqlar va ma'lumotlarni tanlashga asoslangan tarmoqlar farqlanadi. Xuddi shunday, yerusti radiotarmoqlari va yo'ldosh aloqasi tarmoqlari farqlanadi. Radiotarmoqlarning birinchi avlod analog signallarni uzatishga mo'ljallangan edi. So'ngra, uzatish sifatini oshirish va qo'llanish sohasini kengaytirish maqsadida, radiotarmoqlarda diskret signallarni ishlata boshladilar. Har qanday turda ma'lumotlar uzatadigan radiotarmoqlar yaratish imkoniyati tug'ildi. Radiotarmoqlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, tayanch stansiyalari, ya'ni, abonent tizimlari bevosita o'zaro ishlaydigan, axborot tizimlari hisoblanadi.

radiotelefoningl.: *radiophone*rus.: *радиотелефон*

Radioto'lqinlar orqali nutq yoki musiqa uzatish yoki qabul qilish apparati. Radiotelefonlarni besh guruhi ajratiladi:

- tarmoq bilan radiokanal orqali ulanadigan telefon apparatlar;
- Mobil, ular avtomobilarda o'rnatiladi;
- tashishga qulay, ular yumshoq sumkalarda va g'iloflarda joylashadi;
- ko'chma, ular portfel-diplomatga yengil joylashadi;
- shaxsiy, ular kostum kissasida joylashadi.

radioto'lqiningl.: *radio wave*rus.: *радиоволна*

Shartli ravishda, chastotasi 6000 GGs dan past deb qabul qilingan elektromagnit to'lqinlar.

Ular fazoda sun'iy to'lqin o'tkazgichisiz ishoralar, signallar, yozma matn, tasvir va tovushni uzatish yoki qabul qilish uchun tarqatiladi.

Oltita radioto'lqin diapazoni ajratiladi:

1. O'tauzun to'lqinlar (tebranishlar chastotasi 3-30 KGs).
2. Uzun to'lqinlar (30-300 KGs).
3. O'rtalik to'lqinlar (300-3000 KGs).
4. Qisqa to'lqinlar (3-30 MGs).
5. Ultraqisqa to'lqinlar (30 MGs - 300 GGs).
6. Submillimetrlik to'lqinlar (300-6000 GGs).

radiochastotaingl.: *radio frequency*rus.: *радиочастота*

qarang: radioto'lqin

radiochastota spektriingl.: *radio frequency spectrum*rus.: *радиочастотный спектр*

Shartli ravishda qabul qilingan 3000 GGs dan past oraliqda joylashgan radiochastotalar majmui.

radiochastota taqdimotiingl.: *radio frequency assignment*rus.: *радиочастотное присвоение*

Radiochastota taqdim etuvchi tashkilot tomonidan foydalanuvchiga aniq radiochastotadan foydalanishga berilgan ruxsatnomasi.

RADIUSqisq.: *Remote Authentication Dial-In User Service*

Qo'ng'iroq qilayotganni uzoqdan autentifikatsiyalash xizmati, RADIUS bayonnomasi. NAS serveri va autentifikatsiya (RADIUS serveri) serveri orasidagi o'zaroaloqada ishslash bayonnomasi. Birlamchi Livingston kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan (so'ngra Lucent xarid qilib olgan), RADIUS bayonnomasi de-fakto va IETF (RFC 2058) standartidir

RAIDqisq.: *Redundant Array of Independent Disks*

qarang: RAID massivlari

RAID massivlariingl.: *RAID arrays*rus.: *массивы RAID*

Ma'lumotlarni saqlash ishonchliligini ta'minlash tizimi. U mustaqil disklardan iborat

bo'lgan ortiqcha massiv (RAID-massiv). Yuqori hajm, samaralilik va ishonchlikka ega disk tizimlarini yaratish texnologiyasi. Maxsus qurilma – RAID-nazoratchisi – yordamida bir necha disklar operatsion tizim tomonidan yagona katta disk sifatida qabul qilinadigan tarzda birlashtirilishi mumkin. RAID-tizimlarida ishonchlik ortiqchalik orqali amalga oshiriladi. Eng oddiy misol, bu RAIDning 1 pog'onasi, ya'ni, disklar oynasi mayjud bo'lgan hol. RAIDning mashhur 5 pog'onali xilida to'plamdag'i disklarning bittasi qolgan disklarning nazorat summasini saqlaydi. Ortiqchalik to'plamdag'i disklarning biri ishdan chiqqan holatda uni almashtirish va dastlabki axborotni qayta tiklash imkonini beradi.

RAIDning pog'onalar deb nomlanuvchi oltita ish maromi mayjud:

- 0 pog'onasi ma'lumotlarni disklar bo'yicha taqsimlashni ta'minlaydi. Bunda xatolarni tekshirish va ma'lumotlarni ortiqcha yozishlar yo'q.
- 1 pog'onasi oyna disklarni taqdim etadi. Ularning har biri o'z «aksida» taqroranib, boshqa diskdag'i ma'lumotlarni to'la taqrorlaydi.
- 2 pog'onasi disklarning ketma-ket almashishini ta'minlaydi va nazorat diskini ajratadi. Har bir amal jarayonida barcha disklardan o'qildi.
- 3 pog'onasi baytlarning ketma-ket almashishini ta'minlaydi va ma'lumotlarni qayta tiklash uchun juftlik diskini ajratadi. Juftlik disk ni nazorat summalarini saqlaydi va ayrim disklarning ishdan chiqishi oqibatlarini bartaraf qilish imkonini beradi.
- 4 pog'onasi bitlarning ketma-ket almashishi va nazorat summasi bilan tavsiflanadi. Ma'lumotlar disklar bo'yicha taqsimlanadi.
- 5 pog'onasi ma'lumotlar bloklarining ketma-ket almashishini amalga oshiradi va nazorat diskini ajratadi. Nazorat summalarini disklar bo'yicha taqsimlanadi.

RAM

qisq.: Random Access Memory

To'g'ridan-to'g'ri almash xotirasи, tezkor xotira qurilmasи.

RAMDAC

qisq.: Random Access Memory Digital-to-Analog Converter

RAM uchun raqam-analog o'zgartirgichi. Xotiradagi tasviri videomonitor uchun analog signallar oqimiga almashtirib beradigan vilemoslagichning mikrosxemasi.

ramz

ingl.: character

rus.: знак

Biror bir tushunchani, hodisani, jarayonni shartli ifodalashda xizmat qiluvchi alomat. Ramz yoki alomat sifatida, raqam, harf, punktuatsiya belgisi yoki tabiiy tilni iyeroglifi, tinish belgisi, bo'shilik belgisi, maxsus ramz, amal ramzi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, boshqaruvchi ramzlar keng ishlataladi.

ramzni tanish

ingl.: character recognition

rus.: распознавание символов

Belgilarni optik o'qish moslamasi asosida yaratilgan elektron qurilma.

rang

ingl.: colour

rus.: цвет

Muayyan elektromagnit spektrli yorug'likni ko'z bilan sezish. Kompyuter grafikasida rang uch tavsifnomasi bilan tavsiflanadi:

- ta'sirchanlik, yorug'lik nuri chastotasi bilan belgilanadigan sifat;
- to'yinganlik, rangni berilgan ta'sirchanlik bilan ifodalinish darajasi, odatda foizlarda belgilanadi (0 dan 100 gacha);
- ravshanlik, nurlanish energiyasi darajasi (yorug'lik oqimining zichligi).

Kompyuter tizimlarida rang bir necha model bilan tavsiflanishi mumkin. Masalan, assosiya «qizil, yashil, ko'k» ranglarni yagona tarzda birikmasi RGB deb ataluvchi model, ko'pgina kompyuterlarda foydalilanadi. Oq qog'ozga choplashda «feruza, to'q-qizil, sariq» CMY modelidan foydalilanadi.

rangli choplash

ingl.: colour print

rus.: цветная печать

Matn va grafikani rangli choplash imkoniyati. Amalda barcha purkovchi printerlar, rangli tasvirlarni yuqori sifat bilan choplay oladilar. Lazer printerlari ham rangli choplashni amalga oshira oladi, lekin bunday printerlar ancha qimmat turadi.

raqamlash*ingl.: ranking**rus.: ранжирование*

Izlash mashinasining bazasidan foydalanuvchining talabnomasiga mos keladigan sahifani tanlash jarayoni. Shuningdek, sahifani talabnomaga mos kelish (relevantlik) foizi kamayib borishi tartibida taqdim etiladi. Ranjlash uchun muayyan izlash mashinasining relevantlik formulasi ishlatalidi, unda, relevantlikka ta'sir o'tkazadigan turli faktorlar turli vazn koeffitsiyentlari qatnashadi. Relevantlik formulasi har doim sir utiladi, yoki juda bo'limganda, faktorlarning vaznlari oshkor etilmaydi.

raqam asri*ingl.: digital age**rus.: цифровой век*

Raqamli texnologiyalar global ravishda tarqalganda yuzaga kelgan atama. Bu jarayon zamonaviy hayotni ijtimoiy-madaniy jihatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

raqam-analog o'zgartirishi*ingl.: Digit-to-Analog Conversion (DAC)**rus.: цифро-аналоговое преобразование*

Diskret signalni analog signalga aylantirish jarayoni. Aksariyat hollarda maxsus integral sxemalar yordamida amalga oshiriladi.

raqamlash*ingl.: digitalization**rus.: цифрование*

Analog signalni diskret signalga aylantirish jarayoni, ya'ni, analog ma'lumotlarni raqamli, kompyuter muhitida mavjud bo'la oladigan va mashina o'qiydigan tashuvchilarda saqlanadigan shaklga o'tkazish. Kompyuter grafikasida, geoinformatikada va sh.k. larda qo'llaniladi. Analogli tasvirlarni raqamlash, ko'pincha skanner yordamida bajariladi.

raqamlashtiruvchi*ingl.: digitizer**rus.: дигитайзер*

Chizma va boshqa tasvirlarni raqamlashtirish uchun mo'ljallangan qurilma. Raqamlashtiruvchi tasvirlarni kompyuterda ishlov berish uchun raqamli shaklga o'girish imkonini beradi.

raqamli*ingl.: digital**rus.: цифровой*

Raqamlardan tashkil topgan ma'lumotlarga, hamda bu ma'lumotlardan foydalanadigan jarayonlar va funksional qurilmalarga tegishli tushuncha.

raqamli abonent liniyasi*ingl.: Digital Subscriber Line (DSL)**rus.: цифровая абонентская линия*

Oddiy telefon liniyasi asosida, Internetga yuqori tezlikli kirish kanalini yaratish texnologiyasi. DSL texnologiyasi, ma'lumotlarni zichlashtirish uchun murakkab modulyatsiya sxemalaridan foydalanadi. Bu texnologiya «so'nggi mil» texnologiyasi deb ham ataladi, chunki, u telefon stansiyalarini bir-biri bilan ularsha emas, balki, uy va idoralarni telefon stansiyalarini bilan ularsha mo'ljallangan. DSL texnologiyasi, kommunikatsiya xizmatlari ko'rsatuvchidan uzoq bo'limgan (6 km.gacha) masofalarda yuqori tezlikdagi aloqaga ega bo'lib, ISDN texnologiyasiga nisbatan kattaroq tezlikda ma'lumotlar uzatish bilan farqlanadi. DSL ning barcha turlanishlari xDSL tarzida belgilanadi. Internetga tezkor asinxron kirish Asymmetric DSL (ADSL) texnologiyasi yordamida ta'minlanadi, tezkor sinxron aloqa esa, Symmetric DSL (HDSL) texnologiyasi yordamida ta'minlanadi.

raqamli fotoapparat*ingl.: digital photographic camera**rus.: цифровой фотоаппарат**qarang: raqamli kamера***raqamli hamyon***ingl.: digital wallet**rus.: цифровой бумажник**qarang: elektron hamyon.*

Plastikli kartadan foydalanim Internet tarmog'ida tovar uchun haq to'lash uchun mo'ljallangan dastur. Mijozga Internet orqali xavfsiz hisob-kitob qilish imkonini beradigan dasturiy ta'minot.

raqamli imzo*ingl.: digital signature**rus.: цифровая подпись**qarang: elektron raqamli imzo***raqamli iqtisodiyot***ingl.: digital economy*

rus.: цифровая экономика

Raqamli kommunikatsiyalar yordamida olib borilayotgan iqtisodiyot.

qarang: elektron iqtisodiyot

raqamli kamera

ingl.: digital camera

rus.: цифровая камера

Raqamli formatda tasvirlar olish, ishlov berish va saqlash uchun foydalaniadigan kamera. U suratlarni saqlash uchun, plenka o'rniiga ichiga o'rnatilgan yoki almashtiriladigan yarim o'tkazgichli xotiradan foydalanadi. U kompyuter, televizor va printer bilan ulanishi mumkin. Kadrga ishlov berish bevosita kamerada amalga oshirilganligi sababli, foydalanuvchi olingan tasvirni darhol to'g'riligini tekshirishi, uni choplashi yoki elektron pochta orqali jo'natishi mumkin. Odatda, raqamli kamera 10 dan 200 gacha tasvirlarni saqlashi mumkin. Bozorda taklif qilinayotgan elektron fotapparatlar qurilmalari 496x360 dan 6000x7520 gacha piksellarni ajrata oladi. Odatda, foydalanuvchi olinayotgan tasvirlar sifatini (ajrata olishini) tanlashi mumkin, bu esa saqlana oladigan tasvirlar soniga ta'sir qiladi.

raqamli konvert

ingl.: digital envelop

rus.: цифровой конверт

1. Xabarning oxiriga qo'shib yuboriladigan va muayyan qabil qiluvchiga xabarning mazmunini butunligini tekshirish imkonini beradigan ma'lumotlar.

2. Xabarlarni shifrlash uchun simmetrik kriptotizim, maxfiy kalitlarni shifrlash uchun esa asimmetrik kriptotizimdan foydalaniadigan mexanizm. Shunday qilib, uzoq muddatli kalit asimmetrik kriptotizimga, seansli kalit esa simmetrik kriptotizimga mansub.

raqamli modem

ingl.: digital modem

rus.: цифровой модем

Ma'lumotlarni uzatish uchun analogli modemlarga nisbatan, yuqoriqoq chastotalardan (4 KGs dan 1-2 MGs gacha) foydalananidigan modem. Bu esa bir necha Mbit/s tezlikka (maksimal tezlik aloqa liniyasining sifatiga va aloqa bog'lamasigacha bo'lgan masofaga bog'liq) yetkazib ma'lumotlar uzatish imkonini

beradi. Bunda past chastotalardan foydalaniilmaydi, bu esa, ulanishni uzmagan holda telefonda gaplashish imkonini beradi. Raqamli modemlar bilan ishslash uchun ATS larda maxsus qurilmalar o'rnatilgan bo'lishi kerak, shu sababli raqamli modemni sotib olishdan oldin, ATS bu xizmat turini quvvatlashiga ishonch hosil qilishi zarur.

raqamli poligrafiya

ingl.: digital poligraphy

rus.: цифровая полиграфия

Lazer yordamida choplash texnologiyasi. Raqamli poligrafiya tezkor hisoblanadi, chunki, hujjatlar ko'lamenti kompyuterden diskret signallarni ola turib, juda ham qisqa vaqt ichida choplash imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli poligrafiyanı qimmatroq ekanligini hisobga olib, undan nashr ko'lami katta bo'lmagan hollarda foydalaniadi. Raqamli poligrafiyaning yaratilishi kompyuter-choplash atamasini keltirib chiqardi. U kompyuter va poligrafiya orasida oraliq amallar yo'qligini anglatadi.

raqamli pul

ingl.: digital cash

rus.: цифровые деньги

Naqd pulning elektron analogi. Raqamli pul sotib olimishi mumkin, ular elektron shaklda maxsus qurilmalarda saqlanadi va xaridorning ixtiyorida bo'ladi. Saqlash qurilmalari sifatida, smart-kartalar yoki maxsus kompyuter tizimlaridan foydalaniadi.

raqamli radio

ingl.: digital radio

rus.: цифровое радио

Radiotarmoq orqali uzatilayotgan tovushga raqamli ishlov berish texnologiyasi.

raqamli sertifikat

ingl.: digital certificate

rus.: цифровой сертификат

Sertifikalash markazi tomonidan berilgan elektron hujjat. Undan kompaniya yoki foydalanuvchini aynanlash uchun uning ochiq kalitini tekshirish yo'lidan foydalaniadi.

raqamli signal

ingl.: digital signal

rus.: цифровой сигнал

qarang: diskret signal

raqamli signalizatsiyaning ma'lumotlar bo'g'ini

ingl.: digital data signalling link

rus.: звено данных сигнализации цифровое

Ma'lumotlar bo'g'ini. U chekka signalizatsiya qurilmalari bilan interfeysi amalga oshiradi va raqamli uzatish kanallaridan hamda raqamli uzib-ulagichlardan yoki ularning chekka uskunalaridan iborat.

raqamli tabaqałanish

ingl.: digital divide

rus.: цифровое неравенство, цифровой разрыв, дигитальный раскол

qarang: axboriy tabaqałanish

1. Aholini kompyuter texnologiyalaridan erkin foydalanishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan qismlari orasidagi chegara. Texnologiyalar olamiga kirkganlar bilan kirmaganlar orasidagi tengsizlik.

2. Global miqyosda, ayrim mamlakatlarning xalqlari uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan erkin foydalanish imkoniyatining yo'qligi. Raqamli tengsizlik muammosi o'ylab chiqilganmi yoki yo'qmi, bu babs 5 yildan beri davom etmoqda. Ilk bor Digital Divide so'zları 1997 yili ovoza qilindi. Aynan o'shanda, BMT o'zining uchinchi dunyo mamlakatlarini rivojlantirish dasturini chop etdi.

3. Jamiatning tabaqałanishi (mablag', oila tarkibi, kelib chiqishi, ta'lif darajasi va h.k.dagi farq). Bunda Internetdan to'liq erkin foydalanish imkonni hamma fuqorolar uchun teng emas.

raqamli tarmoq

ingl.: digital network

rus.: цифровая сеть

Diskret signallar uzatadigan va ularga ishlov beradigan kommunikatsiya tarmog'i. Raqamli tarmoqlar, avvalgi analogli tarmoqlarga nisbatan yetarlicha afzalliklarga ega. Ularga birinchi navbatda, shovqinga yuqori bardoshligi, mikroprotsessор va xotira qurilmalaridan keng foydalanish, kanal hosil qiluvchi apparatlarning oddiyligi kiradi. O'lchamlariga qarab mahalliy, hududiy va global tarmoqlar faqlanadi.

raqamli tasvir

ingl.: digital image

rus.: цифровое изображение

Raqamli shaklda taqdim qilingan, analalog tasvirlarni skaner, tele- va videokamera yordamida raqamlash yo'li bilan olingan tasvir.

raqamli teleko'rsatuv

ingl.: digital television

rus.: цифровое телевидение

Diskret signallar yordamida amalga oshiriladigan teleko'rsatuvlar. 1997 yilning aprel oyida AQSH ning aloqa bo'yicha federal komissiyasi, televizion jamiyatlarga raqamli teleko'rsatuvlarga o'tishga ko'rsatma berdi. Unga ko'ra, AQSH ning asosiy televizion stansiyalari 1999 yilning kuziga raqamli eshittirishlarni boshlashlari kerak, 2006 yilga kelib barcha stansiyalar raqamli eshittirishlarga o'tkaziladi. Bu qaror boshqa davlatlarda ham raqamli teleko'rsatuvlarga o'tishga turki bo'ldi. Raqamli teleko'rsatuvlarni yaratish shaxsiy kompyuterlarni televizor bilan va teleko'rsatuvlar texnologiyalarini ma'lumotlar uzatish bilan birlashishni anglatadi.

raqamli tizim

ingl.: digital system

rus.: цифровая система

Raqamli signallarni tezkor uzatishga mo'ljallangan majmua.

raqamli videodisk

ingl.: Digital Video Disk (DVD)

rus.: цифровой видеодиск

Ixtiyoriy turdagı ma'lumotlarni yozishga mo'ljallangan katta hajmdagi raqamli disk. Axborot saqlash uchun optik disk texnologiyasining keyingi avlodidir. DVD bir shaklga keltirilgan standart bo'lib, matn, tasvir va tovush yozish hamda maishiy videotexnikada foydalanish uchun mo'ljallangan. Ma'lumotlarni DVD ga yozishda, bir vaqtning o'zida, disklarning hajmini oshirish imkonini beradigan ma'lumotlarni zichlashtirish amalga oshiriladi. Ikki turdagı disklar chiqariladi. Bir qatlamlı DVD disk 4,7 Gbayt ma'lumotlarni saqlaydi, bu 135 minut davom etadigan videofilmni yozishga, yoki tovushni 9 soat eshitishga yetadi. Bu 34 000 ta epcil disk demakdir. Ikki qatlamlı texnologiya bu sig'imni 8 Gbayt gacha yetkazadi. Ikki tomonlama DVD disk, yoziladigan ma'lumotlar hajmini 17 Gbayt gacha yetkazadi. DVD 1380 Kbait/s gacha tezlik bilan ma'lumotlarni o'qishni

ta'minlaydigan, ma'lumotlarga o'rtacha kirish vaqtiga 190 ms bo'lgan o'yinuritma deb ataladigan qurilmaga o'rnatiladi. Tasvirlar 500 qatorga yaqin format bilan uzatiladi. Tovushga kelganda, u ko'pkonalli (6 kanallii) bo'lishi mumkin. DVD videofilmlarni faqat maishiy videotexnikada emas, balki shaxsiy kompyuterlarda ham ko'rishni ta'minlaydi. Kinostudiylar videofilmlarni DVD da chiqarmoqdalar.

raqamli xarita

ingl.: *digital map*

rus.: *цифровая карта*

Raqamli shaklda xuddi rastrli fayl kabi taqdim qilingan tasvir. U yoxud, havo yoki kosmik (uchar) apparatlardan bevosita radiokanal orqali, yoki analogli tasvirlarni skaner, tele- yoki videokameradan raqamlash yo'li bilan olinadi

raqamli Yevropa simsiz aloqasi

ingl.: *Digital European Cordless Telecommunications (DECT)*

rus.: *цифровая европейская беспроводная связь*

Raqamli simsiz aloqa uchun Yevropa standarti DECT. Cheklangan maydonlarda mini-uyali tarmoqlar yaratish uchun xizmat qildi. Ko'p jihatdan GSM standartiga o'xshaydi. Ovoz ADPCM algoritmi bo'yicha kodlanadi.

RARP

qisq.: *Reverse Address Resolution Protocol*

Manzilni aniqlash teskari bayonnomasi, RARP bayonnomasi. Mahalliy tarmoqda kompyuter o'zining MAC-manziliga mos IP-manzilini so'raydigan bayonnomasi.

RAS

qisq.: *Remote Access Service*

Uzoqdan kirish xizmati. Windows operatsion tizimida mahalliy tarmoqqa modem orqali ularanish imkonini beradigan tizimli xizmat.

rastr

ingl.: *raster*

rus.: *pacmap*

Tasvirlarni to'g'ri burchakli matritsaviy tasvir elementlari – piksellar shaklida taqdim qilishning raqamli vositasi. Ular tasvirlarni yoki fazoviy obyektlarni rastrli ifodalash asosidir.

rastrli tasvir

ingl.: *raster image*

rus.: *расстроеное изображение*

Alovida oddiy elementlar bo'lmish piksellardan qatorlab shakllantiriladigan tasvir. Tasvir matritsasidagi ko'psonli piksellar uning shunday shaklini ta'minlaydiki, unda nuqtalar bir biri bilan deyarli qo'shilishib ketadi. Rastrli grafikaning muhim fazilati bo'lib, tasvirlarga ishlov berishni ancha yengillashtiradigan, tasvirning har bir elementini tahrirlash imkonidir. Rastrli tasviralarning kamchiligi, ohista o'zgaradigan egi chiziqlarni yarata olmaslidir. Masalan, aylana har doim siniq egi chiziq shaklida tasvirlanadi, darhaqiqat, bu chiziqning sinishilaridagi sakrashlarni, tasvir rastri nuqtalari sonini oshirish hisobiga, kamaytirish mumkin (ammo, yo'q qilib bo'lmaydi).

rastrli-vektorli o'zgartirish

ingl.: *raster-to-vector transformation*

rus.: *растрово-векторное преобразование*

Fazoviy obyektlarni rastrli ifodalashdan vektorli ifoda shakliga avtomatik yoki yarimavtomatik ravishda aylantirish (konvertrash). Rastr- vektorli o'zgartirish vektorlar bo'yicha ixtisoslashgan dasturiy vosita tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

ravshanlik

ingl.: *brightness*

rus.: *яркость*

Kompyuter grafikasida rang tavsiflanadigan uch tavsifnomadan (to'yinganlik va ta'sirchanlik bilan bir qatorda) biri. Ravshanlik nurlanish energiyasining darajasini (yorug'lik oqimini zichligi) belgilaydi.

RDA

qisq.: *Remote Database Access*

Ma'lumotlar bazasidan uzoqdan erkin foydalanish, RDA bayonnomasi. Ma'lumotlar bazasidan erkin foydalanishni standart kommunikatsiya bayonnomasi.

RDB

qisq.: *Relational Data Base*

qarang: relyatsion ma'lumotlar bazasi

RDBMS

qisq.: *Relational DataBase Management System*

qarang: relyatsion MBBT

RDF

qisq.: *Resource Description Framework*

Resurslarni tavsiflash sxemasi, RDF standarti. XML tiliga asoslangan standart, W3C konsorsiumi tomonidan tasdiqlangan. Metama'lumotlarni yaratish qoidalari ham uning tarkibiga kirgan, Internet resurslarini standart tarzda tavsiflash imkonini beradi.

RDRAM

qisq.: Rambus DRAM

Rambus firmasi DRAMi. Ma'lumotlarni yuqori tezlik bilan almasha oladigan xotira mikrosxemasining turi, Rambus firmasining ishlanmasi.

RealAudio

Audioni jonli efirda eshitish imkonini beruvchi brauzerlarga qo'shiladigan modul. Bundan tashqari, axborotni tarmoq orqali uzatish paytida eshittirish imkonini ham beruvchi axborot zichlashning o'z yuqori samarali usulidan foydalanadi.

RealVideo

Videoni jonli efirda ko'rish imkonini beruvchi brauzerlarga qo'shiladigan modul. Bundan tashqari, axborotni tarmoq orqali uzatish paytida aks ettirish imkonini ham beruvchi axborot zichlashning o'z yuqori samarali usulidan foydalanadi.

redirekt

ingl.: redirect

rus.: редирект

Foydlanuvchini tanlangan sahifadan boshqa sahifaga majburiy ravishda qayta yo'naltiradigan dasturiy ishlanma yoki skript.

registr

ingl.: register

rus.: регистрация

Hodisalarни, obyektlarni, kodlarni ro'yxatga olish uchun mo'ljallangan biror bir narsaning ro'yxati yoki xotira sohasi. Informatikada registr deganda, kompyuterning tarkibiy qismlari orasida jo'natiladigan, cheklangan o'lchamli kodlarni vaqtincha saqlashga mo'ljallangan oddiy qurilma tushuniladi. Registrning muhim xossasi, ma'lumotlarni qabul qilish va berishda yuqori tezlikka ega bo'lishidir. Registr uyalardan iborat, ularga so'z, buyruq, ikkilik sanoq tizimida berilgan son va boshqalarни yozish, eslash va o'qib olish mumkin. Ko'pincha, registr kompyuter

ishlaydigan so'z o'lchami bilan bir o'lchamga ega. Ixtiyoriy registrning ish tezligi, u saqlay oladigan bitlar soni bilan belgilanadi. Registrlarni boshqarish, odatda, mikrodasturlash vositalari bilan bajariladi.

reinjiniring

ingl.: reengineering

rus.: реинжиниринг

Odatda, axborot texnologiyalari asosida, biznes-jarayonlarni takroran, boshqa shaklda loyihalash.

reklama

ingl.: advertising

rus.: реклама

Biror narsa haqidagi axborot tarqatish uslubi. Reklama bozor egallash maqsadida amalga oshiriladi. Reklama uchun maxsus nashr, gazeta va jurnallar hamda global tarmoqlar ishlatiladi. Internet.tarmog'ining global ularish xizmati, teleko'rsatuvlar va radioda kompyuter reklamasi bunga misol bo'laoladi.

reklama maydonchasi

ingl.: banner area

rus.: рекламная площадка

Sotish (yoki almashishga) uchun taklif qilinayotgan, odatda biror mulkdorga tegishli reklama o'rinnari majmui. Masalan, bu sayt yoki reklama tarmog'i yoki mavzu bo'yicha tarqatish bo'lishi mumkin. Odatda, reklama maydonchasi o'zining auditoriyasi, uning soni va sifati (ijtimoiy-demografik tavsifnomasi) bilan tavsiflanadi.

reklama tarmog'i

ingl.: banner networks

rus.: рекламная сеть

Muayyan reklama o'rinnarida reklama materiallarni joylashtirishni boshqarish imkonini beradigan tizim. Tarmoqlar turli reklama maydonchalaridagi reklama o'rinnarini birlashtirishi mumkin (masalan, banner ayirboshlovchi tarmoq, banner xarid tarmoqlari) yoki bir saytning yoki portalning ichida (ichki tarmoqlar) ishlatiladi.

reklama o'rni

ingl.: banner place

rus.: рекламное место

Veb-sahifa dizaynidagi aniq turdagи reklama materiallarni joylashtirish uchun ajratilgan

o‘rin. Qoidaga ko‘ra, bir sahifada bir necha reklama o‘rnini bo‘ladi, masalan, 468x60 bir banneriga va ikki 100x100 banneriga. Saytning mazmunidan yaqqol ajralib turadigan, reklama o‘rnining dizayni nafislik belgisi bo‘lib hisoblanadi. Odatda, «birinchi ekranga» tushadigan reklama o‘rnulari qimmatroq hisoblanadi, chunki, bunda ko‘rib chiqish uchun sahfalarni varaqlash talab qilinmaydi.

relevantlik

ingl.: relevance

rus.: релевантность

1. Olingan natija kutilgan natijaga mos kelishi darajasi. Izlash atamalarida – bu izlash natijasini talabnomada qo‘yilgan vazifaga mos kelishi darajasi.
2. Internet tarmog‘ida – qanchalik izlash mashinasi topgan hujjat sizning talabnomangizga qanchalik mos kelishini ko‘rsatadigan son. Relevantlikni hisoblash ancha murakkab. Bu sohada yetakchi <http://www.google.com/> relevantlikni hisoblash uchun sun‘iy tafakkur elementlarini jalb qilgan. Bunda foydalanuvchilarning tanlovini kuzatib borish orqali sun‘iy tafakkur tizimi o‘z tajribasini oshirib boradi.

relyatsion ma'lumotlar bazasi

ingl.: Relational DataBase (RDB)

rus.: реляционная база данных

Tarkibiy qismlar munosabatlari to‘plami shaklida mantiqiylar tashkillashtirilgan ma'lumotlar bazasi. RDB ning alohida xususiyati, uning tuzulmasi jadval shaklida ekanidir. Bunday jadvallarning qatorlari – yozuvlarga, ustunlari – atributlarga (saqlanayotgan ma'lumotlarning alomatlari) mos keladi. Relyatsion ma'lumotlar bazasini ishlashish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ma'lumotlarni jadval shaklida yig‘ish va saqlash;
- ularning mazmunini yangilash;
- atributlar yoki yozuvlar bo‘yicha turli axborotni olish;
- olingan ma'lumotlarni diagramma yoki jadval shaklida aks ettirish;
- baza materiallari bo‘yicha kerakli hisoblarni bajarish.

relyatsion MBBT

ingl.: Relational DataBase Management System (RDBMS)

rus.: реляционная система управления базой данных

Ma'lumotlar jadvallar shaklida berilgan MBBT turi. Jadval yozuvlar bog‘lanishlarini aks ettiradi. MBBT lari soddaligi, muxtasarligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Ularning har biri, bir vaqtning o‘zida bir necha jadvallarda joylashgan ma'lumotlar bilan ishlaydi. Shu sababli relyatsion ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlardan tezkor erkin foydalanishni ta‘minlaydi. Ko‘proq ishlataladigan MBBT larga Oracle, Sybase, MySQL, Microsoft Access misol bo‘lishi mumkin.

replikatsiya

ingl.: replication

rus.: репликация

Bir necha serverda ma'lumotlar bazasini takrorlash. Axborotdan erkin foydalanish samaradorligini oshiradi. Haqiqatdan ham foydali bo‘lishi uchun, muntazam ravishda yangilashni va ko‘chirilgan nuxsalarni mutanosibligini kafolatlash zarur.

resurs

ingl.: resource

rus.: ресурс

1. Tizimning, foydalanuvchiga yoki jarayonga ajratilishi mumkin bo‘lgan, mantiqiylar yoki jismoniy qismi.
2. Hisoblash tizimining ixtiyoriy tarkibiy qismlaridan biri va u taqdim qilayotgan imkoniyatlar.
3. Hisoblash tizimining yoki uning ayrim tarkibiy qismlarining, hisoblash jarayoniga yoki foydalanuvchiga taqdim qilinishi mumkin bo‘lgan vaqt, apparat, dasturiy va boshqa vositalari. Masalan, biror bir dasturni ishlashi uchun ajratilishi mumkin bo‘lgan markaziy protsessoring vaqt, tezkor yoki tashqi xotira sohasi va kiritish-chiqrish qurilmalari resursdir.
4. Xizmat yoki bir turdag‘i xizmatlarni taqdim qiladigan, muayyan auditoriyaga xizmat ko‘rsatadigan va mustaqil loyiha muqomiga (o‘zining xususiy noyob nomiga) ega veb-sahifalar majmui.

R

RET

qisq.: Resolution Enhancement Technology

Ajrataolish qobiliyatini yaxshilash texnologiyasi, RET texnologiyasi.

REXX

qisq.: REstructured eXtended eXecutor

Tuzilmasi qayta tuzilgan kengaytirilgan ijrochi, REXX tili. IBM kompaniyasi ishlab chiqqan skriptlar tili.

reyestr

ingl.: registry

rus.: реестр

Qaralsin: domen nomlar reyestri, Windows reyestri

resident

ingl.: resident

rus.: резидент

qarang: rezident dastur

rezident dastur

ingl.: resident program

rus.: резидентная программа

Dastur. U joriy vaqtida bajarilayotibdimi yo yo'qmi, bundan qat'iy nazar, tezkor xotiradan joy olgan obyektdir.

rezistor

ingl.: resistor

rus.: резистор

Yarimo'tkazgichli asbob. U elektromagnit nurlanishni energiyaning boshqa turlariga o'zgartirishni ta'minlaydi va elektronikada ishlataladi.

RFC

qisq.: Request for Comments

Sharhlar uchun so'rov. IETF guruhining rasmiy hujjati turi. RFC seriyasi hujjatlari tartib raqamga va o'z mavqeiga ega. RFC-hujjatning yakunlangan rusumi Internet standarti bo'lib qolmoqda.

RGB

qisq.: Red, Green, Blue

Qizil, yashil, ko'k; RGB tizimi. Rang kodlash RGB tizimi. RGB tizimida rang uch asosiy aniq jadallikka ega ranglarning yig'indisi sifatida tasavvur qilinadi. Uchchala asosiy ranglarning yo'qligi (nol jadallikka ega) qora rangga mos keladi.

RGBHV

qisq.: Red, Green, Blue, H-sync, V-sync

Alovida sinxronlashga ega bo'lgan qizil, yashil, ko'k rang. RGB videosignalini uzatish usuli, gorizontal va vertikal sinxronlash signallari bir-biridan alovida uzatiladi.

RIP

qisq.:

1. Routing Information Protocol – Yo'naliish axboroti bayonnomasi, RIP bayonnomasi. Katta bo'limgan tarmoqlar uchun yo'naltirish bayonnomasi.

2. Raster Image Processor – Rastrli tasvirlarga ishlov bergich. Tasvirni vektorli turdan bitli xarita (rastr) turiga o'zgartirish uchun xizmat qiluvchi dasturi yoki apparat qurilma.

3. Rest In Peace - Tinch yotgin. Qabrlardagi yozuv.

RISC

qisq.: Reduced Instruction Set Computer

Buyruqlar yig'masi qisqartirilgan kompyuter, RISC me'moriy tuzilmasi.

Mashina buyruqlari (ko'sratmalar) yig'masi, odatda bir xil uzunlikdagi, uncha katta bo'limgan ommabop protsessor turi.

Rich media

Reklama materiallarini yaratishning odatda Flash va Javalarga asoslangan yangi texnologiyasi. Ingliz tilidan "boy" yoki "boyitilgan" vosita deb so'zma-so'z tarjima qilinadi. Rich media afzalliklari qatorida uning yordamida reklamani qiziqarliroq va o'zaro faol qilish mumkinligi ajralib turadi.

richagli mexanizm

ingl.: joystick

rus.: рычажный механизм

Tizingma koordinatalar kiritishga mo'ljallangan qurilma. Richagli mexanizm plastmass g'ilof shaklida yasalgan bo'lib, unga tik ravishda qo'l ushlagich o'rnatilgan. U hech bo'limganda ikkita harakat erkinligi darajasiga ega. Boshqarish tugmachalari g'ilofning ustida va qo'l ushlagichning yuqori qismida joylashadi. Qo'l ushlagichning har tamonga harakatlanishi monitor ekranidagi kursorni boshqaradi. Richagli mexanizm avtomatlashtirishning turli sohalarida va kompyuter o'yinlarida ishlataladi.

RJ

qisq.: Registered Jack

Standart uya. FCC da ro'yxatga olingan ulash uyalariga standartlar.

RLE

qisq.: Run-Length Encoding

Takrorlanish davomiyligini kodlash, RLE usuli. Bir xil elementlar ketma-ketligi takrorlanayotgan element qiymatiga va takrorlanishlar soniga almashtiriladigan kodlash usuli.

RLL

qisq.: Run-Length Limited encoding

Cheklangan davomiylikka ega bo'lgan takrorlanishni kodlash, RLL usuli. Takomillashgan RLE usuli, bunda kodlanayotgan ketma-ketlik uzunligi cheklangan.

RMI

qisq.: Remote Method Invocation

Usulni uzoqdan chaqirish, RMI texnologiyasi. Java maslagi uchun API, uning yordamida obyekt uzoqdan turib (tarmoq orqali) boshqa obyektning usullarini chaqirishi mumkin.

RMON

qisq.: Remote network MONitoring

Uzoqdan tarmoq monitoringi. SNMP bayonnomasining kengaytmasi. Tarmoq bog'lamalari ma'lumotlarni uzatishi bilan bog'liq statistik axborotni hisobga olish registrlarining standart yig'masini ta'minlaydi. Bunday axborot shikastlanishlarni izlash maqsadida markazlashgan aks ettirilishi va tahlil qilinishi mumkin.

robastlik

ingl.: robustness

rus.:robастностъ

Ham ichki, ham tashqi xato holatlar yuz berganda, hisoblash tizimining qayta tiklana olish qobiliyati o'lchovi.

robot

ingl.: robot

rus.: робот

O'zgaruvchan tashqi sharoitda maqsad sari yo'nalgan hulq-atvorga qodir tizim. «Robot» atamasi chex tilidagi «robata» ish so'zidan kelib chiqqan. Bu g'oya ilk bor 1921 yili Karel Chapekning «RUR» (Rossummnning hammabop robotlari) pyesasida ifodalangan.

Fantast yozuvchi Ayzek Azimov ularni 1951yili chiqqan «Men, Robot» hikoyasi va «Robotlar seriyasi»

kitoblari seriyasi bilan mashhur qildi. Robot-sun'iy intellekt va mexanikaning qorishmasidir. Uning asosi kompyuter yoki kompyuterlar guruhidan iborat. Kompyuter tashqi qurilmalar rivojlangan a'zolarni boshqaradi. Tashqi qurilmalar dettalar, asboblar yoki robotning o'zini fazoda va burchak ostida harakatlarini ta'minlaydi. O'z vazifalarini bajarish uchun robot datchiklardan (sun'iy ko'rish, eshtish a'zolari, sensor qurilmalar) kelayotgan axborotga ishlov beradi. «Robot» atamasi «bot»sifatida ham ishlataladi, uning ma'nosи, dasturiy agent bo'lib, u masalan, veb-resurslarni izlashda qo'llaniladi.

ROLAP

qisq.: Relational OLAP

Relyatsion OLAP, ROLAP texnologiyasi. Relyatsion ma'lumotlar bazasida axborot saqlaydigan OLAP- tizimlarning boshqacha shakli.

ROM

qisq.: Read-Only Memory

Faqat o'qish uchun xotira, doimiy xotira qurilmasi.



ROT-13

qisq.: ROTate 13

13 ga burilish. Lotin alifbosida yozilgan xabarlarini kodlashning sodda usuli. Usulning mohiyati alifboni 13tadan belgilardan iborat ikkita nimjadvalga bo'lish va dastlabki xabardagi har bir harfni boshqa nimjadvaldag'i simmetrik harf bilan almashtirishga asoslanadi. Shunday qilib, A harfi N deb kodlanadi, B esa O deb, va teskarisi - N - A, O – B va h.k. boshqa belgilar (ochiq joy, tutinish belgilari) o'zgartirilmaydi.

rotor mashinasi

ingl.: rotor machine

rus.: роторная машина

Umumiy o'q atrofida erkin aylanadigan disklardan iborat kriptografik mashina. Mexanik va elektromexanik bo'lishi mumkin. Mashinaning disklari (rotori) bir biriga nisbatan holatlanadi, shu bilan, har bir taktda burchak holatlaridan noyob birikma hosil qiladi. Agar

mashinaning hamma disklari qo'zg'almas bo'lganda edi, bunda, rotor mashinasi bir diskli oddiy ekvivalent almashtirishni bajaruvchiga o'xshab qolgan bo'lar edi. Disklar soni yetarlichcha (odatda 5-10) bo'lsa, disklarning to'g'ri tanlangan soxta tasodifiy harakatida rotor mashinasi yuqori kriptobardoshlikni ta'minlaydi. Eng mashhur rotor mashinalaridan biri S-36, u yana M-209 Converter nomi bilan ham ma'lum.

rouming

ingl.: roaming

rus.: роуминг

Abonentga avtomatik uzlusiz xizmat ko'rsatish. Roumingni ikki turi mavjud. Birinchisi, milliy rouming. Bunda davlat ichida abonent biror operator tarmog'i ta'sir zonasidan boshqasining ta'sir zonasida o'tsa avtomatik uzlusiz xizmat bilan ta'minlanadi. Ikkinchisi, xalqaro rouming. Bunda, abonent bir mamlaktdan boshqa mamlakatga o'tganda ham mobil abonentga avtomatik uzlusiz xizmat bilan ta'minlanadi.

router

ingl.: router

rus.: маршрутизатор, рутер

qarang: yo'naltirgich

RPC

qisq.: Remote Procedure Call

Tartibotni uzoqdan chaqirish, RPC bayonnomasi.

RPG

qisq.: Role-Playing Game

Rolli o'yin. O'yin ishtirokchisi aniq shaxs o'rniда o'ynaydigan kompyuter o'yini.

RS-232

qisq.: Recommended Specification 232

Tavsiya qilingan 232 spetsifikatsiyasi. Ketma-ket kommunikatsiya interfeys spetsifikatsiyasi.

RSA

qisq.: Rivest-Shamir-Adleman

RSA algoritmi. Ochiq kalit asosida shifrlash algoritmi, 1977 yilda ishlab chiqilgan. Algoritmning nomi uning mualliflari familiajarining birinchi harflaridan hosil bo'lgan: Ron Rivest, Adi Shamir, Leonard Adleman.

RSVP

qisq.: Resource Reservation Protocol

Resurslarni zahiralash bayonnomasi, RSVP bayonnomasi. Tarmoqni zaruriy o'tkazish yo'l-yo'lni vaqtincha zahiralash imkonini beradigan bayonnomasi.

RT

qisq.: Real Time

Haqiqiy vaqt. Haqiqiy vaqtga mansub.

RTC

qisq.: Real-Time Clock

Haqiqiy vaqt soati. Haqiqiy vaqt hisobini olib boradigan qurilma.

RTF

qisq.: Rich Text Format

Kengaytirilgan matn formati, RTF formati.

RTOS

qisq.: Real-Time Operating System

Haqiqiy vaqt operatsion tizimi. Haqiqiy vaqt operatsion tizimlari kattaroq bo'lsa ham (bir necha soniya) kafolatlangan javob vaqtiga egadirlar.

RTTI

qisq.: Run-Time Type Identification

Bajarilish vaqtida turini aniqlash. Obyektga yo'naltirilgan dasturlash tilining tavsifnomasi. Dastur bajarilishi vaqtida muayyan turdag'i obyekt haqida axborot olib turish imkonini beradi.

runet

ingl.: runet

rus.: рунет

Internetning Rossiya qismi, ya'ni, yagona, Rossiya veb-saytlaridan tashkil bo'lgan axborot makoni. Internetda chegaralar geografik alomatlar bo'yicha emas, balki, til bo'yicha bo'ladi. Shu sababli, runet deganda, faqat .ru domenidagi saytlarning o'zigina emas, balki, barcha russiyabzon saytlarni ham tushunish zarur.

RUP

qisq.: Rational Unified Process

Bir shaklga keltirilgan Rational jarayoni. Rational kompaniyasi taklif qilgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish uslubiyatini.

ruter

ingl.: router

rus.: маршрутизатор, рутер

qarang: yo'naltirgich

ruxsatli erkin foydalanish

ingl.: authorized access

rus.:санкционированный доступ

1. Axborot resursiga shtat texnika vositalari yordamida belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshirilayotgan erkin foydalanish.
2. Erkin foydalanishlar uchun chegaralaviy qoidalarni buzmasdan axborotdan erkin foydalanish.

ro'yxatga ishlov berish

ingl.: list processing

rus.: обработка списков

Ro'yxat elementlarini tahlil qilish va tartibga keltirish. Ro'yxatlarga ishlov berishda, ma'lumotlar elementlarining bog'lanishlarini namoyon qiladigan modellash amalga oshiriladi, bu esa ularni izlashni yengillashtiradi. Ro'yxatlarga ishlov berish aslida, elementlar to'plamini tartibga keltirishdir. Ro'yxatlarga ishlov berish, bu maqsadga mos keluvchi tillar yordamida bajariladi, masalan, LISP tili yordamida. Ro'yxatlarga ishlov berish tilining eng muhim vazifasi xotiradan unumli foydalanishdir.

ro'yxatga kiritish

ingl.: registration

rus.: регистрация

Foydalanuvchilarни ro'yxatga olish va ularga dasturlar va ma'lumotlarni ishlatalishga huquq berish jarayoni. Ayrim veb-saytlar foydalanuvchilarga qo'shimcha xizmatlarni olish va pullik xizmatlarga obuna bo'lish uchun ro'yxatdan o'tishni, ya'ni, o'zi haqida qandaydir ma'lumotlarni xabar qilishni (anketa to'ldirishni) va login va parol olishni taklif qiladilar. Ro'yxatga kiritish varaqasini to'ldirganingizdan so'ng, sizning ma'lumotlaringiz sayt egalariga kelib tushadi. Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tganda, uning uchun «akkaunt» (account) deb ataluvchi – hisob yozuvni yaratiladi, foydalanuvchiga tegishli turli axborot saqlanadi, masalan, sayt uchun uning sozlashlari, pullik xizmatlarni istemol qilgani haqida ma'lumotlar va boshqalar.

ro'yxatga olish markazi

ingl.: registration centre

rus.: центр регистрации

Maxsus vakolatli organda davlat ro'yxatidan o'tgan va «Elektron raqamli imzo to'g'risidagi» qonunda nazarda tutilgan vazifalarini bajarayotgan yuridik shaxs. Ro'yxatga olish markazi:

- elektron raqamli imzoning yopiq va ochiq kalitlarini yaratadi;
- elektron raqamli imzo yopiq kaliti muhofaza qilinishini ta'minlaydi;
- elektron raqamli imzolar kalitlari sertifikatlarining reyestrini yuritadi, uning o'z vaqtida yangilanishini hamda undan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalana olish imkoniyatini ta'minlaydi;
- yuridik va jismoniy shaxslarga elektron raqamli imzolar kalitlarining sertifikatlarini elektron hujjatlar shaklida va qog'oz hujjatlar shaklida beradi;
- elektron raqamli imzolar kalitlarining sertifikatlarining amal qilishini to'xtatib turadi va qayta tiklaydi, shuningdek ularni bekor qiladi;
- elektron raqamli imzoli qog'ozdag'i elektron hujjatlarning ko'chirma nuxsalarini tasdiqlaydi va h.k.



Ss

S.M.A.R.T.

qisq.: Self-Monitoring, Analysis and Reporting Technology

Qattiq diskarning o‘z-o‘zini nazorat va tahlil qilish texnologiyasi.

S/C

qisq.: Short Circuit
Qisqa tutashuv.

S/N

- qisq.:*
1. Serial Number – (Mahsulotning) seriya tartib raqami.
 2. Signal-to-Noise - Signal/shovqin [nisbati].

S/PDIF

qisq.: Sony/Philips Digital InterFace [connector]
Sony/Philips raqamli interfeysi. Sony va Philips firmalari tomonidan ishlab chiqilgan raqamli optik audio interfeysi.

sabj

ingl.: subj
rus.: сабж

Inglizcha Subj qisqartmasi. Subject ya’ni mavzu, nom, predmetni bildiradi.

SACD

qisq.: Super Audio Compact Disc

Yaxshilangan audio ixcham-disk. Oddiy CDga qaraganda 6 barobar katta sig‘imga ega, bu esa ko‘p kanalli tovushni juda sifatlari yozish imkonini beradi. SACD ikki qatlamlari bo‘lib, bunda ikkinchi qatlam yo oddiy CD o‘ynatgichlari bilan uyg‘unlik uchun, yo diskning umumiy eshittirish vaqtini ko‘paytirish uchun xizmat qilishi mumkin.

SADT

qisq.: Structured Analysis and Design Technique

Tarkibiy tahlil va loyihalashtrish uslubi, SADT uslubiyati. Biznes loyihalarini modellashtirish va tahlil qilish uchun ishlatalidi. SADT uslubiyati funksional diagrammalar (modellar)ning oddiy grafik ifodasi va ularning bosqichma-bosqich bo‘linishi va

aniqlanishining (yozuvchi-o‘quvchi davri) o‘zaro faol uslubiga asoslangan.

SAG

qisq.: SQL Access Group

SAG guruhি, SQL erkin foydalanish guruhি. SQL tilini qo‘llab-quvvatlovchi relyatsion MBBT yetkazib beruvchilarining uyushmasи.

sahifa

ingl.: page

rus.: страница

Noyob manzilga ega bo‘lgan, ko‘rish dasturi yordamida ochib ko‘rilishi mumkin bo‘lgan hujjat. WWW sahifalaridan iborat. Odatda, bu matn, grafika, tovush, video yoki animatsiya, boshqa hujjatlarga gipermurojaatlarni o‘z ichiga olgan ko‘ptashuvchi hujjatlardir.

sahifaga tashriflar chastotasi

ingl.: site frequency

rus.: частота посещения страницы

Foydalanuvchilar qachon veb-saytga qaytishini ko‘rsatuvchi o‘rtacha kattalik. Bu doimiy yangilanib turuvchi mazmunli saytlar uchun tavsifli. Tashriflar soni chastotasi qanchalik katta bo‘lsa, bannerlar tezroq kuyadi, chunki bu holda bitta tashrifchi tomonidan bannerni bir necha marta ko‘rish ehtimoliyuqori.

SAM

qisq.: Security Account Manager

Xavfsizlik tizimida qayd yozuvlar menejeri.

Samsung Electronics korporatsiyasi

ingl.: Samsung Electronics corporation

rus.: корпорация Samsung Electronics

Telekomunikatsiyalar, kompyuterlar va maishiy texnikani ishlab chiqaruvchi katta kompaniya. Samsung Electronics 1969 yilda Koreya Respublikasida yaratilib, tezda xalqaro kompaniyaga aylangan. Shaxsiy kompyuterlar bilan birga bu yerda qattiq disklar, monitorlar, integral sxemalar va h.k.ni ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan.

SAN

qisq.: Storage Area Network

Ma‘lumotlarni saqlash qurilmalari tarmog‘i. Ma‘lumotlarni saqlash qurilmalarini birlashtiruvchi yuqori tezlikka ega bo‘lgan tarmoq.

sanagich

ingl.: counter

rus.: счётчик

qarang: tashriflar sanagichi.

sanoat josusligi

ingl.: industrial espionage

rus.: промышленный шпионаж

Egasiga zarar yetkazuvchi yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan noqonuniy harakatlar. Bunda tijorat sirini tashkil qiluvchi ma’lumotlarni to‘plash, egallab olish va uzatish nazarda tutildi.

Santa Cruz Operation korporatsiyasi

ingl.: Santa Cruz Operation corporation

rus.: корпорация Santa Cruz Operation

Axborot tarmoqlari uchun dasturiy ta’mintoni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi kompaniya. AQSHda yaratilgan bo‘lib, UNIX operatsion tizimining yuqori samarali rusumlarini, jumladan «muqaddas xoch jarayoni» deb nomlangan SCO UNIX operatsion tizimi va OpenServer operatsion tizimini yaratish orqali mashhur bo‘lgan.

sarlavha

ingl.: header

rus.: заголовок

Ma’lumotlar paketining boshida joylashgan bo‘lib, manzillash axborotini va o‘zida xatolarni tekshirish kodlarini saqlaydi. Shu atamaning o‘zi, elektron pochta xabarida, bevosita matn oldida joylashgan qismini belgilash uchun ham ishlataladi.

SAS

qisq.: Serial Attached SCSI

Ketma-ket SCSI. Diskli jamlovchilarни улар учун SCSI interfeysining evolutsiyasi. Ma’lumotlarni ketma-ket uzatishslobidan foydalanadi. SATA qurilmalarini qo’shishni ham ko‘zlaydi.

SAT

qisq.: SIM Application Toolkit

SIM uchun qo’llanmalar to‘plami, SAT bayonnomasi. Uyali radiotelefonlar SIM kartalarini SMS xabarlar yordamida dasturlashtirish, dasturiy ta’mintoni yurgizish imkonini beradi. Foydalanuvchini aynanlashni ta’minlaydi.

SATA

qisq.: Serial ATA

Ketma-ket ATA. Diskli jamlovchilarни улар учун ATA interfeysining evolutsiyasi. Ma’lumotlarni ketma-ket uzatish uslubidan foydalanadi.

SATAN

qisq.: Security Administrator Tool for Analyzing Networks

Tarmoqlar tahlili uchun xavfsizlik ma’muri quroli.

savdo markasi

ingl.: TradeMark (TM)

rus.: торговая марка

Xaridor tomonidan tanilishi mumkin bo‘lgan, lekin so‘zlar bilan ifodalanishi mumkin bo‘limgan belgilash. Bu belgi tovarning ishlab chiqaruvchisini ko‘rsatadi, ammo, chiqarilayotgan mahsulot turini ko‘rsatmaydi. Masalan, IBM (IBM korporatsiyasi), Novell (Novell korporatsiyasi).

savdo ta’minti

ingl.: marketware

rus.: торговое обеспечение

Savdoga oid dasturlar majmuasi. U yagona maslakga tayangan va sotish-sotib olish, muzokaralar o‘tkazish, izlash va kataloglar xizmati ishi va kelishuvlarni amalga oshirishni ta’minlaydi.

savdo tizimi

ingl.: trade system

rus.: торговая система

Xaridor va sotuvchi muloqoti maromida savdo amallarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan virtual tizim. Axborot majmualarida odatda, virtual ofis bilan chambarchas birlashgan bo‘ladi. Mutaxassislarining maslahatlari, infratuzilmali xizmatlar va boshqa qo’shimcha imkoniyatlarni ta’minlaydi.

sayt

ingl.: site

rus.: сайт

qarang: web-sayt

saytni indekslash

ingl.: site indexing

rus.: индексация сайта

Ishlatilayotgan so‘zlar va iboralar ro‘yxatini tuzish maqsadida saytning matn materiallarini mantiqiy tahlil qilish. Shu tarzda tuzilgan ro‘yxat foydalanuvchi so‘rovi bo‘yicha saytda

axborotni izlashda ishlataladi. Indekslash avtomatik rejimda izlash robotlari deb nomlangan maxsus dasturlar tomonidan amalga oshiriladi. Barcha izlash tizimlari tomonidan qo'llaniladi.

SCA

qisq.: Single Connector Architecture

Bitta ularash uyasiga ega bo'lgan arxitektura - Wide SCSI interfeysi signalari hamda oziqlantirish shinalarini birlashtiradigan qattiq diskni ularash uyasi. Odatda bunday ularash uyasi qattiq disklarni «issiq» almashtirish imkonini berib, serverlarda ishlataladi.

SCADA

qisq.: Supervisory Control And Data Acquisition

Dispatcherlik boshqarish va ma'lumotlarni to'plash. Sanoat ishlab chiqarishini boshqarish uchun mo'ljallangan tizimlar sinfi nomi.

SCS

qisq.: Structured Cabling System

Tartibga solingan kabel tizimi, TSKT.

SCSI

qisq.: Small Computer Systems Interface

Kichik kompyuter tarmoqlari tizimlari interfeysi, SCSI interfeysi. Yuqori tezlikdagi parallel interfeysi standarti, jamlovchi va chekka qurilmalarni kompyuterga ularash uchun ishlataladi (masalan, qattiq disk yoki skanerni). «Skazi» deb talaffuz qilinadi.

SD

qisq.:

1. Single Density – Bir xil zichlik (axborotni yozishda).
2. Standard Deviation – O'rtacha kvadratik og'ish.

SD Card

qisq.: Secure Memory Card

Xavfsiz xotira kartasi. SanDisk, Panasonis va Toshiba firmalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. O'lchamlari va tavsifnomalari bo'yicha MMCga juda o'xshaydi, biroq biroz yirikroq. MMSdan asosiy farqi – mualliflik huquqlarini muhofaza qilish texnologiyasi: karta beruxsat nusxa olishdan kriptografikaviy himoyaga, axborotni tasodifiy o'chirilishi yoki buzilishiga qarshi kuchaytirilgan himoyaga ega.

SDH

qisq.: Synchronous Digital Hierarchy

Sinxron raqamli shajara, SDH standarti. Ma'lumotlarni uzatish optik tola tarmoqlarini qurish standarti.

SDI

qisq.: Single Document Interface

Bitta hujjat interfeysi, SDI interfeysi. Qo'llanmalar bilan foydalanuvchi interfeysining tashkillashtirish usuli. SDI qo'llanmasi yo har doim bitta hujjat bilan ishlaydi, yo har bir yangi hujjat uchun qo'llanma oynasidan tashqari yana bir oyna ochadi.

SDK

qisq.: Software Development Kit

DTni ishlab chiqish to'plami. Dasturiy ta'minot ishlab chiquvchi uchun mo'ljallangan utilitalar, hujjatlar, dasturiy koddan iborat to'plami.

SDMI

qisq.: Secure Digital Music Initiative

Raqamli musiqa muhofazasini ta'minlash bo'yicha tashabbus, SDMI komissiyasi. 1998 yilning dekabr oyida RIAA tashabbusi bilan yaratilgan.

SDRAM

qisq.: Synchronous Dynamic RAM

Sinxron dinamik TXQ. SDRAM mikrosxemalarida ketma-ket tanlash paytida ma'lumotlarni olish vaqtini nanosoniyalarda ko'rsatiladi. Aslida esa sinxron xotira mikrosxemalari qobiqlaridagi raqamlar ushbu xotira ishlay oladigan tizim shinasining eng ko'p takt chastotasini ta'minlaydi. SDRAM tezkorligi va shina takt chastotasi muvofiqligi jadvalda quyida keltirilgan:

Xotira tezkorligi, ns: 12, 10, 8, 7

Shinaning eng ko'p chastotasi, MGs: 83, 100, 125, 133

SDSL

qisq.: Symmetric Digital Subscriber Line

Simmetrik raqamli abonentlik liniyasi, SDSL standarti. Ma'lumotlarning 2 Mbit/s tezligigacha simmetrik uzatilishini ta'minlaydi va kichiik korxonalarining Internetdan erkin foydalanishi uchun foydalanishiga mo'ljallangan. SDSL ularishning asosiy kamchiliklari turli ishlab chiqaruvchilar jihozlarining past uyg'unligi va shovqinlarga

nisbatan past bardoshligi. Hozirgi paytda ushbu texnologiyaning yaxshilangan xili – SHDSL keng tarqalgan. U shovqinlarga qarshi kodlashdan va yagona G.shdsl standartidan foydalanadi.

seans pog'onasi shluzi

ingl.: *circuit-level gateway*

rus.: *шлюз сеансового уровня*

Tarmoqlararo ekranni (brandmauerini) amalga oshirish usullaridan biri. Mualliflashgan mijoz bilan tashqi xostni bevosita o'zaro ishlashiga yo'l qo'ymaydi. Ishonchli mijozning aniq xizmatlarga bo'lgan talabnomasini qabul qilib, talab qilingan seansdan erkin foydalanish huquqini tekshirib tashqi xost bilan ulanish o'rnatadi. Shundan so'ng shluz, har ikki yo'nalishdagi paketlardan, ularni filtrlamay nusxa ko'chiradi.

SECAM

qisq.: *Système Sequentiel Couleurs a Memoire*

Xotirali ranglar ketma-ketligi tizimi, SECAM standarti. Fransiya va sobiq SSSR mamlakatlarida ishlataladigan rangli televideeniye standarti.

Seiko Epson korporatsiyasi

ingl.: *Seiko Epson corporation*

rus.: *корпорация Seiko Epson*

Aniq mexanika va elektronika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kompaniya. Seiko Epson Yaponiyada 1942 yilda yaratilgan. Kompaniya o'zining Epson printerlari va Seiko elektron soatlari bilan mashhur. Shu bilan birga, u modemlar, skanerlar va boshqa tashqi qurilmalar ishlab chiqaradi. Shuningdek, katta integral sxemalar, cheklar, kvitansiyalar, shtrixli kodlarni chop etish uchun ixtisoslashtirilgan ixcham printerlar ham ishlab chiqaradi.

semantika

ingl.: *semantics*

rus.: *семантика*

Tilshunoslikning semiotik (semiotika – belgilar va belgi tizimlari to'g'risidagi fan) nuqtai nazardan til birliklari (so'zlar, gaplar va h.k.lar)ning ma'nolari va mazmunlari, tilning iboralari va uning tug'ilishi, ko'rilishi va o'zgarishida ishtirot etuvchi mantiqiy shakllarini o'rganuvchi bo'limi. Kompyuterli dasturlashtirish sohasida kodlar, buyruqlar, xabarlar mazmunini belgilaydi va ma'lumotlar

ma'nosini aniqlash yoki kodlash uchun xizmat qiluvchi jami amallarni o'z ichiga oladi.

sensor ekrani

ingl.: *touch screen*

rus.: *сенсорный экран*

Ekranni barmoq tegishi orqali kompyuterni boshqarish uchun xizmat qiladi.

seriyali

ingl.: *serial*

rus.: *серийный*

Ketma-ket. Ma'lumotlarning seriyali uzatish deganda ularni bir onda bir bitdan uzatish tushuniladi. Seriyali atamasining teskarisi parallel, unda bir paytning o'zida bir necha bit uzatiladi.

sertifikat

ingl.: *certificate*

rus.: *сертификат*

Sertifikatlash markazi tomonidan foydalanuvchi, kompyuter yoki xizmat uchun berilgan raqamli imzoli hujjat. Sertifikatlar boshqa veb bog'lamasini mazkur veb bog'lamasi sifatida aynanlashtirish mumkin emasligini ta'minlaydi. Bu elektron tranzaksiyalar, masalan, elektron savdo xavfsiligini ta'minlash imkonini beradi va bog'lama tomonidan uzatiladigan yoki qabul qilib olinadigan axborotdan beruxsat foydalanishning oldini oladi.



sertifikatlash markazi

ingl.: *certificate authority*

rus.: *сертификационный центр*

Raqamli sertifikatlarni saqlash bilan shug'ullanuvchi kompaniya yoki tashkilot. Foydalanuvchi shaxsini tekshirib, undan ochiq kalitni saqlash uchun qabul qiladi. Bundan keyin boshqa foydalanuvchilar sertifikatlash markaziga ushbu foydalanuvchi ochiq kalitining haqiqiyligini tekshirish uchun murojaat qilishlari mumkin. "Elektron raqamli imzo to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ko'ra yuqorida aytilgan vazifalar Ro'yxatga olish markazi zimmasiga yuklatilgan.

server

ingl.: *server*

rus.: *сервер*

1. Tarmoqda joylashgan fayllar va boshqa resurslardan erkin foydalanishni taqdim etuvchi tarmoqdagi kompyuter. Internetda server

deganda, veb-sahifalar joylashgan va veb-brauzerlari so'rovlariga javob beruvchi kompyuterga tushuniladi.

2. Mijoz deb nomlanuvchi dasturlarga ma'lum xizmatlarni ko'rsatuvchi dastur. Server dasturi va mijoz dasturlari bitta yoki turli kompyuterlarda bajarilishi mumkin. Masalan, kompyuterda o'rnatilgan elektron pochtasi dasturi mijoz dasturidir. U pochta qutisi bilan ushbu quti joylashgan kompyuter bilan server dasturi orqali muloqotda bo'ladi. Serverlarning eng muhim turlari quyidagicha:

- WWW serverlari ko'ptashuvchi axborot va ma'lumotlar bazalari tarkibini taqdim etish uchun mo'ljallangan;
 - elektron pochtasi serverlari;
 - fayllarni almashish uchun mo'ljallangan FTP serverlari;
 - vokeiy vaqtida muloqot qilish serverlari (chatlar);
 - Internet telefoniyasi faoliyatini ta'minlovchi serverlar;
 - Internet orqali radio va videoni uzatish tizimlari.
3. Server dasturi bajarilayotgan kompyuter. *qarang: Mijoz-server arxitekturasi.*

SES

qisq.: Societe Europeene des Satelites
qarang: Yevropa yo'ldosh jamiyatি

sessiya

ingl.: session

rus.: сессия

Server bilan har bir aloqada bo'lish vaqtinchalik parol (sessiya soni) uzatishni mo'ljallangan foydalanuvchining ish seansi. Odatda sessiyalar mahfiy ma'lumotlar – elektron pochtasi, fayllar, bank hisob raqamlari – bilan ishlash uchun hosil qilinadi. Foydalanuvchi 15-20 daqiqa davomida murojaat qilmasa sessiya tugallangan hisoblanadi.

SET

qisq.: Secure Electronic Transaction
qarang: xavfsiz elektron kelishuv

SGI korporatsiyasi

ingl.: SGI corporation

rus.: корпорация SGI

Yuqori samarali abonentlik tizimlari, ma'lumotlarga tezkor ishlov berish usullari va

vositalarini yaratish bilan shug'ullanuvchi kompaniya. SGI (Silicon Graphics Incorporated qisqartmasi) James Clark tomonidan 1982 yilda yaratilgan bo'lib, Mountain View (Kaliforniya)da joylashgan. SGI o'zining kompyuter grafikasi va multiplikatsiya sohasidagi mahsulotlari bilan ayniqsa mashhur. Silicon Graphics superkompyuterlar, katta ajrataolishga ega bo'lgan murakkab grafik va video obyektlarga ishlov berish uchun zarur bo'lgan katta xotiraga ega 64-razradli grafik ish stansiyalarini ishlab chiqaradi. Kompaniyaning yangi ishlanmalari qatoriga qo'llanma yaratish vositalari va WWW uchun serverlar kiradi.

SGML

qisq.: Standardised Generalised Markup Language
Standart umumlashtirilgan belgilash tili. Elektron hujjat tuzilishini belgilash uchun ISO 8879 standarti. SGML asosida oddiyroq til XML yaratilgan.

SGRAM

qisq.: Synchronous Graphics RAM
Sinxron grafik TXK. Videokartalarda mahalliy xotira sifatida qo'llaniladigan oddiy sinxron xotira turi. Yozuvni bir paytning o'zida bir necha manzilga yozish imkonini beruvchi sahifa registri borligi bilan farq qiladi. Bu ekran maydonlarning tez to'ldirilishi yoki tozalanishi imkonini beradi.

SGSN

qisq.: Serving GPRS Support Node
GPRS ta'minot bog'lamasi. GPRS tizimi elementi – GSM kadrlarini TCP/IP paketlariga aylantiruvchi paketli uzbib-ulagich.

Sharp korporatsiyasi

ingl.: Sparc corporation

rus.: корпорация Sharp

Elektron texnikasini ishlab chiqaruvchi kompaniya. Sharp ko'p tashuvchili vositalarga ega bo'lgan ixcham shaxsiy kompyuterlar va suyuq kristalli ko'rsatkichlar hamda monitorlar ishlab chiqaradi.

SHDSL

qisq.: Symmetric High-bitrate Digital Subscriber Line
SDSL texnologiyasining mukammallashtirilgan xili. Ma'lumotlarni taxminan 2.3 Mbit/s gacha bo'lgan tezlikda uzatish imkonini beradi. Ushbu texnologiya eng avvalo ma'lumotlarni

almashish kanalining eng ko‘p ishonchliliga erishishga qaratilgan. SHDSL texnologiyasida signalga ishlov berishning mukammallashtirilgan ushubidan foydalaniladi. Bu ularish barqarorligi va liniyada shovqinlarga qarshi yuqori chidamlilikni ta‘minlaydi. Bitta telefon kabelida joylashgan bir necha SHDSL aloqa kanallari bir biriga halaqt bermaydi. SHDSL barcha raqamli modemlar orasida aloqa liniyasining eng katta uzunligini ta‘minlaydi – 6 kmga yaqin. SHDSL texnologiyasining muhim afzalligi ish jarayonida ma'lumotlarni uzatish tezligi o‘zgarmasligidadir. Bu korporativ foydalanuvchilar uchun odatda muhim shart bo‘ladi. ADSL modemdan farqli o‘laroq SHDSL modem mijoz va server rejimida ishlashi mumkin, bu esa ikkita SHDSL modemni bir biri bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri. Qo‘sishmcha uzib-ulagichlarsiz ishslash imkonini beradi.

SIG

qisq.: Special Interest Group

1. Qiziqishlar bo‘yicha maxsus guruh bo‘lib, u ACMga yo‘naltirish bo‘yicha tuzilgan.
2. Qiziqishlar bo‘yicha yangiliklar gurushi.

SIGMOD

qisq.: Special Interest Group on Management of Data Ma'lumotlarni boshqarish bo‘yicha ACM SIG gurushi, SIGMOD gurushi.

signal

ingl.: signal

rus.: сигнал

1. Ma'lumotlarni aks ettirish uchun ishlatalidigan fizikaviy kattalikning o‘zgarishi.
2. Parametrлari xabarni mos ravishda aks ettiruvchi xohlagan fizikaviy jarayoni bildiruvchi moddiy axborot tashuvchisi. O‘zining fizikaviy tabiatiga ko‘ra signal elektr, akustik, optik, elektrmagnit va boshqa bo‘lishi mumkin.

signalga ishlov berish

ingl.: signal processing

rus.: обработка сигналов

Signallarni o‘zgartirish jarayoni. Ko‘pgina axborot vazifalarini yechishda, signallar o‘zgartirilishi amalga oshiriladi. Analogli signallar ham, diskret signallar ham ishlovdan o‘tadi. Signallarga ishlov berish filtrlash,

modulyatsiyalash, demodulyatsiyalash, garmonik tashki qiluvchilarga yoyish va shovqinlardan ajratishni nazarda tutadi.

signalizatsiya aloqa yo‘li

ingl.: signalling route

rus.: маршрут сигнализации

Oldindan signalizatsiya punktlari ketma-ketligi sifatida belgilangan aloqa yo‘li. Undan signalizatsiya punkti tomonidan muayyan belgilangan punktg‘a yo‘naltirilgan signal xabarlarini uzatilishi mumkin.

signalizatsiya bo‘g‘ini

ingl.: signalling link

rus.: звено сигнализации

Signalizatsiya ma'lumotlarini uzatish va uning boshqarish funksiyasidan tashkil topgan uzatish vositasi. U ramzli xabarlarini ishonchli uzatishni ta‘minlash uchun ishlataladi.

signalizatsiya bo‘g‘inlari guruxi

ingl.: group of signalling links

rus.: группа звеньев сигнализации

Signalizatsiya bo‘g‘inlari majmui. Bu bo‘g‘inlar ikki punktni bevosita bog‘laydi va bir xil fizik tafsifnomalarga (bitlar tezligi, tarqatish vaqt va x. k.) ega.

S

signallarni filtrlash

ingl.: signal filtering

rus.: фильтрация сигналов

Signallarni umumiy oqimidan kerakli mezonlarga ega bo‘lganlarini ajratib qo‘yish jarayoni. Signallarni filtrlash quyidagi zaruriyatlardan hosil qilingan sharoitlarda ishlataladi:

- modulsiyada tashuvchining ustiga qoplangan signalni ajratish;
- yagona jismoniy kanal orqali uzatish uchun multiplekslashda birlashtirilgan signallarni ajratib olish;
- signalga keyinchalik uning shaklini yoki tavsifnomalarini o‘zgartirish uchun lozim bo‘lgan ishlov berish;
- kuchli shovqinlangan signaldan foydalisisini ajratib olish.

Signallarni filtrlash jismoniy pog‘onada bajariladi.

signallarni raqamli protsessori

ingl.: digital signal processor

rus.: цифровой процессор сигналов

Signallarga ishlov berishga mo'ljallangan mikroprotsessor. Uning arxitekturasi, diskret signallarga ishlov berish uchun zarur bo'lgan jarayonlarni tezkor bajarishga mo'ljallangan. Birinchi navbatda, ko'paytirish va toplash amallarini bajarishda qo'llanadi. Raqamli mikroprotressorlardan foydalanan signallarga ishlov berish narxini tushirishga va ular tuzilmasini soddalashtirishga imkon beradi. Masalan, aloqa texnikasida bunday protsessorlar telefon apparatlari, modemlar va radiotelefon aloqa yaratishda, videokonferensiylar, kanallarni multiplekslashni tashkil qilishda foydalaniлади.

signatura

ingl.: *signature*

rus.: *сигнатура*

Tizimning tekshirilishi mumkin bo'lgan noyob tavsiynomasi. Signatura misoli sifatida dastlabki diskning identifikatsiya belgisi sifatida ishlatiluvchi disk belgisi bo'lishi mumkin. Ushbu belgidan dasturiy yo'l bilan nusxa olinmasligi lozim.

Silikon vodiysi

ingl.: *Silicon Valley*

rus.: *силиконовая долина*

San-Fransisko janubida joylashgan va kompyuter kompaniyalarning o'ta katta zichligini nazorat qilish mumkin bo'lgan hudud taxallusi. Silikon – chiplarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan eng ko'p foydalaniладigan yarimo'tkazgich.

SIM

qisq.: *Subscriber Identification Module*

Abonentni aynanlash moduli, SIM karta.

SIMD

qisq.: *Single Instruction, Multiple Data*

Bitta ko'rsatma, ko'p ma'lumotlar. Mikroprotressorlar uchun MMX buyruqlarni qurishning asosiy tamoyili. Ushbu buyruqlar operandlar sifatida operandlarni 80-xonali setkada saqlash uchun mo'ljallangan hamprotressor registrlaridan foydalaniлади.

SIMM

qisq.: *Single In-line Memory Module*

Chiqish bog'ichlarning bir qatorda joylashgan xotira moduli. Bozorda asta-sekin yo'qoluvchi xotira moduli. Har tomondan 72ta chiqishga ega

bo'lsa ham, ikkala tomonda ham chiqish juftlari o'zaro tutashgan va shuning uchun birtomonlama hisoblanadi. SIMMdagi xonalar 32 (juftligi 36) bit bo'lib, u Pentium protressorlariga ega bo'lgan kompyuterlarda faqat juft bo'lib foydalanilishi mumkin.

simmetrik shifr

ingl.: *symmetric code*

rus.: *симметричный шифр*

Axborotni shifr-matnga o'girish va dastlabki matnga o'girish uchun bir xil kalit ishlatiluvchi shifr.

simpleks

ingl.: *simplex*

rus.: *симплексный*

Faqat bitta yo'nalishda uzatishni bildiradi. Simpleks va yarimdupleks o'rta sidagi farqqa e'tibor bering. Yarimdupleks bir paytning o'zida faqat bitta tomon uzatishi mumkin bo'lgan ikki tomonlarga aloqlarni bildiradi. Simpleks esa bitta tomon uzatuvchi, ikkinchisi qabul qilib oluvchi bo'lgan bir tomonli uzatishdir. Simpleks aloqa misoli sifatida stansiyalardan ma'lumotlarni olishi mumkin, biroq ma'lumotlarni uzata olmaydigan oddiy radioni keltirish mumkin.

SIMS

qisq.: *Sun Internet Mail Server*

Internetning pochta serveri (Sun Microsystems).

simsiz ko'rsatmalar bayonnomasi

ingl.: *Wireless Application protocol (WAP)*

rus.: *протокол беспроводных приложений*

Simsiz qurilmalar (mobil telefon, cho'ntak shaxsiy yordamchisi) yordamida maxsus Internet resurslari – WML tilida yaratilgan saytlardan erkin foydalaniшни ta'minlovchi bayonnomma.

simsiz mahalliy tarmoq

ingl.: *wireless local-area network*

rus.: *беспроводная локальная сеть*

Signallar efir orqali uzatiladigan mahalliy tarmoq. Odatda, litsenziya talab qilinmaydigan 2,4 GHz chastotalar oralig'i qo'llaniladi. Bunday tarmoqlar kabelli mahalliy tarmoqlardan so'ng paydo bo'lgan bo'lsalar ham, keng miqyosda tarqalgan. Simsiz mahalliy tarmoqlarni ikki turga ajratishadi – mahalliy radio tarmoqlar va mahalliy infraqizil tarmoqlar.

Vaholanki, simsiz tarmoqlar kabellikga nisbatan ishonchliligi kamroq va qimmatroq.

simsiz modem

ingl.: *wireless modem*

rus.: *модем беспроводной связи*

Kompyuterlarni simsiz hisoblash tarmog‘iga ulash uchun ishlatalidi.

simsiz tarmoq

ingl.: *wireless network*

rus.: *беспроводная сеть*

Kanallari efir orqali o’tkazilgan tarmoq. Simsiz tarmoqlar, boshqalardan farqli o’laroq muhim afzalliliklarga ega bo‘lib, ulardan birinchi galda quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish zarur:

- foydalanuvchi tizimini harakatlanuvchi obyektlarda (raketa, samolyot, poyezd, avtomashina va boshqalarda) joylashtirish imkoniyati mavjudligi;
- tarmoqlarning topologiyasini, konfiguratsiyasini o‘zgartirishdagi, yangi kanallarni tashkil qilishdagi yengillik;
- aloqa sun‘iy yo‘ldoshlari va o‘zga sayyoralar bilan o‘zarota’sirni ta’minalash;
- qiyinchilik bilan yetib boriladigan yerlardagi (uzoq shimal, cho‘l, botqoqlik va h.k.) axborot tizimlarini yengillik bilan ulanishi. Antenna simsiz tarmoqning axborot tizimidagi muhim tarkibiy qism bo‘lib hisoblanadi.

sindiruvchi

ingl.: *cracker*

rus.: *кекер*

qarang: kreker

sinergetika

ingl.: *synergetic*

rus.: *синергетика*

Matematik fizika usullari («rasmiy texnologiyalar») asosida eng turli tabiatga ega tuzilmalar (tizimlar)ning o‘zini tashkillashtirishi va paydo bo‘lishi, qo‘llab-quvvatlanishi, barqarorligi va bo‘linish jarayonlarini o‘rganuvchi fan. Sinergetik yondashuv, shuningdek, tarmoq axborot makoni kabi murakkab va tartibga solinmagan tizimni o‘rganishda ham qo‘llaniladi.

sinxron

ingl.: *synchronous*

rus.: *синхронный*

Muntazam vaqt muddatlarida ro‘y beruvchi. Sinxronning teskarisi asinxrondir. Kompyuterlar va qurilmalar orasidagi ko‘pchilik aloqalar asinxron – ular xohlagan paytda va muntazam bo‘lмаган muddatlarda ro‘y berishi mumkin. Biroq, kompyuter doirasidagi aloqa odatda sinxron bo‘lib, mikroprotsessor soati tomonidan boshqariladi. Port orqali uzatiladigan signallar, masalan, faqat soat davridagi ma’lum nuqtalarda ro‘y berishi mumkin.

SIP

qisq.:

1. Single-In-line Package – Chiqishlari bir qatorda joylashgan qobiq.
2. SCSI-3 Interlocked Protocol – O‘zaro to‘sish bayonnomasi SCSI-3.

sirlarni bo‘lishish

ingl.: *secret sharing scheme*

rus.: *разделение секретов*

Bu sxemaning asosiy g‘oyasi – maxfiy kalitni bir necha subyektlar orasida bo‘lishish, ularni bir joyga yig‘ib, kalitni bir necha bo‘laklardan tiklashdir. Sirlarni bo‘lishish sxemasi, kalitlarni boshqarishni ishonchli va xavfsiz mexanizmini qidirish jarayonida ikki matematik Blekli (Blakley) va Shamir (Shamir) tomonidan, bir biridan mustaqil ravishda, 1979 yili taklif qilingan.

S

sisadmin

ingl.: *sysadmin*

rus.: *системный администратор*

qarang: tizim ma’muri

SISD

qisq.: *Single Instruction, Single Data*

Bitta ko‘rsatma. Bir xil ma’lumotlar. Raqamli imzoning an‘anaviy arxitekturasi, bir takt davomida bir yoki bir necha operandlar ustidan buyruqlar bajarish imkonini beradi.

SISSL

qisq.: *Sun Industry Standard Source License*

Sunning dastlabki kodga litsenziysi, SISSL shartlari.

sichqoncha

ingl.: *mouse*

rus.: *мышь*

Foydalanuvchi tomonidan yassi yuzada harakatlantirilganda kursov koordinatalarini yoki kompyuter ekranida aks ettirgichning joylashishini belgilovchi va ekranda koordinatalarni ko'rsatish uchun mo'ljallangan qurilma. «Sichqoncha» atamasi ushbu qurilma shaklidan kelib chiqadi – odatda u kirish uyasiga sichqon dumiga o'xshash maxsus sim orqali ulanadi (simsiz sichqonlar ham mavjud). Sichqoncha ustida bitta yoki undan ko'p tugma joylashgan bo'lib, foydalanuvchi ularni bosib ayni paytdagi faol dasturga ko'ra muayyan harakatlarni bajarish uchun obyekt, piktogramma yoki matnni tanlaydi. Ushbu «point-and-click» maromi foydalanuvchi grafik interfeysining muhim elekmendi hisoblanadi; ushbu interfeyslar birinchi bor Apple Computer kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan. Shakli, tashqi ko'rinishi va ish prinsipiغا ko'ra sichqon tuzilishining bir necha turi bor. Mexanik sichqoncha ostida yassi yuzada harakatlantuvchi sharcha mayjudligi bilan farqlanadi. Mexanik sichqoncha 1963 yilda Douglas Engelbart (Stanford Research Center) tomonidan yaratilgan bo'lib, 1970-yillarda Xerox kompaniyasi tomonidan tijorat maqsadlarida qo'llanilgan. Optik sichqoncha lazerning sichqonning yuzaga nisbatan harakatini aniqlash xususiyatidan foydalanadi. Optik sichqoncha juda aniq, biroq nisbatan qimmat qurilma hisoblanadi.

skaner

ingl.: scanner

rus.: сканер

1. Kompyuterga qog'oz varag'i, tasma va h.k.lardan grafika va matn axborotini kiritish qurilmasi. Skaner yordamida kompyuter xotirasiga ikkio'lchamli tasvirni kiritish mumkin (bosma matn, rasm, xarita, fotosurat va h.k.). Qo'l va stolusti (planshet) skanerlari eng keng tarqalgan. Qo'l skaneri bilan ishlaganda u kiritilayotgan hujjat bo'yicha qo'ida harakatlantiriladi. Stolusti skanerda kiritish avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Stolusti skanernerning kiritish aniqligi yuqoriqoq. Skanerlar, shuningdek, rangliligi, ya'ni rangli tasvirlarni kiritish qobiliyatni bo'yicha ham farq qiladi.
2. Dasturlashtirish tizimlarda leksikaviy tahlilchi atamasiga teng kuchli.

3. Tarmoq xavfsizligini ta'minlash tizimlarda – tarmoqlararo ekranlar va boshqa tarmoq dasturiy ta'minotida avtomatik ravishda zaifliklarni topish dasturi.

skanerlash

ingl.: scan

rus.: сканировать

Rasmni optik skanerdan o'tkazish orqali raqamlashtirish.

skrembler

ingl.: scrambler

rus.: скремблер

Umum foydalanishdagi telefon tarmog'i orqali uzatilayotgan nutq signali va faks xabarlarini shifrlash uchun foydalaniladigan kodlovchi qurilma.

skript

ingl.: script

rus.: скрипт

Veb-sahifalarini shakllantiruvchi dasturlar skript deb ataladi. Odatda skriptlar foydalanuvchi ishiga muvofiq tez o'zgarishi lozim bo'lgan veb-sahifalarini tuzish uchun ishlatiladi. Masalan, bu izlash mashinasi bilan o'zaro ishslash, elektron pochtasini jo'natish va o'qish bo'lishi mumkin. Dasturning ishslash joyiga ko'ra skriptlar server yoki mijoz tomonda bo'lishi mumkin:

1) server skripti – serverda bajariladigan dastur; masalan, ma'lum sahifani shakllantirgan skript ma'lumotlar bazasiga murojaat qilib, javobga ishlov beradi va uni o'qish uchun qulay shaklga keltiradi.

2) mijoz skripti – veb-sahifaga o'rnatilgan kichik dastur; odatda dinamik sahifalarini shakllantirish uchun ishlatiladi, masalan, ma'lum sahifa kursov bilan ajaratilgan matnni matn maydoniga yozish uchun skriptdan foydalanadi.

skriptlar tili

ingl.: scripting language

rus.: язык скриптов

Haqiqiy vaqt maromida boshqa dastur tomonidan bo'laklab talqin qilinadigan yuqori pog'onadagi dasturlash tili. Skriptlarni mijoz tomonda yaratiladigan (asosan, veb-sahifalarga funksionallik, menyuni turli xillari, dinamik reklama va sh.k.larni qo'shish uchun foydalaniladi) va veb-serverda (serverda

joylashgan MB ma'lumotlari ustidan amallar bajarish uchun) yaratadigan tillar farqlanadi. Skriptlar tilining rivojlanishi, Internetning aloka vositasi sifatida rivoji bilan bog'liq. Skriptlar tiliga JavaScript, ASP, JSP, PHP, Perl misol bo'jadi.

SLA

qisq.: Service Level Agreement

Xizmat pog'onasi haqida shartnoma. Xizmat ko'rsatuvchi (masalan, ASP, ISP, NSP) va buyuruvchi (foydanuvchi) o'rtasida ko'rsatilayotgan xizmatlar tavsifnomalari haqida shartnoma.

SLIP

qisq.: Serial Line Internet Protocol

Ketma-ket liniya uchun Internet bayonnomasi, SLIP bayonnomasi. IP paketlarini telefon liniyalari orqali uzatish uchun bayonnomasi. Mukammalroq bo'lgan PPP bayonnomasi tomonidan deyarli siqib chiqarilgan.

slot

ingl.: slot

rus.: слот

Chop etilgan zanjir platasini joylash mumkin bo'lgan kompyuterdag'i ochiq joy. Slotlar odatda kengaytma slotlari deyiladi, chunki ular kompyuter imkoniyatlarini kengaytiradi. Kengaytma slotlariga solinadigan platalar kengaytma platalar yoki qo'shimcha platalar deyiladi.

SLP

qisq.: Service Location Protocol

Xizmat izlash bayonnomasi. Tarmoq xizmatlarini aniqlash va tanlash uchun standart Internet bayonnomasi.

smart karta

ingl.: smart card

rus.: смарт-карта

Maxsus plastik karta (oddiy kredit kartasiga o'xshash). Uning ichiga o'rnatilgan maxsus mikrosxema unda saqlanayotgan axborotdan foydalanishni nazorat qiladi.

SMB

qisq.: Server Message Block

Server xabarlarini bloki, SMB bayonnomasi. Microsoft, Intel va IBM tomonidan ishlab chiqilgan yuqori pog'onali tarmoq bayonnomasi.

SMB bayonnomasi tarmoqda bog'lamalarning o'zaro ishlashi tartibi va xabarlar tuzilmasini belgilaydi, fayllarni birgalikda o'qish imkonini beradi.

SMBus

qisq.: System Management Bus

Tizimni boshqarish shinasi 1995-yilning boshida ko'chma kompyuterlar ichiga o'rnatiladigan "aqlli" batareyalarni boshqarish zanjirlarini ulash uchun Intel va Duracell kompaniyalari tomonidan birgalikda taklif etilgan ikkisimli shina.

SMC korporatsiyasi

ingl.: SMC corporation

rus.: корпорация SMC

Mahalliy tarmoqlar uchun jihozlarni ishlab chiqaruvchi mashhur kompaniya. SMC AQSHda (Xoppodj, Nyu-York shtati) 1972 yilda yaratilgan. Kompaniya faol ravishda tarmoq standartlari va texnologiyalari sohasida tadqiqotlar olib bormoqda. SMC Ethernet tarmoqlari, Fast Ethernet tarmoqlari, ARCnet tarmoqlarini ishlab chiqaradi.

SMIL

qisq.: Synchronized Multimedia Integration Language Sinxron ko'ptashuvchili oqimlarni birlashtirish tili. O'zaro faol audio-video taqdimotlarni yaratish uchun mo'ljallangan til ("smayl" deb talaffuz etiladi). W3C konsorsiumi tomonidan ishlab chiqilgan, XML tiliga asoslangan.

SMP

qisq.: Symmetrical Multiprocessing

Simmetrik ko'pprotessorli ishlov berish, SMP arxitekturasi. Protssorlar apparaturadan teng huquqli foydalishim imkoniga ega bo'lgan ko'pprotessorli tizim arxitekturasi. SMP tizimlari OT kodi va ajratiladigan xotirada joylashgan boshqa DTning yagona nusxasini bajaradi.

SMS

qisq.: Short Message Service

Qisqa xabarlar xizmati. GSM standartidagi raqamli uyali aloqa tarmoqlari abonentlarini qisqa (160 baytgacha) matn xabarlarini uzatish va qabul qilib olish xizmati bilan ta'minlaydi.

SMTP

qisq.: Simple Mail Transfer Protocol

Elektron pochta uzatishning oddiy bayonnomasi, SMTP bayonnomasi. Pochtani foydalanuvchilardan serverlarga, va keyinchalik qabul qilib oluvchiga jo'natish uchun xizmat qiladi. RFC 0821da tavsiflangan 14ta buyruqdan iborat. Ko'plab kengaytmalarga ega.

SNA

qisq.: Systems Network Architecture
Tizim tarmoq arxitekturasi (IBM).

SNMP

qisq.: Simple Network Management Protocol
Tarmoqnini boshqarishning oddiy bayonnomasi, SNMP bayonnomasi. Tarmoq qurilmalarini masofadan nazorat qilish, boshqarish va tarkibiy tuzilmasi imkonini beruvchi bayonnomma. RFC 1157da belgilangan.

SNR

qisq.: Signal-to-Noise Ratio
Signal/shovqin nisbati.

SNTP

qisq.: Simple Network Time Protocol
Vaqtini sinxronlashtirish uchun oddiy tarmoq bayonnomasi. Kompyuter soati ko'rsatishlarini avtomatik sinxronlash uchun ishlataladi. RFC 1769da tavsiflangan. SNTP NTP bayonnomasining asosiy vazifalarini bajarib u bilan to'la uyg'undir.

SOAP

qisq.: Simple Object Access Protocol
Obyektlardan erkin foydalanishning oddiy bayonnomasi, SOAP bayonnomasi. XML tiliga asoslangan tarmoq xizmatlaridan erkin foydalanish va ularning bir biri bilan birlashish uchun bayonnomma.

SOH

qisq.: Start Of Header
Sarlavha boshi.

soha

ingl.: sector
rus.: сектор
Diskda o'qilishi mumkin bo'lgan eng kichik birlik. Disk past pog'onada formatlanganda u yo'lak va sohalarga ajratiladi. Yo'laklar disk atrofidagi doiralar, sohalar esa har bir doira ichidagi bo'laklardir. Masalan, formatlangan disk har biri 10 sohaga ajratilgan 40 yo'lakdan iborat bo'lishi mumkin. Operatsion tizim va

diskyuritma yo'lak va soha sonini qayd etish orqali diskdag'i axborot qayerda saqlanganini aniqlaydi.

Zamonaviy diskyuritmalar zonalar-bitli yozish deb nomlangan usuldan foydalanaadi.

Diskdag'i jismoniy kamchilik tufayli ishlatila olmaydigan soha yomon soha deyiladi.

SOHO

qisq.: Small Office, Home Office
(shuningdek SoHo) Kichik yoki uy ofisi. Kompyuter bozorining barqaror qismi va uning uchun mo'ljallangan mahsulotlar (ixcham va foydalanishda qulay qurilmalar) sinfining belgilanishi.

SOI

qisq.: Silicon-On-Insulator
Isolatordag'i kremniy, SOI texnologiyasi.

Solaris operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: Solaris operating system

rus.: операционная система Solaris

SUN Microsystems korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan UNIX operatsion tizimining rusumi. Solaris simmetrik multiprotessorli ishlov bajaradi, tasvirlar bilan ishlash vositalariga ega, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydi. Tizim Internet tarmog'i, elektron pochta, shu jumladan, nutqiy pochta, faksimil aloqa bilan o'zaro ishlay oladi. Yuqori unum va masshtablanuvchilik xususiyatlari ega.

SOM

qisq.: System Object Model
garang: tizim obyektlari modeli

SONET

qisq.: Synchronous Optical Network
Sinxon optik tarmoq, SONET tarmog'i. Ma'lumotlarni optik tola orqali sinxon uzatish standarti.

Sony korporatsiyasi

ingl.: Sony corporation

rus.: корпорация Sony

Audio- va videoapparatura ishlab chiqaruvchi kompaniya. Yaponiyada 1946 yilda yaratilgan. Elektronikaning rivojlanishi kompaniya o'z mahsulotlari assortimentining o'zgartirishiga sabab bo'ldi. Hozirgi paytda audiotexnika va videoapparatura, shu jumladan raqamlari yozish uchun ham, musiqa tizimlari, kinoapparatura,

televizion tarmoqlar uchun jihozlar, uy kompyuterlari va ular uchun dasturiy ta‘minot, keng ko‘lamda tashqi qurilmalar, shaxsiy kompyuterlar, magnit-optik disklar va Internet tarmog‘i uchun televizion terminallar ishlab chiqaradi.

SouthBridge

Janubiy ko‘priki – mikrosxemalar to‘plamida odatda EIDE nazoratchisi, klaviatura, PCI-to-PCI ko‘prigi, ketma-ket/parallel portlar, USB shinasi va boshqa o‘xshash qurilmalarni o‘z ichiga oluvchi periferiya nazoratchisining belgilanishi.

soxtalashtirish

ingl.: spoofing

rus.: фальсификация

Erkin foydalanishni boshqarish tizimlarini chetlab o‘tish uchun turli texnologiyalarini ishlatalish. Bu boshqa tizimning IP-manzilini ishlatalib, uning IP-manzili bilan niqoblanishidir.

SPAG

qisq.: Standards Promotion and Application Group

garang: standartlarni amalga oshirishni va qo‘llashga ko‘maklashish guruhi

spam

ingl.: spam

rus.: спаминг

Reklamaning elektron pochta orqali ruxsat berilmagan (beruxsat) ommaviy ravishda jo‘natilishi.

spamming

ingl.: spamming

rus.: спамминг

Bir xil xabarlarining katta miqdorini turli manzil egalariga jo‘natish. Odatda arzon reklama kompaniyasi, ustma-ust uzatishni uyushtirish yoki shunchaki odamlarning joniga tegish uchun qo‘llaniladi.

SPARC

qisq.: Scalable Processor ARChitecture

O‘sтириладиган protsessor arxitekturasi.

SPD

qisq.: Serial Presence Detect

Ketma-ket erkin foydalanish orqali mavjudlikni aniqlash qurilmasi – qurilma turi va uning asosiy tavsifnomalari haqida axborotga ega bo‘lgan maxsus mikrosxemada ishlab chiqiladi

(odatda, bu elektr usulida qayta dasturlashtiriluvchi xotira). Ushbu xotira hajmi – 512 bayt.

SPEC

qisq.: System Performance Evaluation Cooperative Tizimlarning ish samaradorligini baholash bo‘yicha konsorsium. Kompyuterlar ish samaradorligini baholash uchun testlar ishlab chiqadi.

SPF

qisq.: Shortest Path First

Avvalo eng qisqa yo‘l, SPF algoritmi. Yo‘naltirish algoritmi.

SPP

qisq.: Standard Parallel Port

Standart parallel port – an’anaviy chop etuvchi interfeys, odatda ushbu interfeysni ishlab chiqqan va anchadan beri mayjud bo‘lmagan firma nomidan Centronics deb nomlandadi. Interfeys bayt bo‘yicha ma’lumotlarni 80 KB/s tezligida uzatish imkonini beradi. Ma’lumotlarni qabul qilish zaruriyati tug‘ilganda Chop etuvchidan chiqadigan to‘rt signaldan foydalanish mumkin (qog‘ozning uzelishi, chop etuvchi buferi to‘lgan va h.k.).

SPX

qisq.: Sequenced Packet eXchange

Tartibga solingan paketlar almashushi, SPX bayonnomasi. Novell NetWare tarmoqlarida transport pog‘onasi bayonnomasi, TCPga o‘xshash.

S

SQL

qisq.: Structured Query Language

garang: SQL tuzilmalashgan so‘rovlar tili

SQL tuzilmalashgan so‘rovlar tili

ingl.: Structured Query Language (SQL)

rus.: язык структурированных запросов SQL

Ma’lumotlar bazalari bilan ishslashga mo‘ljallangan so‘rovlarни standartlashtirilgan SQL (Structured Query Language) tili. IBM tadqiqotlar markazida 1974 yili ishlab chiqilgan va dastlab SEQUEL (Structured English QUERy language) deb atalgan. SQL ilk bor ma’lumotlar bazasining tijorat tizimi sifatida 1979 yili Oracle kompaniyasi tomonidan taqdim qilingan. SQLda kiritish - chiqarish operatorlari mayjud emas. Shu sababli u, boshqa tillar ichiga kirib

oladi va ular bilan birlgilikda ishlaydi. SQL bajaradigan asosiy funksiyalar quyidagilar:

- axborotni ma'lumotlar bazasiga yozish;
- kerak bo'lgan o'zgarishlarni kiritish;
- ma'lumotlar bazasida o'zaro faol axborotni izlash va uni chiqarib olish.

SQL standarti ANSI tomonidan birinchi marta 1986 yili tasdiqlangan va so'ngra, 1991 yili yangilangan.

SRAM

qisq.: Static RAM

Statik TXQ.

SST

qisq.: Signaling System 7

7-signalizatsiya tizimi. Stansiyalararo telefon signalizatsiyasi uchun xalqaro standart.

SSE

qisq.: Streaming SIMD Extensions

Oqimli SIMD kengaytmalar. Ko'ptashuvchiga ishlov berish bo'yicha SHK markaziy protsessorining imkoniyatlarini kengaytiruvchi Intel kompaniyasi texnologiyasi.

ssenariy

ingl.: scenario

rus.: сценарий

Ko'rsatmalar to'plamini qo'llanmaga jo'natuvchi kompyuter kodining turi. Ssenariy bevosita ssenariy yozilgan tilni o'girishi mumkin bo'lgan qo'llanma tomonidan bajariladi. Internetda ssenariylar odatda veb-sahifalarini sozlash yoki o'zaro faol imkoniyatlarni qo'shish uchun qo'llaniladi.

SSH

qisq.: Secure Shell

Kompyuterni masofadan boshqarish va fayllarni uzatish imkonini beruvchi tarmoq bayonnomasi. Funksionalligi bo'yicha Telnet va rlogin bayonnomasiga o'xhash, biroq kuchli kriptografiyadan foydalanadi.

SSH bayonnomasining kriptografikaviy muhofazasi mustahkamlanmagan bo'lib, turli shifrlash algoritmlarini tanlash imkon mavjud. Ushbu bayonnomaning mijozlari va serverlari turli maslaklar uchun ochiq, u nafaqat mashinada xavfsiz uzoqlashgan shellga ega bo'lishni, balki grafik interfeysi tunnellash (X Tunnelling) imkonini ham beradi (faqat

Windows grafik interfeysidan foydalanuvchi UNIXga o'xhash OT yoki qo'llanmalar uchun).

SSI

qisq.: Server-Side Includes

Server tomonidan qo'shimcha. HTTP serveri uchun HTML hujjati matniga kiritiladigan oddiy ko'rsatmalar to'plami. Masalan "include" SSI ko'rsatmasi hujjatni HTTP serveri tomonidan bevosita berilishidan oldin uning ichiga boshqa fayl mazmunini qo'shish imkonini beradi.

SSID

qisq.: Service Set ID

Xizmatlar majmui aynanlagichi. IEEE 802.11 standartidagi simsiz tarmoq aynanlagichi.

SSL

qisq.: Secure Sockets Layer

Muhofaza qilingan soketlar bayonnomasi, SSL bayonnomasi. Netscape Communications korporatsiyasi tomonidan axborotni shifrlash va uni Internet orqali xavfsiz uzatish uchun ishlab chiqilgan standart.

standart

ingl.: standard

rus.: стандарт

Tan olingan standart tashkiloti tomonidan tasdiqlangan yoki sanoat tomonidan de facto standart sifatida tan olingan format yoki tavsif. Standartlar dasturlashtirish tillari, operatsion tizimlar, ma'lumot formatlari, kommunikatsiya bayonnomalari va elektr interfeyslar uchun mayjud.

standart dasturlar kutubxonasi

ingl.: library of standard software

rus.: библиотека стандартных программ

Takrorlanadigan masala turlarini yechishga mo'ljallangan tayyor dasturlar yig'masi. Chiziqli dasturlash, matritsalarni teskarilash, tajriba natijalarini statistik qayta ishlashning turli usullarini va boshqa masalarini hal qilib beradigan standart dasturlar mayjud.

standarlarni amalga oshirishni va qo'llashga ko'maklashish guruhi

ingl.: Standards Promotion and Application Group (SPAG)

rus.: группа способствования реализации и применения стандартов

Tarmoqlar uchun xalqaro standartlarni qo'llashga ko'maklashadigan tashkilot. SPAG 1986 yili Yevropa Ittifoqi Komissiyasi, hamda shu Ittifoqqa a'zo davlatlarning iqtisodiyot va sanoat vazirliklari tomonidan yaratilgan. SPAGning vazifalari bo'lib, Xalqaro Standartlar Tashkiloti (XST) ning hujjatlarini sanoatga tatbiq qilish, shu standartlarni amalga oshirishdagi testlash va sertifikatsiyalashni o'tkazish hisoblanadi.

standartlashtirish

ingl.: standardisation

rus.: стандартизация

Me'yorlar, qoidalar va tavsifnomalarni o'rnatish faoliyati. Uning maqsadi:

- mahsulotning atrof-muhit, hayot, sog'liq va mulk uchun xavfsizligini;
- mahsulotning texnikaviy va axborot uyg'unligi hamda o'zaro almashtirilishini;
- fan, texnika va texnologiya rivojlanish pog'onasiga muvofiq ravishda mahsulot, ishlar va xizmatlar sifatini;
- o'chovlar birligini;
- barcha turdag'i resurslarning tejamkorligini;
- tabiiy yoki texnogen halokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarning paydo bo'lish ehtimolini hisobga olgan holda xo'jalik subyektlarning xavfsizligini;
- mamlakatning mudofaa qobiliyatini va mobilizatsion tayyorlarligi kabi vazifalarni ta'minlashdir.

statik

ingl.: static

rus.: статичный

Umuman olganda mustahkamlangan va harakat qilishi yoki o'zgarishi mumkin bo'lgan Internet yoki kompyuterda dasturlashtirish elementlariga tegishli. Statikning teskarisi dinamikdir.

steganografiya

ingl.: stenography

rus.: стеганография

Axborotni yashirish haqidagi nazariya. Ba'zan kriptoalgoritm chidamliligiga ishongandan ko'ra mahfiy axborot borligi dalilining o'zini yashirish osonroq bo'ladi. Steganografiya va shifrlashni birga ishlatalish mumkin. Steganografiyaga misol sifatida tavsirlarda

"tasodify" nuqtalar, tovush axborotida "shovqin" va boshqalarni keltirish mumkin.

stil

ingl.: style

rus.: стиль

Matn va sahifa elementlarini formatlash tavsifnomalari to'plami.

stillar jadvali

ingl.: style sheet

rus.: таблица стилей

Satr boshi, oyna va belgilarga bezak berish usullarini tavsiflaydi. Bu bilan u matnlarni rasmiylashtirishda salmoqli yordam ko'rsatib, Stil, obyektlarning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq hamma narsani belgilab, ularning mazmunini daxlsiz qoldiradi.

STM

qisq.: Synchronous Transport Module

Sinxron transport moduli.

STP

qisq.: Shielded Twisted Pair

qarang: ekranlangan o'rama juft

S

strimer

ingl.: streamer

rus.: стример

Magnit tasmali kassetalarga axborotni yozish va o'qish qurilmasi. Odatda zahiraviy nusxalash uchun qo'llaniladi.

subyekt (kompyuter muhofazasida)

ingl.: subject (in computer protection)

rus.: субъект (в защите компьютера)

Obyektlardan erkin foydalanishi mumkin bo'lgan faol obyekt. Masalan, dastur bajarilishini boshlovchi jarayon. Subyekt obyektlar orasida axborot oqimini keltirib chiqarib, ma'lumotlarga ishlov berish tizimi holatini o'zgartirishi mumkin.

sukut

ingl.: default

rus.: умолчание

Dastur foydalanuvchisi parametri belgilashni esidan chiqqargan (dastur undan parametri kiritishni so'raganda u indamagan) bo'lsa, yaxshi dastur o'zi ushbu parametrga muayyan qiymat beradi. Oxirgisi sukut bo'yicha qiymat deyiladi.

SUN Microsystems korporatsiyasi*ingl.: SUN Microsystems corporation**rus.: корпорация SUN Microsystems*

Apparatli va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi kompaniya. SUN (Stanford University Networking) kompaniyasi 1982 yilda yaratilgan bo'lib, Mountain Viewda (Kaliforniya, AQSH) joylashgan. Kompaniya shiori – «armoq – bu sizning biznes». SUN superkompyuterlar, tarmoqlar uchun jihozlar, jumladan serverlar, ish stansiyalari, tashqi xotira qurilmalari, elektron pochta va tarmoq boshqarish uchun dasturiy ta'minot, obyektgayo'naltirilgan me'moriy tuzilma vositalari, mikroprotsessorlar, Internet tarmog'ining kabel teleko'rsatuv tarmoqlari bilan o'zaro ishlash qurilmalarini ishlab chiqaradi. Kompaniya UNIX operatsion tizimi muhit uchun ish stansiyalarini yaratish va Java dasturlashtirish tilini rivojlantirishga oid ishlari bilan mashhur. Kompaniya mahsulotlari qatoriga SPARC ish stansiyalari va Solaris operatsion muhitini kiradi.

sun'iy tafakkur*ingl.: artificial intelligence**rus.: искусственный интеллект*

1. Kompyuterlar haqidagi fan sohasi. Bu soha modellashtirish va odatda inson tafakkurini eslatuvchi fikrlash va o'rganish kabi vazifalarni bajarish tizimlari bilan bog'liq.
2. Informatika sohasi. U avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida inson tafakkurining alohida vazifalarini haqqoniy taqlid qilish usullari va vositalarini ilmiy tadqiq qilish va ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. ST doirasida rasmiy algoritmlar bo'Imagan vazifalarni bajarishning uslublari, dasturiy va texnik vositalari yaratiladi: siyomlarni tanish, tabiiy tillar va nutqni tushunish, o'quvchi qobiliyatlariga ko'ra o'rgatish, tashxislar qo'yish, teoremlarni isbotlash va h.k.

3. Avtomatik va avtomatlashtirilgan tizimlarning inson tafakkurining alohida vazifalarini bajarish xususiyati, masalan, oldin olingan tajriba va tashqi ta'sirlar tahlili asosida optimal qarorlarni tanlash va qabul qilish.

sun'iy til*ingl.: artificial language**rus.: искусственный язык*

Foydalanish uchun qoidalari qat'iy belgilangan til.

super-EHM*ingl.: supercomputer**rus.: суперкомпьютер**qarang: superkompyuter***superkompyuter***ingl.: supercomputer**rus.: суперкомпьютер*

1. Ilmiy va muhandislik vazifalarni bajarishda ayni vaqt dagi ishlov berishning eng katta tezligiga ega bo'lgan kompyuterlar sinfinining ixtiyoriy vakili.

2. Hozirgi vaqtida eng quvvatliar sinfiga mansub bo'lgan kompyuter. Bu eng katta tezlikka va xotira hajmiga ega bo'lgan qimmatbaho ko'p protsessorli kompyuterdir. Superkompyuter hisoblashlarning katta hajmini nisbatan qisqa vaqt muddati ichida bajara oladi. Shuning uchun superkompyuter odatda, masalan, fazo kemasi harakatini boshqarish, ob-havo ma'lumoti bashorati tuzish, katta ilmiy hisoblash tajribasini o'tkazish kabi murakkab hisoblashlarni bajarishda qo'llaniladi.

sust tahdid*ingl.: passive threat**rus.: пассивная угроза*

Tizim faoliyati maromi o'zgartirilmagan holda aborotdan beruxsat erkin foydalanish imkoniyati.

SVG*qisq.: Scalable Vector Graphics*

Masshtablanuvchi vektor grafikasi, SVG formati. WWWda vektor grafikasi formati uchun W3C standarti.

SVGA*qisq.: Super Video Graphics Array*

Videografikasining yaxshilangan matritsasi. VGA standartidagi moslagich imkoniyatlaridan ustun keladigan xohlagan turdag'i videomoslagichning umumiy nomi.

S-VHS*qisq.: Super Video Home System*

Uy videosining yaxshilangan tizimi, S-VHS standarti.

svitch*ingl.: switch**rus.: свитч*

Uzib-ulagich. Kompyuterlarni mahalliy tarmoqqa birlashtirish qurilmasi. Bunday tarmoqda kompyuterlarning juftlangan kommunikatsiyasi hamda bir necha ma'lumotlar oqimlarining bir paytning o'zida mayjud bo'lishi mumkin. Xab yordamida qurilgan tarmoqdan farq qiladi.

SVN

qisq.: Switched Virtual Networking
qarang: uzib-ulanadigan virtual tarmoq

SVR4

qisq.: System V Release 4
 UNIX OT rusumi.

SXGA

qisq.: Super eXtended Graphics Array
 O'ta kengaytirilgan grafik matritsa, SXGA standarti. Grafik axborotni aks ettirish standarti, 16,7 mln. ranglar bilan 1280x1024 ajrataolishni ta'minlaydi.

Sybase korporatsiyasi

ingl.: Sybase corporation
rus.: корпорация Sybase

Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlarini ishlab chiqaruvchi kompaniya. Sybase AQSHning Emeryville shahrida faoliyat ko'rsatib, ma'lumotlar bazalari uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi eng katta kompaniyadir. Obyektga-yo'naltirilgan me'moriy tuzilma va ommaviy parallel ishlov berish maslagiga alohida e'tibor qaratilgan. Korporatsiya, shuningdek, geterogen tarmoqlar uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqish bilan ham shug'ullanadi. Kompaniyaning mijoz-server texnologiyasiga asoslangan mahsulotlari PowerSoft nomi ostida ishlab chiqariladi.

so'roq

ingl.: polling
rus.: опрос

Sayt auditoriyasi va u auditoriya fikri to'g'risidagi axborotni yig'ish. Odatda, so'roq har bir savolga bir nechta standart javoblardan birini tanlashni taklif qilish yo'li bilan amalgalashiriladi. Erkin tarzda axborot yig'ishdan farqli, so'roq o'tkazish natijalarga avtomatik ravishda ishlov berish imkoniyatiga ega. Umumiy holda, Internetda o'tkazilgan so'roqlar natijalari ibratli hisoblanmaydi, shunga qaramay,

lekin ovoz beruvchilar soni katta bo'lgan hollarda, ular katta qiziqish uyg'otadi.

so'rov

ingl.: query
rus.: запрос

1. Ma'lumotlarni uzatishda bosh kompyuter tomonidan bo'ysunuvchi kompyuterni uning holatini (ish maromini) aniqlash va oydinlashtirish maqsadida so'rov qilish jarayoni.
2. Foydalanuvchi izlab topmoqchi bo'lgan axborotni tavsiflovchi so'zlar va xizmat ramzlarini to'plami.
3. Veb-brauzerda, manzildagi «?» belgisidan so'ng keladigan manzil qatorining qismi. U skriptlar foydalanadigan parametrlarni o'z ichiga oladi.
4. Ma'lumotlar bazasida - ma'lumotlar termasiga talab.

so'rovlar tili

ingl.: query language
rus.: язык запросов

Ma'lumotlar bazasidan axborot chiqarib olish uchun mo'ljallangan ixtisoslashgan til. So'rovlar tiliga de-fakto (hodisa yuz bergandan so'ng) standart bo'lib SQL tili hisoblanadi.

so'z

ingl.: word
rus.: слово

1. Biror alifboda ma'lum ma'noga ega bo'lgan bo'sh joyilarisiz belgililar ketma-ketligi.
2. Mashina so'zi.

Tt

T1

AT&T kompaniyasi tomonidan 1,544 Mbps yo'li bilan DS1 kodida ma'lumotlarni uzatish kanallarini belgilash uchun ishlataladigan atama. T1 liniyasi 24 kanalga (timeslot) bo'linadi.

T3

Raqamli ma'lumotlarni yuqori tezlikda uzatish uchun standart.

ta'minlash vositalarining egasi

ingl.: owner of ensuring means

rus.: владелец средств обеспечения

Qonun tomonidan belgilangan chegaralar doirasida ta'minot vositalariga ega bo'lgan va foydalanayotgan hamda foydalanish vakolatlarini amalga oshirayotgan subyekt.

ta'minlovchi nimtizimlar

ingl.: supporting subsystems

rus.: обес печивающие подсистемы

Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining, asosiy funksional nimtizimlarini mo'tadir faoliyatini ta'minlab beruvchi nimtizimlar guruhi. Ularga, tashkiliy, iqtisodiy, matematik, axboriy, texnik, huquqiy va boshqa ta'minotlar kiradi.

ta'sirchanlik

ingl.: hue

rus.: тон

Kompyuter grafikasida rang tavsiflanadigan uch tavsifnomadan (to'yinganlik va ravshanlik bilan bir qatorda) biri. Ta'sirchanlik spektral qizil, sariq, to'q sariq, yashil, ko'k va pushti ranglarga tegishli.

tabiiy til

ingl.: Natural Language (NL)

rus.: естественный язык

1. Inson muloqati, fikrashi uchun xizmat qiladigan tovushlar, lug'at va grammatik vositalar tizimi.
2. Qoidalari aniq ifodalanmasa-da zamonaviy so'z ishlatalishga asoslangan til.

tafakkurli tarmoq

ingl.: intelligent network

rus.: интеллектуальная сеть

Nafaqat ma'lumotlarni uzatish, balki turli xil murakkab axborot xizmatlarini ko'rsatishni amalga oshiruvchi kommunikatsiya tarmog'i.

taglik

ingl.: background

rus.: подложка

Veb-sahifada fon rasmi sifatida aks ettiriluvchi rasm. Oddiy fon rasmlaridan farqli o'laroq, taglik veb-sahifaning boshqa elementlari bilan aylantirib o'tkazilmaydi.

tahdid

ingl.: threat

rus.: угроза

Kompyuter muhofazasining mumkin bo'lgan bu'lishi.

tahdidlar tahlili

ingl.: threat analysis

rus.: анализ угроз

Ma'lumotlarga ishlov berish tizimiga nomuvofiq ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan mechanizmlar va voqealarni tadqiq qilish.

tahliliy hujum

ingl.: analytic attack

rus.: аналитическая атака

Tahliliy uslublar yordamida kodni ochish yoki kalitni topishga urinish. Misollar – tasvirlarning statistik tahlili, shifrlash algoritmida kamchiliklarni topish.

taksonomiya

ingl.: taxonomy

rus.: таксономия

Narsalarni ularning munosabatlariiga ko'ra tashkillashtirilgan tasniflash. Internetda bu atama, Internetda ishlataladigan bayonnomalarning tashkillashtirilgan o'zaro munosabatlarni ifodalash uchun ishlataladi.

takt

ingl.: clock tick

rus.: такт

Sinxronlovchi signallar ketma-ketligi oraligidagi davr. Takt davomati shuday tanlanadiki, uning o'tib borishi davomida, ko'rilayotgan obyektda kirish signali yuzaga chiqargan barcha o'tkinchi jarayonlar yakunlanib bo'ladi. Taktning boshi va oxirini

aniqlaydigan impulslar taktlash impulslari deb ataladi. Taktlash impulsini mavjudlik vaqtı taktlash davrining qismi bo'ladi. Bu impulslarni paydo bo'lish chastotasi taktlash chastotasi deb ataladi. Taktlash impulslarining mavjudligi evaziga tizim yoki tarmoq ishini sinxronlash amalga oshiriladi. Har bir buyruq, uning murakkabligiga qarab, bir yoki bir necha takt davomida bajariladi.

taktlanidigan halqa tarmog'i

ingl.: slotted-ring network

rus.: кольцевая мактируемая сеть

Halqa tarmog'i. Bunda tarmoq ish vaqtı bir bitli oraliqlarga bo'lish evaziga, ma'lumotlar uzatish amalga oshiriladi. Tarmoq halqa kanali, takrorlagichlar va erkin foydalanish bloklaridan tashkil topgan. Erkin foydalanish bloklariga ma'muriy tizim va abonent tizimlari ulanadi. Halqa kanalini ikki o'rma juft similari tashkil qiladi. Ular bo'yab ma'lumotlar, sinxronlovchi signallar, takrorlagichlarga ozuqa, ozuqani yoqish-o'chirish signallari uzatiladi

taktlash

ingl.: clocking

rus.: мактирование

Sinxronlashni amalga oshirish uchun, jismoniy pog'onada bajariladi. Taktlash impulslari alohida yoki foydalanuvchining ma'lumotlari tarkibida uzatiladi. Ular bayonnomalar bilan aniqlanadi. Taktlashni, takt generatori deb ataluvchi elektron qurilma bajaradi.

taktlash chastotasi

ingl.: clock rate

rus.: тактовая частота

Taktlash impulslarini paydo bo'lish chastotasi. U, signallarni bir qiymatdan boshqasiga faol o'tishlari oraligidagi vaqt bilan aniqlanadi. Chastota gerslarda o'lchanib, bir sekundagi faol o'tishlar sonini anglatadi. Har bir faol o'tishdan so'ng sust o'tish keladi va signal o'zining avvalgi qiymatini oladi. Impulslar takrorlanish chastotasi yuqori aniqlik bilan ushlab turiladi.

Taligent korporatsiyasi

ingl.: Taligent corporation

rus.: корпорация Taligent

Dasturiy ta'minotning obyektga-yo'naltirilgan me'moriy tuzilmasi sohasida tadqiqotlar olib boruvchi kompaniya. Taligent AQSHda IBM, Apple Computer va HP kompaniyalari

tomonidan yaratilgan. Taligentning eng mashhur ishlansasi Taligent operatsion tizimidir. Uning asosida Taligent «hamkorlarning dastlabki tanishishida tajriba uchun vositalar to'plami» PEEKni yaratgan bo'lib, u amaliy dasturlar joylashgan obyektga-yo'naltirilgan me'moriy tuzilma modelining tafsilotidir.

Taligent operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: Taligent operating system

rus.: операционная система Taligent

Taligent va IBM korporatsiyalar hamkorlikda yaratishgan operatsion tizim. Uning asosiy g'oyasi obyektga-yo'naltirilgan me'moriy tuzilmadan foydalanimishda. Buning evaziga, Taligent operatsion tizimi, unga turli xildagi mikroprotsessorlar bilan ishslash imkonini beradigan amaliy muhitda yengil joylashadi.

tambneyl

ingl.: thumbnail

rus.: миниатюра

Veb-saytlarda gipermurojaat bo'lmish kichik rasmlar. Ushbu rasmni bosganda kattalashtirilgan rasm paydo bo'ladi.

TAN

qisq.: Tiny-Area Network

qarang: kichik tarmoq

tanaffus

ingl.: interruption

rus.: прерывание

1. Kompyuterga dasturni bajarishni to'xtatib, xizmat dasturini bajarishni boshlashni buyuruvchi signal.

2. Kompyuterning apparatli va dasturiy vositalar tizimi. Boshqa dasturlar ketma-ketligiga o'tish yoki oldin tanaffusga chiqqan dasturga qaytish uchun dasturlar ketma-ketligini bajarishning vaqtinchalik to'xtashini ta'minlaydi. Tanaffus tizimi protsessorga quyidagi hollarda o'z holatini o'zgartirishga ruxsat beradi:

- dasturni bajarayotganda xato paydo bo'lganda yoki ushbu dastur bo'yicha hisoblashlar tugasa;
- ma'lumotlar massivlari kiritish-chiqarish uchun tayyor bo'lib, kerakli qurilmalarga murojaat qilish lozim bo'lsa;
- foydalanuvchi yoki boshqarilayotgan obyekt hisoblash jarayonini o'zgartirishi mumkin

bo'lgan ma'lumotlarni darhol to'g'rilab olishi lozim bo'lganda.

Yuqoridagi barcha hollarda tanaffus tizimining yo'qligi kompyuterning to'xtab qolishiga, foydali mashina vaqtini zoye ketishiga yoki kompyuter kirgan tizimga yuklatilgan vazifalar bajarilmay qolishiga olib keladi.

Tandem Computer korporatsiyasi

ingl.: *Tandem Computer corporation*

rus.: *корпорация Tandem Computer*

Yuqori ishonchilikka ega bo'lgan kompyuterlar ishlab chiqaruvchi kompaniya. Tandem Computer AQSHda 1974 yilda yaratilgan bo'lib, o'z kuchini eng avvalo ishga chidamli kompyuterlar ishlab chiqarishga qaratgan. Kompaniya birinchi bo'lib mijoz-server me'moriy tuzilmasini yaratgan. Kompaniya tomonidan yaratilayotgan tizimlar parallel ishlov berishdan keng foydalanishga asoslanadi. Ular orasida ommaviy parallel ishlov berishni bajaruvchi serverlar ham bor. Qo'llanilayotgan texnologiya millionlab protsessorlarning ishini ta'minlaydi.

tanho egalik

ingl.: *monopoly*

rus.: *монополия*

Biror narsaga alohida huquq. Informatikada foydalanuvchi tanho ravishda abonent tizimdan foydalanishi mumkin, abonent tizimi esa tanho ravishda kanalni egallashi mumkin, masalan, kanallarni uzib-ulashda.

TAPI

qisq.: *Telephony Application Programming Interface*
Telefon API. Modem bilan ishlash uchun Windows OTning API.

taqlid

ingl.: *simulation*

rus.: *симуляция*

Matematika formulalari to'plami bilan voqeiy hodisalarga taqlid qilish jarayoni. Murakkab kompyuter dasturlari ob-havo holati, kimyoiy reaksiyalar, yadro reaksiyalar, hatto biologik jarayonlarni simulyatsiya qilishi mumkin. Nazariyotda matematik ma'lumotlar va tenglamalargacha kichraytirila olinadigan xohlagan hodisa kompyuterda taqlid qilinishi mumkin. Biroq, amaliyotda taqlid ancha murakkabdir, chunki ko'pchilik tabiiy hodisalar deyarli cheksiz ta'sirlar soni ostiga tushishi

mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, foydali taqlidlarni rivojlantirish yo'llaridan biri eng muhim omillarni aniqlashdir.

taqsimlangan ikki yoqlama navbatli shina

ingl.: *Distributed Queue Double Bus (DQDB)*

rus.: *распределенная двойная шина с очередями*

Bir juft optik kanal yordamida hosil bo'lgan tezkor ko'pkanalli tarmoq. U birinchi navbatda, katta shaharning axborot tarmog'ini yaratish uchun mo'ljallangan. Ishda yuqori o'tkazish qobiliyati va ishonchilikka ega. O'zining tavsifnomalariga ko'ra DQDB, mahalliy tarmoq deb ham, hududiy tarmoq deb ham qaralishi mumkin. DQDB, Telesom Australia firmasi tomonidan ishlab chiqilib taklif qilingan.

taqsimlangan kommunikatsiyalar

ingl.: *peer-to-peer communications*

rus.: *распределенные коммуникации*

Tarmoqda kommunikatsiyani tashkil qilish turi. Bunda, kommunikatsion jarayonda ishtirok etuvchi tomonlar, aloqa seansini (sessiyasini) boshlab berishda, qo'llab-quvvatlashda yakunlashda teng huquqlarga egadirlar. U, xost (bosh uzel, server) qanday jarayonlar (kompyuterlar) aloqa seansini boshlab berishini belgilaydigan katta-bo'y sunuvchi (master-slave communications) shajarasidan keskin farq qiladi.

taqsimlangan ma'lumotlar banki

ingl.: *distributed data bank*

rus.: *распределенный банк данных*

Hududiy tarqoq ma'lumotlar banklari tizimi. Hisoblash texnikasi vositalari bilan birlashgan va yagona boshqaruva ostida faoliyat ko'rsatadi.

taqsimlangan ma'lumotlar bazasi

ingl.: *Distributed DataBase (DDB)*

rus.: *распределенная база данных*

Tarkibi axborot tarmog'ining bir necha abonent tizimlarida joylashgan ma'lumotlar bazasi. DDB ning mohiyati katta hajmdagi axborotdan foydalanuvchilarning erkin foydalanishini tashkil qilishdadir. Bunda, bir tarafdan, ma'lumotlar, ularga eng katta ehtiyoj bo'lgan punktlarda joylashtirilsa, ikkinchi tarafdan, tranzaksiya yordamida, qayerda joylashishidan qat'iy nazar, ictiyoriy ma'lumotlardan erkin foydalanish ta'minlanadi. Quyidagilar DDB ning o'ziga xos xususiyatlaridir:

- fazoviy shaffoflik; bu bazaning tarkibiy qismlari qayerda joylashganini bilintirmaslik imkonini beradi;
- taqsimlash shaffofligi; bu ma'lumotlarni ixtiyoriy abonent tizimlarda joylashtirishga yo'l qo'yadi;
- to'la funksionallik, ya'ni, bir tizimda joylashgan, bazada mumkin bo'lgan amallarning barchasini bajarish imkon;
- ma'lumotlarning butligi; bunda ma'lumotlarni kuzatish va xatolarni tuzatish bilan ta'minlanganligi nazarda tutiladi;
- tizimda ishlatalayotgan qurilmalarning turiga nisbatan mustaqillik.

tarifikatsiya birligi

ingl.: *tariffing unit*

rus.: *единица тарификации*

Telefonda so'zlashish (ulanish) davomati uchun to'lanadigan birlik. U telekommunikatsiya operatori tomonidan tanlangan (to'la minutlar yoki davriy impulslar bo'yicha hisob) tarifikatsiya tizimiga bog'liq.

tarkibiy qismli dasturiy ta'minot

ingl.: *component software*

rus.: *компонентное программное обеспечение*

Standart tashkil etuvchilarni terib biriktirish bilan yaratiladigan dasturlar majmui. Mazkur texnologiyada, dasturning ixtiyoriy qismi takror ishlatalishi mumkin bo'lsa, u tarkibiy qismidir (komponentdir). Tarkibiy qismli dasturiy ta'minotning afzallikkleri ishlab chiqish davrini qisqartirishda va dastur arzonlashuvida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, dasturiy ta'minotni yuqori sifati ta'minlanadi. Tarkibiy qismli dasturiy ta'minot texnologiyasining rivojlanishi, obyektga – yo'naltirilgan dasturlashning yaratilishiga olib keldi.

tarkibiy tuzilma

ingl.: *configuration*

rus.: *конфигурация*

1. Tizimni, funksional elementlarini xususiyatini, sonini, o'zaro aloqalarini va asosiy tavsifnomalarini aniq belgilab shakllantirish.
2. Dasturning yoki qurilmaning ishslash tartibini belgilaydigan apparat va dasturiy o'rnatishlar (masalan, qayta ulagichlarning holatlari, boshqaruvchi o'zgaruvchilarning qiymatlari, opsiyalar) yig'masi.

3. Axborotga ishlov berish tizimining apparat va dasturiy vositalarini tashkillashtirish va o'zaro ishslashini belgilab beradigan usul.
4. Tarmoq tarkibiy qismalarining tashqi chizgisi va o'zaro joylashuvi.

tarmoq

ingl.: *network*

rus.: *сеть*

Bog'lamalar va ularni birlashtiruvchi shoxchalar chizmasi.
qarang: Kompyuter tarmog'i.

tarmoq amaly tizimi

ingl.: *network operating system*

rus.: *семейная операционная система*

qarang: tarmoq operatsion tizimi

tarmoq boshqarish markazi

ingl.: *network management centre*

rus.: *центр управления сетью*

Katta tarmoqlarning ma'muriy tizimi.

tarmoq hamjamiyati

ingl.: *network society*

rus.: *семейное общество*

Axborot o'zaro ishslashlarning aksar qismi elektron tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan jamiyat.

tarmoq iqtisodiyoti

ingl.: *network economy*

rus.: *семейская экономика*

1. Elektron tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan iqtisodiyot.
2. Iqtisodiy tizimning xohlagan nuqtasida joylashgan xohlagan kompaniya yoki shaxs osonlik bilan va eng kam harajatlar bilan xohlagan boshqa kompaniya yoki shaxs bilan muloqotda bo'lishi mumkin bo'lgan muhit. Muloqot qo'shma faoliyat, fikrlar yoki nouxaularni almashish yoki shunchaki «ko'ngil ochish» uchun bo'lishi mumkin.

tarmoq kartasi

ingl.: *network card*

rus.: *семейная карта*

Ma'lumotlarni kompyuter tarmog'ida bitta kompyuterdan boshqasiga uzatish paytida kompyuter va aloqa kanali ishini muvofiglashtiruvchi plata shaklida yaratilgan moslashtirgich. Tarmoq kartasi kompyuter shinasidan parallel ravishda keluvchi va axborot so'zlarining ikkilik xonalariga mos signallarni

aloqa liniyasi orqali ketma-ket uzatiluvchi yuqori chastotali impulslargacha o'giradi.

tarmoq ma'muri

ingl.: *network administrator*

rus.: *администратор сети*

Avtomatlashtirilgan tizim va/yoki hisoblash tarmog'i resurslarining me'yoriy ishlashi va ularni ishlashish uchun javobgar mutaxassis.

tarmoq moslashtirgichi

ingl.: *network adapter*

rus.: *сетеевой адаптер*

qarang: tarmoq kartasi

tarmoq operatsion tizimi

ingl.: *network operating system*

rus.: *сетевая операционная система*

Tarmoqda ma'lumotlarga ishlov berish, ularni saqlash va uzatishni ta'minlovchi dasturlar majmui. Tarmoqning asosiy vazifalarini ta'minlovchi ustki pog'onalar bayonnomalarining o'zaro bog'liq guruhini belgilaydi. Ularga, birinchi navbatda, quyidagilar kiradi: obyektlarni manzillash, xizmatlarning faoliyat ko'rsatishi, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, tarmoqni boshqarish.

tarmoq platasi

ingl.: *network card*

rus.: *сетевая плата*

qarang: tarmoq kartasi

tarmoq provайдери

ingl.: *network provider*

rus.: *провайдер сети*

Abonentlik punkti va bevosita tarmoq abonentlariga tarmoq xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli tashkilot.

tarmoq tashkiloti

ingl.: *network organization*

rus.: *сетевая организация*

Ishlab chiqarish va biznesni boshqarish jarayonida tarmoq aloqalari, munosabatlari va texnologiyalaridan foydalanuvchi tashkilot.

tarmoq texnologiyalari

ingl.: *network technologies*

rus.: *сетевые технологии*

Tarmoq maromida muloqtda bo'lish imkonini beruvchi texnologiyalar.

tarmoq trafigi

ingl.: *network traffic*

rus.: *сетеевой трафик*

Kompyuter tarmog'ida ma'lumotlarning harakati. Ba'zan ushbu atama ma'lumotlar harakatini tasniflash uchun ishlataladi.

tarmoq choki

ingl.: *network wearing*

rus.: *прощивка сети*

Ma'lumotlarga ishlov berish tizimidan beruxsat erkin foydalanish usuli. Tarmoq choki erkin foydalanishga ruxsat olish uchun payqash va erkin foydalanish yo'llarini ta'qib qilish tizimini chetlab o'tib, turli aloqa tarmoqlaridan foydalanishga asoslanadi.

tarmoqda joylashish

ingl.: *network location*

rus.: *сетевое расположение*

URL manzilida Internet serverini aniqlovchi noyob nom. Tarmoqda joylashish nuqta bilan ajratilgan ikki yoki undan ko'p qismdan iborat bo'ladi. Masalan, www.company.com. U, shuningdek, server nomi va Internetdagi manzil deb ham ataladi.

tarmoqdan erkin foydalanish nuqtasi

ingl.: *network access point*

rus.: *точка доступа к сети*

Tarmoq operatori o'z xizmatlarini taqdim qiladigan nuqta. U ishlashish sharoitida operator va foydalanuvchi javobgarliklarining bo'linish nuqtasidir.

tarmoqlararo bog'lanishlar

ingl.: *internetwork connections*

rus.: *межсетевые соединения*

Foydalanuvchilar orasida axborotni uzatish va olishni ta'minlovchi turli telekommunikatsiya operatorlarining tarmoqlari orasida texnologik o'zaro ishlash.

tarmoqlararo interfeys

ingl.: *Network-to-Network Interface (NNI)*

rus.: *межсетевой интерфейс*

Har xil tizim turlarining o'zaro ishlashini belgilovchi interfeys.

tarmoqlararo texnologiyalar

ingl.: *internetworking technologies*

rus.: *межсетевые технологии*

Kommunikatsiya tarmog'i orqali marshrutlarni o'tkazishning turli bayonnomalaridan foydalanish uslubiyatlari. Bitta tarmoqda tarmoq pog'onasidagi turli bayonnomalar

ishlashini ta'minlash zaruriyati «asinxron uzatish usulidan foydalanuvchi ko'p bayonnomalar», ya'ni MPAO deb nomlangan texnologiyaning yaratilishiga olib keldi. Mazkur texnologiya tezkor tarmoqlarda samarali ishlovchi uzatishning asinxron usuliga asoslangan.

tarmoqlararo o'zaro ishslash

ingl.: *network interconnection*

rus.: *межсетевое взаимодействие*

Turli tarmoqlarda joylashgan abonent tizimlari va ma'muriy tizimlarning o'zaro ishslash usullari. Umumiyl ravishda birlashtiriladigan obyektlar turli arxitektura, tarmoqni boshqarishning turli usullariga ega. Shuning uchun tarmoqlar birlashtirilganda ularning o'zaro ishslashini boshqarish muammosi paydo bo'ladi. O'zaro ishslash pog'onasini tanlash muhim o'rinn tutadi. Uni tarmoq pog'onasida tashkillashtirish usullari eng keng tarqagan. Tarmoqlararo o'zaro ishslash tarmoqlararo texnologiyalarga asoslanib mahalliy tarmoqlar va aralash tarmoqlarni yaratishni ta'minlaydi.

tarmoqlarekran

ingl.: *internetwork screen*

rus.: *межсетевой экран*

qarang: brandmauer

tarmoqni boshqarish

ingl.: *network management*

rus.: *управление сетью*

Hisoblash yoki axborot tarmog'iga maqsadga yo'naltirilgan ta'sir. U belgilangan dasturga binoan faoliyat (tizim, ma'lumotlarni uzatish kanallari, terminallarni yoqish va o'chirish, nosozliklar diagnostikasi, statistik ma'lumotlarni yig'ish, hisobotlarni tayyorlash va h.k.) tashkil etish uchun amalga oshiriladi.

tarmoqningjismoniy tuzilmasi

ingl.: *physical structure of network*

rus.: *физическая структура сети*

Axborot-hisoblash tarmog'ini ifodalash shakli. U o'zaro ish bajaruvchi apparat vositalaridan iborat.

tarmoqqa faol ulanish

ingl.: *active line connection*

rus.: *активное подключение к линии*

Tarmoqqa ma'lumotlarni o'zgartirish yoki kirgizish maqsadida ulanish.

tarqoq hisoblashlar texnologiyasi

ingl.: *peer-to-peer*

rus.: *технология распределенных вычислений*

Tarmoqqa ulangan kompyuterlarning erkin resurslarini resurs talab vazifani yechish uchun ishlatish imkonini beruvchi texnologiya. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bekor turgan hisoblash resurslarini samarali ishlatib, hisoblashlar narximi arzonlashtirishdir.

tartibga solish

ingl.: *regulation*

rus.: *регламентация*

Axborot muhofazasi usuli. U muhofazalanayotgan axborotga avtomatlashtirilgan ishlov berish, saqlash va uzatish jarayonlarida undan beruxsat erkin foydalanish ehtimoli eng kam bo'ladigan sharoit yaratish uchun xizmat qiladi.

tartibot xavfsizligi

ingl.: *procedural security*

rus.: *процедурная безопасность*

Boshqaruv organlari tomonidan o'rnatilgan cheklashlar; amaliy, ma'muriy va hisobga olish tartiboti; axborot muhofazasi uchun nozik ma'lumotlarning kerakli xavfsizlik pog'onasini ta'minlash uchun ishlatiladigan tegishli boshqarish usullari.

tasdiqlovchi markazlar

ingl.: *certified centers*

rus.: *удостоверяющие центры*

Bu Rossiya federatsiyasi qonunchiligiga tegishli bo'lib, umum foydalanishidagi axborot tizimlarida ishlatiladigan elektron raqamlari imzo kriptotizimiga oiddir. Tasdiqlovchi markaz bajarishi lozim bo'lgan vazifalar O'zbekiston Respublikasining elektron raqamlari imzo to'g'risidagi qonuniga muvofiq Ro'yxatga olish markazlari zimmasisiga yuklatilgan. Karang: ro'yxatga olish markazlari.

tasnif indeksi

ingl.: *classification index*

rus.: *классификационный индекс*

Biror bir tasnif tizimida bo'linishlarning raqamlari yoki harf-raqamlari ramzlarda shartli belgisi.

tasniflagich

ingl.: *classifier*

rus.: *классификатор*

Har bir obyekt uchun uning o‘z o‘rnini va aniq (odatda raqamli) belgisini topish imkonini beradigan tizimli to‘plam, qandaydir obyektlar ro‘yxati. Turli tasniflagichlar mavjud: mahsulot, korxonalar, texnik tizimlar, kitoblar va maqolalar tasniflagichlari. Tasniflanmalar iqtisodiy ma‘lumotlarga kompyuter yordamida ishlov berish uchun zarur. Tasniflagichlar yordamida iqtisodiy ma‘lumotlar kodlanadi, ya’ni, hisoblash texnikasi vositalarda qayta ishslash uchun qulay shaklda ifodalanadi.

tasodify son generatori

ingl.: random number generator

rus.: генератор случайных чисел

Tasodify son generatsiyalaydigan qurilma yoki dastur. U biror ma‘lum algoritmga rioya qilmaydi.

tasvir kanali

ingl.: image channel

rus.: канал изображения

To‘la rangli teleko‘rsatuv signallari uzatishga mo‘ljallangan namunaviy uzatish kanali.

tasvirga ishlov berish

ingl.: image processing

rus.: обработка изображений

Tasvirlarni yaratish, tahlil qilish, o‘zgartirish yoki talqin qilish jarayoni. Tasvirlarga ishlov berish bir necha bosqichda bajariladi. Ulardan birinchisi, tasvirlarni abonent tizimiga videokiritish qurilmasi, sichqoncha, klaviatura, nurli pero, elektron mo‘yqalam, skaner va dasturiy ta‘minot, masalan, grafik muharrir yordamida kiritish bilan bog‘liq. Tizimga kiritilgan tasvirga turli ishlovlar:

- buzib talqin qilishni va kamchiliklarni yo‘qotish;
- yoritilganlik oraliqlarini kengaytirish;
- obyekt tashqi shaklini ajratish;
- tasvir bo‘laklarini bo‘yash;
- obyektlarni va siymolarni tanish beriladi.

Tasvirlarni ifodalash va ularga ishlov berish usullari kompyuter grafikasi deb ataladi.

taxlam

ingl.: compression

rus.: упаковка

Tashuvchi imkoniyatlarga ko‘ra kattaroq ma‘lumotlar hajmlarini uzatish (yoki xotirlash) imkonini beruvchi signallarni kodlash/dekodlash uslubi.

tayanch kompyuter

ingl.: mainframe

rus.: базовый компьютер

Axborot tizimida ko‘p sonli chekka-tashki (chegra) qurilmalari (diskli to‘plovchi, printerlar va boshqalar) bilan ulanadigan katta quvvatli kompyuter. Undan korporativ pog‘onada ko‘pmasalali muhitda foydalaniladi. Tayanch kompyuter yuqori tezlik bilan ishlaydi, nisbatan katta operativ xotiraga ega va yechilayotgan masalalarning keng doirasini qamrab oladi. Tayanch kompyuter kommunikatsiya tarmog‘i orqali o‘zining resurslarini ko‘p sonli foydalanuvchilarga taqdim qiladi va ma‘lumolarni qayta ishlashda asosiy oqimlarni o‘z zimmasiga oladi.

tayanch stansiya

ingl.: base station

rus.: базовая станция

Foydalanuvchilarning tizimlari bevosita aloqa qiladigan axborot tizimlari. Ular radio tarmoqlarining muhim bo‘lagidir. Yer ustidagi stansiyalar yerning yuzida joylashadi (binolar ustida, machtalarda, va h.k.). Sun‘iy yo‘ldosh radio tarmoqlarida stansiyalar aloqa sun‘iy yo‘ldoshlarida joylashadi.

tayanch tarmoq

ingl.: backbone network

rus.: базовая сеть

O‘tkazish imkoniyati yuqori bo‘lgan kommunikatsiya tarmog‘i, U ma‘lumotlarni uzatishda yuqori tezlik talab etadigan hududiy tarmoqlarni, mahalliy tarmoqlarni, superkompyuterlarni va audiovideotizimlarni ularshga mo‘ljallangan. Har bir tayanch tarmoq talaygina hududni, ko‘p hollarda qit‘ani qamrab oladi.

taymer

ingl.: timer

rus.: таймер

Berilgan astronomik vaqt mobaynida impulsllarni berib turadigan va vaqt hisobini ta‘minlaydigan qurilma. Uning asosida yuqori sifatli kvars kristali tebranishlari yotadi. Hisob vaqtining aniqligi tebranishlar yetarlicha o‘zgarmas chastota bilan sodir bo‘lishi tufayli ta‘minlanadi. Vaqt hisobini olib borish vazifasi operatsion tizim zimmasiga tushadi. Ko‘pgina kompyuterlarda, ular elektr tamog‘idan

o'chirilganda ham ichki soat o'z ishini davom ettiraveradi. Bunday soatlar akkumulatorlardan ozuqa oladi.

tashkiliy muhofaza

ingl.: organizational protection

rus.: организационная защита

qarang: muhofazani ma'muriy boshqarish

tashqi gipermurojaat

ingl.: external hyperlink

rus.: внешняя гиперссылка

Faoł veb bog'lamasi qismi bo'lмаган sahifa yoki faylga ko'rsatuvchi gipermurojaat.

tashqi jihoz

ingl.: peripheral equipment

rus.: периферийное оборудование

Alovida kompyuter bilan o'zaro ishlashi va u tomonidan boshqarilishi mumkin bo'lgan har qanday qurilma. Masalan, kiritish-chiqarish qurilmasi, tashqi xotira.

tashrif

ingl.: visit

rus.: посещение

Veb bog'lamasidan foydalanish haqidagi hisobotlarda foydalanuvchi veb bog'lamasidan erkin foydalangani va bir yoki bir necha faylni ko'rib gipermurojaat orqali boshqa bog'lamalarga o'tgani yoki brauzerni berkitganini ko'rsatuvchi qiymat.

tashriflar sanagichi

ingl.: visitor counter

rus.: счетчик посещений

Veb-serveri tomonida yurgizilgan va ma'lum veb-sahifaga murojaatlar sonini hisoblovchi kichik dastur. Asosan sahifaga tashrif buyurgan foydalanuvchilar sonini aniqlash va reklama maqsadida foydalaniladi. Sanagich odatda ikki asosiy qismdan:

- saytlar sahifalarida ma'lumotlarni to'plash uchun joylashtiriladigan dasturiy kod. Odatda ushbu sahifalarda tashriflar sonining grafik tasviri joylashgan bo'ladi;
- saytlar sahifalaridan olingan axborotga ishlov berib uni turli statistik hisobotlar shaklida taqdim etuvchi dasturiy kod ("yuritgich") iborat. Sanagichlar ishi HTTP so'rovlarini siz qayerdan kelganingiz (HTTP Referrer), sizning IP manzilingiz, veb-brauzer rusumi, operatsion

tizim va boshqa ma'lumotlarni o'z chiga olishda asoslangan.

tashrifchi

ingl.: visitor

rus.: посетитель

Tarmoqning muayyan resurslaridan foydalanuvchi shaxs. Ba'zi server (yoki sayt) egalari sahifada tashrifchilar sonini sanagichni joylashtiradi.

tashrifchilar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish

ingl.: visitor relationship management

rus.: управление взаимоотношениями с посетителями

Veb resurslarining (asosan tijorat resurslarning) tashrifchilari sonini oshirishga qaratilgan jami marketing va undov yechimlari. Bunga, masalan tashrifchilar to'g'risidagi axborotning to'xtovsiz monitoringi va uning ma'lumotlarini demografik ahvol, fuqarolarning ishtiyoq va didlari, mintaqqa xususiyatlari va h.k. bilan solishtirish kiradi. Eng istiqbolli tarmoq biznes texnologiyalarining biridir.

tashrifchilar soni

ingl.: web-traffic

rus.: посещаемость

Ma'lum vaqt birligi davomida (kun, oy va h.k.) veb-saytg'a (yoki uning ma'lum sahifasiga) tashrif buyurganlar soni.

T

TB

qisq.: TeraByte

Terabiyt.

Tbit

qisq.: Terabit

Terabit.

TCL

qisq.: Tool Command Language

Asbobiy buyruqlar tili, TCL tili. Obyektga yo'naltirilgan qadam-baqadam o'giriluvchi dasturlashtirish tili.

TCO

qisq.:

1. Total Cost of Ownership – Egalik qilishning umumiy narxi. Qurilma (masalan, kompyuter) yoki dasturiy mahsulotni sotib olish, o'rnatish va foydalanish bo'yicha to'liq harajatlar miqdorini aks ettiradi.

2. TCO tashkiloti. Kasb xodimlari uyushmasi (Shvetsiya).

3. TCO standarti. Bir xil nomli tashkilot tomonidan videomonitorlar parametrlari uchun ishlab chiqiladigan standartlar, masalan, TCO-95, TCO-99. Standartlar talablari monitorlar yaratuvchi inson organizmi uchun ziarli omillarni cheklab qo'yadi: elektrmagnit nurlanish, elektrstatik maydoni, tasvir uchishi. TSO standartlari, shuningdek, energiyani tejash va elektr iste'molini boshqarishga doir talablarni o'z ichiga olgan.

Batafsilroq axborotni www.tco-info.com saytida olish mumkin.

TCP

qisq.: Transmission Control Protocol

Uzatishni boshqarish bayonnomasi, TCP bayonnomasi. TCP/IP bayonnomalar setkasida transport pog'onali bayonnomasi. Ma'lumotlarning ikki tomonlama ketma-ket uzatilishini ta'minlaydi. Bayonnomma RFC 793da tavsiflangan.

TCP vazifalari mumkin bo'lgan paketlarning yo'qolishini tekshirish, bir necha paketdan to'g'ri tartibda ma'lumotlarni yig'ish hamda yo'qolgan va buzilgan paketlarni qayta jo'natishga so'rov berishdir. Veb-serverlari bilan aloqa qilish uchun kompyuterlarda TCP/IP bayonnomasi bajarilishi lozim.

TCP/IP

qisq.: Transmission Control Protocol/Internet Protocol

TCP/IP bayonnomalari oilasi. Internetda ma'lumotlar uzatish uchun ishlataladigan bayonnomalar to'plami. Dastlab UNIX operatsion tizimlari uchun yaratilgan. Hozirgi paytda barcha asosiy operatsion tizimlarga o'rnatiladi.

TDD

qisq.: Time Division Duplex

Vaqt ajratish bilan dupleks uzatish.

TDMA

qisq.: Time Division Multiple Access

qarang: vaqtini taqsimlash bilan ko'p tomonidan erkin foydalanish

TDS

qisq.: Tabular Data Stream

Jadval ma'lumotlari oqimi, TDS bayonnomasi. Ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish uchun kommunikatsiya bayonnomasi.

TD-SCDMA

qisq.: Time-Division Synchronous Code-Division Multiple Access

Vaqt va chastota bo'yicha sinxron ajratish bilan ko'ptomonlama erkin foydalanish, TD-SCDMA standarti, TD-SCDMA texnologiyasi. Uchinchi avlodli uyali aloqa standarti. Asosan Xitoya tarqalgan.

teg

ingl.: tag

rus.: тэг

(inglizcha, tag - kalka)

Odatda, gipermatnni belgilab chiqish tilidagi buyruq shunday ataladi. Bular misolni ko'rish uchun, «Вид» (Shakl) menyusida, «HTML kodini ko'rish» buyrug'ini tanlang. Burchak qavslardagi barcha so'zlar - teglardir.

telebanking

ingl.: telebanking

rus.: телебанкинг

Bank hisoblaridantelefon orqali uzoqdan erkin foydalanish .

telefaks

ingl.: telefax

rus.: телефакс

Telekommunikatsiya tamog'i orqali, qog'ozli tashuvchida taqdim qilinadigan harakatsiz tasvirlarni uzatish-qabul qilishni amalga oshiradigan qurilma. Telefaks (xuddi shunday faks deb ataladi), faksimil aloqani ta'minlashga mo'ljallangan. U uch asosiy qismidan tashkil topgan. Ulardan birinchisi - skaner, qog'oz sahifasidan ma'lumotlar kiritishni ta'minlab beradi. Skaner 210 mm kenglikka ega, unda tasvirning ravshanligini ilg'ay oladigan 1600 datchik o'rnatilgan. Ikkinchi qism - elektron qism, xabarni qabul qiluvchiga signal ko'rinishida uzatishga xizmat qiladi. Shu qismning o'zi signalni qabul qilishni ta'minlaydi. Uchinchi qism - printerdir, u xabarni rulonli yoki varaqli qog'ozda choplaydi. Faks - apparatlarda ko'pincha termoprinterlarni ishlatishadи.

telefon apparati

ingl.: telephone set

rus.: телефонный аппарат

Nutqni balki, ma'lumotlarni boshqa xillarini ham, qabul qilish va uzatish uchun xizmat qiladigan qurilma. Telefon apparati A.Bell tomonidan 1876 yili kashf qilingan bo'lib, jahonda keng tarqalgan. Bu apparat ikki qismdan iborat:

- abonentlarni chaqirishga, ularshga va uzishga mo'ljallangan uzib – ulovchi tarkibiy qismdan;
- nutqni qabul qilishni va uzatishni ta'minlaydigan suhbat tarkibiy qismdan.

telefon pochta

ingl.: telephone mail

rus.: телефонная почта

qarang: nutqiy pochta

telefon serveri

ingl.: telephone server

rus.: телефонный сервер

Mahalliy tarmoqning telefoniya xizmatida ishslash uchun mo'ljallangan server. Bu server nutq pochta, chaqiruvlarni avtomatik taqsimlash, telefon suhbatlarining narxini hisoblash, tashqi telefon tarmog'i bilan interfeys vazifalarini bajaradi. Server, telefoniya bilan bir qatorda, tasvirlarni va faksimil aloqa xabarlarini ham uzatishi mumkin.

telefon tarmog'i

ingl.: telephone network

rus.: телефонная сеть

Nutq uzatishga mo'ljallangan tarmoq. Telefon tarmog'i, ATS «avtomatik telefon stansiyalari» (telefon stansiyalari) deb nomlanuvchi uzib-ulash bog'lamalaridan tashkil topgan. Telefon stansiyalari kanallarni uzib-ulashni ta'minlaydi, abonent tizimlar sifatida esa, birinchi galda, telefon apparatlari ishlatiladi. Tarmoq va uning tarkibiy qismlari ITU standartlari bilan belgilanadi. Odatda, telefon tarmog'i kabelli tarmoqqa tayanadi. Shu bilan birga, telefon radiotarmog'i ham ishlatiladi.

telefoniya

ingl.: telephony

rus.: телефония

Ovoz va video signalarni, tasvir va ma'lumotlarni masofadan uzatish texnologiyasi. Telefoniya xizmati foydalauvchilarga turli tuman xizmat turlarini taqdim qiladi, shu jumladan:

- abonentlar orasidagi nutqiy muloqat;

- nutqiy pochta;

- faksimil aloqa;

- matnlarni masofadan o'qish;

- ma'lumotlar bazasi bilan matnli muloqat.

Internet tarmog'ida, IP «tarmoqlararo bayonnomasi» bo'yicha bajarilayotgan matn muloqati IP-telefoniya deb ataladi.

telefonogramma

ingl.: telephonogram

rus.: телефонограмма

Nutqiy pochta saqlaydigan va uzatadigan, qabul qiluvchi esa, eshitadigan xabar.

teleish

ingl.: teleworking

rus.: телеработа

1. Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasidan foydalangan holda ish natijalaridan foydalanimish ishlatish joyidan uzoq yerda bajariladigan ish.

2. Bir tashkilotning xodimlarini o'z uylarida yoki maxsus mahalliy telemarkazlarda, telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanimish ularning o'zaro ishslashini ta'minlaydigan ishlab chiqarish faoliyati.

Teleish qator muhim imkoniyatlar beradi, ularga birinchi galda quyidagilar kiradi:

- ish vaqtini va bo'sh vaqtini erkin taqsimlash;
- ish joyiga qatnash uchun ketadigan vaqt va harajatlarni tejash.

telekommunikatsiya

ingl.: telecommunications

rus.: телекоммуникации

1. Simli, radio, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlardan foydalanimish signal, belgi, matn, tasvir va tovushlarni yoki boshqa ko'rinishdagi axborotni uzatish, qabul qilish va unga ishlov berish jarayoni.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ma'lumotlarni masofadan uzatish jarayoni.

3. Predmeti axborot uzatish uslublari va vositalari bo'lgan faoliyat sohasi.

telekommunikatsiya makroiqtisodiyoti

ingl.: macroeconomics of telecommunication

rus.: макроэкономика телекоммуникации

Iqtisodiyot sohasi. U mamlakatda telekommunikatsiyalar rivojini statistik qonuniyat asosida jamiyatning iqtisodiy darajasi bilan o'zaroborligi qurilgida belgilaydi.

telekommunikatsiya operatori*ingl.: telecommunication operator**rus.: оператор телекоммуникаций*

Telekommunikatsiya tarmog'iga mulkchilik huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida, egalik huquqiga ega bo'lgan, uning faoliyatini, rivojlanishini ta'minlovchi va telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

telekommunikatsiya operatorining xiznat doirasi*ingl.: activity zone of telecommunications operator**rus.: зона действия оператора телекоммуникаций*

Telekommunikatsiya operatori aloqa xizmatini ko'rsatadigan hudud.

telekommunikatsiya tariflari*ingl.: telecommunication rates**rus.: тарифы в телекоммуникации*

Telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanganligi uchun olinadigan haq stavkalari tizimi.

telekommunikatsiya tarmoqlarining (TT) axborot xavfsizligi*ingl.: information security of telecommunication networks**rus.: безопасность сетей телекоммуникаций информационная*

Buzg'unching (xavfsizlikka tahdid soluvchining) TT obyektlariga, tasodifan va ataylab, TTning ish jarayonini izdan chiqarish uchun TTda aylanib yuradigan ma'lumotlarga va uni boshqaruvchi axborotlarga, ular bilan tanishish, buzish, yo'q qilish yoki qamal qilish maqsadida qilingan ma'lum (berilgan) ta'sirlar to'plamidan muhofazalanganlikni bildiradi.

telekommunikatsiya tarmog'i*ingl.: telecommunication network**rus.: сеть телекоммуникаций*

Bitta yoki bir nechta uzatish (telefon, telegraf, faks, ma'lumotlar va boshqa hujjatlari xabarlar uzatish, jumladan kompyuter orasida axborotni almashish, televizion, tovush va boshqa radiosimli uzatish) turlarini ta'minlovchi texnologik tizimlar.

telekommunikatsiya tarmog'inining itoatkorligi*ingl.: non-failure operation of telecommunication networks**rus.: безотказность сети телекоммуникаций*

Telekommunikatsiya tarmog'inining uzluksiz ishchi holatini biror vaqt davomida yoki biror ishini saqlab qolish xossasi.

telekommunikatsiya tashkiloti*ingl.: telecommunication company**rus.: организация телекоммуникаций*

Mulkchilik turidan qat'iy nazar, telekommunikatsiya xizmatlarini jismoniy va yuridik shaxslarga, o'zining asosiy faoliyat turi sifatida taqdim qiladigan, yuridik shaxs.

telekommunikatsiyalar kanali*ingl.: telecommunication channel**rus.: канал телекоммуникаций*

Texnik vositalar va tarqalish muhitini majmui. U telekommunikatsiya signallarining o'tish yo'lini hosil qildi. Bu yo'li kanallar va ikkilamchi tarmoq liniyalari bilan ikkilamchi tarmoq stansiyalari va bog'lamalari yordamida ketma-ket ulangan. Shunda uning chekkalariga abonent chekka qurilmalari (terminallari) ulanganda manbadan qabul qiluvchi (lar) ga xabar yetkazishni ta'minlaydi. Tarmoqning turiga ko'ra, telekommunikatsiya kanalini, masalan, telefon, telegraf, ma'lumotlar uzatish kanali deb atashadi. Hududiy alomati bo'yicha telekommunikatsiya kanallari xalqaro, shaharlararo, zonaviy, mahalliy turlarga bo'linadi.

telekommunikatsiyalar mikroiqtisodiyoti*ingl.: microeconomics of telecommunications**rus.: микроэкономика телекоммуникации*

Ayrim telekommunikatsiya subyektlari, masalan, telekommunikatsiyalar operatori, aloqa tashkillashtiruvchisi faoliyatini bilan bog'liq iqtisodiyot sohasi.

telekommunikatsiyalar tarmog'inining texnologik xavfsizligi*ingl.: technological security of telecommunications network**rus.: технологическая безопасность сети телекоммуникаций*

Telekommunikatsiyalar tarmog'inining apparat-dasturiy ta'minotini qasddan qilingan qo'poruvchi nosozliklarga ega bo'lmashlik xossasi. Buning uchun muayyan vaqt o'tishi bilan yoki tashqaridan berilgan buyruqqa binoan, noxush oqibatlarga olib keluvchi harakatlar sodir etuvchi vositalar bo'lmashligi shart.

telekonferensiya

ingl.: teleconference

rus.: телеконференция

1. Texnik vositalar yordamida, hududiy tarqoq ishtirokchilar orasida guruhiy kommunikatsiyani amalga oshiradigan tadbir turi. Misollar: telefonli konferensiya, audiokonferensiya, chat, elektron e'lonlar doskasi, pochta konferensiyasi, video konferensiya va sh.o'.

2. Uzoqdagi foydalanuvchilar guruhlari orasida munozara o'tkazish usuli. Telekonferensiya foydalanuvchilarni o'zaro ishslashini ta'minlovchi texnik-dasturiy muhit asosida amalga oshiriladi. Telekonferensiya o'tkazish uchun, ularning har biri tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterdan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Telekonferensiylar ikki turga bo'linadi. Haqiqiy vaqtidagi telekonferensiyada, uning barcha ishtirokchilari bir vaqting o'zida shaxsiy kompyuterlari oldida o'tirib, hamkorlarga matn va tasvirlarni ko'rsatish hamda tovushli muloqat olib borish, fayllarni va xabarlarni jo'natishni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Telekonferensiyalarning ikkinchi turi hujjatlarni ko'rib chiqish maromida amalga oshiriladi. Bunda, muhokama bo'layotgan axborotni o'z ichiga olgan faylni yaratayotgan, ma'lumotlar bazalaridan biri ishlatalidi.

teleks

ingl.: telex

rus.: телекс

Abonent telegraflashning xalqaro tarmog'i. Tarmoq xabarlarni katta bo'lмаган tezlik bilan avtomatik uzatishni ta'minlaydi. Tarmoqning abonentlari oddiy terminallar bo'lib, ular belgilari yozuv mashinkalarining belgilariga mos keladigan klaviaturadan matnlarni kiritish, xotiralash va uzatish imkoniga egalar. Teleksning ishi ITU standartlari bilan belgilanadi. Teleks, o'zining oddiyligi evaziga avvallari keng tarqalgandi. Teleks terminallarining butun dunyo tartib raqami bilan ta'minlash sxemasi yaratilgan. So'nggi yillarda, teleks ko'p ixtisosli kommunikatsiya tarmog'ining tarmoq xizmati bo'lib qoldi va aloqa vositalarini zamonaviyroq turlari –

telematn va elektron pochta bilan almashtirilmoqda.

teleko'rsatuv

ingl.: television

rus.: телевидение

Asosiy vazifasi harakatlanuvchi tasvirlarni uzatish bo'lgan tarmoq xizmati. Avvaliga teleko'rsatuvarlar, keng abonentlar auditoriyasiga mo'ljallangan ommaviy axborot vositasi sifatida rivojlangandi. U bu maqsadlar uchun teleko'rsatuvarlar tarmog'ini yoki maxsus yaratilgan kabel teleko'rsatuvarlar tarmog'ini ishlatgan. So'ogra, bu tarmoqni ko'p faoliyatli kommunikatsiya tarmog'iga aylanib borishi bilan, teleko'rsatuvarlar muayyan ijtimoiy guruhlarni axborot bilan ta'minlab o'zining imkoniyatlarini kengaytira bordi. Asosiy eshittirishlar bilan birga, teleko'rsatuvarlar, sekundiga 25 ta kadrni uzatish bilan abonentlarni yangi xizmat turlari bilan ta'minladilar:

- pullik teleko'rsatuvarlar;
- o'quv ko'rsatuvarlari;
- reklama va marketing xabarları;
- telematn.

Sun'iy yo'ldosh orqali teleko'rsatuvarlar yaratildi. Yuqori ajrataolishli teleko'rsatuvarlar xizmati HDTV paydo bo'ldi.

teleko'rsatuv kamerasi

ingl.: television camera

rus.: телевизионная камера

Dunyoda qabul qilingan standartlarga mos tazrsa videofilmlarni yozib oladigan kamera.

T

teleko'rsatuv tarmog'

ingl.: television network

rus.: телевизионная сеть

Birinchi navbatda, teleko'rsatuvarlarning faoliyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan tarmoq. Biroq, bugungi kunda, teleko'rsatuvarlar tarmog'i ko'psonli foydalanuvchilarga keng ko'lamlari axborot xizmatlari turlarini ta'minlamoqda. Barcha teleko'rsatuvarlar tarmoqlarining alohida xususiyati bo'lib ularning yuqori darajadagi yuzlab megalbit sekundiga, o'tkazish qobiliyati, hisoblanadi. Teleko'rsatuvarlar tarmoqlarida, aloqa yo'ldoshlari keng ishlatilmoqda. Teleko'rsatuvarlar tarmoqlari asta-sekin keng eshittirishlar tarmog'idan, ko'pmaqsadli katta

o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan kommunikatsiya tarmog'iga aylanib bormoqda. Unga, Intercast texnologiyasi yoki boshqa uslublar yordamida shaxsiy kompyuterlar ulamoqda.

teleko'rsatuvlar kutubxonasi

ingl.: television library

rus.: телевизионная библиотека

Asosan tasvirlar va videofilmlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar banki. Optik to'plovchilarni keng ishlatalish, juda katta hajmdagi xotiraga ega bo'lgan ma'lumotlar bankini yaratishga imkon bardi. Buning evaziga teleko'rsatuvlar kutubxonasi yaratilishi mumkin bo'ldi.

telemarketing

ingl.: telemarketing

rus.: телемаркетинг

qarang: elektron marketing

telematika

ingl.: Telematics

rus.: телематика

1. Foydalanuvchining axborot talablariga javob beradigan axborot tizimlari va xizmatlari.
2. Axborotga birlashgan ishlov berish va uni uzatish uchun teleko'rsatuvlarini kompyuter qurilmalari bilan birlashmasi.

telematn

ingl.: teletext

rus.: телемекс

Teleko'rsatuvlar tarmog'ining tarmoq xizmati. U matn va oddiy tasvirlarni uzatishni ta'minlaydi. Telematn keng eshittirishlar maromida ishlaydi va axborotni televizorlar yordamida qabul qilishga mo'ljallangan. Uzlusiz aylanma davriy tarzda, ob-havo ma'lumoti, sport natijalari, valuta kurslari, yangiliklar sarlavhalaridan iborat sahifalar to'plami (100 betgacha) uzatadi.

teleteks

ingl.: teletex

rus.: телемекс

Matnli hujjatlar uzatish uchun tarmoq xizmati. Teleteks, elektron pochtaning eng sodda xili bo'lib, hujjatlarni tayyorlash, tahrirlash va uzatish bilan bog'liq keng imkoniyatlarga ega. U, telefon tarmog'ida ITU standartiga mos ravishda faoliyat ko'rsatadi. Teleteks, o'zining imkoniyatlari va bajaroyotgan vazifalariga ko'ra,

teleksni rivojlangan darajasidir. Chunki, u amallarni 2400 bod tezlikda bajaradi, bu esa teleks ish tezligidan 50 barobar ortiqdir. Teleteksning, teleksga nisbatan afzalligi, qatorlarni va paragraflarni shakllantirishda kengroq belgilari yig'masini ishlata olish imkoniyatidadir.

teletibbiyot

ingl.: telemedicine

rus.: телемедицина

Tibbiyot yo'nalishi. U telekommunikatsiyalarni, davolash va tashxislash sifatini hamda buning imkoniyatini oshirish maqsadida mutaxassislar orasida tibbiy axborot ayrboshlash uchun ishlatalishga asoslangan. Tibbiy axborotni mutanosib ayrboshlashning zaruriy sharti bo'lib, tibbiy ma'lumotlarni va bilimlarni aloqa kanallari orqali uzatish uchun kelishilgan tarzda tayyorlash hisoblanadi.

televizor

ingl.: television set

rus.: телевизор

Harakatsiz va harakatlanuvchi tasvirlarni tovush hamrohligida namoyish qilish uchun mo'ljallangan qurilma. Televizor, birinchi navbatda teleko'rsatuvlar tarmog'ining terminalidir. Shunga munosib tarzda, u teleko'rsatuvlar signallarini qabul qiluvchisini, kadrlar va qatorlarni yoyish, ekran va tovushni eshittirish tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. O'zarlo faol teleko'rsatuvlarni paydo bo'lishi bilan televizorga mikroprotessorli qurilma ulaydigan bo'lishdi. Uning vazafasi foydalanuvchini ma'lumotlar bazasi va tarmoqni boshqa amaliy jarayonlar bilan muloqotini ta'minlashdir. Televizorlar borgan sari ko'proq, analogli tamoyillardan raqamlisiga o'tmoqda. Bu bilan birga, ularni ekranlari keng formatli, kengligini balandlikga nisbati 16:9 bo'imoda.

telexizmat

ingl.: teleservice

rus.: телеслуга

Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasidan foydalanib, masofadan taqdim qilinadigan xizmat turi.

Telnet

Buyruqlarni qadam-baqadam o'giruvchidan foydalangan holda kompyuterdan masofadan erkin foydalanish uchun tarmoq bayonnomasi. Bitta kompyuter foydalanuvchisiga boshqa uzoqlashgan kompyuteriga ularish va u bilan xuddi o'z kompyuterida ishlaganidek ishslash (jumladan, tahrir qilish, ko'chirish, o'chirish amallarini bajarish) imkonini beradi. Shifflashdan foydalanmagani uchun Internet va mahalliy tarmoqda foydalilganda xaker hujumlariga qarshi zaifroq. SSH tarmoq bayonnomasi tomonidan yetarli kriptografikaviy muhofaza qilinganlikka o'xshash funksionallik ta'minlanishi mumkin.

terminal

ingl.: *terminal*

rus.: *терминал*

1. Axborot tizimiga ma'lumot va buyruqlarni kiritish-chiqarish qurilmasi. Terminallarni ishlatiladigan xillari ro'yxati yetarlicha kattadir. Ularning eng oddysi bo'lib, telefon apparati hisoblanadi. Terminallar videoteks, audiomatn, teleteks va telekonferensiya xizmatlarida keng tarqalgan. Informatikada, banklarda, savdoda ixtisoslashgan funksiyalarini bajaradigan terminallarda foydalaniladi.
2. Telefon liniyasingning yakuniy yoki uning boshqa liniya yoki tarmoq bilan ulanadigan nuqtasi.

terminal emulyatsiyasi

ingl.: *terminal emulation*

rus.: *эмulation терминала*

Sizning kompyuteringiz ulangan terminal vazifasini bajaradigan uzoqdagi kompyuter bilan ularish jarayoni.

terminal jihoz

ingl.: *Terminal Equipment (TE)*

rus.: *терминальное оборудование*

Foydalanuvchi ehtiyojlari uchun amaliy jarayonlarni bajaradigan abonent tizimning asosiy qismi. Terminal jihoz sifatida rang-barang qurilmalar o'rinn olishi mumkin. Shuningdek, ular qatoriga telefon apparat, teleks, faks-apparat, kompyuter va h. k.lar kiradi. Bu jihoz axborot tizimiga yakka holda yoki guruhlab ulanadi.

terminal qurilmasi

ingl.: *terminal device*

rus.: *терминальное устройство*

Kompyuterni masofadan boshqarish pulti. Terminal qurilmasidan inson, kompyuter bilan bevosita muloqat olib borishi, u yoki bu masalani qismlab yechishni topshirishi, kompyuter xotirasidan kerakli ma'lumotlarni olishi, hisoblarining oraliq natijalarini olishi mumkin.

terminal serveri

ingl.: *terminal server*

rus.: *терминальный сервер*

Terminallar majmuasini birlashtiruvchi server. U terminallar joyini o'zgartirganda ularishlarni soddalashtiradi.

terminator

ingl.: *terminator*

rus.: *терминатор*

Murakkab bo'limagan qurilma. U ma'lumotlarni yuqori tezliklarda uzatishda signallar umumiyl bo'g'in oxiridagi nuqtalardan akslanishi mumkin bo'lganda yakka kanalning umumiyl bo'g'ini uchlariga (oxiriga) o'rnataladi. Ko'p hollarda, terminator vazifasini rezistor o'taydi. Terminator tuyayli, signallar umumiyl bo'g'in uchlarida yoyilib ketadi.

termoprinter

ingl.: *thermoprinter*

rus.: *термопринтер*

Ish tamoyili ikkita rangsiz qizdirilgan tomchi bitta rangli tomchiga tutashib ketishiga asoslangan printer. Termoprintering ishlashi uchun, odatda, issiqlikga sezgir yupqa jadval shaklidagi, uyalarida mikrotomchilar joylashtirilgan, qatlam bilan qoplangan maxsus qog'oz ishlatiladi. Qog'oz bo'ylab qatorma-qator qog'ozni ezadigan ignalalar siljiltiladi. Kerakli nuqtalarda, elektrik impulslar evaziga, ignalalar qiziysi va ko'rindigan mikrodog'larni qoldiradi.

teskari aloqa

ingl.: *feedback*

rus.: *обратная связь*

Sayt tashrifchilarining fikr va taqrizlarini yig'ish. Foydalanuvchilar bilan teskari aloqa o'rnatishning eng sodda va standart harakati – saytda xatlar uchun elektron manzilni joylashtirishdir. Agar siz, «shoshilinch aloqa uchun» manzilni qoldirish bilan kifoyalanmay, foydalanuvchilar sizga taqrizlarini yozishlariga erishmoqchi bo'lsangiz, saytingizda xabarlar

yuborish uchun qolip (shakl) joylashtiring. Bu shaklning turi sifatida, «mehmonlar kitobi» (guestbook) deb ataluvchi shakldan foydalanish mumkin. Foydalanuvchi mehmonlar kitobi shaklini to'ldirishi bilan, uning taqrizi saytga chiqariladi. Nihoyat, teskari aloqa o'rnatish vositasi sifatida forum ishlatalishi mumkin, agar siz foydalanuvchilarning savol va arzlariga javob berishga tayyor bo'lsangiz, bu dolzarb usuldir.

teskari chaqiriq

ingl.: callback

rus.: обратный вызов

1. Ma'lumotlarga ishlov berish tizimi uni muvofiqlash tartiboti. Bunda chaqirayotgan terminalni aniqlab, chaqiriqni o'chiradi va chaqirayotgan terminalning kodini uni muvofiqlash uchun teradi. Bu tartibot uzoqdagi kompyuter bilan modem yordamida ulanish bo'lganda sodir bo'ladi.
2. Dasturlashda – chaqiruvchi dasturdagi funksiyani chaqirilayotgan dastur tomonidan asinxron chaqirish: A dasturi, S tartibotning manzilini ko'rsatib, V tartibotni chaqiradi, bajarilishi davomida V tartibot, boshqaruvni A dasturiga qaytarmay, S tartibotni chaqirishi mumkin. Usul, aksariyat begona ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan, hammabop algoritmlarni (V tartiboti) hammabop tartibotlarning dastlabki kodini o'zgartirmay, tatbiq qilishning turli usullari (S tartiboti) bilan, ishlatalish imkonini beradi.

testlash

ingl.: testing

rus.: тестирование

Qurilma yoki dasturiy ta'minot to'g'ri ishlayotganini yoki uning ish tezligini aniqlash jarayoni. Testlash uch asosiy bosqichga ajratiladi. Bular ishlab chiqish, sifat nazorati va yaratilayotgan obyektni tatbiq qilish bosqichlaridir. Har bir bosqichda, shu bosqich testlari amalga oshiriladi. Bularning hammasi obyektning sifatini va obyektlarni bexato ishlashini kafolatlaydi. Testlash texnik va dasturiy mahsulotlarni tashxislashni va haqiqiyligini tasdiqlashni ta'minlaydi, ularning texnik talablarga mosligini tekshiradi. Testlash uchun apparatlar yoki dasturlar, masalan mantiqiy tahvilchilar ishlataladi. Testlash dasturlardagi xatoliklarni aniqlash imkonini

beradi xolos. Ularni tuzatish dasturlarni sozlashda amalga oshiriladi.

Texas Instruments korporatsiyasi

ingl.: Texas Instruments corporation

rus.: корпорация Texas Instruments

Integral sxema va kompyuterlar ishlab chiqaruvchi kompaniya. Texas Instruments AQSHda yaratilib, dastlab neft sanoati uchun asboblar va boshqa texnika vositalarini ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Keyin kompaniya yarimo'tkazgichlar yaratuvchilari orasida eng birinchilardan biri bo'lgan. 1958 yilda kompaniya birinchi integral sxemani, 1967 yilda esa birinchi qo'l kalkulatorini taqdim etgan. Hozirgi paytda Texas Instruments keng ko'lamda integral sxemalar taklif etadi. Kompaniya modul tamoyili asosida qurilgan yuqori samarali ixcham shaxsiy kompyuter va mikroprotsessorni ishlab chiqaradi.

texnik boshqaruв hujjati

ingl.: technical guidelines

rus.: материал технический руководящий

Qo'llanilishi shart bo'lgan, texnik talablar va telekommunikatsiyalar tarmoqlari apparatursining o'zaro aloqada ishlash bayonnomalarini aks ettirgan hujjat.

texnik uyg'unlik

ingl.: technical compatibility

rus.: техническая совместимость

Biror kompyuterni boshqa kompyuterning tarkibigidagi bog'lama va vositalar bilan ishlay olish qobiliyati.

texnikaviy ta'minot

ingl.: hardware

rus.: техническое обеспечение

qarang: apparatus ta'minoti

texnikaviy vositalar

ingl.: technical tools

rus.: технические средства

qarang: apparatus vositalar

texnologik aloqa tarmog'i

ingl.: technological communication network

rus.: технологическая сеть связи

Ishlab chiqarishning ichki jarayonlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan elektr aloqa tarmog'i.

texnologiya

ingl.: technology

rus.: технология

Muayyan ishlab chiqarish sohasidagi usullar va jarayonlar majmuasi. Informatikada turli tuman axborot texnologiyalari ishlataladi, birinchi navbatda, kompyuter texnologiyalari.

texnologiyalar egasi

ingl.: owner of technologies

rus.: владелец технологий

Qonun tomonidan belgilangan chegaralar doirasida texnologiyalarga ega bo'lgan va foydalanayotgan hamda foydalanish vakolatlarini amalga oshirayotgan subyekt.

texnopark

ingl.: industrial park

rus.: технопарк

Fanni, ta'limni va ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish shakli. Texnopark yoki texnologik park, yuqori malakali mutaxassislar ishlaydigan tadqiqot, axborot, texnik va texnologik jamiyatlar. Texnoparkda tadqiqotlar bajariladi, ishlanmalar ishlanadi, ko'pincha tovarlar ishlab chiqarish ham bajariladi.

tezkor paket

ingl.: fast packet

rus.: быстрый пакет

Kanal sathida, foydalanuvchi tizimlar va ma'muriy tizimlar orasida uzatiladigan ma'lumotlar bloki.

tezkor xotira

ingl.: main memory

rus.: оперативная память

Kompyuter xotirasining asosiy tezkor maydoni. Markaziy protsessorning bevosita nazorati ostida ma'lumotlarni va dasturlarni saqlash uchun ishlataladi. Tezkor xotira protsessorga buyruq va ma'lumotlarni bevosita yoki kesh-xotira orqali uzatadi. Shu sababli, dastlab, tezkor xotiraga operatsion tizim yoki, hech bo'Imaganda, uning shu vaqtida ishlayotgan qismi yoziladi. Bundan tashqari, bu yerda bu dasturga zarur bo'lgan, protsessorda bajarilayotgan dastur va ma'lumotlar saqlanadi. O'z navbatida, tezkor xotira, kattaroq hajmga ega, lekin sekinroq ishlaydigan tashqi xotira bilan o'zaro ishlaydi.

tezkor xotira qurilmasi

ingl.: main storage device

rus.: оперативное запоминающее устройство (ОЗУ)

Axborot tizimiga tezkor xotira taqdim qilayotgan xotira qurilmasi. Tezkor xotira qurilmasi, RAM «ixtiyoriy erkin foydalaniш xotirasi»ni taqdim qiladi, tezkor hisoblanadi, shu sababli qimmatbahodir. Tezkor xotira qurilmasi, ularga dasturlarni va ma'lumotlarni qayta-qayta yozish va ularni o'chirish imkonini beradi. Tezkor xotira qurilmalarining ikki sinfi farqlanadi. Energiyaga qaram qurilmalar soddarоq, lekin bunday xotira faqat elektr quvvat borligida saqlay oladi. Energiyadan mustaqil xotira qurilmalari, xotirani saqlashni ozuqa manbai yo'qligida ham davom ettiradi, ammo ular murakkabligi bilan tavsiflanadi.

teshik

ingl.: hole (in information security)

rus.: дыра (в информационной безопасности)

Axborot xavfsizligi nuqtaи nazaridan zaiflik. Qaralsin: Zaiflik.

TFLOPS

qisq.: TeraFLOPS

Trillion FLOPS.

TFT

qisq.: Thin Film Transistor

Yupqa tasmali tranzistor, TFT texnologiyasi. Ekrandagi har bir tasvir elementi uchun maxsus tranzistor (“faol matritsa”) javob beruvchi LCD panellarni ishlab chiqarish texnologiyasi.

TFTP

qisq.: Trivial File Transfer Protocol

Fayllar uzatishning oddiy bayonnomasi, TFTP bayonnomasi. FTP bayonnomasining soddalashtrilgan xili. Asosan disksiz ish stansiyalarini dastlabki yuklash uchun ishlataladi. FTP bayonnomasidan farqli o'larоq, TFTP autentifikatsiya imkoniyatlariga ega emas va UDP transport bayonnomasiga asoslangan. TFTP bayonnomasining spetsifikatsiyasi RFC 1350da keltirilgan.

TIFF

qisq.: Tag Image File Format

Tasvirni saqlash uchun belgilovchiga ega bo'lgan fayl, TIFF formati. Rastr grafikasini saqlash uchun fayl formati.

tijorat axboroti



tijorat siri

*ingl.: commercial information
rus.: коммерческая информация*

Oldi-sotdi obyekti axboroti. U faqat axborot egasining hoxishi va uning shartlariga ko'ra, tarqatiladi.

tijorat siri

*ingl.: commercial secret
rus.: коммерческая тайна*

1. Davlat yoki xususiy korxona faoliyatining ixtiyoriy sohasiga tegishli mahfiy ma'lumotlar. Ularni oshkor aylash ularning egalariiga yoki foydalanuvchilarga (yuridik shaxslarga) moddiy yoki ma'naviy ziyon keltirishi mumkin. Tijorat sirini qo'riqlash uning egasi tomonidan amalgalashiriladi.

2. Boshqaruv, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, kredit-moliya, savdo va o'zga ishchan axborotni tashkil qiladigan, hamda maxsus qo'riqlanadigan ma'lumotlarni, shu jumladan ishlab chiqarish sirlarini o'z ichiga olgan axborot.

3. Fuqarolik huquqining alohida tartibda muhofazalanadigan obyektlaridan biri. Axborot tijorat sirini tashkil qilishi uchun, u uchinchi shaxslarga noma'lumligi uchun, haqiqatda yoki potensial ravishda tijorat boyligiga ega bo'lishi, undan qonuniy tarzda erkin foydalanish mumkin emasligi va axborotni egasi uning pinhoniyligini muhofaza qilish tadbirlarini ko'rishi holati mavjud bo'ladi.

tizim

*ingl.: system
rus.: система*

Ma'lum natijaga erishish uchun birlashtiruvchi bir butun yoki jami turli xil obyektlar sifatida o'rganiluvchi ixtiyoriy obyekt.

tizim birlashtiruvchisi

*ingl.: systems integrator
rus.: системный интегратор*

Turli yetkazib beruvchilardan olingan tarkibiy qismalarni birlashtirish yo'li bilan to'liq kompyuter tizimlarini qurishda ixtisoslashgan shaxs yoki kompaniya. Dasturlarni ishlab chiqaruvchilardan farqli o'laroq, tizim birlashtiruvchilari hech qanday dastlabki kod ishlab chiqmaydi. Buning evaziga ular kompaniyalarga ularning hisoblash ehtiyojlarini qondirish uchun do'konlarda sotilmaydigan

kompyuter va dastur paketlaridan foydalanishga undaydi.

tizim butunligi

*ingl.: system integrity
rus.: целостность системы*

Ma'lumotlarga ishlov berish tizimining, o'z maqsadi yo'lida faoliyat bajarish xossasi. Bunda mualliflashmagan foydalanuvchilar tomonidan resurslar shaklini o'zgartirish va ulardan foydalanish, hamda resurslarni mualliflashgan foydalanuvchilar tomonidan nomutanosib shakl o'zgartirish va noto'g'ri foydalanish oldindan bartaraf qilingani nazarda utiladi.

tizim dasturlovchisi

*ingl.: system software developer
rus.: системный программист*

Tizimli dasturiy ta'minot ishlab chiqish bilan shug'ulanuvchi dasturlashtiruvchi.

tizim fayli

*ingl.: system file
rus.: системный файл*

O'z ichiga operatsion tizim modullaridan birini yoki operatsion tizim foydalanayotgan yoki qo'llab-quvvatlayotgan ma'lumotlar to'plamini olgan fayl.

tizim jurnali

*ingl.: system log
rus.: системный журнал*

Tizim subyektlari faoliyati natijalari qaydlarining xronologik tarzda tartibga solingen jami qaydlar. U oxirgi natijani tekshirish maqsadida tranzaksiyani bajarayotgan paytda amallar, jarayonlarning bajarilishiga yoki vogelarning ro'y berishiga olib keluvchi harakatlar ketma-ketligini qayta tiklash, ko'rish va tahlil qilish uchun yetarli bo'lishi lozim.

tizim ma'muri

*ingl.: system administrator
rus.: системный администратор*

Tashkilot yoki muassasa tizim dasturiy ta'minotining ahvoli, rivojlanishi va foydalanilishi uchun javobgar inson yoki shaxslar guruhi. Tizim ma'muri foydalanuvchilarning qayd yozuvlarini olib boradi, qayd yozuvlari siyosatini belgilaydi, operatsion tizimlarning faoliyati va ma'lumotlar muhofazasining kerakli pog'onasini ta'minlaydi.

U ushbu tashkilotning tizim muhandislari, tizimli dasturlashtiruvchilar va foydalanuvchilari bilan o'zaro aloqada ishladi.

tizim muhandisi

ingl.: system engineer

rus.: системный инженер

Tizimli dasturiy ta'minotini ishlatalish va kuzatib borish bilan shug'ullanuvchi shaxs (odatda muhandis-dasturlashtiruvchi). Ba'zi hollarda tizim muhandisi tizim ma'muri vazifalarini ham bajaradi.

tizim obyektlari modeli

ingl.: System Object Model (SOM)

rus.: модель системных объектов

Dasturlarning mahalliy tarmoqda o'zaro ishlashi va ularning bitta abonent tizimidan boshqasiga ko'chishi mumkinligini ta'minlovchi yondashuv. SOM IBM korporatsiyasi tomonidan obyektlarni boshqarish guruhni tomonidan taklif qilingan «obyektlar so'rovi agentlarning umumiy arxitekturasi» CORBA asosida ishlab chiqilgan. Model turli abonent tizimlarida joylashgan obyekt-dasturlarning interfeyslari va o'zaro ishslash qoidalari belgilaydi. Bir jinsli muhitni hosil qilib, SOM foydalanuvchiga tarmoqda ishlatalidigan maslaklardan qat'iy nazar turli operatsion tizimlar bilan ishslash imkonini beradi. Uning yordamida turli maslaklarda ishlayotgan obyektlardan foydalanib, ularning o'zaro ishlashini ta'minlash mumkin.

tizim resursi

ingl.: system resource

rus.: системный ресурс

Kompyuter qurilmalari tomonidan dasturni o'z talabidan xabardor qilish uchun yoki dastur tomonidan qurilma vazifasini nazorat qilish uchun ishlatalidigan quroq.

tizim tahlili

ingl.: systems analysis

rus.: системный анализ

Turli tavsifdagagi murakkab muammolarni hal etish bo'yicha qarorlarni tayyorlash va isbotlash uchun ishlatalidigan jami uslubiy vositalar. U tizimli yondashuvga hamda qator matematik usullar va zamonaviy boshqaruv usullariga asoslanadi. Asosiy tartibot – voqeiy holatning o'zaro bog'liqliklarini aks ettiruvchi umumlashgan modelni yaratish.

tizim tahlilchisi

ingl.: system analyst

rus.: системный аналитик

Amaliy muammolarga tavsif beruvchi, tizim spetsifikatsiyalarini belgilovchi, qurilmalarni o'zgartirish bo'yicha tavsiyalar beruvchi, ma'lumotlarga ishlov berish tartibotlarini va ko'zda tutilgan ma'lumotlar tuzilmalarini loyihalashtiruvchi mutaxassis.

tizimli dasturiy ta'minot

ingl.: system software

rus.: системное программное обеспечение

Hisoblash tizimi tarkibiga kiruvchi jami tizimli dasturlar. Bu kompyuterdan foydalanish va xizmat ko'rsatish, hisoblash ishlarni tashkillashtirish va amaliy dasturlarni yaratishni avtomatlashтирish uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minot. Tizimli dasturiy ta'minotning eng muhim tarkibiy qismi – operatsion tizim – apparatli vositalar uchun zarur qo'shimcha bo'lib, odatda hisoblash tizimini ishlab chiqaruvchi tomonidan yetkazib beriladi. Tizimli dasturiy ta'minotning boshqa tarkibiy qismlari kompyuterga foydalanuvchini qoniqtiradigan hisoblash tizimini yaratish uchun uning o'zi tomonidan o'rnatiladi.

TLD

qisq.: Top Level Domain

Yuqori pog'onali domeni. To'liq domen nomning oxirgi (o'ng) qismi. Masalan, gov.uz domenida yuqori pog'onali domen '.uz'. turli yuqori pog'onali domenlar mavjud, masalan .biz, .com, .edu, .gov, .info, .int, .mil, .net, .org; shuningdek dunyo mamlakatlarini belgilovchi ikki harfli domen nomlari ham bor: .uz, .ru, .ua, .pl, .us.

TLS

qisq.:

1. Thread Local Storage – Oqimning mahalliy xotirasi.
2. Transport Layer Security – Transport pog'onasida xavfsizlik, TLS bayonnomasi.

TM

qisq.: TradeMark

qarang: tovar belgisi

TOP funksional profili (kasbiy yo'nalishi)

ingl.: TOP functional profile

rus.: функциональный профиль TOP

Texnologik va muassasa bayonnomalarining shajarasini belgilovchi funksional kasbiy yo'nalish. Boeing Computer Service jamiyatni 1985 yilda funksional kasbiy yo'nalishning, TOP «texnik va muassasa bayonnomasi» deb atalmish to'la rusumini taklif qildi. U muassasalarning mahalliy tarmoqlarida keng foydalanish uchun mo'ljallangan. TOP amaliy kasbiy yo'nalishi xilma-xil tarmoq xizmatlarini taqdim qiladi.

topologiya

ingl.: topology

rus.: топология

Tarmoqning umumiyligi tarkibiy tuzilmasi. Tarmoq topologiyasi kompyuter, kabel va tarmoqning boshqa tarkibiy qismlarini jismoniy joylashuvini ifodalaydi. Har bir topologiya aniq shartlarni qo'yadi. Ularning har biriga na faqat kabelning turini aniqlash darkor, balki uni qanday yotqizishni ham. Turli topologiyalar kompyuterlarni tarmoqda aniq o'zaro ishlash usuliga ham talab qo'yadi. Asosiy topologiyalarga shina, yulduz va halqa kiradi. Agar kompyuterlar bir kabel (segment) bo'ylab ulangan bo'lalar, bunday topologiya shina deb ataladi. Agar kompyuterlar bir nuqtadan chiqqan segmentlarga yoki to'plagichga ulangan bo'lalar, bunday topologiya yulduz deb ataladi. Agar kompyuterlar ulangan kabel halqa qilib ulangan bo'lsa, bunday topologiya halqa deb ataladi. Amaliyotda yuqorida keltirilgan sodda topologiyalarning murakkabroq birikmalari ham uchraydi.

topshiriq

ingl.: job

rus.: задание

Kompyuter bajaradigan ish hajmi. U ma'lumotlar, dasturlar, fayllar va mashina uchun ko'rsatmalar majmuidan iborat. Ixtiyoriy topshiriq bir necha bosqichda bajarilishi mumkin, ularning bir qismi o'zidan avvalgilarining natijalariga bog'liq bo'ladi. Topshiriqlar ikki xil maromda, ya'ni bir dasturli va ko'p dasturli maromda bajarilishi mumkin. Oxirgi holda, tizimda qandaydir vaqt mobaynida topshiriqlar majmui bajariladi. Uni maxsus rejalovchi dastur boshqarib, u amaliy jarayonlar tomonidan qo'shma resurslarni ishlash tartibini belgilaydi.

tor yo'nalishli reklama

ingl.: targeting

rus.: узконаправленная реклама

Reklama bannerini reklama beruvchi uchun eng qiziq bo'lgan faqat cheklangan foydalanuvchilar doirasiga (maqsad auditoriyasiga) ko'rsatish. Masalan, banner ko'rsatishlarni foydalanuvchilar so'rovlariga javoban sotuvchi katta izlash tizimlari foydalanuvchiga izlash doirasini aniqlab berib, unga mavzuga mos bannerlarni ko'rsatadi. Reklama beruvchilar banner ko'rsatishlarni aynan tor yo'nalishga ega bo'lgan, ya'ni foydalanuvchilarning aksariyati berilgan mahsulot/xizmat turi bilan qiziqadigan saytlarda (yoki sayt bo'limlarida) sotib olishga harakat qiladi. Reklamaning bunday turi eng samarali, biroq qimmatroq.

TouchPad

Tegishni sezuvchi panel – hajmi tahminan 6x6 sm bo'lgan, sichqonchaning o'rnini bosuvchi maxsus panel. Panel barmoqning harakatlanishini ham, u bilan bosishni ham nazorat qiladi. Mobil kompyuterlarda qo'llaniladi va ba'zi klaviatura modellariga o'rnataladi.

tovar belgisi

ingl.: TradeMark (TM)

rus.: товарный знак

Kompaniyaning yoki uning maxsulotini ajratish uchun xizmat qiladigan o'rnatilgan tartibda ruxyatga olingan belgi. Tovar belgisiga misollar: Novell, Windows, Microsoft.

tovush

ingl.: sound

rus.: звук

Muhitning tebranma harakati. Tabiatning har qanday hodisalari qatori asboblar, apparatlar, mashinalar, transport vositalari ham tovush manbai bo'lishi mumkin. Tovushning alohida turlari bo'lib nutq va musiqa hisoblanadi. Inson 16 Gs dan to 20 kGs chastota oraliqdagi tovushlarni qabul qila oladi. Texnik qurilmalar unga qaraganda ancha keng oraliqdagi tovush qabul qila oladi, hattoki, ultratovush va gipertovushni ham. Tovush foydalanuvchi tizimiga tovush platasi orqali kiritiladi va tovush tizimida qayta tiklanadi. Tovush tizimida qayta tiklanadi.

tashuvchi to'linlar mikrafon bilan qabul qilinadi, analog-raqamli o'zgartirishdan o'tadi va bir o'lchamli diskret signallar ketma-ketligiga aylanadi. Buning sharofati bilan, tovush xotira qurilmasiga yoziladi, so'ngra, boshqa turdag'i ma'lumotlar shakli kabi uzatiladi, saqlanadi va unga ishlov beriladi.

tovush fayli

ingl.: *sound file*

rus.: *звуковой файл*

Nuqtama-nuqta kodlanadigan tovush bo'laklaridan iborat fayl. Bundan tashqari, tovush fayli dasturlar va qurilmalar tomonidan ishlataladigan boshqaruvchi kodlarni ham o'z ichiga oladi. Tovush fayllarining namunaviy kengaytmalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: Microsoft Windows - .wav
MPEG (Moving Pictures Expert Group) Layer-3 - .mp3
Apple - .aif
MIDI - .mid
Intel Indeo Video Movie clips - .avi

tovush kanali

ingl.: *sound channel*

rus.: *канал звука*

Tovush eshittirish signallari yoki tovush jo'rliги signalari uzatishga mo'ljallangan namunaviy uzatish kanali.

tovush kartasi

ingl.: *sound card*

rus.: *звуковая карта*

qarang: tovush platasi

tovush kolonkasi

ingl.: *speaker*

rus.: *звуковая колонка*

Manbaga (tovush platasiga) ulanadigan analogli tovush signalini qayta tiklaydigan akustika apparaturasi. Odatda, stereoeffekt yaratish uchun tovush platasiga bir juft tovush kolonkasi ulanadi.

tovush moslagichi

ingl.: *sound adapter*

rus.: *звуковой адаптер*

qarang: tovush platasi

tovush platasi

ingl.: *sound board*

rus.: *звуковая плата*

Kompyuter yordamida tovushlarni yozish va eshittirish, musiqani sintezlash, kompyuterga ulangan tashqi akustika apparatlarini boshqarish imkonini beradigan plata (foydaluvchi tizimining bo'lagi). Tovush platasi o'z mikroprotsessoriga ega bo'lib, tovushni tizimga kiritishda analog-raqamli o'zgartirish va chiqarishida diskret-analogli o'zgartirishni ta'minlaydi. Ko'pincha plata ma'lumotlarni zichlashtirishni ham amalga oshiradi.

tovush tizimi

ingl.: *sound system*

rus.: *звуковая система*

Tovushni eshittirish uchun mo'ljallangan tizim. Tovush tizimlari kompyuterlarning kirish/chiqish qurilmasi bo'lib, elektr signallarni mono- yoki stereotovushga o'zgartirib beradi. Ularning orasida 3D «icho'lchovli» deb ataluvchi stereotizimlar tobora keng tarqalmoqda. Har bir tovush tizimi hech bo'limganda bitta past chastotali va bitta yuqori chastotali radiokarnayga, hamda ichiga joylashtirilgan kuchaytirgichga ega.

Toshiba korporatsiyasi

ingl.: *Toshiba corporation*

rus.: *корпорация Toshiba*

Elektron apparatura, shaxsiy kompyuter va mobil tizimlar uchun jihozlar ishlab chiqaruvchi kompaniya. Ixcham shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqaruvchi eng yetakchi kompaniyalardan biri. Kompyuterlar katta suyuq kristalli monitor va DVD tizimlariga ega. Katta e'tibor mobil tizimlarga va nutqqa ishlov berishga qaratiladi.

TPDI

qisq.: *Twisted Pair Distributed Data Interface*

qarang: CDDI

TPM

qisq.: *Transaction Processing Monitor*

Tranzaksiyalarga ishlov berish monitori. Tranzaksiyalarga ishlov berishni boshqaruvchi o'rtacha pog'onaga ega bo'lgan DT.

TPMA

qisq.: *Token Passing Multiple Access*

vakolat uzatish bilan ko'p tomonidan erkin foydalish

Harakatlanishi nazorat qilinuvchi shar – shar shaklidagi va sichqonchaning o'mini bosuvchi 2 yoki 3 tugmachadan iborat maxsus qurilma. Sharni barmoq bilan burash sichqonchaning harakatlanishiga teng.

trafik

ingl.: traffic

rus.: трафик

Telekommunikatsiya tarmog'i orqali uzatilayotgan xabarlar to'plami. Trafik vaqt birligida uzatilayotgan, kompyuter xotirasini o'lcham birligida ifodalangan (bit/sek) axborot hajmi bilan aniqlanadi. Trafik kanalning yoki kommunikatsiya tarmog'ining yuklanganligini belgilaydi.

trafik tahlili

ingl.: traffic analysis

rus.: анализ трафика

Axborot almashvu oqimini nazorat qilish asosida axborot haqidagi taxminlar. Misol – aloqa tarmog'ining ish yukining mavjudligi, yo'qligi, hajmi, yo'nalishi va chastotasining tahlili.

trafkni tiqishtirish

ingl.: traffic stuffing

rus.: набивка трафика

Axborot muhofazasi sohasida - aksil chora. U trafikni tahlillashni yoki shifrlangan matnni ochiq matnga o'girishni murakkablashtirish uchun uzatish muhitida ma'nosiz ma'lumotlarni yaratib ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Masalan, ramzlar ketma-ketligi sifatida kodlangan xabar uzatishda ketma-ketlikning ayrim xonalarini yaratilgan ramzlar bilan to'ldirish tushuniladi.

trakt

ingl.: path

rus.: трек

Ma'lumotlar uzatiladigan kanallar ketma-ketligi yoki yo'l. Trakt ma'lumotlarni uzatish yo'lini aniqlagan hollarda, uni ko'pincha marshrut deb ham atashadi. Bular, trakt bo'ylab uzatilayotgan tarmoqdagi ma'lumotlar bloki, MB dagi axborot yig'masi, dasturdagi buyruqlar ketma-ketligi va axborot izlashdagi fayllar ketma-ketligi bo'lishi mumkin.

transformatsiya

ingl.: morphing

rus.: трансформация

Bitta tasvir sekin boshqa tasvirga aylanadigan animatsiya usuli. Ko'p murakkab animatsiya dasturlari transformatsiya vazifasini qo'llab-quvvatlaydi.

transliterator

ingl.: transliterator

rus.: транслитератор

Kiril alifbosida yozilgan matnni xuddi shunday mazmuniy ahamiyatdagi lotin alifbosidagi to'la mutanosib matnga o'girishga mo'ljallangan konvertor-dastur.

translyator

ingl.: translator

rus.: переводчик

1. Signallarni bir shaklda qabul qilib (odatda aniq chastotatali analog shaklda), boshqa shaklda uzatadigan kommunikatsiya qurilmasi.
2. Axborotni bir tizimdan boshqa tizimdagagi teng kuchli axborotga o'giruvchi qurilmasi.
3. Bir dasturlash tilida yozilgan dasturni boshqa tilda taqdim qilingan dasturga o'giruvchi maxsus dastur.
4. Teleko'rsatuv va radioeshittirishlarda, bosh stansiyadan signalni qabul qilib, so'ng uni kuchaytirib va shu signalni uzatadigan stansiya.
5. Telefoniya uskunalarida, terilgan raqamlarni qo'ng'iroq uchun axborotiga o'giruvchi qurilma.

transport maslagi

ingl.: transport platform

rus.: транспортная платформа

Transport, tarmoq, kanal va jismoniy pog'onalarining o'zaro bog'liq funksiyalari. Transport maslagi, o'zaro ishslash sohasining quiyi pog'onalarini standartlari bilan aniqlanadi. U, kommunikatsiya tarmoqlarining tavsifnomalarini va shu tarmoqlar orqali ma'lumotlar bloklarini uzatish usullarini tavsiflaydi. Shu sababli, ko'rilyayotgan maslak amaliy maslakning va amaliy jarayonlarning asosi bo'lib xizmat qiladi.

transport pog'onasi

ingl.: transport layer

rus.: транспортный уровень

OSI pog'onalarini shajarasidagi tarmoq pog'onasi bilan seans pog'onasi orasidagi to'rtinchı pog'ona. Transport pog'onasi:

- kommunikatsiya tarmog'i orqali ma'lumotlar paketlarini uzatishni ta'minlaydi;

- seans pog'onasiga ulanishning jismoniy vositalarini, jismoniy pog'onani, kanal pog'onasini va tarmoq pog'onasini xizmatlarini hamda o'z xizmatlarini taqqid qiladi;
- axborot tarmog'ida abonent tizimlarni va ma'muriy tizimlarni manzillashni aniqlaydi;
- quyi pog'onalarda yo'qotilgan ma'lumotlar bloklarini qayta tiklaydi.

transpyuter

ingl.: *transputer*

rus.: *транспьютер*

Paralell ishlov berishda ishlataladigan ixtisoslashgan mikroprotsessorlar. Har bir transpyuter protsessor, tezkor xotira va ma'lumotlarni uzatish qurilmasidan tashkil topadi. Shunday tuzilma tufayli, transpyuter bir vaqtning o'zida, ma'lumotlarni qabul qilishi, ishlov berishi va kelgusiga uzatishi mumkin. Transpyuterlar bir birlari bilan birlashadilar. Ularning har biri bir necha portlarga ega, bu esa, xilma xil tuzilmalarni yaratish imkonini beradi.

tranzaksiya

ingl.: *transaction*

rus.: *транзакция*

1. Maqsadga erishish yo'lida qilingan harakat.
2. Obyektlarning vaqt bo'yicha qisqa o'zaro ishslash davri. U o'z ichiga talabnomalar – topshiriqni bajarish – javob ketma-ketligini oladi. Odatda, muloqot maromida bajariladi.
3. MB sida ma'lumotlarni kiritish yoki o'zgartirish amallari.

tranzistor

ingl.: *transistor*

rus.: *транзистор*

Elektr tokini kuchaytirish, generatsiyalash va o'zgartirishga mo'ljallangan yarim o'tkazgich asbob.

tranzit

ingl.: *transit*

rus.: *транзит*

Telekommunikatsiya signallarining chastota polosasini yoki uzatish tezligini o'zgartirmay o'tishini ta'minlaydigan bir xil nomli uzatish kanallarining yoki traktlarning ulanishi.

trigger

ingl.: *trigger*

rus.: *триггер*

1. Qurilma. U ikki barqaror holatga ega bo'lgan qurilma. Bu holatlarning birini ixtiyoriy vaqt davomida saqlashi va kirish signali ta'sirida boshqa barqaror holatga o'tishi mumkin. Ikkidan ortiq barqaror holatlarga ega, ko'p barqarorli element deb ataluvchi qurilmalar ham mavjud. Ularning ish tamoyili turli fizika hodisalaridan biriga asoslanadi. Kompyuterlarda asosan, elektron hodisalariga asoslangan ikki barqaror holatlari triggerlar ishlataladi.

2. Ma'lumotlarni yangilash, boyitish va yo'q qilish amallarini bajarishda avtomatik bajariladigan, pirovordida aniqlangan harakat yoki harakatlar ketma-ketligi. Trigger, ma'lumotlarni yangilanish qoidalarini tekshirilgandan so'ng ishga tushadi. Na foydalanuvchi, na ishlanmalar triggersini faollashtira olmaydilar. Trigger quyidagilardan tashkil topgan:

- cheklanishlar, ularni amalga oshirish uchun trigger yaratilgan;
- hodisa, cheklanishlarni tekshirishni talab qiladigan holatni yuzaga kelishini belgilaydi;
- harakatlar.

troyan oti

ingl.: *Trojan horse*

rus.: *тロイアンの馬*

Ma'lumotlarni ruxsatsiz yig'ishni, soxtalashtirish va yo'q qilishni ta'minlaydigan badniyat mantiqini o'z ichiga olgan, shakldan beziyon dastur. Viruslardan farqli o'laroq, troyan oti tizimda o'zining nuxsalarini yaratmaydi. Uning eng ashaddiy turlaridan biri kompyuterni viruslardan halos qilishni taklif qiladigan dastur bo'ladi, haqiqatda esa, u kompyuterni virus bilan zararlantiradi. Atama, Gomerning «lliada» hikoyasidan kelib chiqqan, unda, greklar o'z dushmanlariga, troyaliklarga, yog'ochdan yasalgan juda ham katta otni, tinchlik taklifining ramzi sifatida hadya qilganlar. Ammo, troyaliklar otni o'z shaharlari ichiga olib kргanlardan so'ng, uning ichida berkinib olgan grek jangchilar tashqariga chiqib darbozalarni ochganlar, shu bilan o'z qo'shinlariga shaharga kirish va uni egallahsga sharoit yaratganlar.

To'xtab rezident bo'lish, TSR dasturi. MS-DOS uchun, uning bir marta yurgizilishidan keyin xotirada saqlanuvchi dastur. Odatda rezident modul muayyan tugmachalar birikmasini bosganda boshqaruv boshlanadi.

TTF

qisq.: True-Type Font
True-Type shrifti.

TTS

qisq.: Text To Speech

Matnni nutqqa o'girish. Oldindan kompyuterga kiritilgan yoki dinamik tarzda shakllantirilgan matnni operator tomonidan karnay yoki qulochchinlar orqali qabul qilinadigan tekis nutqqa o'girish.

tugun

ingl.: node
rus.: узел

qarang: hisoblash tarmog'i bog'lamasi.

tunellash

ingl.: tunneling
rus.: туннелирование

Hududiy yoki global tarmoq ichidan o'tgan virtual kanalni yotqizib chiqish. Tunellash ekstratarmoq deb ataluvchi tarmoqlarni yaratish va foydalanuvchilarni o'zlarining mahalliy tarmoqlari bilan o'zaro ishlashini ta'minlashda foydalanimadi.

tutash huquqlarni qo'riqlash nishoni

ingl.: adjacent right symbol

rus.: знак охраны смежных прав

Fonogrammaning har bir nusxasida va (yoki) uning har bir g'ilofida joylashtiriladigan nishon. U uch elementdan iborat bo'ladi: aylanada «R» lotin harfi; alohida tutash huquqlari egasining ismi (rasmiy nomi); fonogramma birinchi marta chop etilgan yil.

TUV

qisq.: Technical Supervision Bureau

Germaniyada elektron jihozlarni sertifikatsiyalash uchun javobgar tashkilot.

tuyuk

ingl.: hatch
rus.: люк

Yashirin dastur yoki apparat mexanizmi. U odatda sinovdan o'tkazish va nosozliklarni topish uchun yaratiladigan va kompyuter

muhofazasini chetlab o'tish uchun ishlatalishi mumkin.

tuzilmaviy dasturlashtirish

ingl.: structural programming
rus.: структурное программирование

Mantiqan oddiy va tushunarli dasturlarni yaratishga qaratilgan dasturlashtirish uslubiyati. Tuzilmaviy dasturlashtirish dasturning mantiqiyligi va tushunarligi uning ishlab chiqilishi, to'g'riligini isbotlash va keyingi kuzatishni osonlashtirishi, shuningdek, uning ishonchligini ta'minlashi haqidagi taxminga asoslangan. Tuzilmaviy dasturlashtirishning o'ziga hos tamoyillari quyidagilardir:

- 1) pasayuvchi dasturlashtirishda vazifa kichik dasturlar (tartibotlar yoki vazifalar) shaklida dasturlashtiriluvchi bir necha oddiyroq qismilar yoki kichik vazifalarga bo'linadi;
- 2) modulli dasturlashtirishda nisbatan mustaqil kichik vazifalar alohida dasturiy modullar shaklida dasturlashtiriladi.
- 3) dasturlashtirishda boshqarishning uchta tuzilmasidan foydalanishlari (ergashish, tanlash va takrorlash);
xohlagan algoritm harakatlar, tarmoqlanishlar va takrorlashlar ketma-ketligidan iborat bo'lib, ularni asosiy boshqarish tuzilmalari yordamida tasniflash mumkin;
- 4) boshqarishni shartsiz uzatishdan voz kechish va global o'zgaruvchilardan foydalanishni kamaytirish mumkin; kichik dasturlar (tartibotlar yoki vazifalar)ni chaqirish yordamida barcha kichik vazifalar bir butun – tuzilma dasturga bog'lanadi.

TWAIN

qisq.: Technology Without An Important Name

TWAIN texnologiyasi. Skanerlar bilan ishslash uchun past pog'onali API. TWAIN rastr tasvirni kiritish qurilmasi drayveri va amaliy dastur o'rtaсиda interfeysi aniqlaydi.

to'la uyg'unlik

ingl.: full compatibility
rus.: полная совместимость

Ikki yoki undan ko'p kompyuterning foydalanuvchilari uchun hech qanday cheklashlarsiz texnik, dasturiy va axborot uyg'unligi.

to'la o'girgich

ingl.: compiler

rus.: компилятор

qarang: kompilyator

to‘lamatnli ma’lumotlar bazasi

ingl.: full-text database

rus.: полнотекстовая база данных

To‘lamatnli hujjatlar yoki ularning qismlari saqlanayotgan ma’lumotlar bazasi.

to‘la-to‘kis hujum

ingl.: exhaustive attack

rus.: исчерпывающая атака

Kompyuter muhofazasini buzish maqsadida mumkin bo‘lgan parol yoki kalitlar to‘plamidan foydalanishga urinish va har bir urinish xato bo‘lsa, to‘planning boshqa elementini sinab ko‘rish tartibida qilinadigan harakat. To‘la-to‘kis hujum tahliliy hujumning aksi hisoblanadi.

to‘lqinni taqsimlash bilan ko‘p tomonidan erkin foydalanish

ingl.: Wavelength Division Multiple Access (WDMA)

rus.: множественный доступ с разделением волны

Optik kanallarda qo‘llaniladigan ko‘p tomonli erkin foydalanish. WDMA usuli ikki multipleksor tomonidan amalga oshiriladigan «to‘lqin uzunligi bo‘yicha multipleksplash», ya’ni WDMga asoslanadi. WDMA usuli olis aloqada ayniqsa samarali bo‘lib, qit’alararo kanallar o‘tkazuvchanlik qobiliyatini bir necha marta oshirish imkonini beradi.

to‘plagich

ingl.: concentrator

rus.: концентратор

Kanallar guruhini yagona, umumiyligi kanal bilan o‘zaro ishlashimi ta’minlovchi funksional blok. To‘plagich ma’lumotlarni to‘plashni ta’minlab beradi. Shu bilan birga, to‘plagichning kirishiga kelayotgan axborot bloklarining soni uning imkoniyatlaridan ortiq bo‘lgan holat yuzaga kelishi mumkin. Unda, to‘plagich bu bloklarning bir qismini yo‘q qiladi. To‘plagichning o‘zagi protsessordir. Kiruvchi axborotni birlashtirish uchun, aksariyat hollarda, vaqtini bo‘lishga asoslangan ko‘ptomonlama erkin foydalanish ishlataladi.

to‘r

ingl.: web

rus.: паутина

qarang: umumjahon o‘rgimchak to‘ri.

to‘rtinchchi avlod tili

ingl.: fourth generation language (4GL)

rus.: язык четвёртого поколения

Yuqori pog‘onadagi tillarga nisbatan inson tiliga yaqinroq turadigan (ko‘pincha 4GL deb ataladigan) dasturlash tillari. Atama Jim Martin tomonidan ma’lumotlar bazalari tizimlari bilan o‘zaro ishlaydigan yuqori pog‘onadagi dasturlash tillarini tasviflash uchun ixtiro qilingan edi. To‘rtinchchi avlod tillariga ma’lumotlar bazalariga so‘rovlar tillari (SQL; Focus, Metafont, PostScript, RPG-II, S, IDL-PV/WAVE, Gauss, Mathematica) va ma’lumotlar oqimlarini boshqarish tillari (AVS, APE, Iris Explorer) misol bo‘ladi. Kompyuter tillarining qolgan avlodlari quyida sanab o‘tilgan. Bularga:

birinchi avlod: mashina tili,

ikkinchi avlod: Assembler tili,

uchinchi avlod: yuqori pog‘onadagi tillar, masalan, Ci, C++ va Java,

beshinchi avlod: sun‘iy tafakkur va neyron tarmoqlarida masala yechishda foydalaniladigan tillar kiradi.

to‘sish

ingl.: locking

rus.: блокировка

qarang: qamal qilish

T

to‘xtovsiz ishni ta’minalash va faoliyatni qayta tiklash rejasি

ingl.: continuous work and operation recovery plan

rus.: план обеспечения непрерывной работы и восстановления функционирования

Muhofaza dasturining qismi. U tizimning xavfli holatlarga javoban ish qilish, zahiraviy nusxalash va keyingi qayta tiklash tartiboti bo‘yicha ish rejasidir. U asosiy resurslardan erkin foydalanish imkonini va tanglik holatlarda ishlov berishning to‘xtovsizligini ta’minalash uchun tuzilgan.

Uu

UART

qisq.: Universal Asynchronous Receiver/Transmitter
 Hammabop asinxron qabul qiluvchi va uzatuvchi. Ma'lumotlarni ketma-ket RS-232 interfeysi orqali uzatishni boshqaruvchi mikrosxema.

UATA

qisq.: Ultra ATA
 Ultra ATA interfeysi.

UCS

qisq.: Universal Character Set
 Hammabop belgilari to'plami, UCS standarti. ISO/IEC 10646-1 standartining (ISO 10646 standarti) qisqartirilgan belgilanishi, belgilarning ko'pbaytli to'plamini belgilaydi. UCS standarti o'z ichiga dunyodagi ko'pchilik yozuv tizimlarining belgilarini oladi. Ularni kodlashning 2 asosiy usuli aniqlangan: ikki baytli kodlash UCS-2 va to'rt baytli kodlash UCS-4. UCS-2 faqatgina UCSning birinchi 64K belgilari bilan cheklangan, ya'ni bu baza to'plami. Ta'kidlab o'tish lozimki, standart qabul qilinayotgan paytda UCS-2 doiralaridan tashqaridagi belgilar aniq bo'lmagan, biroq bunday kengaytirish ro'y berishi mumkin. UCS belgilar to'plami Unicode bilan sinxronlashtirilgan; Unicodega kiritiladigan o'zgarishlar UCSga tuzatishlar sifatida qabul qilinadi.

UDDI

qisq.: Universal Description, Discovery, and Integration
 Hammabop tavsif, izlash va o'zaro ishslash, UDDI registri. XML tiliga asoslangan jahon elektron tijorat veb xizmatlari registri.

UDF

qisq.: User-Defined Function
 Foydalanuvchi tomonidan belgilangan vazifa.

UDP

qisq.: User Datagram Protocol
 Foydalanuvchi deytagrammalar bayonnomasi, UDP bayonnomasi. TCP/IP bayonnomalari

oиласидан ма'lumotlar uzatishning transport bayonnomasi. RFC 768da tavsiflangan.

UG

qisq.: User Group
 Foydalanuvchilar guruhi. Ma'lum dasturiy mahsulot foydalanuvchilarining odatda norasmiy uyushmasi.

UHF

qisq.: Ultra High Frequency
 Ultrayuqori chastota, UVCH. Elektrmagnit to'lqinlarining 300 MHzdan 3 GHzgacha bo'lgan chastotasi (uzunligi 1 mdan 10 smgacha).

UL

qisq.: Underwriter's Laboratory
 Turli asboblarning xavfsizligini aniqlovchi AQSH tashkiloti. Uning talablariga javob beruvchi qurilmalar ushbu tashkilot nashr qiladigan maxsus ro'yxatga kiritiladi.

ulanadigan modul

ingl.: plug-in module
rus.: подключаемый модуль
 Veb-brauzerlariga formatlari brauzerlar tomonidan aniqlanmaydigan, masalan ba'zi video va audio yozuv formatlari, HTML hujjaligiga solingan fayllarni o'qish va ularni amalga oshirish imkonini beruvchi dastur. Masalan, Windows Media aks ettiruvchining ulanadigan moduli Internet Explorer brauzeri oynasida filmlarni ko'rish imkonini beradi.

ulanish bloki

ingl.: Medium Attachment Unit (MAU)
rus.: блок docmyna
 Foydalanuvchi tizimni yoki ma'muriy tizimni monokanal yoki davriy xalqaning umumiyligi bo'g'ini bilan ulanish qurilmasi. Ulanish bloki uch qismidan tashkil topadi. Ulardan ikkitasining, tuzilmasi bu bo'g'inlarning turiga bog'liq bo'lib, ulanish blokini foydalanuvchi bo'g'in yoki umumiyligi bo'g'in bilan tutashishini ta'minlaydi. Blokning uchinchisi (mantiqiy) qismi, ulanish blokining nosozligini tashhis qilish va "o'zining" tizimiga paydo bo'layotgan nosozliklar haqida xabar uzatish, tizimdan signallarni umumiyligi bo'g'inga va unga teskari yo'nalishda uzatish va qabul qilish, umumiyligi bo'g'inni bandligini aniqlash maqsadida eshitib turish kabi erkin foydalanish funksiyalarini

bajaradi. Ko'pincha ulanish bloklarini nazorotchilar deb atashadi.

ulanishga buyurtma

ingl.: connection order

rus.: заказ на соединение

Foydalanuvchining telefonga ulanishni o'rnatish hakida talabi.

UMA

qisq.: Unified Memory Architecture

Unifikatsiya qilingan xotira arxitekturasi – odatda ona platalarida joylashgan arzon videokartalarda ishlatalidi. Ish tamoyili videokarta tomonidan kompyuterning oddiy xotirasini ekran xotirasi sifatida ishlatalishi va binobarin, kompyuter arzonlashishiga asoslangan. Bunda videokarta uchun ajratilgan xotira DOS turidagi operatsion tizim uchun ko'rinnas bo'lib, unga faqat videokartaning BIOSidan kirish mumkin, shuning uchun bunday videokartalar oddiy PCI kartalarga qaraganda ancha sekinroq ishlaydi. Windows turidagi operatsion tizimlar ostida ishlaganda farq ancha kamroq, biroq mavjud.

UML

qisq.: Unified Modeling Language

Unifikatsiya qilingan modellashtirish tili, UML tili. Obyektga yo'naltirilgan loyihalashtirish uchun grafik tavsif.

UMTS

qisq.: Universal Mobile Telephone System

Uchinchi avlod mobil radioaloqlari uchun standart, ovoz va raqamli ma'lumotlarni uzatish spetsifikatsiyalarini o'zida birlashtiradi.

umum foydalanishdagi axborot tizimi

ingl.: information common use system

rus.: информационная система общего пользования

Barcha jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishi uchun ochiq va ushbu shaxslarga xizmatlari rad etilishi mumkin bo'lmasan axborot tizimi.

umum foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligi obyekti

ingl.: public switched telecommunications network information security object

rus.: объект информационной безопасности сети телекоммуникаций общего пользования

Umum foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining axborot xavfsizligiga badniyat shaxs ta'siri tahdidi amalga oshirishga olib kelishi mumkin bo'lgan, umum foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining obyekti.

umumfoydalanishdagi tarmoq

ingl.: public use communication network

rus.: сеть связи общего пользования

1. Aloqa xizmatlarini xohlagan yuridik yoki jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan elektr aloqasi tarmog'i.
2. Mamlakatning o'zaro bog'liq aloqa tarmog'ining tarkibiy qismi. U barcha yuridik va jismoniy shaxslarning foydalanishi uchun ochiq va ushbu shaxslar tomonidan foydalanimish rad etilishi mumkin emas.

umumi axborot nazariyası

ingl.: united information theory

rus.: общая теория информации

Ilmiy bilimlarning istiqbolli poydevoriy sohalaridan biridir. U tabiat va jamiyatning rivoji asosida yotgan, axborot voqeiyiligining namoyon bo'lishiga oid eng umumi yonuniyatlarga asoslanadi.

umumi bo'g'in

ingl.: common link

rus.: общее звено

Monokanalning bir qismi, u orqali har bir ma'lumotlar bloki barcha abonent tizimlarga uzatiladi. Umumi bo'g'in o'rama juft, yassi kabel, koaksal kabel, optik kabel yoki radiokanal asosida yaratiladi.

U

umumi foydalanish telekommunikatsiya tarmoqlarining (UFTT) axborot xavfsizligi

ingl.: information security of public access telecommunication networks

rus.: безопасность сетей телекоммуникаций общего пользования информационная

Ma'lumot (foydalanuvchining axborotlari) uzatish jarayonining buzg'unchilardan muhofazalanganlik holati. Bunda buzg'unchi tomonidan tasodifan va ataylab amalga oshiriladigan ta'sirlar telekommunikatsiya tarmog'i obyektlariga apparat-dasturiy vositalariga, foydalanuvchi uzatayotgan ma'lumotlarni uzatishni to'sib qo'yish maqsadida tarmoqni boshqaruvchi axborotga

yo'naltirilgan bo'lib, bular avvaldan ma'lum hisoblanadi.

umumi foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligi mexanizmi

*ingl.: public switched telecommunications network information security mechanism
rus.: механизм информационной безопасности сети телекоммуникаций общего пользования*

Umumi foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligini ta'minlashning apparat-dasturiy va tashkiliy vositalari. Belgilangan xavfsizlik siyosatiga muvofiq tarmoqning axborot xavfsizligiga bo'lgan tahdidlardan bir-birini bosuvchi muhofaza sinflariga ko'ra bir yoki bir necha muhofaza jihatlarini amalga oshiradi: buzish ta'sirining oldini olish, jinoyatkor tomonidan keltirilgan oqibatlarni aniqlash, ushbu oqibatlarni bartaraf qilish. Umumi foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligi mexanizmlariga tarmoqda xabarlarni uzatish jarayonini muhofaza qilishda quydagilar kiradi: erkin foydalanishni nazorat qilish mexanizmi, xabarni autentifikatsiya qilish mexanizmi, almashuv autentifikatsiyasi mexanizmi.

umumjahon o'rgimchak to'ri (UO'T)

*ingl.: World Wide Web (WWW)
rus.: всемирная паутина*

1. Butun jahon bo'ylab joylashgan serverlardagi axborotni olish imkonini beruvchi Internet xizmati.

2. Internet xalqaro axborot-telekommunikatsion tarmog'ining gipermatn axborot subtizimi. Internet tarmog'iga ulangan va dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan ma'lumotlar bazalarida kalit so'zlar va murojaatlar bo'yicha axborot izlashni ta'minaydi.

3. Internetdagi resurslarni izlash va ulardan erkin foydalanish uchun gipermatn tizimi.

UO'T ushbu tarmoqdagи kompyuterlarda saqlanayotgan barcha ma'lumotlarni, ularni bog'lovchi gipermurojaatlar tizimi orqali ko'rib chiqish imkonini yaratuvchi Internet xizmatlari majmuuni taqdim etadi. UO'Tning apparat ta'minoti asosini butun dunyoda joylashgan va Internetda birlashgan ko'plab kompyuterlar tashkil etadi. UO'Tning axborot asosini veb-hujatlari deb atalmish ushbu kompyuterlar

xotirasida ko'plab saqlanayotgan gipermatnga asoslangan hujjatlar tashkil etadi. veb-hujjatlarida foydalanuvchi, ajratib qursatilgan so'z yoki jumlalarni tanlab, boshqa hujjalarga o'tishi yoki yer sharining turli nuqtalarida joylashgan kompyuterlar xotirasidagi fayllardan erkin foydalanishi mumkin. Shuning uchun ham foydalanuvchi UO'Tni Umumjahon virtual «o'rgimchak to'risimon» axborot tarmog'i sifatida qabul qildi. UO'T Internetdagи kompyuterlar va fayllar va hujjalarni uzatish protokollaridan foydalanganligi sababli «UO'T» atamasи odatda umumjahon kompyuterlar tarmog'ini ham, axborotning o'zini ham bildiradi. veb-hujjatlaridan erkin foydalanish mijoz-server arxitekturasini qo'llab amalga oshiriladi. Serverdan hujjatni olish uchun uning hammabop resurs ko'rsatkichi (URL) deb atalmish tarmoqdagи manzili qo'llaniladi. UO'T mijoz va serverlari o'zarо muloqtda bo'lgan til va qoidalar gipermatni uzatish protokoli (Hyper Text Transmission Protocol, HTTP) tomonidan belgilanadi. HTTP matн, tasvir, tovushlarga ega gipermedia ma'lumotlarini so'rash, qabul qilish va aks ettirish imkonini beradi. Umumjahon o'rgimchak to'ri asoschisi Tim Berners-Li (Tim Berners-Lee) 2004 yilning 15 aprelida 1 mln. AQSH dollari (\$1,23 mln.) miqdorda mukofot olgan.

umumjahon o'rgimchak to'ri konsorsiumi

*ingl.: World Wide Web Consortium (W3C)
rus.: Консорциум Всемирной паутины (W3C)*

Konsorsium World Wide Web (W3C) – konsorsiumi, u 1994 yili tashkil bo'lgan xalqaro tashkilot. WWW dan global erkin foydalanish xizmati uchun standartlar, bayonnomalar, amaliy dasturlar ishlashni qo'llash va muvofiglashtirish - uning maqsadidir. CERN ishtirokida asos solingenan, WWW dunyoga kelgan ilmiy markazda, bugungi kunda Konsorsium uch tashkilot asosida ishlamoqda: AQSHdagи Massachusetts texnologiyalar instituti (Massachusetts Institute of Technology, Laboratory for Computer Science), Fransiyadagi informatika va avtomatika sohasidagi tadqiqotlar Milliy instituti (Institut National de Recherche en Informatique et en Automatique) va Yaponiyadagi Keio

universiteti. Konsorsium serverida (<http://www.w3.org>) WWW rivojlanishi tarixi va dunyoda WWW ni hozirgi kundagi ahvoli haqida umumiy axborot, Konsorsiumning yangiliklari va press-relizlari, WWW bo'yicha konferensiya materiallari bilan tanishish mumkin. WWW bilan bog'liq barcha texnik materiallarning katta kolleksiyasi (me'moriy qiyofa, bayonnomalar, foydalanuvchi interfeysi) muhim amaliy ahamiyatga ega. Hususan, WWW uchun hujjatlar tayyorlashning barcha tillarining naqlari bo'yicha spetsifikatsiyalar, shu jumladan, HTML 4.0 va XML 1.0 standartlari bo'yicha tayyorlanayotgan tavsiyalar ham taqdim etilgan. Manzillanayotgan sahfalarning tuzilmasini tavsiflash uchun xizmat qiladigan, «sahifalarni kaskadli stili» CSS tili tomonidan taklif qilindi.

UN/EDIFACT texnologiyasi

ingl.: *UN/EDIFACT technology*

rus.: *технология UN/EDIFACT*

Hujjatlar tayyorlash va uzatish uchun xalqaro standart, ma'lumotnomalar va tartiblangan jarayonlar yig'masi. «Birlashgan Millatlarning ma'muriyat, savdo va transport uchun elektron xatlar sohasida xizmatlar» standartlari UN/EDIFACT keng tarqalmoqda. Texnologiya EDI tarmoq xizmatini ishlatalishga asoslangan va ISO hujjatlari bilan belgilanadi.

UNC

qisq.: *Universal Naming Convention*

Nomlash haqida umumiy kelishuv. Windows va Novell NetWare asosida qurilgan tarmoqlarda – tarmoq resursi nomini ko'rsatish yo'li, masalan, fayl nomini:

\servername\sharename\path\filename.

Unisys korporatsiyasi

ingl.: *Unisys corporation*

rus.: *корпорация Unisys*

Xalqaro axborot xizmatlarini ko'rsatuvchi katta kompaniya. AQSHda 1986 yilda Burroughs va Sperry Univac kompaniyalarining birlashishi tufayli yaratilgan Unisys kompaniyasi taxminan 100ta mamlakatda faoliyat ko'rsatadi. O'z ishidida u banklar, aviakompaniyalar, aloqa korxonalari, davlat idoralari va tijorat korxonalari uchun ochiq tizimlar ishlatalishga asoslanadi. Unisysning asosiy faoliyat sohalariga bosh kompyuterlar, serverlar,

shaxsiy kompyuterlar, UNIX operatsion tizimlari, amaliy dasturlar ishlab chiqish, axborotni saqlash joylarini yaratish kiradi.

UNIX operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: *UNIX operating system*

rus.: *операционная система UNIX*

Bell laboratoriyasi tomonidan yaratilgan tarmoq operatsion tizimi. Ilk bor UNIX operatsion tizimi Bell Laboratory tomonidan 1969 yili taklif qilingan, azaldan tarmoqlarda ishlatalish uchun mo'ljallangan edi. Hozirgi kunda UNIX, Si tilida yozilgan ko'pfoydalanuvchili va ko'pmasalali operatsion tizim. Tizimning bosh tarkibiy qismi bo'lib mikro'zak hisoblanadi. Uning ichiga tarmoqlararo uzatishni boshqarish bayonnomasini/ bajaruvchi modul joylashtirilgan. UNIX operatsion tizimi bir qancha ijobjiy xislatlarga ega, ulardan birinchi navbatda quyidagilarni ko'rsatish zarur:

- amaliy dasturlarni bir turdag'i kompyuterdan boshqa turdagisiga ko'chirib o'tkaza olish;
- ma'lumotlarni tarqoq ishlovini bajarish imkonini beradigan tarmoq xizmatlarining keng yig'masi;
- bir vaqtning o'zida turli xildagi fayl majmualarining mayjud bo'lishi;
- yuz berayotgan ishlov jarayonlarini foydalanuvchilar tomonidan rejalash imkonii;
- RISC protsessorlari bilan yaxshi uyg'unlashuvni;
- xar xil ishlab chiqaruvchilar tomonidan taqdim qilingan mahsulotlarni oson ishlatalish;
- rivojlanish va kengayish uchun ochiqlik.

UNIX superkompyuterlari, ishchi-stansiyalar va maxsus shaxsiy kompyuterlarda keng ishlataladi.

UNIXWare operation (amaliy) tizimi

ingl.: *UNIXWare operating system*

rus.: *операционная система UNIXWare*

UNIX operatsion tizimining Novell korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan rusumi. UNIXWare tizimi birinchi navbatda NetWare tarmoqlarida ishlatalish uchun yaratilgan. Shu bilan birga, bu operatsion tizimining muhitida hududiy tarmoqlarning bayonnomalari ham bajariladi. UNIXWare oddiy grafik interfeysga ega. Bu 32-xonali tizim «ish stoli» deb ataluvchi muhitda ishlaydi. UNIXWare ko'pmasalali, ko'pfoydalanuvchili, ko'poqimli tizimdir.

Update

Ma'lumotlarning yangilanishi. Ko'p dasturlar o'z ishida ma'lumotlar bazalaridan foydalanadi. Dastur ishlab chiqaruvchilari ma'lumotlarni bazalarga qo'shib, foydalanuvchilarga ma'lumotlar bazalarini yangilash imkonini beradi. Misol sifatida viruslar bazalaridan foydalanuvchi g'ayririvirus dasturlarini keltirish mumkin. Ushbu bazalar doimo yangilanib borib, foydalanuvchilar ularni Internet orqali yangilash imkoniga ega.

Upgrade

1. Kompyuter yoki kompyuter qurilmasini, masalan, protsessorni kuchliroqqa almashtirish, tezkor xotira hajmini oshirish va h.k. tufayli yangilash.
2. Dasturni keyingi rusumgacha yangilash. Kompyuter dasturlarini ishlab chiqaruvchilari yangi rusum chiqishida nafaqat to'liq yangi o'rnatish paketini, balki avvalgi rusumlar foydalanuvchilari ishlatishi mumkin bo'lgan yangilash paketlarini ham ishlab chiqaradi. Yangilash paketining hajmi odatda kamroq bo'jadi, chunki uning ichiga faqat o'zgartirish yoki qo'shish lozim bo'lgan fayllar kirib, ko'pgina fayllar eski nus'hadan olinadi (to'liq paketga ushbu fayllar ham yoziladi).
3. Dastur pullik bo'lsa, yangilash to'liq paketga qaraganda arzonroqdir. Dastur bepul bo'lsa va yangilash Internet orqali amalga oshirilsa, yangilash kamroq vaqt talab qilishi bois uni yuklab olish uchun kamroq vaqt ketadi.

Upload

Uzatish. Ma'lumotlarni (odatda faylni) kompyuteringizdan boshqa kompyuterga uzatish.

UPS

qisq.:

1. Uninterruptible Power Supply – Uzlusiz oziqlantirish manbai. Ichiga o'rnatilgan akkumulatorli tarmoq kuchlanishi stabilizatori.
2. United Parcel Service – Birlashgan jo'natmalar xizmati, UPS xizmati. Pochta va yuklarni tezkor yetkazish xizmatlarini ko'rsatuvchi transmilliy kompaniya.

URI

qisq.: Uniform Resource Identifier

Unifikatsiya qilingan resurs aynanlagichi. Internet orqali erkin foydalanish mumkin bo'lgan resurs manzili. URIning birinchi qismi sxema deyiladi. Eng keng tarqalgan sxema - 'http', biroq ko'plab boshqalari ham mavjud. Har bir URI sxemasi o'z formatiga ega. Quyida http, telnet va news sxemalaridan foydalanuvchi URI misollari keltirilgan:

- 1) <http://www.test.net/files/glossary.html>;
- 2) telnet://test.net;
- 3) news:new.newusers.questions.

URL

qisq.: Uniform Resource Locator

Unifikatsiya qilingan resurs ko'rsatuvchisi. Internet tarmog'ida axborot resursi (sahifa, fayl) manzili. URL domen nomi, saytda sahifaga yo'l va sahifa fayli nomidan iborat. Misol:

<http://www.gov.uz/ru/uzbekistan/economics.html>. Bu yerda www.gov.uz saytning domen nomi, /ru/uzbekistan/ - yo'l va economics.html – fayl nomi. Odatda veb-sahifalarni tashkil qiluvchi fayllar.htm yoki .html kengaytmasisiga ega bo'ladi.

URN

qisq.: Uniform Resource Name

Unifikatsiya qilingan resurs nomi.

US-ASCII

qisq.: American Standard Code for Information Interchange

Axborot almashish uchun Amerika standart kodi, US-ACSII kodi. Lotin alifbosining kichik va katta harflari, raqamlar, tinish belgilari va boshqaruvelarini taqdim etish uchun 7 bitli kod.

USB

qisq.: Universal Serial Bus

qarang: USB shinasi

USB 2.0 shinasi

ingl.: USB 2.0

rus.: универсальная шина USB 2.0

Yuqori tezlikka ega bo'lgan USB shinasi. USB 2.0 ma'lumotlar uzatish tezligini 480 Mb/s gacha quvvatlay oladigan tashqi shina standartidir. USB 2.0 texnologiyalar kanal o'tkazishi kengligiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqilgan. USB 2.0, USB 1.1ni to'ldirib bo'lib, u bilan batamom uyg'unlashadi, xuddi bir xil kabel va

ulanishlardan foydalanadi. USB 2.0 shinasining spetsifikatsiyasi 2000 yilning aprel oyida nashr qilingan.

USB flash drive

Kompyuterning USB portiga ulanib 2 Gbaytgacha saqlash qobiliyatiga ega portativ qattiq disk sifatida ishlovchi kichik, portativ flesh xotira kartasi. USB flash drivelardan foydalanish juda oson, chunki ularning kattaligi cho'ntakka solish uchun mos va u USB portiga ega xohlagan kompyuterga ulanishi mumkin. USB flash driveler tashqi qattiq diskka qaraganda kamroq xotira hajmiga ega bo'lsa ham, ular ixchamroq va mustahkamroq, chunki ular ichida harakatlanuvchi qismlar yo'q. USB flash driveler ruchka drayvlari, kalit drayvlari yoki shunchaki USB drayvlari deb ham nomilanadi.

USB shinasi

ingl.: *USB (Universal Serial Bus)*

rus.: *шина USB*

Tashqi shina standarti 12 Mb/s.gacha tezlik bilan ma'lumotlar uzatishni quvvatlaydi. USB (ommabop ketma-ket shina) shinasining spetsifikatsiyasi Compaq, DEC, IBM, Intel, Microsoft, NEC va Northern Telecom kompaniyalari tomonidan «plug-and-play» standarti bo'yicha tashqi kompyuter qurilmalarini ulash uchun ishlab chiqilgan. Natijada, kengaytirish slotlariga qo'shimcha platalarini o'rnatish va tizimni qayta tarkibini tuzish extiyoji yo'qoladi. USB shinasi bir vaqtning o'zida ketma-ket 127gacha sichqoncha, modem, klaviatura kabi tashqi qurilmalarini ulash imkonini beradi. iMac kompyuterining paydo bo'lishi bilan, 1998 yildan USB keng joriy etila boshlandi. Yaqin kelajakda USB ketma-ket va parallel portlarni butunlay almashtirishi kutilmoqda.

USENET telekonferensiyalari

ingl.: *USENET teleconferencing*

rus.: *телеконференции USENET*

Munozara ishtirokchilari orasida xabarlarni tarqatish texnologiyasi. USENET tarmog'i Internet tarmog'i bilan o'zarlo ishlaydi va 10 000ga yaqin munozara guruhlariiga ega. Ishtirokchilar orasidagi axborot almashuvi quyidagicha tashkil qilingan. Boshida munozara

mavzui e'lon qilinadi va unda ishtirok etmoqchi bo'lganlar ro'yxati yig'iladi. Guruh hosil bo'ladi. So'ngra, guruhning a'zolaridan birortasi yuborgan xabaridan nusxa ko'chiriladi va barcha boshqa ishtirokchilarga elektron pochta orqali tarqatiladi. O'sha pochta orqali yangitdan olingen xabarlar yana barcha guruh a'zolariga tarqatiladi. Munozara mavzusi yopilmaguncha shunday jarayon davom etaveradi.

UTF

qisq.: *UCS Transformation Format*

USCni o'girish formati. USC (Unicode) standartining hammabop belgilari to'plamini turli kodlamalarga o'girish uchun formatlar oilasi.

UTF-16

qisq.: *UTF-16 UCS Transformation Format*

UTF-16 belgilarini kodlash standarti, UTF-16 kodlamasi. UCSni o'girish formati, Unicode 3.0 standarti qismi. Belgilar ikki baytli ketma-ketliklar yordamida kodlanadi. RFC 2781da tavsiflangan.

UTF-7

qisq.: *UTF-7 UCS Transformation Format*

UTF-7 belgilarini kodlash standarti, UTF-7 kodlamasi. UCSni o'girish formati, belgilarni 7 bitli ketma-ketliklarga o'giradi. RFC 2152da tavsiflangan. Belgi baytida katta bitni e'tiborga olmaydigan xabarlarni transport qilish mexanizmlarida masalan Internetdagi elektron pochtda ishlatiladi.

U

UTF-8

qisq.: *UTF-8 UCS Transformation Format*

UTF-8 belgilarini kodlash standarti, UTF-8 kodlamasi. UCSni o'girish formati, US-ASCII ko'lamidagi belgilarni bir bayt yordamida kodlaydi, qolganlarni esa 2dan 6 baytgacha guruhlar bilan kodlaydi. RFC 2279da tavsiflangan.

utilita

ingl.: *utility*

rus.: *утилита*

Kompyuter va kompyuter dasturlariga texnik xizmat ko'rsatish quroli bo'lmish xizmat dasturi. Utilitalar kompyuter tizimlarini sinovdan o'tkazish, operatsion tizim yoki uning qismlarini testlash va qayta tiklash, buzilgan

yoki yo'qotilgan fayllarni qayta tiklash va h.k. uchun xizmat qiladi.

UTP

qisq.: Unshielded Twisted Pair
Ekranlashtirilmagan halqa jufti.

UUCP

qisq.: UNIX to UNIX Copy Protocol

UNIX tizimlari orasida ma'lumotlardan nusxa ko'chirish bayonnomasi. Fayllardan nusxa ko'chirish va pochta xabarlarini uzatish uchun hozirgi paytda ishlatalmaydigan bayonnomma.

UXGA

qisq.: Ultra XGA

UXGA standarti. Grafik axborotni aks ettirish standarti. 16,7 mln. ranglar bilan 1600x1200 ajrataolishni ta'minlaydi.

uy katalogi

ingl.: home directory

rus.: домашний каталог

Foydalanuvchi kompyuterda ishlash uchun oladigan katalog. Ushbu katalogda u fayllarni yozishi va o'zgartirishi mumkin. Boshqa kataloglarda fayllarni faqat o'qish mumkin.

uy sahifasi

ingl.: home page

rus.: домашняя страница

1. Brauzer tomonidan dastur yuklangandan so'ng terminalda paydo bo'ladigan veb-sahifaning, portalning, majmuuaning birinchi sahifasi. Odatda, prezентatsiya va navigatsiya bo'yicha ham asosiy ish bajaradi.
2. Veb-sayt foydalanuvchisi ochadigan birinchi veb-sahifa. Saytdan foydalanish undan boshlanadi. Odatda, foydalanuvchi o'zining qayerda ekanligi va saytning boshqa sahifalarida nimalarni ko'rishi mumkinligi haqida Bosh sahifadan ma'lumot oladi.

uya

ingl.: cell

rus.: ячейка

1. Jadvaliy qo'llanmalarda – ma'lumotlar elementini (matn, son qiymati, formula) kiritish uchun mo'ljallangan to'g'riburchak shaklli katak. Butun jadval uyalari ustunlar va qatorlardan iborat bo'ladi. Jadvaldag'i uya, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimidagi maydonga o'xshaydi.

2. Telekommunikatsiyalar va aloqada – qayd etilgan ma'lumotlar paketi.

3. Xotira uyasi – o'zining manziliga ega va bit, bayt, so'z yoki so'z qismini saqlay oladigan xotira elementi.

4. Registr uyasi - bir bitni saqlashga mo'ljallangan registr elementi.

5. Uyali aloqa tizimlarida – uyali aloqa bilan qamrab olingan fazo bir biriga yopishib ketadigan uyalarga bo'linadi. Ularning har birida, uyali aloqa asosiy stansiyasi o'rnatiladi. Shu stansiyalarning o'zaro ishlashi tarmoq hosil qiladi.

6. Optik disk, magnit disk va magnit tasmaning uyasi – shu qurilmaning sohasi yoki maydoni. O'z navbatida, disk yoki tasma, amaliy jarayonga taqdim qilinadigan xotira uyasidir.

uyalashgan raqamli paketlashgan ma'lumotlar

ingl.: Cellular Digital Packet Data (CDPD)

rus.: ячеистые цифровые пакетные данные

Uyali paketli radiotarmoqda ma'lumotlar uzatish usuli. CDPD texnologiyaga ega tarmoqlar 1994 yili paydo bo'lib, tezda ommaviylishib ketdilar. Mobil aloqa ma'lumotlarning ixtiyoriy turini (matmlar, tasvirlar va tovushni) uzatishni ta'minlay boshladi. Shu bilan birga, uzatishning yuqori ishonchliligi va xilma xil xizmatlar taqdim qilish kafolatlanadi.

uyalashgan tarmoq

ingl.: mesh network

rus.: ячеистая сеть

Abonent tizimlari orasida bir necha turli yo'nalishlar o'tkazish mumkin bo'lgan tarmoq. Unga qarama qarshi o'laroq, yakkakanalli tarmoqda tizimlar faqat bitta kanal bilan ulanadilar.

uyali qayta uzatish

ingl.: cell relay

rus.: репротрансляция ячеек

Ma'lumolarni tezkor uzib-ulashni apparat bilan ta'minlovchi tarmoq texnologiyasi. Uyalarga taxlab joylashtirilgan ma'lumotlarni qayta uzatish to'g'ridan-to'g'ri uzib-ulaydi. Birinchi navbatda, asosiy tarmoqlarda ishlatiladi. U kadrlarni qayta uzatishdan, bu tarmoqlar orqali o'zgarmas uzunlikdagi, uya deb ataluvchi ma'lumotlar blokini uzatishni ta'minlashi bilan

farqlanadi. Uyalarni qayta uzatish birlashgan uzib-ulash bog'lamalarida bajariladi.

UZ zonasি

ingl.: *UZ zone*

rus.: зона *UZ*

Internet tarmog'ining o'zbek segmentiga ajratilgan domen nomlari majmui.

uzatish kanali

ingl.: *transmission channel*

rus.: канал передачи

Texnik vositalar va tarqalish muhiti majmui. U aniq chastotalar kengligida yoki aniq tezlikda tarmoq stansiyalari, tarmoqlar bog'lamalari orasida yoki tarmoq stansiyasi yoki tarmoq bog'lamasi va birlamchi tarmoqning

cheffa qurilmasi orasida telekommunikatsiyalar signallarini uzatishni ta'minlaydi. Telekommunikatsiyalar signallarini uzatish usullariga qarab, uzatish kanalini analogli yoki raqamli deb atashadi. Telekommunikatsiyalar signallarini uzatish tezligiga ko'ra, raqamli kanalni asosiy, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, to'rtlamchi deb ataladi.

uzatish nazorati va to'qnashuvlarni aniqlash bilan ko'p tomonidan erkin foydalanish

ingl.: *Carrier Sense Multiple Access with Collision Detection (CSMA/CD)*

rus.: множественный доступ с контролем передачи и обнаружением столкновений

Tarmoq qurilmalarining taqsimlanadigan ma'lumotlarni uzatish muhitidan erkin foydalanishni boshqarish usuli. CSMA/CD IEEE standartlari tomonidan tasdiqlangan va ko'p abonent tizimlarining bitta yakka kanal orqali o'zaro ishlash paytida qo'llaniladi. Ushbu usulda har bir abonent tizimi yakka kanalda paydo bo'layotgan signallarni nazorat qiladi. Yakka kanalni eshitganda tizimlarning hech biri ma'lumotlarni uzatmayotganligi aniqlangandagina A tizimi ma'lumotlar blokini uzatishni boshlashi mumkin. Yakka kanalda ma'lumotlar uzatilayotgan bo'lsa A tizimi uning tugashini kutadi. Uzatishni boshlab, A tizimi boshqa tizim tomonidan ayni paytda ma'lumotlar uzatilishi boshlanganligini nazorat qilib turadi. Bunday holda A tizimi o'z uzatishni tugatib, ma'lum vaqt o'tgach uni

qayta boshlaydi. Ma'lumotlar faqat A tizimi tomonidan uzatilayotganligi aniqlanganda u blokni uzatishni oxirigacha yetkazadi. CSMA/CD Ethernet, Fast Ethernet va Gigabit Ethernet tarmoqlarida qo'llaniladi.

uzatish radiotizimi

ingl.: *transmission radio system*

rus.: радиосистема передачи

Telekommunikatsiya signallari ochiq fazoda radioto'lqinlar tarzida tarqatiladigan uzatish tizimi. Radioto'lqinlarning tarqalishi muhiti va shakliga qarab, uzatish radiotizimini: to'g'ri ko'rindigan radioreleli, trposferali, yo'ldosh aloqali, ionosferali va h.k. deb atashadi.

uzatish sifati

ingl.: *quality of transmission*

rus.: качество передачи

Uzatuvchi foydalanuvchidan qabul qiluvchi foydalanuvchiga kelayotgan telekommunikatsiya signalini qayta tiklash darajasi.

uzatishning asinxron rejimi

ingl.: *Asynchronous Transfer Mode (ATM)*

rus.: асинхронный режим передачи

Uzib - ulash kanallariga ega tarmoqlarda barcha turdag'i (ma'lumotlar, ovoz va video) trafikning bir xil paytda yuqori tezlikda uzatish texnologiyasi; uzib - ulash tarmoqlari uchun standart. Ma'lumotlar cheklangan uzunlikdagi (53 bayt) paketlar («uyalar») ga aylantiriladi. Bayonnomma bog'lanishlar uchun mo'ljallangan: ma'lumotlarning uzatilishidan oldin ma'lumotlarni jo'natuvchi va oluvchi o'rtasida virtual bog'lanish (uzib - ulash yoki doimiy) tashkil qilinadi, bu esa yo'naltirish tartiblarini osonlashtiradi. Turli o'tkazish qobiliyatiga ega tarmoqlarda (soniyasiga 2 dan 620 Mbitgacha) ma'lumotlar va sarlavhadan iborat 53-baytli uyalarni kafolatlangan almashuvni uchun vositalar mavjud. Bayonnomma nomidagi «asinxron» atamasini bitta bog'lanishdagi uyalar aloqa kanaliga istalgan vaqtida (ya'ni nomuntazam ravishda) erkin foydalanishi mumkinligini bildiradi. Ma'lumotlar uzatishning asinxron maromi (MUAR) dizayni apparatli ta'minot darajasida dasturiy ta'minotga qaraganda osonroq tashkil etilishi sababli, ma'lumotlarga ishlov berish va uzib-ushashning yuqori tezlikda (soniyasiga 10

Gbitgacha) bajarilishi mumkin. MUAR sinxron optik tarmoqlar (SONET) va boshqa ba'zi tarmoqlar bilan birga keng yo'l-yo'lli ISDN bog'lanishning asosiy tarkibiy bo'lakidir.

uzatishning gipermatnl bayonomasi

ingl.: HyperText Transfer Protocol (HTTP)

rus.: гипертекстовый протокол передачи

Uzatishning transport bo'g'ini bayonomasi. U Internet tarmog'ida hamkorlarni o'zaro harakatlari tartibini belgilaydi va Internet tarmog'i orqali gipermatn formatida hujjatlar uzatishga mo'ljallangan.

HTTP yordamida bajariladigan amallar to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

- hamkorlarni o'zaro harakatlarining seansini o'rnatish;
- so'rov tashabbuskori xabarlarini jo'natish;
- javob ma'lumotlarini (teskari tomonga) yo'naltirish;
- seansni to'xtatish.

uzib-ulagich

ingl.: switch

rus.: коммутатор

Ma'lumotlar uzatish mumkin bo'lgan yo'nalishlardan birini tanlashni amalga oshiradigan qurilma yoki dastur. Kommunikatsiya tarmog'ida uzib-ulagich qayta uzatish tizimning oddiy turi bo'lib, tiniqlik xususiyatiga ega. Ya'ni, bu yerda uzib-ulash ma'lumotlarga birorta ishlov bermasdan amalga oshiriladi. Uzib-ulagich buferga ega emas va ma'lumotlarni yig'a olmaydi. Shu sababli, uzib-ulagich ishlatilganda, ulanayotgan ma'lumotlarni uzatish kanallarida signallarni uzatish tezliklari bir xil bo'lishi zarur.

uzib-ulanadigan aloqa liniysi

ingl.: switched communication line

rus.: коммутируемая линия связи

Uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilmalarni ularish vaqtida o'rnatiladigan aloqa liniyasi. Qoida bo'yicha, telefon tarmog'ida tashkil qilinadi.

uzib-ulanadigan kanal

ingl.: switched channel

rus.: коммутируемый канал

Kommunikatsiya tarmog'ining mantiqiy kanali. Kanallarni uzib-ulash natijasida, aksariyat, faqat tizimlar orasida seans vaqtiga taqdim qilinadi.

uzib-ulanadigan mahalliy tarmoq

ingl.: switched local-area network

rus.: коммутируемая локальная сеть

Segmentlardan iborat mahalliy tarmoq. U uzib-ulash majmuasi yordamida yagona bir butun bo'ladi. Yuqori o'tkazish qobiliyatli uzib-ulaydigan majmua orqali, faqat boshqa segmentlarda joylashgan tizimlarga yo'llangan ma'lumot bloklari uzatiladi. Qolgan bloklar faqat o'zlarining segmentlarini ichida aylanib yuradilar, bu esa tarmoqni xavfsizligiga imkon yaratadi. Uzib-ulaydigan majmua jismoniy uzib-ulashni ham, mantiqiy uzib-ulashni ham ta'minlaydi. Buning sharofati bilan, bir-biri bilan bog'langan turli-tuman virtual tarmoqlar yaratiladi.

uzib-ulanadigan virtual tarmoq

ingl.: Switched Virtual Networking (SVN)

rus.: коммутируемая виртуальная сеть

IBM korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan, tuzulmasi jo'shqin o'zgaradigan tezkor kommunikatsiya tarmoqlarining me'moriy qiyofasi. SVN tizimli tarmoq me'moriy qiyofasi va yo'naltirgichlar asosida yaratilayotgan tarmoqlar o'rniiga kirib kelmoqda. SVN ning asosiy xususiyati uzatishning asinxron usulini ishlatalish va ularishning jismoniy vositalarining rang-barangligi. Shuning evaziga, SVN strategiyasi turli rusumdagি tarmoqlarni qamrab olmoqda.

uzib-ulash

ingl.: switching

rus.: коммутация

1. Signallarni tashib o'tishga kerak bo'lgan vaqtga funksional birliklarini, uzatish kanallarini va telekommunikatsiya kanallarini ketma-ket ularishlarini yaratish jarayoni.
2. Ma'lumotlarni uzatish yo'nalishini tanlash usuli.

Uzib-ulash ma'lumotlarni yo'naltirgichli tarmoqlar texnologiyasining asosi bo'lib hisoblanadi. Kommunikatsiya tarmog'i oldiga qo'yilgan vazifalarga qarab, uzib-ulashning bir necha usuli ishlataladi. Ularning har biri OSI sohasi pog'onalarining turli qatlamlari bilan aniqlanadi. Bloklarni uzib-ulashni, kanallarni uzib-ulashni, xabarlarini uzib-ulashni, paketlarni uzib-ulashni farqlashadi. Aralash uzib-ulash, kanallarni uzib-ulashni ham, paketlarni uzib-ulashni ham ta'minlaydi.

uzib-ulash xabi

ingl.: *switched hub*

rus.: *коммутирующий хаб*

Tarmoq ishining samaraliligini oshiruvchi Ethernet texnologiyasining keyingi rivojlanishi. Bu holda muhitdan erkin foydalanishni boshqarish aslida bog'lamalardan port juftlari – paket manbalari va ularni qabul qiluvchilar – o'rtasida virtual ajratilgan kanallar o'rnatilishini ta'minlovchi markaziy uzib-ulovchi qurilmasiga ko'chiriladi. Uzatuvchi bog'lamalardan uzib-ulovchi xab deyarli har doim paketni yo'o'z buferiga qabul qilish, yo uni deyarli uzulishsiz maqsad portiga uzatishga tayyor (bunday xab bilan "turib" almashuvchi ikkita kompyuterlarning uzib-ulovchisi – On-the-fly Switching). Uzib-ulovchi xab orqali o'zaro ma'lumotlarni almashuvchi kompyuterlar umumiylar yukini oshirmaydi. Bunday xablar, shuningdek, Ethernet va Fast Ethernet tarmoqlarini bog'lash uchun qo'llaniladi.

uzib-ulashlar markazi

ingl.: *switching centre*

rus.: *центр коммутации*

Ma'lumotlarni uzatishda dastlabki, kirish va tranzit yuklamalarni o'tkazishni ta'minlaydigan stansiya.

uzluksiz ozuqa manbasi

ingl.: *Uninterruptible Power Supply (UPS)*

rus.: *источник бесперебойного питания*

Tarmoqda kuchlanish pasayishi paytida kompyuterning uzluksiz ishini ta'minlovchi qurilma.

uzluksiz signal

ingl.: *continuous signal*

rus.: *непрерывный сигнал*

qarang: analog signal

uzoqdan ma'murlash

ingl.: *remote administration*

rus.: *удаленное администрирование*

Bog'lamani boshqa kompyuterdan tarmoq orqali ma'murlash.

uch o'lchamli grafika

ingl.: *three-dimensional graphics*

rus.: *трехмерная графика*

Hajmiy obyektlarning tasvirlari ustidan tekislikda amallar bajaruvchi kompyuter grafikasi. Uch o'lchamli grafika, uch o'lchamli

tasvirni ikki o'lchamli shaklda ifodalash modelini ishlatalish natijasida olinadi. Shu bilan birga, sintezlanayotgan uch o'lchamli 3D obyektni, mumkin bo'lgan eng ko'p darajada taqlid qilinishi ta'minlanishi shart. Uch o'lchamli grafika tushuntirilayotgan materialni izohlashda keng ishlataladi va virtual borliqni boyitadi. Uni tavsiflash uchun turli tillar ishlataladi, shu jumladan, virtual borliqni modellash tili ham.

uch o'lchamli interfeys

ingl.: *three dimensional interface*

rus.: *трехмерный интерфейс*

Uch o'lchamli grafikani tavsiflaydigan amaliy dasturlarning interfeysi. «Uch o'lchamli » 3D interfeysning yaratilishi, aniq obyektlarni tavsiflaydigan uch o'lchamli grafikaning barcha kuchli vositalarini birlashtirish imkonini beradi. Bu uch o'lchamli tavsiflar bo'yicha, inson «ko'rishiga» taqlid etilgan virtual borliqda harakatlanuvchi tasvirlarni tezkor qurish texnologiyasini yaratish imkonini beradi.

uch o'lchamli tasvir

ingl.: *three dimensional image*

rus.: *трехмерное изображение*

Obyektning hajmiy tasviri.

uchinchchi avlod tili

ingl.: *third generation language (3GL)*

rus.: *язык третьего поколения*

Inson tomonidan tushunish va dasturlar yozishni yengillashtirish uchun ishlab chiqilgan dasturlash tili. Uchinchi avlod dasturlash tillarining ko'pchiligi tuzilmaviy dasturlashni quvvatlaydi. Uchinchi avlod tillariga Fortran, ALGOL, COBOL, BASIC, Ci, C++ misol bo'la oladi.

Vv

vakillik serveri

ingl.: proxy server

rus.: представительский сервер

To'siq hosil qiluvchi kompyuter yoki unda ishllovchi dasturiy ta'minot. Vakillik serveri ikki tarmoq o'rtaida joylashib, biri uchun erkin foydalanish chetdan mumkin bo'lsa, boshqasiga esa mumkin bo'lmaydi. Ichki tarmoqni ajratib, Internetda uning vakili sifatida bo'ladi. Uning asosiy vazifasi – tarmoq mijozlarining so'rovlarini Internet bog'lamalariga uzatish va talab qilingan axborotni mijozga qaytarish.

vakolat uzatish bilan ko'p tomonidan erkin foydalanish

ingl.: Token Passing Multiple Access (TPMA)

rus.: множественный доступ с передачей полномочия

Vakolat yordamida yakka kanaldan ko'p tomonli erkin foydalanish yoki davriy halqa. TMPA usulida abonent tizimlari mantiqiy halqa bo'ylab bir-biriga vakolat yoki asso deb nomlangan alohida ma'lumotlar blokini uzatadi. Vakolatni olib, tizim erkin foydalanish jarayonini boshlaydi va (oldindan kelishib olingan) bir yoki bir necha ma'lumotlar blokini uzatishi mumkin. Vakolatni olgan tizim uzatish uchun ma'lumotlarga ega bo'lmasa, u darhol vakolatni ro'yxatda navbatdagi boshqa tizimga jo'natadi.

vakolatlar

ingl.: authority

rus.: полномочия

Foydalanuvchi (terminal, dastur, tizim)ning muhofaza qilingan ma'lumotlar ustidan u yoki bu amallarni bajarish huquqi.

vakolati server

ingl.: proxy server

rus.: сервер полномочий

Muhofaza qilingan tarmoqning Internetning qolgan qismi bilan aloqasini boshqaruvchi dastur. Ko'p korporatsiyalar korporativ tarmoq va xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan qo'llanmalar

o'rtaida muhofaza qatlamini hosil qiluvchi vakolatli serverlardan foydalanadi.

vaqt ajratish

ingl.: timesharing

rus.: разделение времени

Yagona kompyuterdan bir paytda bir necha shaxs foydalanishi. Bu holda, har bir foydalanuvchi, o'zining aloqa vositalari orqali bosh kompyuter bilan ulangan, terminali oldida bo'ladi. Foydalanuvchi, bosh kompyuterga, eng oddiyidan to eng murakkabigacha o'z ichiga olgan muayyan vazifani, bajarish uchun talabnoma yuboradi. Shunda, foydalanuvchiga kompyuter faqat uning vazifasini ishslash uchun ajratilgandek tuyuladi, lekin, kompyuterning quvvati unga bir foydalanuvchining vazifasidan boshqasining vazifasiga ko'chib yurish imkonini beradi. Vaqt ajratish texnologiyasi quyidagi ustunliklarga ega:

1. Foydalanuvchi uchun o'ziga alohida kompyuter sotib olishdan ko'ra boshqalar bilan birga yagona kompyuterni baham ko'rish arzonroq tushadi.
2. Bosh kompyuterda yetarlicha hajmdor yoki qimmatli axborot bo'lib, uni ayrim kompyuterlarda nusxalash imkonи yo'q. Vaqt ajratish texnologiyasi kompyuter narxi juda baland bo'lgan davrda, ayniqsa ommaviy tarzda ishlatilgan.

vaqt bombasi

ingl.: temporary bomb

rus.: бомба временная

Belgilangan vaqtda amalga oshiriladigan mantiqiy bomba turi.

vaqtini taqsimlash bilan ko'p tomonidan erkin foydalanish

ingl.: Time Division Multiple Access (TDMA)

rus.: множественный доступ с разделением времени

Kanal ish vaqtini axborot tizimlari orasida taqsimlashga asoslangan ko'p tomonidan erkin foydalanish. TDMA usuli takt generatori deb nomlangan maxsus qurilmadan foydalanishga asoslangan. Ushbu generator kanal ish vaqtini takrorlanadigan davralariga bo'ladi. Har bir davra chegaralovchi signal bilan boshlandi. Davra tartib raqami berilgan n ta vaqt oraligqlaridan tarkib topgan. Oraligqlar ularga ma'lumotlar bloklarini yuklash uchun taqdim

etiladi. TDMA usuli ma'lumotlarni uzatish muhitining bitta chastota polosasida FDMA usuliga nisbatan bir necha barobar ko'p mustaqil kanallarni joylashtirish imkonini beradi. TDMA usuli ISDN standartli raqamli telefon tarmoqlari va mobil aloqada qo'llaniladi.

VAX

qisq.: Virtual Address eXtension

Kengaytirilgan virtual manzillash, VAX seriyadagi EHM. DEC kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladigan XX asrning 80-90-yillarda mashhur mini EHM liniyasi.

VBR

qisq.: Variable Bit Rate

Ma'lumotlar oqimining o'zgaruvchan tezligi.

VBScript tili

ingl.: VBScript language

rus.: язык VBScript

Microsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va Internet Explorer veb-brauzeri quvvatlaydigan skriptlar (Visual Basic Scripting Editiondan qisqartma) tili. VBScript tili Visual Basic dasturlash tiliga asoslangan, lekin unga nisbatan soddaroq. Ko'p jihatlardan u, JavaScript skriptlar tili bilan o'xshash. VBScript tili masalan, mualliflarga veb-sahifalarga o'zarlo faol boshqarish vositalarini (tugmachalar, aylantirish yo'l-yo'llari) qo'shishga imkon beradi.

VCL

qisq.: Visual Component Library

Vizual tarkibiy qismalar kutubxonasi, VCL kutubxonasi. Borland Delphi va Borland C++ Builder ishlab chiqishning RAD vositalari bilan birga yetkaziluvchi vizual tarkibiy qismalar kutubxonasi.

VCR

qisq.: Video Cassette Recorder

Videomagniton.

VDSL

qisq.: Very High Speed Digital Subscriber Line

O'ta yuqori tezlikka ega bo'lgan raqamli abonentlik liniyasi, VDSL texnologiyasi. Ma'lumotlarni bitta bino doirasida uzatish uchun mo'ljallangan (eng katta masofa 1,2-1,4 km). U yuqoriroq chastotalar ko'lamini talab qiladi, bu esa uni ADSL va SHDSL bilan

uyg'un qiladi. Shunday qilib, bitta telefon simi orqali bir paytning o'zida VDSL modemi, ADSL modemi va oddiy ovoz telefoni signallari uzatilishi mumkin. Liniyaning kichik uzunligi VDSL modemi tuzilishini osonlashtirish va arzonlashtirish va 18 Mbit/s tezlikni ta'minlash imkonini beradi.

veb

ingl.: web

rus.: веб

qarang: Butunjahon tarmoq

veb bog'lama tuzilmasi

ingl.: web-node structure

rus.: структура веб-узла

Veb bog'lamasi sahifalari orasidagi aloqalar to'plami

veb-anjuman

ingl.: web-conference

rus.: веб-конференция

qarang: forum

veb-bord

ingl.: www-board

rus.: веб-борд

qarang: E'lonlar taxtasi

veb-bog'lama

ingl.: web-node

rus.: веб-узел

Veb-serverda umumiy katalogda saqlangan, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan veb-sahifalar, rasmlar, hujjatlar, ko'ptashuvchi fayllar va boshqa fayllar to'plami.

V

veb-brauzer

ingl.: web browser

rus.: веб-браузер

qarang: brauzer

veb-dizayn

ingl.: web-design

rus.: веб-дизайн

Veb-sahifalarini bezash. Veb-dizayn qog'oz nashri uchun poligrafik dizayn va sahifalash qanday vazifani bajarsa, sayt uchun ham xuddi shunday vazifani bajaradi. Veb-dizayn deganda odatda nafaqat sayt uchun grafik elementlarni yaratishni, balki uning tuzilmasi, navigatsiyasi va ba'zan sayt ishi uchun zarur bo'lgan skriptlarni loyihalashtirish, ya'ni saytni to'liq yaratish nazarda tutiladi. Dizayn saytning aqlli

tuzilishi ma'nosida uning "chiroyliligi" dan ancha muhimroq. Sayt dizayni odatda ixtisoslashtirilgan veb-dizayn studiyalari tomonidan bajariladi. Sayt uchun dizayn yaratish bahosi sayt hajmi, grafik elementlar soni, uning ustida ishllovchi mutaxassislar savyysi, dasturlashtirish zarurligi va h.k.larga bog'liq.

veb-hujjat

ingl.: *web-document*

rus.: *веб-документ*

1. Odatda, maxsus murojaat HTML (Hypertext Markup Language) tilidagi hujjat. Veb-hujjat Umumjahon tarmog'i asosini tashkil qiladi. Ular gipermatndan iborat bo'lib, foydalanuvchiga ajratib ko'rsatilgan so'z yoki jumlagaga qaratib, ma'lumotlarni o'qish, hujjatning boshqa qismiga yoki ayni hujjat bilan gipermurojaat yordamida bog'langan boshqa veb-hujjatga o'tish imkonini beradi. Veb-hujjat, shuningdek, matn, tasvir, tovushlarni mujassamlovchi gipermuhit ma'lumotni ham o'z ichiga olishi mumkin. veb-hujjatni ochish, ularni o'qish yoki aks ettirish Internet brauzerlari yordamida amalga oshiriladi. Veb-hujjat tushunchasi «veb-sahifalar» va «veb-saytlar» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu atamalar ma'nolari haligacha aniq ta'rif topgani yo'q. Odatda veb-sahifasi atamasi veb-hujjat atamasining sinonimini bildiradi, veb-sayti atamasi esa yagona mavzu ostida birlashtirilgan yoki bitta tashkilot, muallif yoki foydalanuvchiga tegishli bo'lgan sahifalar majmuasiga tegishlidir.

2. Veb-saytning tarkibiy qismi. Jismoniy nuqtai nazardan HTML fayldan iborat. Tarkibida matn, tasvir, JAVA appletlari va boshqa veb elementlar bo'lishi mumkin. Sahifa statik yoki dinamik ravishda shakkantirilgan bo'lishi mumkin. Freymlardan foydalangan holatda har bir freym alohida sahifa hisoblanadi.

veb-interfeys

ingl.: *web-interface*

rus.: *веб-интерфейс*

Foydalanuvchiga veb-brauzer orqali turli dasturlar bilan o'zaro ishslash imkonini beruvchi interfeys (masalan, o'z buyurtmasini boshqarish Internet do'konida yoki tarmoq printerini sozlash). Veb-interfeyslarining qulayligi shundaki, ular bitta ofisda

joylashmagan xodimlarga bиргаликда ish yuritish imkonini beradi. Masalan, veb-interfeyslar turli ma'lumotlar bazalarini to'ldirish yoki Internet OAVda materiallarni chop etish uchun ishlatiladi.

veb-kamera

ingl.: *webcam*

rus.: *веб-камера*

Ko'chmas ravishda o'rnatilgan kamera bo'lib, u bilan olingan tasvirlar Internetdagi muayyan saytda ko'rsatiladi. Odatda bu video oqimi emas, balki muayyan muddatlardan keyin masalan, har 20 soniyada yangilanuvchi statik tasvir. Odatda video kameralar saytga tashrif buyuruvchilar ko'nglini ovlash uchun ishlatiladi.

veb-sahifa

ingl.: *webpage*

rus.: *веб-страница*

Internet manzili (URL) bilan bir xil ma'noda belgilanuvchi mantiqiy birlik. U veb-saytning tarkibiy qismidir. Veb-saytlardan iborat bo'lsa, saytlar esa o'z navbatida sahifalardan iborat deyish mumkin. Jismoniy nuqtai nazardan u HTML fayldir. Matn, tasvirlar, JAVA appletlari va boshqa elementlardan iborat bo'lishi mumkin. Sahifa statik yoki dinamik shakkantirilgan bo'lishi mumkin. Freymlardan foydalangan holda har bir freym alohida sahifa hisoblanadi.

veb-sahifa nomi

ingl.: *webpage title*

rus.: *название веб-страницы*

Veb-sahifani aynanashtiruvchi tavsiflovchi matn. Ochiq sahifa nomi veb-brauzeri oynasining sarlavha qatorida aks etiriladi.

veb-sayt

ingl.: *web site*

rus.: *веб-сайт*

Inglizcha «site» (tarjimasi «joy») so'zining o'zbekcha talaffuzi. Umumjahon o'rgimchak to'ri ma'lum axborot topish mumkin bo'lgan va noyob URL bilan belgilangan virtual joy. Mazkur URL veb-saytning bosh sahifasi manzilini ko'rsatadi. O'z navbatda, bosh sahifada veb-saytning boshqa sahifalari yoki boshqa saytlarga murojaatlar bo'ladi. Veb-sayt sahifalari HTML, ASP, PHP, JSP, grafik va boshqa fayllardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Veb-saytni ochish uchun brauzer

dasturidan foydalaniadi. Eng ko‘p foydalanadigan brauzerlar – bu Internet Explorer va Netscape Navigator. Veb-sayt shaxsiy, tijorat, axborot va boshqa bo‘lishi mumkin.

veb-sayt auditoriyasi o‘lchami

ingl.: site reach

rus.: размер аудитории веб-сайта

Aniq vaqt mobaynida, veb-saytgta kirgan noyob tashrifchilar soni. Agar veb-sayt muntazam ravishda yangilanib tursa, unda, veb-saytgta muayyan chastota bilan tashrif buyuradiganlarga, ya’ni saytni doimiy auditoriyasiga ega bo‘lishga qulay imkoniyat mayjud.

veb-sayt statistikasi

ingl.: web-site statistics

rus.: смета посещаемости веб-сайта

Saytlar egalariga saytda tashrifchilar soni, qaysi bo‘limlar eng ko‘p mashhur bo‘lgan va boshqa narsalarni bilish imkonini beradi.

veb-saytni aylantirish

ingl.: website promotion

rus.: раскрутка веб-сайта

Veb-saytgta tashriflar sonini ortirish, uning doimiy auditoriyasini yaratish maqsadida qilinayotgan tadbirdilar majmui.

veb-saytni nashr etish

ingl.: web-site publishing

rus.: публикация веб-сайта

Internet yoki tarmoqqa ulangan veb-serverga sahifa va fayllarini ko‘chirish orqali veb-sayt Internet yoki ichki tarmoqda foydalinish uchun ochiq bo‘lishini amalga oshiruvchi jarayon.

veb-server

ingl.: web-server

rus.: веб-сервер

1. Internet yoki Intranetga ulangan umumfoydalanishdagi axborot serveri. Unda hujjatlар va fayllar – audio, video, grafik va matn fayllari – saqlanib, ular foydalanuvchilarga HTTP vositalari orqali taqdim etiladi. Veb-server nomi u umumjahon tarmoqning qismi bo‘lgani uchun kelib chiqqan.
2. Maxsus dasturiy ta‘minotga ega bo‘lgan, bir yoki bir necha veb-sayt fayllarini saqlash va ularga ishlov berishi mumkin. Bir necha veb-sayt bitta kompyuterda ishlasa, veb-server

deganda veb-sayt ishlovchi virtual makon (dasturiy ta‘minot va kompyuterdagи joy) tushuniladi. Buning uchun ko‘plar uchun “vеб-server” deganda “vеб-sayt” tushuniladi. Ko‘p axborotni saqlovchi veb-saytlar bir payting o‘zida bir necha kompyuterda saqlanilishi va ularga ishlov berilishi mumkin.

Veb-verver mijozlarning veb-saytgta so‘roviga javob beradi va CGI-, JSP-, ASP-, PHP- va boshqa qo‘llanmalarni amalga oshiradi

veb-standart palitra

ingl.: web-standards palette

rus.: веб-стандартная палитра

Rasmlarda ranglarni aniq solishtirish va aks ettirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan 256 rangdan 216sini o‘z ichiga olgan ranglar jadvali. Qolgan 40 rang ishlatilmaydi, chunki ular kompyuterlarda rang uzatish sifatining sozlanganligiga ko‘ra turlicha aks ettirilishi mumkin. Veb standart palitra odatda xavfsiz ranglar palitrasи deyiladi.

veb-usta

ingl.: webmaster

rus.: веб-мастер

1. Veb-sahifalarni loyihalashtirish, yaratish va bezash bilan shug‘ullanuvchi shaxs. Veb-usta Internet texnologiyalari bo‘yicha bilimlar majmuasi va rassom-bezaklovchi tajribasiga (kompozitsiya, dizayn) ega bo‘lishi lozim.
2. Saytning tashqi ko‘rinishi va ishi uchun javobgar kompaniya xodimi. Veb-usta deganda turli-tuman majburiyatlar doirasi tushuniladi – kichik oddiy sayt uchun sahifalashtiruvchidan tortib dizayner va tizim ma’murigacha. Internet foydalanuvchilari uchun veb-usta bu sayt va kompaniya domeniga bog‘liq barcha masalalar bo‘yicha aloqada bo‘ladigan shaxsdir.

veb-xizmat

ingl.: web-service

rus.: веб-сервис

qarang: onlayn xizmati

veb-xosting

ingl.: web-hosting

rus.: веб-хостинг

Foydalanuvchi veb-sahifalarini Internet provayderi (xosting provayderi) serverida joylashtirish va qo‘llab-quvvatlash. “Xosting” so‘zi to‘laqonli ikki tomonlama aloqa bilan ta‘minlangan tarmoqdagi kompyuterni

bildiruvchi xost (host) so'zidan olingan. Xosting pulli va tekin, oddiy va mukammallashgan, yaxshi va yomon bo'lishi mumkin. Xosting provayderini tanlayotganda quyidagi tavsifnomalarga e'tibor berish lozim: 1) disk makoni; 2) Internet kanalining o'tkazish qobiliyati (kengligi); 3) fayllarni boshqarish usullari: veb-forma yoki FTP bayonnomasi orqali erkin foydalanish; 4) standart skriptlar to'plami; 5) server tomonida dasturlashtirish mumkinligi (SSI, PHP, ASPlarni qo'llab-quvvatlash, cgi-bin katalogi); 6) serverda ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish – o'z ma'lumotlar bazalarini yaratish va ishlatish mumkinligi; 7) shell erkin foydalanish; 8) htaccess fayli orqali severni konfiguratsiya qilish mumkinligi; 9) log fayllardan erkin foydalanish; 10) uchinchchi darajali domenlarni taqdim etish (`name.you_name.ru`, `name1.you_name.ru` va `boshqa turdag'i manzil`); 11) bir yoki bir necha pochta qutisini qo'llab-quvvatlash; 12) uzlusiz elektr energiyasi bilan ta'minlash.

veb-sharhlovchi

ingl.: web-browser
rus.: веб-обозреватель
qarang: brauzer

vektor grafikasi

ingl.: vector graphics
rus.: векторная графика

Chiziqlar joylashishi, uzunligi va yo'nalishini belgilovchi matematik tavsiflar bo'yicha yaratiladigan rasmlar. Vektor rasmlari nuqta yoki piksellar to'plamidan bo'lmay, chiziqlar oilasidan iborat.

vektor shriftlari

ingl.: vector fonts
rus.: векторные шрифты

Tasviri matematik modellardan shakllantiriluvchi shriftlar. Ushbu shriftlar asosan plotterlar uchun ishlataladi. Windows OT uchta vektor shriftni qo'llab-quvvatlaydi. Bularga Modern, Roman va Script kiradi.

verifikatsiya

ingl.: verification
rus.: верификация

Harakat, jarayon yoki mahsulotni ularga tegishli talablar yoki tasniflar bilan taqqoslash. Misollar – tasnifning xavfsizlik siyosati modeli bilan

taqqoslash yoki obyekt kodini dastlabki kod bilan taqqoslash.

Vernam kriptotizimi

ingl.: Vernam's cryptosystem
rus.: криптосистема Вернама

Kriptotizim, xuddi shunday Vernam shifri deb ham ataladi, tamomila tasodifiy ravishda hosil qilinadigan bit satrini ishlatadi. Kalitlar oqimining uzunligi dastlabki matn uzunligiga teng, dastlabk matn va tasodifiy bit satr shifrlangan matn hosil qilish uchun, XOR amalidan foydalaniб aralashtiriladi. Bunday algoritm o'ta maxfiylikka ega. Ushbu kriptotizim omilkor emas, chunki katta o'lchamdag'i kalitlardan foydalanshga to'g'ri keladi. U asosan, harbiy va diplomatik maqsadlarda ishlatiladi. Bu shifrnning asosiy kamchiligi kalitlarni boshqarish qiyinligi.

vertikal portal

ingl.: vertical portal
rus.: портал вертикальный

Ma'lum mavzu yo'nalishidagi, ushbu mavzu doirasida turli xizmatlarni taqdim etuvchi veb-sayt. Eng istiqbolli axborot resursi va uskunasi bo'lib, butun dunyo bo'ylab o'z izdoshlariga ega.

VESA

qisq.: Video Electronics Standards Association

1. Videoelektronika sohasidagi standartlar bo'yicha uyushma.
2. VESA mahalliy shinasi standarti.

VFAT

qisq.: Virtual File Allocation Table

Fayllar joylashishining virtual jadvali, virtual FAT. FAT fayllar tizimining fayllarga 8dan ko'п belgidan iborat nom berish imkonini beruvchi turidir.

VGA

qisq.: Video Graphics Array

Videografika matritsasi, VGA standarti. SHX uchun videomoslagich turi. Mukammalroq SVGA standarti tomonidan siqib chiqarilan. Standart IBM kompaniyasi tomonidan 1987 yilda e'lon qilingan. Eng katta ajrataolish aks ettiriladigan ranglar soniga bog'liq: 16 rang uchun 640x480 yoki 256 rang uchun 320x200.

VHDL

qisq.: VHASIC Hardware design and Description Language

VHASIC apparatursini ishlab chiqish va tavsiflash tili.

VHF

qisq.: Very High Frequency

O‘ta yuqori chastota, VHF chastota ko‘lami. Elektrmagnit to‘lqinlarning 30 MHzdan 300 MHzgacha bo‘lgan chastotasi (uzunligi 10 mdan 1 mgacha).

VHS

qisq.: Video Home System

Maishiyl videomagniton, VHS standarti.

VHSIC

qisq.: Very High-Speed Integrated Circuit

O‘ta tezkor integral sxema.

video anjuman

ingl.: video conferencing

rus.: видеоконференция

Tasvirni Internet muhitida translatsiya qilish orqali foydalanuvchilarning uzoqdagi guruhlari orasidagi kengash va munozaralar o‘tkazish metodologiyasi.

video disk

ingl.: video disk

rus.: видео диск

qarang: lazer disk

video kiritish

ingl.: video input

rus.: видеовход

Moslama. U foydalanuvchining shaxsiy kompyuter yordamida ko‘ngil ochar yoki ishga oid dasturlari va Internet resurslari bilan jismoni o‘zaro ishlashini ta‘minlaydi. Ushbu istiqbollli texnologiya insonni virtual dunyoga «olib kiradi».

Vijiner kvadrati

ingl.: Vizier’s square

rus.: квадрат Вижинера

Mashhur ko‘palibfobi kriptotizimlardan biri. Fransuz kriptografi Bleyz Vijiner sharafiga atagan. Vijiner kvadrati n elementli kvadrat matritsadan iborat bo‘lib, bu yerda nishlatilayotgan alifbodagi harflar soni. Kvadratning har bir qatori alifboni bitta ramzga davriy siljitiш yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shifrflash kaliti sifatida kalit so‘zi deb ataluvchi,

Sezar kriptotizimiga o‘xshash qadamma-qadam o‘zgaradigan kalit ishlatiladi. Har bir ustun 0,1, ..., 25 kalitlardan tuzilgan Sezar kriptotizimi deb qaralishi mumkin. Odatda kalit so‘zi odatdagisi ochiq matndan qisqa bo‘lgani uchun u davrida ishlatiladi.

vinchester

ingl.: winchester

rus.: винчестер

qarang: Qattiq disk.

virtual

ingl.: virtual

rus.: виртуальный

Voqeiy bo‘lib ko‘ringan, biroq vazifalari boshqa moslamalar tomonidan bajariladigan funksional moslama ta’rifi.

virtual bank

ingl.: virtual bank

rus.: виртуальный банк

Mijozlarga Internet tarmog‘idan foydalanib xizmat ko‘rsatadigan bank. Mijozlar brauzerlar yoki maxsus dasturiy ta‘minotdan foydalanib chinakam bankda bajariladigan amallarning ko‘pini bajarishlari va axborot olishlari mumkin.

virtual borliq texnologiyasi

ingl.: virtual reality technologies

rus.: технологии виртуальной реальности

Yangi axborot texnologiyalari turi. Informatika va kibernetika vositalari yordamida, insonlar ongida virtual borliqni shakllantirishni ta‘minlaydi.

virtual borliqni modellash tili

ingl.: Virtual Reality Modelling Language (VRML)

rus.: язык моделирования виртуальной реальности

WWW muhitida, ucho‘lchamli sahnalarini va obyektlarni o‘zaro faoliy elementlari bilan tavsiflash tili. HTML tilining 3D- deb atalmish rusumi. VRML da yozilgan fayllar, «.wrl» (ingliz tilidagi world – dunyo so‘zidan) kengaytmaga ega. Bu fayllarni aks ettrish uchun, VRML brauzeri yoki veb-brauzer uchun VRML plug-in zarur bo‘ladi. VRML yordamida na faqat ucho‘lchamli muhit yaratiladi, balki, unda soyalarini va tamosha nuqtalarini chizib chiqish uchun yorug‘lik manbalari joylashgan yer ham ko‘rsatiladi. Buning ustiga, VRML foydalanuvchiga yaratilgan virtual borliqda ko‘chish imkonini beradi. Barcha amallar

sichqoncha yoki klaviatura yordamida bajariladi. VRML tili ISO va ITU tomonidan xalqaro standart sifatida tasdiqlangan.

virtual iqtisodiyot

ingl.: virtual economy

rus.: виртуальная экономика

Elektron makonda iqtisodiy amallarni bajarish.

virtual kompaniya

ingl.: virtual company

rus.: компания виртуальная

Qo'shma, kelishilgan faoliyat bajaruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. U odadta turli sohalarda, aniq maqsadlarga erishish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanadi.

virtual korxona

ingl.: virtual enterprise

rus.: виртуальное предприятие

1. Faoliyat jarayonida elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda eng kam yoki umuman bo'limgan shaxsiy, bevosita aloqsasiz mulloqtda bo'ladigan, o'zaro ishlaydigan geografik nuqtai nazardan ajratilgan xodimlar uyushmasidan iborat bo'lgan korxona.
2. Bitta tashkilotning bir-biridan hududiy ajratilgan va axborot-kommunikatsion tarmoqlar yordamida o'zaro ishlaydigan tuzilmalari.

virtual ofis

ingl.: virtual office

rus.: виртуальный офис

Kompaniyaning Internet resursi yoki uning qismi. U geografik nuqtai nazardan uzoqda joylashgan xodimlarga axborotni almashish, saqlash, qayta ishslash va boshqaruv ta'sirlarini uzatish yagona tizimi yordamida tashkilot sifatida o'zaro ishslash imkonini beradi.

virtual server

ingl.: virtual server

rus.: виртуальный сервер

O'z veb-serverini tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash va doimiy ravishda Internetga ulanishni talab qilmaydigan, WWWda axborotni joylashtirish uchun qo'llaniladigan usul. Bu holda siz yaratgan axborot mavjud bo'lgan provayder yoki biron bir uchichi shaxs veb-serverida joylashtiriladi (bepul yoki ma'lum to'lovga). Virtual server domen nomiga ega bo'lishi mumkin. Bitta kompyuterda

ko'plab virtual serverlarni joylashtirish mumkin. Bunday yechim Internetga doimiy ulanish bo'limganda doimiy ulanish uchun to'lashga qaraganda o'nlab va yuzlab marotaba arzonroqdir.

virtual severni tashkil qilish

ingl.: virtual server development

rus.: организация виртуального сервера

Hususiy veb-serverni tashkil qilish va quvvatlash, hamda doimiy Internetga ulanish zaruratini chetlab, WWW da axborotni joylashtirish uchun ishlatiladigan usul. Bu holda, siz yaratgan axborot (bepul yoki qandaydir to'lov bilan) provayderning yoki uchinchi shaxsnинг mavjud veb-serverida joylashtiriladi. Virtual server domen nomiga ega bo'lishi mumkin. Bir kompyuterda bir nechta virtual serverlarni joylashtirish mumkin.

virtual uyushmalar

ingl.: virtual communities

rus.: виртуальные сообщества

Internetning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan ushbu atama quyidagilarni bildiradi:

1. Elektron makonda paydo bo'lib faoliyat yurgizuvchi uyushmalarning Yangi turi.
2. Tarmoq foydalanuvchilarining elektron makonda ishslash uchun bir xil qiziqishlarga ega bo'lgan guruhlarga birlashishi.

virtual voqeiylik

ingl.: virtual reality

rus.: виртуальная реальность

1. Virtual, ya'ni haqiqatan mavjud bo'limgan yoki mavjud bo'lib undan boshqacha qabul qilinadigan muhit. «Virtual voqeiylik» tushunchasi kompyuter vositalari yordamida yaratilgan dunyonи bildiradi. U haqiqatan mavjud bo'lmaydi, biroq kompyuter insonning ko'rish, eshitish va boshqa hissiyor organlariga ta'sir qilib, ushbu dunyoda ro'y berayotgan voqealarga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkinligi voqeiylik hissini kuchaytiradi. Virtual voqeiylikdan erkin foydalanishning oddiy misoli bu kompyuter o'yinidir.

2. Kuzatuvchini ekran orqasidagi tasavvur qilinayotgan dunyoga olib kiruvchi ko'rish va eshitishni ta'minlovchi kompyuter tizimlari. Foydalanuvchi atrofida kompyuterlar

tomonidan yaratilgan voqeiylik hissini beruvchi tasavvur va tovushlar paydo bo‘ladi. Foydalanuvchi sun’iy dunyo bilan uning harakatlari va tuyg‘ularini hamda audiovizual effektlarini bog‘lovchi shlem va qo‘lqop kabi turli sensorlar orqali muloqotda bo‘ladi. Virtual voqeiylik sohasidagi kelgusi tadqiqotlar kuzatilayotgan narsalarning haqqoniyligi tuyg‘usini kuchaytirishga qaratilgan.

3. Axboriy o‘zaro ta’sir qilishning Yangi texnologiyasi. U murakkab multimedia-amaliy muhitlar yordamida voqeiy vaqtida bo‘rttirilgan tarza aks ettiligan «ekran dunyosidan» bevosita erkin foydalanish va unda bo‘lish illuziyasini yaratadi. Bu foydalanuvchi tasavvurida yaratiladigan mavhum dunyodir.

virtual xosting

ingl.: virtual hosting

rus.: виртуальный хостинг

Bitta Internet provayderi (xosting provayderi) serveri bir necha (yuz va minglab) kichik va katta hajmdagi virtual veb-saytlarning faoliyatini ta’minlaydigan xizmat. Ushbu xizmat virtual serverlar xostingi deb ham nomlanadi.

virtual xususiy tarmoq

ingl.: virtual private network (vpn)

rus.: виртуальная частная сеть

Ma‘lumotlarni uzatish muhiti sifatida mayjud bo‘lgan kommunikatsiya infratuzilmasi, masalan Internet tarmog‘idan foydalanuvchi tarmoq. Xavfsizlik masalalari uzatilayotgan ma‘lumotlarni shifrlash va beruxsat erkin foydalanishning oldini olishning qator mexanizmlaridan foydalanish orqali ta’minlanadi.

virus

ingl.: virus

rus.: вирус

qarang: kompyuter virusi

virusga qarshi dastur

ingl.: antivirus software

rus.: антивирусная программа

1. Viruslarni aniqlash uchun yaratilgan dastur. U tuzatish harakatini taklif qilishi yoki o‘zi amalga oshirishi mumkin.
2. Kompyuter virusi tushgan fayllarni izlash, aniqlash, profilaktika qilish va «davolash» uchun mo‘ljallangan xizmat qiluvchi dastur.

Izlash va aniqlash jarayonida viruslangan fayllar va virus turi aniqlanadi. Profilaktika virus tushishining oldini olish imkonini beradi. Masalan, rezident virusga qarshi dastur amaliy tizimning fayllaridan foydalanuvchi ruxsatsiz foydalanish, boshlang‘ich yuklash sektoriga yozish va shu kabi harakatlarning oldini oladi. Davolash virusni bartaraf qilish, viruslangan fayllarni qayta tiklash va h.k.ni bildiradi.

virusning tavsifli belgisi

ingl.: virus’ usual attribute

rus.: характерный признак вируса

Bitlarning noyob ketma-ketligi. U muayyan virusning har bitta nusxasiga xos bo‘lib, skanerlovchi dastur tomonidan virus mavjudligini aniqlash uchun ishlatalishi mumkin.

VisiCalc

Birinchi elektron jadvallar – 1978 yilda Deniyel Briklin tomonidan yaratilgan dastur.

Visual Basic tili

ingl.: Visual Basic language

rus.: язык Visual Basic

Qo‘llanmalarini ishlab chiqish uchun Microsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan dasturlash tili va muhiti. Visual Basic, BASIC tiliga asoslangan va foydalanuvchi interfeysi ishlab chiqish uchun grafik dasturiy muhitni taqdim qiladigan birinchi mahsulotlardan biri bo‘lgan. Dasturchilar, Visual Basic tilida bo‘lg‘usi dasturning interfeysi shaklga kerakli boshqarish vositalarini (tugmacha va muloqot oynalarini) joylash hisobiga, keyin, ularning tashqi shaklini va xossalarni aniqlash orqali yaratadilar. Visual Basic obyektlar uchun aloqa va butlash texnologiyasini quvvatlaydi. Visual Basic mazmunan obyektga yo‘naltirilgan til demay, uni ko‘proq «hodisalarga asoslangan til» (event-driven language) deb atashadi, chunki har bir obyekt turli hodisalarga javoban harakat qiladi (masalan, sichqoncha tugmacha boshlab, dasturlash tillari uchun standart bo‘lib qoldi. Hozirga kelib, bir qancha dasturlash tillari, shu jumladan, Ci, C++, Pascal, va Java tillari uchun qo‘llanmalar ishlab chiqishning vizual vositalari mayjud. Visual Basic tili bir necha tahrirlarda chiqarilgan:

- standart nashr, havaskorlarga - talaba, o'quvchi va dasturlashning o'ziga xos xobbi hisoblagan shaxslar uchun mo'ljallangan;
 - kasbiy nashr, dasturchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan;
 - tadbirkorlik nashri, mijoz-server me'moriy tuzilmasida murakkab amaliy jarayonlarni yaratadigan ishlab chiquvchilar jamoasi uchun mo'ljallangan.

Visual C++ tili

ingl.: *Visual C++*
 rus.: *язык Visual C++*

Dasturchilar uchun C++ tilida, Microsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalarni ishlab chiqish vositasi. Visual C++ IDE ishlab chiqish muhitini bilan uyg'unlashgan 32 - bitli Windows qo'llanmalarni obyektga-yo'naltirilgan tarzda dasturlashni, Ci/C++ kompyulyatorini va Microsoft Foundation Classes (MFC) deb ataladigan sinflar kutubxonasini quvvatlaydi. Visual C++ tili 1993 yili chiqqan.

Visual FoxPro tili

ingl.: *Visual FoxPro language*
 rus.: *язык Visual FoxPro*

Visual FoxPro, ma'lumotlar bazalari qo'llanmalarini ishlab chiqish tilidir. Visual FoxProning so'nggi rusumlari, obyektga-yo'naltirilgan dasturlash, COMni quvvatlash, mijoz-server texnologiyalarini quvvatlash, ichiga o'rnatilgan ma'lumotlar bazasi va boshqa ma'lumotlardan erkin foydalanish texnologiyalari kabi funksiyalar to'plamini taqdim qildi.

VLAN

qisq.: *Virtual Local Area Network*

[Ma'lumotlarni uzatish uchun] virtual mahalliy tarmoq, VLAN texnologiyasi. Mavjud ma'lumotlarni uzatish mahalliy tarmoqni mustaqil mantiqiy kichik tarmoqlarga bo'lish imkonini beradi. Tarmoq jihozlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

VLSI

qisq.: *Very Large Scale Integration*

O'ta keng ko'lamli birlashtirish. Bitta mikrosxemadagi elementlar soni minglab va millionlab hisoblanadigan birlashtirish pog'onasi (SBIS).

VM

qisq.:

1. Virtual Machine – Virtual mashina.
2. Virtual Memory – Virtual xotira.

VME

qisq.: *VersaModule Eurocard bus*

qarang: VME shinasi

VME shinasi

ingl.: *VME (VersaModule Eurocard) bus*

rus.: *шина VME*

«Virtual xotiraning kengaytmasi» deb atalmish 32 bitli shina. 1981 yilda Motorola, Signetics, Mostek va Thompson CSF kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan. Dunyodagi 300dan ortiq ishlab chiqaruvchilarning sanoat, tijorat va harbiy mahsulotlariga qo'llanmalarida keng foydalilanildi. VME64, VME shinaning kengaytirilgan rusumi bo'lib, u 64 bitli manzillash va ma'lumotlarni uzatishni ta'minlaydi.

VMS

qisq.: *Virtual Memory System*

Virtual xotirali tizim, VMS OT. DEC kompaniyasi kompyuterlari: VAX va Alpha (OpenVMS rusumi) uchun yaratilgan operatsion tizim. Virtual xotira tomojyllariga asoslangan.

voqeа

ingl.: *event*
 rus.: *событие*

Muayyan tizim holatining bir lahzada aniqlanadigan o'zgarishi.

Kompyuter qurilmasidan operatsion tizim, dastur yoki drayverga jo'natiluvchi signal.

Voqeaga yo'naltirilgan dasturlashtirishda dasturlashtiruvchi voqealarga javob berish tartibotlarini belgilashi mumkin bo'lgan ko'plab turli voqealar nazarda tutiladi.

VPN

qisq.: *Virtual Private Network*

Virtual xususiy tarmoq. Umum foydalanishdagi ma'lumotlar uzatish tarmog'i (Internet) asosida tunnellashtiruvchi bayonnomalar va trafikni shifrlash vositalardan foydalangan holda qurilgan muhofaza qilingan ma'lumotlarni uzatish tarmog'i.

VR

qisq.: Virtual Reality
Virtual voqeiylik.

VRAM

qisq.: Video Random Access Memory

Videotasvirlar uchun TXQ. Videomonitor (kadr buferi)ga uzatiluvchi tasvirni vaqtinchalik saqlash uchun tezkor xotira.

VRML

qisq.: Virtual Reality Modeling Language

qarang: virtual borliqni modellash tili

VSAT

qisq.: Very Small Aperture Terminal

qarang: VSAT terminali

VSAT terminali

ingl.: Very Small Aperture Terminal (VSAT)

rus.: терминал VSAT

Yo'ldosh orqali kommunikatsiya ishlannalarida qo'llanadigan diametri 1 metrdan 3 metrgacha bo'lgan misbatan katta bo'limgan yo'ldosh antennasi. Antennaning ixchamligi yer usti stansiyalarni o'lchamlari va narxini kamaytirib, ularning qo'llanishi ommaviy tus oldi va abonent tizimlarga yaqin yerlarda masalan, binolar tomidagi, joylashtirish imkonini berdi. VSAT terminallari qator sohalarda ishlataladi.

1. Keng eshittirishlarda. Yo'ldoshdan ko'p sonli abonentlarga mo'ljalangan axborot uzatilgan hollarda, masalan, birja xabarlar, yangiliklar, ob-havo ma'lumoti, brokerlik ma'lumotlari, moliyaviy ma'lumotlar, pochta jo'natmasi va boshqalar.

2. Turli asboblar ko'rsatmalarini terish (meteorologiyada, ekologiya majmualarida va h.k.) va axborotni yig'ishda, masalan, savdo nuqtalarida.

3. Mobil aloqa tizimlarini yaratishda (harakatlanuvchi obyektlar – avtomobil, kema va poyezdlar bilan aloqada).

Xx

X.25

Paketlarni uzib-ulashga asoslangan tarmoqlarda ma'lumotlarga ishlov berish va kompyuterlardan erkin foydalanishi tavsiyelar standart. Shaxsiy kompyuterlar va modemlar bo'limgan eraning eski, biroq hanuz keng tarqalgan standarti. Foydalanuvchi jihozlari (DTE) va tarmoq yetkazib beruvchisi jihozlarning (DCE) o'zaro ishlashini tavsiyaydi. Ushbu CCITT tavsiyasiga faqat o'zaro ishlashni belgilaydi; u na tarmoqning ichki ishini, na uning boshqarilishini standartlashtiradi. X.25 to'la ma'noda standart hisoblanmaydi: u doimiy va bir tarzli. U ko'plab shakllarga ega va ularning hech qaysisi boshqalar bilan uvg'unlikni ta'minlamaydi.

X.400

Elektron pochtani xalqaro jo‘natish uchun bayonnomalar standartlari to‘plami. Bu elektron pochta xabarlarini bilan ishlash tizimlari uchun yangi standart xabarlarga nafaqat matn, balki boshqa axborotni ham, masalan, fakslar va grafik tasvirlarni qo‘sish imkonini beradi. Yetkazib beruvchilar tomonidan asosan turli elektron pochta tizimlari bilan ishlash quroli sifatida qo‘llab-quvvatlanadi.

X.500

Kompyuter manzil-ma'lumotnomasi xizmati standarti, e-mail uchun "oq sahifalar" sifatida ishlataladi. Saqlanayotan axborot tarmog'ining turli elementlariga jumladan, tizimlar, jarayonlar, foydalanuvchilarga tegishlidir. Bunday xizmat mavjudligining afzalligi shundaki, bu foydalanuvchiga tarmoq tomonidan, hamda boshqa foydalanuvchilar tomonidan, tarmoq tuzilmasida o'zgarishlar va h.k.ta'sirini eng kichik darajaga keltirish imkonini beradi.

xab

ingl.: hub

rus.: хаб

Kompyuterlarni mahalliy tarmoqqa ularash uchun qurilma. Odatda signal kuchaytiruvchisi bilan birlashtiriladi. Bir necha ularash uyali qutish shakliga ega. Xab yordamida bog'langan kompyuterlar muloqoti "bittasi uzatadi – barcha eshitadi" tamoili bo'yicha amalga oshiriladi. Eng oddiy xablar ko'p portli takrorlovchilardir. Xablar BNC, RJ-45, AUI ularash uyalarini to'plamiga ega bo'lib, manbadan qabul qiluvchiga uzatish uchun kabel tanlashni ta'minlashi mumkin. Xab portiga alohida bog'lama ham, boshqa xab ham ularishi mumkin. Turli xil portlar to'plamiga ega bo'lgan xablar turli kabel tizimli tarmoq qismlarini birlashtirish imkonini beradi. Murakkabroq va qimmatroq xillari ham mayjud: Switched HUB, Stackable HUB.

xbabar

ingl · message

rus : сообщение

1. Foydalanuvchiga hisoblash tizimining tarkibiy qismlari tomonidan hisoblash jarayonining rivojlanishi yoki holati to‘g‘risida beriladigan axborot.
 2. Ma‘lum kompyuter tarmog‘i yoki kompyuter aloqasi tizimida bu belgilangan ravishda ma‘lumotlarni uzatish uchun tayyorlangan ma‘lumotlar ulushi. Misol: elektron pochtasi xabari. Xabar odatda sarlavha va xabar oxiri haqida belgiga ega, sarlavha jo‘natuvchi va qabul qilib oluvchi to‘g‘risida axborotga (masalan, ularning ismlari va manzillari), xabar mazmuni va uzunligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga hamda xabarning jo‘natilgan vaqtin haqidagi ma‘lumotlarga ega.
 3. Parallel hisoblash jarayonlari o‘rtasida sinxronlash va axborot almashish vositasi.
 4. Elektronika vositalari, optik va shu kabi vositalar, jumladan (biroq, ular bilan cheklanmaydi) ma‘lumotlarning elektron almashuvni, elektron pochtasi, telegramma, teleks yoki telenusxalar yordamida tashkil qilingan, jo‘natilgan, qabul qilib olingen yoki saqlanayotgan axborot.
 5. Ma‘lum shaklda ifodalangan va axborot manbaidan uni qabul qilib oluvchiga turli fizik tabiatga ega bo‘lgan signallar yordamida uzatish uchun mo‘ljallangan axborot. Turli aloqa kanallari orqali uzatiladigan telegramma, fototelegramma, nutq, musiqa, televizion tasvir,

kompyuterdan chiqishdagi ma'lumotlar va h.k., shuningdek muhofaza obyektlaridan keluvchi turli fizikaviy tabiatga ega bo'lgan signallar xabar bo'lishi mumkin.

xabar autentifikatsiya kodi

ingl.: message authentication code

rus.: код аутентификации сообщения

1. Ma'lumotlar (ochiq yoki shifrlangan matn) va maxfiy kalit funksiyasi bo'lgan, ma'lumotlar autentifikatsiyasini amalga oshirish uchun ma'lumotlarga qo'shib jo'natiladigan axborot (bitlar ketma – ketligi) majmui.

2. Xabarlarni turlashdan va yolg'on ma'lumotlarni tiqishtirishdan muhofazalashga mo'ljallangan mexanizm. Birmarotabalik yon daftar, xesh-funksiya, oqimli va blokli shifrlar mexanizmlariga asoslanishi mumkin.

xabar autentifikatsiyasi

ingl.: message authentication

rus.: аутентификация сообщения

Xabarning mo'ljallangan manba tomonidan oldindan belgilangan oluvchiga yuborilganligini va ushbu xabarning uzatish paytida o'zgartirilmaganligini tekshirish.

xabar jo'natuvchisi

ingl.: message sender

rus.: отправитель сообщения

Xabarni jo'natmoqchi yoki saqlashdan oldin xabar hosil qilmoqchi bo'lgan (yoki uning nomidan harakat qilgan) shaxs, ammo, xabarga nisbatan vositachi shaxs bunga kirmaydi.

xabar oluvchi

ingl.: message receiver

rus.: получатель сообщения

Xabarni jo'natuvchi shaxs xabar oluvchi deb mo'ljallayotgan shaxsnini bildiradi, biroq xabarga vositachi bo'lgan shaxs hisobga olinmaydi.

xabar qabul qiluvchi

ingl.: message recipient

rus.: получатель сообщения

Jo'natuvchining o'zi yoki uning nomidan jo'natilgan xabarni oluvchi jismoni yoki yuridik shaxs.

xabar xesh-funksiyasi

ingl.: message hashing function

rus.: хеш-функция сообщения

Qiymati kirish ketma-ketligining, ya'ni, ikkilik sanoq tizimida berilgan xeshlantiriluvchi

sonning har bir bitiga yoki xeshlantiriluvchi dastlabki matnni har bir ramziga bog'liq bo'lgan funksiya. Xeshlantirish algoritmi kirish matnidan bixil uzunlikda natija chiqaradi. Bunda uzunlik deganda, ikkilik sanoq tizimida berilgan ifodadagi bitlar soni nazarda tutiladi. Masalan, kirish matni «AKT lug'ati» bo'lsa, va xesh-funksiya qiymati «10110111010100101»ga teng chiqsa, xesh-funksiya qiymati uzunligi 17 bitga teng bo'ladi. Chiqish uzunligi 128,192,256 bit bo'lgan xesh-funksiyalar ham mavjud. Xesh-funksiya samarali bo'lishi uchun kirish xabari uchun natija noyob bo'lishi lozim. Odatda, xesh-funksiyalar bir tomonli funksiyalardir. Chunki, chiqish qiymati asosida dastlabki matnni hisoblab topish juda qiyin. Xesh-funksiyalar axborot uzatish va saqlashda uning xavfsizligini muhofaza etish uchun qo'llaniladi.

xabar yo'li

ingl.: message route

rus.: маршрут сообщения

qarang: signalizatsiya aloqa yo'li

xabarlar butunligi kodi

ingl.: message integrity check

rus.: код целостности сообщений

Dastlabki matn va kalitdan muayyan qoida bo'yicha hosil qilingan tayinli uzunlikdagi ma'lumotlar ketma-ketligi.

xabarlarni uzib-ulash

ingl.: message switching

rus.: коммутация сообщений

Ikkilamchi tarmoqning stansiyasida yoki bog'lamasida bajariladigan amallar majmui. U xabarni to'la qabul qilish, uni yig'ish va uni manzil alomatiga monand uzatishdan iborat. Xabarlar uzib-ulash bayonnomalarning yetti pog'onali shajarasini hisobga olib, xabarlarni tarmoq orqali, ularni uzib-ulash bog'lamalarida oraliq yig'ish, saqlash va ajratish amallarini bajarib uzatishni ta'minlaydi. Bunda, har bir bog'lama xabarni qismilar bo'yicha qabul qiladi, uni yig'adi, xotiraga yozadi, xabarda xatolar borligini tekshiradi va shundan so'ng, keyingi bog'lamaga (qismlarga ajratib) uzatib yuboradi. Katta xotiraga ehtiyoj va ma'lumotlarni nisbatan sekin uzatilishi buning kamchiligidir. Bu hol ko'p tarmoqlarda xabarlar uzib-ulashni



boshqa uzib-ulash turlari bilan almashtirilishiga olib keldi.

xaker

ingl.: hacker

rus.: хакер

1. Kompyuterlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassis.
2. O'z bilimlari va vositalardan muhofaza qilinayotgan resurslardan ruxsatsiz erkin foydalanish uchun foydalanuvchi kompyuterlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassis.
3. Informatika sohasida turli noqonuniy harakatlarni bajaruvchi shaxs: boshqa tarmoqlardan ruxsatsiz erkin foydalanish va ulardan axborot olish; dasturiy mahsulotlarning muhofazasini noqonuniy ravishda buzish va ularning nusxalarini ko'chirish; kompyuter «viruslarini» yaratish va tarqatish va h.k. Shuni ta'kidlash kerakki, xaker harakatlari turli jinoyat va fuqarolik qoidabuzarliklar tarkibini tashkil qiladi.

xaktivizm

ingl.: hacktivism

rus.: хактивизм

“Xak” (xakerdan olingan) va “aktivizm” (faoliyik) so'zlarining birlashishi orqali paydo bo'Igan bo'lib, xaktivizm atamasi veb-sayt yoki kompyuter tizimiga siyosiy yoki ijtimoiy yo'naltirilgan xabarni yetkazish maqsadida uyushtirilgan xaker hujumni bildiradi.

xalqaro avtomatik boshqaruva federatsiyasi

ingl.: International Federation of Automatic Control (IFAC)

rus.: международная федерация по автоматическому управлению

Avtomatik boshqaruva nazariyasini rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi olimlarni birlashtiruvchi xalqaro tashkilot. IFAC 1957 yilda turli mamlakatlarda mutaxassislar o'rtaida ijodiy aloqa o'rnatish hamda ular orasida axborot almashishni yo'lga qo'yish uchun yaratilgan.

xalqaro axborot almashushi

ingl.: international information interchange

rus.: международный информационный обмен

Mamlakat davlat chegarasi orqali, axborot mahsulotlarini uzatish va qabul qilish, hamda axborot xizmatlarini ko'rsatish.

xalqaro axborotga ishlov berish tashkiloti

ingl.: International Federation for Information Processing (IFIP)

rus.: международная федерация по обработке информации

Ma'lumotlarga ishlov berish vositalari nazariyasini rivojlantirish va ulardan foydalanishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot. IFIP 1959 yilda turli mamlakatlardagi olimlar va ishlab chiqaruvchilar orasida axborot almashish va ish aloqalarini o'rnatish uchun yaratilgan.

Xalqaro Elektr Aloqa Ittifoqi (XEAI)

ingl.: International Telecommunications Union (ITU)

rus.: международный союз электросвязи (МСЭ)

Elektr aloqasidan foydalanish va uni rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot. ITU Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan boshqarilib Jeneva (Shveysariya)da joylashgan. ITU 1865 yilda yaratilib, 1932 yilgacha Xalqaro telegraf ittifoqi deb atalgan. ITU maqsadi barcha aloqa turlaridan mintaqaviy foydalanishda xalqaro hamkorlikni ta'minlash va kengaytirish, texnik vositalarini mukamallashtirish va ulardan samarali foydalanishdir. ITU, shuningdek, simsiz tarmoqlar uchun chastotalarni ro'yxatga olishga ham javobgardir.

Xalqaro Elektrtexnika Komissiyasi (XEK)

ingl.: International Electrotechnical Commission (IEC)

rus.: международная электротехническая комиссия (МЭК)

Elektrotexnika sohasida standartlar ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi tashkilot. Elektrtexnik apparat va mashinalar uchun standartlardan tashqari XEK elektron qurilmalar uchun hujjatlarni ham ishlab chiqadi.

Xalqaro Standartlar Tashkiloti (XST)

ingl.: International Standards Organization (ISO)

rus.: Международная Организация Стандартов (МОС)

Milliy (davlat) standartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan yaratilgan xalqaro tashkilot. XST 1946 yilda sanoatning turli sohalarida xalqaro standartlashtirishni ta'minlash uchun yaratilgan. Uning a'zolarining ko'pchiligi turli mamlakatlarda standartlar masalalari bilan

shug‘ullanuvchi tashkilotlardir. XSTning asosiy vazifasi texnologiyalar va mahsulotlar uchun umumiyy standartlarni ishlab chiqishdir. 1987 yilda XST Xalqaro elektrtexnik komissiya (XEK) bilan birgalikda 1-Birlashgan texnik qo‘mitasini yaratgan. Uning zimmasiga axborot texnologiyalari tizimlarini standartlashtirish vazifalari yuklatilgan. Mazkur qo‘mita Xalqaro elektr aloqa ittifoqi (XEAI) bilan yaqin hamkorlik o‘rnatgan. 1977 yilda XST O‘zaro ishlovchi ochiq tizimlar (O‘OT) ustida ishini boshlagan. 1979 yilda u ochiq tizimlar o‘zaro ishining asosiy etalon modelini belgilagan. Ushbu model ochiq tizimlarning keng ko‘lamdagi xalqaro standartlarini ishlab chiqish uchun asos yaratgan.

xalqaro tarmoq

ingl.: international network

rus.: международная сеть

Tarkibiy qismlari bir necha mamlakatda joylashgan axborot tarmog‘i. Bunday tarmoqlar xalqaro hamjamiyatlar, korporatsiyalar, uyushmalar tomonidan quriladi va iqtisodiyot, ilm-fan, ta’lim va texnologiyalarning murakkab vazifalarini hal qilishga qaratilgan. Xalqaro tarmoqlar, shuningdek, katta ishlab chiqaruvchilar tomonidan ham yaratiladi. Ular ushbu tarmoqlardan eng avvalo yangi texnikani yaratish, mahsulotlarni ishlab chiqarish, savdo yuritish uchun foydalanadi. Xalqaro tarmoqlar orasida o‘tkazilayotgan tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan tadqiqot tarmoqlari alohida o‘rin tutadi.

xalqaro shaxsiy kompyuterlarning xotira kartalari uyushmasi (PCMCIA)

ingl.: Personal Computer Memory Card International Association (PCMCIA)

rus.: международная ассоциация карт памяти персональных компьютеров

Shaxsiy kompyuter kartalari uchun standartlar ishlab chiqishni ta’minlovchi xalqaro tashkilot. PCMCIA 1989 yilda turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan taqdim etiladigan shaxsiy kompyuterlarning bosma xotira platalari uyg‘unligini ta’minlash maqsadida yaratilgan. Avvalo shaxsiy kompyuter kartalari tashqi xotirani oshirish uchun chiqarilardi, biroq keyin ularning vazifalari keskin kengaydi. PCMCIA uyushmasi Yaponianing JEIDA uyushmasi bilan birga 32 razradli kompyuter shinasi va

xotiradan to‘g‘ri erkin foydalanishni ko‘zlovchi PC_Card standartini tasdiqlagan.

xat

ingl.: letter

rus.: письмо

Internet nuqtai nazaridan odatda elektron xatlar – elektron pochta yordamida jo‘natiladigan matn xabarlari shunday deylidi.

xato tuzatuvchi kodlar

ingl.: error correcting codes

rus.: коды, исправляющие ошибки

Ortiqchalik kodi bo‘lib, uni ishlatish katta ehtimollik bilan na faqat axborotni, uzatishdagi xatolarni topish, balki ularni tuzatish imkonini ham beradi.

xatcho‘p

ingl.: bookmarks

rus.: закладки

Vebni ko‘rib chiqish vaqtida belgilab qo‘yilgan, foydalanuvchiga qiziqarli bo‘lgan tarmoq resurslarining manzillari kiritilgan yon daftар.

xavf ehtimoli

ingl.: risk

rus.: риск

1. Zarar yoki ziyon ko‘rish mumkinligi.
2. Muayyan taxdid ma’lumotlarga ishlov berish tizimidagi muayyan zaiflikdan foydalana olishi ehtimoli.

Xavf ehtimolini baholash

ingl.: risk measuring

rus.: оценка риска

Agar hisoblash tizimi muayyan tahdidlardan muhofazalamagan bo‘lsa, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni miqdor va safat bilan baholash. Xavf ehtimolini miqdoriy baholash, agar har bir muayyan tahdid tizimning ixtiyoriy zaiflik mexanizmlari orasidan ehtimol bo‘lganini ishga solib yuborganda yuz berishi mumkin bo‘lgan, moliyaviy yo‘qotishlar asosida hisoblanishi mumkin.

xavf tahlili

ingl.: risk analysis

rus.: анализ риска

1. Ma’lumotlarga ishlov berish tizimi resurslari, ushbu resurslar uchun bo‘lgan tahdidlar va tizimning ushbu tahdidlarga nisbatan zaifligini aniqlashning tizimli uslubi.



2. Tizim tavsiyfomalarini va zaif tomonlarini o'rganish jarayoni. U nomuvofiq voqealar ro'y bergan taqdirda kutilayotgan zararni aniqlash maqsadida ehtimollik hisoblashlar yordamida o'tkaziladi. Xavf tahlilining vazifasi tizim ishida u yoki bu xavfning muvofiqlik darajasini aniqlashdan iborat.

xavfsiz elektron kelishuv

ingl.: *Secure Electronic Transaction (SET)*

rus.: *безопасная электронная сделка*

Internetda kredit kartalarning muhofazalangan tranzaksiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan standart. Raqamli imzolarni ishlatish sotuvchilarga xaridorlar haqiqatda o'zlarini bildirayotgan kimsa ekanligini tekshirish imkonini beradi. Bunda kredit kartochkaning tartib raqamini sotuvchiga ko'rsatmay bevosita uni talab kilgan tomonga tekshirish va hisob-kitob tuzish uchun uzatiladi. Bu esa xaridorlarni muhofazalash mexanizmlaridan biridir.

xavfsizlik

ingl.: *security*

rus.: *безопасность*

1. Tizim yoki tarmoq axboroti muhofazasini, saqlanishi, ishonchliligini va puxtaligini ta'minlash qobiliyatni.
2. Obyektning tasodifiy va ataylab qilingan tahididlarga qarshi tura olish qibiliyatni.

xavfsizlik ma'muri

ingl.: *security administrator*

rus.: *администратор безопасности*

Ma'sul mansabдор shaxs. U o'rnatilgan ish maromi doirasida ikki davrda o'z vakolatlariga muvofiqlik belgilangan tartibda axborot bo'yicha ish olib boradi. Ya'ni, u ham axborot muhofazasi bilan muntazam shug'ullanadi, ham axborotlashtirish obyekti (ma'lumotlarni uzatish tarmog'i)ni sanoat miqyosida ishga solish va uni ishlatish bosqichlari davrida zarur muhofaza darajasini ta'minlash bo'yicha ish olib boradi.

xavfsizlik obyekti

ingl.: *security object*

rus.: *объект безопасности*

Tizimning passiv tizimlashgan tashkil qiluvchisi. Unga xavfsizlik uslubiyati qo'llaniladi.

xavfsizlik siyosati modeli

ingl.: *security policy model*

rus.: *модель политики безопасности*

Tizim uchun ishlab chiqilgan xavfsizlik siyosatining rasmiy ko'rinishi. U ahamiyatli axborotning boshqarilishi, taqsimlanishi va muhofazasini belgilovchi talablarning rasmiy tavsifini o'z ichiga olishi lozim.

xavfsizlik subyekti

ingl.: *security subject*

rus.: *субъект безопасности*

Xavfsizlikni ta'minlashda ishtirop etish huquqlari va majburiyatlariga ega fuqarolar, ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar.

xavfsizlik tarkibiy tuzilmasi

ingl.: *security configuration*

rus.: *конфигурация безопасности*

Tanlangan xavfsizlik siyosatining parametrlari majmui. Xavfsizlik tarkibiy tuzilmasi fayllar shaklida (standart tarkibiy tuzililar mavjud) saqlanib, ularni, xususiy tarkibiy tuzilmalarini yaratib turlash va kompyuterlarga tatbiq qilish mumkin.

xavfsizlik tizimi

ingl.: *security system*

rus.: *система безопасности*

1. Qonunga muvofiqlik xavfsizlikni ta'minlashda ishtirop etadigan qonunchilik, ijrochilik va sud hokimiyati organlari, ijtimoiy va boshqa tashkilot va uyushmalar, fuqarolar, shuningdek, xavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar.

2. Xavfsizlik siyosatini amalga oshirishga qaratilgan jami tashkiliy choralar, texnikaviy va dasturiy vositalar.

xavfsizlik zonası

ingl.: *security zone*

rus.: *зона безопасности*

Microsoft kompaniyasining Microsoft Internet Explorer brouzerida aniqlangan mexanizm. U Internet serverlari guruhiга xavfsizlikka oid sozlashlarni yuklash imkonini beradi. Har bir zona uchun turli xavfsizlik pog'onalaridan foydalanish imkoniyati bor. Mumkin bo'lgan harakatlarni aniqlab, shu serverga (Java-appletlarini, ActiveX boshqaruvchi elementlarini, SSL bayonnoma bo'yicha muhofazalangan ulanishni va h.k. ni ishlatib yuborish) mos keladiganlarini ishlatish imkoniyatini beradi.

xavfsizlik o'zagi*ingl.: security kernel**rus.: ядро безопасности*

Murojaatlar monitori tamoyillarini amalga oshiradigan dasturiy va apparat elementlar. Ular subyektlarning obyektlardan erkin foydalanishiga barcha urinishlarini ajratishlari, shakliy turlanishlardan muhofazalangan bo'lishlari va o'z vazifalarining to'g'ri bajarilishi tekshiruvdan o'tgan bo'lishi zarur.

xavfsizlikni ta'minlash rejimi*ingl.: security ensuring mode**rus.: режим обеспечения безопасности*

Hamma foydalanuvchilarning barcha erkin foydalanish toifalari tavsifi. U tizimda saqlanadigan va ishlov beriladigan, axborot muhofazasiga oid barcha toifalar bilan bog'liq holda beriladi.

xayoliy voqeiylik*ingl.: virtual reality**rus.: мнимая реальность*

Foydalanuvchi xayolida audiovideotizim tomonidan yaratiluvchi xayoliy dunyo.

*qarang: virtual voqeiylik***Xerox korporatsiyasi***ingl.: Xerox corporation**rus.: корпорация Xerox*

Nusxa ko'chirish texnikasi vositalari, kasbiy shaxsiy kompyuterlar va tashqi qurilmalar ishlab chiqaruvchi kompaniya. To'liq nomi The Document Company – Xerox bo'lgan Xerox kompaniyasi AQSHda yaratilgan bo'lib, hujatlardan nusxa olish uchun mo'ljallangan turli qurilmalar ishlab chiqaruvchi eng katta kompaniyadir.

xesh*ingl.: hash**rus.: хеш*

1. “#” belgisi, ASCII kodi 35.

2. Muayyan kalit bo'yicha farq qiladigan ma'lumotlar elementlaridan erkin foydalanish: har bir ma'lumotlar elementi muayyan kalitga (son yoki so'z) bog'liq. Xeshni ikki ustunli jadval sifatida tasavvur qilish mumkin: birinchi ustunda muayyan kalit saqlanadi, ikkinchisida esa – ma'lumotlar paketi manzili (yoki ba'zan ma'lumotlarning o'zi). Masalan, kutubxonadagi katalog – xesh: undagi mualliflar familiyalari

(kalitlar) ularning kitoblari haqidagi to'liq axborot bilan bиргадир.

xesh-funksiya*ingl.: hashing function**rus.: хэши-функция**qarang: xabar xesh-funksiyasi***XGA***qisq.: eXtended Graphics Array*

Kengaytirilgan grafik matritsasi, XGA videomoslagichi. IBM tomonidan 1990 - yilda taklif etilgan grafik nazoratchi standarti. 16 mln. rangular bilan 1024x768 ajrataolishni ta'minlaydi.

XHTML*qisq.: eXtensible HyperText Markup Language*

Kengaytiriladigan gipermatnasi belgilash tili, XHTML tili. HTML tilining rivojlantirilgani. XHTML tilining 1.0 rusumi – bu aslida HTML tilining XML 1.0 sintaksisi bilan bирgalikda 4.0 rusumidir.

xit*ingl.: hit**rus.: xum*

Foydalanuvchi tomonidan xohlagan elementni (html hujjati, grafik fayl, java appleti va h.k.) yuklab olish. Masalan, sahifangizda 15-grafik elementi mayjud bo'lsa, uning yuklanishida server log fayli 16 xitni qayd qiladi (15-rasm va 1 html hujjati). Agarda siz tarmoqda “serverimiz oyiga 100 ming xitga ega” degan e'lonlarni uchratsangiz, unga darrov ishonmang. Bunday serverning haqiqiy tashrifchilari soni aslida o'nlab marotaba kamroq bo'lishi mumkin.

**xitlar***ingl.: hits**rus.: хамы*

Sahifalaringizni ko'rsatishlar soni. Ya'ni, saytingiz tashrifchisi tomonidan nechta sahifa ko'rildi.

xizmat ko'rsatish sifati*ingl.: Quality Of Service (QoS)**rus.: качество услуг**qarang: xizmatlar sifati***xizmat paketi***ingl.: service pack**rus.: сервисный пакет*

Mavjud bo'lgan muammoni hal qilladigan, masalan, xatoni to'g'rileydigan, yoki mahsulotga uning yangi rusumida paydo bo'ladigan yaxshilanishlarni kirituvchi, dastur rusumining yangilanishi. Mahsulotning yangi nus'hasi chiqqanda u odatda to'g'rilashlar va xizmat paketidan yangilanishlarni o'z ichiga oladi. Xizmat paketlari yuklab olinishi yoki ishlab chiqaruvchidan to'g'ridan-to'g'ri buyurilishi mumkin.

xizmat terminali

ingl.: *customer service terminal*

rus.: *терминал сервисного обслуживания*

Bankdan pul olish, ularni hisobga qo'yish, boshqa xisobga o'tkazish imkonini beradigan va odamlar gavjum yerlarda o'rnatiladigan terminal.

xizmatlar sifati

ingl.: *Quality Of Service (QoS)*

rus.: *качество услуг*

1. Foydalanuvchiga taqdim qilingan xizmatlardan uning qoniqish darajasini yig'ma tafsifnomasi. Xizmat ko'rsatish sifati uni jihatlari majmui bilan tavsiflanib, qo'shimcha xizmatlar bilan ta'minlanganligi, ta'sirchanligi, xizmatlarning to'laligi va boshqa har bir telekommunikatsiyalar (xizmatlar, vazifa) turiga xos bo'lgan faktorlar bilan belgilanadi.
2. Telekommunikatsiya tizimning uzatilayotgan ma'lumotlarning turiga qarab, xizmatlarni u yoki bu sifatini ta'minlash qobiliyati. Ya'ni, tarmoqning ichki resurslari shunday taqsimlansinki, ma'lumotlar aniq vazifasiga mos, tez va ishonchli uzatilishi mumkin bo'lsin. Masalan, telekommunikatsiya tarmog'i bo'yicha tovush yoki tasvir uzatishda bunday paketlarni harakatlantirishda birinchiligini ta'minlash zarur. Shu bilan birga axborotni yo'qotmasdan, qabul qilayotgan tomonda tasvir kadridagi «tushib qolish» yoki subbatdoshning ovozini uzilib qolishiga yo'l qo'ymay, uzatish lozim. Internet tarmoqlarning ko'pchiligi xizmatlar sifatini bunday darajasini ta'minlay olmaydi.

xizmatlari birlashgan keng yo'l-yo'lli raqamli tarmoq

ingl.: *B-ISDN (Broadband Integrated Services Digital Network)*

rus.: *широкополосная цифровая сеть с интеграцией услуг*

ISDN standartini ko'rsatkichlarini kengaytiradigan spetsifikatsiyalar. ITU tomonidan 1998 yili ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Bu, tovushni, videoni va ma'lumotlarni tezkor birlashtirib uzatishni amalga oshirish imkonini beradigan kommunikatsiya texnologiyasi XXI asrda yetakchi bo'lib qoladi. B-ISDN asosida ATM uzib-ulash texnologiyasidan foydalanish nazarda tutilmoxda, shu bilan birga, SONET magistral ulovchi kanallar o'zak texnologiyasi sifatida foydalaniлади.

xizmatlari birlashgan raqamli tarmoq

ingl.: *Integrated Services Digital Network (ISDN)*

rus.: *цифровая сеть с интеграцией услуг*

Uzib-ulanadigan telefon liniyasi bo'ylab raqamli aloqa uchun xalqaro standart. U kompyuter va ko'pshaklli tashuvchi (ovozi, video) trafik uzatish uchun foydalaniлади. Odatda, bitta foydalanuvchining ISDN-liniyasi 64 Kbit/s li ikkita kanal orqali ma'lumotlar uzatishni ta'minlaydi. 16 Kbit/s li kanaldan esa, boshqaruva axborotini uzatish uchun foydalaniлади. Mahalliy tarmoqlar ISDN-kanalga yo'naltirgich orqali, ayrim foydalanuvchilar esa, ISDN-modem oqali ulanadilar. Tashkilotlar uchun, 23x64 Kbit/s ni ta'minlovchi ISDN-kanal va boshqaruvchi kanal qabilida ulanish mumkin.

xizmatni rad etish

ingl.: *denial of service*

rus.: *отказ в обслуживании*

1. Tizimni ixtiyorli qismini ishdan chiqishiga, bu holda u, o'zining funksiyalarini bajarishni to'tatishiga olib keladigan ixtiyorli ta'sir yoki ta'sirlar ketma-ketligi. Sabab sifatida, ruxsatsiz erkin foydalanishni, xizmat ko'rsatishda kechikishlarni ko'rsatish mumkin.
2. Resurslardan mualliflashgan erkin foydalanishga to'sqinlik qilish yoki vaqt bo'yicha nozik amallarni kechiktirish.

XML

qisq.: *eXtensible Markup Language*

garang: gipermatnli markerlashning kengayuvchan tili

xost

ingl.: *host*

rus.: хостинг

Kommunikatsiya va tarmoq resurslaridan (modemlar, faks-modemlar, katta kompyuterlar va h.k.) erkin foydalanish vazifalarini bajaruvchi, tarmoq bog'lamalarida o'matilgan kompyuter (server). Asosiy, yetakchi, markaziy kompyuter deb ham ataladi.

xosting

ingl.: hosting

rus.: хостинг

qarang: veb-xosting

xotira

ingl.: memory

rus.: память

1. Ma'lumotlar joylashtirilishi, saqlanishi va olinishi mumkin bo'lgan funksional qurilma.
2. Buyruqlarni bajarish uchun ishlataladigan ishlov berish qurilmasi va har qanday boshqa ichki xotiradagi butun manzil makoni.

xotira qurilmasi

ingl.: storage unit

rus.: запоминающее устройство

Ma'lumotlarni keyinchalik chiqarib olish va ishlatalish uchun yozish va saqlashga mo'ljallangan xotira qurilmasi. Xotira qurilmasining asosiy tavsifnomalariga quyidagilar kiradi:

- xotira hajmi, bitlarda yoki baytlarda o'lchanadi;
- ma'lumotlardan erkin foydalanish usullari;
- tezligi (qurilmaga murojaat qilish vaqt);
- atrof muhit va elektr kuchlanishning o'zgarishlariga qaramligi bilan xarakterlanadigan ishlash ishonchliligi;
- xotira birligini narxi.

Xotira qurilmalari Amaliy Xotira Qurilmalari (OXQ) ga va Tashqi Xotira Qurilmalari (TXQ) ga bo'linadi.

xotirali karta

ingl.: memory card

rus.: карта с памятью

Eng sodda mikroprotsessori karta. Xotira qurilmasi sifatida xotira - mikrosxemaga ega. Magnit yo'l kartaning orqa tomonida joylashib, muayyan standartlarga ko'ra uch yo'lakchadan iborat.

xotirali uzib-ulash

ingl.: store-and-forward

rus.: коммутация с запоминанием

Uzib-ulash usuli. Bunda qayta uzatish tizimi tomonidan ma'lumotlar bo'lagi ichidagi narsa to'la qabul qilingandan so'ng uzatiladi. Uzib-ulashlash xotiraga olish mumtoz texnologiyalardan bo'lib, u paketlar uzib-ulash va xabarlar uzib-ulashda ishlataladi. Uning mohiyati shundaki, qayta uzatish tizimi qabul qilgan paketdan yoki xabardon sarlavha, oxirgi qism va undagi uzatilayotgan axborot chiqarib olinadi. So'ngra, xatolarni «davriy ortiqchalik bilan nazorat» CRC yordamida tekshiriladi. Ko'rileyotgan uzib-ulash oddiy, lekin qayta uzatish tizimida yuz beradigan amallar kechikib amalga oshadi. Shu sabadan u tezkor tarmoqlarda to'ppa-to'g'ri boradigan uzib-ulash bilan almashtiriladi.

XSL

qisq.: eXtensible Stylesheet Language

Kengaytiriladigan stillar jadvallari tili, XSL tili. XSL tili XML hujjatlarni o'girishlarni tavsiflash uchun xizmat qiladi. U ikki qismdan, ya'ni: XSLT tili va formatlash semantikasini belgilovchi XML lug'ati (XSL Formatting Objects, XSL formatlashtirish obyektlari) iborat.

XSLT

qisq.: XSL Transformations

XSL o'girishlar, XSLT standarti. XSL standartining XML hujjatlarini o'girish tilini tavsiflovchi tarkibiy qismi.



Yy

Y2K

qisq.: Year 2000

2000-yil. 2000-yil muammosini belgilash. Muammo mohiyati dasturlarda yil sanalarining to‘g‘ri talqinini ta‘minlashdir. Dasturlar faqat yil tartib raqamini saqlash uchun yilning ikkita oxirgi raqamidan foydalanadilar.

YACC

qisq.: Yet Another Compiler Compiler

Kompilyatorlar kompilyatorining yana biri. Matndan mustaqil grammaticaklar uchun mashhur parserlar (sintaksis tahlil dasturlari) generatori.

yagona axborot makoni

ingl.: common information space

rus.: единое информационное пространство

Ma‘lumotlar bazalari va banklari, ularni olib borish va ishlatalish texnologiyalari, axborot-kommunikatsion tizimlar va tarmoqlar majmui. U yagona tamoyillar va umumiy qoidalar asosida ishlab, tashkilotlar va fuqarolar uchun axborot almashuvini ta‘minlash, hamda ularni axborotga ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

yakka kanal

ingl.: monochannel

rus.: моноканал

Axborot tizimlari guruhiga bir paytning o‘zida signallar (ularni tarqatish vaqtini ko‘rsatishgacha) uzatuvchi kanal. Yakka kanal yakka kanal tarmog‘ining asosidir. U bir yoki bir necha parallel joylashgan umumiy bo‘g‘inlar, erkin foydalanish bloklari va abonent bo‘g‘inlaridan iborat. O‘lchamlari, topologiyasi, o‘tkazish qobiliyati va boshqa tavsifnomalariga ko‘ra quyidagi yakka kanal turlari ajratiladi: shina, magistral yakka kanal, daraxtsimon yakka kanal.

yakka kanal tarmog‘i

ingl.: monochannel network

rus.: моноканальная сеть

O‘zagi yakka kanal bo‘lgan tarmoq. Yakka kanal tarmog‘i abonent tizimlari guruhini yakka kanalga ulash orqali hosil qilinadi. Tarmoq topologiyasi ishlatalayotgan yakka kanal turi bilan belgilanadi. Odatda yakka kanal tarmog‘i boshqa mahalliy tarmoqlar va hududiy tarmoqlar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

yakor

ingl.: anchor

rus.: якорь

HTML hujjatidagi, ularga murojaatlar bo‘yicha tezkor o‘tish uchun hujjatda maxsus markerlar o‘rnatishga imkon beradigan, maxsus teg (<a name=<имя>>). Odatda biror bo‘limning yoki butunlay hujjatning boshiga o‘rnatiladi.

yalang integral sxema

ingl.: bare integrated circuit

rus.: голая интегральная схема

qarang: qobiqsiz integral sxema

yaltirashga qarshi ustki qatlam

ingl.: antiglare covering

rus.: антибликовое покрытие

Monitor ekrani yuzasiga maxsus, odatda ko‘p qatlamlari, purkash. Tushayotgan yorug‘likni taqsimlab, yaltirashlar paydo bo‘lishining oldini oladi. Yaltirashga qarshi ustki qatlam bilan monitorlarda, hatto juda yorug‘ xonalarda ham tasvir har doim keskin farqlanadi va yorqin bo‘ladi.

yangi axborot texnologiyalari

ingl.: new information technologies

rus.: новые информационные технологии

Jamiyatni axborotlashtirish vositalarini rivojlantirish sohasidagi so‘nggi yutuqlar qo‘llanilayotgan axborot texnologiyalari. Bu yutuqlarga birinchi galda zamonaviy elektron hisoblash texnikasi, axborot-telekommunikatsion tizimlari, sun‘iy intellekt uslublari kiradi.

yangiliklar lentasi

ingl.: news line

rus.: лента новостей

Internet yangiliklarni chop etish uchun o‘ta qulay bo‘lgani tufayli yangiliklar nafaqat Internet ommaviy axborot vositalarida, balki korporativ saytlarida ham mayjud bo‘ladi. Odatda yangiliklar birin-ketin joylashgan sarlavhalar ro‘yxati sifatida bo‘lib, tugamas

lentaga o'xshaydi – so'nggi xabarlar ro'yxat ustida paydo bo'lib, oldingilari arxivga ketadi. Internet OAVning ko'plari o'z xabarlarini translatsiya qilishni, ya'ni OAV saytidan ma'lum standart formatda yangiliklarni olib, ularni o'z saytidan chop etishni taklif etadi.

yashil kompyuter

ingl.: green computer

rus.: зеленый компьютер

Atrof muhitga nisbatan kamroq ta'siri bilan tavsiflanadigan kompyuter. Yashil kompyuter modelini yaratishda foydalanuvchilar salomatligini saqlash, radiatsion va elektromagnit nurlanishlar darajasini kamaytirish, energiya sarfini kamaytirish vazifalari qo'yilgan. AQSH da atrof muhitni muhofaza qilish Agentligi tomonidan ishlab chiqilgan Energy Star talablariga javob beradigan kompyuterlarni yashil deb ataydilar.

yashirin jild

ingl.: hidden folder

rus.: скрытая папка

Nomi ostiga chizish belgisi (.)dan boshlanuvchi jild. Yashirin jildlar odatda veb bog'lamasining qo'shimcha fayllarini o'z ichiga oladi.

yashirin kanal

ingl.: advertising channel

rus.: скрытый канал

1. Xavfsizlik siyosatiga riosa qilgan holda ma'lumotlar uzatish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar uzatish kanali.
2. Ikkita o'zaro ishlovchi jarayonga tizim xavfsizlik siyosatiga riosa qilmagan holda axborot almashish imkonini beruvchi axborot uzatish yo'li.

yashirin maydon

ingl.: hidden field

rus.: скрытое поле

Shaklda bog'lamaga tashrif buyuruvchi uchun ko'rinnmas bo'lib qolib, biroq ma'lumotlarni shakllarga ishlov beruvchiga yetkazib beruvchi maydon.

yashirin reklama

ingl.: hidden advertising

rus.: скрытая реклама

Foydalanuvchi anglay olmaydigan holda uning ongiga ta'sir qiluvchi reklama. Bunga jumladan maxsus video qo'shimchalaridan foydalanish

orqali (juftli yozuv) va boshqa yo'llar bilan qilinadigan ta'sirlar ham kiradi.

yetkazib beruvchilar elektron tarmog'i

ingl.: electronic supply chain

rus.: электронная сеть поставщиков

Elektron biznes tizimi doirasida harakat qiluvchi, yetkazib beruvchilar zanjiri, tarmog'i.

Yevropa akademik tadqiqot tarmog'i

ingl.: European Academic Research Network (EARN)

rus.: европейская академическая исследовательская сеть

Yevropadagi tadqiqotlar o'tkazish va ta'lim olish uchun mo'ljallangan tarmoq. EARN tarmog'i Yevropa, Shimoliy Afrika, Osyo, AQSH dagi tadqiqotchilarning foydalanish (abonent) tizimlarini birlashtiradi. EARN ning doimiy idorasasi Parij atrofidagi Circe da joylashgan.

Yevropa ko'pbayonnomali magistrali

ingl.: european multiprotocol trunk

rus.: европейская многопротокольная магистраль

Yevropa Ebone tayanch tarmoq'i. U o'z faoliyatini 1991 yilda boshlagan va Internet tarmog'ini qo'llashga yo'naltirgan, Ebone ning yadrosi London, Stokholm, Amsterdam, Jeneva va boshqa davlatlarning poytaxtlarini birlashtiradi. Tarmoqning yadrosiga Yevropa tarmoqlari kanallar orqali ulanadi.

Yevropa tadqiqot tarmoqlari uyushmasi

ingl.: european association of research network

rus.: европейская ассоциация исследовательских сетей

Yevropadagi ilmiy axborot tarmoqlarini ishini va rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi tashkilot. 1986 yilda tashkil qilingan RARE ning maqsadi bo'lib, tarmoqlar bo'yicha milliy tashkilotlarning ma'lumotlar uzatishning kelishilgan xalqaro axborot infratuzilmasini rivojlantirish uchun hamkorligiga ko'maklashish hisoblanadi. Bunday infratuzilma, tarmoqlarga bir biri bilan o'zaro aloqa qilish, boshqa tarmoqlardan uzatilayotgan axborotdan foydalanish, Yevropa va boshqa qit'aladagi tarmoq xizmatlaridan erkin foydalanish imkonini beradi.

Yevropa telekommunkatsiya standartlari instituti



ingl.: European Telecommunication Standards Institute (ETSI)

rus.: европейский институт телекоммуникационных стандартов

Yevropa aloqa standartlarini ishlab chiquvchi tashkilot. ETSI ish mavzulari Yevropada axborot tarmoqlarini yaratish va rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni qamrab oladi. Masalan, Institut tomonidan Yevropa raqamli simsiz aloqasi, GSM «mobil aloqa uchun global tizim» va shovqinsifat signallarni mahalliy tarmoqlarda ishlatish uchun standartlar ishlab chiqilgan.

Yevropa yo'ldosh jamiyatি

ingl.: Societe Europeene des Satelites (SES)

rus.: европейское спутниковое общество

Yevropada yo'ldoshli tarmoqning faoliyatini ta'minlovchi tashkilot. SES yo'ldoshlar guruhiga ega bo'lib, ular Astra-Net kommunikatsion tarmog'ini tashkil qiladi. Yo'ldoshlar 34 Mbit/s gacha tezlikda Yevropaning ixtiyoriy nuqtasiga ma'lumotlar uzatishni ta'minlaydi.

yolg'on axborot tarqatish

ingl.: misinformation

rus.: дезинформация

qarang: dezinformatsiya

yondosh elektrmagnit nurlanish

ingl.: spurious electromagnetic radiation

rus.: побочное электромагнитное излучение

Istalimgan axborotli elektrmagnit nurlanishi. U axborotga texnik vositalar bilan ishllov berish paytida va axborot sizib chiqib ketishiga olib kelishi mumkin bo'lgan elektr zanjirlarda nochiziqiy jarayonlar natijasida paydo bo'ladi.

yopiq

ingl.: closed

rus.: закрытый

Bu tushuncha, fagaqt ayrim shaxslar erkin foydalanishi mumkin bo'lgan obyektlarga tegishli. Masalan, spetsifikatsiyasi ishlab chiqaruvchi tomonidan nashr qilinmagan kompyuterning arxiteturasi yopiq hisoblanadi. Shu sababli begona ishlab chiqaruvchilar, yopiq kompyuterga tashqi qurilmalar ishlab chiqal olmaydilar.

yopiq kanal

ingl.: closed channel

rus.: закрытый канал

Ma'lumotlardan ruxsatsiz erkin foydalanishdan muhofazalangan mantiqiy kanal. Bunday mantiqiy kanallarning bayonnomalari transport pog'onasidan yuqorida joylashgan bo'ladi va o'zaro aloqadagi foydalanuvchilar orasidagi uzatishni maxfiyligini kafolotlaydi.

yorliq

ingl.: shortcut

rus.: ярлык

Hujjat matnida yozilgan fayl yoki mundarijalar manzili. Odatda bu manzil maxsus faylda saqlanadi.

yozuv

ingl.: record

rus.: запись

1. Ko'rilyotgan obyektni (masalan, buyum – uning tartib raqami, nomlanishi, o'lamlari, narxi, uni yasash uchun ishlatilgan modda) ifodalab beruvchi ma'lumot elementlari majmui.
2. Tashqi va amaliy xotira orasidagi ma'lumotlar almashuvini tuzilmaviy birligi.

yuklama to'plagichi

ingl.: overload concentrator

rus.: коммутация нагрузки

Texnik vosita. U ma'lumotlarni uzatish tarmog'ida paketlarni uzib-ulash markaziga ulanadigan va paketlarni yig'ish-sochish amallarini bajarish uchun mo'ljallangan

yuklash

ingl.: loading

rus.: загрузка

Kompyuterga unga ulangan qurilmadan dasturlarni yoki ma'lumotlarni uzatish:

1. Foydalanuvchi tomonidan ixtiyoriy veb-sahifani ko'rish, ya'ni ma'lumotlarni veb-sahifadan kompyuterga uzatish («Sahifani yuklash»).
2. Ixtiyoriy fayllarni serverdan kompyuterga uzatish («Faylni yuklash»).
3. Dasturni qattiq diskdan kompyuterning amaliy xotirasiga siljitchish («Amaliy tizimni yuklash»).

yuklovchi

ingl.: loader

rus.: загрузчик

Amaliy tizimning amaliy jarayonga zarur dasturlarni taqdim qiluvchi bloki.

yuklovchi virus

ingl.: boot virus

rus.: загрузочный вирус

Shikastlangan diskni kompyuterga yuklashda uning xotirasiga kirishib ketadigan virus. Ayni holda, tizim yuklovchisi yuklanish bajariladigan diskning birinchi sektoridagi axborotni o'qiydi, o'qilgan axborotni xotiraga joylab unga (ya'ni virusga) boshqaruvni uzatadi. Keyinchalik yuklovchi virus o'zini fayl kabi tutadi, ya'ni amaliy tizimning disklarga murojaatini ushlab olib, ularni zararlantiradi, ayrim sharoitlarga qarab, buzg'unchilik harakatlarini bajaradi yoki tovush hamda tasvir effektlarini bajaradi.

yulduzsimon monokanal

ingl.: star monochannel

rus.: звездообразный моноканал

Daraxtsimon monokanalning xususiy holi bo'lib, unda hamma shoxchalar bir nuqtadan chiqadi.

yulduzsimon tarmoq

ingl.: star network

rus.: звездообразная сеть

Hamma foydalanuvchi tizimlar bitta markaziy obyektga ulangan tarmoq. Yulduzsimon tarmoq, ma'lumotlarni yo'naltirishda eng sodda tarmoq turi bo'lib hisoblanadi. Dastlab, bunday tarmoqda terminal-bosh kompyuter me'moriy tuzilmasi ishlatilgan. Bu holda, tarmoqning markazida bosh kompyuter joylashar edi. Keyinchalik, mijoz-server me'moriy tuzilmasi vujudga keldi, endi, tarmoqning markazida server yoki uzib-ulash bog'lamasi joylashdi. Bunday tarmoqning kamchiligi shundaki, markaziy obyektning ishdan chiqishi butun tizimni ishdan chiqishiga olib keladi. Bundan tashqari, tarmoq kanallarining umumiyligi uzunligi haddan ziyod katta bo'ladi.

yuqori ajrataolishli teleko'rsatuv

ingl.: High Definition TeleVision (HDTV)

rus.: телевидение высокого разрешения

Yuqori ravshanlikka ega bo'lgan teleko'rsatuvlar. Uning alohida xususiyatlariiga ekran shaklini 4:3 dan 16:9 ga o'zgartirilgani, uning ajrata olish qobiliyatlari 1250 qatorgacha yetkizilganligi va stereo tovush hamrohligi ta'minlanganligi kiradi.

yuqori pog'ona tili

ingl.: High-Level Language (HLL)

rus.: язык высокого уровня

Biror bir tizimning muayyan tuzilmasi bilan bog'liq bo'Imagan holda dasturlarni yozishni ta'minlaydigan dasturlash tili (Ada, Algol, BASIC, COBOL, C, C++, FORTRAN, LISP, Pascal, Prolog va boshqalar). Bunday tillar yuqori pog'ona tili deb ataladi, chunki, ular insonlar tiliga yaqinroq bo'lib, mashina tilidan uzoqlashgan bo'ladi. Yuqori pog'ona tillarini quyidagi pog'ona tillariga (masalan, Assembler tiliga) nisbatan asosiy farqi shundaki, ularni yozish, o'qish va quvvatlash nisbatan yengildir. Yuqori pog'ona tillarida yozilgan dasturlarni translyator yoki kompilyator yordamida mashina tiliga o'giriladi. Dastlabki yuqori pog'ona tillari 1950 yillarda ishlab chiqilgan edi.

yuqori pog'onalı veb bog'lama

ingl.: top level web-node

rus.: веб-узел верхнего уровня

Veb bog'lamasi jildlari shajarasida eng yuqori pog'ona jildi. Yuqori pog'onalı veb bog'lama veb serverda, virtual server tarmog'ida yoki mahalliy kompyuterning qattiq diskida joylashgan bo'lishi mumkin. Bu veb bog'lamasi ildiz veb bog'lamasi deb ham ataladi.

yuqori texnologiyalar kompaniyalari

ingl.: Hi-Tech companies

rus.: компании высоких технологий

Asosiy aktivlari intellektual mulk va yuqori malakali mutaxassislar bo'lgan kompaniyalarning shartli nomi. Faoliyat sohasi – yuqori texnologiyalar sohalari va postindustrial texnologiyalar. Bu turdag'i kompaniyalarga odatda quyidagilar kiradi: Internet kompaniyalari; dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilar va yarimo'tkazgich qurilmalar ishlab chiqaruvchilar; mobil va kosmik aloqa operatorlari; biotexnologiya kompaniyalari; ilmiy-tekshirish tajriba konstrukturlik ishlanmalari sohasidagi kompaniyalar; omma-media kompaniyalari; yuqori texnologiyali uskunalar ishlab chiqaruvchilar.

yuritma

ingl.: engine

rus.: движок

Serverda yurgizilib ma'lumotlar bazalariga murojaat natijalariga ishlov berish, matematik hisoblar va boshqa asosiy ishlarni bajaruvchi dastur. Yuritich tayyor veb-sahifalarni oddiy ko'rsatishga qaraganda veb-sayt



funksionalligini amalga oshiradi. Masalan, Internet do'konni katalogini ko'rish (mahsulotlar ro'yxati do'kon ma'lumotlar bazasidan olinadi), Internetda izlash (izlash tizimi natijalar bilan sahfalar dinamik ravishda shakllantiriladi), bannerlarni ko'rsatish (yuritma sayt sahfalariga berilgan algoritmgan binoan u yoki bu bannerni beradi).

yo'

ingl.: path

rus.: путь

Fayl joylashgan jiddlarni belgilovchi URL manzilining qismi. Masalan, <http://www.company.com/image/image.jpg> URL manzili /image/ yo'lini o'z tarkibiga olgan.

yo'l-yo'l kengligi

ingl.: bandwidth

rus.: ширина полосы

1. Yuqori va past chastota chegara qiymatlari farqi, ya'ni oralig'i.

2. Aniq vaqt oraligida (odatda 1 soniya) uzatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar hajmi. Raqamlı qurilmalarda odatda, yo'l-yo'l kengligi bit soniyada yoki bayt soniyada ifodalanadi. Analogli qurilmalar uchun yo'l-yo'l kengligi davr soniyada yoki Gerslarda (Gs) ifodalanadi. Yo'l-yo'l kengligi ayniqsa, kiritish - chiqarish qurilmalari uchun katta ahamiyatga ega. Masalan, tezkor diskli to'plovchining samaradorligi, shina yetarlicha keng yo'l-yo'lga ega bo'limasa kamayishi mumkin.

yo'naltirgich

ingl.: router

rus.: маршрутизатор

1. Tarmoq trafigini uzatishning bir yoki bir necha aloqa yo'llarini tanlash bo'yicha qarorlar qabul qilishga javobgar tizim yoki qurilma. Mazkur vazifani bajarish uchun tarmoq haqidagi axborotni va yo'naltirish metrikasi deb nomlangan bir necha mezonlar asosida eng yaxshi aloqa yo'lini tanlash algoritmlariga ega yo'naltirish bayonnomalari ishlataladi. Xabarlarining tezkor va eng samarali yo'naltirish uchun yo'naltirgichlar bir-biri orasida tarmoqning ayni paytdagi holati haqidagi ma'lumotlarni almashish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. Tarmoqda paketlarni yo'naltirish, ya'ni paketlarning tarmoq bo'ylab uzatilishida eng

qisqa aloqa yo'li tanlab berish bilan shug'ullanuvchi tarmoq kompyuteri.

3. Ma'lumotlar bloklarini yo'naltirish bilan shug'ullanuvchi qayta uzatish tizimi.

yo'naltirish

ingl.: routing

rus.: маршрутизация

Kommunikatsiya tarmog'ida ma'lumotlar bloki haqiqiy oluvchiga yetib borishi mumkin bo'lgan aloqa yo'lini aniqlash jarayoni. Yo'naltirish obyekt manzilini ushbu blok uzatiladigan kanallar ro'yxatiga aylantirishni ta'minlaydi. Yo'naltirish taqsimlangan jarayon bo'lib, ma'lumotlar yo'naltirgichlariga ega bo'lgan tarmoqning barcha bog'lamalari tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun har bir bog'lama chaqiriq yoki ma'lumotlar blokini yo'naltirish lozim bo'lgan kanalni aniqlaydi. Tarmoqlarda yo'naltirishning turli uslublari qo'llaniladi:

- Tanlab yo'naltirishning xususiyati shundaki, ma'lumotlar bloklari, ular haqiqiy oluvchiga yetib bormasligi mumkinligini nazarda tutgan holda birdaniga bir necha yo'nalish bo'yicha jo'natiladi. Bunda aloqa yo'li oldindan tanlanib, u tarmoq holatiga bog'liq emas.

- Belgilangan yo'naltirish tarmoqning mumkin bo'lgan trafigining eng samarali aloqa yo'llarini ko'rsatuvchi aloqa yo'llari jadvalini tuzishni nazarda tutadi.

- Moslashtiriladigan yo'naltirishning belgilangan yo'naltirishdan farqi shundaki, aloqa yo'llari jadvallari trafik o'zgarishlariga ko'ra yangilanib turadi.

- Ehtimollik yo'naltirish ma'lumotlar bloklarini uzatish yo'lini tasodifiy tanlash nazarda tutildi, bunda ular haqiqiy oluvchiga yetib borishi aniq deb hisoblanadi.

yo'naltirishni belgilash

ingl.: trace routing

rus.: трассировка маршрутизации

Sizni qiziqtirgan kompyuterga (tracert buyrug'i bilan bajariladigan) paketlar o'tib keladigan yo'naltirgichlar (bog'lamalar) to'g'risidagi axborotni olishning tartiblangan jarayoni. U yo'naltirish xatoliklarini topish imkonini beradi, masalan, «davraga tushib qolish», ya'ni, xostdan xostgacha halqa bo'ylab paketlarni uzatish.

Zz

zahira nusxa

ingl.: backup copy

rus.: резервная копия

Ma'lumotlar ko'chirilgan nusxasini o'z ichiga olgan magnit disk yoki tasma.

zahiralash

ingl.: backup

rus.: резервирование

Qo'shimcha vositalar va (yoki) imkoniyatlarni qo'llash. Bu obyektning bitta yoki bir nechta elementi ishdan chiqsa, uning ish qobiliyatini saqlab qolish maqsadida amalga oshiriladi.

zahiraviy nusxalash

ingl.: backup procedure

rus.: резервное копирование

Kompyuter disklari, ma'lumotlar bazalari, veb-serverlari mazmunidan davriy ravishda to'la yoki qisman nusxa ko'chirish. Bu axborot yo'qotishdan xalos bo'lishga yordam beradi. Zahiraviy nusxa ko'chirish operatsion tizim buyruqlari yordamida ham, buning uchun maxsus yaratilgan qurilmalardan foydalanib ham amalga oshiriladi. Zahiraviy nusxa ko'chirish paytida band disk makonini kamaytirish maqsadida, ma'lumotlarni zichlashtirish ham amalga oshiriladi.

zaif

ingl.: lamer

rus.: ламер

qarang: lamer

zaiflik

ingl.: vulnerability

rus.: уязвимость

Ma'lumotlarni qayta ishslash tizimi yoki uning vositalaridagi kamchilik, ya'ni tahdidlarga nisbatan zaif joy.

zararli dastur

ingl.: noxious software

rus.: вредоносная программа

1. Mustaqil kompyuter dasturi yoki kompyuter tizimi, tarmoq yoki mashina tashuvchilarida saqlanayotgan axborotni ruxsatsiz o'chirish,

to'sish, o'zgartirish yoki ko'chirish maqsadida mayjud bo'lgan dasturlarga o'zgartirishlar kiritish.

2. Maxsus virus dasturi.

zichlash

ingl.: compression

rus.: сжатие

Fayl hajmini uning formatini o'zgartirish tufayli kichraytirish jarayoni. Buning natijasida faylni saqlash uchun kamroq joy va uni uzatish uchun kamroq vaqt talab qilinadi.

zichlash-kengaytirish

ingl.: companding

rus.: компандирование

Signalni jo'shqinlik diapazonini kamaytirishga va keyinchalik tiklashga qaratilgan texnik harakat. Signalni namunaviy kanallar orqali uzatish maqsadida, avval zichlagich (kompressor), so'ngra kengaytirgich (eksander) ishlatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

zummerlash

ingl.: zooming

rus.: зуммирование

(Ingliz tilidagi zoom so'zidan). Aks ettirilayotgan maydon plan maydonini yoki xaritasini ko'rinma kattalashtirish yoki kichraytirish. U vaziyat tasvirini o'zgartirmasligi lozim.

O' o'

o'qitish tizimi

ingl.: training system

rus.: обучающая система

Foydalanuvchilarni o'qitib o'rgatish uchun mo'ljallangan tizim. Sun'iy tafakkur va bilimlar bazasini ishlashiga asoslanadi. Asosiy masala, foydalanuvchilarni tayyorgarlik darajasiga va ularni olingan axborotni o'zlashtirishiga qarab, bilimlarni samarali uzatishdir. Muxtor (ayrim shaxsiy kompyuterlarda ishlaydi) va tarmoq (Internet serverlarida joylashgan) ta'lim tizimlarini farqlanadi. O'qitish tizimi g'oyalarini rivojlanishi, masofada o'qitishning tarmoq vositalari yaratilishiga olib keldi.

o'rama juft

ingl.: twisted pair

rus.: витая пара

Ikkita simmi bir-biri atrofida o'rash orqali tashkil qilinadigan kabel. Bu o'zaro shovqinlar va elektromagnit to'lqinlari ta'sirlarini kamaytirish imkonini beradi.

o'rgimchak

ingl.: spider

rus.: паук

Doimiy ravishda tarmoqni kezib veb-sahifalardan axborot yig'ib yuruvchi (ularni indekslovchi) maxsus dastur (izlash roboti, avtomati, agenti, o'rgimchak, qurt). Indekslash jarayoni – bu izlash mashinasiing siri. Lekin odatda "o'rgimchak" e'tiborini hujjat tavsifiga va sarlavhalarga beradi, ba'zan hujjat matnini ko'rib chiqadi va qaysi so'zlar va iboralar kalitli ekanligini tushunishga harakat qiladi. Indekslashning asosiy obyekti – matnlar. Biroq, rasmlarni, mp3, dastur arxivlari, yangiliklar va h.k.ni indekslash imkonini beruvchi "o'rgimchaklar" ham mavjud.

o'rnashtirish

ingl.: installation

rus.: инсталляция

Dasturli mahsulotni kompyuterga o'rnatish. O'rnashtirish odatda o'rnashtirgich – o'rnatilayotgan dasturli mahsulot tarkibi va

tuzilishini kompyuter tarkibiy tuzilmasi bilan muvofiqlashtiruvchi dastur boshqaruvida amalga oshirilib, uning dasturli parametrlarini mayjud operatsion tizim turi, bajarilayotgan vazifalar sinflari va ish maromlariga binoan moslashtiradi. Shunday qilib, o'rnashtirish dasturli mahsulotni muayyan hisoblash tizimida foydalanish uchun yaroqli va muayyan ish maromida muayyan vazifalar sinfini bajarish uchun tayyor qiladi.

o'xhash

ingl.: analog

rus.: аналоговый

qarang: analog

o'xhash kompyuter

ingl.: analog computer

rus.: аналоговый компьютер

qarang: analog kompyuter

o'yinlar nazariyasi

ingl.: game theory

rus.: теория игр

Axborot yetarli bo'limgan sharoitda yechimlar qabul qilish nazariyasi. Nazariya, atrof muhitning va o'zga odamlarning yoki ular o'rnini bosadigan kompyuterlarning hattiharakatlari bilan bog'liq tahdidlar sharoitidagi shaxsiy yechimlarni tadqiq qiladi. Nazariya o'z foydaliligini iqtisodiyot sohasiga oid turli holatlardan tahlilida o'zini namoyon qildi. Ikki qatnashchi o'yinida, ularning har biri har xil maqsadlarga ega bo'lib, ularning har biri, turlicha natijalar beruvchi yurishlar tanlash imkoniga ega. O'yinning optimal strategiyasi, ayrim yurishlarni tanlashda, yutuq eng katta yoki mag'lubiyat eng kam bo'lishiga tegishli nisbiy vaznlarni ko'rsatadi.

o'z qo'li bilan qo'yilgan imzoning elektron analogi

ingl.: electronic analogue of autograph

rus.: электронный аналог собственноручной подпись

qarang: elektron raqamli imzo

o'zaro aloqada ishlash sohasi

ingl.: interconnection area

rus.: область взаимодействия

Axborot tizimlarini kooperatsiyasini ta'minlovchi funksional bloklarning shajaraviy guruhi. O'zaro ta'sir sohasi bir birining ustiga

joylashgan pog'onalar guruhiga bo'linadi. Ochiq tizimlarning o'zaro aloqada ishlashning asosiy etalon modeli OSI da yettita pog'onani ajratadilar.

o'zarofaol axborot tizimi

ingl.: *interactive information system*

rus.: *интерактивная информационная система*

1. Muloqot maromida nafaqat axborotni uzatish, balki uni almashish ham sodir bo'ladigan tashqi faol tizimning xususiy turi. Masalan: elektron pochta va chatlar, telefoniya, o'zaro faol televide niye va boshqalar.
2. Kodlash va dekodlash qurilmasi bitta moddiy obyekt sifatida taqdim etilgan tizim. Axborot xuddi o'sha obyekt «ichida» bo'lib, aloqa uning fizikaviy ko'chishi orqali amalga oshiriladi. masalan, kitob, qo'lyozma, kinotasma, kompyuter disketasi va boshqalar.

o'zarofaol dastur turi

ingl.: *interactive software type*

rus.: *программа интерактивного типа*

Foydalanuvchining kompyuter bilan muloqot (o'zaro faol) shaklida o'zaro ishlashga asoslangan, barcha turdag'i shaxsiy kompyuterlari (jumladan, televizion o'yin kompyuter qo'shimchalari) uchun dastur.

o'zarofaol rejim

ingl.: *interactive mode*

rus.: *режим интерактивный*

Chaqirayotgan va chaqirilayotgan qurilmalar orasida haqiqiy vaqt ko'lamida axborot ayirboshlash.

o'zarofaol teleko'rsatuv

ingl.: *interactive television*

rus.: *телевидение интерактивное (диалоговое)*

Teleko'rsatuvlarni eshitirish va foydalanuvchiga qo'shimcha axborot uzatishni tashkil qilish usuli. Bu teletamoshabinlar va uzatuvchi teleko'rsatuv markazlari orasida faol ikki tomonlama axborot almashuv yo'li bilan amalga oshiriladi.

o'zarofaol teleko'rsatuvlar operatsion tizimi (amaliy tizimi)

ingl.: *interactive television operating system*

rus.: *операционная система интерактивного телевидения*

Microsoft korporatsiyasi tomonidan, o'zarofaol teleko'rsatuvlar ehtiyojlari uchun ishlab

chiqilgan tizim. MITV «Microsoft o'zarofaol teleko'rsatuvlari» deb ham ataladi.

O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risidagi» qonuni

ingl.: *Law "On informatization" of the Republic of Uzbekistan*

rus.: *Закон «Об информатизации» Республики Узбекистан*

Qonunning maqsadi, axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 2003 yilning 11 dekabrda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlarni va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofazasi to'g'risida» qonuni

ingl.: *Law "On legal protection of computer software and databases" of the Republic of Uzbekistan*

rus.: *Закон «О правовой охране программ для электронных вычислительных машин и баз данных» Республики Узбекистан*

Kompyuter uchun dasturlarni va ma'lumotlarni yaratish, huquqiy muhofaza qilish va ishlatalish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun. Qonun 1994 yilning 6 mayida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risidagi» qonuni

ingl.: *Law "On electronic document interchange" of the Republic of Uzbekistan*

rus.: *Закон «Об электронном документообороте» Республики Узбекистан*

Qonunning maqsadi, elektron hujjat aylanishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 2004 yilda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamlı imzo to'g'risidagi» qonuni

ingl.: *Law "On Electronic Digital Signature" of the Republic of Uzbekistan*

rus.: *Закон «Об электронной цифровой подписью» Республики Узбекистан*

Qonunning maqsadi, elektron raqamlı imzodan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 2003 yilning 11 dekabrda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risidagi» qonuni

ingl.: Law "On Electronic Commerce" of the Republic of Uzbekistan

rus.: Закон «Об электронной коммерции» Республики Узбекистан

Qonunning maqsadi, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 2004 yilda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining «Pochta aloqasi to'g'risidagi» qonuni

ingl.: Law "On postal communication" of the Republic of Uzbekistan

rus.: Закон «О почтовой связи» Республики Узбекистан

Qonunning maqsadi, pochta aloqasini yaratish, foydalanish va rivojlantirish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 2000 yilning 31 avgustida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining «Radiochastota spektri to'g'risidagi» qonuni

ingl.: Law "On radiofrequency spectrum" of the Republic of Uzbekistan

rus.: Закон «О радиочастотном спектре» Республики Узбекистан

Qonunning maqsadi, radiochastota spektrini taqsimlash va ishlatish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 1998 yilning 25 dekabrida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining «Telekommunikatsiyalar to'g'risidagi» qonuni

ingl.: Law "On telecommunications" of the Republic of Uzbekistan

rus.: Закон «О телекоммуникациях» Республики Узбекистан

Qonunning maqsadi, telekommunikatsiyalarni yaratish, foydalanish va rivojlantirish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 1999 yilning 20 avgustida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining telekommunikatsiyalari

ingl.: telecommunications of Uzbekistan

rus.: телекоммуникации Республики Узбекистан

Mamlakat hududida barcha telekommunikatsiya turlarini ta'minlovchi O'zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlari majmuasi.

o'zgartgich

ingl.: convertor

rus.: конвертор

Ma'lumotlarni bir mashina kodidan boshqasiga yoki bir formatdan boshqasiga qayta kodlash uchun mo'ljallangan dasturiy vosita.

G‘g‘

g‘arazgo‘y

ingl.: *intruder*

rus.: *злоумышленник*

1. Axborot tizimiga va uning resurslaridan beruxsat erkin foydalanishdan mafaatdor shaxs yoki tashkilot. U beruxsat axborot olish va uni o‘zgartirish uchun urinib ko‘rgan yoki g‘arazli harakatlar sodir etib bo‘lgan bo‘lishi mumkin.
2. Harakatlari, mazkur kompyuter tizimida axborot xavfsizligini buzishga olib kelgan subyekt.
3. G‘arazli niyat bilan qasddan harakat qiluvchi jinoyatchi.

Sh sh

shahodatlash

ingl.: attestation

rus.: аттестация

qarang: attestatsiya

shakl

ingl.: form

rus.: форма

(sinonim - veb-shakl)

Veb-sahifaning axborot kiritishga mo‘ljallangan elementi. Shaklning maydonlari matn bilan to‘ldirilishi yoki ro‘yxatdagi qiymatlardan tanlab olinishi mumkin. Ma’lumotlarni uzatish, qoidaga ko‘ra, tugmachani boshish bilan bajariladi. Umuman olganda, uzatilgan axborot saytning keyingi hulq-atvoriga ta’sir qiladi. Foydalanuvchilar Internetda ishlab turib, ko‘pincha turli shakllarni to‘ldiradilar, masalan, izlash mashinasiga talabnomaga berishda, qaysidir saytda ro‘yxatdan o‘tishda, veb-pochtadan xat yuborishda.

sharhlovchi

ingl.: explorer

rus.: обозреватель

Microsoft Windowsda jiddlarning ichini ko‘rib chiqish dasturi shunday ataladi. Internet sharhlovchisi – brouzerning boshqa nomi.

shartli bepul dastur

ingl.: shareware

rus.: условно бесплатная программа

Tarmoqda bepul olish mumkin bo‘lgan dastur. Agarda sizga ma‘lum dastur yoqqan bo‘lsa va siz undan foydalanayotgan bo‘lsangiz, siz ushbu dastur muallifiga to‘lov jo‘natishingiz shart. To‘lov miqdori, muallif ismi va manzili dasturning o‘zi bilan tarqatiladigan maxsus fayl ichida joylashgan bo‘ladi.

shaxsiy aynanlash raqami

ingl.: personal ID

rus.: персональный идентификационный номер

qarang: shaxsiy identifikatsiya raqami

shaxsiy hayot sirini muhofazalash

ingl.: protection of privacy of personal life

rus.: защита тайны личной жизни

Shaxsiy hayot sirlarini ta’minlash uchun bajarilayotgan tadbirlar. Tadbirlar, ayrim shaxslar haqidagi ma’lumotlarni muhofazalash va ularni yig‘ish, toplash va ularga ishlov berishga cheklovlanmi o‘z ichigi oladi.

shaxsiy identifikatsiya raqami

ingl.: personal ID

rus.: персональный идентификационный номер

Biror kimsaning shaxsiy kodi bo‘lib, undan erkin foydalanish boshqariladigan tizimdan erkin foydalanish uchun imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

shaxsiy imzo kaliti

ingl.: private signature key

rus.: личный ключ подписи

Aniq shaxsga tegishli bo‘lgan va elektron raqamli imzoni yaratishda qo‘llaniladigan ramzlarning tartiblangan to‘plami.

shaxsiy imzo kaliti egasi

ingl.: owner of private key

rus.: владелец личного ключа подписи

Shaxsiy imzo kaliti egasi. Bu mazkur kalit va unga mos imzoni tekshirish kalitini yaratgan aniq jismoniy yoki yuridik shaxsdir. Shaxsiy imzo kaliti egasi o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni sir tutishi va tasodifan yo‘qolishi yoki o‘zgartirilishidan muhofaza qilishi shart.

qarang: Elektron raqamli imzo.

shaxsiy kalit

ingl.: private key

rus.: личный ключ

Shifrlangan matnni ochiq matnga o‘girish uchun mo‘ljallangan faqat uning egasi tomonidan qo‘llaniladigan va sir utiladigan kalit.

shaxsiy kompyuter

ingl.: personal computer

rus.: персональный компьютер

Shaxsan foydalanish uchun mo‘ljallangan hammabop kompyuter.

shaxsiy kompyuter kartasi

ingl.: PC card

rus.: карта PC

Shaxsiy kompyuterga ulanadigan uncha katta bo‘limgan tashqi qurilma. 32-razradli PC Card texnologiyasi dastlab ixcham shaxsiy

kompyuterlarga tashqi xotira qurilmasini ulash uchun ishlab chiqilgan edi. Shaxsiy kompyuterlarga mo'ljallangan bu yechim shunchalik muvaffaqiyatli bo'lib chiqdiki, RS kartalarini kompyuterlarning turli rusumlarida ishlata boshladilar. Shu bilan birga, ulanadigan obyektlar ro'yxatiga turli tashqi qurilmalar, modemlar, tasvir va tovush kiritish qurilmalari, faks-apparatlar va tarmoqlar kirdi.

shaxsiy pochta qutisi

ingl.: *personal mail box*

rus.: *персональный почтовый ящик*

Pochta serverida foydalanuvchi (uning nomiga kelgan va jo'natilishi lozim bo'lgan) xatlarini saqlash uchun ajratilgan disk joyi. Pochta serveriga ularnishdan keyin foydalanuvchi pochta qutisi bilan ishlaydi va unga xatlarni jo'natish uchun joylashtiradi, unga kelgan xatlarni oladi va h.k.

shaxsiy radiochaqiriq

ingl.: *personal wireless call*

rus.: *радиовызов персональный*

qarang: peydjing

shaxsning axboriy erkinligi

ingl.: *information freedom*

rus.: *информационная свобода личности*

Insonning o'z hayoti, kasbiy faoliyati va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan axborotni olish imkoniyati. Shu bilan birga, u yoki bu tabiiy yoki ijtimoiy hodisalar bo'yicha o'z nuqtai nazarini ifoda etish, axborotni boshqa odamlarga berish, ya'nini uni jamiyatda tarqatish ham tushuniladi.

sheriklik

ingl.: *collocation*

rus.: *колокейн*

O'z Internet serverini provayder «ustunida» joylashtirish.

shiddatli manzillash

ingl.: *avalanche-type addressing*

rus.: *лавинная адресация*

Xizmat qilishni rad etishga olib keluvchi kutilmagan yoki atayin qilingan ko'p hajmdagi ma'lumotlarni kiritish.

shifr

ingl.: *cipher*

rus.: *шифр*

Axborotni ko'rib, uning ma'nosini anglashni muhofaza etish maqsadida qandaydir maxfiy elementdan foydalangan holda qaytar o'zgartirish usuli. Bu holda dastlabki axborot ochiq matn deb ataladi, unga shifrnari tafbiq qilish natijasi esa, yopiq matn yoki shifrmatn deb ataladi.

shifr gammasi

ingl.: *cipher's gamma*

rus.: *гамма шифра*

Dastlabki matnni shifrmatnga va shifrmatnni dastlabki matnga o'girish uchun berilgan algoritm bo'yicha yaratilgan soxta (psevdo) tasodifiy 0 va 1 raqamlardan iborat ketma-ketlik. Chet el adabiyotida «gamma» atamasining sinonimi «kalit oqimi» bo'ladi.

shifrlangan matn

ingl.: *cipher text*

rus.: *шифртекст, шифрограмма*

Dastlabki matnni shifrlash natijasi. Uni kriptografik usullarsiz dastlabki matnga o'girib bo'lmaydi.

shifrlangan matnga hujum

ingl.: *attack on encrypted text*

rus.: *атака на зашифрованный текст*

Faqat shifrlangan matn asosida kriptoanalitik yusushtirayotgan tahliliy hujum.

shifrlash

ingl.: *encryption*

rus.: *шифрование*

Kriptografik uslublardan (shifrmatnga va dastlabki matnga o'girish, elektron raqamli imzoni shakllantirish va tekshirish, xesh-funksiya shakllantirish va tekshirish) foydalanishga asoslangan axborotni o'zgartirish jarayoni. Axborotni shifrlash uni begonalar tomonidan o'rganish yoki o'zgartirish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Shuningdek, ma'lumotlarga va dasturlarga, ulardan noqonuniy foydalanish maqsadida, ruxsatsiz raqamli imzo tizimiga kirishning oldini olishni ta'minlaydi. Shifrlashning ikki usuli mavjud: simmetrik va asimetrik. Simmetrik shifrlashda, kodlash va kodni ochish uchun birligina kalitning o'zidan foydalaniladi. Asimetrik shifrlashda ikkita kalitdan foydalaniladi. Ulardan biri (ochiq kalit) dastlabki matnni shifrmatnga o'girishni, ikkinchisi esa (yopiq kalit) dastlabki matnga o'girishni ta'minlaydi.

shifrlash algoritmi*ingl.: ciphering algorithm**rus.: алгоритм шифрования*

Shifrnning rasmiy tavsifi.

shifrlash vositalari*ingl.: ciphering tools**rus.: шифровальные средства*

1. Apparat, dasturiy va apparat-dasturiy vositalar, tizimlar va majmualar. Ular axborotni kriptografik o'zgartirishlar algoritmini amalgalash uchun mo'ljallangan axborotga hamda ishlod berishda, saqlashda, kanallar orqali uzatishsa, texnika vositalarida, shu jumladan shifrlash texnikasida aylanib yurgan axborotni muhofazasini uchun xizmat qiladi.

2. Kalit axboroti tashuvchisining turidan qat'iy nazar, shifrlash vositalarida foydalaniladigan, kalit hujjatlarini tayyorlash va taqsimlashga mo'ljallangan apparat, dasturiy va apparat-dasturiy vositalar, tizimlar va majmualar.

shifrmatn*ingl.: cipher text**rus.: шифртекст**qarang:* shifrlangan matn**shifmatnga o'girish***ingl.: enciphering**rus.: зашифрование*

Dastlabki matnga shifrlash kalitidan foydalanib ma'lum algoritm bo'yicha qaytar, ya'ni teskarisi mayjud bo'lgan o'zgartirisharni qo'llash jarayoni. Jarayon natijasida shifrlangan matn (shifrmatn) hosil bo'ladi.

shifrni kalitsiz ochish*ingl.: decryption**rus.: дешифрование*

1. Shifrlash kalitisiz ma'lumotlarni dastlabki, ya'ni shifrlashdan oldin bo'lgan shaklga keltirish;

2. Shifrlashga teskari amal.

shina*ingl.: bus**rus.: шина*

1. Kompyuterning bir qismidan ikkinchi qismiga ma'lumotlar uzatuvchi jismoniy vosita. Eng yuqori o'tkazish qobiliyatini ta'minlash uchun, ko'pincha shina paralell yotqizilgan ko'p sonli liniyalarga egadir. Shu sababli, shinalarni yaratishda yassi kabellardan

foydalaniladi. Odatda «shina»atamasi «ichki shina» ma'nosida foydalaniladi. Bu shina kompyuterning barcha ichki tarkibiy qismlarini markaziy protsessor va xotira bilan ulaydi. Xuddi shunday, kengaytirish kartalarini protsessor va xotiraga kirishini ta'minlashga mo'ljallangan «kengaytirish shinasi»dan foydalaniladi. Ixtiyor shina ikki qismidan - manzil shinasi va ma'lumotlar shinasiidan tashkil topadi. Ma'lumotlar shinasi ma'lumotlarning o'zini uzatsa, manzil shinasi esa ma'lumotlarni qabul qilib oluvchi haqidagi axborotni uzatadi. Shinaning o'chamini (uning kengligini) bir vaqtning o'zida uzatilayotgan ma'lumotlar hajmi bilan belgilanadi. Masalan, 16-bitli shina 16 bit ma'lumotlarni uzatish imkoniga ega, 32-bitli shina bo'lsa-32-bitli ma'lumotlarni uzatadi.

2. Tarmoqlarda, mahalliy tarmoqning barcha qurilmalarini ulaydigan markaziy kabel. Uni xuddi shunday magistral deb ham atashadi.

shluz*ingl.: gateway**rus.: шлюз*

1. Tashqi yoki boshqa tarmoq bilan aloqa stansiyasi. Bir biri bilan uyg'un bo'lмаган tarmoqlar aloqasini, hamda bir tarmoq doirasida bir biri bilan uyg'unlashmagan qo'llanmalarni o'zaro ishlashini ta'minlashi mumkin.

2. Xilma xil arxitekturali kompyuter tarmoqlarini ulaydigan, funksional qurilma yoki dastur. Buning evaziga, ular orasida ma'lumotlar almashuvi sodir bo'lishi mumkin bo'ladi.

shovqin*ingl.: noise**rus.: шум*

1. Aloqada – liniyada signallarni butligiga xalal beruvchi to'siq. Shovqin turli manbalardan chiqishi mumkin, shu jumladan, radioto'lqinlar, yaqinda joylashgan elektr simlari, chiroqlar va sifatsiz ulanishlar. Optik tolali kabellarni metall kabellarga nisbatan afzalligi shundaki, ular shovqin ta'siriga kamroq moyildirlar.

2. Signalni yoki xabarни sof uzatishga to'sqinlik qiladigan hamma narsa. Masalan, onlayn forumdagi shovqin, forum mavzusigi aloqasi bo'lмаган ko'p sonli xabarlar mayjudligini bildiradi.

shovqinsimon signal

ingl.: spread spectrum signal

rus.: шумоподобный сигнал

Tanlangan chastota yo‘l-yo‘lsida ko‘p garmonik (sinussimon) tashkil etuvchilarni o‘z ichiga olgan signal. Bunday signallardan foydalanish, ma’lumotlar uzatishni shovqinga bardoshligini kuchaytiradi, radiokanalarni elektromagnit shovqinlardan va xakerlarning aralashuvlaridan yaxshi muhofazani ta‘minlaydi.

shovqinsimon signalli radiotarmoq

ingl.: spread spectrum radio network

rus.: радиосеть с шумоподобными сигналами

Shovqisimon signallar uzatiladigan mahalliy radiotarmoq. Bu tarmoqning ishlash tamoyili, kodli ajratishdan foydalanib ko‘p tomonlama erkin foydalanishni qo‘llashga asoslangan. Bu tarmoqda signalarni uzatishda, ma’lumotlarni har bir bloki, chips deb ataluvchi bitlar ketma-ketligi bilan kodlanadi. Chipslar shovqinsimon signalga tiziladi va efir orqali uzatiladi. Uzatilgan diskret signalni qayta tiklash, maxsus protsessor yordamida amalga oshiriladi. Shovqinsimon signalli radiotarmoq tizimlari ixcham, arzon va elektromagnit halal beruvchi to‘sqliq ta’sirida ham ishonchli ishlaydi.

shrift

ingl.: font

rus.: шрифт

Alifbo ramzlarining to‘plam shakli. Shrift garnitura (imlo elementlari)ning birlashmasi, shakl, o‘lchamlar, interval bilan ajralib turadi. Masalan, Times New Roman shrifti, har bir ramz shaklini belgilaydigan garnituradir. Shriftning o‘lchami bandlarda ifodalanadi. Har bir band 1/72 dyumga teng. Yana shriftlar shakli (to‘g‘ri, qiya, kursiv) va to‘yinganligi (och, yarimyo‘g‘on, yo‘g‘on) bilan ajralib turadi. Jadvalli (rastrdan foydalanuvchi) va konturli (vektorli) shriftlar farqlanadi. Jadvalli shriftlar nuqtalar matritsasini tanlashga asoslanadi masalan, 8x12. Konturli shriftlarni har bir belgisini shakkllari matematik tenglamalar yordamida, chiziqlar to‘plami sifatida ifodalanishi bilan ajralib turadi. Bu maqsadlar uchun PostScript tili va boshqa tillardan foydalaniladi. Buning evaziga printerga ekranda tasvirlangan ramzni xuddi o‘zginasini chiqarish mumkin bo‘ladi. Konturli shriftlar matnlarni samarali ifodalash usulidir.

shrift nisbatlari

ingl.: font proportions

rus.: пропорции шрифта

Bir xil belgilarning bitta garnitura chizmasida o‘ta nozik turdan o‘ta keng belgilarga o‘zgarish ko‘rsatkichi.

shrift to‘yinganligi

ingl.: font saturation

rus.: насыщенность шрифта

Turli chizishlarda bir xildagi belgilarning asosiy va bog‘lovchi chiziqlarining kengligi bilan belgilanadi. Bitta garnitura doirasida to‘liqlik eng ochdan to eng to‘qqacha o‘zgarishi mumkin (light – ultra bold).

shrift chizmasi

ingl.: font type face

rus.: начертание шрифта

Kichik va katta belgililar, raqamlar, tinish belgilari, maxsus belgililar majmui. Xohlagan garnituradagi shrift chizilishi rang to‘liqligi, nisbatlar, kontrastlik va belgilarning egilishi bilan farq qiladi (och, yarim yirik, kursiv yoki egilgan, normal, nozik yoki keng).

shtabel

ingl.: stack

rus.: штабель

OSI asosiy etalon modeli OSI sohasining yetti pog‘onasini belgilaydi. Bunga mos ravishda, ko‘rib chiqishga yetti guruh bayonomalarini kiritiladi. Bayonomalar ustma – ust joylashib taxlangan tartibni hosil qiladi. Axborot tizimi oldiga qo‘yilgan vazifaga ko‘ra, uning taxlami OSI sohasining barcha pog‘onalarini yoki ularning ayrim qismini o‘z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, abonent tizimining taxlangan tartibi barcha yettita pog‘onalardan iborat bo‘lsa, uzib-ulash maqsadlari uchun qayta uzatish tizimi ko‘pincha ikki-uch pog‘onadan iborat taxlam ega.

shtrixli kod

ingl.: bar code

rus.: штриховой код

Ma’lumotlarni tez o‘qib olish uchun mo‘ljallangan mashina o‘qiydigan kod. Shtrixli kod raqamlardan va ularni kodlaydigan turli qalinlikdagi chiziqchaldan iborat. Birinchi uch raqam, tovar ro‘yxatga olingan mamlakatni bildiradi. Keyingi 4 raqam tovari ishlab

chiqaruvchi korxona kodini bildiradi. Undan keyingi 5 raqamni korxona o'z tovarlariga raqam qo'yib chiqish uchun foydalanadi. Shtrixli kodning so'ngi raqami nazorat uchun ajratilgan bo'lib, uning qiymatini kompyuter beradi. Shtrixli kod savdoda tovarlarni tamg'lash uchun keng foydalaniladi. Shtrixli kodlarga tegishli standartlar 1977 yildan buyon mavjud.

Ch ch

chala funksional ixtisos

ingl.: collapse functional profile

rus.: коллапсный функциональный профиль

qarang: chala funksional profil

chala funksional profil

ingl.: collapse functional profile

rus.: коллапсный функциональный профиль

Bir yoki bir necha pog'onalalar yetishmaydigan soxta to'la funksional profil. Chala profilda yetishmagan pog'onalalar funksiyalari shunchalik soddalashganki, ular boshqa pog'onalalar vazifalari tarkibiga kiritilgan.

Chala profillar paydo bo'lishi juda sodda va tez ishlaydigan mahalliy tarmoqlar yaratish imkonini ochdi. Tabiiyki, bu afzalliliklar o'zaro ishlash sohasidagi qator funksiyalarni o'ta soddalashtirish evaziga yuzaga kelgan.

Shu munosabat bilan, bunday profillarning imkoniyatlari ma'lumotlarni berishda va seanslar o'tkazishda cheklangan. Bundan tashqari, bu holda kommunikatsiya tarmog'i orqali ma'lumotlar uzatish soddalashtirilgan.

chaqiriqlarga ishlov berish markazi

ingl.: call centre

rus.: центр обработки вызовов

Ma'lumotlarni xilma-xil turlarini uzib-ulyadigan va bir qator xizmatlarni taqdim qiladigan axborot tizimi. Markaz telefoniya xizmati bilan bog'langan bo'lib va korporativ tarmoq tizimlari bilan o'zaro ishlaydi. Markaz bajaradigan asosiy vazifalar:

- hududiy va mahalliy tarmoqlardan kelayotgan telefon chaqiriqlarini qabul qilish va ularga ishlov berish;
- MB, bo'lim va xodimlar orasida chaqiriqlarni yo'naltirish;
- abonentlarni, shu jumladan ularning ismlarini aynanlash;
- nutqiylarini ta'minlash;
- faksimil aloqa bo'ylab xabarlar uzatish.

Chaqiriqlarga ishlov berish markazlari biznesning muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Ularni yaratishda moliya

tashkilotlari bilan sayyohlik byurolari oldinda borishmoqda.

chastota

ingl.: frequency

rus.: частота

Vaqt birligi, masalan, bir soniya ichida davlar yoki tugallangan o'zgarishlar soni. Umuman olganda chastota ma'lum vaqt birligida ma'lum hisobni bildiradi. Hulq-atvor tahlilida chastotaning eng tarqalgan o'chovи bu bir daqiqaga javoblar soni.

chastotani taqsimlash bilan ko'p tomonidan erkin foydalanish

ingl.: Frequency Division Multiple Access (FDMA)

rus.: множественный доступ с разделением частоты

Kanalda mantiqiy kanallarni hosil qiluvchi chastota polosalari guruuhlaridan foydalanishga asoslangan ko'p tomonli erkin foydalanish. FDMAdan foydalanganda kanalning keng o'tkazish polosasi muhofaza polosalari bilan ajratilgan bir necha tor polosalarga bo'linadi. Har bir tor polosada mantiqiy kanal hosil qilinadi. Tor polosa o'chamlari turli xil bo'lishi mumkin. Ushbu kanallardan uzatiladigan signallar turli tashuvchilar ustiga qo'yilishi uchun chastota sohasida bir-biri bilan kesishishi mumkin emas.

chat

ingl.: chat

rus.: чат

Kompyuter tarmog'i yordamida voqeiy vaqtidagi muloqot.

cheklangan foydalanishdagi tarmoq

ingl.: limited use communication network

rus.: сеть связи ограниченного пользования

Cheklangan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar guruuhiga aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan elektr aloqasi tarmog'i.

chekli avtomat

ingl.: finite-state machine

rus.: конечный автомат

Axborotga ishlov berishga mo'ljallangan, chekli xotira qurilmasi modeli. Chekli avtomat, axborotga ishlov berish qurilmalarini yaratishda keng ishlataladigan model bo'lib hisoblanadi. Chekli avtomatlarning ikki smfini, ya'ni, sinxron va asinxron turlarini farqlashadi.

Ch

Asinxron avtomat asosida yaratilayotgan qurilmalar amallar bajarishda yuqori tezlikka ega. Ammo, sinxron avtomatlar qisqa muddatlarda ishlab chiqiladi, yengil sozlanadi va takomillashtiriladi. Sinxron avtomatlar sinxron qurilma bo'lgan kompyuterlar bilan oson tutashtiriladi. Chekli avtomatlar integral sxemalar asosida yaratiladi.

chertish

ingl.: click

rus.: клик

Reklama banneriga yoki matnli murojaatga bosish (sichqoncha tugmchasini keltirib chertish).

chip

ingl.: chip

rus.: чип

Integral sxema o'rnatilgan yarimo'tkazgich moddaning (odatda silikon) kichik bo'lagi. Oddi chip millionlab elektron tarkibiy qismlardan (tranzistorlardan) iborat bo'lishi mumkin. Kompyuterlar choplangan sxemaviy plata deb nomlangan elektron asosga o'rnatilgan ko'plab chiplardan iborat.

chipset

ingl.: chipset

rus.: чипсет

Protsessorni o'rab olgan mikrosxemalar. Tizim (ona) platasida joylashgan mikrosxemalar to'plami.

chiqindi tozalash

ingl.: garbage clean

rus.: убирать мусор

Qoldiq ma'lumotlar ichida nozik axborotni topish maqsadida ruxsatsiz izlash.

chit

ingl.: cheat

rus.: уум

Asosan kompyuter o'yinlarida o'yinni sinovdan o'tkazish uchun qo'llaniladigan maxsus kodlar. Ushbu kodlar, masalan, qahramon o'imasligi uchun, keyingi bosqichlarga o'tish uchun imkoniyatlar beradi. Odatda chitlarni Internetda osonlik bilan topish mumkin.

chiziqli printer

ingl.: line printer

rus.: линейный принтер

Bir payning o'zida butun qatorni chop etuvchi yuqori tezlikka ega bo'lgan printer. Tezkor chiziqli printer daqiqaga 3000 qatorgacha chop etishi mumkin. Chiziqli printerlarning kamchiligi ularning grafikani chop etaolmasligi, past chop etish sifati va ish paytida qattiq shovqinlar bo'lishidir.

chop etgich ajrataolishi

ingl.: printer resolution

rus.: разрешение принтера

qarang: printer ajrataolishi

chop etish rusumi

ingl.: print version

rus.: версия для печати

Veb-sayt sahifasining "arxitektura isrofarchiliklari" siz, ya'ni qog'ozga chiqarilgan sahfada o'rinsiz bo'lgan dizayn elementlarisiz xili. Chop etish uchun rusumlarning mavjudligi Internet OAV va umuman kontent saytlari uchun tavsiflidir.

chop etuvchi

ingl.: printer

rus.: принтер

qarang: printer

choplama

ingl.: listing

rus.: распечатка

Ma'lumotlarni yoki dasturlarni printer orqali taqdim etish. Choplamaning mohiyati, biror-bir narsa ro'yxatini tuzishdadir (yaratishda). Informatikada bu, avval, printer yordamida matnlarni, dasturlarni, kodlarni choplash bilan bog'liq bo'lgan. So'ngra, choplama deb ixtiyoriy choplangan hujjatni atay boshladilar.

cho'ntak shaxsiy kompyuteri

ingl.: palmtop personal computer

rus.: карманный персональный компьютер

qarang: kissa shaxsiy kompyuteri

Cc

C# tili

ingl.: C# language

rus.: язык C#

Ingliz tilida «see-sharp» deb talaffuz qilinadi. Microsoft .NET maslagi uchun obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tili. Ci va C++ tillarining chatishmasi bo‘ldi. Microsoft kompaniyasi tomonidan Sun kompaniyasining Java tiliga raqobatdosh sifatida ishlab chiqilgan. Microsoft kompaniyasining mutaxassislari aytishlaricha, C# o‘zida C++ tilining quvvatini va Visual Basic muhitini soddaligini mujassamlantirgan. C# veb-qo‘llanmalarini ishlash tezligini va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan. Til qat’yan statistik namunalashgan bo‘lib, qat’iy obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tili emas (obyektlar turlaridan tashqari ma‘lumotlar turlariga ega). U polimorfizm, operatorlarning ortiqcha yuklanishi, ko‘p oqimli hisoblar, vakil - funksiyalar, hodisalar, xossalalar, istisnolar va XML formatidagi sharhlarni quvvatlaydi va chiqindilarni avtomatik tarzda yig‘adi. C# ilk bor 2000 yilda chiqqan, uning so‘nggi rusumi bo‘lib C# 2.0 hisoblanadi.

C++ tili

ingl.: C++ language

rus.: язык C++

Bell Labs kompaniyasida Bjarne Stroustrup tomonidan ishlab chiqilgan yuqori pog‘onadagi dasturlash tili. C++ tili C tilini obyektga yo‘naltirilgan funksiyalar bilan to‘ldiradi. C++ tili, Windows va Macintosh muhitida ishlaydigan grafik qo‘llanmalarini yaratish uchun mo‘ljallangan eng ommaviy tillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

C1

qisq.: C1 security

C1 xavfsizlik pog‘onasi. Tizimdan ruxsat etilmagan erkin foydalanishdan muhofazalanganligi pog‘onasi uchun NSA standarti. Tizimdan erkin foydalanish

tartibotlariga rioya qilishni talab qiladi, guruhiy identifikatorlarni ishlatishga yo‘l beradi.

C2

qisq.: C2 security

C2 xavfsizlik pog‘onasi. Tizimdan ruxsat etilmagan erkin foydalanishdan muhofazalanganligi pog‘onasi uchun NSA standarti. Foydalanuvchilarni muvofiqlash uchun faqat shaxsiy identifikatorlarni ishlatishni hamda audit vositalari bo‘lishini talab qiladi.

C2B

qisq.: Customer To Business

Istyemolchi biznes uchun – elektron tijorat turi, unda istyemolchiga kompaniyalar taklif qilayotgan turli tovarlar va xizmatlarga mustaqil ravishda narx qo‘yish imkonini beriladi. Shunday qilib talab shakllanadi, lekin bu so‘ralgan narxda sotuv yuz berishini anglatmaydi. Sotuvchi joriy so‘rovlar natijalariga ko‘ra, yakuniy qaror qabul qiladi.

C2C

qisq.: Customer To Customer

Istyemolchi istyemolchi uchun - elektron tijorat turi, uning mohiyati istyemolchilar orasida tovarlar va xizmatlar sotilishida. Bu holda sayt sotuvchi va xaridor orasidagi vositachi o‘rnida harakat qiladi. Misol tariqsida, yetakchi Rossiya aukcionlaridan biri www.molotok.ru ni keltirish mumkin, unda har bir xoxlovchi sotishi yoki xarid qilishi mumkin.

CA

qisq.: Computer Associates

Computer Associates kompaniyasi. AQSH dagi dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchisi.

Cabletron Systems korporatsiyasi

ingl.: Cabletron Systems corporation

rus.: корпорация Cabletron Systems

Axborot tarmoqlari uchun jihozlarni yetkazib beruvchi kompaniya. AQSHda yaratilgan Cabletron Systems kompaniyasi tarmoqni boshqarish maslagini yaratish uchun mo‘ljallangan dasturlar majmuuni ishlab chiqqan. Kompaniya tafakkurga ega to‘plagichlarning yetakchi yetkazib beruvchisidir.

CAD

qisq.: Computer-Aided Design

qarang: kompyuterlashgan loyihalash

CADDIF

qisq.: CAD Data Interchange Fopmat

CADDIF formati. CAD-tizimlari orasidagi ma'lumotlar almashish formati.

CAE

qisq.:

1. Computer-Aided Engineering - Muhandislik mehnatini kompyuterlashtirish. Modellashtirish, sxemotexnika va mahsulotlar sinashga oid muammoli masalalar yechadigan, kompyuterlashgan loyihalashning mustaqil sohasi.
2. Common Application Environment - Ko'rsatmalarning umumiy muhiti.

CAI

qisq.: Computer-Aided Instruction

Kompyuter yordamida o'qitish. Maxsus o'qitish dasturini ishlatib o'qitish.

CALS

qisq.: Computer-Aided Logistics System

qarang: kompyuterlashgan logistik tizim

CAM

qisq.: Computer-Aided Manufacturing

qarang: kompyuterlashgan ishlab chiqarish

Canon korporatsiyasi

ingl.: Canon corporation

rus.: корпорация Canon

Turli xil kompyuterlashtirilgan qurilmalarni yaratish va ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kompaniya. Canon kompaniyasi o'zining lazer printerlari va purkovchi printerlari tufayli keng keng shuhrat qozongan.

CAS

qisq.: Computer-Aided System

qarang: kompyuterlashgan tizim

CASE

qisq.: Computer-Aided Software Engineering

qarang: kompyuterlashgan dasturiy ta'minot ishlab chiqish

CAST

qisq.: Computer-Aided Software Testing

Dasturiy ta'minoti avtomatlashtirilgan testlash.

CATV

qisq.: Cable TeleVision, Cable TV

Kabelli teleko'sratuvlar.

CAV

qisq.: Constant Angular Velocity

O'zgarmas burchak tezligi.

CBR

qisq.: Constant Bit Rate

Ma'lumotlar oqimining o'zgarmas tezligi.

CC

qisq.: Carbon Copy

Ko'chirma nusxa (ko'chirma). e-mail xabarlarda - xabar ko'chirma nusxasi yuboriladigan manzil.

CCD

qisq.: Charge Coupled Device

Zarad aloqali qurilma.

CCITT

qisq.: Consultative Committee for International Telegraph and Telephone

Telegrafiya va telefoniya bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasi. Bu Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) qo'mitasi, u o'z navbatida, BMT ning qismidir. Bu qo'mita vazifalariga xalqaro xabarlar uchun standartlar ishlab chiqish va tasdiqlash kiradi.

CD

qisq.: Compact Disc

qarang: ixcham disk

CDCS

qisq.: Continuous Dynamic Channel Selection

Kanalni uzlusiz dinamik tanlash. DECT da kanal tanlash usuli.

CDDI

qisq.: Copper Distributed Data Interface

FDDI arxitekturasini 5 toifadagi o'rama juftlikda RJ-45 ularni bilan sof elektrik tarzda amalga oshirilishi. Optik amalga oshirilish usuliga qaraganda anche arzon, ammo segment uzunligi 100 m bilan cheklanadi, mahalliy halqalarda ishlataladi. Bunda turli ishlab chiqaruvchilarning apparatlari o'zarlo aloqada to'g'ri ishlashi amalga oshirishida kafolatlanmaydi.

CDE

qisq.: Common Desktop Environment

Stol ustidagi kompyuterlar uchun umumiy muhit.

CDF

qisq.: Channel Definition Format

Kanalni tavsiflash formati. Axborot kanalini tavsiflash uchun XML tiliga asoslangan format. Axborotni nashr etuvchilardan obunachilarga avtomatik tarzda yetkazishni ta'minlaydi.

CDFS

qisq.: Compact Disk File System

Ixcham-diskning fayl tizimi, CDFS fayl tizimi.

CDI

qisq.: Compact Disk Interactive

(xuddi shunday CD-I ham). O'zaro faol ixcham-disk. Ixcham-diskka yozish formatlaridan biri.

CDIF

qisq.: Case Data Interchange Format

CASE-tizimlar uchun ma'lumotlar bilan almashish formati, CDIF spetsifikatsiyasi.

CDM

qisq.:

1. Code Division Multiplex – (kanallarni) Kodli ajratish bilan to'plamli uzatish.
2. Conceptual Data Model – Ma'lumotlarni konseptual modeli. Relyatsion ma'lumotlar bazasini, uning jismoniy amalga oshirilishini hisobga olmaydigan mavhumlashgan modeli.

CDMA

qisq.: Code Division Multiple Access

qarang: kodli ajratishli ko'p tomonidan erkin foydalanish

CDPD

qisq.: Cellural Digital Packet Data

qarang: uyalashgan raqamli paketlashgan ma'lumotlar

CDR

qisq.:

1. Call Detail Record – Qo'ng'iroq haqidagi mukammal yozuv. Telefon uzib-ulagichlari tomonidan saqlanadigan, aloqa operatorlarining billing tizimi hisob qilish uchun ishlataladigan axborot.

2. CorelDraw hujjati fayli.

CD-R

qisq.: CD-Recordable

Yozish imkoniyatlari [bir martali] ixcham-disk. Maishiy sharoitlarda maxsus CD-R-yuritmasi yordamida axborot yozish mumkin bo'lgan ixcham-disk. Diskni bitta maydoniga faqat bir marta yozish mumkin; ammo, qolqan axborot ulushlarini ham maydonning bo'sh qismiga yozib qo'yish mumkin, agar ishlatalayotgan CD-R-yuritma va dasturiy ta'minot bunday vazifani quvvatlasa,

CD-ROM

qisq.: Compact Disk Read-Only Memory

«Faqat o'qish uchun» ixcham-diski. CD-ROM yuritmalar uchun axborot tashuvchisi. Qator formatlarda yozilishi mumkin:

- CD-DA - Digital Audio – mumtoz audio disk. Amalda barcha yuritmalar tomonidan quvvatlanadi.
- High Sierra Format - HSF, yoki HSG - High Sierra Group - DOS, UNIX va boshqa operatsion tizimlar muhitidagi ma'lumotlardan erkin foydalanishning amalidagi standarti. Boshlang'ich yo'lkachasi - VTOC - Volume Table Of Contents diskni tashkillashi haqidagi axborotga ega.

- ISO 9660 - CD-ROM da axborotlar saqlash uchun birinchi standart (1988 yil), fayl tizimi MS-DOS nikiga o'xshash, fayllar nomi 8 belgili - nom sxemasiga ega, 3 nom kengaytmasi bor, kataloglarni ichiga joylashtirilishi 8 gacha boradi.

- PhotoCD – Kodak firmasi tomonidan yuqori sifatli tasvirlarni saqlash uchun ishlab chiqilgan.

- CD-I - CD Interactive –tovush hamrohligidagi video yozuv, standart televizorda videooynatgich bilan qayta eshittirish uchun ishlab chiqarilgan. Ayrim yuritmalar tomonidan quvvatlanmaydi.

- CD-ROM XA - eXtended Architecture – kengaytirilgan arxitekturasi, ISO 9660 va High Sierra disklar bilan uyg'unlashadi. Asl nusxani yaratishda Interleaving – audio-va videoaxborot ma'lumotlarini segmentlarini navbatlashtirish ishlatiladi. Audio signal ADPCM (Adaptive Differential Pulse Code Modulation) usuli bilan zichlashtiriladi.

- Video CD - MPEG formatda yuqori sifatli raqamli video yozuv, dasturiy yoki apparat MPEG-dekoderli kompyuterda qayta eshittirilishi mumkin.

– CD Plus – musiqiy ko‘p tashuvchi disklar, ikki sessiyaga ega – audio (ixtiyoriy standart audioo‘ynatgichda qayta eshittiriladigan) va CD-ROM.

CD-RW

qisq.: CD ReWriteable

Qayta yoziladigan ixcham-disk. Ko‘p marta (bir diskga 1000 davrgacha yozish) qayta yozish imkoniyatiga ega ixcham-disk.

CEE

qisq.: Central and East Europe

Markazi va Sharqi Yevropa.

CEO

qisq.: Chief Executive Officer

Ijrochi direktor.

CERN

qisq.: Conseil Europeen pour la Recherche Nucleaire
Yevropa yadro tadqiqotlari markazi. CERNda WWW texnologiyasi ishlab chiqilgan.

CERT

qisq.: Computer Emergency Response Team

Kompyuter «tez yordam» guruh. Kompyuter xavfsizligi masalalari bilan shug‘ullanadigan tashkilot.

CET

qisq.: Central European Time

Markaziy-Yevropa vaqt. Vaqt kamari +1:00 GMT.

CFO

qisq.: Chief Financial Officer

Moliya direktori.

CGA

qisq.: Color Graphics Adapter

Rangli grafika moslashtirgichi, CGA moslashtirgichi. IBM PC XTda ishlatilgan edi, mukammalroq EGA va VGA standartlari tomonidan siqib chiqarilgan.

CGI

qisq.: Common Gateway Interface

Ummiy shluz interfeysi. Server jarayonlarini tashqi qo‘llanmalar bilan o‘zaro aloqada ishlashi uchun standart. Jismonan bitta kompyuterda joylashgan, web-server va boshqa dasturiy ta‘minotlar orasidagi ma‘lumotlar almashuvini tavsiflovchi qoidalar yig‘masi

bilan belgilanadi. Xususan, HTTP-server tashqi dasturlari chaqirish uchun CGI ni ishlatsi mumkin. Ular web-saytning HTML-sahifalarini dinamik tarzda shakllantiradi. CGI standarti bo‘yicha o‘qish/yozishni uddalay oladigan har qanday dastur CGI dasturi bo‘laoladi.

cgi-bin

Veb-server tomonidan bajarilayotgan dasturlar saqlanayotgan veb-server katalogi nomi. Odatda bu CGI yoki Perl tilida yozilgan dasturlardir. Ushbu dasturlar yordamida veb-server dinamik veb-sahifalarini shakllantiradi.

CHAP

qisq.: Challenge Handshake Authentication Protocol
Aloqa o‘rnatilganda so‘rovga ko‘ra muvofiqlash bayonnomasi, CHAP bayonnomasi. Tarmoq qurilmalari orasida aloqa o‘rnatilganda parollar bilan almashish bayonnomasi. Keyingi vaqtarda kam qo‘llanmoqda.

Chill tili

ingl.: Chill language

rus.: язык Chill

Telekommunikatsiyalarda foydalanish uchun ITU tomonidan taklif qilingan yuqori pog‘onadagi til. Telefon va boshqa kommunikatsiya tarmoqlarida avtomatlashtirilgan majmualarni dasturlash uchun xalqaro standart sifatida qabul qilingan til. Chill haqiqiy vaqt maromida ishlaydigan tizimlar faoliyatini tavsiflaydi.

Ci tili

ingl.: C language

rus.: язык C

Yuqori pog‘onadagi dasturlash tili. Bell Labs kompaniyasida Dennis Ritchie tomonidan 1970 yil o‘rtalarida ishlab chiqilgan. Si tilidagi birinchi ahamiyatli dastur UNIX operatsion tizimi bo‘ldi, bundan keyin bir necha yil davomida Si tili UNIX bilan chambarchas bog‘landi. Ammo, hozirga kelib, Si tili UNIX dan mustaqildir. Soddalik, samaradorlik va boshqa operatsion tizimlarga yengil ko‘chirish imkonи bu tilni keng tarqalgan tillardan biriga aylantirdi. Si tilida zamонавиyy yuqori pog‘onadagi tillarning alomatlari va Assembler tili bilan uyushadigan kompyuterni texnika vositalarini manzillash imkonи muvaffaqiyatlаро qo‘shilib ketgan. Si tili kasbiy dasturchilarни

jalg qiladigan qulay sintaksisiga ega. Si tili ISO tomonidan standart sifatida tasdiqlangan. Obyektga-yo'naltirilgan me'moriy tuzilmadan foydalanilishi kengaytirilgan C++ tili paydo bo'lishiga olib keldi.

CICS

qisq.: Customer Information Control System
Abonent axborot-boshqarish tizimi. IBM ning meynfreymlar uchun dasturiy mahsuloti.

CIDR

qisq.: Classless InterDomain Routing
Sinsiz o'zaro domenli yo'naltirish.

CIFS

qisq.: Common Internet File System
Tarmoqlararo umumiy fayl tizimi.

CIM

qisq.: Computer-Integrated Manufacturing
qarang: ishlab chiqarishni kompyuterlashgan avtomatlashtirish

CIO

qisq.: Chief Information Officer
Axborotlashtirish bo'yicha boshqaruvchi.

CISC

qisq.: Complex Instruction Set Computer
To'la buyruqlar to'plamiga ega kompyuter, CISC arxitekturasi. Turli, odatda o'zgaruvchan uzunlikka ega bo'lgan mashina buyruqlari (ko'rsatmalari) to'plami katta bo'lgan hammabop protsessor turi.

Cisco Systems korporatsiyasi

ingl.: Cisco Systems corporation
rus.: корпорация Cisco Systems
Tarmoq jihozlarini yetakchi ishlab chiqaruvchilaridan biri. Cisco Systems kompaniyasi AQSHda 1984 yilda yaratilgan. Cisco asosiy maqsadi telekommunikatsiyalar bozori uchun tugallangan tarmoq yechimlarini yaratish va tadbiq qilishdir. Kompaniya serverlar, shluzlar, yo'naltirgichlar, uzib-ulagichlar, ko'priklar, tarmoqni boshqarish dasturlarini ishlab chiqaradi.

CJK

qisq.: Chinese, Japanese, Korean
Xitoycha, yaponcha, koreyscha. Yozuvi yerogliflarga asoslangan keng tarqalgan tillar.

Odatda, dasturiy mahsulotda CJKni quvvatlash, yeroglif ishlatiladigan boshqa tillarni ham quvvatlanishini bildiradi

CLI

qisq.: 1. Call Level Interface - SQL-so'rovlarini chaqirish uchun API. SAG guruhni tomonidan API spetsifikatsiyasi SQL-so'rovlarini chaqirish uchun ishlab chiqilgan.

CLR

qisq.: Common Language Runtime
Ijroning umumitlli muhiti. Microsoft kompaniyasining NET maslagagini ijo etuvchi muhitini belgilanishi.

CLUT

qisq.: Color Look-Up Table
Rangni izlash [va almashtirish] jadvali. Videomosalashtirgichlarda ishlatiladi.

CLV

qisq.: Constant Linear Velocity
Doimiy chiziqli tezlik. O'qiydigan kallakni diskning chekkasi bilan markazi orasidagi harakatida uning aylanish tezligi o'zgarishini anglatadigan ixcham-disklarni yuritmasining tavsifnomasi. Aynan shu yo'l bilan o'qish-yozishga o'zgarmas tezlikka erishiladi.

CMIP

qisq.: Common Management Information Protocol
qarang: boshqaruvchi axborotning umumiy bayonnomasi

CMIS

qisq.: Common Management Information Services
Umumiy boshqaruvchi axborot xizmati.

CMOS

*qisq.: 1. Complementary Metal-Oxide Semiconductor - Komplementar metall-oksidli yarimo'tkazgich, KMOP-teknologiya. Elementlarni yuqori zichlikda joylashtirish va kam energiya talab qilishni ta'minlaydigan mikrosxema yasash texnologiyasi.
2. Shaxsiy kompyuterning ona platasidagi CMOS-xotira mikrosxemasi. Kompyuterning tarkibiy tuzilmasini saqlash uchun xizmat qiladigan hajmi katta bo'lmasan energiyaga mustaqil xotira.*

CMOT
qisq.: CMIT Over TCP

TCP/IP tarmoqlarida CMIP boshqaruv bayonnomasi.

CMYB*qisq.: Cyan, Magenta, Yellow, Black*

Havo rang, to‘q qizil, sariq, qora, CMYB formati. Rangli tasvirlarni choplash uchun ranglar jilosi.

CMYK*qisq.: Cyan, Magenta, Yellow, black*

Havo rang, to‘q qizil, sariq, qora, CMYK formati. Rangli tasvirlarni choplash uchun ranglar jilosi.

CNN*qisq.: Cellular Neural Network*

Katakli neyron tarmoq.

CNR*qisq.: Communication and Network Riser*

Kommunikatsiya va tarmoqlar uchun ularash uyasi. Kompyuterlarning ona platasiidagi kengaytirishning standart ularash uyasi.

COB*qisq.: Close Of Business*

Ish kunining tugashi.

COBOL tili*ingl.: COBOL language**rus.: язык COBOL*

COBOL (Common Business Oriented Language), «biznesga yo‘naltirilgan hammabop til». U 1950 yillar oxiri 1960 yillar boshida ishlab chiqilgan, FORTRAN tilidan so‘ng eng eski yuqori pog‘onadagi dasturlash tili bo‘lib hisoblanadi. Bu til, katta kompyuterlarda bajariladigan biznes-qo‘llanmalarni ishlab chiqishda alohida tarqalib ketdi. Ingliz tiliga yaqinlashtirilgan, fayllar va yozuv shakllari bilan ishlashning rivojlangan vosomalari bilan ajralib turadi. COBOL tilida ish hujjatlari uchun namunaviy bo‘lgan tuzilmaga ega ma’lumotlar yaxshi tavsiflanadi. Unda masalalar dastlabki tayyorgarliksiz bayon qilinishi mumkin.

CODASYL*qisq.: Conference on Data Systems Language**qarang:* axborot tizimlari tillari bo‘yicha konferensiya**COM***qisq.:*

1. Component Object Model – Tarkibiy qismli obyektlı model. Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy tarkibiy qismalar modeli. U o‘zining interfeyslarini deklaratsiya qilib va ularda tavsiflangan xizmatlarni boshqa tarkibiy qismrlarga taqdim qiladi.

2. COMmunication port - Kommunikatsiya porti. Shaxsiy kompyuterning stadart ketma-ket interfeysi. 115 Kbit/s,gacha tezlik bilan ma’lumotlar almashuvini quvvatlaydi.

COM+

(xuddi shunday DCOM ham) Taqsimlangan tarkibiy qismli obyektlı model. Tarkibiy qismarlarni tarmoqda o‘zaro aloqada ishslashini quvvatlash uchun COM kengaytirmasi.

COMDEX*qisq.: Computer Distributor EXposition*

(xuddi shunday Comdex ham) COMDEX ko‘rgazmasi. Dunyodagi har yili bo‘lib o‘tagidan kompyuter ko‘rgazmalarining eng yiriklaridan biri.

Compaq Computer korporatsiyasi*ingl.: Compaq Computer corporation**rus.: корпорация Compaq Computer*

Shaxsiy kompyuterlар ishlab chiqaruvchilar orasida yetakchilardan biri. Kompaniya 1982 yilda Rod Canion, Bill Murto va Jim Harrislar tomonidan yaratilgan bo‘lib, qarorgohi AQSHda (Xouston sh.) joylashgan. Compaq serverlar, ish stansiyalari, peroli planshetlar va ixcham shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqaradi. Compaqnинг axborot tizimlari seriyasi videoanjumanlar uchun mo‘ljallangan. 2002 yilda Compaq kompaniyasi Hewlett Packard kompaniyasi bilan birlashgan.

CORBA*qisq.: Common Object Request Broker Architecture*
Obyektlı so‘rovlar brokerining umumiy arxitekturasi. Taqsimlangan hisoblashlar uchun rivojlantirilayotgan OMG standarti. CORBA ning asosiy qismari: ORB va GIOP bayonnomasi spetsifikatsiyasi, IDL tili, asosiy obyektlı xizmatlar (COS).**COS***qisq.:*

1. Common Object Services – Umumiy obyekt xizmatlari. CORBA uchun OMG quvvatlaydigan qo'shimcha xizmatlarni (kengaytmalarni) spetsifikatsiyalari yig'masi.
2. Class Of Service – Xizmat sinfi.

CPAN

qisq.: Comprehensive Perl Archive Network
PERL tili uchun juda keng resurslarning tarmoq arxivsi.

CPD

qisq.: Certified PowerBuilder Developer
PowerBuilder da sertifikatli ishlab chiquvchi.

cpi

qisq.: Characters Per Inch
Belgilari dyumda. Choplashda qatorda joylashgan ishoralar zichligi.

cps

- qisq.:*
1. Characters Per Second – Belgi soniyada. Matn shaklidagi ma'lumotlarni uzatish yoki choplash tezligini o'lchash birligi.
 2. Cycles Per Second – Marta soniyada. Chastota (Gers, Hz, 1/s) o'lchov birligi.

CPU

qisq.: Central Processing Unit
Markaziy protsessor.

CR

qisq.: Carriage Return
Karetkani orqaga qaytarish. ASCII boshqaruvchi belgisi.

CRC

qisq.:

1. Cyclical Redundancy Check – Davriy oshiqcha kod yordamida nazorat qilish. Ma'lumotlarni uzatishda va saqlashda butunlikkni nazorat qilish usuli. Maxsus algoritim yordamida ma'lumotlar paketining nazorat yig'indisi hisoblanadi, hamda shu paket bilan birga uzatiladi. Nazorat yig'indisini hisoblash algoritmi ishlatalayotgan ma'lumotlarni uzatish bayonnomasi bilan belgilanadi. Qabul qiluvchi qurilma ma'lumotlar paketining nazorat yig'indisini qayta hisoblaydi. Qabul qilingan va hisoblangan nazorat yig'indilarining mos kelmasligi ma'lumotlar uzatishdagi xato borligini bildiradi, bu holda, odatda qabul qiluvchi qurilma xatolik

yuz bergen paketni takroran uzatishiga so'rov beradi.

2. Class-Responsibility-Collaboration – Sinf-Javobgarlik-Kooperatsiya. Obyektga yo'naltirilgan loyihalashning katta bo'limgan CRC-kartalarni to'ldirishga va muhokama qilishga asoslangan oddiy usuli

CRISP

qisq.: Complex Reduced Instruction Set Processor
Buyruqlar yig'masi qisqartirilgan CISC-protsessori. CRISP-arxitekturali protsessorlar CISC va RISC orasidagi oraliq rusumdir.

CRM

qisq.: Customer Relations Management
Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish. Korxona miqyosidagi axborot tizimlari sinfi, ularning asosiy vazifasi mijozlar bilan o'zaro aloqada ishlashni rejalashtirish va nazorat qilish, shu jumladan Internet orqali.

CRT

qisq.: Catode-Ray Tube
qarang: katod nurli trubka

CRUD

qisq.: Create, Retrieve, Update, Delete
Yaratish, tanlash, o'zgartirish, yo'q qilish.

CSA

qisq.: Canada Standards Association
Kanadada joylashgan tashkilot, elektron vositalarni xavfsizlikka sertifikatlash uchun javobgar.

CSLIP

qisq.: Compressed Serial Line Internet Protocol
Zichlashtirishga asoslangan ketma-ket liniya uchun Internet bayonnomasi, CSLIP bayonnomasi. SLIP bayonnomasining paketlar sarlavhalarini zichlashtirilgan rusumi.

CSMA/CA

qisq.: Carrier Sense Multiple Access with Collision Avoidance
Tashuvchisini eshitib turadigan va to'qnashuvlarga chap beradigan to'plamiy erkin foydalanish.

CSMA/CD

qisq.: Carrier Sense Multiple Access with Collision Detection

qarang: uzatish nazorati va to'qnashuvlarni aniqlash bilan ko'p tomonidan erkin foydalanish

CSS

qisq.: Cascading Style Sheets

Stillarning kaskadli jadvallari. HTML-hujjatni aks ettirish haqidagi axborotni yozish usulini tavsiflovchi W3C standarti. Faqat aks ettirishga javobgar ko'rsatmalarini ayrim faylga ajratadi va ularni xar xil HTML-hujjatlarga tatbiq qilishga imkon beradi. CSS ning asosiy maqsadi hujjatni tuzilmasini uning rasmiylashtirilishidan ajratib olishdir va mazmunning u yo bu elementi qanday bo'lishini sahifa muallifiga havola qilishdir. CSS u yo bu teglarni (masalan, sarlavhalarni yarim qalin qilib chizish) faqtgina «majburiy» formatlashdan ozod qilibgina qolmay, balki, oldin orzu qilinmagan yangi erkin harakat pog'onalarini ham kiritadi (masalan, o'zarolinyajni – matn qatorlari orasidagi masofani, o'zgartirish imkoni). Odatda CSS stillar kutubxonasini yaratish uchun ishlatiladi, ular keyin ko'pchilik HTML-sahifalarda ko'p marotaba ishlatiladi. Buning evaziga, butun veb-saytning stillarini o'zgartirish uchun birgina CSS faylida o'zgartirish kiritish yetarli.

CSS1

qisq.: CSS level 1

CSS ning 1-rusumi.

CSS2

qisq.: CSS level 2

CSS ning 2-rusumi.

CSV

qisq.: Comma-Separated Values

Vergul bilan ajratilgan qiymat. Maydonlarining qiymatlari vergul bilan ajratiladigan ma'lumotlar formati.

CTR

qisq.: Click-Through Rate

Chertilish ko'rsatkichi. CTR bannerga chertishlar soni bilan uni ko'rsatish soniga nisbatli, foizlarda o'lchanadi. CTR so'zi «si-tiar» tarzida, yoki gohida»se-te-er» deb talaffuz qilinadi. CTR bannerni samarali ishlashini belgilaydigan muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

CUI

qisq.: Character-based User Interface

Foydalanuvchining matn interfeysi. Matn terminali interfeysi.

Cyrix korporatsiyasi

ingl.: Cyrix corporation

rus.: корпорация Cyrix

1988 yilda AQSHda yaratilgan va Intel bilan uyg'un mikroprotsessorlarni ishlab chiqaruvchi kompaniya. Cyrix protsessorlarining 6x86 seriyasini Intel kompaniyasining Pentium protsessorlari bilan taqqoslash mumkin. 1977 yilda Cyrix kompaniyasi National Semiconductor kompaniyasi, 1999 yilda esa VIA kompaniyasi tomonidan sotib olingan.

Ww

W2K

qisq.: Windows 2000

Windows 2000 operatsion tizimi.

W3C

qisq.: World Wide Web Consortium

qarang: umumjahon o'rgimchak to'ri konsorsiumi

WAI

qisq.: Web Application Interface

Veb qo'llanmalar uchun interfeysi, WAI interfeysi. Netscape kompaniyasi tomonidan veb-serverga nisbatan tashqi jarayonlarni chaqirish uchun mo'ljallangan API. Tashqi chaqirishlar uchun WAI CORBA dan foydalanadi, bu turli tillarda kengaytmalarni yaratish va veb-serverni taqsimlangan hisoblash muhitiga birlashtirish imkonini beradi.

WAIS

qisq.: Wide-Area Information System

qarang: global axborot tizimi

WAN

qisq.: Wide Area Network

qarang: hududiy tarmoq

WAP

qisq.: Wireless Application Protocol

Simsiz qurilmalar uchun bayonnomma, WAP bayonnomasi. Axborotning muhofaza qilingan almashuvi va Internetdan mobil terminallardan erkin foydalanish uchun bayonnomma to'plami. WAP Forum tomonidan ishlab chiqilgan.

WAP-brauzer

ingl.: WAP-browser

rus.: WAP-браузер

Bevosita mobil telefonidan hech qanday qo'shimcha qurilmasiz (modem va kompyuter) Internet tarmog'ining axborot va xizmatlaridan foydalanish imkonini beruvchi brauzer. WAP brauzerli telefon yordamida WML tilida yozilgan maxsus saytlarni (WAP saytlari) ko'rish imkonini beradi. WAP saytlari telefondarning kichik ekranlari uchun

moslashtirilgan, kichik hajm va eng kichik grafikaga ega. Masalan, faqat WAP brauzerli telefon yordamida ob-havo ma'lumoti, televizion dasturlar jadvalini ko'rish, so'nggi yangiliklarni o'qish mumkin.

WARM

qisq.: White And Read Many times

Ko'p martali yozish va o'qish.

WAV

qisq.: WAve

WAV formati. Zichlanmagan raqamlashtirilgan tovushni saqlash formati.

WBEM

qisq.: Web-Based Enterprise Management

Veb-interfeys asosida umumiyl boshqarish.

W-CDMA

qisq.: Wideband Code-Division Multiple Access

Kengyo'l-yo'lli CDMA (Code Division Multiple Access), W-CDMA texnologiyasi.

WD

qisq.: Western Digital

Western Digital korporatsiyasi.

WDM

qisq.: Wave[length] Division Multiplexing

Spektral zichlashtirish, to'lqin uzunligi bo'yicha bo'lish bilan multiplekslash. Optik tolali aloqa kanallari bo'yicha, ularning hamda oldindan o'tkazilgan kanallarning qo'shilgandagi o'tkazish qobiliyatini oshirish imkonini beruvchi ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi.

WDMA

qisq.: Wavelength Division Multiple Access

qarang: to'lqinni taqsimlash bilan ko'p tomonidan erkin foydalanish

WebDAV

qisq.: Web-based Distributed Authoring and Versioning

HTTP 1.1 spetsifikatsiyasiga tegishli, turli kompyuterlardan foydalanuvchi mualliflarga Internet fayllarini chop etish va qo'llab-quvvatlash imkonini beruvchi qo'llanmalar bayonnomasi. WebDAV fayl muallifi kabi fayl to'g'risidagi turli ma'lumotlarni saqlashni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu ma'lumotlar yordamida foydalanuvchilar faylga boshqa foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan



o‘zgarishlar natijalarini qayta yozmasdan ushbu fayl tarkibi va xususiyatlarini ko‘rishi va o‘zgartirishi mumkin.

WEP

qisq.: Wired Equivalent Privacy

WEP ma’lumotlarni muhofaza qilish bayonnomasi. 802.11x standartidagi simsiz tarmoqlarda ma’lumotlarni shifrlash uchun IEEE spetsifikatsiyasi.

WHQL

qisq.: Windows Hardware Quality Labs

Microsoft kompaniyasining apparatlari ta’minotini va uchinchi tomonlar drayverlarini Windows operatsion tizimi, amaliy tizimi bilan uyg‘unligini sinovdan o’tkazuvchi tuzilmasi. Uyg‘unlik talablariga javob beruvchi mahsulotlar keyinchalik o‘ramasida va reklama materiallarida Windows logotipi bilan belgilanishi mumkin. WHQL logotipini olgandan keyin, mahsulot Microsoft Hardware Compatibility List (uyg‘un apparatli ta’minot ro‘yxati)ga qo‘shiladi.

WIMP

qisq.: Windows, Icons, Menus, Pointing device

Oynalar, belgilar, menu, sichqoncha; WIMP interfeysi. Yuqorida sanab o‘tilgan elementlarni o‘z ichiga oluvchi foydalanuvchining grafik interfeysi.

Windows operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: Windows operating system

rus.: операционная система Windows

Microsoft korporatsiyasi tomonidan shaxsiy kompyuterlar uchun taklif qilingan operatsion tizimlar oilasi. Windows tizimi ko‘pmasalali va ko‘poqimli bo‘lib, qulay grafik interfeysi bilan tavsiflanadi, virtual xotiraning boshqaruvini taqdim qiladi va ko‘pgina tashqi qurilmalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Windowsni ishlatib, foydalanuvchi birdaniga bir necha amaliy jarayonlar bilan samarali ishslash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Dunyoda 90% ga yaqin kompyuterlar Windows operatsion tizimi boshqaruvida ishlaydi.

Windows 95 operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: Windows 95

rus.: операционная система Windows 95

Windows 95 aloqa va muloqot uchun ishlab chiqilgan birinchi operatsion tizimdir. Ilk bor

1995 yilning 24 avgustida chiqarilgan Microsoft korporatsiyasining operatsion tizimi, amaliy tizimi. Windows 95 o‘zining imkoniyatlariga ko‘ra o‘zidan avvalgi Windows 3.1. operatsion tizimi, amaliy tizimini ancha ortda qoldirgan. Foydalanuvchining yangi interfeysiiga qo‘sishma ravishda, Windows 95 o‘z ichiga ko‘pgina muhim yangitdan kiritilgan funksiyalarga ega. U, 32-xonali qo‘llanmalarini quvvatlaydi, bu esa, maxsus shu operatsion tizim uchun yaratilgan qo‘llanmalar yanada tezroq ishlashini anglatadi. Shu bilan birga, Windows 95, Windows va DOSning eski qo‘llanmalarini bajara oladi. Windows 95da, DOSdagi asosiy xotira 640K va fayl nomining uzunligi 8 belgi bo‘lishi kerakligi kabi cheklolvar bekor qilingan.

Windows 98 operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: Windows 98

rus.: операционная система Windows 98

Azalda, bu operatsion tizimni Memphis, so‘ngra Windows 97 deb ataldi, ammo Microsoft kompaniyasi, operatsion tizim muddatida, 1997 yilda tayyor bo‘lmaganligi sababli, uning nomini o‘zgartirishga majbur bo‘lgan. Windows 98 ko‘pgina yangi texnologiyalarni quvvatlash imkonini beradi, shu jumladan, FAT32, AGP, MMX, USB, DVD va ACPI texnologiyalarni ham. Uning eng sezilarli xossasi bo‘lib, veb-brauzer (Internet Explorer)ni operatsion tizim bilan uyg‘unlashtiruvchi, «Faol ish stoli» (Active Desktop) tushunchasi bo‘ladi.

Windows 2000 operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: Windows 2000

rus.: операционная система Windows 2000

Microsoft Windows operatsion tizimlari safidagi mahsulot, Windows NT operatsion tizimi, amaliy tizimining takomillashtirilgan rusumi. Windows 2000ni ko‘pincha W2K shaklida belgilanadi. Windows 2000 operatsion tizimi, amaliy tizimining to‘rt rusumi bor: Professional – stoldagi va mobil tizimlar uchun operatsion tizim. Qo‘llanmalarini ishlatish, Internet bilan ularish, fayllar, printerlar va tarmoq resurslaridan erkin foydalanish uchun ishlatiladi.

Server – veb-server sifatida ham, mahalliy tarmoq serveri sifatida ham ishlatiladi.

Advanced Server – biznes-qo‘llanmalar va elektron tijorat uchun ishlatiladi. Windows

2000 Server standart rusumidan yuqori masshtablanuvchanlik va erkin foydalanish qulayligi bilan ajralib turadi.

Datacenter Server – yuqori tezlikda ishlaydigan, katta hajmdagi ma'lumotlarga ishlov berish talab qilinadigan kompyuter tarmoqlarida foydalanish uchun yaratilgan.

Windows CE operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: *Windows CE*

rus.: *операционная система Windows CE*

Microsoft Windows operatsion tizimi, amaliy tizimining mobil PDA (personal digital assistants)ga o'xshash kompyuterlar uchun, qisqartirilgan rusumi, Windows CEning grafik interfeysi Windows 95ga o'xshash.

Windows NT operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: *Windows NT*

rus.: *операционная система Windows NT*

Windows New Technology (Windows ning yangi texnologiyasi) 32-bitli operatsion tizim bo'lib, Microsoft korporatsiyasi tomonidan Windows 95 va MS-DOSlarning o'rniغا taklif qilingan. Windows NTning auditoriyasi, kuchli operatsion tizimiga talabi bo'lgan, foydalanuvchilarning eng qiziquvchan 10% qismidir. Windows NTning asosiy ustunliklari quyidagilardir:

- funksional uyg'unlik;
- mobililik;
- masshtablanuvchanlik;
- tizimning boshqarilishi;
- ochiq interfeys;
- sanoat standartlarini quvvatlash.

Windows NT ning ikki rusumi mavjud: Windows NT Server, tarmoqlarda server sifatida ishslash uchun va Windows NT Workstation alohida yoki mijoz ish stansiyalari uchun ishlangan.

Windows XP operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: *Windows XP*

rus.: *операционная система Windows XP*

Microsoft korporatsiyasi tomonidan 2001 yilda taqdim qilingan operatsion tizim. Microsoft, Windows XPni Windows 95 chiqarilgandan buyon eng muhim dasturiy mahsulot deb atadi. Windows XP, Windows 2000ning o'zagida qurilgan bo'lib, yangi tashqi ifodaga va grafik interfeysga ega. Windowsning avvalgi rusumlariga nisbatan o'zaro yuqori barqarorlik

va ishonchlikni mujassamlashtirgan. Windows Xning ikki rusumi mavjud: Home va Professional. Microsoft har ikkala rusumning mobilligiga katta e'tibor qaratdi, shu jumladan, qo'shdı. Simsiz tarmoqlarga ularish uchun "plug-and-play" vositasini ham, Windows XPda «XP» «eXperience»ni anglatadi.

Windows reyestri

ingl.: *Windows registry*

rus.: *peecmp Windows*

Shajaraviy ma'lumotlar bazasi. U tizimga oid barcha axborotni markazlashgan ravishda Windows operatsion tizimida saqlaydi. Masalan, hisoblash tizimining tarkibiy tuzilmasi, o'rnatilgan dasturlar to'g'risida ma'lumot, foydalanuvchi tomonidan sozlanadigan turli ko'rsatkichlarning qiymatlari va sh.k. Foydalanuvchi reyestrda axborotni maxsus dasturlar yordamida o'zgartirishi mumkin, ammo, ma'lumotlarni malakasiz o'zgartirish tizimni ishga yaroqsiz holatga olib kelishi mumkin.

WINS

qisq.: *Windows Internet Naming Service*

Windows uchun Internet nomlari xizmati. Windows 2000 va Windows NT OT bilan birga yetkaziluvchi, kompyuterlar nomlari va ularning IP manzillari muvofiqligi mam'lumotlar bazasini qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qiluvchi dasturiy ta'minot. WINS dasturiy ta'minoti Windows asosidagi MHTda ishslash paytda DNS xizmatini to'ldiradi. WINS NetBIOS nomlarini ruxsat etish (nomni manzilga aylantirish) uchun xizmat qiladi.

Wintel

Windows operatsion tizimi va Intel mikroprotsessorni birikmasiga tegishli atama. Ba'zan atama Microsoft va Intel kompaniyalari o'rtaisdagi alyansni belgilash uchun istezholi manoda ishlatiladi. Bu Windows 3.x va Windows 95 tizimlari faqat x86 mikroprotessori me'moriy tuzilmasida amalga oshirilishi mumkinligi bilan bog'liq. Biroq, ta'kidlab o'tish kerakki, hozirgi paytda Windows OT boshqa turdag'i protsessorlarda ham yuklatilishi mumkin, Linux OT esa Intel mikroprotressorida yuklanishi mumkin.

qisq.: World Intellectual Property Organization
Jahon tafakkuriy mulk huquqlari tashkiloti.

WLAN

qisq.: Wireless Local Area Network
Simsiz ma'lumotlarni uzatish tarmog'i.

WMA

qisq.: Windows Media Audio

Windows uchun audiofayl formati, WMA formati. Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan tovushni kodlash uslubi.

WML

qisq.: Wireless Markup Language

qarang: WML gipermatnli belgi solish tili

WML gipermatnli belgi solish tili

ingl.: Wireless Markup Language (WML)

rus.: язык гипертекстовой разметки WML

WAP bayonnomasiga mos tarzda, axborotni mobil telefonning kichik ekranida aks ettirish uchun maxsus yaratilgan tili. XML tili asosida ixtisoslashgan markerlash tili. Internetda axborot resurslarini yaratish uchun foydalaniladi. Ularga WAP-uyg'unlashadigan uyali telefonlar va boshqa mobil terminallar yordamida ulardan erkin foydalanish mumkin.

WorkPlace operatsion (amaliy) tizimi

ingl.: WorkPlace operating system

rus.: операционная система WorkPlace

IBM korporatsiyasi tomonidan yaratilgan obyektga-yo'naltirilgan operatsion tizim. WorkPlace tizimi, keng tarqalgan turli operatsion tizimlar muhitida, amaliy jarayonlar faoliyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan. WorkPlace audiovideotizimlar, nutqqa ishlov, nurli pero bilan ishlash bo'yicha keng imkoniyatlarga ega.

World Com korporatsiyasi

ingl.: World Com corporation

rus.: корпорация World Com

Katta kommunikatsiya tarmoqlari operatori. World Com AQSHda kommunikatsiya tarmog'iga ega. World Com katta e'tiborni kadrlarni qayta uzatish tarmoqlariga qaratadi.

World Wide Web

qarang: umumjahon o'rgimchak to'ri

WSDL

qisq.: Web Services Description Language

Veb xizmatlarni tavsiflash tili, WSDL tili. XMLga asoslangan, Internet orqali taqdim etiladigan veb xizmatlarni tavsif qilish uchun xizmat qiluvchi til. Dastlab Microsoft, IBM va Ariba kompaniyalari tomonidan taklif qilingan. WSDLning (odatda «vizdal» deb talaffuz qilinadi) SOAP dunyosidagi vazifasi IDLning CORBA uchun vazifasiga taxminan teng.

WTLS

qisq.: Wireless Transport Layer Security

Transport pog'onadagi xavfsizlik. WAP standartining transport pog'onadagi bog'lanishlar xavfsizligiga javobgar elementi.

WWW

qisq.: World Wide Web

qarang: umumjahon o'rgimchak to'ri

WWW hujjati

ingl.: WWW document

rus.: документ WWW

qarang: veb-hujjat

WWW terminali

ingl.: WWW-terminal

rus.: терминал WWW

WWW xizmati bilan ishlashga mo'ljallangan terminal turi. Terminal klaviaturali qo'shimcha qurilma va televizordan iborat. Zarur bo'lganda, qo'shimcha qurilmaga printer va musiqa tizimi ulanishi mumkin. WWW terminali yordamida quydigilar mumkin:

- WWW ma'lumotlar bazasidagi axborotni izlash va ishlatish;
- elektron pochtani uzatish;
- talab qilingan mavzu bo'yicha yangiliklarni olish;
- videofilmlar sharhini va teleko'rsatuv eshittirishlarini ko'rib chiqish;
- mahsulotlarni xarid qilish.

WWW terminali birinchi navbatda uy sharoitida ishlatishga mo'ljallangan. Shu sababli, terminal boshqaruvi soddalashtiriladi, qator dastur va ma'lumotlar masalan, elektron pochta bolalar tomonidan ishlatilishi himoyalananadi.

WYSIWYG

qisq.: What You See Is What You Get

Ko'rgan narsangni olasan, WYSIWYG tamoyili. Dasturiy mahsulotning axborot resursini uni yaratish va tahrir qilish jarayonida u oxirgi foydalanuvchiga aynan taqdim etiladigan

shaklda aks ettirish xususiyati. «Vizivig» deb talaffuz qilinadi.

ILOVALAR

AXBOROT – KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI IZOHЛИ LUG'ATI

1. Inglizcha-O'zbekcha-Ruscha AKT Lug'ati
2. Ruscha-O'zbekcha-Inglizcha AKT Lug'ati
3. AKT rivojining asosiy tarixiy sanalari
4. Domenlar turlari
5. Standartlarni belgilovchi tashkilotlar va maxsus telekommunikatsiya guruhlari
6. Jahon va MDH AKT kompaniyalari
7. Milliy Internet xismatlari ko'ssatuvchi tashkilotlar
8. Jahon va MDH AKT nashrlari
9. Milliy AKT nashrlari
10. Internetda izlash tizimlari
11. AKT sohasida O'zbekiston veb manbalari
12. His-tuyg'u alomatlari
13. Pochta va chat shevasi

INGLIZCHA-O'ZBEKCHA-RUSCHA AKT LUG'ATI

INGLIZCHA	O'ZBEKCHA	RUSCHA
3COM corporation	3COM korporatsiyasi	корпорация ЗСОМ
403 ERROR	403 - xatolik	ошибка 403
404 ERROR	404 - xatolik	ошибка 404
absolute URL-address	mutlaq URL manzil	абсолютный URL-адрес
abstract syntax	mavhum sintaksis	абстрактный синтаксис
access auditing	erkin foydalanish nazorati	контроль доступа
access differentiation	erkin foydalanishi cheklash	разграничение доступа
access differentiation mode	erkin foydalanishi cheklash rejimi	режим разграничения доступа
access differentiation rules	erkin foydalanishi cheklash qoidalari	правила разграничения доступа
access differentiation system	erkin foydalanishi cheklash tizimi	система разграничения доступа
access differentiation tool	erkin foydalanishi cheklash vositasi	средство разграничения доступа
access identifier	erkin foydalanishi aynanlovchisi, erkin foydalanish identifikatori	идентификатор доступа
access management	erkin foydalanish pog'onasi	уровень доступа
access matrix	erkin foydalanish matritsasi	матрица доступа
access object	erkin foydalanish obyekti	объект доступа
access permission	erkin foydalanishga ruxsat	разрешение на доступ
access rules	erkin foydalanish huquqi	право на доступ
access to object	obyektdan erkin foydalanish	доступ к объекту
access to state secrets	davlat sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlarni olish	доступ к сведениям, составляющим государственную тайну
access type (in computer security)	erkin foydalanish turi	вид доступа (в защите компьютера)
account	akkaunt	Аккаунт
accreditation in information protection security sphere	axborotni muhofaza qilish sohasidagiakkreditatsiya	аккредитация в области защиты информации
acknowledgement of e-signature authenticity	elektron raqamli imzoning haqiqiyigini tasdiqlash	подтверждение подлинности электронной цифровой подписи
active hyperlink	faol gipermurojaat, faol giperishorat	активная гиперссылка
active line connection	tarmoqqa faol ulanish	активное подключение к линии
active threat	faol tahdid	активная угроза
active web node	faol veb bog'lamasi	активный веб-узел
active webpage	faol veb sahifa	активная веб-страница
activity registration	faoliyatni ro'yxatga kiritish	регистрация деятельности
activity zone of automated telephone station	avtomatik telefon stansiyasining xizmat zonasi	зона действия автоматической телефонной станции
activity zone of telecommunications operator	telekommunikatsiya operatorining xizmat doirasi	зона действия оператора телекоммуникаций
Ada language	Ada tili	язык Ada
adapter	adapter, moslagich	адаптер
address	manzil	адрес
address book	manzillar kitobi	адресная книга
address mask	manzil niqobi	адресная маска
address modification	manzillar turlanishi	модификация адресов
adjacent right symbol	tutash huquqlarni qo'riqlash nishoni	знак охраны смежных прав
administrative protection means	muhofazaning ma'muriy choralarini	административные меры защиты

INGLIZCHA	O'ZBEKCHA	RUSCHA
Adobe Systems corporation	Adobe Systems korporatsiyasi	корпорация Adobe Systems
advertising	reklama	реклама
advertising channel	yashirin kanal	скрытый канал
agent	agent	агент
Alcatel corporation	Alcatel korporatsiyasi	корпорация Alcatel
ALGOL language	ALGOL tili	язык ALGOL
algorithm	algoritm	алгоритм
alias	adashlar	алиас
allocation	joylashtirish	размещение
alpha testing	alfa-sinov	альфа тестирование
alphanumeric coding	harfiy-raqamli kodlash	буквенно-цифровое кодирование
AMD corporation	AMD korporatsiyasi	корпорация AMD
analog	analog, o'xshash	аналоговый
analog computer	analog kompyuter, o'xshash kompyuter	аналоговый компьютер
analog data form	ma'lumotlarning analog shakli	аналоговая форма данных
analog signal	analog signal	аналоговый сигнал
analogue modem	analog modem	аналоговый модем
analytic attack	tahliiy hujum	аналитическая атака
anchor	yakor	якорь
Andrew corporation	Andrew korporatsiyasi	корпорация Andrew
animation	animatsiya, multiplikatsiya	анимация
animitated GIF	animatsiyalangan GIF	анимированный GIF
anonymous FTP-access	FTPdan yashirin erkin foydalanish	анонимный доступ FTP
antenna	antenna	антенна
antiglare covering	yaltirashga qarshi ustki qatlam	антибликовое покрытие
antivirus software	virusga qarshi dastur	антивирусная программа
Apple Computer corporation	Apple Computer korporatsiyasi	корпорация Apple Computer
applet	applet	апплет
application	qo'llinma	приложение
application-level gateway	amaliy pog'ona shluzi	шлюз прикладного уровня
architecture	arkitektura, me'moriy tuzilma	архитектура
archive	arxiv	архив
archive business	arxiv ishi	архивное дело
archive document	arxiv hujjati	архивный документ
archive fund	arxiv fondi	архивный фонд
archiver	arxivator	архиватор
array	massiv	массив
array processor	matritsaviy protsessor	матричный процессор
artificial intelligence	sun'iy tafakkur	искусственный интеллект
artificial language	sun'iy til	искусственный язык
ASP page	ASP sahifasi	страница ASP
Assembly language	Assembler tili	язык Ассемблера
